

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

5/1-son (may 2025)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2025

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Ilyos, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (UrDU),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DO'SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, (UrDU),
IMOMQULOV Sevdior, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMATOV Rashid Yangibaevich, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
JUMANIYOZOV Zohid Otaboyevich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
KURAMBAYEV Sherzod Raimberganovich, texnika fanlari doktori, dotsent (UrDU),
MADRAXIMOVA Feruza Ruzimbayevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent (UrDPI),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SATIPOV G'oiptazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul kotib, UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 5/1-son (may 2025)**

MUASSIS: Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti •Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan •**GUVOHNOMA № 1131.**

Alishev Abdumannon (Jizzax davlat Pedagogika universiteti dotsenti, f.-m.f.n.),
Baxtiyorova Kamola (Jizzax davlat Pedagogika universiteti 3-kurs talabasi)
**BA'ZI INTEGRO-DIFFERENTIAL TENGLAMALAR SISTEMASINING ASIMPTOTIK
INTEGRALLASH**

Annotatsiya. Ushbu maqolada sekin o'zgaruvchi koeffitsiyentli integro-differensial tenglamalar sistemasi uchun asimptotik yechimlar tuzilgan. Ya'ni, ishda sekin o'zgaruvchi koeffitsiyentli chiziqli bo'lgan integro-differensial tenglamalar sistemasining xarakteristik tenglamasining bitta ildizi aynan nolga teng, qolganlari noldan farqli bo'lgan kritik hol uchun asimptotik yechimini tuzish qaralgan.

Kalit so'zlar: xarakteristik tenglama, umumlashtirilgan teskari matritsa, vektor matritsa, skalyar ko'paytma.

АСИМПТОТИЧЕСКОЕ ИНТЕГРИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ НЕКОТОРЫХ ИНТЕГРО-ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ

Аннотация. В данной статье построены асимптотические решения системы интегро-дифференциальных уравнений с медленно изменяющимися коэффициентами. Рассматривается построение асимптотического решения для критического случая, когда один из корней характеристического уравнения нелинейной системы интегро-дифференциальных уравнений равен нулю, а остальные отличны от него.

Ключевые слова: характеристические уравнения, обобщённо обратная матрица, векторная матрица, скалярное произведение.

ASYMPTOTIC INTEGRATION OF A SYSTEM OF CERTAIN INTEGRO-DIFFERENTIAL EQUATIONS

Annotation. This article constructs asymptotic solutions for a system of integro-differential equations with slowly varying coefficients. The study considers the construction of an asymptotic solution for the critical case where one root of the characteristic equation of the nonlinear system of integro-differential equations is exactly zero, while the remaining roots are nonzero.

Key words: characteristic equation, generalized inverse matrix, vector matrix, scalar product.

Kirish. Sekin o'zgaruvchi koeffitsiyentli differensial tenglamalar sistemasiga ko'plab differensial tenglamalar keltiriladi. Masalan, bir jinsli chegaraviy

$$y(a) = y(b) = 0 \quad (1)$$

shartni qanoatlantiruvchi

$$\frac{d^2 y}{dx^2} + (\lambda g(x) - \tau(x)) = 0, \quad (2)$$

bunda λ — katta parameter, $g(x), r(x), [a, b]$ kesmada berilgan funksiyalar, Shturm-Liuvilli tenglamasida

$$x = \tau = \varepsilon t \quad \varepsilon = \frac{1}{\sqrt{\lambda}} \quad (3)$$

almashtirishni bajarsak, undan

$$\frac{d^2 \bar{y}}{dt^2} + (g(\tau) + \varepsilon^2 r(\tau))y = 0, \quad (4)$$

ko'rinishidagi sekin o'zgaruvchi $g(\tau), r(\tau)$ koeffitsiyentli differensial tenglamaga ega bo'lamiz.

Sekin o'zgaruvchi koeffitsiyentli chiziqli differensial tenglamalar sistemasini o'rganish o'tgan asrning 50-yillarida S.F.Feshenkoning ishlari paydo bo'lgandan boshlagan. S.F.Feshenko tomonidan

$$\frac{d^2 y}{dt^2} + \varepsilon p(\tau, \varepsilon) \frac{dy}{dt} + g(\tau, \varepsilon)y = \varepsilon f(\tau, \varepsilon)e^{i\theta(\tau, \varepsilon)}, \quad (5)$$

ko'rinishidagi ikkinchi tartibli differensial tenglamaning asimptotik yechimini tuzish usulini taklif etgan, bunda $p(\tau, \varepsilon), g(\tau, \varepsilon)$ sekin o'zgaruvchi funksiyalar, $\tau = \varepsilon t, \varepsilon > 0$ kichik parametr.

Shunga o'xshash S.F.Feshenko tomonidan

$$A(\tau, \varepsilon) \frac{d^2 x}{dt^2} + \varepsilon C(\tau, \varepsilon) \frac{dx}{dt} + B(\tau, \varepsilon)x = f(\tau, \varepsilon)e^{i\theta(\tau, \varepsilon)} \quad (6)$$

differensial tenglamalar sistemasi ustida tadqiqot ishlarini olib borgan.

Sekin o'zgaruvchi koeffitsiyentli differensial tenglamalar sistemasining xarakteristik tenglamasining ildizlari karrali bo'lgan hollar N.I.Shkil [1,2] ishlarida o'rganilgan.

Yuqori tartibli hosila oldida parametr qatnashgan differensial tenglamalarni ham sekin o'zgaruvchi koeffitsiyentli differensialli tenglamalar sistemasini keltirish mumkin.

Masalan,

$$\varepsilon \frac{d^2 y}{dx^2} + p(x) \frac{dy}{dx} + g(x)y = 0, \quad (7)$$

tenglamada

$$y = \varepsilon t, \frac{dy}{dx} = z_2, x = \tau = \varepsilon t, \quad (8)$$

almashtirish olib, birinchi tartibli

$$\frac{dz}{dt} = A(\tau, \varepsilon)z \quad (9)$$

differensial tenglamalar sistemasini hosil qilamiz, bunda

$$A(\tau, \varepsilon) = A_0(\tau) + \varepsilon A_1(\tau, \varepsilon), \quad A_0(\tau) = \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ 0 & -p(\tau) \end{pmatrix}, \\ A_1(\tau) = \begin{pmatrix} 0 & 0 \\ -q(\tau) & 0 \end{pmatrix}, \quad z = \begin{pmatrix} z_1 \\ z_2 \end{pmatrix}.$$

Bu olimlarning o'quvchilari, asosan, chiziqli differensial tenglamalar sistemasi ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Ushbu ishda ularning ishlaridan farqli chiziqli bo'lmagan integro-differensial tenglamalar sistemasining xarakteristik tenglamasining bitta ildizi aynan nolga teng bo'lgan kritik hol uchun asimptotik yechimini tuzishga umumlashgan teskari matritsa usuli qo'llanilgan. Sekin o'zgaruvchi koeffitsiyentli differensial va differensial tenglamalar sistemasiga astrofizika, avtomatik tartibga keltirish, optimal boshqarish, gidrotexnikaning ko'pgina masalalari keltirilishini e'tiborga olsak, bu yo'nalish ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhimdir.

Masalaning qo'yilishi. Ushbu ishda

$$\varepsilon^q \frac{dx}{dt} = A(\tau, \varepsilon)x + \varepsilon^2 \int_0^L \mathcal{K}(\tau, \sigma, \varepsilon)x(s, \varepsilon)ds + \varepsilon f(\tau, x, \varepsilon), \quad (10)$$

ko'rinishidagi sekin o'zgaruvchi koeffitsiyentli chiziqli bo'lmagan integro-differensial tenglamalar sistemasining yaqinlashuvchi yechimlarini tuzish masalasini qaraymiz, bunda $x(t, \varepsilon)$ — noma'lum, berilgan n — o'lchovli $A(\tau, \varepsilon), \mathcal{K}(\tau, \sigma, \varepsilon)$ kvadrat matritsalar $\varepsilon > 0$ kichik parametrning darajalari bo'yicha yaqinlashuvchi darajali qatorga yoyiladi:

$$A(\tau, \varepsilon) = \sum_{m=0}^{\infty} \varepsilon^m A_m(\tau), \quad \mathcal{K}(\tau, \sigma, \varepsilon) = \sum_{m=0}^{\infty} \varepsilon^m \mathcal{K}_m(\tau, \sigma), \quad (11)$$

$f(\tau, x, \varepsilon)$ — vektor $(\tau, x_0, 0)$ nuqta atrofida Teylor qatoriga yoyiladi: $\tau = \varepsilon t, \sigma = \varepsilon s$

$\tau \in [0, L]$ oralqida sekin o'zgaruvchi bo'ladi, p va q o'zaro tub sonlar.

(10)-sistemasining asimptotik yechimi uning

$$\det[A_0(\tau) - \lambda(\tau)E] = 0, \quad (12)$$

(E — birlik matritsa) xarakteristik tenglamasining ildizlariga bog'liq.

(12) — tenglamaning ildizlaridan bittasi aynan nolga teng bo'lib, qolganlari noldan farqli bo'lgan [3,4] kritik hol uchun formal xususiy yechimini tuzish va bu yechimning asimptotik xarakterga ega ekanligi isbotlash masalasini qaraymiz.

(10)-sistemaning yechimini ko'rinishi p va q sonlar orasidagi munosabatlarga bog'liq bo'lgan $p > q$ va $p < q$ hollar uchun yechimlarni tuzishga umumlashgan teskari matritsa usulini qo'llaymiz.

Yechimni tuzish algoritmi. $p < q$ bo'lgan hol uchun (10)-sistemaning asimptotik yechimini quyidagi teorema ko'rsatadi.

1-teorema. Faraz qilaylik, quyidagi shartlar bajarilsin:

a) $A_m(\tau)$ ($m = 0, 1, 2, \dots$) matritsalar $\tau \in [0, L]$ o'zgaruvchi bo'yicha cheksiz differensiallanuvchi, (10)-tenglamaning yadrosi $\mathcal{K}_m(\tau, \sigma)$ ($m = 1, 2, \dots$) matritsalar $\forall \tau, \sigma \in [0, L]$ lar uchun τ o'zgaruvchi bo'yicha cheksiz uzliksiz xususiy hosilalarga ega bo'lsin;

b) $f(\tau, x, \varepsilon)$ vektor funksiya $p(\tau, x) \times (0 < \varepsilon \leq \varepsilon_0)$ sohada cheksiz differensiallanuvchi, bunda $p(\tau, x) - \tau$ va x o'zgaruvchilar fazosining ba'zi sohasi;

d) $\tau \in [0, L]$ kesmada $A_0(\tau)$ — matritsaning xos qiymatlari $\lambda_1(\tau) \equiv 0$,

$\operatorname{Re} \lambda_j(\tau) \leq 0$ ($j = \overline{2, n}$) shartni qanoatlantirsin. U holda (10)-sistema

$$x(t, \varepsilon) = \sum_{m=0}^{\infty} \mu^m u_m(\tau), \quad \mu = \sqrt[q]{\varepsilon} \quad (13)$$

ko'rinishidagi formal xususiy yechimga ega.

Isbot. Teoremani isbotlash qilish uchun (13)-qatorni (10)-sistemaga qo'yib, $f(\tau, x(\tau, \mu, \mu^q))$ vektor-funksiyani $(\tau, u_0, 0)$ nuqta atrofida Teylor qatoriga yoyilmasiga asosan,

$$\mu^p u'(\tau, \mu) = A(\tau, \mu^q)u(\tau, \mu) + \mu^{2q} \int_0^T \mathcal{K}(\tau, \sigma, \mu^q)u(s, \varepsilon)ds + \mu^q \{f(\tau, u_0, 0) + \mu f_u(\tau)u_1 + \dots + \mu^m [f_u(\tau)u_m(\tau) + f_{m-1}(\tau) + \tilde{f}_{m-1-q}(\tau)] + \dots\} \quad (14)$$

ayniyatni hosil qilamiz, bunda $f_u(\tau) = \frac{\partial f^i}{\partial u^a}$ matritsaning elementlari va $f_1(\tau) = \frac{\partial f}{\partial \mu}$ vektorning koordinatalari $(\tau, u_0(\tau), 0)$ nuqtada hisoblanadi, $f_u(\tau)$ –vektor $u_m(\tau)$

$(m = 1, 2, \dots)$ vektorlar orqali ifodalanadi.

(14) – ayniyatdan μ parametrning bir xil darajalari oldidagi koeffitsiyentlarini tenglashtirib (10)- qatorning noma'lum hadlarini aniqlash uchun

$$A_0(\tau)u_j(\tau)=0 \quad j = 0, 1, \dots, q-1, \quad (15)$$

$$A_0(\tau)u_q(\tau)=-A_1(\tau)u_0(\tau)-f(\tau, u_0(\tau), 0), \dots \quad (16)$$

$$A_0(\tau)u_m(\tau)=-A_1(\tau)u_{m-1}(\tau)-f_u(\tau)u_{m-1}(\tau)\sum_{i=2}^{\lfloor \frac{m}{q} \rfloor} A_i(\tau)u_{m-qi}(\tau)-f_{m-1}(\tau)+F_m(\tau), \quad (17)$$

bunda

$$F_m(\tau) = u'_{m-p}(\tau) - \sum_{i=2}^{\lfloor \frac{m}{q} \rfloor} A_i(\tau)u_{m-qi}(\tau) - \int_0^T \sum_{i=0}^{\lfloor \frac{m}{2q} \rfloor} \mathcal{K}_m(\tau, \sigma)u_{m-(2q-1)i}(s)ds - \tilde{f}_{m-q+2p-1}(\tau), \quad m = q, q+1, \dots$$

$(\lfloor \frac{m}{q} \rfloor, \frac{m}{q})$ sonning butun qismi) tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz.

(13)-qatorning noma'lum hadlarini aniqlash uchun (15) - (17) tenglamalarni yechimga ega ekanligini ko'rsatamiz.

(15)-tenglamadan [5] ga asosan,

$$u_j(\tau) = \varphi \eta_j(\tau), \quad j = 0, 1, \dots, q-1, \quad (18)$$

yechimlarni aniqlaymiz, bunda $\eta_j(\tau)$, $(j = 0, 1, \dots, q-1)$ keyingi qadamlarda aniqlanadigan noma'lum funksiyadir.

(16)-tenglamani (18) tenglamani nazarda tutib,

$$A_0(\tau)u_q(\tau)=-A_1(\tau)\varphi\eta_0(\tau)-f(\tau, \varphi\eta_0(\tau), 0) \quad (19)$$

ko'rinishida yozamiz. Bu tenglama yechimga ega bo'lish uchun uning o'ng tomoni $A_0(\tau)$ matritsaning qo'shmasi bo'lgan $A_0^*(\tau)$ matritsaning xos qiymatining transponerlangan ψ vektorga ortogonal bo'lishi zarur va yetarlidir:

$$(\psi, A_1\varphi\eta_0(\tau)) + (\psi, f(\tau, \varphi\eta_0(\tau))) = 0$$

yoki

$$(\psi, A_1(\varphi)\eta_0(\tau) + (\psi, f(\tau, \varphi\eta_0(\tau)))) = 0 \quad (20)$$

(20)-tenglama $\eta_0(\tau)$ -noma'lum funksiyaga nisbatan oshkormas, qulaylik uchun uni

$$Q(\tau, \varphi\eta_0(0)) = 0 \quad (21)$$

ko'rinishida yozamiz. Natijada $\eta_0(\tau)$ noma'lum funksiyaga nisbatan oshkormas tenglamani hosil qildik. Ushbu tenglama [6] – ishga asosan, oshkormas tenglama haqidagi teoremaning barcha shartlarini qanoatlantiradi, bu har bir aniq hol uchun tekshiriladi va undan $\eta_0(\tau)$ funksiya aniqlanadi.

(19)- tenglama uchun yechim mavjud bo'lish sharti bajarildi, u holda undan

$$u_q(\tau) = -A_0^+(\tau)[A_1(\tau)\varphi\eta_0(\tau) + f(\tau, \varphi\eta_0(\tau))] + \varphi\eta_q(\tau) \quad (22)$$

vektorni aniqlaymiz, bunda $\eta_q(\tau)$ –keyingi qadamda aniqlanadigan noma'lum funksiya, $A_0^+(\tau), A_0(\tau)$ matritsaga nisbatan umumlashgan teskari matritsa,

$$A_0^+(\tau) = [A_0(\tau) - (\psi \otimes \varphi)]^{-1} + (\varphi \otimes \psi) \quad (23)$$

ko'rinishga ega, bunda $\otimes$ vektorlarni tenzor ko'paytmasi belgisi.

Shu jarayonni davom ettirib, m-chi qadamda (17) tenglamani noma'lum funksiyalar aniqlangan deb

$$A_0(\tau)u_m(\tau)=-[A_1(\tau)-f_u(\tau)]\varphi\eta_{m-1}(\tau)-f_{m-1}(\tau)-F_m(\tau) \quad (24)$$

ko'rinishda yozamiz. Bu tenglama uchun yechim mavjud bo'lish sharti

$$(\psi, (A_1(\tau) - f_u(\tau)\varphi)\eta_{m-1}(\tau) + (\psi, (f_{m-1}(\tau) - F_m(\tau))) = 0 \quad (25)$$

ko‘rinishida bo‘ladi. (28)-tenglamadan $\eta_{m-1}(\tau)$ noma‘lum funksiya

$$\eta_{m-1}(\tau) = \frac{(\psi, (F_m(\tau) - f_{m-1}(\tau)))}{(\psi, (A_1(\tau) + f_u(\tau))\varphi)} \quad (26)$$

bo‘lishini aniqlaymiz. (25) shart (24) – tenglama uchun o‘rinli ekanligini nazarda tutib undan (13)-qatorning m-chi noma‘lum vektorni aniqlaymiz:

$$u_m(\tau) = -A_0^+(\tau)[A_1(\tau) + f_u(\tau))\varphi\eta_{m-1} - f_{m-1}(\tau) + F_m(\tau)] + \varphi\eta_m(\tau) \quad (27)$$

bunda $\eta_m(\tau)$ -keyingi qadamda aniqlanadigan noma‘lum funksiya, shunday qilib (15)-(17) tenglamalar sistemasidan (13) qatorning $u_m(\tau)$ ($m = 0, 1, 2, \dots$) vektorlarni aniqladik. Bu vektorlar teoremaning shartiga asosan $[0, L]$, kesmada istalgan tartibli hosilalarga ega. Teorema isbotlandi.

Formal xususiy yechimning asimptotik xossasi. Tuzilgan (13)-yechimni asimptotik xarakterga ega ekanligini ko‘rsataylik, buning ma‘nosi, agar formal qatorning dastlabki k –ta hadini olib hosil qilingan qismaniy yig‘indi x_k (k –ta yaqinlashuvchi) vektorni tuzsak, bu vektor tayinlangan k va $\varepsilon \rightarrow 0$ ga (10)-sistemaning aniq yechimiga intiladi. k –yaqinlashuvchi yechim

$$x_k(t, \varepsilon) = \sum_{m=0}^k \varepsilon^m u_m(\tau) \quad (28)$$

vektordan iborat.

Lemma. Agar birinchi teoremaning barcha shartlari bajarilsa, u holda k –yaqinlashuvchi $x_k(t, \varepsilon)$ yechim

$$\frac{dx_k}{dt} = A(\tau, \varepsilon)x_k + \varepsilon^s \int_0^T \mathcal{K}(\tau, \sigma, \varepsilon)x_k(s, \varepsilon)ds + \varepsilon f(\tau, x_m, \varepsilon) + \varepsilon^{k+1}R_k(\tau, \varepsilon) \quad (29)$$

integro-differensial tenglamani qanoatlantiradi, bunda $R_k(\tau, \varepsilon)$ - vektor funksiya $[0, L]$ kesmada chegaralangan qoldiq had.

Lemmani isbot qilish uchun (28)-ni (10)-sistemaga qo‘yamiz, birinchi teoreмага asosan, (28)-vektor (10) -sistemani $O(\varepsilon^{k+1})$ aniqlikda qanoatlantirishiga ishonch hosil qilamiz.

Faraz qilaylik, boshlang‘ich

$$V(\tau, \varepsilon)|_{\tau=0} = V_0, \quad (30)$$

shartni qanoatlantirsin.

$$\frac{dV}{dt} = A_0(\tau)V \quad (31)$$

tenglama $V(\tau, \varepsilon)$ yechimga ega bo‘lib, $\forall \tau \in [0, L]$ uchun

$$\|V(\tau, \varepsilon)\| \leq M \quad (32)$$

tengsizlikni qanoatlantirsin, bunda M, ε –ga bog‘liq bo‘lmagan o‘zgarmas.

1-teoremada tuzilgan yechimni asimptotik xarakterga ega ekanligini quyidagi teorema ko‘rsatadi.

2-teorema. Faraz qilaylik, (10) sistema uchun 1-teoremaning shartlari bajarilsin va:

a) $f(\tau, x, \varepsilon)$ –vektor funksiya o‘zgarmas l soni uchun Lipshits shartini qanoatlantirsin:

$$\|f(\tau, x, \varepsilon) - f(\tau, x_k, \varepsilon)\| \leq l\|x - x_k\|; \quad (33)$$

b) (32)-shart bajarilib,

$$x(t, \varepsilon)|_{t=0} = x_k(t, \varepsilon)|_{t=0} \quad (34)$$

tenglik o‘rinli bo‘lsin. U holda har qanday katta $L > 0$ va o‘zgarmas $\varepsilon > 0$ ga bog‘liq bo‘lmagan o‘zgarmas C uchun shunday $\varepsilon \in (0, \varepsilon_0]$ –ni mos qo‘yish mumkinki,

$0 \leq t \leq \frac{L}{\varepsilon}$ oraliqda

$$\|x(t, \varepsilon) - x_k(t, \varepsilon)\| \leq \varepsilon^{k+1-q}C, \quad (35)$$

tengsizlik o‘rinli boladi.

Isbot. (10)-sistemadan (29)-sistemani oshirib,

$$\frac{dz}{dt} = A_0(\tau)z + \varepsilon A_1(\tau, \varepsilon)z + \varepsilon^s \int_0^T P_k(\tau, \sigma)z(s, \varepsilon)ds + \varepsilon[f(\tau, x, \varepsilon) - f(\tau, x_k, \varepsilon)] + \varepsilon^k R_k(\tau, \varepsilon) \quad (36)$$

tenglamani hosil qilamiz, bunda

$$z(t, \varepsilon) = x(t, \varepsilon) - x_k(t, \varepsilon) \quad (37)$$

$$A_1(\tau, \varepsilon) = \sum_{k=1}^{\infty} \varepsilon^k A_k(\tau), P_k(\tau, \sigma) = K(\tau, \sigma) - K_k(\tau, \varepsilon)$$

(36)-tenglama

$$z(t, \varepsilon) = \varepsilon \int_0^t \{V(\tau, \varepsilon) \cdot V^{-1}(\tau, \varepsilon) z(\tau, \varepsilon) d\tau + \varepsilon^2 \int_0^t (\int_0^T P_k(\tau, \sigma) V(\tau, \varepsilon) V^{-1}(\tau, \varepsilon) z(\sigma, \varepsilon) d\sigma) d\tau + \varepsilon [f(\tau, x, \varepsilon) - f(\tau, x_k, \varepsilon)]\} d\tau + \varepsilon^{k+1} \int_0^t V(\tau, \varepsilon) \cdot V^{-1}(\tau, \varepsilon) R_k(\tau, \varepsilon) d\tau \quad (38)$$

integral tenglamaga ekvivalent.

(38)-tenglamadan norma olib, quyidagi tengsizlikka ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} \|z(t, \varepsilon)\| &= \varepsilon \left\| \int_0^T V(\tau, \varepsilon) \right\| \|V^{-1}(\tau, \varepsilon)\| \|A_1(\tau, \varepsilon)\| \|z(t, \varepsilon)\| dt \\ &+ \varepsilon^2 \int_0^t \left(\int_0^T \|P_k(\tau, \sigma)\| ds \right) \|z(t, \varepsilon)\| dt \leq \varepsilon (AN + LM) \int_0^t \|z(t, \varepsilon)\| \\ &dt + \varepsilon^2 \int_0^T H \|z(L, \varepsilon)\| dt + \varepsilon^{k+1-q} C, \end{aligned} \quad (39)$$

tengsizlikni hosil qilamiz (39) – ifodaga Gronuolla – Bellman [7] tengsizligini qo'llab, quyidagi tengsizlikni hosil qilamiz :

$$\|z(t, \varepsilon)\| = \|x(t, \varepsilon) - x_k(t, \varepsilon)\| \leq \varepsilon^{k+1-q} C, \quad (40)$$

Bunda:

$C = ML \exp(HN - LM)$, $[0, L]$ kesmada

$\|A_1(\tau, \varepsilon)\| \leq N$, $\|R_k(\tau, \varepsilon)\| \leq R$, $\|P_k(\tau, \sigma)\| \leq H$ tengsizliklar o'rinli.

2-teorema isbotlandi.

Xulosa. Ushbu ishda parametrga bog'liq sekin o'zgaruvchi koeffitsiyentli integro-differensial tenglamalar sistemasining, hosila oldidagi parametrning darajasiga bog'liq, $p < q$ va $p > q$ hollarining $p < q$ xoli uchun formal xususiy yechim tuzilib, uning asimptotik xossaga ekanligi isbotlandi. Ishning hajmi kattarib ketishini e'tiborga olib, $p > q$ bo'lgan hol uchun yechimni tuzish algoritmi $p < q$ holga o'xshashligini nazarda tutib shu hol maqolaga kiritilmadi. $p < q$ bo'lgan holda noma'lum $\eta_i(\tau)$ ($i = 0, 1, 2, \dots$) funksiyani aniqlash uchun algebraik tenglamalar hosil bo'ladi. $p > q$ bo'lgan hol uchun esa birinchi tartibli chiziqli integro-differensial tenglamalar hosil bo'ladi.

1. Eslatma. Ishda qarayotgan sistemaning xarakteristik tenglamasi k –karrali ildizga ega bo'lgan, ya'ni $A_0(\tau)$ matritsa k –karrali xos qiymatga ega bo'lib, unga bitta elementar bo'luvchi mos kelgan hol.

2. Eslatma. Qarayotgan sistemaning xarakteristik tenglamasi bitta n karrali ildizga ega bo'lib, unga shunday o'lchamli bitta elementar bo'luvchi mos kelgan hollar uchun asimptotik yechimlar tuzish masalasi o'rganiladi. Chunki ikkala hol uchun ham fan va texnikaning ko'plab masalalari keltiriladi. Shuning uchun ham bunday hollar ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Фиценко С.Ф., Шкиль Н.И., Николенко Л.Д. Асимптотические методы в теории линейных дифференциальных уравнений. “Наукова думка”, 1966, 252 с.
- (2). Шкиль Н. И. Асимптотические методы в дифференциальных уравнениях-К. “Виша школа”, 1971, 225 с.
- (3). Васильева А.Б., Бутузов В.Ф. Сингулярно-возмущенные уравнения в критических случаях. М., изд-во. Моск. ун-та, 1978, 106 с.
- (4). Васильева А.Б., Бутузов В.Ф. Асимптотическое разложение сингулярно возмущенных уравнений. М., “Наука”. 1973, 272 с.
- (5). Alishev A.A., Alishev Sh.A. Oddiy differensial tenglamalar sistemasini asimptotik integrallash. T., “Fan va texnika”, 2016, 260-bet.
- (6). Фихтенгольц Т.М. Основы математического анализа. Том 2, М., “Наука”, 1968, 463 с.
- (7). Беллман Р. Введение в теорию матриц. М., “Наука”, 1976, 351 с.

**Azimov Qaxramon, Rahimov Boyhuroz Shermuhammadovich (Jizzax Politehnika
instituti o'qituvchilari; e-mail: qaxramonazimov6@gmail.com)
SEZGIRLIKNI TAHLIL QILISHNING BIR USULI HAQIDA**

Annotatsiya. Quyida ko'rib chiqilayotgan masalada resurslarning o'zgarishi optimal yechimga ta'sirini, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ulgurji narxlarining o'zgarishi optimal yechimga qanday ta'sir qilish tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: model, maqsad funksiyasi, simplek usuli, optimal yechim.

**Азимов Кахраман, Рахимов Байхураз Шермухаммедович (преподаватели Джиззахского
политехнического института; e-mail: qaxramonazimov6@gmail.com)**

(О МЕТОДЕ АНАЛИЗА ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ)

Аннотация. Ниже рассматривается влияние изменения ресурсов на оптимальное решение, а также анализ того, как изменения оптовых цен на производимые товары влияют на оптимальное решение.

Ключевые слова: модель, целевая функция, метод симплекс, оптимальное решение.

Azimov Qahramon, Raximov Bayxoraz Shermuxammedovich (Teachers of Jizzakh Polytechnic Institute; e-mail: qahramonazimov6@gmail.com)

A METHOD FOR SENSITIVITY ANALYSIS

Annotation. Below is an analysis of how changes in resources affect the optimal solution, as well as an analysis of how changes in wholesale prices of produced goods influence the optimal solution.

Keywords: model, objective function, simplex method, optimal solution.

Kirish. Agar chiziqli dasturlash masalasi simpleks usuli bilan hal qilingan bo'lsa, u holda simpleks jadvalidan, optimal yechimning resurs zaxiralarning o'zgarishi, maqsad funksiyaning koeffitsiyentlaridagi farqlar va resurslarni iste'mol qilish intensivligiga sezgirligi haqida ma'lumot olish mumkin. Bunday, ma'lumotni olish qo'shimcha hisob-kitoblarni talab qiladi [1;3-b.].

Quyidagi ishlab chiqarish masalasini ko'rib chiqaylik. Birinchi zavod ikkita turdagi bo'yoq ishlab chiqaradi, ular ichki va tashqi ishlar uchun ishlatiladi. Ikkala turdagi mahsulot ham ulgurji savdoga chiqariladi. Bo'yoqlarni ishlab chiqarish uchun ikkita turdagi xomashyo A va B ishlatiladi. Ushbu xomashyolarning kunlik zaxiralari va tegishli bo'yoqlarni ishlab chiqarish uchun bir tonna sarfi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Xomashyo turlari	Bir tonna bo'yoq uchun xomashyo iste'moli (tonnada)		Kunlik xomashyo zaxiralari (tonnada)
	Tashqi bo'yoqlar	Ichki bo'yoqlar	
A	1	2	6
B	2	1	8

Savdo bozorini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ichki ishlarga mo'ljallangan bo'yoqqa bo'lgan kunlik talab hech qachon tashqi ishlarga mo'ljallangan bo'yoqqa bo'lgan talabdan 1 tonnadan ko'proq bo'lmaydi. Shuningdek, ichki ishlarga mo'ljallangan bo'yoqqa bo'lgan talab kuniga 2 tonnadan ortiq bo'lmasligi aniqlandi. Tashqi ishlarga mo'ljallangan bo'yoqning ulgurji narxi bir tonnasi uchun 3 pul birligini tashkil qiladi, ichki ishlarga mo'ljallangan bo'yoqning narxi esa bir tonnasi uchun 2 pul birligiga teng. Zavod har bir turdagi bo'yoqdan qanchadan ishlab chiqarish kerak, shunda mahsulotni sotishdan tushadigan daromad maksimal bo'ladi.

x_1 tashqi ishlarga mo'ljallangan bo'yoqning kunlik ishlab chiqarish hajmi va x_2 ichki ishlarga mo'ljallangan bo'yoqning kunlik ishlab chiqarish hajmi (tonnada) bo'lsin. Masalaning matematik modeli quyidagicha bo'ladi:

$$z = 3x_1 + 2x_2 \rightarrow \max, \begin{cases} x_1 + 2x_2 \leq 6, \\ 2x_1 + x_2 \leq 8, \\ -x_1 + x_2 \leq 1, \\ x_2 \leq 2, \\ x_j \geq 0, j = \overline{1,2}. \end{cases}$$

Sistemani qo'shimcha nomanfiy o'zgaruvchilar, x_3, x_4, x_5 va x_6 kiritish orqali kanonik ko'rinishda yozamiz:

$$z = 3x_1 + 2x_2 \rightarrow \max, \begin{cases} x_1 + 2x_2 + x_3 = 6, \\ 2x_1 + x_2 + x_4 = 8, \\ -x_1 + x_2 + x_5 = 1, \\ x_2 + x_6 = 2, \\ x_j \geq 0, j = \overline{1,6}. \end{cases}$$

Boshlang'ich bazaviy reja $x^1 = (0; 0; 6; 8; 1; 2)$ bo'lib, boshlang'ich simpleks jadvali quyidagicha bo'ladi (2-jadval).

2-jadval

$c_B \setminus c$			3	2	0	0	0	0	
	$a_B \setminus a$	b	a_1	a_2	a_3	a_4	a_5	a_6	θ
0	a_3	6	1	2	1	0	0	0	6
0	a_4	8	2	1	0	1	0	0	4
0	a_5	1	-1	1	0	0	1	0	
0	a_6	2	0	1	0	0	0	1	
	Δ	0	-3	-2	0	0	0	0	$\theta = 4$

3-jadval

Simpleks usulining ikkinchi iteratsiyasini bajarish orqali jadval 3 ni hosil qilamiz.

$c_B \setminus c$			3	2	0	0	0	0	
	$a_B \setminus a$	b	a_1	a_2	a_3	a_4	a_5	a_6	θ
2	a_2	4/3	0	1	2/3	-1/3	0	0	
3	a_1	10/3	1	0	-1/3	2/3	0	0	
0	a_5	3	0	0	-1	1	1	0	
0	a_6	2/3	0	0	-2/3	1/3	0	1	
	Δ	$12\frac{2}{3}$	0	0	1/3	4/3	0	0	

$x^3 = (\frac{10}{3}; \frac{4}{3}; 0; 0; 3; \frac{2}{3})$ reja optimal bo'lib, maqsad funksiyaning maksimal qiymatni $z_3 = 12\frac{2}{3}$.

Ya'ni, masalaning optimal yechimi, agar zavod $3\frac{1}{3}$ tonna tashqi ishlarga mo'ljallangan bo'yoq va $1\frac{1}{3}$ tonna ichki ishlarga mo'ljallangan bo'yoq ishlab chiqaradigan bo'lsa, uning mahsulotni sotishdan oladigan daromadi maksimal bo'lib, u kuniga $12\frac{2}{3}$ pul birligini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Endi modelni sezgirlik bo'yicha tahlil qilamiz. Ko'rib chiqilayotgan masalada optimal yechimga xomashyo zaxiralari va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga talabning o'zgarishlari qanday ta'sir qilishini aniqlash muhimdir [4].

Tadqiqot doirasida sezgirlik tahlilining quyidagi vazifalarini ko'rib chiqish mumkin.

1-sezgirlik tahlili vazifasi. Optimal yechim topilgandan so'ng, resurslarning o'zgarishi optimal yechimga qanday ta'sir qilishini aniqlash: a) ma'lum bir resursning zaxirasini qanday qilib oshirish mumkin, shunda olingan optimal maqsad funksiya qiymatini yaxshilash mumkin bo'ladi; b) ma'lum bir resursning zaxirasini qanday qilib kamaytirish mumkin, shunda olingan optimal maqsad funksiya qiymati o'zgarmaydi? Har bir resursning zaxirasi cheklovlarning o'ng tomonlarida belgilanganligi sababli, bu turdagi tahlil, odatda, "cheklovlarning o'ng tomoniga nisbatan modelning sezgirlik tahlili" deb ataladi.

Javob berishdan oldin, chiziqli modelning cheklovlarini bog'lovchi (aktiv) va bog'lamaydigan (passiv) cheklovlarga ajratish zarur. Agar ma'lum bir cheklov bog'lovchi bo'lsa, tegishli resursni kam resurslar toifasiga kiritish mumkin, chunki ular to'liq ishlatiladi. Bog'lamaydigan cheklovga mos keladigan resurs esa ortiqcha miqdorda mavjud bo'lgan resurslar toifasiga kiritilishi kerak.

Bizning misolimizda bog'lovchi cheklovlar quyidagilardir:

$$x_1 + 2x_2 + x_3 = 6, 2x_1 + x_2 + x_4 = 8,$$

bu cheklovlar mahsulotni optimal miqdorda ishlab chiqarish uchun to'liq sarflanadigan resurslarga tegishlidir. Bizda bunday resurslar xomashyo A va B hisoblanadi. $x_1 = \frac{10}{3}, x_2 = \frac{4}{3}$.

Bog'lamaydigan cheklovlar quyidagi cheklovlardir:

$$-x_1 + x_2 + x_5 = 1, x_2 + x_6 = 2,$$

bu cheklovlar bozorning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bo'lgan talabiga mos keladi. 5-jadvada resurslar, qo'shimcha o'zgaruvchilar, resurslarga mos keluvchi qo'shimchalar va resurslar holati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

5-jadval

Resurs	Qo'shimcha o'zgaruvchi	Resurs holati
Xomashyo A	$x_3 = 0$	Kam
Xomashyo B	$x_4 = 0$	Kam
Ichki ishlarga mo'ljallangan bo'yoqning ishlab chiqarish hajmini tashqi ishlarga mo'ljallangan bo'yoq ishlab chiqarish hajmi bilan solishtirganda, foydalanilmagan imkoniyatlar	$x_5 = 3$	Ortiqcha
Ichki ishlarga mo'ljallangan bo'yoqqa bo'lgan talab	$x_6 = \frac{2}{3}$	Ortiqcha

Tahlil va natijalar. 1-kam resursning maksimal ruxsat etilgan oshishi, bu topilgan optimal yechimni yaxshilashga imkon beradi, 2-ortqacha resursning zaxirasini maksimal ruxsat etilgan darajada kamaytirish, bu avval topilgan optimal maqsad funksiya qiymatini o'zgartirmaydi.

Cheklovlarning o'ng tomonlariga nisbatan modelni sezgirlik tahlil qilganda, resurslarning qiymatlari (foydalilik)ni aniqlash mumkin. So'nggi simpleks-jadvalining qiymatlaridan foydalanib, chiziqli dasturlash vazifasining maqsadli funksiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$z = 12\frac{2}{3} - \left(\frac{1}{3} \cdot x_3 + \frac{4}{3} \cdot x_4\right).$$

Model cheklovlari o'zgarganda, tegishli iqtisodiy baholar o'zgaradi. Masalan, resurs zaxirasining maksimal o'zgarishi, qaysi resursning zaxirasini birinchi bo'lib oshirish kerakligi haqidagi savolni hal etish kerak.

Resurs zaxirasining o'zgarishlari intervalini aniqlash uchun, 4-jadvalda bir qator qo'shimcha hisob-kitoblarni bajarish zarur. Aytaylik, ko'rib chiqilayotgan vazifada xomashyo A ning zaxirasi δ_1 miqdorga o'zgaradi. Ma'lumki, δ_1 miqdorini kiritish faqatgina cheklovlarining o'ng tomoniga (simpleks-jadvalining b ustuniga) ta'sir qiladi. Shunday qilib, resurs zaxirasining o'zgarishi faqat yechimning mumkinligiga ta'sir qilishi mumkin.

Xomashyo A ning o'zgarishiga mos keladigan simpleks jadvalining b ustunidagi elementlar quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$x_1 = \frac{10}{3} - \frac{1}{3}\delta_1, x_2 = \frac{4}{3} + \frac{2}{3}\delta_1, x_5 = 3 - \delta_1, x_6 = \frac{2}{3} - \frac{2}{3}\delta_1.$$

Cheklovlar $x_1 \geq 0, x_2 \geq 0, x_5 \geq 0$ va $x_6 \geq 0$ yordamida δ_1 ning o'zgarish intervalini aniqlaymiz, bu interval $[-2; 1]$ bo'ladi. Bu degani, xomashyo A ning zaxirasining 2 tondan ko'proq kamayishi yoki 1 tondan ko'proq oshishi mumkin emasligiga olib keladi va yangi o'zgaruvchilarga o'tishga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, maqsadli funksiyaning koeffitsiyentlaridagi har qanday o'zgarishlar faqatgina simpleks-jadvalining oxirgi satriga ta'sir qiladi. Bu degani, bunday o'zgarishlar mavjud yechimni optimal bo'lmashligiga olib kelishi mumkin. Bizning maqsadimiz, maqsadli funksiyaning koeffitsiyentlaridagi o'zgarishlar qiymatlari intervalini topishdir, bu intervallarni o'zgartirishda optimal o'zgaruvchilarning qiymatlari o'zgarmasligi kerak.

Biz daromadlilik koeffitsiyentining o'zgarishi bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirishni ko'rib chiqamiz. Ko'rib chiqilayotgan misolda tashqi ishlarga mo'ljallangan bir tonna bo'yoqning ulgurji narxi 3 dan $3 + \varepsilon_1$ gacha o'zgaradi, bunda ε_1 musbat yoki manfiy bo'lishi mumkin. Bu holatda maqsadli funksiya quyidagicha ifodalanadi: $z = (3 + \varepsilon_1)x_1 + 2x_2$. Agar boshlang'ich simpleks jadvalining ma'lumotlaridan foydalanib va yakuniy simpleks jadvalining ikkinchi va oxirgi satrlari (birinchi va oxirgi ustunlardan tashqari) quyidagicha bo'ladi:

$a_B \setminus a$	b	a_1	a_2	a_3	a_4	a_5	a_6
Δ	$12\frac{2}{3} + \frac{10}{3}\varepsilon_1$	0	0	$\frac{1}{3} - \frac{1}{3}\varepsilon_1$	$\frac{4}{3} + \frac{2}{3}\varepsilon_1$	0	0

Optimal o'zgaruvchilarning qiymatlari, Δ baholari vektorining barcha komponentalari nolga teng bo'lgan shartni qanoatlaniradigan ε_1 qiymatlarida o'zgaras qoladi. Demak, asosiy reja optima bo'lishi uchun quyidagi tengsizliklar bajarilishi kerak:

$$\frac{1}{3} - \frac{1}{3}\varepsilon_1 \geq 0, \frac{4}{3} + \frac{2}{3}\varepsilon_1 \geq 0.$$

Bu yerda $-2 \leq \varepsilon_1 \leq 1$.

Xulosa. Shunday qilib, tashqi ishlarga mo'ljallangan bir tonna bo'yoqning ulgurji narxini kamaytirish (ya'ni, maqsadli funktsiyaning koeffitsiyenti x_1 uchun) $3 + (-2) = 1$ pul birligigacha yoki uni $3 + 1 = 4$ pul birligigacha oshirishda optimal o'zgaruvchilarning qiymatlari o'zgaras qoladi. Ammo z maqsad funktsiyasining qiymati quyidagi tenglikka asosan, o'zgaradi: $z = 12\frac{2}{3} + \frac{10}{3}\varepsilon_1$.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Ашманов, С.А. Линейное программирование [текст]. М., "Наука", гл. ред. физ.мат. лит., 1981, 340 с.
- [2]. Sh.A.Saipnazarov, M.T.Ortiqova. Moliyaviy matematika. "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2017.
- [3]. E.K.Ummer. Basic Mathematics for Economics, Business, and Finance. USA, 2012.
- [4]. Таха, Хемди А. Введение в исследование операций [текст]. Пер. с англ. 7-е изд., М., Вильямс, 2005,

912 с.

Axmedov Nasriddin Baxodirovich (Alfraganus universiteti katta o'qituvchisi; nasriddinaxmedov@gmail.com)
ELASTIK TO'LDIRUVCHILI SILINDRIK QOBIQLARNING XUSUSIY CHASTOTALARI

Annotatsiya. Ishda variatsion tamoyil yordamida bo'ylama mustahkamlangan yupqa silindrik qobiqning to'ldiruvchi bilan dinamik o'zaro ta'sirida o'q bo'ylab siqilganda va kontaktdagi ishqalanishni hisobga olgan holda tebranishlari o'rganilgan. Qobiq va to'ldiruvchi orasidagi kontaktdagi ishqalanishni hisobga olgan holda, xususiy tebranishlar chastotasining aylana yo'nalishidagi to'lqin hosil bo'lishiga bog'liqligi qurilgan.

Kalit so'zlar: qobiq, tebranish, elastiklik moduli, deformatsiya, to'la energiya, ishqalanish koeffitsiyenti.

Ахмедов Насриддин Баходирович (старший преподаватель университета Алфраганус; nasriddinaxmedov@gmail.com)

СОБСТВЕННЫЕ ЧАСТОТЫ ЦИЛИНДРИЧЕСКИХ ОБОЛОЧЕК С УПРУГИМ ЗАПОЛНИТЕЛЕМ

Аннотация. В работе с помощью вариационного принципа исследуются колебания тонкой продольно подкрепленной цилиндрической оболочки при динамическом взаимодействии с заполнителем, при осевом сжатии и с учетом трения в контакте. Построены зависимости частоты собственных колебаний от волнообразования в окружном направлении с учетом трения в контакте между оболочкой и заполнителем.

Ключевые слова: оболочка, колебание, модуль упругости, деформация, полная энергия, коэффициент трения.

Akhmedov Nasreddin Bahodirovich (Senior Lecturer at Alfraganus University; nasriddinaxmedov@gmail.com)

NATURAL FREQUENCIES OF CYLINDRICAL SHELLS WITH ELASTIC FILLER

Annotation. Using the variational principle, the vibrations of a thin longitudinally reinforced cylindrical shell under dynamic interaction with a filler, under axial compression, and taking into account friction in contact are investigated. The dependences of the natural oscillation frequency on wave formation in the circumferential direction are constructed, taking into account the friction in contact between the shell and the filler.

Keywords: shell, vibration, modulus of elasticity, deformation, total energy, coefficient of friction.

Kirish. Mashinasozlikning turli sohalarida turli xil to'ldiruvchilarga ega bo'lgan silindrik qobiqlar keng qo'llaniladi. Bu esa, o'z navbatida, material va konstruksiyalarni ratsional konstruksiyalash va mustahkamlikka ishonchli hisoblash maqsadida ularning xususiyatlarini to'laroq hisobga olishni taqozo etadi. Konstruksiyaning yuk ko'tarish qobiliyatini yanada ishonchli tavsiflash uchun to'ldiruvchi tomonidan tashqi ta'sir kuchlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Shunday ta'sirlardan biri uning elastik muhitga tegishidir. To'ldirgich tomonidan bo'ladigan tashqi ta'sir kuchlari, aslida, sirtqi kuchlar bo'lib, qobiq bilan elastik to'ldirgich orasidagi kontaktdan kelib chiqadi. Aloqa murakkab xususiyatga ega bo'lib, turli omillarga

bog'liq: to'ldiruvchining mexanik ko'rsatkichlari, qobiq sirtining xususiyatlari va hokazo. Asosiy omillardan biri qobiq bilan to'ldiruvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan ishqalanish kuchlaridir. Bunday turdagi masalalarni yechish bir qator matematik qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lib, texnik hisob-kitoblar va modellashtirish jarayonida tez-tez uchraydigan zilzilabardoshlik, tebranish va boshqa masalalarda dinamik ta'sirlarni hisobga olish zarurati tufayli yanada murakkablashadi. Shunday qilib, ushbu maqolada ko'rib chiqilayotgan variatsion usul singari hisob-kitoblar uchun taqribiy usullarni ishlab chiqishning dolzarbligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bu yana shu bilan izohlanadiki, mazkur usul qobiq va sterjen tipidagi yupqa devorli konstruksiyalar nazariyasining bir-biriga zid bo'lmagan taqribiy tamoyillarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlarda tasvirlangan yechimlar, asosan, to'ldiruvchisiz mustahkamlangan silindrsimon qobiqlarga taalluqli ekanligini ta'kidlash lozim [1]. To'ldiruvchili silliq silindrik qobiqlarning tebranishlari [2;8-b.] ishlarda yetarlicha batafsil o'rganilgan [4]. Ishda bo'ylama qovurg'alar bilan kuchaytirilgan va elastik muhit bilan to'ldirilgan silindrik qobiqlarning tebranishlari tadqiq etilgan.

Masalaning qo'yilishi. Ushbu maqola o'q bo'ylab siqilganda va qobiq hamda to'ldiruvchi orasidagi ishqalanishni hisobga olgan holda, diskret taqsimlangan bo'ylama qovurg'alar tizimlari bilan mustahkamlangan to'ldiruvchili silindrik qobiqlarning erkin tebranishlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tizimning xususiy tebranishlar chastotasi parametrlariga tashqi muhit omillarining ta'siri tahlil qilingan.

Masala energetik usul bilan hal qilindi. O'q bo'ylab siquvchi kuchlar ta'sirida yuklangan qobiqning potensial energiyasi quyidagi ko'rinishga ega [1]:

$$\begin{aligned} \Theta = & \frac{Eh}{2(1-\nu^2)} \int_0^{\xi_1} \int_0^{2\pi} \left\{ \left(\frac{\partial u}{\partial \xi} + \frac{\partial v}{\partial \theta} - w \right)^2 + 2(1-\nu) \frac{\partial u}{\partial \xi} \left(\frac{\partial v}{\partial \theta} - w \right) - \right. \\ & \left. - \frac{1}{4} \left(\frac{\partial u}{\partial \theta} + \frac{\partial v}{\partial \xi} \right)^2 \right\} d\xi d\theta + \frac{Eh}{24(1-\nu^2)R^2} \int_0^{\xi_1} \int_0^{2\pi} \left(\frac{\partial^2 w}{\partial \xi^2} + \frac{\partial^2 w}{\partial \theta^2} + \frac{\partial v}{\partial \theta} \right)^2 - \\ & - 2(1-\nu) \left[\frac{\partial^2 w}{\partial \xi^2} \left(\frac{\partial^2 w}{\partial \theta^2} + \frac{\partial v}{\partial \theta} \right) - \frac{1}{4} \left(\frac{\partial^2 w}{\partial \xi \partial \theta} + \frac{\partial v}{\partial \xi} \right)^2 \right] d\xi d\theta + \\ & + \frac{E_c}{2R} \sum_{i=1}^k \int_0^{\xi_1} \left[F_c \left(\frac{\partial u}{\partial \xi} - \frac{h_c}{R} \frac{\partial^2 w}{\partial \xi^2} \right)^2 + \frac{I_{yc}}{R^2} \left(\frac{\partial^2 w}{\partial \xi^2} \right)^2 + \frac{G_c}{E_c} I_{kp.c} \times \frac{G_c}{E_c} I_{kp.c} \left(\frac{\partial^2 w}{\partial \xi \partial \theta} + \frac{\partial v}{\partial \xi} \right)^2 \right]_{\theta=\theta_1} d\xi - \\ & - \frac{\sigma_x h}{2} \int_0^{\xi_1} \int_0^{2\pi} \left(\frac{\partial w}{\partial \xi} \right)^2 d\xi d\theta - \frac{\sigma_x F_c}{2R} \sum_{i=1}^k \int_0^{\xi_1} \left(\frac{\partial w}{\partial \xi} \right)^2 \Big|_{\theta=\theta_1} d\xi \end{aligned} \quad (1)$$

Bu yerda $\xi_1 = \frac{L}{R}$, $\xi = \frac{x}{R}$, $\theta = \frac{y}{R}$; x, y, z – koordinatalar, E_c, G_c – bo'ylama qovurg'alar materialining elastiklik va siljish modullari, k esa bo'ylama qovurg'alar soni, σ_x – o'q bo'ylab siquvchi kuchlanishlar, u, v, w – qobiqning ko'chish vektori tarkibiy qismlari, h va R – mos ravishda, qobiqning qalinligi va radiusi, E va ν – qobiq materialining Yung moduli va Puasson koeffitsiyenti, $F_c, I_{yc}, I_{kp.c}$ – tegishli ravishda, bo'ylama sterjenning ko'ndalang kesimining OX va OZ o'qlariga nisbatan yuzalari va inersiya momentlari, shuningdek, buralish paytidagi inersiya momenti.

Qobiqning kinetik energiyasi quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} K = & \frac{Eh}{2(1-\nu^2)} \int_0^{\xi_1} \int_0^{2\pi} \left[\left(\frac{\partial u}{\partial t_1} \right)^2 + \left(\frac{\partial v}{\partial t_1} \right)^2 + \left(\frac{\partial w}{\partial t_1} \right)^2 \right] d\xi d\theta \\ & + \frac{\overline{\rho_c} E_c F_c}{2R(1-\nu^2)} \sum_{i=1}^{k_1} \int_0^{\xi_1} \left[\left(\frac{\partial u}{\partial t_1} \right)^2 + \left(\frac{\partial w}{\partial t_1} \right)^2 \right]_{\theta=\theta_1} d\xi \end{aligned} \quad (2)$$

Bu yerda $\overline{\rho_c} = \frac{\rho_c}{\rho_0}$ va ρ_0, ρ_c – qobiq va bo‘ylama sterjen materiallarining mos ravishda zichlik-

$$\text{lari, } \theta_i = \frac{2\pi}{k_1} i$$

To‘ldiruvchining qobiq bilan o‘zaro ta’siri tizimni deformatsiyalangan holatdan dastlabki deformatsiyalanmagan holatga o‘tkazish jarayonida kontakt yuzasining siljishlari natijasida ish bajaradigan, qobiqqa qo‘yilgan sirt yuki sifatida tavsiflanadi.

$$A_0 = - \int_0^{\xi_1} \int_0^{2\pi} (q_x u + q_\theta v + q_z w) d\xi d\theta + \int_0^{\xi_1} \int_0^{2\pi} f q_z (u + v) d\xi d\theta \quad (3)$$

Bu yerda q_x, q_θ, q_z – to‘ldiruvchining qobiqqa ko‘rsatayotgan bosimi, f – ishqlanish koeffitsiyenti. Tizimning to‘liq energiyasi quyidagicha:

$$\Pi = \mathcal{D} + K + A_0 \quad (4)$$

Muhitning vektor shaklidagi harakat tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega [2;3-b.]:

$$a_e^2 \text{grad div } \vec{S} - a_t^2 \text{rot rot } \vec{S} + \omega^2 \vec{S} = 0, \quad 0 \leq x \leq L, 0 \leq r \leq R \quad (5)$$

Bu yerda: $a_t^2 = (\lambda + 2\mu)/\rho$, $a_e^2 = \mu/\rho$ hamda a_t, a_e – to‘ldirgichdagi bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqinlarning tarqalish tezliklari, tegishlicha; $S = S(S_x, S_\theta, S_z)$ – ko‘chish vektori; λ, μ – Lamé koeffitsiyentlari. Muhitning harakat tenglamalari tizimiga (5) kontakt shartlari qo‘shiladi. Qobiq va to‘ldiruvchi o‘rtasidagi aloqa qattiq, deb faraz qilinadi, ya’ni $r = R$

$$u = S_x; \quad v = S_\theta; \quad w = S_z \quad (6)$$

$$q_x = -\sigma_{rx}, q_y = -\sigma_{r\theta}, \quad q_z = -\sigma_{rr}, w = S_r \quad (7)$$

Komponentlari $\sigma_{rx}, \sigma_{r\theta}, \sigma_{rr}$ – kuchlanish tenzorlari quyidagicha aniqlanadi [2;3]:

$$\begin{aligned} \sigma_{rx} &= \mu_s \left(\frac{\partial S_x}{\partial r} + \frac{\partial S_r}{\partial x} \right); \quad \sigma_{r\theta} = \mu_s \left[r \frac{\partial}{\partial r} \left(\frac{S_r}{r} \right) + \frac{1}{r} \frac{\partial S_r}{\partial \theta} \right], \\ \sigma_{rr} &= \lambda_s \left(\frac{\partial S_r}{\partial x} + r \frac{\partial}{\partial r} \left(\frac{S_r}{r} \right) + \frac{1}{r} \frac{\partial S_\theta}{\partial \theta} \right) + 2\mu_s \frac{\partial S_r}{r} \end{aligned} \quad (8)$$

λ_s, μ_s – muhit uchun Lamé koeffitsiyentlari.

Yechim usuli. Bundan keyin chetlari sharnirli mahkamlangan qobiqlar ko‘rib chiqiladi. Bunday qobiqlarning ko‘chish vektori tarkibiy qismlarini quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$\begin{aligned} u &= A \cos kx \cos n\varphi \exp(i\omega_1 t_1), \\ \vartheta &= B \sin kx \sin n\varphi \exp(i\omega_1 t_1), \\ w &= C \sin kx \cos n\varphi \exp(i\omega_1 t_1) \end{aligned} \quad (9)$$

bunda A, B, C – noma’lum doimiy miqdorlar; $k = \frac{m\pi}{L}$ ($m = 1, 2, \dots$), m, n – bo‘ylama va aylanma yo‘nalishlardagi to‘lqin sonlari, tegishlicha, qobiq uzunligi,

$$\omega_1 = \frac{\omega}{\omega_0}, \quad t_1 = \omega_0 t, \quad \omega_0 = \sqrt{\frac{E}{(1-\nu^2)\rho_0 R^2}}, \quad \omega_1 = \sqrt{\frac{(1-\nu^2)\rho_0 R^2 \omega^2}{E}}$$

Mustahkamlangan qobiq va mustahkamlanmagan qobiqning og‘irliklari teng bo‘lganda, ularning xususiy chastotalari va bilan belgilanadi.

(5) tizimning yechimlari quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi [3]:

a) to‘ldiruvchining tizim tebranish jarayoniga inersial ta’siri kichik bo‘lgan holda:

$$\begin{aligned}
S_x &= \left[\left(-kr \frac{\partial I_n(kr)}{\partial r} - 4(1-\nu_s) k I_n(kr) \right) A_s + k I_n(kr) B_s \right] \cos n\varphi \cos kx \exp(i\omega_1 t_1) \\
S_\varphi &= \left[-\frac{n}{r} I_n(kr) B_s - \frac{\partial I_n(kr)}{\partial r} \gamma_1 r C_s \right] \sin \varphi \cos kx \exp(i\omega_1 t_1) \\
S_r &= \left[-k^3 r I_n(kr) A_s + \frac{\partial I_n(kr)}{\partial r} B_s + \frac{n}{r} I_n(kr) C_s \right] \cos n\varphi \sin kx \exp(i\omega_1 t_1)
\end{aligned} \tag{10}$$

b) tizimning tebranish jarayoniga to'ldiruvchining inersiya ta'siri sezilarli darajada muhim:

$$\begin{aligned}
S_x &= \left[A_s k I_n(\gamma_e r) - \frac{C_s \gamma_e^2}{\partial r} I_n(\gamma_1 r) \right] \cos n\varphi \cos kx \exp(i\omega_1 t_1) \\
S_\varphi &= \left[-\frac{A_s n}{r} I_n(\gamma_e r) - \frac{C_s n k}{r \mu} I_n(\gamma_1 r) - \frac{B_s}{n} \frac{\partial I_n(\gamma_1 r)}{\partial r} \right] \sin n\varphi \sin kx \exp(i\omega_1 t_1) \\
S_r &= \left[A_s \frac{\partial I_n(\gamma_e r)}{\partial r} - \frac{C_s k}{\mu_1} \frac{\partial I_n(\gamma_1 r)}{\partial r} + \frac{B_s}{r} I_n(\gamma_1 r) \right] \cos n\varphi \sin kx \exp(i\omega_1 t_1)
\end{aligned} \tag{11}$$

Bu yerda: In-birinchi turdagi n-tartibli o'zgartirilgan Bessel funksiyasi, A_s, B_s, C_s - doimiylar.

(6) kontakt shartlaridan, (9) qobiqlarning siljishidan, (10) va (11) muhit harakati tenglamasining yechimidan foydalanib, doimiy miqdorlarni ifodalab beramiz. A_s, B_s, C_s dan keyin. A, B, C natijada quyidagilarni q_x, q_θ, q_r topamiz:

$$\begin{aligned}
q_x &= (\tilde{C}_{x1} A + \tilde{C}_{x2} B + \tilde{C}_{x3} C) \cos n\varphi \cos kx \exp(i\omega_1 t_1) \\
q_\theta &= (\tilde{C}_{\theta1} A + \tilde{C}_{\theta2} B + \tilde{C}_{\theta3} C) \sin n\varphi \sin kx \exp(i\omega_1 t_1) \\
q_r &= (\tilde{C}_{r1} A + \tilde{C}_{r2} B + \tilde{C}_{r3} C) \cos n\varphi \sin kx \exp(i\omega_1 t_1)
\end{aligned} \tag{12}$$

(12)ni (3)ga qo'yib, θ hamda φ bo'yicha integrallaganimizdan so'ng, qobiqqa ta'sir etuvchi to'ldiruvchi tomonidan taqsimlangan yuklamalarning ishi uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$\begin{aligned}
A &= -R^2 \pi \left[S_2 \tilde{C}_{x1} A^2 + (S_2 \tilde{C}_{x2} + S_1 \tilde{C}_{\theta1}) AB + (S_2 \tilde{C}_{x3} + S_1 \tilde{C}_{r1}) AC + \right. \\
&\quad \left. + S_1 (\tilde{C}_{\theta3} + \tilde{C}_{r2}) BC + S_1 \tilde{C}_{\theta2} B^2 + S_1 \tilde{C}_{r3} C^2 \right]
\end{aligned} \tag{13}$$

Bu yerda $\tilde{C}_{ra}$ doimiy $S_1 = \frac{1}{2} - \frac{\sin 2k\xi_1}{4k}$

Sistemaning to'liq energiyasi uchun (1), (2), (13) dan foydalanib, A,B,C o'zgarmaslarning parametrlariga nisbatan ikkinchi tartibli ko'phadni olamiz:

$$\begin{aligned}
\Pi &= (\tilde{\varphi}_{11} - S_2 \tilde{C}_{x1} - \psi_{11} \omega_1^2) A^2 + (\tilde{\varphi}_{22} - S_1 \tilde{C}_{\theta2} - \psi_{22} \omega_1^2) B^2 + \\
&\quad + (\tilde{\varphi}_{23} - S_1 \tilde{C}_{r3} - \psi_{33} \omega_1^2 + I_1 \sigma_x) C^2 + (\tilde{\varphi}_{44} - S_2 \tilde{C}_{x2} + S_1 \tilde{C}_{\theta1}) AB + \\
&\quad + (\tilde{\varphi}_{55} - S_2 \tilde{C}_{x3} + S_1 \tilde{C}_{r1}) AC + S_1 (\tilde{\varphi}_{66} + \tilde{C}_{\theta3} + \tilde{C}_{r2}) BC
\end{aligned}$$

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, qiymatlar $\tilde{\varphi}_{ii} (i=1,2,\dots,6)$, $\psi_{ii} (i=1,2,\dots,6)$, $I_i (i=1,2)$ juda katta ko'rinishga ega, shu sababli ularni bu yerda keltirib o'tirmaymiz.

Hisob-kitob natijalarini tahlil qilish. Qovurg'alar soni va to'ldiruvchilar bikrligining o'q bo'ylab siqilishning kritik kuchlanishiga ta'sirini o'rganish natijalarini taqdim etamiz. Hisob-kitoblar quyidagi parametrlarga ega bo'lgan qobiq, muhit va qovurg'alar uchun amalga oshirildi:

Hisoblash natijalari 1-rasmda keltirilgan. Bu yerda bog'liqlik keltirilgan $\omega = \omega_1 \omega_0$ O'q bo'ylab siqilish kuchlanishidan. 1-rasmdan ko'rinish turibdiki, kuchlanish ortishi bilan tizim chastotasi pasayadi. Bundan tashqari, ishqalanishni hisobga olish tekshirilayotgan konstruksiyaning xususiy chastotasi qiymatining pasayishiga olib keladi.

Ta'kidlanganidek, mustahkamlagichning optimal parametrlarini aniqlash usuli qovurg'ali va silliq silindrik qobiqning minimal tebranish chastotalarini taqqoslashga asoslangan. Bu qobiqlar bo'ylama qovurg'a tizimlari bilan kuchaytirilgan va muhit bilan to'ldirilgan.

O'zgaruvchan parametrlar sifatida quyidagilar qaraladi: qobiqning nisbiy qalinligi $h^* = h / R$ Bo'ylama va ko'ndalang qovurg'alar orasidagi masofalarning qobiq qalinligiga nisbati hamda barcha qovurg'alar og'irligining qobiq og'irligiga nisbati ϕ'_1 bo'ylama qovurg'alar og'irligining ko'ndalang qovurg'alar og'irligiga nisbati ϕ'_2 . Bunda qobiqning radiusi va uzunligi, shuningdek, bo'ylama va ko'ndalang qovurg'alar kesimi shaklining xususiyatlari oldindan berilgan deb hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, to'g'ri to'rtburchakli kesimlar uchun nisbatlarni ko'rsatish zarur. ψ_1 va ψ_2 . Bo'ylama va halqasimon qovurg'alarining bandliklarini ularning qalinliklariga nisbati. (1) va (2) ga kiruvchi qovurg'alarining o'lchamsiz xususiyatlari quyidagi parametrlar orqali ifodalanadi:


$$\begin{aligned}\bar{\gamma}_c^{(1)} &= \frac{\phi'_1 \phi'_2}{1 + \phi'_2}, \quad \bar{\gamma}_s^{(2)} = \frac{\phi'_1}{1 + \phi'_2}, \quad \frac{h_c}{R} = -\frac{h^*}{2} (1 + \sqrt{a_1 \phi_1 \bar{\gamma}_c^{(1)}}), \\ \mu_{s2} &= \frac{1-\nu}{6} \frac{a_2}{\psi_2} (h^*)^2 (\bar{\gamma}_s^{(2)})^2; \quad \frac{h_c}{R} = -\frac{h^*}{2} \left(1 + \left(1 + \frac{1}{k_1} \right) \sqrt{a_1 \phi_1 \bar{\gamma}_c^{(1)}} \right), \\ \eta_{s1}^{(2)} &= \bar{\gamma}_{s1}^{(2)} \bar{\gamma}_s^{(2)} \frac{a_2 \psi_2 (h^*)^2}{12}, \quad \eta_{s1}^{(2)} = \bar{\gamma}_{s1}^{(2)} \bar{\gamma}_s^{(2)} \frac{a_2 \psi_2 (h^*)^2}{12}, \\ \eta_c^{(1)} &= \bar{\gamma}_c^{(1)} \left[\frac{a_1}{12} \psi_1 \bar{\gamma}_c^{(1)} (h^*)^2 + \left(\frac{h_c}{R} \right)^2 \right], \quad \mu_{s1} = \frac{1-\nu}{6} (h^*)^2 (\bar{\gamma}_c^{(1)})^2 \frac{a_1}{\psi_1}\end{aligned}$$

Bunday joylashtirishda tadqiqot natijasi qobiq materialining xususiyatlariga deyarli bog'liq emas, chunki ($\omega_{\min}^2$) Ma'lumki, ν Puasson koeffitsiyentiga kam darajada bog'liq bo'ladi, ularning munosabati μ Elastiklik moduliga bog'liq emas. Shuni ta'kidlash joizki, qobiqning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish uchun parametrlarning shunday muvofiqligini topish lozim. h^* , a_1 , a_2 , ϕ'_1 va ϕ'_2 bunda μ eng katta qiymatga ega bo'ladi.


Qirralarning nisbiy og'irliklariga bog'liq o'zgarishlarni ko'rsatuvchi misol sifatida, muhit bilan to'ldirilgan silindrsimon qobiqlarning bo'ylama mustahkamlangan qovurg'alar tizimlari bilan kuchaytirilgan holati uchun hisoblash natijalari keltirilgan.

Hisoblash natijalari 2-rasmda egri chiziqlar tarzida ko'rsatilgan. $\mu(\phi'_1)$ turli qiymatlar uchun ϕ'_2 Uzlüksiz egri chiziqlar qovurg'ali qobiqning muhit bilan tebranishlariga muvofiq keladi.

Hisoblash natijalarini tahlil qilganda, qobiqning eng yaxshi yuk ko'tarish qobiliyatiga faqat ko'ndalang qovurg'alar bilan mustahkamlash orqali erishilganligi osonlikcha ko'zga tashlanadi. ($\phi'_2 = 0$), ular uchun $\mu_{\max} = 16,3$. Bu nuqtaning absissasi 0,50 ga teng.



1-rasm. Tizim chastotasining $\omega = \omega_1 \omega_0$ siquvchi kuchlanishlarga bog'liqligi



2-rasm. Qirralarning nisbiy og'irligiga μ bog'liq o'zgarishlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Амиро И.Я., Заруцкий В.А. Теория ребристых оболочек. Методы расчета оболочек. «Наукова думка», 1980, 367 с.
- (2). Ильгамов М.А., Ильгамов М.А., Иванов В.А., Гулин Б.А. Прочность, устойчивость и динамика оболочек с упругим заполнителем. М., «Наука», 1977, 331 с.
- (3). Латифов Ф.С. Колебания оболочек с упругой и жидкой средой. Баку, «Элм», 1999, 164 с.
- (4). Alexey A. Semenov. Model of deformation stiffened orthotropic shells under dynamic loading. Journal of Siberian Federal University. Mathematics and Physic, 2016, 9(4), p. 485–497.
- (5). Босьяков С.М., Чживэй В. Анализ свободных колебаний цилиндрических оболочек из стеклопластика при граничных условиях Навье. Механика машин, механизмов и материалов. 2011, № 3, с. 24–27.
- (6). F.S.Latifov, F.A.Seyfullayev, Sh.Sh.Alyev. Free vibrations reinforced by transverse ribs of an anisotropic cylindrical shell made of fiberglass with a liquid flowing in it. Applied mechanics and technical physics. 2016, Vol. 57, № 4, pp. 158–162.
- (7). A.I.Seyfullayev, K.A.Novruzova, Oscillations of longitudinally reinforced orthotropic cylindrical shell filled with a viscous fluid, Eastern-European Journal of Enterprise Technologies, (2015), № 3/7 (75), p. 29–33.
- (8). Мамедов Дж.Н. Свободные колебания цилиндрических оболочек с заполнителем, усиленными продольными ребрами при осевом сжатии с учетом дискретных размещений ребер. «Механика машиностроение», 2007, № 4, с. 7–11.

**Teshaev Muhsin Xudoyberdiyevich (Buxoro davlat Texnika universiteti professori; muhsin_5@mail.ru),
Ergasheva Nilufar Mansurovna (Buxoro davlat Texnika universiteti katta o'qituvchisi; nilu_1221@mail.ru)
TOVUSH TEZLIGIDAN KATTA BO'LMAGAN TEZLIKDA HARAKATLANUVCHI
NUQTAVIY MANBADAN HOSIL BO'LADIGAN TO'LQIN XUSUSIYATLARI**

Annotatsiya. Ushbu ishda dissipativ bir jinsli bo'lmagan qovushqoq-elastik gradiyent-elastik yarim fazo va Kossera muhitidan iborat uzun to'lqin o'tkazgichlarda kompleks faza tezligining bir nechta modasi-ning to'lqin soniga nisbatan o'zgarishiga hamda olingan natijalar asosida to'lqinning so'nishiga solishtir-
ma baho berildi. Ideal elastik muhitdan farqli qovushqoq-elastik gradiyent-elastik yarim fazo va Kossera muhitida paydo bo'ladigan yangi ko'ndalang to'lqinning faza tezligi va so'nishi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Kossera muhiti, kompleks faza tezligi, qovushqoq-elastik gradiyent-elastik yarim fazo, Xevisayd funksiyasi, normal kuchlanish, normal ko'chish.

**Тешаев Мухсин Худойбердиевич (профессор Бухарского государственного технического университета; muhsin_5@mail.ru),
Эргашева Нилуфар Мансуровна (старший преподаватель Бухарского государственного технического университета; nilu_1221@mail.ru)**

СВОЙСТВА ВОЛН, СОЗДАВАЕМЫХ ТОЧЕЧНЫМ ИСТОЧНИКОМ, ДВИЖУЩИМСЯ СО СКОРОСТЬЮ, НЕ ПРЕВЫШАЮЩЕЙ СКОРОСТЬ ЗВУКА

Аннотация. В работе дана сравнительная оценка изменения нескольких мод комплексной фа-
зовой скорости от волнового числа в длинных волноводах, состоящих из диссипативно- неоднород-
ного вязкоупругого градиентно-упругого полупространства и среды Коссера, и затухания волн на

основе полученных результатов. Исследованы фазовая скорость и затухание новой поперечной волны, возникающей в вязкоупругом градиентно-упругом полупространстве и среде Коссера, которые отличаются от идеальной упругой среды.

Ключевые слова: среда Коссера, комплексная фазовая скорость, вязкоупругое градиентно-упругое полупространство, функция Хевисайда, нормальное напряжение, нормальное смещение.

Teshaev Muhsin Khudoyberdiyevich (Professor of Bukhara State Technical University; muhsin_5@mail.ru),
Ergasheva Nilufar Mansurovna (Senior Lecturer, Bukhara State Technical University; nilu_1221@mail.ru)

PROPERTIES OF WAVES GENERATED BY A POINT SOURCE MOVING AT UP TO THE SPEED OF SOUND

Annotation. In this work, a comparative assessment of the variation of several modes of the complex phase velocity with wave number in long waveguides consisting of a dissipative inhomogeneous viscoelastic gradient-elastic half-space and a Kossera medium and the wave attenuation based on the obtained results were given. The phase velocity and attenuation of a new transverse wave that appears in a viscoelastic gradient-elastic half-space and a Kossera medium, which are different from ideal elastic media, are studied.

Keywords: Cossera medium, complex phase velocity, viscoelastic gradient-elastic half-space, Heaviside function, normal stress, normal displacement.

Kirish. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yer usti va yer osti inshootlari zilzilabardoshligi sohasida qo'llaniladigan materiallarning, shu jumladan, ko'p qatlamli murakkab tarkibga va fizik xossalarga ega bo'lgan muhitlarni mustahkamligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada materialning qovushqoq-elastiklik xususiyatini hisobga olib, dinamik masalalar yechish borasida sezilarli natijalarga erishildi. Xususan, konstruksiyalarni buzmasdan, to'liq tarqalish xususiyatlarini o'rganish orqali ularning mustahkamligini baholashga alohida e'tibor berishmoqda. Eng ko'p qo'llanishi talab etiladigan umumlashtirilgan (klassik bo'lmagan) muhitlar orasida mikropolyar Kossera muhiti va gradiyent-elastik muhit ushbu sinfga tegishli. Bunday muhitlarda to'liq tarqalishi jarayonlarini o'rganish, metodikasi va algoritimini yaratish, sonli natijalar olish, tahlil qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Faraz qilaylik, yarim tekislik sirtida nuqtaviy kuch D tezlik bilan harakatlansin. Uning tezligi bo'ylama va ko'ndalang to'liq tezliklaridan oshib ketmaydi. Bu holatda muhitda to'liq tarqalishini ifodalovchi tenglamalar quyidagicha bo'ladi

$$\begin{aligned}\frac{\partial \sigma_{x'x'}}{\partial x'} + \frac{\partial \sigma_{y'x'}}{\partial y'} &= \rho \frac{\partial^2 u}{\partial t^2}, \\ \frac{\partial \sigma_{x'y'}}{\partial x'} + \frac{\partial \sigma_{y'y'}}{\partial y'} &= \rho \frac{\partial^2 g}{\partial t^2},\end{aligned}\quad (1)$$

Kuchlanish komponentlari esa quyidagi ko'rinishda bo'ladi

$$\begin{aligned}\sigma_{x'x'} &= \bar{\lambda} \left(\frac{\partial u}{\partial x'} + \frac{\partial g}{\partial y'} \right) + 2\bar{\mu} \frac{\partial u}{\partial x'}, \\ \sigma_{y'y'} &= \bar{\lambda} \left(\frac{\partial u}{\partial x'} + \frac{\partial g}{\partial y'} \right) + 2\bar{\mu} \frac{\partial g}{\partial y'}, \\ \sigma_{x'y'} &= \bar{\mu} \left[\frac{\partial g}{\partial x'} + \frac{\partial u}{\partial y'} - l^2 \left(\frac{\partial^2}{\partial x'^2} + \frac{\partial^2}{\partial y'^2} \right) \left(\frac{\partial g}{\partial x'} - \frac{\partial u}{\partial y'} \right) \right] \\ \sigma_{y'x'} &= \bar{\mu} \left[\frac{\partial g}{\partial x'} + \frac{\partial u}{\partial y'} + l^2 \left(\frac{\partial^2}{\partial x'^2} + \frac{\partial^2}{\partial y'^2} \right) \left(\frac{\partial g}{\partial x'} - \frac{\partial u}{\partial y'} \right) \right] \\ \mu_{x'} &= 2\bar{\mu} l^2 \frac{\partial}{\partial x'} \left(\frac{\partial g}{\partial x'} - \frac{\partial u}{\partial y'} \right), \mu_{y'} = 2\bar{\mu} l^2 \frac{\partial}{\partial y'} \left(\frac{\partial g}{\partial x'} - \frac{\partial u}{\partial y'} \right).\end{aligned}$$

O'rganilayotgan masala uchun chegaraviy shartlar quyidagicha bo'ladi:

$$\sigma_{y'y'} = -P\delta(x), \sigma_{y'x'} = 0, \mu_{y'} = 0.$$

Bo'ylama va ko'ndalang to'liq potensilari orqali ko'chishlar quyidagicha topiladi:

$$\begin{aligned} u_{xk} &= \frac{\partial \varphi_k}{\partial x'} - \frac{\partial \psi_{zk}}{\partial y'}, \\ u_{yk} &= \frac{\partial \varphi_k}{\partial y'} - \frac{\partial \psi_{zk}}{\partial x'}, \end{aligned} \quad (2)$$

Agar to'liqin tenglamalaridan foydalansak, ular quyidagi ko'rinishga keladi [5]:

$$\begin{aligned} \left(\frac{\partial^2}{\partial x'^2} + \frac{\partial^2}{\partial y'^2} - \frac{1}{c_{p1}^2 \Gamma_{k\lambda\mu}} \frac{\partial^2}{\partial t^2} \right) \varphi &= 0, \\ \left(\frac{\partial^2}{\partial x'^2} + \frac{\partial^2}{\partial y'^2} - l^2 \left(\frac{\partial^4}{\partial x'^4} + \frac{\partial^4}{\partial x'^4 \partial y'^4} + \frac{\partial^4}{\partial y'^4} \right) - \frac{1}{c_{s2}^2 \Gamma_{k\mu}} \frac{\partial^2}{\partial t^2} \right) \varphi &= 0. \end{aligned} \quad (3)$$

Harakatlanuvchi koordinatalar sistemasi (x,y) qo'zgalmas koordinatalar sistemasi bilan Galiley almashtirilishi orqali bogliq:

$$x = x' - Dt, \quad y = y'. \quad (4)$$

U holda dinamik jarayonni ifodalovchi tenglamalar quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} (\bar{\lambda} + 2\bar{\mu} - \rho D^2) \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \bar{\lambda} \frac{\partial^2 \vartheta}{\partial x \partial y} + \bar{\mu} \left[\frac{\partial^2 \vartheta}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \vartheta}{\partial y^2} + l^2 \Delta \left(\frac{\partial^2 \vartheta}{\partial x \partial y} - \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} \right) \right] &= 0, \\ (\bar{\lambda} + 2\bar{\mu}) \frac{\partial^2 \vartheta}{\partial y^2} + \bar{\lambda} \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} + \bar{\mu} \left[\frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} + \left(1 - \frac{\rho D^2}{\bar{\mu}} \right) \frac{\partial^2 \vartheta}{\partial x^2} - l^2 \Delta \left(\frac{\partial^2 \vartheta}{\partial x^2} - \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} \right) \right] &= 0, \end{aligned} \quad (5)$$

Yuqorida keltirilgan (5) tenglamalarning yechimini quyidagicha izlaymiz:

$$u = A e^{kqy} \sin(kx), \quad \vartheta = B e^{kqy} \cos(kx). \quad (6)$$

U holda (5) tenglamalar quyidagi ko'rinishni egallaydi:

$$\begin{aligned} &\left[-\bar{\mu} l^2 k^2 q^4 + \bar{\mu} q^2 (1 + l^2 k^2) - (\bar{\lambda} + 2\bar{\mu} - \rho D^2) \right] A + \\ &+ \left[\bar{\mu} l^2 k^2 q^3 + q(\bar{\lambda} + \bar{\mu} - \bar{\mu} l^2 k^2) \right] B = 0, \\ &\left[-\bar{\mu} l^2 k^2 q^3 - q(\bar{\lambda} + \bar{\mu} - \bar{\mu} l^2 k^2) \right] A + \\ &+ \left[q^2 (\bar{\lambda} + 2\bar{\mu} - \rho D^2) - (\bar{\lambda} + \bar{\mu} l^2 k^2 - \rho D^2) \right] B = 0, \end{aligned} \quad (7)$$

Bir jinsli bo'lgan (7) tenglamalar sistemasini yechimi mavjud bo'lishi uchun uning asosiy aniqlovchisi nolga teng bo'lishi kerak, u holda quyidagi dispersion tenglama olamiz:

$$\begin{aligned} &(l^2 k^2 - \gamma + \beta_1^2) l^2 k^2 q^6 + (l^2 k^2 (1 + l^2 k^2 - \beta_1^2) + \gamma (1 + l^2 k^2) (1 - \gamma \beta_1^2) + \\ &+ 2l^2 k^2 (\gamma - l^2 k^2)) q^4 + ((1 + l^2 k^2) (1 + l^2 k^2 - \beta_1^2) - (\gamma - \beta_1^2)^2 + (\gamma - l^2 k^2)^2) q^2 + \\ &+ (\gamma - \beta_1^2) (1 + l^2 k^2 - \beta_1^2) = 0. \end{aligned} \quad (8)$$

Bunda

$$\beta_1^2 = \frac{\rho D^2}{\bar{\mu}}, \quad \gamma = \frac{\bar{\lambda} + 2\bar{\mu}}{\bar{\mu}}.$$

Bu (8) transtendent tenglamaning ildizlari cheksiz ko'p bo'ladi. Komleks ildizning haqiqiy qismi $q > 0$ musbat bo'lsin deb olamiz. U holda bo'ylama va ko'ndalang kuchishlar quyidagicha bo'ladi:

$$u = \sum_{i=1}^{\infty} \int_0^{\infty} A_i e^{kq_i y} \sin kx dk, \quad \vartheta = \sum_{i=1}^{\infty} \int_0^{\infty} \alpha_i A_i e^{kq_i y} \cos kx dk.$$

Yangi koordinatalar sistemasida potensiallar orqali berilgan tenglamalar va chegaraviy shartlar quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned}
& ((\eta_2^2 - 2) \frac{\partial^2 \varphi}{\partial x^2} + 2 \frac{\partial^2 \psi}{\partial x \partial y}) \varphi = -\frac{P}{\mu} \delta(x), \\
& (2 \frac{\partial^2 \psi}{\partial x \partial y} + \eta_2^2 \frac{\partial^2 \psi}{\partial x^2} - 2 \frac{\partial^2 \psi}{\partial y^2}) \Big|_{y=0} = 0, \\
& (\frac{\partial^3 \psi}{\partial x^2 \partial y} + \frac{\partial^2 \psi}{\partial y^2}) \Big|_{y=0} = 0, \\
& (\lambda_1^2 \frac{\partial^2}{\partial x^2} - \frac{\partial^2}{\partial y^2}) \varphi = 0, \\
& (\lambda_2^2 \frac{\partial^2}{\partial x^2} - \frac{\partial^2}{\partial y^2} + l^2 (\frac{\partial^4}{\partial x^4} + \frac{\partial^4}{\partial x^2 \partial y^2} + \frac{\partial^4}{\partial y'^4})) \psi = 0,
\end{aligned} \tag{9}$$

bunda $\eta_\alpha = \frac{D}{c_\alpha}$, $\lambda_1^2 = \sqrt{(\eta_\alpha^2 - 1)}$, $\alpha = 1, 2$.

Yuqorida keltirilgan (9) differensial tenglamaning yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned}
\varphi(x, y) &= \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{\infty} A e^{-i\alpha(x-\lambda_1 y)} d\alpha, \\
\psi(x, y) &= \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{\infty} B e^{-i\alpha(x-\lambda_2 y)} d\alpha.
\end{aligned} \tag{10}$$

Bu yechim Furiyening integral almashtirishi orqali topilgan. Bu yechimdan ko'rish mumkinki, u cheksizlikda to'liqin yutilish shartini qanoatlaniradi. Xuddi shuningdek, harakatlanuvchi yukdan integral almashtirish olish mumkin:

$$F[\delta(x)] = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{\infty} \delta(x) B e^{-i\alpha x} dx = \frac{1}{\sqrt{2\pi}}.$$

U holda quyidagi tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\begin{aligned}
-\alpha(\eta_2^2 - 2)A + 2\alpha^2 \lambda_2 B &= \frac{P}{\mu \sqrt{2\pi}} 0, \\
2\alpha^2 \lambda_1 A - \alpha(\eta_2^2 + 2)B &= 0.
\end{aligned}$$

Bu tenglamalar sistemasidan A va B ixtiyoriy o'zgarmaslarni topamiz:

$$\begin{aligned}
A &= \frac{(\eta_2^2 - 2)P}{\mu \alpha^2 \sqrt{2\pi} [(\eta_2^2 + 2)(\eta_2^2 - 2) + 4\lambda_1 \lambda_2]}, \\
B &= \frac{4\lambda_1 P}{\mu \alpha^2 \sqrt{2\pi} [(\eta_2^2 + 2)(\eta_2^2 - 2) + 4\lambda_1 \lambda_2]}
\end{aligned} \tag{11}$$

Hisoblashlarda quyidagi belgilashlardan foydalanilgan:

$$\gamma_1 = \eta_2^2 + 2, \gamma_2 = \eta_2^2 - 2, \Delta = \gamma_1 \gamma_2 + 4\lambda_1 \lambda_2.$$

U xolda A va B lar quyidagi ko'rinishni egalaydi:

$$\begin{aligned}
A &= \frac{\gamma_2 P}{\mu \alpha^2 \sqrt{2\pi} \Delta}, \\
B &= \frac{4\lambda_1 P}{\mu \alpha^2 \sqrt{2\pi} \Delta}
\end{aligned} \tag{12}$$

Tadqiqot metodologiyasi. Agar kiritilgan bo'ylama va ko'ndalang to'lqin potentsiallarini hisobga olsak, muhit nuqtalarining ko'chishini quyidagicha yozish mumkin:

$$\begin{aligned} u &= \frac{iP}{2\pi\bar{\mu}\Delta} \int_{-\infty}^{\infty} (\gamma_2 e^{i\lambda_1 \alpha y} + 2\lambda_1 \lambda_2 e^{i\lambda_2 \alpha y}) \frac{e^{-i\alpha x}}{\alpha} d\alpha, \\ \mathcal{G} &= \frac{iP}{2\pi\bar{\mu}\Delta} \int_{-\infty}^{\infty} (\gamma_2 e^{i\lambda_1 \alpha y} - 2\lambda_1 e^{i\lambda_2 \alpha y}) \frac{e^{-i\alpha x}}{\alpha} d\alpha. \end{aligned} \quad (13)$$

Ko'chishlar (13) haqiqiy funksiya bo'lgani uchun uni quyidagi ko'rinishga yozish mumkin:

$$\begin{aligned} u &= -\frac{P}{2\pi\bar{\mu}\Delta} \left[\gamma_2 \int_{-\infty}^{\infty} \frac{\sin \alpha(x - \lambda_1 y)}{\alpha} d\alpha - 2\lambda_1 \lambda_2 \int_{-\infty}^{\infty} \frac{\sin \alpha(x - \lambda_2 y)}{\alpha} d\alpha \right], \\ \mathcal{G} &= \frac{P}{2\pi\bar{\mu}\Delta} \left[\gamma_2 \lambda_1 \int_{-\infty}^{\infty} \frac{\sin \alpha(x - \lambda_1 y)}{\alpha} d\alpha - 2\lambda_1 \int_{-\infty}^{\infty} \frac{\sin \alpha(x - \lambda_2 y)}{\alpha} d\alpha \right]. \end{aligned} \quad (14)$$

Yuqorida keltirilgan harakat tenglamasi (1) va chegaraviy shartlar uchun Fyuring integral almash-tirishlarini qo'llaymiz, u holda normal kuchlanishi quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} \sigma_{zz}^* &= \frac{1}{2\pi} \int_{-\infty}^{\infty} \frac{\Delta_1(r_0\Omega) \mathbf{e}^{i\Omega t}}{\Omega_1 [\Delta_2\Delta_3 + \Delta_4\Delta_5]} d\Omega, \\ \Delta_1(r_0\Omega) &= (\Delta_3 + \tau_0 E) [2\Omega H_{n-1}^{(1)}(\Omega) - ((2n^2 + 2n) + \Omega^2) H_n^{(1)}(\Omega)] + \\ &+ [\tau_0 \Delta_2 - \Delta_4] \left[2n(n+1) H_n^{(1)}((C_{p1}/C_{s1})\Omega) + \frac{2C_p n \Omega}{C_{s1}} H_{n-1}^{(1)}\left(\frac{C_p}{C_s} \Omega\right) \right]. \end{aligned} \quad (15)$$

Bunda Δ_k ($k = 1, 2, 3, 4, 5$) ning ifodalari [3] ishda keltirilgan. (15) dagi xosmas integralni EHMda hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Integralni cheksiz oraliqda hisoblashni tassavur qilish qiyin. Shuning uchun uni chekli oraliqda integrallaymiz:

$$\sigma_{zzn}^* = \frac{1}{2\pi} \int_{\omega_a}^{\omega_b} \frac{\Delta_1(r_0\Omega_1)}{\Omega_1 [\Delta_2\Delta_3 + \Delta_4\Delta_5]} \mathbf{e}^{-i\Omega t} d\Omega. \quad (16)$$

(16)-integralning chegarasi ω_a , ω_b tushadigan to'lqinning ta'sir etish davriga bog'liq bo'ladi. $\sigma_{zz}^{(i)F}(\Omega)$ ning spektral zichligi tushadigan to'lqin xossalari ham bog'liq bo'ladi. ω_a , ω_b bu chegaralar-ning qiymatlari, hisoblash jarayonida integral osti funksiyaga bog'liq o'zgaradi. Integrallash oralig'ini tanlash talab etiladigan hisoblash aniqligiga ham bog'liq bo'ladi. Boshqa tomondan, taqribiy integral, ya'ni chegarasini $-\infty$ dan ω_a va ω_b dan $+\infty$ olinishi qanday xatoliklarga olib kelishi muammosi ochiqligicha qolgan.

(16) integralni cheksiz hadli qator bilan almashtirib, sonli hisoblash ham mumkin bo'lmagan ish. Boshqa tomondan, [3] ishda ko'rsatilganki, n-ning katta qiymatlarida hadlar (n- tartibli bir va ikkinchi jinsli Bessel va Xankel funksiyalari) uchun asimptotik formulalar mavjud ekan. Cheksiz qatorni chekli sondage hadlari yig'indi orqali baholash imkoni mavjud. Hisoblashlar ikkita algoritmi hisoblashga olib keladi.

Olingan

$$\begin{aligned} (2\bar{\mu}_n + \bar{\lambda}_n) \text{grad div } \vec{U}_n - (\bar{\mu}_n + \bar{\lambda}_n) \text{rot rot } \vec{U}_n + 2\alpha_n \text{rot } \vec{\Omega}_n + \rho_n \omega^2 \vec{U}_n(z) &= 0, \\ (\bar{\beta}_n + 2\bar{\gamma}_n) \text{grad div } \vec{\Omega}_n - (\bar{\gamma}_n + \bar{\varepsilon}_n) \text{rot rot } \vec{\Omega}_n + 2\alpha_n \text{rot } \vec{U}_n - 4\bar{\alpha}_n \vec{\theta}_n + j_n \omega^2 \vec{\Omega}_n &= 0, \end{aligned} \quad (17)$$

yechimni Xevisayd funksiyasi orqali ifoda qilamiz,

$$H(z) = \begin{cases} 0, & z < 0 \\ 0.5, & z = 0, \\ 1.0, & z > 0. \end{cases}$$

U holda

$$H(z) = 0.5 + \frac{1}{\pi} \int_0^{\infty} \frac{\sin \alpha x}{\alpha} d\alpha.$$

(17) tenglamaning yechimi quyidagi ko'rinishni egallaydi:

$$u = -\frac{P}{\bar{\mu}\Delta} [\gamma H(x - \lambda_1 y) - 2\lambda_1 \lambda_2 H(x - \lambda_2 y)] + const,$$

$$\vartheta = -\frac{P}{\bar{\mu}\Delta} [\gamma \lambda_1 H(x - \lambda_1 y) + 2\lambda_1 \lambda_2 H(x - \lambda_2 y)] + const.$$

Ko'chish va kuchlanishlar ifodasini EHMda hisoblash uchun bir qarashda qiyinchilik yo'qqa o'xshaydi. Lekin Bessel, Hankel funksiyalarni EHM da hisoblash murakkabdir.

Tahlil va natijalar. Bessel funksiyasi $J_n(x)$ ni hisoblash qiyinchilikka ega bo'lmaydi. Chunki bu qatorning 10 ta hadini yig'sak, 11 ta hadi yig'indisi umumiy yig'indiga 10^{-8} ni qo'sh ish bilan hosil bo'ladi. Neyman funksiyani, ya'ni, $N_n(x)$ ni ko'rsak, bu funksiya argumentning 0 ga yaqin qiyamtlarida logarifmik maxsuslikka ega bo'ladi. Qator juda sekin yaqinlashadi. Bu funksiya qatorni yig'indisini topishda kamida 20 ta had olish kerak. Lekin 20 va undan ortiq hadini hisoblashda katta sonlar 20 yoki 30 faktoriallarni hisoblashga to'g'ri keladi. Bularni ustida matematikadagi to'rt amalni bajaradi. Natijada mashina xotirasining to'lib qolishi (perepolneniya berish) ehtimoli bo'ladi.

Majburiy tebranishlarni o'rganishda mavhum xususiy chastotalarni o'rganish ahamiyatga ega hisoblanadi. Elastik muhitda joylashgan bo'shliqning xususiy chastotalari radiusi bilan ko'ndalang va bo'ylama to'lqinlarning tezligiga bog'liq bo'ladi. Mavjud diskret chastotalar yer osti tuba quvurlarni hisoblashda katta rol o'ynaydi. Xuddi shunday, elastik muhitda joylashgan silindrik qobiqning erkin tebranishlari o'rganiladi. Materialning qovushoqligini hisobga olish uchun Rjanitsin–Koltunovning uch parametrlil kuchsiz


singulyar yadrosi qo'llaniladi: [19,20] $R(t) = \frac{Ae^{-\beta t}}{t^{1-\alpha}}$. Parametrlar quyidagi ko'rinishga qabul qilingan:

$$A = 0,048; \quad \beta = 0,05; \quad \alpha = 0,1, \quad \nu_1 = \nu_2 = 0,14;$$

Buning uchun quyidagi kattaliklardan foydalanilgan:

$$\bar{\rho} = 19250 \text{ kg} / \text{m}^3, \quad \rho = 2700 \text{ kg} / \text{m}^3, \quad \bar{\lambda} = 1994 \cdot 10^9 \text{ Pa}, \quad \lambda = 55.94 \cdot 10^9 \text{ Pa},$$

$$\bar{\mu} = 158.56 \cdot 10^9 \text{ Pa}, \quad \mu = 23.94 \cdot 10^9 \text{ Pa}, \quad \bar{c}_l = 5180 \text{ m} / \text{s}, \quad c_l = 3100 \text{ m} / \text{s}$$




1-rasm. Normal kuchlanishning chuqirlik bo'yicha o'zgarishi.


Sonli natijalar olindi va tahlil qilindi. Qovushoq-elastik yarim muhitda joylashgan doirasimon ko'ndalang kesimli quvurda garmonik to'liq ta'sirida hosil bo'ladigan kuchlanish-deformatsiya holati masalasini ko'rib chiqamiz. Sonli natijalar 1 – 6-rasmlarda keltirigan.

Normal kuchlanishning chuqirlik bo'yicha o'zgarishi 1-rasmda keltirilgan (1. Klassik muhit. 2. Gradiyent qovushoq-elastik muhit. 3. Kossera qovushoq-elastik muhiti). Urinma ko'chishning chuqirlik bo'yicha o'zgarishi 2-rasmda keltirilgan (1. Klassik muhit. 2. Gradiyent qovushoq-elastik muhit. 3. Kossera qovushoq-elastik muhiti).

Normal ko'chishning chuqirlik bo'yicha o'zgarishi 3-rasmda keltirilgan (1. Klassik muhit. 2. Gradiyent qovushoq-elastik muhit. 3. Kossera qovushoq-elastik muhiti). Yuqorida keltirilgan rasmlardan kurib turibdiki, chuqirlik ortishi bilan ko'chish va kuchlanishlar eksponensial qonuniyat bo'yicha kamayib borar ekan.




2-rasm. Urinma ko'chishning chuqirlik bo'yicha o'zgarishi.




3-rasm. Normal ko'chishning chuqirlik bo'yicha o'zgarishi.

4-rasmda normal kuchlanishning koordinataga bog'liq o'zgarishi keltirilgan (tutash chiziq-Kossera muhiti uchun olingan natijalar, yuliq chiziq-klassik muhit uchun olingan natijalar).




4-rasm. Normal kuchlanishning koordinataga bog'liq o'zgarishi.



5-rasm. Normal kuchlanishning vaqtga bog‘liq o‘zgarishi.

1. Yerofeyev natijalar. 2. Dissertatsiya natijalari.

Normal kuchlanishning vaqtga bog‘liq o‘zgarishi 5-rasmga keltirilgan. Bu rasmda olingan natijalar Yerofeyev [4] natijalari bilan solishtirilgan. Natijalar 3–5% farqi bilan ustma-ust tushadi.



6-rasm. Urinma kuchlanishni kordinataga bog‘liq o‘ggarishi.

Urinma kuchlanishning koordinataga bog‘liq o‘zgarishi 6-rasmga keltirilgan. Rasmdan kurinib turibdiki, yarim tekislik sirtida harakatlanuvchi kuch ta’siridagi harakat ham to‘lqinli bo‘lar ekan. Bu rasmda tutashtash chiziq-Kosserra yarim tekisligi uchun olingan natijalar. Yuliy chiziq – gradiyent elastik qovushoq-elastik muhit uchun olingan natijalar.

Xulosa. Harakatlanuvchi kuch ta’siridagi neoseysimetrik kuchlanishga ega bo‘lgan yarim tekislikda hosil bo‘ladigan kuchlanishlar-deformatsiya holatini aniqlash metodikasi va algoritmi Furiyening integral almashtirilishi, Romberg usuli, Gauss va Myuller usullariga asoslangan holda ishlab chiqildi, hamda dasturi yaratildi. Kuchlanishlar va ko‘chishlar yarim tekislik sirtidan chuqirlik qarab eksponensial qonuniyat bo‘yicha kamayib borishi topildi. Kuchlanishlar va ko‘chishlar gradiyenti elastik muhitga qaraganda Kosserra muhitida 10 – 20% ko‘p bo‘lishi topildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Ерофеев В.И., Мальханов А.О. Нелинейные локализованные продольные магнитоупругие волны в пластине, находящейся в произвольно ориентированном магнитном поле. Вычислительная механика сплошных сред. 2012, т. 5, № 1, с. 79–84.

[2]. Герасимов С.И., Ерофеев В.И., Камчатный В.Г., Каньгин И.И. Оценка резонансоопасных гармоник при колебаниях упругой направляющей с движущимся по ней двухопорным объектом. Проблемы прочности и пластичности. 2015, т. 77, № 4, с. 412–424.

[3]. Zhao, X., Liew, K.M. A mesh-free method for analysis of the thermal and mechanical buckling of functionally graded cylindrical shell panels. *Comput. Mech.*, 2010, 45, p. 297–310.

[4]. Erofeev V.I. *Wave Processes in Solids with Microstructure*. New Jersey, London, Singapore et al: World Scientific Publishing 2003, p. 256.

[5]. Derov A.V., Maximov G.A., Lazarkov M.Y., Kashtan B.M., Bakulin A.N. Verification of wave field excitation in thin fluid-filled fracture of finite size and its interaction with a borehole. *Days of Diffraction*, 2008, June 3 – 6, 2008, St.Petersburg, Russia.

**Usarov Begzod O'ralovich (Termiz davlat Muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
"Aniq va tabiiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi; e-mail: usarovbegzod@mail.ru)
"TO'RTBURCHAKLAR" USULI VA UNING XOSSALARI**

Annotatsiya. Mazkur ish sonlar nazariyasi fanining rivojlanishida muhim omillardan biri bo'lib, ishda bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslamalarni yechishning amaliy jihatdan qulay, eng effektivli, qo'laversa, ancha foydali bo'lgan "To'rtburchaklar" usuli va uning xossalari ($ax \equiv b \pmod{m}$)-taqqoslamani uzluksiz kasrlarga yoyish, "Taqqoslama uchburchagi") batafsil yoritilgan hamda ularning tatbiqlari kabi masalalar o'rganilib, yangi natijalar isbotlangan. "To'rtburchaklar" usulning mohiyati shundaki, "Tenglamani berilgan noma'lumga nisbatan yechish", "Taqqoslamani bajarishda sinfdagi chegirmalarni m modulga ko'ra o'zaro almashtirish". Bularning natijasida bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslama ko'rinishini $ax - m = mx_1 + b$ tenglikdan foydalanib, yechimlari o'zaro bog'liq bo'lgan ancha soddaroq taqqoslamaga keltiriladi.

Kalit so'zlar: son, chegirma, sinf, modul, taqqoslama, noma'lum son, tenglama, koeffitsiyent, yechim, uzluksiz kasr, taqqoslama uchburchagi, xossa, forma, yuza, Dekart koordinatalari sistemasi, to'rtburchak, taqqoslama uchburchagi, usul, taqqoslanuvchi.

Усаров Бегзод Уралович (Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий, преподаватель кафедры «Точных и естественных наук»; e-mail: usarovbegzod@mail.ru)

МЕТОД «ПРЯМОУГОЛЬНИКОВ» И ЕГО СВОЙСТВА

Аннотация. Данная работа является одним из важных факторов развития науки теории чисел. В работе подробно рассматривается метод «Прямоугольников», который практически удобен, наиболее эффективен, а также весьма полезен для решения уравнений первого порядка с одним неизвестным, и его свойства ($ax \equiv b \pmod{m}$), разложение уравнения в цепные дроби, «Уравнение треугольника»), а также такие вопросы, как их приложения, и доказываются новые результаты. Суть «прямоугольного» метода – «Решение уравнения относительно заданного неизвестного», «Перестановка вычетов в классе по модулю m при выполнении сравнения». В результате вид уравнения первого порядка с одним неизвестным сводится к гораздо более простому уравнению, решения которого связаны между собой с помощью равенства $ax - m = mx_1 + b$.

Ключевые слова: число, остаток, класс, модуль, сравнение, неизвестное число, уравнение, коэффициент, решение, цепная дробь, треугольник сравнения, свойство, форма, площадь, декартова система координат, прямоугольник, треугольник сравнения, метод, сравнимое число.

Usarov Begzod Uralovich (teacher of the Department of "Exact and Natural Sciences" of Termez State University of Engineering and Agrotechnology; e-mail: usarovbegzod@mail.ru)

"RECTANGLES" METHOD AND ITS PROPERTIES

Annotation. This work is one of the important factors in the development of the science of number theory. The work covers in detail the "Rectangular" method, which is practically convenient, most effective, and also very useful for solving first-order equations with one unknown, and its properties ($ax \equiv b \pmod{m}$) expanding the equation into continued fractions, "Equation triangle"), as well as issues such as their applications, and new results are proven. The essence of the "Rectangular" method is "Solving the equation for a given unknown", "Interchanging the deductions in the class according to the m module when performing the comparison". As a result, the appearance of a first-order comparison with one unknown is reduced to a much simpler comparison whose solutions are interconnected using equality $ax - m = mx_1 + b$.

Key words: Number, residue, class, modulus, congruence, unknown number, equation, coefficient, solution, continued fraction, congruence triangle, property, form, area, Cartesian coordinate system, rectangle, congruence triangle, method, congruent number.

Kirish (Introduction). Bizga ma'lumki, agar ixtiyoriy a, b butun sonlar va $m > 0$ butun soni berilgan bo'lib, ham a , ni b ni ham m ga bo'lishdan bir xil qoldiq qolsa, u holda a va b sonlari m moduli bo'yicha o'zaro taqqoslanuvchi deyiladi va $a \equiv b \pmod{m}$ ko'rinishida yoziladi.

Ushbu

$$ax \equiv b \pmod{m} \quad (1)$$

ko'rinishdagi taqqoslamaga bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslama deyiladi. Bunda, x noma'lum, a va b koeffitsiyentlari, m esa moduli. Hozirgi vaqtda bu taqqoslamani yechishning bir necha usullari mavjud. Bular:

1. Sinash (tanlash) usuli.
2. Koeffitsiyentlarini o'zgartirish usuli.
3. Eyler teoremasidan foydalanish usuli.
4. Uzluksiz kasrlardan foydalanish usuli.
5. Teskari sinfidan foydalanish usuli.

Endi bu usullarni qisqacha mazmunan yoritib o'taylik [1].

1. Sinash (tanlash) usuli. Bu usulning mohiyati shundaki, (1) -taqqoslamadagi x o'rniga m modul bo'yicha chegirmalarning to'la sistemasi $\{0, 1, 2, 3, \dots, m-1\}$ dagi barcha chegirmalar ketma-ket qo'yib chiqiladi. Ulardan qaysi biri (1) -taqqoslamani to'g'ri taqqoslamaga aylantirsa, o'sha yechim hisoblanadi.

2. Koeffitsiyentlarini o'zgartirish usuli. Taqqoslamalarning xossalariidan foydalanib, berilgan taqqoslamani koeffitsiyentlarini o'zaro karrali bo'lgunga qadar o'zgartiriladi va noma'lumga nisbatan yechiladi.

3. Eyler teoremasidan foydalanish usuli. Ma'lumki, $(a; m) = 1$ bo'lsa, u holda $a^{\varphi(m)} \equiv 1 \pmod{m}$ taqqoslama o'rinni oladi. Bundan $a^{\varphi(m)} \cdot b \equiv b \pmod{m}$ taqqoslamani yozish mumkin. Oxirgi taqqoslamani $ax \equiv b \pmod{m}$ taqqoslama bilan solishtirib, $x \equiv a^{\varphi(m)-1} \cdot b \cdot \pmod{m}$ ekaniga ishonch hosil qilamiz. Misollar yechishda $a^{\varphi(m)-1} \cdot b$ ifodani m modul bo'yicha eng kichik musbat chegirmaga keltirish lozim bo'ladi.

4. Uzluksiz kasrlardan foydalanish usuli. $ax \equiv b \pmod{m}$ taqqoslamadagi m va a larni $\frac{m}{a}$ kasr ko'rinishida uzluksiz kasrga yoyib, uning munosib kasrlarini $\frac{P_k}{Q_k}$ ($k = 1; n$) kabi belgiaymiz. $\frac{P_k}{Q_k}$ qisqartirilgan kasr bo'lganidan $P_n = m$, $Q_n = a$ deb, natijada $x \equiv (-1)^{n-1} \cdot b \cdot P_{n-1} \pmod{m}$ taqqoslamani hosil qilish kerak bo'ladi.

5. Teskari sinfidan foydalanish usuli. Bu usulda 1 ning a va m sonlariga chiziqli yoyilmasi topamiz: $1 = au + mv$ yoyilmadagi u soni a soniga m modul bo'yicha teskari sonidir [2].

Berilgan taqqoslamani, chap va o'ng tomonini topilgan m modul bo'yicha teskari sonni ko'paytirib, m modul bo'yicha yechimi topish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Gap (1) -ko'rinishdagi taqqoslama va uning yechimi haqida borar ekan, bu borada matematik olimlar tomonidan ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola etilgan bir qancha ilmiy adabiyotlarda, xususan, mualliflari R.N.Nazarov, B.T.Toshpo'latov, A.D.Do'sumbetov larning "Algebra va sonlar nazariyasi" (II qism) nomli darsligida hamda Yunusov A., D.Yunusovalarning ham "Algebra va sonlar nazariyasi" nomli modul texnologiyasi asosida tayyorlangan misol va mashqlar to'plamida bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslamalar va ularni yechish usullari ham nazariy, ham amaliy o'rganilgan. Qolaversa, taqqoslamalar nazariy jihatdan J.Hojiyev va A.S.Faynleyblarning "Matematika va mexanika-matematika" fakultetlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Algebra va sonlar nazariyasi kursi" nomli darsligida batavsil yoritilgan [3].

Bulardan tashqari, bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslamalar va ularni yechish usullari ustida o'z ilmiy izlanishlarini olib borgan taniqli matematik olimlar, jumladan, D.F.Yegorov [4], K.F.Gauss [5], I.M.Vinogradov [6], Y.Nesterenko [7], D.S.Malik, M.K.Sen [8] kabi olimlarning xizmatlari taqsimga loyiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Agar (1)-ko‘rinishdagi taqqoslamada moduli va koeffitsiyentlari yetarlicha katta bo‘lganda, shuni ham ta’kidlash kerakki, uning yechimini topishda, yuqorida e’tirof etilgan usullarining tatbiqlari amaliy jihatdan uncha qulay bo‘lmaydi. Shu boisdan bizning maqsadimiz amaliy jihatdan qulay va effektivli hamda samarali bo‘lgan yangicha usulni topish va uni bir noma’lumli birinchi darajali taqqoslamalarning yechimini topishga tatbiq qilishdan iborat.

“To‘rtburchaklar” usuli

Teorema (Usa Beg teoremasi). Agar

$$ax \equiv b \pmod{m} \quad (1)$$


taqqoslama berilgan bo‘lib, $(a; m) = 1$ va $a > 0$ bo‘lsa, u holda

$$ax - m = mx_1 + b \quad (2)$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Isboti. Taqqoslamalar uchun chiziqli forma haqidagi teorema asosan, x va $ax - m$ formalarni Dekart koordinatalari sistemasida quyidagicha tasvirlaylik (1-chizma) [9].

Bunda asoslari x , balandliklari m , $ax - m$ va ax bo‘lgan, ichma-ich joylashgan to‘g‘ri to‘rtburchaklar bo‘lib, asosi x balandligi ax bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzasi S_1 , asosi x balandligi $ax - m$ bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzasi esa S_2 bo‘lsin.



Endi S_1 va S_2 larni m modul bo‘yicha taqqoslanuvchi ekanligini ko‘rsatamiz:

$$\begin{cases} S_1 = ax \cdot x = ax^2 = (mq_1 + r) \cdot x \\ S_2 = (ax - m) \cdot x = (ax - m) \cdot x = (mq_2 + r) \cdot x \end{cases}$$

Bu yerdan S_1 va S_2 lar m modul bo‘yicha taqqoslanuvchi ekanligi kelib chiqadi.

U holda S_1 va S_2 larning nisbatini qarasak, unda:

$$\frac{S_1}{S_2} = \frac{ax^2}{(ax - m) \cdot x} = \frac{(mq_1 + r) \cdot x}{(mq_2 + r) \cdot x} \Rightarrow \frac{ax}{ax - m} = \frac{mq_1 + r}{mq_2 + r} \quad (3)$$

ga ega bo‘lamiz.

(3)-dan

$$\begin{cases} ax = mq_1 + r \\ ax - m = mq_2 + r \end{cases} \quad (4)$$

ekanligi kelib chiqadi.

Shunday qilib, (4)-sistemadagi $ax - m = mq_2 + r$ tenglikni (1)-taqqoslamadan foydalanib $ax - m = mx_1 + b$ deb yozib olamiz. Teorema isbotlandi.

Bu teoremadan quyidagi xulosa kelib chiqadi:

(1)-ni (2)-dan foydalanib, $x = \frac{mx_1 + (b + m)}{a}$ tenglik yordamida m moduldan a modulga, ya’ni,

$mx_1 + (b + m) \equiv 0 \pmod{a} \Rightarrow mx_1 \equiv -(b + m) \pmod{a}$ ga o‘tib, bu almashtirishni n marta bajarib, (1)-ni yechimlari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ancha soddaroq taqqoslamaga keltirish mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Endi (1)- taqqoslamani (2)-tenglik yordamida quyidagicha yozamiz:

$$ax \equiv b \pmod{m}, ax - m = mx_1 + b \Rightarrow x = \frac{mx_1 + (b + m)}{a}$$

$$\begin{aligned}
mx_1 + (b+m) &\equiv 0 \pmod{a} \Rightarrow mx_1 \equiv -(b+m) \pmod{a} \Rightarrow \\
\Rightarrow (m+at_1)x_1 &= [at_2 - (b+m)] \pmod{a}, (m+at_1)x_1 - a = ax_2 + [at_2 - (b+m)] \Rightarrow \\
\Rightarrow x_1 &= \frac{ax_2 + [a(t_2+1) - (b+m)]}{(m+at_1)} \\
ax_2 + [a(t_2+1) - (b+m)] &\equiv 0 \pmod{(m+at_1)} \Rightarrow ax_2 \equiv -[a(t_2+1) - (b+m)] \pmod{(m+at_1)} \\
\Rightarrow (a + (m+at_1)t_3)x_2 &\equiv [(m+at_1)t_4 - a(t_2+1) + (b+m)] \pmod{(m+at_1)}, \\
(a + (m+at_1)t_3)x_2 - (m+at_1) &\equiv (m+at_1)x_3 + [(m+at_1)t_4 - a(t_2+1) + (b+m)] \Rightarrow \\
\Rightarrow x_2 &= \frac{(m+at_1)x_3 + [(m+at_1)t_4 - a(t_2+1) + (b+m)]}{(a + (m+at_1)t_3)} \\
&\dots \\
x_n &= 0 \qquad \qquad \qquad (t; t_1; t_2; t_3; \dots \in Z).
\end{aligned}$$

bo'lad.

Bu yerdagi $(m+at_1)x_1 = [at_2 - (b+m)] \pmod{a}$ -taqqoslama uchun:

$$\begin{cases} (m+at_1) = a_1 \\ [at_2 - (b+m)] = b_1 \Rightarrow a_1x_1 \equiv b_1 \pmod{m_1}; \\ a = m_1 \end{cases}$$

$(a + (m+at_1)t_3)x_2 \equiv [(m+at_1)t_4 - a(t_2+1) + (b+m)] \pmod{(m+at_1)}$ -taqqoslama uchun esa:

$$\begin{cases} (a + (m+at_1)t_3) = a_2 \\ [(m+at_1)t_4 - a(t_2+1) + (b+m)] = b_2 \Rightarrow a_2x_2 \equiv b_2 \pmod{m_2}; \\ (m+at_1) = m_2 \end{cases}$$

va

$$\begin{aligned}
x_{n-1} &\equiv b_{n-1} \pmod{m_{n-1}} \\
x_n &= 0
\end{aligned}$$

deb, (1)-taqqoslamani uzluksiz kasrlarga quyidagicha yoyish mumkin:

U holda, (2)-tenglikka asosan,

$$\begin{aligned}
ax &\equiv b \pmod{m} \Rightarrow x = \frac{mx_1 + (b+m)}{a}; \\
a_1x_1 &\equiv b_1 \pmod{m_1} \Rightarrow x_1 = \frac{m_1x_2 + (b_1+m_1)}{a_1}; \\
a_2x_2 &\equiv b_2 \pmod{m_2} \Rightarrow x_2 = \frac{m_2x_3 + (b_2+m_2)}{a_2}; \\
a_3x_3 &\equiv b_3 \pmod{m_3} \Rightarrow x_3 = \frac{m_3x_4 + (b_3+m_3)}{a_3}; \\
&\dots \\
a_{n-3}x_{n-3} &\equiv b_{n-3} \pmod{m_{n-3}} \Rightarrow x_{n-3} = \frac{m_{n-3}x_{n-2} + (b_{n-3} + m_{n-3})}{a_{n-3}}; \\
a_{n-2}x_{n-2} &\equiv b_{n-2} \pmod{m_{n-2}} \Rightarrow x_{n-2} = \frac{m_{n-2}x_{n-1} + (b_{n-2} + m_{n-2})}{a_{n-2}}; \\
x_{n-1} &\equiv b_{n-1} \pmod{m_{n-1}} \Rightarrow x_{n-1} = b_{n-1}; \\
x_n &= 0
\end{aligned}$$

bo‘lib, ularni o‘zaro bog‘lab joylashtirishdan ushbu uzluksiz kasrlarni hosil qilamiz:

$$\begin{aligned}
 & x_{n-1} = b_{n-1} \\
 & m_{n-3} \cdot \frac{m_{n-2} \cdot x_{n-1} + (b_{n-2} + m_{n-2})}{a_{n-2}} + (b_{n-3} + m_{n-3}) \\
 & \dots \\
 & m_3 \cdot \frac{\dots}{a_4} + (b_3 + m_3) \\
 & m_2 \cdot \frac{\dots}{a_3} + (b_2 + m_2) \\
 & m_1 \cdot \frac{\dots}{a_2} + (b_1 + m_1) \\
 & m \cdot \frac{\dots}{a_1} + (b + m) \\
 x = & \frac{\dots}{a}
 \end{aligned}$$

Hosil bo‘lgan uzluksiz kasrlar uchburchak ko‘rinishida bo‘lib, ular yordamida “Taqqoslama uchburchagi”ni quydagicha tuzish mumkin:

$$\begin{aligned}
 & b_{n-1} \\
 & m_{n-3} \frac{m_{n-2}}{a_{n-2}} \frac{(b_{n-2} + m_{n-2})}{(b_{n-3} + m_{n-3})} \\
 & \dots \\
 & m_3 \frac{\dots}{a_4} (b_3 + m_3) \\
 & m_2 \frac{\dots}{a_3} (b_2 + m_2) \\
 & m_1 \frac{\dots}{a_2} (b_1 + m_1) \\
 & m \frac{\dots}{a_1} (b + m) \\
 & a
 \end{aligned}$$

Endi “Taqqoslama uchburchagi” yordamida taqqoslamaning yechimini topish algoritmini quyidagi sxema yordamida izohlaymiz (2-chizma):



2-chizma

Misol. $3709x \equiv 1284 \pmod{6122}$ –taqqoslamani yeching va taqqoslama uchburchagini tuzing.
Yechish.

$$1) 3709x \equiv 1284 \pmod{6122}, 3709x - 6122 = 6122x_1 + 1284, x = \frac{6122x_1 + 7406}{3709};$$

$$2) 6122x_1 + 7406 \equiv 0 \pmod{3709}, 6122x_1 \equiv -7406 \pmod{3709},$$

$$2413x_1 \equiv 12 \pmod{3709}, 2413x_1 - 3709 = 3709x_2 + 12, x_1 = \frac{3709x_2 + 3721}{2413};$$

$$3) 3709x_2 + 3721 \equiv 0 \pmod{2413}, 3709x_2 \equiv -3721 \pmod{2413},$$

$$1296x_2 \equiv 1105 \pmod{2413}, 1296x_2 - 2413 = 2413x_3 + 1105, x_2 = \frac{2413x_3 + 3518}{1296};$$

$$4) 2413x_3 + 3518 \equiv 0 \pmod{1296}, 2413x_3 \equiv -3518 \pmod{1296},$$

$$1117x_3 \equiv 370 \pmod{1296}, 1117x_3 - 1296 = 1296x_4 + 370, x_3 = \frac{1296x_4 + 1666}{1117};$$

$$5) 1296x_4 + 1666 \equiv 0 \pmod{1117}, 1296x_4 \equiv -1666 \pmod{1117},$$

$$179x_4 \equiv 568 \pmod{1117}, 179x_4 - 1117 = 1117x_5 + 568, x_4 = \frac{1117x_5 + 1685}{179};$$

$$6) 1117x_5 + 1685 \equiv 0 \pmod{179}, 1117x_5 \equiv -1685 \pmod{179},$$

$$43x_5 \equiv 105 \pmod{179}, 43x_5 - 179 = 179x_6 + 105, x_5 = \frac{179x_6 + 284}{43};$$

$$7) 179x_6 + 284 \equiv 0 \pmod{43}, 179x_6 \equiv -284 \pmod{43},$$

$$7x_6 \equiv 17 \pmod{43}, 7x_6 - 43 = 43x_7 + 17, x_6 = \frac{43x_7 + 60}{7};$$

$$8) 43x_7 + 60 \equiv 0 \pmod{7}, 43x_7 \equiv -60 \pmod{7},$$

$$x_7 \equiv 3 \pmod{7};$$

$$9) x_8 = 0, x_7 = 3, x_6 = 27, x_5 = 119, x_4 = 752, x_3 = 874, x_2 = 1630, x_1 = 2507, x = 4140.$$

Javob: $x \equiv 4140 \pmod{6122}$.

Demak, $x \equiv 4140 \pmod{6122}$ berilgan taqqoslamaning yechimi ekan.

Tekshirish: $3709 \cdot 4140 - 1284 = 15\,355\,260 - 1284 = 15\,353\,976 : 6122$.

Endi hosil bo'lgan taqqoslamalarni yozib chiqamiz:

$$1) 3709x \equiv 1284 \pmod{6122}, x = \frac{6122x_1 + 7406}{3709};$$

$$2) 2413x_1 \equiv 12 \pmod{3709}, x_1 = \frac{3709x_2 + 3721}{2413};$$

$$3) 1296x_2 \equiv 1105 \pmod{2413}, x_2 = \frac{2413x_3 + 3518}{1296};$$

$$4) 1117x_3 \equiv 370 \pmod{1296}, x_3 = \frac{1296x_4 + 1666}{1117};$$

$$5) 179x_4 \equiv 568 \pmod{1117}, x_4 = \frac{1117x_5 + 1685}{179};$$

$$6) 43x_5 \equiv 105 \pmod{179}, x_5 = \frac{179x_6 + 284}{43};$$

$$7) 7x_6 \equiv 17 \pmod{43}, x_6 = \frac{43x_7 + 60}{7};$$

$$8) x_7 \equiv 3 \pmod{7}, x_7 = 3.$$


Berilgan taqqoslamani uzluksiz kasrlarga yoyamiz:

$$\begin{array}{r}
 x_7 = 3 \\
 179 \cdot \frac{43 \cdot x_7 + 60}{7} + 284 \\
 1117 \cdot \frac{\quad}{43} + 1685 \\
 1296 \cdot \frac{\quad}{179} + 1666 \\
 2413 \cdot \frac{\quad}{1117} + 3518 \\
 3709 \cdot \frac{\quad}{1296} + 3721 \\
 6122 \cdot \frac{\quad}{2413} + 7406 \\
 x = \frac{\quad}{3709} = 4140
 \end{array}$$

ni hosil qilamiz. Bundan berilgan taqqoslama uchun taqqoslama uchburchagini tuzamiz:

$$\begin{array}{r}
 3 \\
 179 \overline{) 43 \ 60} 284 \\
 \underline{1117} \quad \quad \quad 1685 \\
 1296 \overline{) 43} 1666 \\
 \underline{2413} \quad \quad \quad 3518 \\
 3709 \overline{) 1117} 3721 \\
 \underline{6122} \quad \quad \quad 7406 \\
 \underline{2413} \\
 3709
 \end{array}$$

Endi S va S_1 hamda S_1 va S_2 larni m modul bo'yicha taqqoslanuvchi ekanligini ko'rsatamiz (3-chizma):



3-chizma

$$\begin{cases}
 S = (ax + m) \cdot x = (ax + m) \cdot x = (mq_1 + r) \cdot x \\
 S_1 = ax \cdot x = ax^2 = (mq_2 + r) \cdot x \\
 S_1 = ax \cdot x = ax^2 = (mq_2 + r) \cdot x \\
 S_2 = (ax - m) \cdot x = (ax - m) \cdot x = (mq_3 + r) \cdot x
 \end{cases}$$

Endi S , S_1 va S_2 larning nisbatini qaraylik, unda:

$$\begin{aligned}
 \frac{S}{S_1} &= \frac{(ax + m) \cdot x}{ax^2} = \frac{(mq_1 + r) \cdot x}{(mq_2 + r) \cdot x} \Rightarrow \frac{ax + m}{ax} = \frac{mq_1 + r}{mq_2 + r}; \\
 \frac{S_1}{S_2} &= \frac{ax^2}{(ax - m) \cdot x} = \frac{(mq_2 + r) \cdot x}{(mq_3 + r) \cdot x} \Rightarrow \frac{ax}{ax - m} = \frac{mq_2 + r}{mq_3 + r}
 \end{aligned} \quad (5)$$

larga ega bo'lamiz.

(5)-dan

$$\begin{cases}
 ax + m = mq_1 + r \\
 ax = mq_2 + r
 \end{cases}, \begin{cases}
 ax = mq_2 + r \\
 ax - m = mq_3 + r
 \end{cases} \text{ va } \begin{cases}
 ax + m = mq_1 + r \\
 ax - m = mq_3 + r
 \end{cases} \quad (6)$$

ekanligi kelib chiqadi.

Shunday qilib, (6)-sistemadagi tengliklarni (1)-taqqoslamadan foydalanib,

$$\begin{cases}
 ax + m = mq_1 + r \\
 ax = mq_2 + r \\
 ax - m = mq_3 + r
 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases}
 ax + m = mx_1 + b \\
 ax = mx_2 + b \\
 ax - m = mx_3 + b
 \end{cases} \quad (7)$$

deb yozib olamiz.

(7)-sistemadagi har ikki tengliklarni o'zaro hadma-had ayirib,

$$\begin{cases} m = mx_1 - mx_2 \\ m = mx_2 - mx_3 \\ 2m = mx_1 - mx_3 \end{cases} \quad (8)$$

ni hosil qilamiz.

Endi (8)-sistemaning uchala tengliklarni ham m ga bo'lishdan quydagi xossalar

$$\begin{cases} x_1 - x_2 = 1 \\ x_2 - x_3 = 1 \\ x_1 - x_3 = 2 \end{cases} \quad (9)$$

kelib chiqadi.

Demak, bu xossalarga asosan, (1)-taqqoslamani yechimini topishda $ax + m = mx_1 + b$ va $ax - m = mx_3 + b$ tengliklar o'zaro ekvivalent bo'lar ekan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o'rnida shuni ham aytish mumkinki, gap bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslamalar va ularning yechimi haqida borar ekan, shu nuqtayi nazardan yuqorida qaralgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, quydagi xulosalarni keltirib o'tish mumkin:

Birinchidan, (1) -ko'rinishdagi taqqoslamani moduli va koeffitsiyentlari yetarlicha katta bo'lganda uning yechimini topish mashaaqatli bo'lib, ancha vaqt talab qiladi.

Ikkinchidan, (1) -ko'rinishdagi taqqoslamani yechishda uning shaklini soddaroq shaklda ifodalovchi xarakterli sifatlarga ega usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, xoh u masala bo'lsin, xoh u tenglama bo'lsin, uning yechimini topishdagi tanlangan usulni muqobil sifatida tanlashga to'g'ri keladi. Bu esa ularning hal bo'lishidagi debochasi bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, (1) -ko'rinishdagi taqqoslamani yechishda ham qo'llanilgan usul, uni yechishda ham nazariy, ham amaliy jihatdan bevosita qulay usul bo'lishi lozimdir.

Vaholanki, yuqorida e'tirof etilgan, bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslamalar va ularni yechishning ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola etilgan usullari amaliy jihatdan uncha qulay emas.

Bu nuqtayi nazardan, o'z ijod namunamiz bo'lmish "To'rtburchaklar" usuli boshqa usullarga qaraganda eng effektivli bo'lib, u ancha foydalidir.

Bu usulning mohiyati shundaki, "Tenglamani berilgan noma'lumga nisbatan yechish", "Taqqoslamani bajarishda sinfdagi chegirmalarni m modulga ko'ra o'zaro almashtirish". Bularning natijasida bir noma'lumli birinchi darajali taqqoslama ko'rinishini $ax - m = mx_1 + b$ tenglikdan foydalanib, yechimlari o'zaro bog'liq bo'lgan ancha soddaroq taqqoslamaga keltirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). R.N.Nazarov, B.T.Toshpo'latov, A.D.Do'sumbetov. Algebra va sonlar nazariyasi. II qism, Toshkent, "O'qituvchi", 1995, 51–72-betlar.
- (2). Yunusov A, Yunusova D. Algebra va sonlar nazariyasi. Modul texnologiyasi asosida tayyorlangan misol va mashqlar to'plami, Toshkent, 2007, 228–254-betlar.
- (3). J.Xojiyev, A.S.Faynleyb. Algebra va sonlar nazariyasi kursi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi universitetlarning matematika va mexanika-matematika fakultetlari talabalari uchun darslik sifatida ruxsat etgan, Toshkent, "O'zbekiston", 2001, 76–112-betlar.
- (4). Д.Ф.Егоров. «Элементы теории чисел». Государственное издательство. Москва. 1923, с. 46–65.
- (5). К.Ф.Гаусс. Труды по теории чисел. Перевод канд. В.Б.Демьянова. Москва, 1959, с. 20–45.
- (6). I.M.Vinogradov. Sonlar nazariyasi asoslari. Ruscha oltinchi nashridan tarjima, "O'qituvchi". Toshkent, 1995, 45–69-betlar.
- (7). Ю.В.Нестеренко. Теория чисел. Издательский центр «Академия». Москва, 2008, 7–29 с.
- (8). D.S.Malik, John N.Mordeson, M.K.Sen. Fundamentals of abstract algebra. 1997.
- (9). Y.U.Soatov. Oliy matematika. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy texnika o'quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan, Toshkent, "O'zbekiston", 1992, 5–6-betlar.

Nushtayeva Ozoda Xasilovna (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti; nuna_x@mail.ru)

O'Z-O'ZINI TOZALASH FUNKSIYASIGA EGA BO'LGAN QUYOSH BATAREYASI YUZASINING IFLOSLANISH DARAJASINI MASOFADAN MONITORING QILISH UCHUN QURILMA

Annotatsiya. Asosan, ochiq joylarda ishlatiladigan fotoelektr quyosh batareyalari yuzasini atmosfera yog'ingarchiliklari va begona zarralarning tushishidan himoyalash sifatida ishlatiladigan optik shaffof shisha yoki polimer shaffof yupqa qatlamlar chang, qum, chiqindilar, kuyindilarning o'tirishi, avtomobillar chiqindi gazlari, sanoat quvurlaridan kullar va boshqa moddalar tufayli atmosfera havosining turli tashkil etuvchilar bilan ifloslanadi, bu zarrachalar orqali quyosh nurlanishining soyalanishi, yutilishi va aks etishi tufayli elektr energiyasini o'zgartirishning energetik samaradorligini kamayishiga olib keladi. Yuzalar bu zarrachalardan o'z vaqtida tozalanmasa, energiyani o'zgartirish koeffitsiyenti 50–70%ga kamayishi mumkin, bu quyosh fotoelektr batareyalaridan foydalanishni maqsadga muvofiq bo'lmazligiga olib kelishi mumkin, shuning uchun mavsumiy davr hisobga olinishi bilan ifloslanish darajasini vaqt oralig'lariga bog'liqligini aniqlash muhim vazifa hisoblanadi, buning uchun monitoring kuzatuvlari olib boriladi.

Kalit so'zlar: optik yuzaning ifloslanish darajasini monitoring qilish, optik yuzani avtomatik o'z-o'zidan tozalash, foydalanish qulayligi darajasining xizmat ko'rsatish muddatini oshirish, quyosh energiyasini elektr energiyasiga o'zgartirishning energetik samaradorligi.

ДИСТАНЦИОННОЕ УСТРОЙСТВО ДЛЯ МОНИТОРИНГА УРОВНЯ ЗАГРЯЗНЕННОСТИ С ФУНКЦИЕЙ САМООЧИСТКИ ПОВЕРХНОСТИ СОЛНЕЧНОЙ БАТАРЕИ

Аннотация. На оптические прозрачные стекла или полимерные прозрачные пленки, используемые в качестве защиты от атмосферных осадков и попадания инородных частиц поверхностей фотоэлектрических солнечных батарей, эксплуатируемые в основном в открытых местностях загрязняются различными составляющими атмосферного воздуха, вследствие оседания пыли, песка, отходов, сажи, от выхлопных газов автомобилей, золы из промышленных труб, и других веществ, что приводит к снижению энергоэффективности преобразования электрической энергии, вследствие затенения, поглощения и отражения этими частицами потока солнечного излучения. При несвоевременной очистке поверхностей от этих частиц коэффициент преобразования электроэнергии может снизиться на 50–70%, что может привести к нецелесообразности применения солнечных фотоэлектрических батарей, поэтому определение уровня загрязненности в зависимости от определения промежутка времени с учетом сезонного периода является важной задачей, для чего проводятся мониторинговые наблюдения.

Ключевые слова: мониторинг уровня загрязненности оптической поверхности, автоматическая самоочистка оптической поверхности, повышение срока службы уровня удобства эксплуатации, энергоэффективность преобразования солнечной энергии в электрическую.

REMOTE POLLUTION MONITORING DEVICE WITH SELF-CLEANING FUNCTION OF THE SOLAR PANEL SURFACE

Annotation. On optical transparent glass or polymer transparent films used as protection from precipitation and ingress of foreign particles surfaces of photovoltaic solar cells, operated mainly in open areas are polluted by various components of atmospheric air, due to the deposition of dust, sand, waste, soot, from car exhaust gases, ash from industrial pipes, and other substances, which leads to a decrease in energy efficiency of conversion of electrical energy, due to shading, absorption and absorption of particles from the surface of the solar cells. In case of untimely cleaning of surfaces from these particles, the coefficient of electric energy conversion can decrease by 50-70%, which can lead to the inexpediency of solar photovoltaic panels, so determining the level of pollution depending on the definition of the time interval, taking into account the seasonal period is an important task, for which monitoring observations are carried out.

Key words: monitoring of the level of pollution of the solar surface, automatic self-cleaning of the solar surface, increasing the service life of the level of convenience of operation, energy efficiency of conversion of solar energy into electrical energy.

Kirish. Bugungi kunda fotoelektr quyosh batareyalarining yuzalarini atmosfera yog'ingarchiliklari va begona zarralardan himoyalashning bir necha usullari ma'lum.

1. Optik gaz analizatorlarining shisha chetki ariqchalari changlanishining oldini olish usuli. Taklif qilingan usul chetki ariqchalarga tushadigan gaz aralashmasini kuchli elektr maydonidan orqali o'tkazish

va uni qizdirish orqali aktivlashtirishdan iborat. Aktivlashtirish natijasida, masalan, $MgCl$, $NaCl$, KCl va MgO moddalarni o'z ichiga olgan gaz aralashmasining kristallari uzoq vaqt davomida qorong'ilikda saqlanishi mumkin bo'lgan hajmiy zaryadni to'playdi. Chetki ariqchalardagi gaz aralashmasi shisha orqali cho'g'lanma lampa bilan yoritiladi. Yoritilganda o'tkazuvchanlikning oshishi natijasida gaz aralashmasining kristallarini ajratilishi bo'lib o'tadi.

2. Dastlab, qora taglikka, so'ngra tekis metall ko'zguga qo'yilgan qog'oz namunasi qaytaradigan nisbiy yorug'lik oqimlarini qayd etish va keyin qog'ozning shaffoflik ko'rsatkichlarini hisoblashga asoslangan yassi shaffof bosma materiallarning shaffofligini aniqlash usuli. Qayd etilgandan so'ng, nisbiy yorug'lik oqimlari tadqiq qilinadigan materialning, dastlab, qora taglikda, so'ngra tekis metall ko'zguda joylashgan satr bo'ylab bir tekis taqsimlangan N nuqtalardagi yorug'likni qaytish koeffitsiyentlarining qiymatlari jadvallari hisoblanadigan elektron tasvirlarini shakllantirish bilan ketma-ket elektr signallari ketma-ketligiga o'zgartiriladi, nisbiy yorug'lik o'zgartirilishidan keyin esa qora taglikka joylashtirilgan materialning yorug'likni qaytarish koeffitsiyenti va materialning ko'zgudagi satr bo'ylab bir tekis taqsimlangan N nuqtalardan qaytish koeffitsiyenti aniqlanadi, tadqiq qilinadigan materialning makro bir jinsli emasligi esa shaffoflikning standart og'ish qiymati bo'yicha baholanadi.

Bu usul bosma qog'ozning bir emasligini aniqlash hisobiga shaffoflikning og'ish qiymatini yuqori aniqlikda ta'minlaydi, ammo bu usulning kamchiliklari shundaki, bu usulda optik shaffof materiallarning ifloslanish darajasini aniqlash mumkin emas, chunki u buning uchun mo'ljallanmagan. Bundan tashqari, unda qora taglikdan, so'ngra metall ko'zgudan foydalaniladi va qiymatni olish uchun maxsus jadvallardan foydalanadi, bu esa shaffoflik haqida ma'lumotlarni olish tezligini cheklaydi.

Asosiy qism. Fotoelektr batareyalarning optik yuzasining ifloslanish darajasini monitoring qilish funksiyasi va o'z-o'zini tozalash rejimiga ega avtomatik qurilma birining tashqi tomonida uzatmalar juftligi bilan kinematik bog'langan o'qqa sharnir bilan mahkamlangan ikkita fotoelektrik o'zgartirgich o'rnatilgan korpusning tashqi old qismidagi taqqoslash blokiga ega, yetakchi uzatma (shestern) qopqoqning o'qiga ulangan, yetakchi uzatma ta'minot blokiga ulangan fotoreledan iborat elektron sxemaga bog'langan elektr yuritma bilan bir o'qda joylashgan, bunda fotorele bir vaqtning o'zida impuls generatoriga, chastotalar bo'lgichiga, mos tushish blokiga, diod va RS-trigger S kirishiga ulangan, mos tushish sxemasi vaqtini berish blokiga ulangan, RS-trigger S kirishi kontakt juftlikka va bittalik multivibratorga ulangan, uning chiqishi RS-trigger S kirishiga ulangan, RS-triggerlarning chiqishlari elektr dvigatelga ulangan revers blokiga ulangan, "bekor qilish" kirishi kontakt juftlik va kondensator va ulangan va RS-triggerning R kirishi bilan bog'langan, uning chiqishi rele cho'lg'amiga ulangan tranzistorning bazasiga bog'langan, boshqaruv tugmali uzgichga ega va aloqa liniyasi orqali RS-triggerning S kirishiga ulangan, ikki holatli qayta ulagich aloqa liniyasi orqali rele cho'lg'amiga yuklangan Shmitt triggeri bilan ulangan, ikkinchi kontakt fotoelektr o'zgartirgichlarga ulangan, uchinchi kontakt indikatorga bog'langan analog-raqamli o'zgartirgichga ulangan.

Qurilma monitoring tadqiqotlarini o'tkazishda ma'lumotlarni masofadan olish imkoniyati va fotoelektr batareyalar yuzasini avtomatik tozalash funksiyasi hisobiga o'lchovlarning yuqori tezkorligini ta'minlaydi, bu esa ma'lumotlarni olish tezkorligini va foydalanish qulayligi darajasini oshiradi.

Biroq, fotoelektr batareyaning ramasiga o'rnatilgan korpus ichiga elektron sxemaning joylashtirilishi va quyosh nurlanishining infraqizil diapazoni nurlariga to'g'ridan to'g'ri tushishi yopiq korpusning va shunga, mos ravishda, yarimo'tkazgich elementlarning kuchli qizishiga olib keladi, bu o'lchovlarning aniqligi, qurilmaning ishonchliligi, umuman, qurilmaning xizmat qilish muddatining cheklanishiga olib keladi (issiqlik "shovqinlar", "nol" dreyfi darajasining oshishi, yarimo'tkazgichli qurilmalarning issiqlik o'tkazuvchanligining o'zgarishi tufayli barqarorlikning kamayishiga boshqalar tufayli), bu, ayniqsa, bu agar qurilma yozda dasht va cho'l hududlarida harorat $55-65^{\circ}C$ gacha ko'tariladigan janubiy kengliklarda (O'rta Osiyoning keskin kontinental iqlimi bo'lgan mamlakatlari, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika va boshqa janubiy kengliklarda) o'rnatilsa, sezilarli bo'ladi, bundan tashqari, ochiq joyga fotorelarning o'rnatilishi noto'g'ri ishlab ketishga olib kelishi mumkin (qushlarning qo'nishi, odamning qo'li yoki boshqa narsalar bilan soylanishi va h.k.).


Vazifa monitoring tadqiqotlarini o'tkazishda quyosh fotoelektr batareyalarining optik yuzasining ifloslanish darajasini o'lchashning aniqligi va ishonchliligini oshirish, qurilmaning xizmat qilish muddatini, foydalanish qulaylik darajasini oshirish va issiq tropik iqlimga ega bo'lgan hududlarda va fotoelektr batareyalarni avtomatik tozalash funksiyasiga ega qurilmalardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash hisoblanadi.

Texnik yechim fotoelektr batareyaning maksimal volt-amper xarakteristikasini ta'minlashga, ya'ni monitoring jarayonida minimal energiya sarfi bilan yuzani avtomatik rejimda o'z vaqtida tozalash va toza-

lashning yuqori tezkorligini saqlash bilan monitoring tadqiqotlarini o'tkazilishida masofadan ma'lumotlarni olish va ifloslanish to'g'risida ma'lumot olishning ishonchligini ta'minlash imkoniyati hisobiga quyosh energiyasini elektr energiyasiga o'zgartirish tezkorligini ta'minlashga qaratilgan.


Qo'yilgan maqsadga quyidagi yo'l bilan erishiladi: taqqoslash bloki ikkita optik bo'limlar shaklida amalga oshiriladi, ularning har biri yorug'lik nurlari konsentratori va ort tomonidan o'zaro burchak ostida va ikkita gorizontaal yo'naltirilgan, shuningdek, gorizontaal qaytargichlar bilan burchak ostida o'rnatilgan ikkita vertikal joylashgan simmetrik qaytargichlar bilan jihozlangan korpusning old qismiga o'rnatilgan shisha to'rtburchakli plastinkadan iborat, binobarin, simmetrik qaytargichlardan biri, pastki qaytargich gorizontaal holatda joylashgan, ularning kesishmasida gorizontaal chiziqli bo'yab yorug'likni o'tkazadigan tolalarning kirish uchlari yotqizilgan, shisha plastinalardan birining ustiga sharnirda kronshteyn orqali buralish qopqog'i mahkamlangan, kran-richag mexanizmiga o'xshash tizimni hosil qiladigan o'n oltilik juftlik uzatma va elektr motorining o'qiga o'rnatilgan elektr dvigatel orqali harakatga keltiriladigan ikkita sharnirlar va G-simon sterjen, tekislikning orqa tomonidagi harakatga keltiriladigan uzatma aylanishida akkumulator va quyosh batareyasi ko'rinishidagi fotorele va ta'minot manbaiga ega bo'lgan elektron sxemaga ulangan va aylanish o'qiga nisbatan diametral qarama-qarshi tomonlarda o'rnatilgan ikkita kontakt juftliklarga tegadigan bo'rtma element bilan jihozlangan, elektron sxema bazasi 2HAM mantiqiy elementining chiqishiga ulangan birinchi tranzistorning emitteriga ulangan cho'lg'amli K1.1 relening kontakti orqali nasosning elektr dvigateliga ketma-ket ulangan, 2HAM mantiqiy elementning kirishlaridan biriga ikki holatli qayta ulagichning bitta kontakti kabel liniyasi orqali ulangan, ketma-ket ulangan rostlagichli Shmitt triggeri va kutish multivibrator, qayta ulagichning ikkinchi kontakti o'qli asbobga va analog-raqamli o'zgartirgichga, undan interfeys blokiga ulangan, qayta ulagichning uchinchi kkommutatsiyalaydigan kontakti kabel liniyasi orqali kirishlarida ikkita fotoqabul qilgichlarga ega differensial kuchaytirgichning chiqishiga ulangan, ularga ikkita optik bo'limlardan yorug'likni o'tkazadigan tolalarning chiqish uchlari ulangan, 2HAM elementining ikkinchi chiqishi YO'Q elementi orqali emitteri bilan elektr dvigatelga yuklangan ikkinchi tranzistorning bazasiga va RS-triggerga ulangan, RS-triggerning S kirishiga bir vaqtning o'zida aloqa liniyasi orqali tugmali qayta ulagich va kondensator orqali kirishida ikkinchi yorug'likni o'tkazish kanali nurlarining chiqish uchlari bilan birlashtirilgan fotodetektorli kuchaytirgichga ega ikkinchi kuchaytirgichning chiqishi ulangan, ikkinchi yorug'lik o'tkazish kanali nurlarining chiqish uchlari korpus sirtiga chiqarilgan va yelpig'ich shaklida o'rnatilgan va vertikal va parallel o'rnatilgan ikkita noshaffof aylanadigan plastinalar orasiga joylashtirilgan, ikkinchi kuchaytirgichning chiqishi ikkinchi K2.1 relening cho'lg'amiga ulangan, uning kontaktlari bir kontakt juftligi ikkinchi chiqishi bilan boshqa kontakt juftligi parallellashtirilgan va RS-triggerning R kirishiga ulangan, kirish uchlari korpus sirtiga chiqarilgan va infraqizil (IQ) datchikka ulangan chiqish uchlari ega to'rtinchi optik kanal uchinchi kuchaytirgich orqali ulangan, EMAS elementi emitteri orqali fotoqabul qilgichga tegib turadigan yorug'lik o'tkazgichiga ulangan taymerli uchinchi tranzistor bazasiga ulangan, qurilma ikkinchi kutish bittalik vibratoriga kabel liniyasi orqali ulangan kunlar sonining elektromagnit hisoblagichi bilan jihozlangan.

1-rasmda quyosh batareyasi ramasiga o'rnatilgan qurilma (old ko'rinishi) keltirilgan. 2-rasmda aylanma qopqoqning elektromexanik yuritma sxemasi (yon ko'rinishi) tasvirlangan. 3-rasmda taqqoslash blokining optik qismlari va tolali tashki etuvchilari va optik tolali yorug'lik o'tkazgichlarining joylashishi (yuqoridan ko'rinish) keltirilgan, 4-rasmda qurilmaning to'liq ochilgan qopqog'ining bir qismi tasvirlangan, 5-rasmda optik tolali yorug'lik o'tkazgichi kirish uchlari yozish sxemasi (aniqlik uchun ikkita vertikal plastinalardan biri ko'rsatilmagan) ko'rsatilgan, infraqizil datchik yorug'likni o'tkazadigan tolasining kirish uchlari o'rnatish sxemasi 6-rasmda keltirilgan. 7-rasmda turli tushish burchaklaridagi simmetrik qaytargichlardan yorug'lik (quyosh) nurlarining yo'li tasvirlangan, 8-rasmda korpus va optik tolali kabelarga ega elektron blokning o'rnatilishi ko'rsatilgan, 9-rasmda harakatga keltiriladigan uzatmaning ort qismidagi bo'rtma elementning mahkamlanishi sxemasi ko'rsatilgan. 10-rasmda qurilmaning elektron blok sxemasi keltirilgan.




1-rasm.

Qurilma quyidagilardan tashkil topgan: 2 tashqi ramaga oʻrnatilgan 1 korpus (1-rasm), 4 mahkamlash elementlari orqali 3 quyosh batareyasi, korpusning 1 tashqi old qismida toʻrtburchak shakldagi 5 va 6 ikkita shisha plastinalar bitta tekislikka oʻrnatilgan, ulardan birining ustiga 7 sharnirlarda zich yopiladigan 8 burilish qopqogʻi oʻrnatilgan, uning ichki tomonida 7 sharnirlardan biroz masofada 8 qopqogʻ tekisligigra perpendikulyar 9 kichik kronshteyn oʻrnatigan, 2-rasmda kran-richag mexanizmiga oʻxshash tizimni hosil qiladigan ikkita sharnirlar va 10 G-simon egilgan sterjen orqali 11 harakatga keltiriladigan uzatma va 13 elektr dvigatel oʻqiga oʻrnatilgan 12 harakatga keltiradigpn uzatma orqali ulangan.




2-rasm.




3-rasm.

8 qopqoqning burilish burchagini cheklagich sifatida 14, 15 prujinali kontakt juftliklari ishlatiladi, ular 12 uzatma tekisligining orqa tomoniga oʻrnatilgan 16 boʻrtma elementga tegish momentida ishlab ketadigan tarzda diametripl qarama-qarshi oʻrnatilgan (9-rasm), taqqoslash bloki ikkita optik boʻlimlardan iborat boʻlib, ularning har biri 5 va 6 shisha plastinalarning orqa tomonlarida joylashgan yorugʻlik nurlari konsentratorlarini oʻz ichiga oladi (3-rasm), ular ikkita 17 vertikal simmetrik qaytargichlarga burchak ostida oʻrnatilgan, bu qaytargichlar 18, 19 oʻzaro va ikkita ikkita gorizontal yoʻnaltirilgan simmetrik qaytargichlarga burchak ostida joylashtirilgan, shuningdek, bu simmetrik qaytargichlar ham oʻzaro burchak ostida oʻrnatilgan, binobarin, ulardan biri, quyi 19 qaytargich gorizontal joylashgan, ikkinchi 18 qaytargich (yuqori) 18 orqa tomondan quyi qaytargichga burilgan (2-rasm) va 18 va 19 qaytargichlar tekisliklarining tutashish nuqtasida gorizontal chiziq boʻylab yorugʻlikni oʻtkazadigan 20, 21 tolalarning kirish uchlari yotqizilgan.

1 korpusning ustki gorizontaal yuzasida buralrshi mumkin bo'lgan va o'zar parallel joylashgan ikkita vertikal noshaffof 22 plastinalar o'rnatilgan (aniqlik uchun bitta plastinka 5-rasmida ko'rsatilmagan) va ular orasida yelpig'ich shaklida 23 yorug'lik o'tkazuvchi nurlari uchlari joylashgan (1.5-rasm).




4-rasm.




5-rasm.


Bundan tashqari, korpus yuzasida 24 tutgich yordamida quyosh nurlanishining gorizontaal yo'nalishlarini qabul qiladigan vertikalga nisbatan 90° ga burilgan kirish uchlarga ega 25 yorug'lik o'tkazgichi nurlari o'rnatilgan. Qisqa kabel liniyalari va elektr o'tkazuvchi qismning simlari ko'rinishidagi alohida optik kanallar sifatida yorug'likni o'tkazadigan tolalarning (nurlarning) barcha chiqish uchlari 3 quyosh batareyasi tekisligi ostida joylashgan alohida himoya korpusiga ega 26 elektron sxemaga (8-rasm) ulangan, elektron sxema 27, 28 fotoqabul qilgilarga (fotorezistorlar, fotodiodlar, fototranzistorlar va boshqalar) ega 3 quyosh batareyasining ostida joylashgan alohida himoya korpusiga ega, fotoqabul qilgichlar 32 ikki holatli qayta ulagichga 31 kabel aloqa liniyasi orqali beriladigan 30 chiqish signali balansi rostlagichiga ega 29 differensial kuchaytirgichning kirishlariga ulangan, qayta ulagichning bitta kontakti o'qli turdagi 33 magnit-elektr o'lchov asbobiga va 34 analog-raqamli o'zgartirgich (ARO) orqali 35 interfeys blokiga ulangan, u monitoring jarayonini avtomatlashtirish darajasini oshirish uchun zarurat bo'lganda kompyuterga (tegishli dasturiy ta'minotga ega) ulanish uchun zarur bo'ladi.




6-rasm.



7-rasm.



8-rasm.




9-rasm.

32 qayta ulagichning ikkinchi kontakti 31 kabel aloqa liniyasi orqali 37 rostlovchi rezistorli 36 Shmitt triggeriga ulanadi. Undan 39 kutish bittalik multivibrator orqali 38 2HAM mantiqiy elementning

birinchi kirishiga, 38 elementning boshqa kirishiga 40 RS-triggrning chiqishi 41 EMAS mantiqiy element orqali ulangan, 38 elementning chiqishi 42 tranzistorning bazasiga ulangan, uning emitter chiqishiga 43 rele cho'lg'ami ulangan, rele cho'lg'ami 3quyosh batareyalari yuzasini tozalash uchun suv nasosining 44 elektr dvigateli K1.1 kontaktlari orqali ulangan.

23 yorug'lik o'tkazgichining chiqish uchlari dan yorug'lik signallari 46 kuchaytirgichga ulangan 45 fotoqabul qilgich orqali qabul qilinadi, kuchaytirgichning chiqishi kondensator orqali 40 RS-trigger S-kirishiga, K2.1 kontaktlarga 48 relega ulangan, K2.1 kontaktlar 40 RS-trigger R-kirishiga bitta kontaktlari bilan ulangan 14 va 15 cheklovchi kontakt juftlari bilan bog'langan, 40 RS-trigger chiqishi 49 ikkinchi tranzistor bazasiga ulangan, uning emitter chiqishi 8 qopqoq elektr yuritmasining 13 elektr dvigateliga ulangan.

Quyosh nurlanishining infraqizil (IQ) diapazoni 51 kuchaytirgich kirishiga ulangan 50 IQ-datchik orqali qabul qilinadi, uning chiqishidan 52 EMAS mantiqiy elementi orqali emitter chiqishi 54 taymerga ulangan 53 uchinchi tranzistorning bazasiga beriladi, taymerdan 45 fotoqabul qilgich yaqinida joylashgan 55 yorug'lik o'tkazgichiga beriladi, shunda yorug'lik energiyasi yorug'lik o'tkazgichining 23 chiqish qismidan ham qabul qilinadi, 53 tranzistorning kollektor chiqishi 57 kontroller orqali 3 quyosh batareyasidan zaryadlanadigan va 58 fotorele orqali ulanadigan 56 akkumulator batareyasidan kuchlanish manbasiga ulangan, fotorele 59 kutish bittalik vibratori ishga tushiradi, undan signal 31 kabel liniyasi orqali 62 bekor qilish tugmasiga ega 61 elektromagnit hisoblagichning kirishiga ulangan (zarurat bo'lganda kunlar yoki kunlar sonini hisoblash uchun kompyuterga ulanadigan) 60 yorug'lik o'tkazgichili indikatorga beriladi. Elektr yuritma mexanizmini masofadan ishga tushirish 63 tugmachali (prujinali) ulagich orqali amalga oshiriladi.



10-rasm.

Xulosa. Texnik yechim fotovoltaik batareyaning maksimal volt-amper xarakteristikasini ta'minlashga, ya'ni avtomatik rejimda sirtini o'z vaqtida tozalash va masofaviy ma'lumotlarni yig'ish imkoniyati bilan

ifloslanish to'g'risidagi ma'lumotlarni ishonchli olish, shuningdek, minimal energiya sarfi bilan monitoring jarayonida yuqori tozalash samaradorligini ta'minlash uchun quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish samaradorligini ta'minlashga qaratilgan.

Taklif etilayotgan qurilma quyosh fotoelementlarining sirtini tozalash jarayonini to'liq avtomatlash-tirish hisobiga operator xodimlari ishtirokisiz nafaqat bitta quyosh fotoelementini, balki massivning butun qatori yoki qatorlarini tozalash jarayonining yuqori darajadagi qulayligini va samaradorligini ta'minlaydi, bu esa massivlarni saqlash va ishlatish xarajatlarini kamaytirish, qo'shimcha energiya ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyojni maksimal darajada kamaytirish imkonini beradi. anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Григораш О.В. Возобновляемые источники электроэнергии. В.Григораш, Ю.П.Степура, Р.А.Сулейманов и др. Краснодар, КубГАУ, 2012, 272 с.
- (2). Нуштаева, О.Х. (2024). Дистанционное устройство для мониторинга уровня загрязненности с функцией самоочистки поверхности солнечной батареи. Science and innovation, 3(Special Issue 17), p. 497–503.
- (3). Захидов, Р.А., Захидов, Н.М. (2022). Система для автоматической очистки поверхностей солнечных фотопанелей. Илм-фан ва инновацион ривожланиш. Наука и инновационное развитие, 5(3), с. 16–23.
- (4). Borisova Yelena, Amurova Natalya, Kodirov Fazliddin, Abdullayeva Surayyo (2022). Computerized environmental monitoring systems. Universum: технические науки, 2–6 (95), с. 66–70.

Vaisova Moxira Davlatboyevna (Urganch davlat universiteti dotsenti; e-mail: v_mohira@mail.ru),
Salayeva Rohila Rustamovna (Urganch davlat universiteti magistranti; e-mail: rokhilasalaeva15@gmail.com)

$\mathbb{C}^2$ FAZODA α -SUBGARMONIK FUNKSIYANING INTEGRAL XOSSASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada $\mathbb{C}^2$ fazoda α -subgarmonik funksiyalar sinfi chiziqli almashtirishlar ostida o'z xossalari saqlab qolishi va klassik subgarmonik funksiyalarga o'xshash muhim o'rta qiymat xossasiga ega ekani o'rganilgan.

Kalit so'zlar: α -subgarmonik funksiya, chiziqli almashtirish, differensial forma, invariantlik, o'rta qiymat xossasi.

Вайсова Мохира Давлатбоевна (доцент Ургенчского государственного университета),
Салаева Рохила (магистрант Ургенчского государственного университета)

ИНТЕГРАЛЬНОЕ СВОЙСТВО α -СУБГАРМОНИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ В $\mathbb{C}^2$

Аннотация. В данной статье исследован класс α -субгармонических функций в пространстве $\mathbb{C}^2$, сохраняющих свои свойства при линейных преобразованиях. Доказано, что эти функции обладают важным свойством среднего значения, аналогичным классическим субгармоническим функциям.

Ключевые слова: α -субгармоническая функция, линейное преобразование, дифференциальная форма, инвариантность, свойство среднего значения.

Vaisova Moxira Davlatboyevna (Associate Professor, Urgench State University),
Salayeva Rohila (Master's Student, Urgench State University)

INTEGRAL PROPERTY OF α -SUBHARMONIC FUNCTIONS IN $\mathbb{C}^2$

Annotation. This article examines the class of α -subharmonic functions in space $\mathbb{C}^2$, which preserve their properties under linear transformations. It is proven that these functions possess an important mean-value property, similar to classical subharmonic functions.

Keywords: α -subharmonic function, linear transformation, differential form, invariance, mean-value property.

Kirish. Subgarmonik funksiyalar nazariyasi potentsiallar nazariyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, ularning xossalari ko'plab matematik sohalarida, jumladan, kompleks analiz, differensial geometriya va matematik fizika sohalarida muhim rol o'ynaydi. Subgarmoniklik tushunchasi turli geometrik va analitik strukturalarga bog'liq holda umumlashtirilishi mumkin. Shunday yondashuvlardan biri bu differensial formalar yordamida berilgan umumlashgan subgarmoniklik, xususan, α -subgarmoniklik tushunchasidir.

Mazkur maqolada α -subgarmonik funksiyaning chiziqli almashtirishlarga nisbatan invariantligi o'rganiladi. Ya'ni, agar biror funksiya ma'lum bir α -formaga nisbatan subgarmonik bo'lsa, u holda bu funksiya mos chiziqli almashtirishdan keyin ham yangi formaga nisbatan subgarmonik bo'lib qoladi. Ush-

bu natija subgarmoniklikning geometrik tabiatini va uning koordinatalar almashtirishiga nisbatan barqarorligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Keyingi yillarda yaxshi o'rganilgan subgarmonik va plyurisubgarmonik funksiyalar sinflarning oraliq sinflarini tashkil qiluvchi m — subgarmonik funksiyalar sinfi jadal o'rganildi va bu sinf uchun potentsiallar nazariyasi qurildi va boshqa matematik sohalarga tatbiq qilinmoqda (1,4,5). Bu sinflarni o'rganish jarayonida differensial formalarni almashtirish orqali yuzaga keladigan yangi bir sinf α -subgarmonik funksiyalarni o'rganishga zaruriyat tug'ildi. S.Imomqulov, B.Abdullayev, R.Sharipov, M.Vaisovalarning ishlarida $(n-1, n-1)$ tartibli α -

forma orqali $dd^c u \wedge \alpha$ operator aniqlanib, bu operatorning o'z o'ziga qo'shma elliptik operatorligi isbotlandi va α - subgarmonik funksiyalar sinfining ba'zi xossalari isbotlandi (2,3).

Tahlil va natijalar. $D \subset \mathbb{C}^2$ bo'lsin. Bu sohada birinchi tartibli differensial forma olamiz:

$$\alpha = \frac{i}{2}(\alpha_{11} dz_2 \wedge \overline{dz_2} + \alpha_{12} dz_2 \wedge \overline{dz_1} + \alpha_{21} dz_1 \wedge \overline{dz_2} + \alpha_{22} dz_1 \wedge \overline{dz_1}). \quad (1)$$

α -qat'iy musbat, yopiq forma bo'lsin: $d\alpha = 0$, α -formaning qat'iy musbatligi deganda istalgan kompakt $G \subseteq D$ soha uchun shunday $\varepsilon > 0$ son topiladiki, $\alpha - \varepsilon\beta \geq 0$ munosabat o'rinli bo'lishini tushunamiz.

Ma'lumki, differensial formaning musbatlik shartidan uning koeffitsiyentlari $\alpha_{jk} = \overline{\alpha_{kj}}$, $\forall j, k = 1, 2$ tenglikni qanoatlantiradi (q. [6]). $dd^c u$ operatorning aniqlanishiga ko'ra, (q.[4]) $u \in C^2(D)$ uchun $dd^c u = \frac{i}{2} \sum_{j,k=1}^2 \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \overline{z_k}} dz_j \wedge \overline{dz_k}$ ko'rinishga ega. Endi yuqorida kiritilgan

α differensial forma orqali $dd^c u \wedge \alpha$ operatorni topamiz:

$$dd^c u \wedge \alpha = \left(\frac{i}{2}\right)^2 \left[\alpha_{11} \frac{\partial^2 u}{\partial z_1 \partial \overline{z_1}} + (-1)\alpha_{12} \frac{\partial^2 u}{\partial z_1 \partial \overline{z_2}} + (-1)\alpha_{21} \frac{\partial^2 u}{\partial z_2 \partial \overline{z_1}} + \alpha_{22} \frac{\partial^2 u}{\partial z_2 \partial \overline{z_2}} \right] dz$$

Bu yerda $\frac{i}{2} dz_1 \wedge \overline{dz_1} = dx_1 \wedge dy_1$, $\frac{i}{2} dz_2 \wedge \overline{dz_2} = dx_2 \wedge dy_2$ munosabatlardan foydalanib, haqiqiy o'zgaruvchilarga o'tamiz va $\Delta_\alpha u$ orqali haqiqiy o'zgaruvchili differensial operatorni belgilaymiz, belgilashlarni soddalashtirish uchun $y_1 = x_3$; $y_2 = x_4$ deb belgilab olsak, u holda

$$\Delta_\alpha u = \sum_{j,k=1}^4 a_{j,k} \frac{\partial^2 u}{\partial x_j \partial x_k} \quad (2)$$

ko'rinishga kelamiz. Bu yerda bu operator koeffitsiyentlaridan tuzilgan

$$A = \begin{pmatrix} \alpha_{11} & -\operatorname{Re} \alpha_{12} & 0 & \operatorname{Im} \alpha_{12} \\ -\operatorname{Re} \alpha_{12} & \alpha_{22} & -\operatorname{Im} \alpha_{12} & 0 \\ 0 & -\operatorname{Im} \alpha_{12} & \alpha_{11} & -\operatorname{Re} \alpha_{12} \\ \operatorname{Im} \alpha_{12} & 0 & -\operatorname{Re} \alpha_{12} & \alpha_{22} \end{pmatrix}$$

matritsasini hosil qilamiz. Bu matritsaning barcha koeffitsiyentlari haqiqiydir. Shu bilan birga, α differensial formaning musbatlik shartidan $\alpha_{11} > 0$, $\alpha_{22} > 0$, $\alpha_{11} \cdot \alpha_{22} - |\alpha_{12}|^2 > 0$ tengsizliklarga

egamiz (q.[6]). Bu matritsa $A = \begin{pmatrix} A_1 & A_2 \\ A_3 & A_4 \end{pmatrix}$ blok matritsa bo'lib, agar A_1 teskarilanuvchi bo'lsa,

$\det A = \det A_1 \det(A_4 - A_3 A_1^{-1} \cdot A_2)$ o'rinli bo'ladi. Bu yerdan

$$\det A_1 = \begin{vmatrix} \alpha_{11} & -\operatorname{Re} \alpha_{12} \\ -\operatorname{Re} \alpha_{12} & \alpha_{22} \end{vmatrix} = \alpha_{11} \alpha_{22} - \operatorname{Re}^2 \alpha_{12} > 0 \text{ tengsizlikni olamiz.}$$

M.Vaisovanning [3] ishida $\mathbb{C}^n$ fazoda $(n-1, n-1)$ bidarajali qat'iy musbat, yopiq differensial forma uchun $\Delta_\alpha u$ operatorning elliptik operator bo'lishi ko'rsatilgan. B.Abdullayev, S.Imomkulov, R. Sharipovlarning [2] ishida esa quyidagi teorema isbotlangan: agar $\alpha - (n-1, n-1)$ bidarajali qat'iy musbat, yopiq differensial forma bo'lsa, u holda $\Delta_\alpha u$ operator o'z-o'ziga qo'shma elliptik operator bo'ladi.

1-ta'rif. $D \subset \mathbb{C}^n$ sohada $dd^c u \wedge \alpha = 0$ tenglamani qanoatlantiruvchi $u(z) \in C^2(D)$ funksiyaga α — garmonik funksiya deyiladi.

2-ta'rif. Agar $D \subset \mathbb{C}^n$ soha va $u(z) \in C^2(D)$ funksiya uchun $dd^c u \wedge \alpha \geq 0$ bo'lsa, u holda α -subgarmonik funksiya deyiladi. Agar $D \subset \mathbb{C}^n$ sohada $u(z) \in L^1_{loc}(D)$ funksiya uchun

$$1) u(z) \text{ funksiya } D \text{ da yuqoridan yarim uzluksiz: } u(z^0) \geq \lim_{z \rightarrow z_0} u(z), \forall z^0 \in D;$$

$$2) dd^c u \wedge \alpha \geq 0 \text{ operator umumlashgan ma'noda musbat, ya'ni,}$$

$$\int u(z) \alpha(z) \wedge dd^c \omega(z) \geq 0, \forall \omega \in F(D), \omega \geq 0.$$

bo'lsa, $u(z)$ funksiyaga α -subgarmonik deyiladi.

α -subgarmonik funksiyalar sinfi $\alpha - sh(D)$ kabi belgilanadi. Biz $u(z) \equiv -\infty$ funksiyalarni ham $\alpha - sh(D)$ sinfga kiritamiz.

Demak, biz qarayotgan $dd^c u \wedge \alpha$ operator $\mathbb{C}^2$ fazoda ikkinchi tartibli elliptik operatorni ifodalaydi. [7] ishida bu operatorning fundamental yechimining ko'rinishi topilgan. Bu maqolada $\mathbb{C}^2$ fazoda α -subgarmonik funksiyaning ba'zi xossalari ko'rib chiqamiz.

1-teorema. Agar $D \subset \mathbb{C}^2$ soha va $u(z) \in \alpha - sh(D)$, $w = T(z) : \mathbb{C}^2 \rightarrow \mathbb{C}^2$ xosmas chiziqli akslantirish ($\det T \neq 0$) bo'lsa, u holda

$$v(w) = u \circ T^{-1}(w)$$

funksiya T chiziqli akslantirish natijasida almashtirilgan α_T formaga nisbatan $D' = T(D)$ sohada α_T -subgarmonik funksiya bo'ladi.

Isbot. Bizga $T : \mathbb{C}^2 \rightarrow \mathbb{C}^2$ chiziqli akslantirish

$$\begin{pmatrix} w_1 \\ w_2 \end{pmatrix} = T \begin{pmatrix} z_1 \\ z_2 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} az_1 + bz_2 \\ cz_1 + kz_2 \end{pmatrix}$$

berilgan bo'lsin, bu yerda $a, b, c, k \in \mathbb{C}$, $\det T = ak - bc \neq 0$. T operatorning

$$T = \begin{pmatrix} a & b \\ c & k \end{pmatrix} \text{ matrisasiga teskari } T^{-1} \text{ operatorni topamiz: } T^{-1} = \frac{1}{ak - bc} \begin{pmatrix} k & -b \\ -c & a \end{pmatrix}.$$

$w = Tz$ bo'lsin, u holda $w_1 = az_1 + bz_2$, $w_2 = cz_1 + kz_2$ tengliklardan

$$z_1 = \frac{k w_1 - b w_2}{ak - bc}, \quad z_2 = \frac{-c w_1 + a w_2}{ak - bc}$$

o'zgaruvchilarni topamiz. Endi differensiallarni qoida bo'yicha hisoblasak, quyidagilarga ega bo'lamiz:

$$dz_1 = \frac{k dw_1 - b dw_2}{ak - bc}, \quad dz_2 = \frac{-c dw_1 + a dw_2}{ak - bc}.$$

Shunga o'xshash qo'shma differensiallar uchun quyidagi tengliklar o'rinli:

$$\overline{dz_1} = \frac{\overline{k dw_1 - b dw_2}}{ak - bc}, \quad \overline{dz_2} = \frac{\overline{-c dw_1 + a dw_2}}{ak - bc}.$$

Endi topilgan ifodalarni α formaning (1) ko'rinishiga olib borib qo'yib, soddalashtirishlardan so'ng yangi differensial formani olamiz:

$$(T^{-1})^* \alpha = \frac{i}{2} \left(\alpha_{11}' dw_2 \wedge \overline{dw_2} + \alpha_{12}' dw_2 \wedge \overline{dw_1} + \alpha_{21}' dw_1 \wedge \overline{dw_2} + \alpha_{22}' dw_1 \wedge \overline{dw_1} \right),$$

bu yerda

$$\begin{aligned} \alpha_{11}' &= \frac{\alpha_{11} |a|^2 - \alpha_{12} \overline{a} \overline{b} - \alpha_{21} \overline{b} \overline{a} + \alpha_{22} |b|^2}{|ak - bc|^2}, \\ \alpha_{12}' &= \frac{-\alpha_{11} \overline{a} \overline{c} + \alpha_{12} \overline{a} \overline{k} + \alpha_{21} \overline{b} \overline{c} - \alpha_{22} \overline{b} \overline{k}}{|ak - bc|^2}, \quad \alpha_{21}' = \frac{-\alpha_{11} \overline{c} \overline{a} + \alpha_{12} \overline{c} \overline{k} + \alpha_{21} \overline{k} \overline{a} - \alpha_{22} \overline{k} \overline{b}}{|ak - bc|^2}, \\ \alpha_{22}' &= \frac{\alpha_{11} |c|^2 - \alpha_{12} \overline{c} \overline{k} - \alpha_{21} \overline{k} \overline{c} + \alpha_{22} |k|^2}{|ak - bc|^2} \end{aligned}$$

Bu yangi koeffitsiyentlarni α forma koeffitsiyentlaridan tuzilgan $A = (\alpha_{ij})$ matritsa orqali

$$A' = \frac{(T^{-1})^* A (T^{-1})}{|\det T|^2} \text{ ko'rinishda yozish mumkin. Demak, } T \text{ almashtirish natijasida qat'iy musbat}$$

aniqlangan, yopiq α forma yangi qat'iy musbat aniqqlangan, yopiq α_T formaga o'tadi (q.[6]). Agar $u(z)$ funksiya D sohada α - subgarmonik funksiya bo'lsa, u holda $dd^c u \wedge \alpha \geq 0$ tengsizlik umumlashgan ma'noda bajariladi. $D' = T(D)$ sohada aniqqlangan $v(w) = u(T^{-1}(w))$ funksiya uchun $dd^c v \wedge \alpha_T = (T^{-1})^* (dd^c u \wedge \alpha)$ tenglik bajariladi. T operator chiziqli va teskarilanuvchi ekanidan $dd^c v \wedge \alpha_T \geq 0$ kelib chiqadi. Demak, v funksiya α_T -formaga nisbatan subgarmonikdir.

1-natija. Agar $w = T(z) : \mathbb{C}^2 \rightarrow \mathbb{C}^2$ xosmas chiziqli akslantirish ($\det T \neq 0$) faqat parallel ko'chirishdan iborat, ya'ni $T(z) = z + b$, $b \in \mathbb{C}$ bo'lsa, u holda almashtirish natijasida α forma o'zgarmaydi va binobarin $v(w) = u \circ T^{-1}(w)$ funksiya yana α -subgarmonik funksiya bo'ladi.

Endi bu tasdiqdan foydalanib, α -subgarmonik funksiyalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'rta qiymat haqidagi xossani isbotlaymiz.

2-teorema. Agar $u(z)$ funksiya $D \subset \mathbb{C}^2$ sohada α -subgarmonik bo'lsa, u holda $\forall z^0 \in D$ nuqta va

$$E(z^0, r) = \left\{ z \in \mathbb{C}^2 : \alpha_{22} |z_1 - z_1^0|^2 + \alpha_{21} (z_1 - z_1^0) (\overline{z_2 - z_2^0}) + \right. \\ \left. + \alpha_{12} (z_2 - z_2^0) (\overline{z_1 - z_1^0}) + \alpha_{11} |z_2 - z_2^0|^2 \leq r^2 \right\} \subseteq D$$

psevdoshar uchun

$$u(z^0) \leq \frac{1}{\text{Vol}(E(z^0, r))} \int_{E(z^0, r)} u(\tau) dV(\tau)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi. Bu yerda $\text{Vol}(E(z^0, r))$ - psevdoshar hajmi va $dV(\tau)$ - hajm elementi.

Isbot: (1) forma koeffitsiyentlaridan tuzilgan $A = \begin{pmatrix} \alpha_{11} & \alpha_{12} \\ \alpha_{21} & \alpha_{22} \end{pmatrix}$, $\alpha_{21} = \overline{\alpha_{12}}$ matritsa musbat

aniqlangan ermit matritsasidir. Shuning uchun shunday U unitar almashtirish mavjudki, $A = U^* \Lambda U$, $\Lambda = \begin{pmatrix} \lambda_1 & 0 \\ 0 & \lambda_2 \end{pmatrix}$, $\lambda_1, \lambda_2 > 0$ munosabatlar o'rinli. Quyidagi $w = T(z - z^0) = \Lambda^{\frac{1}{2}} U(z - z^0)$

chiziqli almashtirishni qaraymiz:

$$\begin{cases} w_1 = \sqrt{\lambda_1} (U_{11}(z_1 - z_1^0) + U_{12}(z_2 - z_2^0)) \\ w_2 = \sqrt{\lambda_2} (U_{21}(z_1 - z_1^0) + U_{22}(z_2 - z_2^0)) \end{cases}$$

Bu akslantirish natijasida, $E(z^0, r)$ psevdoshar odatdagi Evklid fazosidagi sharga akslanadi:

$$E(z^0, r) \rightarrow B(0, r) = \left\{ w \in \mathbb{C}^2 : |w_1|^2 + |w_2|^2 \leq r^2 \right\}$$

Bu akslantirish yakobiani $J = \frac{1}{\lambda_1 \lambda_2} = \frac{1}{\det A}$ ga teng bo'ladi. $u(z)$ funksiyani yangi koordinatalarda ifodalasak, bu funksiya

$$\tilde{u}(w) = u \left(z^0 + U^* \Lambda^{-\frac{1}{2}} w \right)$$

ko'rinishga o'tadi. $u(z)$ funksiya $D \subset \mathbb{C}^2$ sohada α -subgarmonik funksiya ekanligidan 1-teoreмага ko'ra chiziqli xosmas almashtirish natijasida hosil bo'lgan $\tilde{u}(w)$ funksiya D sohaning aksi bo'l-

gan D' sohada odatdagi subgarmonik funksiyani ifodalaydi. Subgarmonik funksiyalar nazariyasidan ma'lumki (5), bu funksiya uchun o'rta qiymat haqidagi teorema o'rinli:

$$\tilde{u}(0) \leq \frac{1}{\text{Vol}(B(0, r))} \int_{B(0, r)} \tilde{u}(w) dV(w), \text{Vol}(B(0, r)) = \frac{\pi^2 r^4}{2}$$

Endi bu integralni dastlabki o'zgaruvchilar orqali ifodalasak,

$$\tilde{u}(w) = u(z^0 + T^{-1}w), \tilde{u}(0) = u(z^0),$$

$$\text{Vol}(B(0, r)) = |\det T|^2 \text{Vol}(E(z^0, r)) \text{ tengliklardan}$$

$$\begin{aligned} \frac{1}{\text{Vol}(B(0, r))} \int_{B(0, r)} \tilde{u}(w) dV(w) &= \frac{1}{\text{Vol}(B(0, r))} \int_{E(z^0, r)} u(z) |\det T|^2 dV(z) = \\ &= \frac{1}{\text{Vol}(E(z^0, r))} \int_{E(z^0, r)} u(z) dV(z) \end{aligned}$$

ifodani hosil qilamiz. Bu yerdan esa

$$u(z^0) \leq \frac{1}{\text{Vol}(E(z^0, r))} \int_{E(z^0, r)} u(z) dV(z)$$

tengsizlikni olamiz, bu yerda $E(z^0, r)$ psevdoshar hajmi. Shu bilan birga,

$$\text{Vol}(E(z^0, r)) = \frac{\pi^2 r^4}{2 |\det T|^2} = \frac{\pi^2 r^4}{2 \det A} \text{ ga tengligini ham topishimiz mumkin.}$$

Xulosa. Ushbu maqoladagi tadqiqot shuni ko'rsatadiki, α -subgarmonik funksiyalar sinfi chiziqli almashtirishlar ostida o'z xossalarini saqlab qoladi, bu ularning kompleks analiz va matematik fizikadagi ahamiyatini yanada oshiradi. 1-teorema α -subgarmoniklikning geometrik barqarorligini tasdiqlasa, 2-teorema esa klassik subgarmonik funksiyalarga o'xshash muhim o'rta qiymat xossasini isbotlaydi. Bu natijalar kompleks fazolarda potentsiallar va differensial operatorlarni o'rganish uchun yangi yo'nalishlarni ochadi. Keyingi tadqiqotlar kengroq funksiyalar sinflari va ko'pxilliklar uchun olingan natijalarni umumlashtirishga qaratilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Абдуллаев Б., Садуллаев А. Теория потенциалов в классе m — субгармонических функций. Труды Математического Института имени В.А.Стеклова, Москва, 2012, № 279, с. 166–192.
- (2). Abdullaev B.I., Imomkulov S.A., Sharipov R.A., α -subharmonic functions. Journal of Mathematical Sciences, Vol. 278, № 3, January, 2024, pp. 395–407.
- (3). Вайсова М.Д. Теория потенциала в классе α — субгармонических функций. “Узбекский математический журнал”, Ташкент, 2016, № 3, с. 46–52.
- (4). Садуллаев А. Теория потенциала. Ташкент, Университет, 2022, - 163 с.
- (5). Садуллаев А. Теория плюрипотенциала. Применения. Palmarium Academic Publishing, 2012, 316 с.
- (6). Demailly J.P. Complex Analytic and differential geometry. Universite de Grenoble I Institut Fourier, UMR 5582, France, 1997.
- (7). Vaisova M., Masharipova S. O'zgarmas koeffitsiyentli α — subgarmonik funksiyalarning fundamental yechimi haqida. “Urganch davlat Pedagogika instituti axborotnomasi”, 2023, 1-son, 8–13-betlar.

Azimov Ulug'bek Abduxalilovich (Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD))

IJTIMOYILASHUV JARAYONIDA QADRIYATLARNING ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiylashuv tushunchasi, milliy qadriyatlarning madaniy ijtimoiylashuv bilan chambarchas bog'liqligi, ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni ekanligi, ijtimoiylashuv omillari, ijtimoiylashuv jarayoni yoshlarning turli xil sharoitlar bilan bevosita birgalikdagi harakati jarayonida amalga oshishi va ularning faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: demokratik islohotlar, qadriyat, milliy qadriyatlar, umumiy qadriyatlar, qadriyatlar shakllanishi, ijtimoiylashuv, ijtimoiy muhit, ijtimoiy omillar, ijtimoiy tizim.

Азимов Улугбек Абдухалилович (доцент Международного института пищевых технологий и инженерии, доктор философских наук (PhD))

РОЛЬ ЦЕННОСТЕЙ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛИЗАЦИИ

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие социализации, тесная связь национальных ценностей с культурной социализацией, то, что социализация-это процесс формирования личности под влиянием культуры и общения, факторы социализации, то, что процесс социализации происходит в процессе непосредственного взаимодействия молодых людей с различными условиями и их влиянием на их деятельность. Приведены сведения по вопросам демонстрации его влияния.

Ключевые слова: демократические реформы, ценность, национальные ценности, общие ценности, формирование ценностей, социализация, социальная среда, социальные факторы, социальная система.

Azimov Ulugbek Abdukhalilovich (Associate Professor of the International Institute of Food Technology and Engineering, Doctor of Philosophy (PhD))

THE ROLE OF VALUES IN THE PROCESS OF SOCIALIZATION

Annotation. This article provides information on the concept of socialization, the close connection of national values with cultural socialization, the fact that socialization is a process of human formation under the influence of culture and communication, the factors of socialization, the fact that the socialization process takes place in the process of direct interaction of young people with various conditions and their impact on their activities.

Keywords: democratic reforms, value, national values, common values, value formation, socialization, social environment, social factors, social system.

Kirish. Jamiyat hayotida ijtimoiylashuv jarayonining qadriyatlarning shakllanish jarayoni sifatida qaralishi, qadriyatlarning ijtimoiy rivojlanish jarayonida alohida o'ringa ega ekanligi, ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanishi, qadriyatlarning ijtimoiy hayotdagi o'ziga xos funksiyalari ushbu mavzu doirasida muhim vazifalarni belgilab olishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ijtimoiy muhit ijtimoiylashuv tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Madaniy sotsium va shaxsning ijtimoiylashuvi tushunchalari chambarchas bog'liqdir va bu I.T. Frolova tasnifida ham yaqqol namoyon bo'lib turibdi. U "qadriyat" tushunchasini "atrof-muhitning ijtimoiy tasniflanish obyekti, inson va jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ta'sir o'tkazadi: ezgulik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va nojo'ya, tabiat va jamiyat hayoti hodisasi sifatida ko'rilgan" [1;719-b.].

Ijtimoiy tizim miqyosida umumiy qadriyatlarning bo'linishi nazarda tutiladi. Ijtimoiylashuv jarayoni qadriyatlar shakllanish jarayoni sifatida ko'riladi.

Milliy qadriyatlar madaniy ijtimoiylashuv bilan chambarchas bog'liq, bir tomondan, bular jamiyatni birlashtiruvchi asosidir, boshqa tomondan ijtimoiy muhitning ta'siri ostida shakllanadi. Ijtimoiylashuv masalalarini o'rganishning sotsiologik va ijtimoiy-psixologik yo'nalishlarini ajratish mumkin. Sotsiologik yo'nalish individning ijtimoiylashuvini ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishish uchun ma'lum bir ijtimoiy xususiyatlarni o'zlashtirish bilan aloqadorlikni, ijtimoiy-psixologik yo'nalish esa ijtimoiylashuvda ontogenez davrida ijtimoiy me'yor, madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni aks etishini ifoda etadi.

Amerikalik sotsiolog N.Smelzer "ijtimoiylashuvni ijtimoiy rolga muvofiq keluvchi ko'nikma va ijtimoiy ustunovkalarni shakllantirish jarayoni" tarzida aniqlashtirgan [2;652-b.]. G.Tard jamiyatni yaxlitlikda avloddan avlodga o'tib borish hamda qadriyat va ustunovkalarni o'zlashtirish orqali individual ongning mahsuli sifatida talqin etadi. Uning fikricha, qadriyat va ustunovkalarni o'zlashtirish barcha ijtimoiy

hayotning izohli tamoyilini aks ettiruvchi “taqlid” tushunchasida o‘z ifodasini topadi [3;480-b.]. Amerikalik sotsiolog F.Giddings ijtimoiy organizmning tashkil topishida, istisno tariqasida, psixologik asos yotadi. Uning fikricha, birgalikdagi o‘zaro faoliyat umumiy qadriyatlar tarkib toptiriladigan ishonch va taqlid mexanizmi orqali sodir bo‘ladi. Jamiyatning ta’siri ostida individda guruhiiy ustanovkalar, identiv anglanganlik tarkib topadi [4;369-b.]. Amerikalik olim T.Parsons jamiyatni asosiy funksiyasi biologik ko‘payish va yangi avlodni ijtimoiylashtirish yo‘li bilan yangilanish bo‘yicha ma’lum bir qoidalar tizimi asosida ratsional tashkil topish va mavjud bo‘lish sifatida tasavvur qilgan. Shuning uchun jamiyat shaxs ijtimoiy ahamiyatli va nazorat qilinuvchi xulq-atvor na’munalarida ishtirok etishi uchun adekvat motivasiyaning hayotiy sikli jarayonida rivojlanishi uchun ijtimoiylashuv mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim [5;496-b.]. Fransuz sotsiologi E.Dyurgeymning konsepsiyasida individ va jamiyatning o‘zaro harakati jarayonining asosida insonning ikki xil tabiati yotadi. Bir tomondan, u individuallikni aniqlab beruvchi psixik holatlar majmuyidan tashkil topsa, boshqa tomondan, o‘z ajdodlarining g‘oyalari, his-tuyg‘ulari va odatlari majmuyini ommalashtiruvchi hamdir. Ana shundan kelib chiqqan holda, jamiyatda o‘zib kelayotgan avlodni ijtimoiylashtirish maqsadga yo‘naltirilgan tavsifga ega bo‘lishi lozim [6;253-b.].

Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta’siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo‘lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa jamiyatning muvafaqqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan namunal xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir [7;173–174-b.].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ijtimoiylashmoq” tushunchasi “ijtimoiy tus olmoq” [8;178-b.] ma’nosini anglatilishi ko‘rsatilgan. Ijtimoiy tus olish tushunchaning umumiy mohiyatini ochib beradi. Biroq uni ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan, tahlil etilganda tushuncha mazmunini keng, batafsil yoritish taqozo etiladi. Zero, “ijtimoiy tus olish” aynan natijani ifodalashga xizmat qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvida va aynan pedagogik talqinda natijadan avval jarayonning mohiyati, uning kechishini o‘rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. N.Egamberdiyevaning fikricha, ijtimoiylashuv va kasbiy yetuklik jarayonlari kasbiy ta’limni, bir vaqtning o‘zida, ham shaxsning individual rivojlanishi, uning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ham talabaning shaxsiy va kasbiy nuqtai nazarini shakllanishiga yo‘naltirilgan bo‘lishini talab qiladi. Ushbu jarayonlarning muvafaqqiyati quyidagi ikkita shartni amalga oshirishni talab etadi: talaba-yoshlarni faol ijtimoiy va kasbiy munosabatlarga jalb etish, birgalikdagi samarali ijtimoiy va kasbiy faoliyat jarayonida shaxsning o‘z-o‘zini to‘la namoyon eta olishiga imkoniyat yaratish [10;127-b.].

Muhokama. Inson tug‘ilishi bilanoq ma’lum ijtimoiy muhitga kelib tushadi va doimo uning ta’sirida bo‘ladi, rivojlanadi va tarbiyalanadi, aynan shu muhitda uning shaxsiy xususiyatlari shakllanadi va bular uning ushbu muhitga ta’sir o‘tkaza olish imkoniyatini yaratadi. Muhit tabiiy yoki ijtimoiy bo‘lishi mumkin. Har biri alohida elementlardan iborat va bola shaxsiga turli xil ta’sirga ega. Tabiiy muhit o‘z ichiga tabiat, o‘simlik dunyosi, inson hayotidagi geografik sharoitlar, o‘zib kelayotgan va rivojlanayotgan shaxsga bevosita ta’sir o‘tkazadi. Bu uning turmush tarzi, atrofi va kasbiga ham bog‘liq.

Ijtimoiy muhit–bu insonning ijtimoiy dunyosi, o‘z ichiga insonlarni rivojlantirish, faoliyati uchun sharoit yaratadi. Inson ijtimoiy muhitga nafaqat bog‘liq, balki o‘z faol harakatlari bilan uni o‘zgartiradi, shu bilan birga, o‘zini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mavjud sharoitlar insonni yaratadi, ba’zan esa, aksincha, inson sharoitni yaratadi.

Shaxsni o‘rab turgan ijtimoiy muhit ham faol ko‘rinishga ega bo‘ladi va insonga ta’sir, bosim o‘tkazadi, ijtimoiy nazoratga bo‘ysundiradi, “bor modellar bilan “zararlaydi”, ba’zida ma’lum yo‘nalishdagi ijtimoiy xulqga majburlaydi”.

Ijtimoiylashuv omillari–ijtimoiylashuv jarayoni ro‘y beradigan mexanizmlar. Ijtimoiylashuv omillari–ijtimoiylashuv jarayoni uchun yaratiladigan sharoit va vaziyatlar. Qanchalik jihatlari ko‘p bo‘lsa, ularni biriktirish variantlari ko‘p bo‘ladi, shu bilan ijtimoiylashuv omillari ham ko‘p bo‘ladi. Ijtimoiylashuv omillari, ijtimoiylashuv jarayoni yoshlarning turli xil sharoitlar bilan bevosita birgalikdagi harakati jarayonida amalga oshadi va ularning faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Insonga ta’sir etuvchi sharoitlar omillar deyiladi. Aslida, ularning barchasi o‘rganilmagan va aniqlanmagan. O‘rganilmagan omillar to‘g‘risidagi bilimlar yetarli emas, ba’zilar to‘g‘risida ko‘p, boshqalari haqida kam ma’lumotlar bor. O‘rganilgan ijtimoiylashuv sharoitlar va omillarni rasman 4 guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchisi, megaomillar (mega–juda katta, umumiy)–yer sharidagi barcha aholini ijtimoiylashuviga ta’sir o‘tkazuvchi omillar: fazo, sayyora va dunyo.

Ikkinchisi, makroomillar (makro–katta)–ma’lum mamlakatlarda yashovchi ijtimoiylashuvga ta’sir etuvchi, ekologik, demografik, iqtisodiy omillar, mamlakat, etnos, jamiyat va davlat omillari.

Uchinchisi, mezoomillar (mezo–o‘rtacha, oraliqdagi) katta guruhdagi insonlarning ijtimoiylashuv sharoitlar, yashash joyi va ovulgo sharoitlariga qarab belgilanadi (hudud, qishloq, shahar va shaharcha), ommaviy kommunikasiya turlariga qarashlilikiga qarab (radio, televideniya va b.k.), u yoki bu submadaniyatga tegishlilikiga qarab, etnik qarashlar va hududiy sharoitlar yaratiladi va shakllanadi.

Mezoomillar ijtimoiylashuv jarayoniga to‘g‘ridan to‘g‘ri va bilvosita to‘rtinchi guruh–mikroomillar orqali ta‘sir o‘tkazadi. Ularga konkret insonlarga bevosita ta‘sir o‘tkazadigan omillar–oila, qo‘ni–qo‘shnilar, tengdosh guruhlar, ta‘lim maskanlari, tarbiya maskanlari, tupli xil jamoat va davlat tashkilotlari, diniy va xususiy tashkilotlar, mikrosotsium. Bu shaxs rivojlanishi ro‘y beradigan eng yaqin muhit sotsium va mikrososium deb ataladi.

Mikroomillarning turlarini aytish mumkin: mehnat va ishlab chiqarish, jamoaviy-siyosiy, oilaviy, ta‘lim va tarbiyaviy, harbiy va h.k.

Aytish joizki, shaxsning rivojlanish omillari kabi masalalar fiziologiya, genetika, neyrofiziologiya, neyropsixologiya, bioximiya, psixologiya, sosiologiya, ijtimoiy psixologiya kabi fanlarning asosiy muammolari hisoblanadi.

Natijalar. Bu masalalarni yechishda jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi “Ijtimoiy fikr” ijtimoiy tadqiqotlariga suyangan holda amalga oshirildi. Tadqiqotlar yordamida nafaqat yoshlar ongida yangi hodisalarva tendensiyalarni aniqlashga erishildi, balki hozirgi zamonda yoshlarni qiynayotgan muammolar aniqlandi va ularning o‘z ijtimoiy istaklarini, qadriy qarashlar, manfaatlar, aktiv faoliyat, ideallar tizimi shakllanishi jarayoni haqidagi tasavvurlari o‘rganildi [11;2-b.].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talaba-yoshlarning qarashlari, fuqarolik pozitsiyasi bir nechta ijtimoiy omillar ta‘siri ostidadir. Yoshlar tadqiqotda shuni aytib o‘tishdiki, ularning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda asosiy omillari sifatida oila (85,9 foiz), muloqotning ijtimoiy muhiti (40,8 foiz), mahalla (38,8 foiz), ta‘lim dargohlari (33,5 foiz), OAV va internet (32,7 foiz), do‘stlar (27 foiz) alohida o‘rin tutadi.

Bo‘ljak mutaxassislarning fuqarolik pozitsiyasiga ta‘sir o‘tkazuvchi, yashash joyiga bog‘liq bo‘lgan omillar haqida turli tasavvurlar mavjud. Misol uchun, shaharlik yoshlar, qishloqda yashaydigan yoshlarga qaraganda OAV va internet ta‘sirini belgilagan (35,4 foiz va 30,1 foiz) va do‘stlar (35,4 foiz va 18,9 foiz). Qishloq yoshlari fikriga ko‘ra, shaharda yashaydigan yoshlarda mahallaga katta ahamiyat beriladi (42,9 foiz va 34,5 foiz) va ta‘lim dargohlari (26,9 foiz va 39,9 foiz). Shunday xulosa kelindiki, yoshlarning fuqarolik va dunyoviy pozitsiyalariga ta‘sir etuvchi omillar ularning hayotiy pozitsiyalari: oila, sog‘liq, ta‘lim, Vatanga xizmat kabi omillarga bog‘liq.

Xulosa. O‘zbekistonlik yoshlar uchun dominant hayotiy pozitsiyalar bu oila, sog‘liq va Vatanga xizmat. Mamlakatdagi yoshlarning hayotiy qadriyatlari ularning jinsi va yoshiga bog‘liq.

Ko‘rsatilgan javoblar ham shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda olib borilayotgan yoshlar siyosatining samaradorligi, yoshlarning hayotiy qadriyatlarida asosiy rolni ta‘lim egallab kelmoqda va bu yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Bu yosh o‘zbekistonliklarning o‘z ta‘lim darajasini oshirishga qaratilgan istakda aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Философский словарь. Под ред. Фролова И.Т. М., 2001, 719 с.
- (2). Смелзер. Н. Социология. Пер. с англ., М., “Феникс”, 1994, 652 с.
- (3). Тард Г. Законы подражания. Пер. с фр., М., “Академический проект”, 2011, 480 с.
- (4). История теоретической социологии. В 4 т, отв. ред. и сост. Ю.Н.Давыдов. М., “Канон”, 1997, т. 1, с. 369.
- (5). Американская социологическая мысль. Тексты. Под.ред. В.И.Добренкова, М., 1996, 496 с.
- (6). Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение. М., “Канон”, 1995, с. 253.
- (7). Фалсафа. Қомусий луғат. Қ.Назаров. Т., “Шарқ”, 2004, 496;.173–174-бетлар.
- (8). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд, Е–М, Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006, 178-бет.
- (9). Эгамбердиева Н. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти. Пед. фан. док. ... дисс., Т., 2010, 332; 127-бетлар.
- (10). Информационно-аналитический доклад по результатам социологического исследования. “Молодёжь Узбекистана: жизненные ценности, нравственность, социальные ориентиры”, 2017, 2 с.
- (11). Azimov U., Umurzakov A. Hierarchy of values and personal values. “Экономика и социум”, 2021, №. 1-1 (80), с. 354–355.
- (12). Рафиқова Д., Азимов У. Modernization of education and increasing the quality of education “Экономика-социум”, 2021, №. 2-2, р. 167–169.

Shonazarov Jamshid Shuhratovich (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti dotsenti, f.f.n.)
**DAVLAT XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA MA'NAVY-AXLOQIY MEZONLARNI TASHKIL
ETISH MUAOMMOLARI VA YECHIMLAR**

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat va jamiyat boshqaruvida davlat xizmatchilari faoliyatida ma'naviy-axloqiy mezonlarni tashkil etish muammolari va yechimlari qaratilgan masalalarni tadqiq etishga bag'ishlanadi. Boshqaruv jarayonida davlat xizmatchilarining ma'naviy-axloqiy qiyofasini yuksaltirish va u bilan bog'liq bo'lgan muammolar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: davlat, jamiyat, boshqaruv, boshqaruv faoliyati, davlat xizmatchisi, davlat va jamiyat boshqaruvi, ma'naviy-axloqiy qiyofa, mamlakat, millat, siyosat, siyosiy munosabatlar, axloqiy me'yorlar, axloqiy qadriyatlar.

**ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КРИТЕРИЕВ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ**

Аннотация. Статья посвящена исследованию вопросов, связанных с организацией и решением духовно-нравственных критериев в деятельности государственных служащих в сфере государственного и общественного управления. Анализируется процесс повышения морально-этического облика государственных служащих и проблемы, связанные с этим.

Ключевые слова: государство, общество, управление, управленческая деятельность, государственный служащий, управление государством и обществом, духовно-нравственный облик, страна, нация, политика, политические отношения, моральные нормы, моральные ценности.

**CHALLENGES AND SOLUTIONS IN THE IMPLEMENTATION OF MORAL AND ETHICAL
STANDARDS IN CIVIL SERVICE ACTIVITIES**

Annotation. This article is devoted to the study of the problems and solutions of the organization of spiritual and moral criteria in the activities of civil servants in the management of the state and society. The problems of improving the spiritual and moral image of civil servants in the management process and related problems are analyzed.

Keywords: state, society, management, management activities, civil servant, state and society management, spiritual and moral image, country, nation, politics, political relations, moral norms, moral values.

Kirish. Mamlaktning ravnaqi insonlarning e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchi hamda milliy istiqbol g'oyasi, maqsadi, vazifalarini anglashi bilan o'zaro mushtarak holda keladi. Tarixiy taraqqiyotning rivojlanish qonuniyati abadiy bo'lsa-da, u xalqlar xohish-irodasiga ma'lum darajada bog'liq. Davri tarixiy vaqt va makon o'zgarishlari tufayli xilma-xil voqealarga boy bo'ladi. Millat ravnaqi insonning o'z qadrigimmatini, sha'nini, or-nomusini umummilliy darajada anglash tuyg'usi bilan hamohang. Lekin, bu hamma vaqt ham bir xil kechgan emas va o'ziga xos murakkab ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'lgan.¹

Aynan ana shu ijtimoiy-ma'naviy hodisalar hosilasi davlat xizmatchilari boshqaruv faoliyatida ma'naviy-axloqiy mezonlarni tashkil etish muammolari va yechimlari bilan belgilanadi. Uning murakkabligi esa milliy taraqqiyotning yuksalishi va tarixiy fojialarini siyosiy nuqtai nazardan anglash va undan saboq chiqara olishida ifodalanadi. Zero, har bir millat o'z davlatlarchilik boshqaruvi tarixini adolat, tenglik, axloqiylik to'g'risidagi ideal g'oyalari asosida tashkil etar ekan, uni ijtimoiy-siyosiy hayotida tashkil etish olishi yuksak e'tiqod talab etuvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Masalaning murakkabligi davlat va jamiyat boshqaruvidi yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlarni o'z faoliyatining ustuvor asosi qilib olgan fidoyi, millatparvar, mas'uliyatli, zamon talablari darajasida fikrlay oladigan va uning dardini o'z dardi bilan uyg'un ko'ra oladigan, milliy g'oya va mafkura ruhi bilan kamol topgan kadrlarni shakllantirish muammolarini hal etish bilan izohlanadi.

Albatta, davlatchilik boshqaruvi xalqlar tarixida har doim ham bir xil va barqaror kechgan emas. Bunga milliy davlatchilik asoslarini yaratish va mustahkamlashda yetarli bilimga, malakaga, mas'uliyat va fidoyilik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan davlat xizmatchilari – rahbar kadrlarning boshqaruv sahnasiga kelib qolganligi, eng taassufli jihati ana shu shaxsiy kamliklarni tezda anglab bartaraf etib, ishga kirishish uchun shijoatning sustligi kabi illatlar sabab bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zero, har bir millat davlatchilik boshqaruvi istiqboliga to'siq bo'layotgan illatlarning ro'y-rost tan olsagina, shu tariqa, uni bartarf etishga iroda qilsagina, yuksaladi. Ma'naviy yangilanish turli tadbir, vositalarni qo'llab millatni g'aflatdan – hushyorlikka, bilmaslikdan – bi-

¹ Эргашев И. Миллий камолот йўли. “Жамият ва бошқарув”, 2001, 4-бет.

limga, noma'lumlikdan – ma'lumlikka, zarardan – foydaga, savoldan – javobga, muammodan – yechimga, kambag'allikdan – boylikka olib o'tish yo'llaridan biridir. Inson omilini ana shu muammolarni yechish uchun eng zarur bo'lgan fazilatlar bilan qurollantirishimiz kerak. Ana shulardan biri jasoratdir.¹ Darhaqiqat, bugun milliy davlatchiligimiz tarqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv asoslarini yaratish va mustah-kamlash ana shu mexanizmning richagi hisoblangan davlat xizmatchilari – rahbar kadrlarni, M.Qur'onov ta'kidlaganlaridek, eng zarur bo'lgan fazilatlar bilan qurollantirish, jasorat ruhi bilan tarbiyalash muammo yechimining asl mohiyatini tashkil etadi. Asl sabab ham bugungi davlat boshqaruvi sohasidagi davlat xizmatchilari faoliyati va salohiyatida ana shu jasorat tuyg'usining yetishmasligi, shijoatning yo'qligidir. Ayni paytda, davlat xizmatini tashkil etish, boshqaruvga xos bo'lgan mahoratli usullarni ishlab chiqish tvatshu kabi faoliyatlarni amalga oshirish jarayonida davlat xizmatchilarining jasorati millat dardini anglash va so'zda sobitlik, e'tiqodli bo'lish timsollari orqali namoyon bo'ladi. So'zda sobitlik va faoliyatda e'tiqodli bo'lish davlat xizmatchilariga nisbatan o'lgan mas'uliyat yuklaydi. Mas'uliyatning anglash va shu faoliyat tuyg'usi bilan vazifaga kirishish kasbga sodiqlik shart va talablaridan biri bo'lgan millatni sevisht, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, burchga sadoqat kabi tuyg'ularning yuzaga keltiradi va bunday tuyg'ularning harorati xodimning xizmatdan rohatlanish hissini yuzaga keltiradi.

Bugun rivojlangan davlatlarning demokratlashuv jaryonlari natijalariga nazar soladigan bo'lsak, taraqqiyotning asosini iqtisodiy texnologik rivojlanish emas, balki murakkab axloqiy evrilishlar va inqiroziy holatda tafakkur yangilanishga erishishdagi muammolarlarda namoyon bo'ladi. Jamiyatda madaniy-texnik taraqqiyotning axloqiy mohiyatini anglamasdan ana shu yo'lda millat birlashmasdan, u hech qachon yuk-salmaydi. Chunki har qanday yuksalish milliy o'zlikni anglashdan boshlanadi. Bunday axloqiy siyosiy kuch jamiyat rivojiga to'siq bo'lib kelgan eski tartiblarni o'zgartirishga xizmat qiladi.² Bugun maqsad ana shu shunday tartibotlardan xoli bo'lgan milliy mentalitetni, milliy o'zlikni, eng muhimi, milliy ruhiyatni o'zida mujassam etgan davlatchilik tartiblarni shakllantirishdir. Bunday tartibotlarni shakllantirish va amliyotga tatbiq etish davlat va jamiyat boshqaruvining yangi ko'rinishlarini milliy davlatchiligimiz an'analaridan andoza va namuna olib va uning fojialariga sabab bo'lgan oqibatlardan saboq chiqargan holda amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar. Itimoiy-falsafiy ta'limotlarda bunday amaliy faoliyatlarning ko'pgina hollarda foyda berganligini, ba'zan o'zini oqlamaganiligining guvohi bo'lamiz. Bunday holatlarning yuzaga kelishining birlamchi va asosiy sababi, davlat siyosatining millat va xalq manfaatlarini bilan uyg'unlashmaganligida, davlat xizmatchilarining hokimiyatga intilishiga bo'lgan hirslarining kuchliligida, millat va xalq taqdiri o'z holiga tashlab qo'yilganligi oqibatlarida ko'rishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, hokimiyatni harakat keltiruvchi davlat xizmatchilarining batamom ana shu hirs va intilishlardan, g'ayriaxloqiy talab va istaklardan holi bo'lishlari lozimligi talab etiladi. Ya'ni, faoliyatda faqat adolat, tenglik axloqiy qadriyatlarining ustuvorligi, millat va xalq manfaatiga nisbatan jumardlik asosida yondashuv kabi fazilatlar nazarda tutiladi. Shu jihatdan mavzuning tahliliga nisbatan chuqurroq yondoshadigan bo'lsak, axloqiy qadriyatlar davlat boshqaruv tizimini shakllantiriga va rivojlantirishga qaratilgan ta'sir mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Bunday ta'sir davlat boshqaruvinini manfaatli tarzda shakllantirishda, siyosiy qarorlarni qabul qilish va ijro etish ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, axloq barcha individning manfaatlarini inobatga olishni talab qilsa, siyosat umumxalq manfaatlarini birlamchi tarzda ko'radi. Bunday jarayonlarning o'zaro bog'liq jihatlarini topish, ya'ni siyosiy hokimiyat tizimini tobora fuqaro darajasiga tushirish davlat boshqaruvining axloqiy tamoyillarga amal qilish ehtiyojini uqdiradi. Shuning uchun fuqaroning davlat boshqaruvi bilan bog'liq jarayonlarga real ishtirokini ta'minlash yoki ana shu ishtirokning huquqiy imkoniyatlarini yaratish muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi davrda davlat organlari xizmat madaniyatida hurmat, adolat va haqiqatga suyanish muhitini yaratish uchun xizmatchilarga falsafiy bilimlarni kengroq o'rgatishni joriy etish, mulohaza va munozaralar, fikr almashish va umumiy xabardorlikni oshirish maqsadida xodimlar o'rtasida falsafiy mavzularda muntazam muhokama va munozaralar tashkil etish davlat xizmatchilarining ijtimoiy dunyoqarashni anglashlariga yaxshi ko'maklashgan bo'lar edi. Davlat xizmatchilari o'z qarorlari va harakatlarining jamiyat va alohida fuqarolar uchun oqibatlarini bilishlari, ularning yanada mas'uliyatli va axloqiy fe'l-atvorli bo'lishlarini ta'minlaydi. Shunday qilib, falsafiy bilimlar davlat xizmatchilarining ma'naviy ta'sirli faoliyatini sezilarli darajada boyitib, tanqidiy yondashuv, axloqiy fikrlash, strategik qarash va inson tabiatini tushunishni rivojlan-

¹ Куръонов М. Жасорат. "Халқ сўзи", 2003, 31 январь.

² Алимардонов Т. Сиёсат ва ахлоқ. Т., "Фан", 2005, 65-бет.

tirishga katta hissa qo'shishi mumkin. Bu, o'z navbatida, ularning ish sifati va fuqarolar ishonchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat xizmatchisi, avvalo, shaxsdir, insof va halollik kabi shaxsiy fazilatlar esa axloqiy madaniyatning asosiy mezonidir. Ushbu fazilatlarga ega bo'lgan xodimlar axloqiy harakatga va to'g'ri qaror qabul qilishga moyil. O'z harakatlari uchun mas'uliyatni zimмага olish va qiyin vaziyatlarda o'zini tuta bilish yuqori axloqiy madaniyatni saqlash uchun muhimdir. Shu kabi davlat xizmatchisida tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalari uchun ta'lim olishga zaruriyat bor,¹ axborot va ma'lumotlarni samarali tahlil qilish, faoliyatga doir vaziyatlarni baholash qobiliyati esa oqilona va axloqiy qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Xizmatchining muloqot ko'nikmalari esa hurmat va tushunishga asoslangan hamkasblar va fuqarolar bilan samarali muloqot, muomila madaniyati hamda ishonchli munosabatlarni o'rnatish va axloqiy madaniyatni saqlashga ko'maklashadi. Xizmatchi ham xohlasa-xohlmasa, el qatori rivojlanish istagida faoliyat yuritadi. Shuning uchun doimiy shaxsiy va kasbiy o'sish uchun motivatsiya, o'z-o'zini takomillashtirish va o'z faoliyatining yangi qirralarini o'rganish istagi axloqiy madaniyatni rivojlantirishida muhim sanaladi.

Xizmatchining fuqarolar ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini anglashi, hisobga olishi davlat va jamiyat o'rtasida hamkorlik munosabatlarini rivojlantiradi, bu, ayni vaqtda, fuqarolarning davlat organlari faoliyatidan qoniqishini oshiradi. Shuningdek, ijtimoiy fikrlash turli tomonlarning motivlari va manfaatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, bu nizolarni samarali hal qilish va konsensusga erishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xizmatchi tanglikni pasaytirishi mumkin, vaziyatni turli nuqtayi nazardan ko'rish qobiliyati qarama-qarshiliklarni yumshatishda va ijtimoiy keskinlikni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bir qator ilmiy tadqiqotlarda davlat xizmatchisining ijtimoiy fikrlashi, ma'naviy-axloqiy tafakkurining keng ekanligi davlat xizmatida "integratsiyalashgan yondashuv"ning rivojlanishiga yordam berishi ham ta'kidlangan.² Bu to'g'ri yondashuv bo'lib, xizmat jarayonida ijtimoiy omillarni hisobga olish barcha tomonlarning manfaatlariga mos yanada oqilona va muvozanatli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Davlat xizmati tushunchasi huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy tuzulmani axloqiy me'yorlar atrofida umumlashtirib, madaniy boylik tashuvchi sifatida odamlarni odob-axloq qoidalariga rioya qilishga yo'naltiradi. Shuning uchun davlat xizmatining barqarorligi va ishonchliligi mansabdor shaxsning nafaqat kasbiy tayyorgarligiga, balki ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ham bog'liq. Davlat xizmati tizimida kadrlar siyosatining maqsadlari,³ ma'no va me'yorlari ijtimoiy xarakter va yo'nalishning to'g'ri shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sabab odob-axloq qoidalarini davlat xizmati xodimlarini shakllantirishda birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Kadrlar ishi yetarli darajada subyektiv, unda hamma vaqt shaxsiy qarashlar elementi mavjud. Bu esa nafaqat huquqiy, shu bilan bir qatorda, odob-axloq omillari uchun ham harakat maydonidir.

Jamiyatning barcha qatlamlari uchun birdek daxldor bo'lgan odob-axloq an'analari ongning o'ziga xos shakli bo'lib, u ham, o'z navbatida, davlat xizmati sohasidagi yondashuvlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy madaniyatning davlat uchun ham, jamiyat uchun ham umumiy xususiyati shundaki, xizmatchining an'analar, odatlarga suyanishi, jamoatchilik fikrini tinglash kabi vazifalariga asos bo'ladi. Inson kasbiy faoliyatining har qanday turida ijtimoiy axloq xodim axloqini tartibga soladigan korporativ kasbiy etikani shakllantiradi. Kasbiy etika esa boshqaruv tizimi, eng avvalo, davlat xizmati uchun alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, davlat xizmati etikasi, kasbiy etikaning bir ko'rinishi sifatida o'zida insoniy munosabatlarning alohida xiliga taalluqli bo'lgan ma'naviy odob-axloq me'yorlari tizimini ifodalaydi. Davlat xizmati etikasi odob-axloq mohiyatini ifodalaydigan qoidalar va me'yorlarni umumlashtiradi, shuningdek, uning xizmatchilari fuqarolik jamiyati bilan bog'liq munosabatlariga doir ma'naviy talablarni o'zida jamlaydi. Davlat xizmatining odob-axloq qoidalarini deganda, davlat xizmatida bo'lgan xodimning o'zi xizmat ko'rsatayotgan jamiyat, davlat va uning fuqarolarining huquqi, erkinliklari va qonuniy qiziqishlarini himoya qilishga taalluqli talablarini ifodalaydigan odob-axloq me'yorlari mohiyati tushuniladi. Shu jihatdan ham bunday munosabat davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyatlari jarayonida jamoada axloqiy-psixologik muhitni yaratish va davlat xizmati ish samaradorligini samarali oshirish maqsadida xizmatchilarning o'zaro munosabatlarini tartibga soladigan umumiy qadriyatlar va qoidalar tizimi hisoblanadi.

Xulosa. Demak, davlat xizmatchilarining bilim va salohiyati yuksak ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning poydevori bo'lib, bu, o'z navbatida, boshqaruv funksiyalarini samarali va adolatli bajarishga xizmat qiladi.

¹ Комилов Н. ва б. Жамият курилиши ва ижтимоий бошқарув. Т., "Академия", 2007.

² Кимлика У. Современная политическая философия. Введение. М., "Аспект", 2010.

³ Равшанов Ф. Давлатнинг кадрлар сиёсати. Ўқув қўлланма, Т., "Академия", 2012, 100-бет.

Davlat xizmatchisi boshqaruv faoliyati va dunyoqarashida axloqiy madaniyatning ustuvorligi ijtimoiy tafakkurni chuqur anglashiga, bu esa, o'z navbatida, jamiyat ehtiyojlarini qondirishda samarali qarorlar qabul qilishga zamin hozirlaydi. Zero, keng dunyoqarash – qaror qabul qilish va ish vazifalarini samarali bajarishda ijtimoiy jarayonlarni va shaxslararo o'zaro ta'sirlarni tushunish va hisobga olish qobiliyatidir. Ijtimoiy fikr jamiyat umumlashgan qarashlarining ustuvor xulosalari bo'lsa, ijtimoiy fikrlash ularni angalgan holda o'z faoliyati qarorlari va xatti-harakatlarini ularga muvofiqlashtirish bilan bog'liq. Ijtimoiy fikrlashning, ayni vaqtda, falsafiy bo'lishi esa xizmatchilarga o'z vazifalarini yanada to'g'ri bajarishlariga va davlat institutlariga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Shu kabi, davlat xizmatchilari uchun ijtimoiy fikrlashning bir qator afzalliklari bor.¹ Avvalo, aytish lozimki, keng dunyoqarash fuqarolar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash, ish, jamiyat, hujjatlar, me'yorlar, strategik maqsad va manfaatlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy fikrlash xizmatchida o'zini boshqa odamlarning o'rni qo'yib ko'rish qobiliyatini o'stiradi, fuqarolarning ehtiyojlari va tashvishlarini yaxshiroq tushunishiga ko'maklashadi, bu esa xizmatlarning yaxshiroq va adolatliroq bo'lishiga olib keladi.

Joldasbayev Oralbay Yernazarovich (Nukus davlat Pedagogika instituti “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrasida assistenti)

BERDAQ IJTIMOIIY-FALSAFASIY QARASHLARIDA TENGLIK VA ADOLAT KATEGORIYALARINING TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada qoraqalpoq faylasufi Berdaqning falsafasida tenglik va adolat kategoriyalarining jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni va roliga ta'siri, shuningdek, ularning qoraqalpoq falsafasidagi ahamiyati chuqur tahlil qilinib, har tomonlama ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy munosabatlar, falsafa, madaniy va ma'naviy soha, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy adolat, adolat, axloqiy tamoyillar.

АНАЛИЗ КАТЕГОРИЙ РАВЕНСТВА И СПРАВЕДЛИВОСТИ В СОЦИО-ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ БЕРДАКА

Аннотация. В данной статье подробно анализируется и всесторонне научно обосновано влияние категорий равенства и справедливости в философии каракалпакского философа Бердака на место и роль в социальной жизни общества, а также их значение в каракалпакской философии.

Ключевые слова: общественные отношения, философия, культурно-духовная сфера, общественные отношения, социальная справедливость, справедливость, моральные принципы.

ANALYSIS OF THE CATEGORIES OF EQUALITY AND JUSTICE IN BERDAK'S SOCIAL-PHILOSOPHICAL VIEWS

Annotation. This article deeply analyzes and comprehensively scientifically substantiates the influence of the categories of equality and justice in the philosophy of the Karakalpak philosopher Berdaq on the place and role of society in the social life of society, as well as their significance in Karakalpak philosophy.

Keywords: social relations, philosophy, cultural and spiritual sphere, social relations, social justice, fairness, moral principles.

Kirish (Introduction). Ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy falsafaning asosiy tadqiqot sohalaridan biri bo'lib, ular jamiyatdagi shaxslar va guruhlar o'rtasidagi ongli va maqsadga yo'naltirilgan aloqalarni o'z ichiga oladi. Bu munosabatlar inson faoliyatining turli jabhalarida – iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalarida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Respublikamiz olimlardan R.Reimov, A.Berdimuratova, J.Bazarbayev, M.Niyazimbetov, S.Esnazarova, J.Biyimbetovlarning ilmiy izlanishlarida Berdaq falsafasiga oid axloqiy kategoriyalarning tahlillariga doir nazariy muammolar ijtimoiy-falsafiy jihatlari chuqur tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida falsafiy, ijtimoiy, siyosiy, tarixiy adabiyotlarni o'rganish, ijtimoiy-falsafiy tahlil, sinergetik, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, dialektik, tarixiylik va mantiqiylikning birligi, taqqoslash kabi tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda kishilar o'rtasida yuzaga keladigan ongli, maqsadga yo'naltirilgan aloqalar [1;304-b.]. Jamiyat taraqqiyoti insonlar o'rtasidagi ij-

¹ Комилов Н. ва б. Жамият курилиши ва ижтимоий бошқарув. Т., “Академия”, 2007.

timoiy munosabatlarning barqarorligi va adolat tamoyillariga asoslanishiga bog'liq. Har bir insonning huquq va imkoniyatlari teng bo'lishi, unga nisbatan adolatli yondashuv qo'llanilishi jamiyatdagi tinchlik va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy falsafada adolat va tenglik masalalari keng tahlil qilingan. Ularning qarashlariga ko'ra, adolat – jamiyatning asosiy negizi bo'lib, u ijtimoiy tuzumning har bir qatlamida o'z ifodasini topishi lozim. Ijtimoiy adolat faqat huquqiy normalar bilan cheklanmay, balki insonlarning kundalik hayotidagi munosabatlarida ham namoyon bo'lishi kerak. Bunday tamoyillar nafaqat siyosiy va iqtisodiy jihatdan, balki ma'naviy hamda axloqiy mezonlar asosida ham shakllanadi.

Ijtimoiy-falsafiy tarafdin adolat – bu jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Adolat tushunchasi tarixiy taraqqiyot davomida turli falsafiy maktablar tomonidan turlicha izohlangan bo'lsa-da, uning asosida haqqoniylik, teng huquqlilik va axloqiy tamoyillarga sodiqlik yotadi. Adolatning ijtimoiy-falsafiy jihati jamiyat a'zolarining xilma-xil munosabatlaridagi o'zaro tengligini nazarda tutadi. Axloqiy jihati insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo'lishi, bir-birining izzat-nafsigaga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga amal qilishni bildiradi. Adolatning huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni, siyosiy tomoni esa davlatni adolat qoidalari asosida boshqarishni, fuqarolar gamini yeyishni anglatadi [2;10-b.]. Berdaq G'argabay uli (1827–1900)–qaroqalpoq adabiyoti va falsafasida alohida o'rin tutgan ulug' shoir va mutafakkir bo'lib, u o'z ijodida xalqning dardu hasratlarini, adolat va erkinlikka intilishini ifodalagan. Mehnatkash xalq orasidan yetishib chiqqan Berdaq xalqparvarlik g'oyalari bilan mashhur bo'lib, uning asarlarida inson huquqlari, erkinlik, tenglik va adolat mavzulari keng yoritilgan. U jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, zulm va adolatsizlikka qarshi chiqib, o'z fikrlari bilan xalqning qalbidan chuqur joy olgan. Uning ijodi nafaqat badiiy ahamiyatga ega, balki ijtimoiy-falsafiy jihatdan ham chuqur ma'no kasb etadi. Berdaq inson qadr-qimmatini va ma'naviy poklikni himoya qilgan holda, jamiyat barqarorligi va adolatli tuzum uchun kurashgan mutafakkir sifatida namoyon bo'ladi. Shu asosda uning qarashlarini ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar bilan bog'lash mumkin. Masalan, Suqrot yaxshilik va adolat kabi tushunchalarning mazmunini ochib berishga harakat qildi. Mutafakkir falsafasining asosida inson, uning hayoti, maqsadi, adolatli jamiyat yotadi. U yaxshilik va yomonlikni odamlar bilan suhbatlashish orqali aniqlash mumkin, dedi. Inson haqiqatni qancha chuqurroq bilsa, yomonlikka shunchalik kam qo'l uradi. Yomonlik haqiqatni bilmaslik natijasida paydo bo'ladi deb ko'rsatadi. Demak, axloqiy kamolotning manbasi ham bilim, ya'ni haqiqatni bilishdir.

Berdag ham inson kamoloti va adolat tushunchalarini o'z ijodida keng yoritgan. U insonning axloqiy pokligi va haqiqatga intilishi jamiyatning barqarorligi va adolatli tuzilishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Quyidagi misralari shunday fikrlarni ifoda etadi: Johillardan hech vaqt olma omonat, Ko'tararsan oxirida yomonot, Bu zamonlar bo'lib og'ir alomat, Kimsa g'amgin, kimsa shod bu zamonda.

Johillardan hech vaqt olma omonat bu misrada mutafakkir johil insonlarga ishonmaslikni, ulardan biror narsa qabul qilmaslikni tavsiya qiladi. "Omonat" so'zi bu yerda faqat moddiy narsani emas, balki mas'uliyat, maslahat, g'oya yoki fikrni ham anglatishi mumkin. Berdaq fikriga ko'ra, johillardan olingan har qanday omonat insonni muammoga duchor qiladi, chunki johillik – bilim va tafakkur yetishmovchiligi natijasida noto'g'ri yo'lga yetaklaydi.

Agar inson johillarning maslahatiga ergashsa yoki ulardan omonat olsa, oxir-oqibat u yomon nom, ya'ni obro'sizlanish va yomonotlik bilan tugaydi. Bu qatorda shoir johillarning ta'siri jamiyatdagi axloqiy va ma'naviy inqirozni keltirib chiqarishini nazarda tutadi. Axloqsiz yoki bilimsiz kishilar bilan muloqotda bo'lish natijasida inson o'z shaxsiy obro'sini yo'qotishi mumkin. Demak, yangi ijtimoiy munosabatlarni o'rnatganimizda ham bizga bilim zarur. Berdaq o'z asarlarida insonni ilmi bo'lishga, yomonlikdan qochishga undaydi.

Russoning "Tengsizlik sabablari to'g'risida" asari tengsizlikning kelib chiqishini tadqiq qilishga bag'ishlangan. Ushbu asarda Russo tengsizlik o'zgarma va abadiy tabiat qonuniyati emas, balki tarixiy hodisa deb yondoshadi. Russo diqqatining tenglik muammolariga qaratilishi tasodifiy emas. XVIII asr Fransiya-sida iqtisodiy taraqqiyotning boshi bu masalani kun tartibiga qo'ymoqda va u davrning dolzarb muammasiga aylanib bormoqda edi. Russo ikki turdagi vertikal tengsizlikni ajratadi: a) yoshi va salomatligi bilan bog'liq bo'lgan jismoniy tengsizlik; b) turlicha imtiyozlar bilan bog'liq bo'lgan siyosiy tengsizlik [3;176-b.].

Berdagning "Soliq" nomli sherida feodal jamiyat sharoitida mehnatkash xalq boshiga tushgan og'ir yuklardan biri – soliq masalasi yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Ushbu ijodiy meros shoirning ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan tanqidiy qarashlarini va xalq manfaatlariga sadoqatini aks ettiradi. Berdaq asarlarida soliq tizimi mehnatkash xalqning iqtisodiy ahvolini og'irlashtiruvchi, omil sifatida ko'rsatilgan. "Undiradi och xalqdan, Yetim yig'laydi shu bois, Boy omon qoldi soliqdan, Do'xmat to'lov bo'ldi soliq".

“Undiradi och xalqdan” Bu misrada kambag‘al xalqning iqtisodiy yukni ko‘tarishi tasvirlangan. Ijtimoiy tengsizlik nuqtayi nazaridan, soliqlar yoki boshqa iqtisodiy talablar orqali asosiy yukni kambag‘allar zimmasiga yuklashi jamiyatda adolatsizlikni kuchaytiradi. Yetim yig‘laydi shu bois Bu satr natijani ko‘rsatadi: ijtimoiy tengsizlik natijasida eng zaif qatlam – yetimlar va kambag‘allar eng ko‘p zarar ko‘radi. Berdaq ijtimoiy tengsizlikning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jihatlarini o‘z qarashlarida aks ettiradi.

Ijtimoiy falsafada shaxs va jamiyat munosabatlarining tarixiy tiplari masalasi ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, sanoatlashgan jamiyatga qadar, sanoatlashgan jamiyat va postindustrial jamiyatlariga xos munosabatlarning: a) shaxsiy qaramlik; b) shaxs mustaqilligi; d) erkin shaxsdan iborat uch tipi ko‘rsatilgan. Jamiyat va shaxs orasidagi aloqadorlikka ijtimoiy-tarixiy nuqtayi nazardan yondashmoq lozim. Bu narsa, bir tomondan, shaxsning jamiyatga ta‘siri turli davrlarda o‘ziga xos namoyon bo‘lishini keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, jamiyat turli davrlarda shaxs oldiga turli vazifalarni ko‘yadi. Shunga ko‘ra, Sharq madaniyatida donolik, botirlik, kamtarlik odillik kadrlangan; qadimiy Yunonistonda aqliy barkamollikka erishish yuksak baholangan; sanoatlashgan jamiyatda tadbirkorlik, tashabbuskorlik qadrlangan [4;120-b.].

Berdaqning ijtimoiy qarashlarida esa adolat va tenglik asosiy tamoyil sifatida ko‘riladi. U o‘z asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning muvozanatini saqlashda adolatning muhim o‘rin tutishini ta‘kidlagan. Berdaq nazarida, jamiyat faqatgina adolatli tamoyillar asosida rivojlansa, unda shaxs ham o‘z salohiyatini to‘laqonli namoyon eta oladi. Uning she‘riy va falsafiy merosida insonning huquq va erkinliklari, ijtimoiy adolatga intilishi, tenglik tamoyillariga sadoqat kabi g‘oyalar yetakchi o‘rin tutadi.

Shoir etdim, ko‘zim ko‘rganini yozdim,

Ko‘kragimning sezib bilganini yozdim,

Zamon qislatidan sarg‘aydim-azdim.

Bo‘larmi deb yorqin kunlar xalq uchun. (“Xalq uchun” asaridan)

Demak, tarixiy jarayonda jamiyat shaxsga qo‘yadigan talablar o‘zgarib borgan bo‘lsa-da, adolat va tenglik tamoyillari har doim muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, Berdaq qarashlarida bu tamoyillar jamiyat taraqqiyotining mezoni sifatida talqin etilgan bo‘lib, uning ijtimoiy-falsafiy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

Hayot bilan faoliyat alanga va yorug‘lik singari o‘zaro chambarchas bog‘langandir dep tarif beradi, bu fikrning to‘g‘riligini Berdaq hayoti va faoliyatiga aytilgandek bo‘ladi. Berdaq jamiyat va inson o‘rtasidagi munosabatlar, burch va masuliyat tushunchalari alohida o‘rin tutadi. Haqiqiy yigitning burchini xalq uchun xizmat qilishda ko‘radi. Bu g‘oya axloqiy jihatdan fidoyilik va ezgulik tamoyillariga asoslanadi. Yigitning kuch-qudrati, qobiliyati va salohiyati faqat shaxsiy manfaatga emas, balki jamiyatning rivojlanishi va taraqqiyoti yo‘lida sarflanishi lozimligi ta‘kidlanadi.

Yigit bo‘lsang arslonday tug‘ilgan,

Xizmat etgil doimo xalq uchun.

Yigit bo‘lsa arslonday tug‘ilgan,

Hech qachon da ish qilmas o‘zi uchun.

Axloqiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu misralarda fidoyilik va vatanparvarlikni targ‘ib qiladi. Yigit kishi o‘z shaxsiy manfaatini jamiyat manfaatidan ustun qo‘ymasligi kerak. Bu esa fidokorlik va o‘zga odamlar uchun xizmat qilish axloqiy burch ekanligini anglatadi.

Ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazaridan esa ushbu misralar ijtimoiy birdamlik va jamoaviy hamkorlikni ifodalaydi. Jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun har bir shaxs o‘z hissasini qo‘shishi lozim. Agar har bir inson faqat shaxsiy manfaatlarini o‘ylasa, jamiyatda nosog‘lom muhit yuzaga kelishi mumkin.

Berdaqning asarlaridan biz jamiyatdagi barcha sinf vakillarining, boylarning, bo‘lisliklarning, podsho-xonlarning, mulla eshonlarning salbiy harakatlarini, kambag‘al mehnatkashlarning jonli obrazlarini ko‘ramiz. Aholining iqtisodiy hayotini, turli mehnat jarayonlarini, dehqonchilik, qazish ishlarini, aholining turmush-tarzini, ta‘lim-tarbiya masalalarini tasvirlaganini ko‘ramiz [5;22-b.]. Masalan, “Eshonlarda muhruvat yo‘q, Og‘abiyda adolat yo‘q, Boyda xayr-saxovat yo‘q, Bir insofga kirgan emas”.

Odamni imon-insof, ilm-bilim, aql-nasihat yo‘llari bilan tarbiyalash, butun jamiyatni shu yo‘llar bilan rivojlantirib borish qadim zamonlardan beri kelayotgan, turli davr sinovlaridan o‘tgan an‘anaviy yo‘llardan. Shuning uchun bular bizning ma‘naviy dunyomizning ajralmas va katta bir qismiga aylanib ketgan.

Bilgir so‘zin tinglamagan,

Gap ma‘nosini anglamagan,

Kattalardan nasihat olmagan

Aqlsizlik bo‘lgan ekan.

Ushbu fikr axloq va ijtimoiy munosabatlarning bog'liqligini yaqqol ko'rsatadi. Chunki jamiyatda insonning shakllanishi tarbiya va o'zaro muloqot orqali amalga oshadi. Donishmandlarning pand-nasihatlari, avlodlar o'rtasidagi tajriba almashinuvi jamiyat barqarorligi uchun juda muhim. Agar inson bunday maslahatlarni e'tiborsiz qoldirsa, u o'z hayotida ko'p xatolarga yo'l qo'yishi va jamiyatdan uzoqlashishi mumkin. Amerikalik siyosatchi Benjamin Franklin o'zining yutuqlari siriga to'qtalar ekan, "men hesh narsa haqida yomon so'z aytmayman. Lekin har kim haqida bilgan hamma yaqshiliklarini aytib yuraman" degan edi. Bu fikr axloqiy va ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazaridan juda chuqur ma'no kasb etadi. Benjamin Franklinning ushbu so'zlari insonlarning o'zaro munosabatlarida ijobiylik va hurmat muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Ushbu fikrni axloq va jamiyat kontekstida quyidagicha tahlil qilish mumkin: Franklinning g'oyasi axloqiy barkamollikka intilishni ifodalaydi. Yomon gapirish – g'iybat, tuhmat yoki hasad kabi salbiy his-tuyg'ularni targ'ib qiladi, bu esa insoniy munosabatlarga zarar yetkazadi. Aksincha, boshqalar haqida faqat yaxshi gapirish insoniy fazilatlarini qo'llab-quvvatlaydi, mehr-oqibat va do'stlikni mustahkamlaydi. Benjamin Franklinning bu fikrni ijtimoiy munosabatlarga bog'liq holda tahlil qilsak, jamiyatda bunday yondashuv ishonch muhitini shakllantiradi. Agar insonlar bir-biri haqida faqat yaxshi gapirishsa, bu o'zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Bu, ayniqsa, siyosat, ta'lim, ish muhitida muhim, chunki insonlarning bir-biriga bo'lgan hurmatini oshiradi.

Berdaq insonlar o'zaro hurmatda, odob bilan gaplashishini targ'ib qiladi. Bu hozirgi davrdagi ijtimoiy birdamlik va bag'rikenglik uchun ham juda muhim, ya'ni, Yomon aytmay, yaxshi so'zla, Haq ishga hech o'ylanma" (Berdaq asaridan parcha).

Berdaq ham Benjamin Franklin ham so'zning kuchini chuqur tushungan insonlardir. Ikkalasining fikrida ham so'z-jamiyatni birlashtiruvchi yoki ajratuvchi qudratga ega. Shuning uchun ular yomon so'zdan tiyilishni, yaxshi so'z orqali insonlar orasida ijobiy muhit yaratishni targ'ib qiladilar. Bugungi zamonaviy ijtimoiy munosabatlarda ham, o'qituvchilikda, rahbarlikda yoki oddiy oilaviy muomalada insonning yomon jihatlarini aytishdan ko'ra, yaxshi jihatlarini e'tirof etish foydaliroq natija beradi. Bu ijtimoiy munosabatlarda motivasiyani kuchaytiradi, ziddiyatlarni kamaytiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, Berdaqning nazarida, ijtimoiy adolat – bu har bir insonning jamiyatdagi o'rnini adolatli tarzda belgilash, uning mehnatini qadrlash, fikriga quloq tutish va uning hayotiy ehtiyojlarini inobatga olish demakdir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Berdaqning ijtimoiy adolatga oid qarashlari insonparvarlik bilan chambarchas bog'liq. U adolatni insoniyat taraqqiyotining mezoni, insonparvarlikni esa shu taraqqiyotning ma'naviy asosi sifatida ko'radi. Uning gumanistik qarashlari bugungi kunda ham insonlar orasida hurmat, bag'rikenglik va ijobiy muloqotni rivojlantirish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati (references):

- (1). A.Madvaliyev. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati: lug'at. Toshkent, "Sahhof" nashriyoti, 2021, 304-bet.
- (2). Фалсафа: энциклопедик луғат. ЎЗР ФА, И.Муминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ ин-ти. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2010, 10-bet.
- (3). Kalanov, K., Sabirova U. Ijtimoiy antropologiya. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2020, 176-bet.
- (4). И.Каримов, С.Валиева, К.Туленова. Ижтимоий фалсафа (услугий қўлланма). Тошкент, 2008, 120-bet.
- (5). Бердақ. Танламалы шығармаларының жыйнағы. Сағийтов И.Т., Юсупов И., Максетов Қ., Жумамуратов Т., Кәримов А., Қайыпназаров Б., Муртазаев А., Ҳамидов Ҳ. Некис, 1977, 22-бет.
- (6). Жәрімбетов К. Бердақтың насиятлары – бизиң руўхый гәзийнемиз. Бердақтың дидактикалық лирикасы ҳақында. Некис, КР «Руўхый мәденият ҳәм ағартыў» жәмийетлик орайы, 1998, 3-бет.

Ahmedov Farruh Nurmuhammad o'g'li (Renessans ta'lim universiteti; farruhnuriy85@g.mail.com)
YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINING G'OYAVIY TARBIYASI

***Annotatsiya.** Insoniyat tarixiy taraqqiyot jarayonlaridan ma'lumki, jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o'z maqsad va intilishlarini ifoda etuvchi g'oyalar tizimini yaratgach, boshqalarni ham shu g'oyalar ta'siriga tortishga, o'z tarafdorlari safini kengaytirishga harakat qilib kelgan va u davom etaveradi. Bunda ushbu yo'nalishdagi ma'naviy-ma'rifiy faoliyat va ta'lim-tarbiya jarayoni hamda axloqiy o'zgarishlar jarayoni muhim ahamiyatga ega. G'oyalar adolatli va haqqoniy bo'lib, ko'pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta'sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo'lsa, g'oyaviy tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishiladi. Maqolada yangi O'zbekiston yoshlarining g'oyaviy*

tarbiyasi metodlarini bilish darajasi kabi masalalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishish mumkin.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, yoshlar, g'oya, mafkura, g'oyaviy tarbiya, yoshlar mafkuraviy tarbiyasi, maqsad, fuqarolik, fuqarolik jamiyati, adolatli jamiyat, ijtimoiy hamjihatlik.

ИДЕОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Из исторических процессов развития человечества известно, что каждая социальная сила или группа населения в обществе, создав систему идей, выражающих ее цели и стремления, пыталась влиять на других и расширять ряды своих сторонников, и это будет продолжаться. В этой связи большое значение имеет духовно-просветительская деятельность, процесс воспитания и нравственного изменения в этом направлении. Если идеи честны и справедливы, отвечают потребностям большинства, если образовательные инструменты в этой области эффективны, а педагоги активны и преданы своему делу, то поставленная цель идеологического воспитания будет достигнута. В статье представлены исследования по таким вопросам, как уровень знаний методов идеологического воспитания молодежи Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, молодежь, идея, идеология, идеологическое воспитание, идеологическое воспитание молодежи, цель, гражданственность, гражданское общество, справедливое общество, социальная сплоченность.

IDEOLOGICAL EDUCATION OF THE YOUTH OF NEW UZBEKISTAN

Annotation. It is known from the historical processes of human development that each social force or population group in society, having created a system of ideas expressing its goals and aspirations, has tried to influence others and expand the ranks of its supporters, and this will continue. In this regard, spiritual and educational activities and the process of education and upbringing, as well as the process of moral changes, are of great importance. If the ideas are fair and just, and correspond to the needs of the majority, if the means of education in this area are effective, and the educators are active and selfless, then the intended goal of ideological education will be achieved. The article presents research on such issues as the level of knowledge of the methods of ideological education of the youth of Uzbekistan.

Keywords: New Uzbekistan, youth, idea, ideology, ideological education, ideological education of youth, goal, citizenship, civil society, just society, social cohesion.

Kirish. Insoniyat tarixiy taraqqiyot jarayonlaridan ma'lumki, jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o'z maqsad va intilishlarini ifoda etuvchi g'oyalar tizimini yaratgach, boshqalarni ham shu g'oyalar ta'siriga tortishga, o'z tarafdorlari safini kengaytirishga harakat qilib kelgan va u davom etaveradi. Bunda ushbu yo'nalishdagi ma'naviy-ma'rifiy faoliyat va ta'lim-tarbiya jarayoni hamda axloqiy o'zgarishlar jarayoni muhim ahamiyatga ega. G'oyalar adolatli va haqqoniy bo'lib, ko'pchilikning talab-ehtiyohlari-ga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta'sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo'lsa, g'oyaviy tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishiladi. Jamiyat, xalq, ayniqsa yosh avlod o'z manfaatlarini anglab yetmagan, o'z mafkurasini shakllantirib, maqsadlari sari safarbar bo'lmagan hollarda, begona va zararli g'oyalar ta'siriga tushish ehtimoli ortib boradi. Bu esa g'oyaviy tarbiyani yo'lga qo'yishni, sog'lom mafkura tamoyillarini aholi, jumladan, yosh avlod qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

O'zbekiston "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda.

Ushbu talablar doirasida davlatimizda ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina, odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning ijtimoiy mexanizmlarini o'rganish, mazkur masalada ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Kuza-tishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda, uning tabiatida amaliy odatlarga aylan-

mayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi soʻzlari bilan amallari orasida tafovut namoyon boʻlmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda oʻz oʻrinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim oʻquvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, oʻzini-oʻzi oʻqishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi taʼlim sifatiga ham zarar koʻrsatmoqda. Masala yuzasidan adabiyotlar tahlili milliy va maʼnaviy tarbiya sohasida oʻqituvchilarning faoliyatini metodik taʼminlovchi oʻquv materiallari, jumladan, milliy va maʼnaviy tarbiya sohasiga oid metodik qoʻllanmalar, oʻquvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emasligini koʻrsatmoqda. Shu munosabat bilan, bugungi globallashuvning shiddatli va axboriy sharoitida milliy tarbiyaning ijtimoiy-ijtimoiy mexanizmlarini tadqiq qilish orqali yoshlar tarbiyasi uchun tayanch fazilatlarini shakllantirish, mazkur fazilatlariga ularni odatlantirish, tarbiyada tushuntirish, koʻrsatish, oʻrgatish, namuna boʻlish kabi taʼsirchan usullarni isloh qilish va shu orqali maʼnaviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda milliy tarbiya va yoshlarning gʻoyaviy tarbiyasi haqida gap ketganda, beixtiyor taniqli marifatparvar adib Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” [1] degan chuqur maʼnoli hikmatlari inson eʼtiborini tortadi. Koʻplab olimlar oʻz tadqiqotlarida maʼnaviy inqirozning asosiy omillari boʻyicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy maʼlumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan, bir qaraganda, eʼtiborsizdek tuyuladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, yaʼni, yoshlar tarbiyasiga eʼtiborsizlik illati millatning maʼnaviy tanazzulining asosi desak, mubolagʻa boʻlmaydi.

Bu borada mamlakatimizda yoshlar uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi taʼlim-tarbiya, madaniyat, sanʼat va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy-joylar qurish, yoshlarni ish bilan taʼminlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish boʻyicha amaliy ishlar yangi bosqichga koʻtarildi va uni yuksaltirish chora-tadbirlari koʻrilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Taʼlim-tarbiya sohasidagi axloqiy oʻzgarishlar, zamonaviy uzluksiz taʼlimning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani, sohaga olib kirilayotgan innovatsion oʻzgarishlarda muhim ahamiyatga ega [2]. Jamiyatda yoshlar tarbiyasiga eʼtiborsizlik illati bir qator hujjatlarda, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-[3], 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-[4], 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-qarorlari [5] va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-qarorlarida (6) gʻoyaviy tahdid sifatida tanqid etilib, mazkur tahdidlarni yuzaga keltiruvchi tarbiyaviy, ijtimoiy omillar boʻyicha tadqiqotlar olib borish, bunday hurujlarga nisbatan ijtimoiy-gʻoyaviy kurash olib borish vazifasi qoʻyildi.

Tadqiqot metodologiyasi. XXI asrda barkamol farzand tarbiyasining negizi sifatida oila (ota-ona), maktab (pedagog), mahalla (qoʻni-qoʻshni, nuroniyar, mahala faollari), ijtimoiy muhit (tengqurlari, atrof-dagi insonlar) oʻz mavqeyini saqlab qolaveradi. Yoshlarni tarbiyalash quyidagi manbalar asosida amalga oshirilishi mumkin: muayyan tizimli, uzluksiz milliy tarbiyaviy, dasturiy taʼsir orqali; ideal, namuna timso-lida oʻz-oʻzini tarbiyalash, takomillashtirish; ijtimoiy muhitdagi yoshlararo munosabatda tahlil qilish, ibrat olish vositalari yordami bilan xulq-odob, fikrlash malakalarini egallash; ajdodlarimiz yaratgan badiiy, falsafy, sanʼat asarlarini oʻzlashtirish orqali yangi xislatlarni oʻzlashtirish kabilar.

Sh.M.Mirziyoyev ...Mana shunday murakkab va tahlikali zamonda oʻzining kimligini, qanday buyuk zotlarning avlodi, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan yosh avlodgina muqaddas zaminimizni turli balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir boʻlishini hech qachon unutmasligimiz zarur. XXI asrning muhim xususiyatlaridan biri insonlar ongi va qalbini egallash uchun kurashning kuchayganligidir. Qonli urushlar, harbiy yurishlar, iqtisodiy iskanjaga olishlar oʻrniga koʻproq mafkuraviy vositalar va maʼnaviy qurollar ishlatilmoqda. Odamlarning tafakkuri, ongi, dunyoqarashini egallashga urinishlar tobora kuchaymoqda. Boshqa hudud va xalqlarni oʻziga qaram qilish uchun maʼnaviy buzgʻunchilik uslublari qoʻllanilmoqda. XX asr oxiri–XXI asr boshlarida mafkura poligonlari yadro poligonlariga qaraganda koʻproq kuchga ega boʻlib boryapti. Maʼnaviyatsizlik, axloqsizlik har qanday bakteriologik qurolga qaraganda koʻproq ruhiy vayronalik keltirmoqda. Yoshlarimiz oʻrtasida urf boʻlgan madaniyatning ommaviy turi kiyinishlarida, jamoat joylari va oilada oʻzlarini tutishlarida sezilarli darajada salbiy koʻrinish kasb etmoqda [7]. Bunday holatlarga yoshlarimiz oʻz-oʻzidan kirib qolganlari yoʻq, albatta. Ularning ongiga soʻz orqali taʼsir qilish yot gʻoya mualliflarining asosiy ish mexanizmidir. Adabiyot atomdan kuchli, degan edi mashhur adibimiz Abdulla Qahhor. Adabiyotning quroli soʻz ekan, biz bu taʼrifni, aynan soʻzga nisbatdan ham ishlatsek, xato qilmaymiz. Chunki soʻz atomdan kuchli ekanligi bois buzgʻunchi toifalarning ham quroliga aylandi. Dunyo ahlini fikrlar xilma-xilligi, turli gʻoyalar hujumi boshqarmoqda. Amir Xusrav Dehlaviy hazratlari soʻzni

ta'rif etar ekanlar, so'z insonning hayoti aslini qamrab olganligini aks ettirib: "So'z asli jonmasmi, o'ylab fikr qil, Nechun jon chiqarda so'zdan qolar til", deyilar. Ilohiy tushunchalarda ham dunyoning yaralishi so'z orqali amalga oshirilgani bayon etiladi. So'z ijobiylik bilan birga salbiylikka ham xizmat qilishi mumkin. Inson esa ong va tafakkur egasidir, qilayotgan ishini anglamog'i va tug'ilgan g'oyalarni doimo bunyodkorlik tomon sarflamog'i lozim. Bunyodkor g'oyalar elni el, millatni millat qilib birlashtiradi, xalqni taraqqiyot yo'liga olib chiqadi. Vayronkor g'oyalar, urush va mojaro insonlar o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqishini ta'minlab, beqarorlikni yuzaga keltiruvchi omillardandir. Informatsion xurujlar axloqsizlik falsafasi, o'z demokratik modellarini yo'rlab joriy etish yoshlarimizning vatanparvarlik tuyg'usini susaytirishga qaratilgan –dunyo fuqaroligi degan soxta tamoyilni targ'ib qilib, ularni o'ziga rom etgan turli shou-tomosha-lar, ko'ngilochar musiqiy kanallar orqali buzg'unchi g'oyalarni keng yoymoqda. Ayni paytda, ba'zi yoshlarimiz turli yot g'oyalarni xolis axborot manbai sifatida qabul qilayotganini ham e'tibordan qochirmaslik kerak. Kelajak bunyodkorlari yot mafkuralarning mehribonligi, xolisligi, do'stonaligi ortida nima yotganini chuqur anglab olishlari lozim. Bu borada Sharq mutafakkirlaridan Pahlavon Mahmudning: Uch yuz Ko'h-iqofni kelida tuymoq, Dil qonidan bermoq falakka bo'yoq, Yoinki, bir asr zindonda yotmoq, Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq, degan purma'no baytlari asrlar osha ham o'zining ma'nolar ziyosini sochmoqda. Uyg'onmoqning vaqti keldi, Bosh ko'tar, uyg'on! Ozod bo'lib qol. Aytish mumkinki, ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish o'zimizning birinchi darajali vazifamizga aylandi. Yoshlar tarbiyasi hurmatli Prezidentimizning har bir chiqishlarida alohida ta'kidlanmoqda, jumladan, quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir:

"Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini juda-juda istardim: Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq. Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so'zlar! Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, ommaviy madaniyat degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi. Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda. Shu ma'noda g'oyaviy profilaktikaning yoshlarni g'oyaviy himoyalashdagi ahamiyati kattadir. Chunki bu vazifa tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq bo'lib, komil insonni shakllantirish va uni amalga oshirishga bo'lgan intilishlar insoniyat sivilizatsiyasining ma'no-mazmunini tashkil qiladi. Insoniyat jamiyati tarixiga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, gumanistik g'oyalarga munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat sivilizatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi komillik mezon insonni, shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni baxtli, saodatli qilishdan iborat bo'lib kelgan.

Bu borada ta'lim-tarbiya xodimlaridan alohida jonkuyarlik va fidoyilik talab etiladi. Yoshlardagi oqko'ngillik, jo'shqinlik, olov-otashlikni mehr bilan avaylab o'stirish kerak. Bu haqda jahonning taniqli pedagog-olimlari qimmatli fikrlar qoldirganlar. Jumladan, V.Suxomlinskiyning fikricha, mehribon o'qituvchi bolaning ko'ngliga faqat illatlarni, begona o'tlarni yulib tashlansagina kifoya qiladigan tep-tekis so'qmoq orqali emas, balki ma'naviy fazilatlarining kurtaklari avj oladigan saxovatli dala orqali yo'l topadi [10].

Yangi O'zbekistonning ma'naviy yetuk yoshlari – jamiyatda sog'lom turmush tarzi, yuksak madaniyati, kasb darajasi va ijtimoiy faoliyati bilan aholi o'rtasida namuna ko'rsatadigan yoshlardir. Yoshlar kamoloti, o'z navbatida, ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog'liqdir. Yoshlarning mafkuraviy tarbiyasi jamiyat muhitiga bog'liq. Jamiyatning sog'lomligi va ijtimoiy muhitning qanday darajada bo'lishi mamlakat rivojiga, mamlakatdagi mavjud muammolarni hal etishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham yoshlar ma'naviyatini mustahkamlash, uni sog'lomlashtirish muammolari jamoatchilikning e'tiboridagi muhim muammolardandir. Zamonaviy jamiyat qurishning asosiy omillari orasida yoshlar qatlamini, uning g'oyaviy dunyosini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish masalasi muhim hisoblanadi. Yoshlarlararo munosabatlarning insoniyat jamiyati kabi qadimiy va dolzarbligi bois o'tmish mutafakkirlaridan tortib to hozirgi zamon tadqiqotchilari ham yoshlar tarbiyasi va ijtimoiy muammolarni hal etish masalalariga o'z e'tiborlarini qaratganlar. Sharqning buyuk allomalaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Kaykovus, Hotam ibn Toy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin kabi mutafakkir va allomalar jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning yoshlarga va ularning ma'naviyatiga ta'sirini uqdirib o'tganlar. Xorij olimlari-

dan D.Adams, A.Gary, A.King, A.Lynda, W.Daniellar tomonidan jamiyat muhitining yoshlar hayoti va faoliyatiga ta'siri empirik jihatdan o'rganilgan.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Mahmudova o'zining "Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba-yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimi" mavzusidagi ilmiy tadqiqotida yurtimizning kelajagi yoshlar tarbiyasiga, ma'naviy qiyofasiga bog'liqligini ilmiy dalillar asosida yoritib bergan. Bizning nazari-mizda, bu borada yoshlarning ma'naviy-ruhiy muammosiga jiddiy qarash, kelajakda ularning namunali, ib-ratli mutaxassislar bo'lishiga asos yaratadi [11].

Darhaqiqat, tarixning barcha davrlarida olimlar yoshlarning jamiyatdagi o'rniga katta ahamiyat ber-ganlar. Chunki jamiyatning eng katta qatlami yoshlardir. Yoshlar g'oyaviy sog'lom va mustahkam bo'lsa, jamiyatda rivojlanish, tinchlik va farovonlik bardavom bo'ladi. Demak, Yangi O'zbekistonni yanada rivoj-lantirish, yangi imoniyatlar yaratishda asosiy omillardan biri sifatida yuqoridagi ilmiy-amaliy va nazariy tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizningcha, nazarimizda, navbatdagi omil – yoshlar-ni tarbiyalash va jamiyatga munosib fuqaro sifatida tayyorlash hisoblanadi.

Zamonaviy va mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlarni shakllantirishning eng muhim shar-tlaridan biri bu yoshlarni hayotga tayyorlashda ular ma'naviy hamda ijtimoiy hayot, shuningdek, maf-kuraviy kurashuvchanlik mohiyati borasida to'g'ri tushunchalar hosil bo'lishiga ko'maklashish kerak.

Tahlil va natijalar. Jamiyatda yoshlarni g'oyaviy jihatdan mustaqil ijtimoiy hayotga tayyorlash ser-qirra jarayon sanalib, mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi bu boradagi muayyan kamchilik va mu-ammolarning bartaraf etilishi bilan belgilanadi. Xozirda esa Yangi O'zbekistonda yoshlarni mustaqil ijt-i-moiy hayotga tayyorlash jarayonida bir qator to'siqlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir: birin-chidan, jamoat tashkilotlarining yoshlarni mustaqil ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyati xu-susida to'la mas'uliyatga ega emasliklari; ikkinchidan, ta'lim va jamoat tashkilotlarining yoshlardan iborat o'z xodimlari bilan ma'lum masalalarda ochiq-oydin muloqotda bo'la olmasliklari; uchinchidan, ota-onalar tomonidan yoshlarni oilada mustaqil ijtimoiy hayotga tayyorlash uchun nazariy va amaliy bilimlarni o'rga-nish imkonini beruvchi manbalarning yetarli darajada mavjud emasligi o'zgarishlar sharoitida yoshlarni mustaqil ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyatini to'la tushunmasliklariga sabab ekanligini rad etolmaymiz.

Binobarin, yosh avlodni axloqiy, jismoniy, estetik va ma'naviy jihatdan voyaga yetkazishda g'oyaviy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bu sohada samara beradigan barcha tarbiyaviy norma va tadbir-larni ishga solmasdan turib, mavaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Yoshlar dunyoqarashida yuzaga keladigan his-tuyg'ularni to'g'ri idora etish, bunyodkorlik, yaratuvchanlik g'oyalarini shakllantirish naqadar ta'sirli bo'lishi, jamiyatning bo'lajak ustunlari bo'lishlari uchun astoydil harakat qilish haqidagi tushunchalarni ular ongiga singdirish, yaxshi natija beradi, deb o'ylaymiz.

Bugungi kunda mamlakatimiz poydevorining asosiy qatlamlaridan biri sifatida yoshlarning ma'n-an va jismonan barkamol insonlar bo'lib yetishishi, ularning tarbiya sohasidagi savodxonlik darajasi ham mu-him masala ekanligi ahamiyatli.

Xulosa. Bizning har bir kunimiz vayronkor g'oyalarga qarshi kurashish negizida ilm olish, salohiya-timizni o'stirish, ma'naviyatimizni yuksaltirishga sa'yi-harakat bilan o'tmog'i lozim. Yurtning obodligiga ma'naviy ruhan tetik, ma'n-an yuksak qobiliyatli oqil yoshlar sidqidildan xizmat qilishadi. Xullas, ta'lim ti-zimi taraqqiyotida mafkuraviy profilaktika talaba yoshlarning tushunchasini, dunyoqarashini shakllanti-rishga, ularni muayyan g'oya va maqsadlarni ifoda etadigan mafkuraviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'-naltirilgan innovatsion jarayonni anglatadi. O'zbekiston sharoitida bunday faoliyatning asosiy vazifasi xal-qimizning, jumladan, yoshlarning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-istaklari, maqsadlarini, milliy istiqloq g'oyasining mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, ayniq-sa, yoshlar ongiga singdirishdan iborat bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyatda yoshlar tarbiyasi – yurt tinchligi, vatan ravnaqi, yoshlarning tarbiyasi, ma'naviy yetuk inson bo'lib yetishi mamlakat kelajagi hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda jamiyat uchun kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol topib boradi. Farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida vo-yaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa milliy fazilatlariga yo'g'rilgan milliy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida esa milliy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimiz tarbiyasiga e'tiborli bo'laylik, aynan shu mezon bolalarimizni ma'n-an, ruhan sog'lom, o'z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o'z milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan barkamol bo'lib o'sib-unishining asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi. <https://kun.uz/news/2019/08/23>
- (2). O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 2020 /<https://kun.uz>
- (3). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-qarori. <https://lex.uz/docs/3360950>
- (4). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-qarori. <https://lex.uz/docs/4320700>
- (5). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-qarori. <https://lex.uz/docs/5344692>
- (6). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-qarori.
- (7). Quronov M. "Har bir ota-ona pedagog bo'lish kerak". Maqola. <http://www.adolatnashr.uz/>
- (8). Akramova F.A. "Oilada sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishning ijtimoiy-ijtimoiy asoslari". O'quv qo'llanma, Toshkent, 2014.
- (9). Amir Temur. Tuzuki Temuriy. T., 2019, 7-8-betlar.
- (10). Karimova V. Oila himoyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi. "Huquq ba burch", 5-son, Toshkent, 2007, 31-bet.
- (11). Kadirova A.T. O'smirlarda ijtimoiy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixol. fan. nom. dis., Toshkent, 2007, 36-bet.

Rustamov Ramz Rizoqulovich (Qarshi davlat Texnika universiteti dotsenti; ramz.rustamov.81@mail.ru)
JAMOATCHILIK FIKRINI SOG'LOMLASHTIRISHDA IJTIMOY TARMOQLARDAN
FOYDALANISH YO'LLARI

***Annotatsiya.** Muallif mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda kishilar ongi va faoliyatini tobora faollashib borayotgan destruktiv zamonaviy targ'ibot ta'siridan muhofazalash jamoatchilik fikrini sog'lomlashtirish bilan bog'liq ekanligi, buning uchun mazkur vazifani amalga oshirishga ijtimoiy tarmoqlarning pozitiv imkoniyatlari safarbar qilinmogi, bu imkoniyatlarni realizatsiya qilishda qo'l keladigan choralar amalga oshirilmog'i lozimligini ta'kidlaydi.*

***Kalit so'zlar:** targ'ibot, zamonaviy targ'ibot, ijtimoiy targ'ibot, ijtimoiy tarmoq, jamoatchilik fikri, zamonaviy jamiyat.*

Рустамов Рамз Ризокулович (доцент Каршинского государственного технического университета;
ramz.rustamov.81@mail.ru)

СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ **ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ**

***Аннотация.** В данной статье автор подчеркивает, что защита сознания и деятельности людей от все более разрушительного влияния современной пропаганды в современном обществе связана с оздоровлением общественного мнения, а для этого следует мобилизовать позитивный потенциал социальных сетей на реализацию этой задачи, а также принять соответствующие меры для реализации этих возможностей.*

***Ключевые слова:** пропаганда, современная пропаганда, социальная пропаганда, социальная сеть, общественное мнение, современное общество.*

Rustamov Ramz Rizoqulovich (Associate Professor, Karshi State Technical University;
ramz.rustamov.81@mail.ru)

WAYS OF USING SOCIAL NETWORKS IN MAKING PUBLIC OPINION

***Annotation.** In this article, the author emphasizes that protecting people's consciousness and activities from the increasingly destructive influence of modern propaganda in modern society is associated with the improvement of public opinion, and for this purpose, the positive potential of social networks should be mobilized to implement this task, and measures should be taken to implement these opportunities.*

***Keywords:** propaganda, modern propaganda, social propaganda, social network, public opinion, modern society.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikriga ommaviy axborot vositalarining ta'siri naqadar katta bo'lsa, kun sayin faollashib borayotgan ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ham shu qadar ahamiyatli bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar deganda internet makonda shaxslar va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni

shakllantirish va rivojlantirishga mo'ljallangan maxsus platformalar tushuniladi.¹ Bugungi kunda internet-makonda turli maqsad va vazifaarni ko'zda tutgan ijtimoiy tarmoqlar faoliyat olib bormoqda. Xususan, "Facebook", "V Kontakte", "Instagram" kabi ijtimoiy tarmoqlar umumiy maqsadli tarmoqlar hisoblanib, hammabopligi bilan tavsiflanadi.² "LinkedIn", "ResearchGate" kabi ijtimoiy tarmoqlar esa kasbiy faoliyat va ilmiy tadqiqotlar uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, internetda mavzuli tarmoqlarni uchratish mumkin. Masalan, "Stack Overflow" tarmog'i axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar uchun, "Goodreads" esa kitobsevarlar uchun faoliyat olib boradi. "YouTube", "TikTok" kabi ijtimoiy tarmoqlar video va audiokontentlarni yaratish va tarqatishga ixtisoslashgan. Har bir ijtimoiy tarmoq o'z tarkibiy tuzilishiga ega. Jumladan, ular shaxsiy ma'lumotlar va aloqalarni o'z ichiga olgan foydalanuvchilar profili, postlar, rasmlar, videolar shaklidagi kontentlar, izohlar, chatlar, layklar va repostlar, foydalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va tarmoq ichidagi trendlardan tarkib topadi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar qator ahamiyatli funksiyalarni ado etmoqda. Mutaxassislar ular turkumiga quyidagilarni kiritishadi:

- axborot tarqatish funksiyasi – ijtimoiy tarmoqlar yangiliklar va dolzarb mavzularni jamoatchilikka yetkazish bilan shug'ullanadi;³

- muloqot va ijtimoiy aloqalarni tashkil etish funksiyasi – ijtimoiy tarmoqlar kishilar o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yadi;⁴

- ta'lim berish va kasbiy rivojlantirish funksiyasi – ijtimoiy tarmoqlar masofaviy ta'lim olish va malka oshirish imkoniyatlarini taqdim qiladi;⁵

- biznes va marketingni amalga oshirish funksiyasi – ijtimoiy tarmoqlar turli brendlar uchun reklama va marketing maydoni bo'lib xizmat qiladi;⁶

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, turli maqsadlarda qo'llanilmoqda. Ular insonlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtirmoqda, axborot almashishni tezlashtirmoqda va iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishga sezilarli hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga, ular faoliyatining, ulardan foydalanishning turkum ijobiy va salbiy jihatlari ko'zga tashlanayotganini ham nazardan qochirmaslik lozim. Chunonchi, bir tomondan, ijtimoiy tarmoqlar yangiliklarni tezkor tarqatish imkonini bermoqda. Foydalanuvchilar ular yordamida jahonda va mamlakatda sodir bo'lgan voqealar haqida tez va oson ma'lumot olmoqdalar. Bu borada "Twitter" va "Facebook" kabi platformalar, ayniqsa, faollik ko'rsatmoqdalar. Ijtimoiy tarmoqlar kishilarga yaqin birodarlari, oila a'zolari bilan muloqotda bo'lish imonini bermoqda. Masofaviy ishlash, ta'lim olish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish borasida ham ijtimoiy tarmoqlarning o'rni ayrichaligicha qolmoqda. Lekin, ikkinchi tomondan, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilar shaxsiy ma'lumotlarining turli davralar tomonidan to'planishiga va suiiste'mol qilinishiga sharoit yaratmoqda. Ulardan muntazam ravishda foydalangan kishilarda ijtimoiy tarmoqlarga bog'liqlik kasalligi yuzaga kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda ideallashtirilgan hayot tarzini ko'rgan ayrim kishilarda depressiya va stress holatlari ildiz otmoqda.⁷ Ularning ta'siri o'laroq, o'smirlar va yoshlar orasida kiberbulling (onlayn-tazyiq, haqorat, shaxsiy ma'lumotlarni ommalashtirish bilan tahdid solish) muammolari yuzaga kelmoqda.⁸ Eng tashvishlanarlisi, ayrim ijtimoiy tarmoqlar kishilar ongi va faoliyatini manipulatsiya qilish, dezinformatsiyalar tarqatish, trolllar va botlar orqali jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

- Nima bo'lganda ham, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik fikriga jiddiy darajada ta'sir o'tkazuvchi omil sifatida qolmoqda. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

¹ Boyd D.M., Ellison, N.B. Social network sites. Definition, history, and scholarship. Journal of Computer-Mediated Communication, 2007, № 1, p. 210–230.

² Kaplan A.M., Haenlein M. Users of the world, unite! The challenges and opportunities of social media. Business Horizons, 2010, № 1, p. 59–68.

³ Newman N., Fletcher R., Kalogeropoulos A., Nielsen R.K. Reuters Institute Digital News Report 2019. amic. Media /media/files/file_352_2028 .pdf.

⁴ Wellman B., Haase A.Q., Witte, J., Hampton K. Does the internet increase, decrease, or supplement social capital?// American Behavioral Scientist, 2001, № 3, p. 436–455.

⁵ Selwyn N. Social media in higher education. The Europa World of Learning, 2012, № 2, p. 1–9.

⁶ Kietzmann J.H., Hermkens K., McCarthy I.P., Silvestre B.S. Social media? Get serious! Understanding the functional building blocks of social media. Business Horizons, 2011, № 3, p. 241–251.

⁷ Fardouly J., Diedrichs P.C., Vartanian L.R., Halliwell, E. Social comparisons on social media. The impact of Facebook on young women's body image concerns. Body Image, 2015, № 13, p. 38–45.

⁸ Patchin J.W., Hinduja S. Cyberbullying and self-esteem. Journal of School Health, 2010, № 12, p. 614–621.

•ijtimoiy tarmoqlar orqali axborotlar keng ko‘lamda va tez tarqaladi, bu esa jamoatchilik fikrining tezkor shakllanishiga sabab bo‘ladi. Masalan, Facebook va Twitter kabi platformalarda xabarlar soniya ichida dunyo bo‘ylab tarqalishi mumkin. Bu tezkor axborot almashinuvi jamoatchilik fikrini qisqa muddatda tubdan o‘zgartirish imkonini beradi;

•ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini beradi. Bu platformalarda har bir foydalanuvchi muayyan mavzu va muammo yuzasidan o‘z fikrini bildirishi, boshqa foydalanuvchilarning nuqtayi nazarini bilan tanishishi, ularni muhokama qilishi mumkin. Natijada jamoatchilik fikri xilma-xil fikrlar va nuqtayi nazarlar evaziga takomil topadi;

•ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo‘lgan mavzular, heshteglar jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu mavzular orqali foydalanuvchilar ma‘lum bir maqsad atrofida birlashib, o‘z fikrlarini bildiradilar. Maazkur jarayon jamoatchilik fikrining shakllanishiga va rivojlanishiga poydevor yaratadi;

•ayrim pallalarda ijtimoiy tarmoqlar fikrlarning qutblashuviga sabab bo‘ladi, chunki foydalanuvchilar o‘z qiziqishlariga mos kontentni qidiradilar hamda hammaslaklarini jamlagan guruhlariga birlashadilar. Oqibatda ular faqat o‘z nuqtayi nazarlarini tasdiqlovchi axborotlarni o‘zashtira boshlashadi;

•ba‘zi guruhlar jamoatchilik fikrini o‘zgartirish bilan bog‘liq niyatlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali ro‘yobga chiqarishga intiladilar. Ular ma‘lum bir mavzu yoki g‘oya atrofida kontent yaratib, faol targ‘ibot olib boradilar. Aksar hollarda bunday yondashuv jamoatchilik fikrining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi;

•ijtimoiy tarmoqlar turfa ijtimoiy harakatlarni qo‘llab-quvvatlashda ham qo‘l keladi. Foydalanuvchilar o‘z fikrlarini bildirish, tadbirlar haqida xabar berish va boshqalarni unga jalb qilish orqali ijtimoiy harakatlarda ishtirok etadilar. Bu jarayon ham jamoatchilik fikrining evrilishiga olib kelishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy tarmoqlarning jamoatchilik fikrini shakllantirish va o‘zgartirish borasida imkoniyatlari ham ancha salmoqli. Mazkur imkoniyatlardan jamoatchilik fikrini sog‘lomlashtirish yo‘lida oqilona foydalanish kishilar ongi va faoliyatini destruktiv targ‘ibot ta‘siridan muhofaza qilish potensialini yuksaltiradi. Bu borada qator tavsiyalarga e‘tibor berish lozim deb hisoblaymiz.

Birinchidan, kishilarning ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanishga doir ko‘nikmalarini yuksaltirish kerak. Kishilarning ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini oshirish – bu faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy ahamiyatga molik masala hamdir. Har bir insonning raqamli savodxonligi oshgan sari jamoatchilik fikri sog‘lomlashib, jamiyatda haqqoniy axborotga asoslangan qarorlar qabul qilinishiga zamin yaratiladi. Shu bois ta‘lim, kiberxavfsizlik va axborot madaniyatini yuksaltirish borasida davlat tomonidan belgilangan chora-tadbirlar ijrosi jamoat tashkilotlarining ustuvor vazifalardan biri bo‘lmog‘i kerak.

Ikkinchidan, jamiyat a‘zolarida ijtimoiy tarmoqlardagi mazmunli va konstruktiv muhokamalardagina qatnashish odatini qaror toptirish lozim. Mazmunli muhokama deganda foydali ma‘lumotlar hamda o‘zaro hurmat asosida olib boriladigan muloqot, konstruktiv muhokama deganda esa jamiyatda mavjud muammolarni pragmatik tahlil qilishga yo‘naltirilgan muloqot nazarda tutiladi. Jamiyat a‘zolarida mazmunli va konstruktiv muhokamalarda ishtirok etish odatining qaror toptiririshi jamoatchilik fikrining sog‘lomlashuviga, axborot madaniyatining rivojlanishiga va ijtimoiy birdamlikning mustahkamlanishiga olib keladi. Agar odamlar o‘z fikrlarini erkin va asosli holda, lekin o‘zaro hurmat va axloq tamoyillariga tayangan tarzda bayon etishga odatlansalar, jamiyatda ziddiyatli holatlar sezilarli ravishda kamayadi, mavjud muammolarni samarali hal etishga imkon tug‘iladi.

Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, ularning noqonuniy tarqalishini oldini olish zarur. Insonning shaxsiy hayotiga oid axborotlar, xususan, ularning pasport ma‘lumotlari, manzili, bankdagi hisob raqamlari, elektron pochta, telefon raqami, geolokatsiya ma‘lumotlari turli maqsadlarda, shu jumladan, firibgarlik, kiberhujumlar va shaxsga doir axborotlarni manipulyatsiya qilish uchun suiiste‘mol qilinishi mumkinligi sir emas. Bunday ma‘lumotlarning himoya qilinishi nafaqat foydalanuvchilar xavfsizligini, balki shaxsiy hayot daxlsizligini ham ta‘minlaydi. Ana shunday xavfsizlik yuzaga kelgan sharoitdagina jamoatchilik orasida salbiy fikr va nuqtayi nazarlar tarqalishining oldi olinadi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda kishilarni ezgulikka chorlaydigan, insonparvar g‘oyalarni targ‘ib va tashviq qilishga mo‘ljallangan sahifalar, guruhlar sonini ko‘paytirish choralari ko‘rish kerak. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda axborot tarqatishning eng ommaviy vositasiga aylanib borayotganini qayd etib o‘tdik. Ular yordamida turli g‘oyalarning targ‘ib qilinayotgani ham ma‘lum fakt. Agar ijtimoiy tarmoqlarda ezgulik, insonparvarlik, bag‘rikenglik va mehr-muruvvatni targ‘ib etuvchi platformalar soni ko‘paytirilsa, jamiyatda ijobiy o‘zgarishlar yuzaga kelgan, sog‘lom jamoatchilik fikri qaror topgan, pozitiv fikrlaydigan kishilar soni benihoya oshgan bo‘lardi.

Beshinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda destruktiv g'oyalarning mohiyatini ochib berishga mo'ljallangan sahifalarni ko'paytirish lozim. Ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy ziddiyatlar va beqarorlikni kuchaytirishga qaratilgan ekstremizm, radikalizm, millatchilik, diniy mutaassiblik kabi g'oyalarning tarqalayotgani, targ'ib etilayotgani ham yorqin ko'zga tashlanmoqda. Agar bunday tendensiyalarga qarshi yetarlicha tushuntirish ishlari olib borilmasa, ushbu destruktiv g'oyalarning jamoatchilik fikriga salbiy ta'siri kuchayib boraveradi, ularning iskanjasiga tushgan kishilar soni ham ortaveradi. Shu bois ijtimoiy tarmoqlarda destruktiv g'oyalar mohiyatini ochib berishga mo'ljallangan sahifalarni ko'paytirish, jamiyatga bu tahdidlarning salbiy oqibatlarini yetkazish va odamlarni ulardan himoya qilish benihoya muhimdir.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak, zamonaviy jamiyatda kishilar ongi va faoliyatini tobora faollashib borayotgan destruktiv zamonaviy targ'ibot ta'siridan muhofazalash borasidagi ikkinchi vazifa jamoatchilik fikrini sog'lomlashtirish bilan bog'liq. Buning uchun mazkur vazifa ijrosiga ijtimoiy tarmoqlarning pozitiv imkoniyatlari safarbar qilinmog'i, bu imkoniyatlarni realizatsiya qilishda qo'l keladigan choralar amalga oshirilmog'i dardkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Boyd D.M., Ellison, N.B. Social network sites: Definition, history, and scholarship. Journal of Computer-Mediated Communication, 2007, № 1, p. 210–230.
- (2). Kaplan A.M., Haenlein M. Users of the world, unite! The challenges and opportunities of social media. Business Horizons, 2010, № 1, p. 59–68.
- (3). Newman N., Fletcher R., Kalogeropoulos A., Nielsen R.K. Reuters Institute Digital News Report. 2019, amic.media/media/files/file_352_2028.pdf.
- (4). Wellman B., Haase A.Q., Witte, J., Hampton K. Does the internet increase, decrease, or supplement social capital?//American Behavioral Scientist, 2001, № 3, p. 436–455.
- (5). Selwyn N. Social media in higher education. The Europa World of Learning, 2012, № 2, p. 1–9.
- (6). Kietzmann J.H., Hermkens K., McCarthy I.P., Silvestre B.S. Social media? Get serious! Understanding the functional building blocks of social media. Business Horizons, 2011, №3, p. 241–251.
- (7). Fardouly J., Diedrichs P.C., Vartanian L.R., Halliwell, E. Social comparisons on social media. The impact of Facebook on young women's body image concerns. Body Image, 2015, № 13, p. 38–45.
- (8). Patchin J.W., Hinduja S. Cyberbullying and self-esteem. Journal of School Health, 2010, №12, p. 614–621.

Jamolov Davronbek Baxtiyor o'g'li (Axborot Texnologiyalari va menejment universiteti

“Tarix” kafedrasi dotsenti (PhD); e-mail: jamolovdavronbek4@gmail.com)

MILLIY QADRIYATLARNI ASRAB-AVAYLASHDA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy qadriyatlar millat vakillarining ongi va faoliyatini, ularning turli jarayon va voqealarga munosabatini, ehtiyoj va manfaatlarini, maqsad va ideallarini shakllantiruvchi qudratli manbaaligi haqida ma'lumot berilgan. Inson uchun Vatan tabiati bilan bog'liq ayrim xususiyatlar, hodisalar qadriyat darajasiga ko'tarilishi mumkinligini aytib o'tadigan bo'lsak, ushbu qadriyatlar vatanparvarlik tuyg'ularini qaror toptiruvchi omil vazifasini ham o'taydi. Aynan shu boisdan ko'plab shoirlar Vatanga bo'lgan muhabbatlarini ifodalashda tabiat tasviridan foydalanganlar.

Kalit so'zlar: shaxsning shakllanishi, milliy an'ana, milliy tarbiya, milliy madaniyat, jamiyat, axloq, qadriyatlar, milliy qadriyatlar, milliy ehtiyoj.

Джамалов Давронбек Бахтияр огли (Университет информационных технологий и менеджмента, доцент кафедры “Истории” (PhD); e-mail: jamolovdavronbek4@gmail.com)

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СОХРАНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. В данной статье представлена информация о мощном источнике национальных ценностей, формирующих сознание и деятельность представителей нации, их отношение к различным процессам и событиям, потребностям и интересам, целям и идеалам. Если упомянуть, что некоторые особенности и события, связанные с природой Родины, могут быть подняты на уровень ценности для человека, то эти ценности служат и фактором, определяющим патриотические чувства. Именно поэтому многие поэты использовали образ природы для выражения своей любви к Родине.

Ключевые слова: формирование личности, национальная традиция, национальное образование, национальная культура, общество, этика, ценности, национальные ценности, национальные потребности.

**Jamalov Davronbek Bakhtiyar ugli (University of Information Technologies and Management
Associate Professor of History Department, (PhD); e-mail: jamolovdavronbek4@gmail.com)**

FACTORS INFLUENCING THE PRESERVATION OF NATIONAL VALUES

Annotation. *This article provides information about the powerful source of national values that shape the consciousness and activities of the representatives of the nation, their attitude to various processes and events, needs and interests, goals and ideals. If we mention that some features and events related to the nature of the Motherland can be raised to the level of value for a person, these values also serve as a factor that determines patriotic feelings. That is why many poets used the image of nature to express their love for the Motherland.*

Keywords: *personality formation, national tradition, national education, national culture, society, ethics, values, national values, national needs.*

Kirish (Introduction). Qadriyatlar vatan-parvarlik tuyg'ularini qaror toptiruvchi omil vazifasini ham o'taydi. Aynan shu boisdan ko'plab shoirlar Vatanga bo'lgan muhabbatlarini ifodalashda tabiat tasviridan foydalanadilar. Jumladan, To'ra Sulaymon Vatan tabiatini shunday tasvirlaydi:

Bahor kelsa boshlanur bog'da bulbul xonishi,

Sa'va, qumri nag'masi, suralay tovlanishi.

Qirlarda lola sayli, qishloqlarda yil boshi,

To'xtagay tabiatdan haqqushlar zorlanishi –

Bahor ketma mening bog'imdan. [4]

Binobarin, qadriyat maqomiga yetgan va Vatan tabiati bilan bog'liq xususiyatlar, hodisalar, yodgorliklarning asrab-avaylanishi nafaqat millat turmushi, balki uning vakillari dunyoqarashining shakllanishi uchun muhim ahamiyatga egadir.

Millat vakillari ongi va faoliyatining shakllanishida milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan tarixiy jarayon va voqealar ham bag'oyat ahamiyatli. Masalan, Temuriylar davrida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiy yuksalish omillari, madaniy taraqqiyot o'zbek xalqi uchun allaqachonlar qadriyat maqomini olgan. Millat vakillari ushbu tarixiy jarayonlarni mamlakatimizdagi Ikkinchi renessans davrining ifodasi sifatida qadrlaydilar. Bu qadriyatlar o'zbek xalqining shonli tarixini, uning potensial imkoniyatlarini, orzu-umidlarini tuyish imkonini beradi. Demak, tarixiy jarayon va voqealar bilan bog'liq milliy qadriyatlarni asrab-avaylash orqali millatning ijtimoiy-tarixiy munosabatini qaror toptirish, uning ruhiyatini shakllantirish, ijtimoiy kayfiyati va millatparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash mumkin bo'ladi.

Milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan orzu-umid va ideallarning ham alohida qimmati mavjud. Tarixiy taraqqiyot davomida bunday orzu-umid va ideallar xalqni buyuk ishlar sari undab kelgani haqida ko'p gapirilgan. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston orzusi ana shunday ideal darajasiga ko'tarilmoqda. "Yangi O'zbekiston – barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi! Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o'ziga xos tarzda aks etmoqda" [5; 15-bet.]. Ushbu orzuning qimmati shundaki, u butun O'zbekistonliklarni yagona g'oya atrofida birlashtirishga, ularni aniq maqsad sari safarbar etishga xizmat qiladi. Yangi milliy qadriyat darajasiga yetayotgan ushbu orzuni asrab-avaylash zaruriyati ham shu-ning bilan bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Globallashtiruv tendensiyasining milliy qadriyatlarga salbiy ta'sirini kamaytirishda quyidagi tavsiyalarga ham e'tiborni qaratish zarur, deb hisoblaymiz.

▪Jamiyatdagi aksiologik vaziyatni monitoring qilib boradigan, xususan, milliy qadriyatlarning real jamiyatdagi mavqeyini aniqlash, kishilarning milliy qadriyatlarga munosabatidagi o'zgarishlarni tahlil qilish bilan shug'ullanadigan yaxlit ijtimoiy tizimni shakllantirish zarur.

Bu tizimning vujudga kelishi nafaqat milliy qadriyatlar nufuzini oshiradi, balki pirovardida milliy madaniyatdagi milliylik elementlarining saqlanishiga ham zamin yaratadi.

▪Jamiyat a'zolarining aksiologik tarbiyasini tizimli ravishda yo'lga qo'yishga xizmat qiladigan normativ-huquqiy hujjatlarni, o'quv-uslubiy va ilmiy materiallar majmuini takomillashtirish zarur.

Aksiologik tarbiyaning ilmiy asosda, tizimli, uzluksiz va kompleks holda tashkil etilishi fuqarolarning qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradi, aksiologik ongini yuksaltiradi, aksiologik faoliyatini jamiyat ehtiyoj va manfaatlariga moslashtiradi.

▪Milliy qadriyatlarni targ'ib va tashviq qilishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish zarur.

Bu texnologiyalarni ishlab chiqayotganda va amaliyotga tatbiq etayotganda aksiologik targ'ibot va tashviqot ishlari mamlakatdagi o'quv dargohlarida amalga oshirilayotgan tadbirlar bilan cheklanib qolayotgani, turli korxona va tashkilotlardagi aksiologik targ'ibot yil sayin zaiflashib borayotgani, nodavlat tashki-

lotlari, xususiy firma va korxonalarda esa bunday faoliyat mutlaqo yo'lga qo'yilmaganiga e'tibor berish zarur bo'ladi.

Milliy qadriyatlarga salbiy ta'sirini tasvirlash uchun shularning o'zi ham kifoya qiladi, deb o'ylaymiz. Aynan ana shunday vaziyat O'zbekiston rahbari va hukumatining milliy qadriyatlarga bo'lgan siyosiy yondashuvini ularga oqilona munosabatni shakllantirish, jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash vazifasi bilan bog'ladi. "Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migrasiya, "ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur etkazmoqda", deb ta'kidlaydi davlat rahbari [6;505-bet.]

Yuzaga kelgan vaziyatda milliy qadriyatlarni rivojlantirish, ularga pragmatik va oqilona munosabatni shakllantirish, shuningdek, "yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir" [6; 29-bet.]

Tahlil va natijalar (Analysis and results). G'arbda inson huquqlarini mutlaqlashtirish, barcha ijtimoiy jarayonlarni, inson faoliyati bilan bog'liq barcha holatlarni nuqul huquqlar nuqtai-nazaridan tahlil qilish odati ildiz otmoqda. Jahondagi globallashtirish tendensiyasi oqibatida huquq va majburiyatlar haqidagi bunday g'arbda tasavvurlar jahonning turli mintaqalariga yoyilmoqda, targ'ib va tashviq etilmoqda. Oqibatda ko'plab mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham har qanday ijtimoiy voqeani huquqlar bilan o'lchash amaliyoti paydo bo'layapti. Masalan, hamma jamiyatlarda shaxsni majburiy mehnatga jalb qilish inson haq-huquqlarining poymol etilishi, og'ir ijtimoiy oqibatlarga olib keluvchi omil sifatida e'tirof qilindi. Bu, albatta, o'rinli nuqtayi nazar.

Kishilarning majburiy mehnatga jalb qilinishi qanday oqibatlarga olib kelishini bizning mamlakatimizda ayniqsa yaxshi tasavvur qiladilar. Lekin, fikrimizcha, har qanday majburiy mehnat ham inson huquqlarining buzilishi bo'lavermaydi. Mehnat tarbiyasi doirasida tarbiyalanuvchida mehnat ko'nikmalarini shakllantirish niyatida amalga oshirilgan majburiy mehnatni shunday baholash mumkinmi? Ish joyini sanitariya-gigiyena qoidalariga moslashtirish maqsadida bajarilgan majburiy mehnatni shunday baholash mumkinmi? Afsuski, keyingi yillarda jamiyat, mehnat jamoasi manfaatlari yo'lida bajarilgan bunday mehnatni ham inson huquqlarining buzilishi sifatida baholash kayfiyati vujudga kelmoqda va natijalari globallashtirish sharoitida o'zbek milliy madaniyati komponentlaridagi o'zgarishlarni tizimli tadqiq qilishda nazariy asos va ilmiy manba vazifasini o'taydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xullas, o'zbek milliy madaniyatining o'ziga xos jihatlari asrash zaruriyati milliy an'ana va qadriyatlarga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishni taqozo qilmoqda. Chunki globallashtirish sharoitida an'analarning ijtimoiy funksiyalarini milliy manfaatlariga moslashtirmasdan, milliy qadriyatlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlamasdan turib, madaniyatning milliy xarakterini saqlab qolib bo'lmaydi. Buning uchun milliy an'analarning asl mazmunini ifodalab beradigan risolalar, albomlar, ko'rsatuvlar, videomateriallarni ko'paytirish, milliy an'analarning tarixan ustuvor bo'lgan, pragmatik shakllarini targ'ib va tashviq qilishni kuchaytirish, mavzuga doir ilmiy izlanishlarni maxsus grantlar bilan ta'minlash, "Milliy an'analarni" rukni ostida sof ilmiy pozitsiyadan yozilgan risolalar majmuyini yaratish, milliy an'analarga hurmat muhitini yanada mustahkamlashda ijtimoiy fanlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozim bo'ladi. Shuningdek, aksiologik vaziyat monitoringini yo'lga qo'yish, tizimli aksiologik tarbiyani shakllantirish, milliy qadriyatlarni targ'ib va tashviq qilishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyati ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Jamolov, D.B. (2023). The Main Part of Uzbek National Culture Features and Functions. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences*, 2(5), p. 49–56.
- (2). Жамолов, Д.Б. О. (2020). Национальная культура и идентичность в контексте глобализации. *Достижения и перспективы науки, освіти та виробництва*, 2020, с. 108.
- (3). Жамолов, Д.Б. Проблемы сохранения национальной культуры в условиях глобализации. "Zamonaviy fan va ta'lim-tarbiya: muammo, yechim, natija". Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy, onlayn konferensiya materiallari. 5.12.2020, с. 16.
- (4). [1; 2 b.] Sulaymon T. Gul bir yon, chaman bir yon. T., "Cho'lpon", 1996, 2-bet.
- (5). [2; 3 b.] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T., "O'zbekiston", 2021, 15-bet.
- (6). [3; 4 b.] Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-j, T., "O'zbekiston", 2017, 505-bet.

(7). [4; 4 b.] Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash – xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning kafolatidir. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-j, T., "O'zbekiston", 2017, 88–89-betlar.

(8). [5; 5 b.] Mirziyoyev Sh.M. Ta'lim va ma'rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-j, T., "O'zbekiston", 2017, 29-bet.

Ochilov Sarvar Safayevich (O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi; sarvar.ochilov@mail.ru)
HAZRAT ALI SHAXSINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOY-MA'NAVY MUHIT

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hazrat Ali shaxsining shakllanishida ijtimoiy-ma'naviy muhitning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Unda Muhammad payg'ambarning tarbiyasi va Hazrat Ali yashagan islomiy muhit ta'sirida uning g'oyatda oqil, insonparvar, do'stga sadoqatli, diyonatli bo'lib shakllangani tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Muhammad payg'ambar, Ali ibn Abu Tolib, ijtimoiy-ma'naviy muhit, islom, tarbiya, insonparvar, adolatparvar, sadoqatli, jasurlik, fidoyilik.

РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ ХАЗРАТА ИМАМА АЛИ

Аннотация. В данной статье показано значение социально-духовной среды в формировании личности Имама Али. В ней анализируется, что под влиянием воспитания Пророка Мухаммеда и исламской среды, в которой жил Имам Али, он сформировался как чрезвычайно умный, гуманный, набожный и преданный своим друзьям.

Ключевые слова: Пророк Мухаммед, Али ибн Абу Талиб, социально-духовная среда, ислам, воспитание, гуманный, справедливый, преданный, храбрость, самоотверженность.

THE ROLE OF SOCIAL AND SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE FORMATION OF THE PERSONALITY OF HAZRAT IMAM ALI

Annotation. This article shows the importance of social and spiritual environment in the formation of the personality of Imam Ali. In it, it is analyzed that under the influence of the upbringing of Prophet Muhammad and the Islamic environment in which Imam Ali lived, he became extremely intelligent, humanitarian, loyal to his friends, and pious.

Key words: Prophet Muhammad, Ali ibn Abu Talib, socio-spiritual environment, Islam, upbringing, humane, just, faithful, courage, selflessness.

Kirish (Introduction). Inson qaysi ijtimoiy tuzumda yashashidan qat'i nazar, uni muayyan muhit o'rab turadi. Boshqacha qilib aytganda, kishi tabiat ne'matlaridan bahramand bo'ladi, odamlar va jamiyat o'zaro munosabatda kun kechiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, kishilar tabiat va ijtimoiy-ma'naviy muhit ichida tirikchilik qilishadi. Demak, tabiat hodisalari, ijtimoiy tuzumning voqealari insonga u yoki bu darajada ta'sir etishi o'z-o'zidan ayon. Xuddi shuningdek, inson ham tabiatga va ijtimoiy tuzumga moslashadi va ta'sir etadi.

Inson davr va tarixiy tajribalar asosida o'zi uchun muhit yaratadi. Biroq u shu muhit ta'siri ostida yashaydi, mehnat qiladi, o'zining kelajagini yaratadi. Bu holat fikrlash ko'lami tobora kengayib borayotgan, aql-idroki o'sayotgan kelgusi avlod kishilarining moddiy-ma'naviy ehtiyojlari asosida o'zgarishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Mavzuni yoritishda bir necha avtobiografik, tarixiy adabiyotlardan foydalanilgan. Jumladan, Hazrat Alining tavallud sanasi, bolaligi, nasl-nasabi, shaxsiyati, faoliyati haqida ma'lumot berish uchun Shayx Muhammad Xuzariyning "Nur al-yaqin fi siyrat sayyid al-mursalin ma'a itmom al-vafo fi siyrat al-xulafo", Ali Muhammad as-Sallabiyning ruscha tarjimadagi "Али ибн Абу Талиб. Четвёртый праведный халиф", Balqiz Aladdinining "Muhammad payg'ambar qisasi" hamda Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarlariga murojaat qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Hazrat Ali shaxsining shakllanishida ijtimoiy-ma'naviy muhitning ta'sirini tahlil qilishda ilmiy bilishning obyektivlik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ilk islom davrida, ayniqsa, islom ma'naviyati vujudga kelgan Makkada ijtimoiy-ma'naviy muhit o'zgacha ma'no va mazmun kasb etgan. Bu, albatta, Muhammad payg'ambarning dunyoga kelishi hamda unga Qur'oni karimning nozil bo'lishi kabi muborak voqea-yu hodisalar bilan bevosita bog'liqdir. Shu davrga qadar ma'naviy-mafkuraviy yo'nalish johiliyat davri va adabiyoti ta'siri ostida edi. Bu insonlarning e'tiqodi darajasiga ko'tarilib, ularning butun ruhiga singib kirib, yashash va turmush tarziga aylangandi.

Zotan, Muhammad payg'ambar payg'ambarlik darajasiga erishganidan so'ng ijtimoiy-ma'naviy muhit keskin o'zgardi, odamlarning dunyoqarashi, fikrlashi boshqacha ma'no-mazmun kasb eta boshladi. Xuddi shu fikrni Ali ibn Abu Tolibga nisbatan ham aytish mumkin. Chunki u o'sha kezlarda Muhammad payg'ambar uyida yashab, uning tarbiyasidan bahramand edi.

Bas, Hazrat Alining bolaligi va yoshligi, nasl-nasabi haqida ilmiy ma'lumot berib o'tish muhimdir. U Abu Tolibning o'g'li bo'lib, Shayx Muhammad Xuzariyning xabar berishicha, Muhammad payg'ambar-dan 32 yil keyin tug'ilgan. Muhammad payg'ambar esa 570-yili tavallud topgan. Demak, Hazrat Alining tug'ilishi 602-yilga to'g'ri keladi [1;409-b.]. Ba'zi mualliflar uning Muhammad payg'ambarning payg'ambarligi boshlanishidan o'n yil burun tug'ilganini aytishgan [2;26-b.]. Muhammad payg'ambarning payg'ambarligi 610-yilda boshlangan. Bu fikrga ko'ra, Hazrat Ali 600-yilda tug'ilgan bo'ladi.

Imom Ali ibn Abu Tolib ibn Abdul Muttalib ibn Hoshim eng mashhur shaxs bo'lib, u payg'ambar amakisining o'g'lidir. Abu Tolibning xotini Fotima bint Asad edi. Uni Muhammad payg'ambarning qizi Fotima bilan adashtirmaslik kerak. Abu Tolibning xotini Fotima bag'oyat taqvodor ayol edi. O'g'il ko'rishidan sal oldinroq u ibodat qilish uchun Ka'bage boradi. G'oyibdan kelgan ovoz unga "ichkariga kir" deb buyuradi. Devor surilib, yo'l ochilgach, Fotima ichkari kiradi. Devor yana bekiladi. Qurayshlar buni eshitib, hayajonga tushishadi. Ular Ka'ba eshigiga kalit solib, ochmoqchi bo'lishadi. Biroq qancha urinishmasin, qulflarga solingan kalitlar aylanmaydi. Ular Ka'ba eshigini ocholmay, taqdirga tan berishadi. Uch kundan so'ng hang-u mang qurayshlarning ko'z o'ngida qulflar o'z-o'zidan yechilib, Ka'ba eshigi ochiladi. Eshik-da chaqaloq Alini bag'riga bosib, Fotima ko'rinadi. Alining tug'ilganini eshitib, Muhammad Ka'bage oshiqadi. Fotima ichkaridan chiqib kelib, bolani Muhammadga tutadi. Shunday qilib, Alining dunyoga ko'z ochib, birinchi ko'rgan kishisi Muhammad bo'ladi.

Majusiylar arablar chaqaloq tug'ilarkan, uni shaytonlar o'rab olishadi, shu sababli bola chirqirab yig'laydi, deb ishonishar edi. Ular go'dak Alining nuqul tabassum qilishini ko'rib, hayron qolishadi. Fotima, keyinchalik, Alini Muhammadning tarbiyasiga topshiradi. Ali Muhammadning doimiy yo'ldoshiga aylana-di, hatto kechalari ham u bilan yonma-yon uxlaydi [3;16-b.].

Demak, Ali Rasulullohga ma'lum darajada o'g'il hamdir. Chunki yigit yoshidagi Muhammad bolasi ko'p bo'lgan amakisi Abu Tolibga rahmi kelib, amakisining og'irini yengil qilish uchun (bobosi Abdul Mutallib vafotidan so'ng amakisining unga qilgan iltifotiga javoban) amakisining o'g'illaridan birini (bu Alidir) o'z qaramog'iga oldi. Shunday qilib, Ali ibn Abu Tolib bolalik chog'ida yoshi 30 yoshdan ancha katta bo'lgan amakisining o'g'li Muhammad payg'ambarning tarbiyasiga o'tdi.

Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu, dastlab, amakisi Abdullohning o'g'li Muhammad bilan birga unib o'sdi. Payg'ambar ishonchliligi, to'g'riso'zligi, aql-idrokining yuksakligi va adolatparvarligi bilan shuhrat qozongandi, shuningdek, u so'zamol va notiq edi.

Amakisining o'g'lini o'ziga namuna qilib, unga xulq-atvorida va yurish-turishida ergashgan bola – Ali shaxsiga bularning ta'siri katta bo'ldi. Shu sabab Ali amakisining o'g'li Muhammad payg'ambarning islomga chaqirig'iga eng oldin javob bergan edi va u bu davrda 8 – 10 yoshlar atrofida bo'lgan.

Bolalarning yangi dinga kirishi hali ma'lum emas edi. Ular uchun bu borada hali majburiyat bo'lmagan. Lekin yangi dinni qabul qilishda namuna bo'lish ta'sirchan qudratga ega bo'ldi. Odatda, bu yoshdagi bola unga yaqin kishilar biror narsa qilsalar, ularga taqlid qilishga kirishadi. Bola otasi namoz o'qiganda unga taqlid qiladi. Sajda qilsa, sajda qiladi, rukuga borsa, rukuga boradi. Biz bildikki, Ali Muhammad payg'ambar hifzi-himoyasida unib o'sdi, undan eshitganini qaytarishining ajablanarli joyi yo'q. Shuning uchun ham islomga da'vatda yoki uni qabul qildirishda Aliga nisbatan katta bir og'irlikni kuzatmaymiz va ko'rmaymiz. Unga payg'ambarimiz Madinaga hijrat qilguniga qadar muhim vazifalar topshirilmagan. Lekin u hijrat kechasi payg'ambar to'shagida uxlagan (Bu haqda va uning mohiyati haqida keyinroq to'xtalamiz). Bu juda muhim voqea bo'lib, o'zini o'limga ro'baro' qilib qilingan vazifa ham deyish mumkin. O'sha paytda Alining yoshi taxminan o'n to'qqiz–yigirma yosh atrofida edi. Uning xavf-xatardan qo'rqmay, bu ishga unashi maqtovga sazovordir. Hijratdan keyin Ali g'azavotlar davrini boshdan kechirdi. Bu islom davlatining, yangi boshlanayotgan ijtimoiy tuzumning ilk davri edi.

Islom tuzumining asosi qurilayotgan, kufr bilan yuzma-yuz kurash ketayotgan shunday ijtimoiy-ma'naviy muhitda Ali ibn Abu Tolib voyaga etdi. U sanamlarga sajda qilmadi, may ichmadi, johiliyat davri gunohlaridan hech biriga amal qilmadi. Shunday pokiza bo'lib voyaga yetgani tufayli Ali ibn Abu Tolib payg'ambarimiz tomonidan ko'plab olqishlarga sazovor bo'lgan, hatto xalifalik lavozimiga ham erishdi. Buning sababini Hazrat Aliga nisbatan Rasululloh tarbiyasidan izlash lozim.

Darhaqiqat, Ali ibn Abu Tolib xulafoyi roshidin, ya'ni to'g'ri yo'ldan yurgan xalifalarning to'rtinchi-si hisoblanadi. Ali juda qiyin bir vaziyatda xalifalikka keldi. Shaharlardan vakillar Usmon ibn Affonga qar-

shi qo'zg'alib, uni qurshovga oldilar. Bu qo'zg'olonchilar Usmon roziyallohu anhuri, hatto o'ldirishga bo'rib yetdilar. Uning o'limidan so'ng juda ko'p kishilar Aliga xalifalikni qabul qilishni taklif qildilar va bunga da'vat etdilar. Ali ham, o'z navbatida, xalifalikni va uning qasamyodini qabul qildi. Biroq jamoatchilik orasida boshqa bir masala ko'ndalang bo'lib turdi. O'zlari xohlamagan xalifani o'ldirgan bir to'da kirdikori ochilmay qolaveradimi? O'ldirilgan xalifaning qoni bekordan bekorga to'kilib ketaveradimi?

Aslida, Usmonni uning muxoliflari harbiy va davlat miqyosidagi mansablarga o'z qavmi hamda qarindosh-urug'larini tayinlaganlikda ayblaydi. Bundan norozi arablar o'zaro guruhlariga bo'linib, birlashadilar. Ular Usmonning xalifa qilib saylanishi g'ayri qonuniy, Alini saylash lozim edi, degan fikrni ilgari suradilar. Alini xalifa qilib saylashga uning Rasulullohga amakivachcha, shuningdek, kuyov ekani sabab qilib ko'rsatiladi.

Usmonning qotillaridan qasos olinishini talab qilib, Shomdan Muoviya ibn Abu Sufyon, shuningdek, mavjud vaziyatni musulmonlarning kelajagi va ularning barqarorligi uchun xatarli bilib, uni to'g'rilash maqsadida mo'minlarning onasi – Oisha roziyallohu anho chiqdi.

Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu hamma narsadan davlat ishining barqarorlashuvini muhimroq deb bildi. Natijada Muoviya unga qarshi jang e'lon qildi va ikki o'rtada qattiq janglar bo'ldi. Ali tuya, Siffin janglarida jang qildi. So'ng tahkim (betaraf hakam, vakil saylash) taklifi yuz berdi. Tahkim Ali ibn Abu Tolibning kuchiga qaqshatqich zarba bo'lib tegdi. Siffin jangida aslida Ali askarlari g'olib kelayotgan edi. Biroq u ko'p qon to'kilmasligini nazarda tutib, tahkim taklifini qabul qildi. Adolat bo'ladi, deb kutdi. Alidan juda ko'p hamrohlari, ya'ni xorijiyalar ajralib chiqdi.

Ali ibn Abu Tolib Kufa shahrini hukumatining qarorgohi, o'z davrida davlatning poytaxti qilib oldi. Shu tariqa, Ali roziyallohu anhu xalifalikni Rasululloh shahridan (ya'ni, Madinadan – S.O.) Arabiston yarim orolining tashqarisiga birinchi bo'lib ko'chirdi. Balki bu uning Kufa va uning atrofidagi tarafdorlari Madinaga nisbatan ko'p deb ishongani sabablidir yoki buning siri Shomni makon tutgan Muoviyaga yuzma-yuz turishdir.

Shu o'rinda bir hayotiy haqiqatni yanada ravshanroq qilib ko'rsatib o'tish zarur. Muhammad payg'ambar onasining qornida ekanida uning otasi Abdulloh vafot etgan edi, keyinchalik, u onasidan juda yosh yetim qolgan. So'ng yosh Muhammad bobosi Abdul Mutallib tarbiyasida qoladi. Bobosi olamdan o'tgandan keyin u amakisi Abu Tolib qaramog'iga o'tgan. Xuddi shuningdek, taqdir taqozosi bilan Hazrat Ali ham otasi Abu Tolib bandalikni bajo keltirganidan keyin, amakisining o'g'li Muhammad payg'ambar uyida yashaydi va tarbiyalanadi.

Muhammad payg'ambarning bolaligi ham, yoshligi ham nihoyatda qiyin ahvolda o'tgan. Ota-onasidan juda yoshligida yetim qolish, ayniqsa, ulardan meros qolmagani tufayli unga tirikchilik uchun ham, ilm olish uchun ham, aslo, imkon bo'lmagan. Biroq Muhammad payg'ambar fe'l-atvori nihoyatda yoqimli, qarindosh-urug'lariga mehribon, do'st-birodarlarga sadoqatli, odamgarchilik jihatdan barchaga namunali, muomala-munosabati shirin va muloyim, qo'ni-qo'shnilar bilan aloqasi mustahkam, ko'ngli yumshoq, katta-yu kichikning hurmatiga sazovor inson bo'lganlar. Shuning uchun uni qabiladoshlari Amin (ishonchli) deb ataganlar. Bu xislat va fazilatlarining bir oilada istiqomat qilayotgan, tarbiyalanayotgan bolaga o'tishi, singib ketishi aniq. Shuningdek, Muhammad payg'ambarning turmush o'rtog'i Xadicha onamizning o'zi nihoyatda rahmdil, xushfe'l, bolaparvar, mehribon, bag'rikeng, ozoda va sarishta, tadbirkor ayol bo'lganlar. Eng asosiysi, Muhammad payg'ambar bilan Xadicha onamiz o'ta inoq, ahil, yaqin sirdosh oila bo'lib yashagan.

Shunday hikmatli oila muhiti yosh Aliga o'z ta'sirini o'tkazgani o'z-o'zidan ma'lum. Shu ta'sir tufayli yosh Ali g'oyatda oqil, insonparvar va qarindoshparvar, do'stga sadoqatli, diyonatli bo'lib o'sdi. Uning o'ta ko'rkam, ko'z-yuzlaridan nur tomib turgani tevarak-atrofdagi kishilarni hayratga solgan. Umuuman olganda, yosh Ali amakisining o'g'li Muhammad payg'ambarning turli tomonlama hurmat-e'tiborini qozongan. Bu xususda Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida shunday deyiladi: "Rasul alayhissalom aydi: "Yo Ali, seni suvgan mo'min turur, seni dushman tutqan – munofiq turur". Yana yorliqadi, Alining suvuklini yozuqni tugatur, netakkim o't o'tunni tugatur. Yana yorliqadikim, Alini ko'ngul birla suvsa maning ummatimning uchda birining savobi berilgay. Taqi Alini ko'ngli, taqi joni birla suvsa qamug' ummatimning tubi berilgay" [4;135-b.].

Muhammad payg'ambarning ushbu so'zlari falsafiy-mantiqiy-didaktik ma'no-mazmun bilan yo'g'rilgan. Darhaqiqat, yaxshi, to'g'ri so'z, haqiqatchi odamlarni faqat yaxshi kishilar qadrlaydi. Munofiqlar, firibgarlar, umuman, yomon kishilar esa adolatli va haqiqatchi odamlarni xush ko'rmaydilar. Rasululloh keyingi so'zlarida ummatlarini Alidek mard, jasur, adolatparvar, insonparvar, shijoatli va sadoqatli insonni

yanada e'zozlashga, uning qadriga yetishga chaqiradi. Muhammad payg'ambarning bu beqiyos hurmatiga sazovor bo'lish bu bebaho baxtdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Muhammad payg'ambargacha johiliyat davrining ta'siri juda kuchli edi. Ma'lumki, Rasulullohga 40 yoshidan e'tiboran vahiy kela boshlaydi, ya'ni Qur'oni karim nozil bo'la boshlaydi. Bu dalil Muhammadning Alloh elchisi, ya'ni payg'ambar bo'lganini ko'rsatadi. Unga birinchi bo'lib, Xadicha, keyin Ali va boshqalar imon keltirishgan. Endi Muhammad payg'ambar, dastlab, qarindosh-urug'larini, do'st-birodarlarini, qavmini va keyin boshqa odamlarni islom diniga da'vat etishni boshlaydi. Biroq bu yo'lda unga juda katta qiyinchiliklar bo'ladi va u qattiq ta'qib-tazyiqlarga uchraydi.

Rasululloh qavmining ko'pchiligi uni pokligi, odamgarchiligi, muloyimligi, mehr-oqibatligi, adolatli va diyonatli bo'lgani uchun qattiq hurmat qilardi, unga ishonishardi. Shuning uchun unga, dastlab, qavmining e'tiqodi but odamlari, do'st-birodarlari ergashishdi. Islom dini muxoliflari, butlarga sig'inuvchi kimsalar Rasulullohga qarshi keskin kurash, uni obro'sizlantirish yo'liga o'tdilar. Bunday paytlarda Muhammad payg'ambarga eng yaqin kishilari ezgu maqsadni amalga oshirishda yordam berishdi. Ayniqsa, Hazrat Alining mardligi, jasurligi, fidoyiligini alohida ta'kidlash lozim. U bu fazilatlarini Muhammad payg'ambar Madinaga hijrat qilgan vaqtda yorqin namoyon qildi. Rasulullohning hayoti, qilgan ishlarini keng qamrovda tadqiq etgan Shayx Muhammad Xuzariy Hazrat Ali ibn Abu Tolibning fidoyiligi, jasurligi, amakisining o'g'li Rasulullohga cheksiz e'tiqodi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Islom g'animlarining shafqatsizona ta'qibi va tazyiqi tufayli Muhammad payg'ambar Madinaga hijrat qilishga majbur bo'ladi. Hayoti xavf ostida qoladi. Uyini esa muxoliflari kuzatib turadi. Bundan xabar topgan Hazrat Ali ham amakisining o'g'lini qutqarish, Makkadan eson-omon chiqarib yuborish choralari haqida o'ylaydi. Rasululloh boshqa sirli eshikdan chiqib ketadi va Madinaga qarab yo'l oladi. Bundan uning dushmanlari bexabar qoladi va o'z yotoqxonasida uxlab yotibdi, deb o'ylashib, xotirjam turishadi va uning uydan chiqishini poylashadi.

Biroq Muhammad payg'ambar chiqavermagach, uning yotog'iga kirib, ko'rparasini ko'tarishadi. O'rindiqda Rasululloh emas, balki Hazrat Ali yotardi. Bu holat va vaziyatda Hazrat Alining quyidagi ma'naviy-axloqiy tomonlari kuzatiladi:

1. Islom diniga nisbatan e'tiqod va imon.
2. Amakisining o'g'liga mehr-oqibat va sadoqat.
3. Diniy e'tiqodi yo'lidagi fidoyiligi, jasurlik, mardlik.

O'zbekiston davlati mustaqilligini mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun fidoyi, jasur, mard va e'tiqodi yuksak insonlar zarur. Islom Alidek fidoyilar tufayli keng tarqaldi, mustahkamlandi. Uning timsoli hozirgi kishilar uchun namunaviy ahamiyatga egadirki, u haqdagi ma'lumotlarni keng targ'ib va tashviq qilish kerak.

Yuqoridagi dalildan ijtimoiy-ma'naviy muhitning Hazrat Aliga, o'z navbatida, Alining muhitga o'zaro ta'siri yaqqol ko'rinib turibdi. Bunday o'zaro ta'sir mustaqillik ma'naviyatimiz, madaniy-ma'rifiy e'tiqodlar, badiiy adabiyot uchun muhimdir. Darhaqiqat, bu kabi holatlarni turli yo'l, usul va metodlar vositasida yuzaga chiqarish hamda odamlar ongiga singdirish lozim.

Mashhur mufasssir Ibn Kasir Abu Tufaylning rivoyatlariga qaraganda, u Hazrat Ali roziyallohu anhu-ning minbarda turib va'z aytayotgani xususida hikoya qiladi. Hazrat Ali: – Allohning muqaddas kitobi oyatlaridan, Payg'ambar alayhissalom sunnatlaridan savol beringiz, men javob qilay, – debdi. Shunda Ibn Kivo ismli kishi o'rnidan turib: – Ey mo'minlarning amiri, “vaz-zariat”ning ma'nosi nima? – deydi. Hazrat Ali “Shamol” deb javob beribdi.

U kishi: “Val-hamlat” degani-chi?

Hazrat Ali: “Bulut” debdilar.

Ibn Kivo yana “Fal-jariat” degani-chi? – deb so'rabdi.

Hazrat Ali: “Kema” deb javob beribdi.

O'sha kishi “Fal-muqossimot” degani-chi, desa, Hazrat Ali “Farishta” debdilar.

Boshqa biri esa xuddi shu savollarni Hazrat Umar ibn Xattobga beradi. Hazrat Umar yuqoridagi savollarga Hazrat Ali qanday javob bergan bo'lsa, xuddi shu javobni qaytaradi. Biroq Hazrat Umar bu kishining fitnachi ekanini payqab qoladi va uni qattiq jazolaydi. Hazrat Umarning bu ishi juda to'g'ridir. Chunki fitnachi, ig'vogarlariga yo'l berish, shubhali ishlariga imkon yaratish, aslo, mumkin emas. Hozirgi kundagi ko'pgina kelishmovchiliklar, gina-kuduratlar, xunuk voqea va hodisalar ham, asosan, fitnachi, fisqu fujurchilar kasofati tufayli kelib chiqayotgani sir emas. Fitnachilar bugungi kunda ham qattiq jazolanishlari lozim. Bunday kishilarga nisbatan qo'llanilgan jazo choralari ta'sirchan kuchga egaki, uning tarbiyaviy natijasi tezda ko'zga tashlanishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Kuzatishlar natijasida ilk islom davri ijtimoiy-ma'naviy muhiti va Rasulullohning shaxsiy tarbiyasi tufayli Hazrat Ali barkamol inson sifatida shakllanganligi aniqlandi. U, hatto xalifalik martabasigacha erishdi. Ichki va tashqi muhit ta'sirida Hazrat Ali ibn Abu Tolib shunday zukko, donishmand inson bo'lib yetishdiki, uning bu fazilatlari hozirgi davr uchun ham namuna – ibrat bo'lib xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):

- (1). Shayx Muhammad Xuzariy. Nur al-yaqin fi siyrat sayyid al-mursalin ma'a itmom al-vafo fi siyrat al-xulafa. – Toshkent: Dor Movarounnahr (1413 h.y – 1992-yil).
- (2). Ас-Салляби. Али Мухаммад. Али ибн Абу Талиб. Четвёртый праведный халиф. Пер. с араб., прим., комм. Е. Сорокоумовой, Москва, “Умма”, 2013.
- (3). Balqiz Aladdin. Muhammad payg'ambar qissasi (ingliz tilidan Jamol Kamol tarjimai). Toshkent, “Kamalak”, 1991.
- (4). Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob, Toshkent, “Yozuvchi”, 1991.

Utegenova Jamila Djolmurzayevna (Innovatsion texnologiyalar universiteti

“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası d.v.v.b.)

BIOETIKA SOHASINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bioetika tushunchasining shakllanishi, uning ilmiy-nazariy asoslari, tibbiyot va biologiya sohalaridagi roli, hamda O'zbekistonda bioetika madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Bioetika global muammolar kontekstida, ayniqsa, gen muhandisligi, transplantatsiya, sun'iy intellekt, eksperimental tadqiqotlar va inson huquqlari bilan bog'liq dolzarb masalalarni hal qilishda muhim omil sifatida qaraladi. Maqolada xalqaro tajriba (UNESCO, WHO) asosida O'zbekistonda bioetika institutlarini tashkil etish, axloqiy me'yorlarni shakllantirish va ta'lim tizimiga integratsiya qilish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: bioetika, axloqiy me'yor, gen muhandisligi, tibbiy etik, inson huquqlari, ilmiy mas'uliyat.

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОБЛАСТИ БИОЭТИКИ

Аннотация. В статье анализируется формирование понятия биоэтики, ее научно-теоретические основы, ее роль в сферах медицины и биологии, механизмы развития биоэтической культуры в Узбекистане. Биоэтика рассматривается как важный фактор решения актуальных вопросов в контексте глобальных вызовов, особенно связанных с генной инженерией, трансплантацией, искусственным интеллектом, экспериментальными исследованиями и правами человека. В статье выдвигаются предложения по созданию в Узбекистане институтов биоэтики, формированию этических стандартов и их интеграции в систему образования на основе международного опыта (ЮНЕСКО, ВОЗ).

Ключевые слова: биоэтика, этические стандарты, генная инженерия, медицинская этика, права человека, научная ответственность.

MECHANISMS OF FORMING THE FIELD OF BIOETHICS

Annotation. This article analyzes the formation of the concept of bioethics, its scientific and theoretical foundations, its role in the fields of medicine and biology, as well as the mechanisms for developing a culture of bioethics in Uzbekistan. Bioethics is considered an important factor in solving urgent issues in the context of global problems, especially genetic engineering, transplantation, artificial intelligence, experimental research and human rights. The article puts forward proposals for the establishment of bioethics institutes in Uzbekistan, the formation of ethical standards and their integration into the education system, based on international experience (UNESCO, WHO).

Keywords: bioethics, ethical standards, genetic engineering, medical ethics, human rights, scientific responsibility.

Kirish. Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti, ayniqsa, tibbiyot, biologiya va gen muhandisligidagi yutuqlar insoniyat tarixida misli ko'rilmagan imkoniyatlarni yaratmoqda. Ammo bu imkoniyatlar bilan birga, inson axloqi, huquqi, erki va hayoti bilan bog'liq murakkab muammolar ham vujudga kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, fan va texnologiyaning axloqiy, huquqiy va ijtimoiy chegaralarini belgilovchi bioetika sohasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bioetika – bu inson hayoti va salomatligi bilan bog'liq masalalarda ilmiy izlanishlar va amaliy qarorlar qabul qilishda axloqiy tamoyillarning asosiy mezonini hisoblanadi. Bioetika atamasi ilk bor 1970-yillarda

AQSH olimi Van Rensselaer Potter tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u biologik bilimlar va insoniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni anglatadi. Hozirgi kunda bioetika nafaqat tibbiyotda, balki ekologiya, nanotexnologiya, sun‘iy intellekt, oziq-ovqat xavfsizligi, reproduktiv texnologiyalar kabi sohalarda ham keng qo‘llanilmoqda.

Maqolada aynan O‘zbekiston sharoitida bioetika sohasining institutsional, madaniy va ilmiy rivojlantirish asoslari, xalqaro tajriba asosida shakllantirish mexanizmlari hamda ushbu sohada milliy strategiyani ishlab chiqishning zaruriyati yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi. Bioetika fani G‘arbiy Yevropa va AQSHda XX asr o‘rtalaridan boshlab shakllanib boshlagan. UNESCO tomonidan 2005-yilda qabul qilingan “Bioetika va inson huquqlari to‘g‘risidagi umumjahon Deklaratsiyasi”da inson sha‘ni, huquqlari, erkinligi va biologik yaxlitligini ta‘minlashda bioetik yondashuvning asosiy prinsiplaridan biri sifatida “axloqiy javobgarlik” ilgari surilgan.

Ch.Kallein (2012), P.Singer (1995), T.Beauchamp va J.Childress (2009) asarlarida bioetikaning to‘rt asosiy tamoyili, avvalo, zarar keltirmaslik, foyda yetkazish, adolat va insonning avtonomiyasi keng muhokama qilinadi. Ayni paytda, Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonda bu tamoyillarni ijtimoiy, madaniy va diniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish muhim vazifadir.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Ushbu maqolada tahliliy-deskriptiv metod, hujjatlar tahlili, qiyosiy yondashuv, va xalqaro tajriba asosida normativ hujjatlarni tahlil qilish usullari qo‘llanildi. Asosiy e‘tibor UNESCO, WHO, Yevropa Bioetika qo‘mitasi, va boshqa muhim xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qabul qilingan hujjatlarga qaratildi [2;3].

Bundan tashqari, 2023-yilda O‘zbekiston tibbiyot oliy yurtlarida o‘tkazilgan 100 nafar professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida bioetika fanining ahamiyati va zarurati borasidagi so‘rovnoma natijalari keltiriladi. Bu natijalar orqali bioetika madaniyatining mavjud holati, muammolari va istiqbollari aniqlandi.

Natijalar. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, sog‘liqni saqlash tizimida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Ammo bioetika sohasi mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida sust shakllanib bordi. 2020-yilga qadar bioetika bo‘yicha alohida davlat dasturlari, ilmiy markazlar yoki universitetlarda mutaxassislik yo‘nalishlari deyarli mavjud emas edi. So‘nggi yillarda tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida “Tibbiy etika va deontologiya” fani o‘qitilayotgan bo‘lsa-da, bu fan, asosan, tibbiy xulq-atvor normalariga qaratilgan bo‘lib, bioetik muammolarning falsafiy va global jihatlarini yetarlicha qamrab olmaydi.

Bugungi kunda bioetika quyidagi yo‘nalishlarda alohida e‘tiborni talab qiladi [5]:

- Transplantatsiya va donorlik.
- Sun‘iy urug‘lantirish va surrogat onalik.
- Genetik tahrir (CRISPR-Cas9 texnologiyasi).
- Klinik sinovlar va inson ishtirokidagi tajribalar.
- COVID-19 pandemiyasi davrida majburiy vaksinalash va bemorlarning axborotga asoslangan roziligi.

Ushbu muammolar tibbiyot sohasi bilan bir qatorda, huquq, din, axloq, va sotsiologiya yo‘nalishidagi muhokamalarni ham talab qiladi. Biroq O‘zbekistonda bioetika sohasi uchun zarur bo‘lgan institutsional infratuzilma hali to‘liq shakllanmagan.

2024-yilda Toshkent, Samarqand va Nukus shaharlaridagi tibbiyot universitetlari va institutlarida faoliyat yurituvchi 100 nafar respondent (60 nafar professor-o‘qituvchi va 40 nafar talaba) o‘rtasida bioetika sohasi bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi. Quyida so‘rovnoma savollari asosida olingan natijalar umumlashtirilgan.

1-jadval

Respondentlarning bioetika haqida bilim darajasi

Javob variantlari	Foiz hisobida (%)
Bioetika haqida mukammal tasavvurga ega	18%
Qisman tushunchaga ega	52%
Eshitgan, ammo chuqur tushunmaydi	22%
Hech qachon eshitmagan	8%

Izoh: Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, respondentlarning 70%dan ortig‘i bioetika haqida yetarlicha tushunchaga ega emas yoki bu soha bilan tanish emas.

Bioetika fanining tibbiy ta'limda majburiy o'qitilishi zarurligiga munosabat

Javob variantlari	Foiz hisobida (%)
Albatta, majburiy bo'lishi kerak	64%
Ixtiyoriy bo'lishi mumkin	26%
Kerak emas, boshqa fanlarda yetarli	10%

Izoh: Respondentlarning yarmidan ko'pi bioetika fanining alohida majburiy fan sifatida joriy etilishini qo'llab-quvvatlagan.

So'rovnomadan tashqari, o'tkazilgan yarimstrukturaviy intervyular natijalariga ko'ra, quyidagi omillar bioetika sohasini rivojlantirishga to'stinlik qilmoqda:

- Bioetika bo'yicha mutaxassislarining kamligi.
- Normativ-huquqiy hujjatlarning mavjud emasligi yoki noaniqligi.
- Soha bo'yicha o'zbek tilida ilmiy adabiyotlar va darsliklarning yetishmasligi;
- Bioetika fanini ijtimoiy, axloqiy va diniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi.

Xulosa va munozara. Ushbu maqolada O'zbekistonda bioetika sohasining shakllanishi, xalqaro standartlar asosida institutlashtirish zarurati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy-nazariy va amaliy tahlil asosida yoritildi. Tibbiyot, biologiya va texnologiyalar sohasida yuzaga kelayotgan yangi muammolar, xususan, genetik tahrir, surrogat onalik, sun'iy intellekt, transmilliy tadqiqotlar va inson huquqlari bilan bog'liq masalalar, bioetika sohasi rivojining dolzarbligini namoyon qilmoqda.

O'tkazilgan so'rovnoma va tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi.

- Tibbiy oliygohlar va amaliyotda faoliyat yurituvchi mutaxassislar orasida bioetika faniga qiziqish mavjud, biroq bu yo'nalish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikma yetishmaydi.
- Bioetika madaniyatini shakllantirishda axborotga asoslangan rozilik, bemorning shaxsiy hayotiga hurmat va ilmiy mas'uliyat mezonlari to'laonliq tatbiq etilmagan.
- O'zbekistonda bioetika sohasi bo'yicha maxsus markazlar, ilmiy tadqiqot institutlari yoki mustaqil bioetika kengashlari mavjud emas.
- Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:
- O'zbekiston Bioetika milliy kengashini tashkil etish va unga turli soha vakillarini (sog'liqni saqlash, fan, huquq, din, OAV) jalb qilish zarur. Bu kengash bioetik muammolar yuzasidan normativ-huquqiy va axloqiy tavsiyalar ishlab chiqadi.
- Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida "Bioetika asoslari" nomli mustaqil fan sifatida kiritilishi, unga falsafa, huquqshunoslik, dinshunoslik va psixologiya elementlari integratsiya qilinishi lozim.
- Bioetika sohasiga oid o'zbek tilidagi darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ilmiy maqolalar bazasi shakllantirilishi zarur. Xalqaro manbalarni tarjima qilish va mahalliy sharoitga moslashtirish tashabbuslari qo'llab-quvvatlanishi kerak.
- Bioetik savodxonlikni oshirish maqsadida OAV, ijtimoiy tarmoqlar va nodavlat tashkilotlar orqali jamoatchilikni xabardor qilish bo'yicha kampaniyalar o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Fydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Beauchamp T.L., Childress J.F. (2009). Principles of Biomedical Ethics (6th ed.). Oxford University Press.
- (2). UNESCO. (2005). Universal Declaration on Bioethics and Human Rights. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Retrieved from <https://unesdoc.unesco.org/>
- (3). World Health Organization (WHO). (2015). Global Health Ethics: Key Issues. Geneva: WHO Press.
- (4). Kallein, C. (2012). Ethical Challenges in Contemporary Medicine. Cambridge University Press.
- (5). Singer P. (1995). Rethinking Life and Death. The Collapse of Our Traditional Ethics. Oxford University Press.
- (6). Karimov, B. (2020). Bioetika fanining rivojlanish tendensiyalari. "Tibbiyot va axloq", 2(4), p. 42–47.
- (8). O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2022). Bioetika va tibbiy etikaga oid normativ hujjatlar to'plami, Toshkent.

Xidirova Maxfuza Amirqulovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti “Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar” kafedrası katta o‘qituvchisi; m.xidirova@dtpi.uz)

YOVVOYI SUTEMIZUVCHILAR NOMLARINING LINGVOSTATISTIK VA TEMATIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi 200 dan ortiq yovvoyi sutemizuvchi hayvon nomlari (zoonimlar)ning lingvostatistik va tematik tahlili amalga oshirilgan. Nomlar avvaldan belgilangan 12 ta tematik guruhga ajratilib, har bir guruh doirasida va umumiy ro‘yxat bo‘yicha nomlarning bosh harflar chastotasi, struktur tuzilishi (bir yoki ko‘p komponentli) kabi lingvistik xususiyatlari statistik metodlar yordamida o‘rganilgan. Tahlil natijalari jadvallar va grafiklar orqali ko‘rsatilgan. Shuningdek, zoonimlarning til va madaniyatdagi o‘rni, nomlash tamoyillari haqida ayrim mulohazalar bildirilgan va tegishli ilmiy adabiyotlarga havolalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: zoonim, yovvoyi sutemizuvchilar, lingvostatistika, tematik guruhlash, nomlash tamoyillari, o‘zbek tili, onomastika, leksikologiya.

Хидирова Махфуза Амиркуловна (Денауский институт предпринимательства и педагогики, старший преподаватель кафедры иностранного языка и литературы; m.xidirova@dtpi.uz)

ЛИНГВО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ И ТЕМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ ДИКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ

Аннотация. В данной статье проведен лингвостатистический и тематический анализ более 200 названий диких млекопитающих (зоонимов) в узбекском языке. Названия были разделены на 12 заранее определенных тематических групп, и с помощью статистических методов изучены такие лингвистические особенности, как частотность начальных букв (внутри каждой группы и по общему списку) и структурный состав (однокомпонентные или многокомпонентные). Результаты анализа представлены в виде таблиц и графиков. Также высказаны некоторые соображения о роли зоонимов в языке и культуре, принципах номинации и приведены ссылки на соответствующую научную литературу.

Ключевые слова: зооним, дикие млекопитающие, лингвостатистика, тематическая группировка, принципы номинации, узбекский язык, ономастика, лексикология.

Khidirova Makhfuza Amirkulovna (Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy Senior teacher at Foreign language and literature department; m.xidirova@dtpi.uz)

LINGUO-STATISTICAL AND THEMATIC ANALYSIS OF WILD MAMMAL NAMES

Annotation. This article presents a linguo-statistical and thematic analysis of over 200 wild mammal names (zoonyms) in the Uzbek language. The names were divided into 12 predefined thematic groups, and linguistic features such as initial letter frequency (within each group and in the overall list) and structural composition (single-component or multi-component) were studied using statistical methods. The analysis results are presented using tables and graphs. Additionally, some considerations regarding the role of zoonyms in language and culture and naming principles are discussed, and references to relevant scientific literature are provided.

Keywords: zoonym, wild mammals, linguo-statistics, thematic grouping, naming principles, Uzbek language, onomastics, lexicology.

Kirish. Hayvonot dunyosi nomlari yoki zoonimlar til leksik qatlamining ajralmas qismi bo‘lib, ular nafaqat tilshunoslik, balki etnolingvistika, madaniyatshunoslik, biologiya va ekologiya kabi fanlar uchun ham muhim tadqiqot obyektidir. Zoonimlar ma‘lum bir xalqning dunyoqarashi, atrof-muhitga munosabati, tarixiy aloqalari va nomlash an‘analarini aks ettiradi. O‘zbek tilidagi zoonimlar tizimi ham o‘zining boyligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, yovvoyi sutemizuvchilar nomlari alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki ular, ko‘pincha, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot va kundalik muloqotda faol qo‘llanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – o‘zbek tilida qo‘llaniluvchi 200 dan ortiq yovvoyi sutemizuvchi hayvon nomlarining lingvistik xususiyatlarini statistik metodlar yordamida tahlil qilish, ularni tematik guruhlar bo‘yicha taqsimlanishini o‘rganish va nomlarning strukturaviy tuzilishini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi o‘zbek zoonimiyasining lingvo-statistik jihatlari kam o‘rganilganligi, mavjud nomlar korpusini tizimli tahlil qilish orqali til birliklarining statistik qonuniyatlarini aniqlash, shuningdek, zoonimlarning leksik-semantik va struktur xususiyatlarini chuqurroq anglash zarurati bilan belgilanadi. Bunday tahlil tilshunoslikning onomastika, leksikologiya va lingvostatistika kabi sohalariga hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar tahlili. Onomastikaning umumiy nazariyasi va metodologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar zoonimlarni o'rganish uchun poydevor yaratadi. Masalan, Ainiala, Saarelma va Sjöblom [1]. Finlandiya onomastikasi misolida nomlarning turlari, ularning til tizimidagi o'rni va tadqiq etish usullarini ko'rib chiqadilar. Van Langendonck [12] esa atoqli otlar nazariyasi va tipologiyasini chuqur tahlil qilib, ularning umumiy leksikadan farqlanish mezonlarini ishlab chiqqan. Coates [6;356–382-b]. ham atoqli otlarning o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini o'rganib, nomlash jarayonining universal va partikular jihatlariga e'tibor qaratadi. Bu kabi umumiy onomastik tadqiqotlar zoonimlarni kengroq nomlar tizimining bir qismi sifatida tushunishga yordam beradi.

Hayvonlarni nomlash shunchaki lingvistik hodisa bo'lmay, balki ma'lum bir madaniyatning atrof-muhitni idrok etishi va tasniflashi bilan chambarchas bog'liq. Berlin [5] an'anaviy jamiyatlarda o'simlik va hayvonlarni tasniflash tamoyillarini o'rganib, xalq taksonomiyasi va ilmiy taksonomiya o'rtasidagi bog'liqliklar va farqlarni ko'rsatib bergan. Hunn [7] Meksikadagi Tzeltal xalqining zoologik bilimlarini va hayvonlarni nomlash strategiyalarini chuqur etnografik va lingvistik tahlil qilgan. Bu tadqiqotlar zoonimlarning nafaqat denotativ, balki konnotativ ma'nolarini ham ochib berishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida ham yovvoyi sutemizuvchilarning nomlanishi xalqning tabiat haqidagi bilimlari, xo'jalik faoliyati va mifologik tasavvurlari bilan uzviy bog'liq ekanligini taxmin qilish mumkin. Zoonimlarning lingvistik jihatlarini, jumladan ularning kelib chiqishi, ma'no taraqqiyoti va tuzilishi ham ko'plab tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lgan. Turkiy tillar bo'yicha umumiy tadqiqotlar, masalan, Baskakov [16] yoki Shcherbak [18]ning ishlari, o'zbek zoonimlarining tarixiy ildizlari va boshqa turkiy tillardagi muqobillari bilan qiyosiy tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, zoonimlarning struktur tahlili, ya'ni, ularning bir yoki ko'p komponentli ekanligi, so'z yasalishi modellari Kononov kabi o'zbek tili grammatikasiga oid asarlar kontekstida o'rganilishi mumkin (17).

Zoonimlar til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni yorqin namoyon etadi. Lingvistik hodisalarni, jumladan, leksik birliklarni miqdoriy jihatdan tahlil qilish til qonuniyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Baayen [4] yoki Köhler [8] kabi mualliflarning ishlari kvantitativ lingvistika metodologiyasini, xususan, chastota tahlili, taqsimot qonuniyatlari kabi usullarni lingvistik ma'lumotlarga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Zipfning [14] klassik ishlari esa so'zlarning qo'llanish chastotasi ortida ma'lum tamoyillar yotishini asoslab bergan. Biroq aynan o'zbek tilidagi yovvoyi sutemizuvchilar nomlarining keng qamrovli korpusini lingvostatistik metodlar yordamida maxsus o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zoonimlar turli fanlar nuqtayi nazaridan, onomastik, etnobiologik, lingvistik, madaniy o'rganilgan. Biroq o'zbek tilidagi yovvoyi sutemizuvchilar nomlarining katta hajmdagi ro'yxatini *bir vaqtning o'zida ham tematik guruhlash, ham lingvostatistik jihatdan tahlil qilishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar yetarli emas*. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi va o'zbek zoonimiyasining miqdoriy va strukturaviy xususiyatlarini statistik metodlar yordamida yoritishni maqsad qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materiali sifatida avvaldan shakllantirilgan, 12 ta tematik guruhga ajratilgan 240 dan ortiq yovvoyi sutemizuvchi hayvon nomlari ro'yxati olindi. Tahlil bir qancha metodlar yordamida amalga oshirildi. Tavsifiy metod qo'llanilib, unda zoonimlarning umumiy leksik xususiyatlari tavsiflandi. Tizimli tahlil metodi yordamida to'plangan nomlar avvaldan belgilangan 12 ta tematik guruh bo'yicha tizimlashtirildi. Statistik tahlil amalga oshirildi va uning doirasida bir nechta vazifalar bajarildi. Nomlarning tematik guruhlar bo'yicha miqdoriy taqsimlanishi aniqlandi. Nomlarning bosh harflari bo'yicha chastota tahlili o'tkazildi. Zoonimlarning struktur tahlili bajarilib, bir komponentli va ko'p komponentli nomlar nisbati hisoblab chiqildi. Grafik metod vositasida olingan statistik natijalar vizual tarzda taqdim etildi. Tahlil jarayoni bir nechta bosqichlarda amalga oshirildi. Har bir tematik guruhga kiruvchi nomlar soni alohida hisoblab chiqildi. Umumiy ro'yxatdagi har bir nomning bosh harfi aniqlandi va ularning umumiy sondagi chastotasi hisoblandi.

Tahlil va natijalar. Tahlil qilingan 243 ta yovvoyi sutemizuvchi nomi 12 ta tematik guruhga quyidagicha taqsimlandi.


1-jadval

Yovvoyi sutemizuvchi nomlarining tematik guruhlar bo'yicha taqsimlanishi

№	Tematik guruh	Nomlar soni	Foiz (%)
1	Mushuksimonlar (Felidae)	34	14.0%

2	Itsimonlar (Canidae)	26	10.7%
3	Ayiqalar (Ursidae)	8	3.3%
4	Suvsarsimonlar va boshqa mayda yirtqichlar	32	13.2%
5	Juft tuyoqlilar (Artiodactyla)	56	23.0%
6	Toq tuyoqlilar (Perissodactyla)	15	6.2%
7	Kemiruvchilar (Rodentia)	31	12.8%
8	Primates (Primates)	34	14.0%
9	Xaltalilar (Marsupialia)	20	8.2%
10	Hasharotxo'rlar va mayda sutemizuvchilar	13	5.3%
11	Ko'rshapalaklar (Chiroptera)	10	4.1%
12	Dengiz Sutemizuvchilari (Cetacea, Pinnipedia, Sirenia)	25	10.3%
	JAMI	243	100%

1-grafik



Grafikdan ko'rinib turibdiki, eng ko'p nomlar "Juft tuyoqlilar" (23.0%), "Mushuksimonlar" (14.0%) va "Primatlar" (14.0%) guruhlariga to'g'ri keladi. Bu O'zbekiston va unga qo'shni hududlar faunasi uchun xos bo'lgan yoki madaniy jihatdan muhim sanalgan hayvon guruhlarining nomlarda ko'proq aks etishi bilan izohlanishi mumkin.


2. Bosh harflar chastotasi tahlili. Tahlil qilingan 243 ta nomning bosh harflari bo'yicha chastotasi quyidagicha.

2-jadval

Zoonimlarning bosh harflari bo'yicha chastota

Bosh harf	Nomlar soni	Foiz (%)	Misollar
Q	28	11.5%	Qoplon, qunduz, kiyik, qora kiyik va h.k.
K	24	9.9%	Karkidon, kiyik, kenguru, koala va h.k.
B	21	8.6%	Bo'ri, bug'u, bizon, bandikut va h.k.
A	16	6.6%	Arslon, ayiq, alpaka, antilopa va h.k.
S	16	6.6%	Silovsin, suvsar, saiga, sirtlon va h.k.

2-grafik



Bu natijalar o'zbek tilining fonetik xususiyatlari va leksikasida ma'lum harflar bilan boshlanuvchi so'zlarning faolligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. "Q" harfining yuqori chastotasi qadimgi turkiy tillardan meros qolgan ko'plab zoonimlarning mavjudligi bilan izohlanishi mumkin.

1. **Struktur tahlil.** Tahlil qilingan nomlarning strukturasi quyidagicha taqsimlandi.

3-jadval

Zoonimlarning struktur tahlili

Nom strukturasi	Nomlar soni	Foiz (%)	Misollar
Bir komponentli (oddiy)	105	43.2%	Arslon, bo'ri, ayiq, jirafa, zebra, koala, lama, kenguru, vombat, gaur...
Ko'p komponentli (murakkab)	138	56.8%	Qora oyoqli mushuk, tog' echkisi, dengiz arsloni, uchar olmaxon, oq ayiq...
JAMI	243	100%	

2-grafik

Zoonimlarning struktur tahlili



Natijalardan ko‘rinib turibdiki, ko‘p komponentli nomlar (56.8%) bir komponentli nomlarga (43.2%) nisbatan ko‘proq uchraydi. Bu holat hayvon turlarini bir-biridan farqlash, ularning o‘ziga xos belgilarini (rangi, yashash joyi, o‘xshashligi, hajmi) nom orqali ifodalash ehtiyoji bilan bog‘liq. Masalan, “Qora oyoqli mushuk”, “Tog‘ echkisi”, “Dengiz arsloni” kabi nomlar aniqlashtiruvchi komponentlar (sifat, ot) yordamida hosil qilingan. Bunday nomlash tamoyili ko‘plab tillarga xos bo‘lib, obyektни aniqlik bilan identifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar o‘zbek tilidagi yovvoyi sutemizuvchilar nomlarining lingvostatistik xususiyatlari haqida muayyan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Juft tuyoqlilar, mushuksimonlar va primatlarga oid nomlarning ko‘pligi bu guruhlarining O‘rta Osiyo mintaqasi tabiati va madaniyatidagi tarixiy ahamiyati yoki jahon faunasidagi xilma-xillikning til leksikasida aks etishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, juft tuyoqlilar va yirtqich mushuksimonlar qadimdan ovchilik va xalq og‘zaki ijodi obyektlari bo‘lgan. Primatlarning ko‘pligi esa, asosan, boshqa faunasiga oid nomlarning tilga kirib kelishi bilan izohlanishi mumkin. “Q”, “K”, “B” harflarining yuqori chastotasi o‘zbek tilining fonologik va leksik xususiyatlari bilan bog‘liq. Ko‘p komponentli nomlarning ustunligi (56.8%) zoonimlarning nominatsiya jarayonida tavsifiy tamo-yilning faolligini ko‘rsatadi. Bu onomastikaning umumiy qonuniyatlaridan biri bo‘lib, yangi yoki kam ma’lum obyektlarni nomlashda tavsifiy birikmalar ko‘proq qo‘llaniladi. Vaqt o‘tishi bilan, ba’zi ko‘p komponentli nomlar leksikalizatsiyaga uchrab, bir butun tushunchani ifodalaydigan barqaror birlikka aylanishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilidagi 243 ta yovvoyi sutemizuvchi hayvon nomining lingvostatistik tahlili amalga oshirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

1. Nomlar tematik guruhlar bo‘yicha notekis taqsimlangan bo‘lib, eng ko‘p nomlar “Juft tuyoqlilar”, “Mushuksimonlar” va “Primatlar” guruhlariga to‘g‘ri keladi.
2. Nomlarning bosh harflari chastotasida “Q”, “K”, “B” harflari yetakchilik qiladi.
3. Struktur jihatdan ko‘p komponentli (tavsifiy) nomlar bir komponentli nomlarga nisbatan ko‘proq (56.8%).

Bu natijalar o‘zbek tilidagi zoonimlar tizimining ba’zi lingvistik qonuniyatlarini ochib beradi va nomlash tamoyillarida tavsifiylikning ustunligini ko‘rsatadi. Ushbu tahlil faqat taqdim etilgan ro‘yxat asosida amalga oshirildi va u o‘zbek tilidagi *barcha* yovvoyi sutemizuvchi nomlarini qamrab olmasligi mumkin. Shuningdek, nomlarning etimologik tahlili, sinonimiyasi, variantdorligi kabi jihatlar chuqur o‘rganilmadi. Kelgusida o‘zbek tilidagi zoonimlarning kengroq korpusini yaratish, ularning etimologik qatlamlarini aniqlash, dialektal variantlarini o‘rganish va boshqa turkiy tillardagi zoonimlar bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Ainiala, T., Saarelma, M., & Sjöblom, P. Names in Focus: An Introduction to Finnish Onomastics. Helsinki, Finnish Literature Society, SKS, 2012, p. 216.
- (2). Algeo, J. (Ed.). Fifty Years Among the New Words. A Dictionary of Neologisms, 1941–1991. Cambridge: Cambridge University Press, 1991.
- (3). Baayen, R.H. Analyzing Linguistic Data. A Practical Introduction to Statistics Using R. Cambridge, Cambridge University Press, 2008.
- (4). Berlin, B. Ethnobiological Classification: Principles of Categorization of Plants and Animals in Traditional Societies. Princeton, NJ. Princeton University Press, 1992.
- (5). Coates, R. Properhood. Language, 82(2), 2006, p. 356–382.
- (6). Hunn, E.S. Tzeltal Folk Zoology. The Classification of Discontinuities in Nature. New York, Academic Press, 1977.
- (7). Köhler, R., Altmann, G., & Piotrowski, R.G. (Eds.). Quantitative Linguistics: An International Handbook. Berlin: Walter de Gruyter, 2005.
- (8). Van Langendonck, W. Theory and Typology of Proper Names. Berlin: Mouton de Gruyter, 2007.
- (9). Zipf, G.K. Human Behavior and the Principle of Least Effort: An Introduction to Human Ecology. Cambridge, MA: Addison-Wesley Press, 1949.
- (11). Баскаков, Н.А. Введение в изучение тюркских языков (2-е изд.). Москва, “Высшая школа”, 1969.
- (12). Кононов, А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. Москва–Ленинград, издательство АН СССР, 1960.
- (13). Щербак, А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков: Имя. Ленинград, “Наука”, 1977.

**Yakubov Faxriddin Jo'raqulovich (Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi;
e-mail: yakubovf57@gmail.com)**

DISKURS KOGNITIV TAHLILINING KONTEKSTUAL ASPEKTI

Annotatsiya. Maqolada diskursning kognitiv tahliliga zamonaviy yondashuv yoritiladi. Muallif diskursni faqat matn strukturalari bilan cheklab bo'lmashini, balki uni butun va integratsiyalashgan kontekstda ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Diskurs tahlilida kontekstning asosiy komponentlari – vaqt, o'rin, voqea, ishtirokchilar, ularning rollari va o'zaro munosabatlari, faoliyat sohasi hamda ijtimoiy va kognitiv omillar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: diskurs, kognitiv, matn tahlil, kontekstual tahlil, freym, sxema, komponent, kommunikativ rollar, konsepsiya, kategoriya.

Якубов Фахриддин Джуракулович (преподаватель Каттакурганского филиала Самаркандского государственного университета; e-mail: yakubovf57@gmail.com)

КОНТЕКСТУАЛЬНЫЙ АСПЕКТ КОГНИТИВНОГО АНАЛИЗА ДИСКУРСА

Аннотация. В статье освещается современный подход к когнитивному анализу дискурса. Автор подчеркивает, что дискурс нельзя ограничивать только текстовыми структурами, его необходимо рассматривать в целом и в интегрированном контексте. В анализе дискурса рассматриваются основные компоненты контекста – время, место, событие, участники, их роли и взаимные отношения, сфера деятельности, а также социальные и когнитивные факторы.

Ключевые слова: дискурс, когнитивный, текстовый анализ, контекстуальный анализ, фрейм, схема, компонент, коммуникативные роли, концепт, категория.

**Yakubov Faxriddin Jurakulovich (Teacher of Kattakurgan branch of Samarkand State University;
e-mail: yakubovf57@gmail.com)**

CONTEXTUAL ASPECT OF COGNITIVE DISCOURSE ANALYSIS

Annotation. The article highlights a modern approach to the cognitive analysis of discourse. The author emphasizes that discourse cannot be limited to just textual structures; rather, it should be viewed as a whole and in an integrated context. In discourse analysis, key contextual components such as time, place, event, participants, their roles and interactions, field of activity, as well as social and cognitive factors are examined.

Keywords: discourse, cognitive, text analysis, contextual analysis, frame, schema, component, communicative roles, concept, category.

Kirish (Introduction). Diskurs kognitiv tahlilini matn strukturalari bilan cheklash to'g'ri bo'lmaydi. Diskursga butun, integratsiyalashgan yondashuv pozitsiyasidan qarash kerak. Shuning uchun matn va kontekst o'rtasidagi mavjud aloqalarning bir qancha aspektlarini ko'rib chiqamiz.

Kontekstual tahlilning turli kategoriyalari turlicha yondashuvlarni taklif etmoqda. Ularning ko'pchiligi hol (settings): *zamon (time)*, *o'rin (location)*, *voqea/harakat (event/action)*, *qatnashchilar (participants)*. Shubhasiz, bu kategoriyalar to'liq aloqador (relevant) kategoriyalar, lekin har tomonlama tahlillar yanada ahamiyatli bo'lgan bir qancha kategoriyalar borligini ko'rsatadi [1;37-b.]. Bular orasida *faoliyat sohasi (domain)*, *diskurs ishtirokchilari roli (roles)*, *ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar (social relations)*.

Faoliyat sohasi kategoriyasini ko'rib chiqamiz. Kishilar, muloqot ishtirokchilari qaysi sohada yoki joyda diskurs ro'y berayotganligini bilishlari kerak. Masalan, parlamentdagi siyosatchilar anglashadiki, ularning diskursi siyosat sohasida (siyosiy diskurs), o'qituvchilar tushunishadiki, ularning professional faoliyati ta'lim sohasiga tegishli (pedagogik diskurs). Bu bildiradiki, o'qituvchilar ham, siyosatchilar ham o'z faoliyati sohasiga muvofiq til vositalarini tanlaydilar. Eng umumiyroq darajada biz *formal / ommaviy, ijtimoiy (public sphere)* va *neformal / shaxsiy sohalar (private sphere)* haqida gapirishimiz mumkin [1;11-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Kontekstual tahlilning murakkab tizimidagi keyingi qadam T.A. van Deykning fikricha, diskurs yaratilishi jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy subyektlar (social actors) va ma'lum ijtimoiy guruhlarining a'zolari deb tan olish zarurligidir [1;26-b.].

Ular muloqotning o'ziga eng yaqin joylashgan sotsium vakillaridir, chunki aynan ular matnlarni yaratadilar va talqin qiladilar. Bu ijtimoiy subyektlarning faoliyati, ularning ijtimoiy-madaniy faolligi, e'tiqodlar umumiyliyi yoki mafkura diskurs matnlarini ularni yaratish va iste'mol qilish jarayonlari bilan solishtirishga, moslashtirishga imkon beradi. Diskurs matnlari va kontekstlar o'rtasidagi aloqa bu matnlarga ishlov berish jarayoniga qo'shilgan ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy bilimlar darajasida aniqlanadi [1;42-b.].

Ma'lumki, muloqot ishtirokchilari har xil rollarda chiqishlari mumkin, bu rollar diskursni yaratish va tushunishga ta'sir qilishi mumkin.

T.A. van Deyk fikriga ko'ra, uch turdagi rollarga murojaat qilish to'g'ridir: *kommunikativ rollarga* (communicative roles), *o'zaro harakat qilish rollariga* (interactional roles) va *ijtimoiy rollarga* (social roles). Muloqot ishtirokchilari o'zlarini va boshqa ishtirokchilarni xabarni beruvchilar va oluvchilar bilan o'z kommunikativ rollarini anglash uchun bog'lashlari lozim. O'zaro ta'sir rollarini qatnashchilarning bir-biriga munosabatlaridagi *dushman – do'st, raqib – ittifoqchi* qabilidagi turli situatsiyali pozitsiyalari aniqlaydi.

Ijtimoiy rollar u yoki bu boshqa ijtimoiy guruhga etnik, jinsiy, yosh, siyosiy jihatdan, professional va boshqa belgilariga ko'ra qarashli ekanligi bilan bog'langan. Bu rollar bir-biri bilan qo'shib ketadi. Aytaylik, deputat parlamentda nutq so'zlashi mumkin, bir vaqtning o'zida, u hukumat muxolifi, buning ustiga ayol kishi bo'lishi, konservativ partiyaning a'zosi bo'lishi mumkin va hokazo [1;91-b.].

Kontekstning eng muhim kategoriyasi *muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlardir*. Eng umumiy darajada formal/formal bo'lmagan munosabatlar yoki eng batafsil ko'rib chiqilganda hokimiyat ustunligi haqida gapirish mumkin. Bu ko'p nutq aspektlarida ifodalanishi mumkin: *intonatsiya, sintaksis, leksika, semantika, pragmatikada* (masalan, buyruq berishlarda) va hokazo [1;43-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Diskurs kognitiv tahlilining kontekstual aspektiga bag'ishlangan mazkur maqolada analiz, sintez, analogik tahlil kabi metodlardan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shunday qilib, holat, faoliyat sohalari kontekstual kategoriyalari, ishtirokchilar rollari va ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir turlarida ma'lum darajada matnning o'zi aniqlanishini bildik. Biroq kontekst strukturasi faqat bu kategoriyalar bilan cheklanmaydi. Shuningdek, kontekstga ishtirokchilarning ba'zi kognitiv xarakteristikalarini, masalan, *ularning maqsadi, e'tiqodlari, fikrlari* kabi xarakteristikalarini ham tegishli. Ishtirokchilarning kognitiv xarakteristikalarini ularning ijtimoiy qiyofasining muhim komponenti hisoblanadi.

Bu aspektni hisobga olmasdan biz ishontirish, axborot uzatish jarayonlarini, mafkurani ifodalash usullarini tushuntira olmaymiz yoki tavsiflay olmaymiz [3;19-b.].

Agar bu aspektni e'tiborga olmasak, nega kishilar u yoki bu harakatni amalga oshirayotganliklarini tushuna olmaymiz. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, muloqotning kognitiv aspekti kontekstual tahlilda muhim va katta rol o'ynaydi.

T.A. van Deyk diskursning kognitiv xarakteristikalarini o'rtasida *mafкура, bilimlar, munosabatlarni* kognitiv qiyofani tashkil etuvchi eng muhim xarakteristikalar deb hisoblaydi. Mafkura ma'lum bir g'oyalarda ifodalanadi, ularni e'tiqodlar tizimi deb atash mumkin. Ta'kidlash kerakki, shaxsiy e'tiqodlar bilan emas, ma'lum bir ijtimoiy guruhning e'tiqodi bilan ish ko'ramiz. *E'tiqodlar asosida ma'lum bir mafkura yotadi*. Masalan, jinsiy zo'ravonlik e'tiqodlari asosida feministik mafkura yotadi. Mafkura ma'lum bir darajada guruhdagi *bilimlarni* ham nazorat qiladi. Biz qandaydir ijtimoiy guruhlar doirasida haqiqat deb hisoblangan, masalan, bu olimlar guruhi yoki diniy jamoa a'zolari tomonidan haqiqat deb hisoblangan bilimlar bo'lsa, ularga ijtimoiy e'tiqodlar sifatida qaraymiz. Albatta, boshqa guruhlar uchun bu bilimlar haqiqat hisoblanmasligi mumkin, shu sababdan *bilimlar* atamasi bu tushunchaga juda shartli qo'llangan [1;91-b.].

"Munosabatlar" atamasi qandaydir konkret obyektga nisbatan e'tiqodlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Kishilar jamiyatdagi mavjud u yoki boshqa masalalarga, muammolarga, masalan, evtanaziyaga, narkotiklarga, o'lim jazosiga va hokazolarga turli munosabatda bo'lishlari mumkin. Munosabatlar bilimlar bilan o'zaro shartlangan bo'ladi hamda mafkuraga bog'liq bo'lishi mumkin, aytaylik, immigratsiyaga salbiy munosabat irqchilik mafkurasiga asoslanishi mumkin. Ishtirokchilarning kognitiv qiyofasini tarkib toptiruvchi bu barcha elementlar "bilimlar" degan umumiy atama bilan ifodalash imkoniyatini beradi [1;68-b.].

Bu "bilimlar" degan umumiy so'z morf emas, u konseptual tizimlarda tashkil topgan [1;372-b.]. T.A. van Deyk bu sxemalarni *freym* termini bilan tavsiflashga moyil. "Freym" tushunchasi asosan sun'iy intellekt va kognitiv psixologiya bo'yicha ishlarda ishlatilmoqda. Bu variantlari "skriptlar", "stsenariyalari", "sxemalar" nomlari ostida muhokama qilingan tushuncha. Bunday vazifalarni yechish uchun zarur bilimlarni namoyon qilish tadqiqotlari sohasida oldingi tadqiqotchi F.Bartlett edi. U o'zi ham "sxema" atamasini qo'llagan. R.Schank, va R.Abelson ishlarida ham sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqotlarda uchraydigan o'xshash tushunchalar muhokamasini topish mumkin.

T.A. van Deyk yozishicha, freymlar bilimlarning asossiz ajratilgan "bo'laklari" emas. Birinchidan, ular ba'zi konseptlar atrofida tashkil topgan birliklardir. Lekin assosiativlarning oddiy to'plamiga qarama-qarshi ravishda bu birliklar u yoki boshqa konsept bilan birikadigan tipik va potensial mumkin bo'lgan axborotni o'zida jamlaydi. Bundan tashqari, freymlar ko'proq yoki kamroq darajada konvensional tabiatga

egaligini istisno qilib bo'lmaydi, shuning uchun bu jamiyatda nima "xarakterli" yoki "tipik" ekanligini aniqlashi va tavsiflashi mumkin. Bu, ayniqsa, "poezdga safar, kinoteatrda borish, restoranda tushlik qilish" kabi ijtimoiy faoliyatning bir qancha shakllariga tegishli bo'lishi mumkin [2;23-b.].

Tilshunoslik ensiklopedik lug'at freymmlarga "типовые ситуации" (oddiy situatsiyalar) deb ta'rif beradi [4;102-b.].

Stereotip, qandaydir madaniyatda mavjud ijtimoiy situatsiyalar xotirada shunday shaklda berilishi mumkinki, kishilar bu umumiy bilim asosida muloqot qilishlari mumkin. Bunday freymmlar nisbatan doimiydir, chunki ular sotsium a'zolari tomonidan tez-tez ishlatiladi. Agar bizning madaniyatimiz freymda supermarket bo'lsa, deb misol keltiradi T.A. van Deyk, unda bu freym bizning rejalarimiz va harakatlari-mizni supermarketga yo'naltiradi yoki u yerda nima sodir bo'layotganligini tushunishga yo'naltiradi [1;71-b.]. Diskursni tushunish o'ziga, taxminan, *freymning umumiy mazmunini* oladi; bu mazmun shunday ang-lanishi mumkin, masalan, supermarketda turli xildagi oziq-ovqat va sanoat mollarini xarid qilish mumkin, u yerda xarid uchun maxsus aravachalar bor, ularda tovarlarni joylab, keyin kassir oldida to'lov qilish mum-kinligi haqida ma'lumot bilan qanday sodir bo'layotganligi qisman anglanishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Diskursning matn tahlili fonetik, grafik, morfologik, sintaktik, semantik, leksik, makrostruktura darajalaridagi til strukturalarini ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Diskursning kontekstual tahlili esa vaqt, o'rin, faoliyat sohalari, diskurs ishtirokchilari, ular-ning ijtimoiy rollari, ularning o'zaro munosabatlarining xarakteri va diskurs ishtirokchilarining kognitiv xarakteristikalarini ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Dijk T.A van. Political Discourse and Ideology [электронный ресурс]. 2001, 312 p.
- (2). Дейк Т.А. Ван. Вопросы прагматики текста. Новое в зарубежной лингвистике. М., "Прогресс", 1978, с. 259–336.
- (3). Дейк Т.А. Ван. Язык. Познание. Коммуникация. М., "Прогресс", 1989, 312 с.
- (4). Лингвистический энциклопедический словарь. Гл. ред. В.Н.Ярцева. М., "Советская энциклопедия", 1990, 685 с.

Irisovna Sayida Abdiyeva (TATU "Chet tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi)

MIQDOR MA'NOSINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING SO'Z TURKUMLARI VA TIL TIZIMIDAGI O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning so'z turkumlari bilan bog'liqligi va ularning til tizimidagi o'rni o'rganiladi. Miqdor tushunchasining leksik-semantik va gram-matik jihatlari tahlil qilinib, ularning sintaktik, semantik va pragmatik vazifalari yoritiladi. Shuningdek, miqdor birliklarining turli so'z turkumlarida qanday namoyon bo'lishi misollar asosida ochib beriladi. Ushbu tadqiqot natijalari miqdor ifodalovchi birliklarning til tizimidagi o'rnini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: miqdor birliklari, so'z turkumlari, son, sifat, olmosh, fe'l, til tizimi, sintaktik rol, se-mantik xususiyatlar, pragmatik vazifa.

ЧАСТИ РЕЧИ, ВЫРАЖАЮЩИЕ КОЛИЧЕСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ, И ИХ РОЛЬ В ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается взаимосвязь единиц, выражающих значение количества, с группами слов и их место в системе языка. Анализируются лексико-семантический и грамматический аспекты понятия количества, выделяются их синтаксическая, семантическая и прагматическая функции. Также на основе примеров будет раскрыто, как появляются единицы ко-личества в разных группах слов. Результаты данного исследования помогают лучше понять место количественных единиц в системе языка.

Ключевые слова: единицы количества, группы слов, число, качество, местоимение, глагол, языковая система, синтаксическая роль, семантические признаки, прагматическая задача.

WORD CLASSES EXPRESSING THE QUANTITY MEANING AND THEIR ROLE IN THE LANGUAGE SYSTEM

Annotation. This article examines the relationship of units expressing the meaning of quantity with word groups and their place in the language system. The lexical-semantic and grammatical aspects of the concept of quantity are analyzed, and their syntactic, semantic and pragmatic functions are highlighted.

Also, how units of quantity appear in different word groups will be revealed on the basis of examples. The results of this study help to better understand the place of quantitative units in the language system.

Key words: *quantity, word groups, number, adjectives, pronoun, verb, language system, syntactic role, semantic features, pragmatic task.*

Kirish. Miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklar tilshunoslikda alohida o'rin tutadigan va til tizimining asosiy elementlaridan biri hisoblangan mavzu bo'lib, ular lingvistik struktura ichida muhim ahamiyatga ega. Tilning bir qancha funksiyalarini amalga oshiradigan, asosan, son, miqdor, hajm kabi tushunchalarni ifodalovchi so'z turkumlari va leksik birliklar, tilning semantikasi va grammatikasining ajralmas qismidir. Bu birliklar nafaqat til tizimining samarali ishlashini ta'minlaydi, balki kommunikativ jarayonda aniq va to'g'ri ma'lumot almashish uchun ham muhim rol o'ynaydi.

Miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklar o'ziga xos lingvistik birikmalardir. Ular matematik tushunchalar bilan bog'liq bo'lib, leksik, morfologik va sintaktik jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu birliklarning til tizimidagi o'rni, ularning grammatik tizimi, shakllanishi va ularni ma'lum ijtimoiy va kommunikativ vaziyatlarda qanday ishlatilishi haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning sintaktik va semantik o'ziga xosliklari, ularning tilning boshqa tarkibiy qismlari bilan o'zaro aloqalari va o'zgaruvchanligi haqida gapirganda, tilning struktural komponentlarining qanday o'zaro bog'lanishi va funksional ahamiyati haqida chuqurroq tahlil qilish imkoniyatlari ochiladi [1;21-b.].

Shuningdek, miqdor birliklari tilda nisbat va solishtirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Misol uchun, "ancha katta", "kamroq gapirish", "eng oz" kabi tuzilmalarda miqdor narsa yoki hodisalarning bir-biriga bo'lgan nisbatini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu kabi birliklar so'zlashuv va yozma nutqda stilistik va ekspressiv ma'nolarni kuchaytirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Miqdor tushunchasi turli tillarda o'ziga xos grammatik va semantik xususiyatlarga ega bo'lib, ularning qo'llanilishi til strukturasi asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli miqdor ifodalovchi birliklarni o'rganish tahliliy lingvistika, semantika va sintaksis kabi yo'nalishlar uchun ham dolzarb masalalardan biridir [2;23-b.].

Miqdorni ifodalovchi so'z turkumlari. Son. Sonlar miqdoriy tushunchalarni aniq yoki nisbiy tarzda ifodalovchi asosiy birliklardan biri hisoblanadi. Ular quyidagi turlarga bo'linadi:

Asosiy sonlar: bir, ikki, uch va hokazo.

Tartib sonlar: birinchi, ikkinchi, uchinchi va hokazo.

Jamlovchi sonlar: ikkita, uchta va hokazo.

Noaniq sonlar: bir necha, ko'p, oz va boshqalar.

Son birliklari miqdor ifodalashning asosiy usullaridan biri bo'lib, ularning grammatik jihatdan o'ziga xos kelishik, egalik va aniqlik kategoriyalari mavjud.

Sifat. Miqdor ma'nosini ifodalovchi sifatlar ham mavjud bo'lib, ular narsa yoki hodisalarning miqdorini nisbiy belgilaydi. Masalan: katta, kichik, ulkan, oz-moz kabi sifatlar miqdor ma'nosini ifodalashda keng qo'llaniladi.

Sifatlar orqali miqdoriy tushunchalar matn ichida aniq yoki noaniq shaklda ifodalanish mumkin. Ayniqsa, sifatning nisbiy va ortirma darajalari orqali miqdor ifodalanishi kuchayadi. Masalan, "juda katta", "eng oz", "ancha ko'p" kabi birikmalarda miqdor darajasi yanada aniqroq ifodalanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklar, tilshunoslikda o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, ularning til tizimidagi ahamiyati va o'rni bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Miqdor va uning ifodalanish shakllari, tilshunoslikda grammatik, semantik va leksik jihatlarni o'z ichiga olgan keng mavzudur. Ushbu adabiyotlar tahlili, miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning turli til tizimlarida qanday ifodalanishini, ularning grammatik shakllari, sintaktik o'rni va semantik funksiyalari haqida keng ma'lumotlarni taqdim etadi.

Bir nechta ilmiy ishlarda miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklar morfologik va sintaktik jihatlaridan tahlil qilingan. Masalan, T.V.Lichko (2002) o'zining "Grammatika va leksika: miqdoriy birliklar" asarida miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklar tilning grammatik tizimi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. U muayyan so'z turkumlarining o'zaro aloqalarini va ularning sintaktik tuzilishdagi o'rni o'rganadi, shuningdek, miqdor ma'nosining tilda qanday aks etishini batafsil bayon etadi. Lichko miqdor birliklarini, asosan, sifat va son birliklaridan tashkil topgan so'z turkumlaridan iborat bo'lishini ko'rsatadi.

A.V.Bondarko (1994) esa o'zining "Semantika va grammatika" nomli asarida son birliklarining til tizimidagi o'rni va funksiyasini tahlil qilgan. Bondarko sonlarni miqdoriy birlik sifatida ta'riflab, ular til strukturasi kommunikativ vazifani bajaruvchi elementlar sifatida ishlatilishini aniqlagan. U miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning til tizimidagi ahamiyatini chuqur tahlil qilib, ular o'rtasidagi o'zaro bog'-

lanishlarni hamda tilning semantik va grammatika jihatlarini birlashtirish orqali yangi nazariy yakunlarga keladi [3;11-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning so'z turkumlari va til tizimidagi o'rnini tahlil qilish uchun bir qator ilmiy metodlar va usullar qo'llanilgan. Tadqiqot metodologiyasi tilshunoslikda umumiy tadqiqot yondashuvlarini, ayniqsa, morfologik, sintaktik va semantik tahlil metodlarini o'z ichiga oladi. Maqsad, miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning til tizimidagi o'rnini va ularning strukturaviy xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ularning funksional ahamiyatini tushunishdir.

1. Analitik-metodologik yondashuv. Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi analitik yondashuvdir. Ushbu yondashuv orqali miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning so'z turkumlarini, ularning sintaktik va morfologik jihatlarini tizimli tarzda tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. So'z turkumlarining shakllanishi va ularning o'zaro aloqalari, shuningdek, til tizimidagi o'rnini chuqur tahlil qilinadi.

2. Morfologik tahlil. Morfologik tahlil metodidan foydalanish orqali miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning morfologik shakllanishini o'rganish maqsad qilingan. Bu usul yordamida miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning qismlariga, ularning grammatik shakllariga va qo'llanish qonuniyatlariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, so'zning morfologik tarkibi va uning kontekstdagi o'zgarishlari o'rganiladi.

Sintaktik rol. Miqdor birliklari gap ichida turli grammatik rollarni bajara oladi. Ular sifatlovchi, aniqlovchi, kesim, hatto to'ldiruvchi vazifasida kelishi mumkin. Masalan, "Bir necha odam yig'ildi" gapida "bir necha" so'zi miqdor aniqlovchisi sifatida ishlatilgan bo'lsa, "Ko'payish davom etmoqda" gapida miqdorni ifodalovchi fe'l yordamida jarayon tavsiflangan.

Semantik rol. Miqdor birliklari predmetlarning miqdorini, nisbiy hajmini, sonini yoki hajmning ortishi-kamayishini bildiradi. Ular kontekstga qarab aniq yoki noaniq miqdor ifodalashi mumkin. Masalan, "Ko'p odam yig'ildi" va "Bir necha odam yig'ildi" jumllarida miqdor birliklarining semantik yuklamasi farqlanadi.

Pragmatik rol. Miqdor birliklari matnning uslubini va emotsional ta'sirini shakllantiradi. Masalan, "juda ko'p", "deyarli hech kim" kabi tuzilmalarda subyektiv baho mavjud bo'lib, so'zlovchining hissiy munosabatini aks ettiradi.

Tilning funksional uslublaridagi roli. Rasmiy nutqda miqdor birliklari aniq va matematik tarzda ifodalanadi (masalan, "100 foiz", "5 kg"). Badiiy nutqda esa ular ko'proq obrazlilik, o'xshatish va ta'sirchanlik vositasi sifatida ishlatiladi (masalan, "osmon qadar baland", "umrimning eng yaxshi yillari").

Xulosa va taklif. Miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklar til tizimining ajralmas qismidir va ular tilshunoslikda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda miqdoriy birliklarning so'z turkumlari va til tizimidagi o'rnini, ularning grammatik va semantik xususiyatlari, shuningdek, bu birliklarning til strukturasi va kommunikativ vazifasiga qo'shgan hissasi o'rganildi.

Miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklar, asosan, son, miqdor, hajm va o'lcham kabi tushunchalarni ifodalaydi va ular tilning morfologik, sintaktik va semantik tizimlarida muhim o'rin tutadi. Tadqiqotda ularning morfologik va sintaktik shakllari, shu bilan birga, semantik funksiyalari va til tizimidagi integratsiya jarayoni tahlil qilindi. Ma'lum bo'lishicha, miqdoriy birliklar nafaqat so'z turkumlari orqali, balki sintaktik tuzilmalardagi o'zaro aloqalar orqali ham tilning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Tadqiqotda qo'llangan metodlar, jumladan, morfologik, sintaktik, semantik va tipologik tahlil, miqdoriy birliklarning til tizimidagi ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam berdi. Ushbu metodlar yordamida miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning strukturalarini va funksiyalarini yanada to'liqroq aniqlash imkoniyati yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, "Fan", 2008.
- (2). Normurodov A. Hozirgi zamon o'zbek tili. Toshkent, "O'qituvchi", 2015.
- (3). Lyons J. Semantics. Cambridge University Press, 1977.
- (4). Хайдаров А. Ўзбек тилининг грамматикаси. Тошкент, "Фан", 1995.
- (5). Саидов У. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, "Университет" нашриёти, 2012.
- (6). Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press, 1965.

Allashev Akbarbek Anvar o'g'li (O'zDJTU mustaqil izlanuvchisi; Ma'mun universiteti "Roman-german filologiyasi" kafedrası, Xiva, O'zbekiston; e-akbar.allashev@gmail.com)
ADABIYOTDA KONFLIKT VA IJTIMOY O'ZGARISHLAR O'RTASIDAGI ALOQADORLIK

***Annotatsiya.** Yer yuzida mavjud bo'lgan har bir jamiyat o'z hayotida o'zgarishlar deb ataladigan jarayonlarni boshidan kechiradi. Ushbu o'zgarishlarning mavjudligi biz jamiyatni ma'lum bir davrda o'zgarishlardan so'ng jamiyatning o'tmishdagi holati bilan taqqoslaganda namoyon bo'ladi. Jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar uzluksiz jarayondir. Bu holat har bir jamiyat, aslida, o'zgarishlarni boshidan kechirishini anglatadi hamda ziddiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ushbu maqolada konfliktning ijtimoiy o'zgarishlarga munosabatini ko'rsatish va ochib berishning argumentativ nuqtayi nafari hayotiy misollar yordamida ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** konflikt, ijtimoiy o'zgarish, munosabatlar, ekspert nazariyasi, strukturaviy funksionalizm.*

СВЯЗЬ КОНФЛИКТА И СОЦИАЛЬНЫХ ТРАНСФОРМАЦИЙ В ЛИТЕРАТУРЕ

***Аннотация.** Каждая культура на планете проходит через то, что известно как трансформация. Если мы рассмотрим общество в определенный период, а затем сравним его с предыдущим состоянием, станет очевидно, что эти изменения произошли. Социальные трансформации являются непрерывным процессом. Это обстоятельство указывает на то, что изменение является реальностью в каждой цивилизации. Целью данного исследования является сбор противоположных точек зрения на связь между общественным развитием и конфликтом. Результаты исследования существенно влияют на то, как описываются и ожидаются социальные события.*

***Ключевые слова:** экспертная теория, отношения, социальные изменения и конфликт.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN CONFLICT AND SOCIAL CHANGES IN LITERATURE

***Annotation.** Every culture on the planet goes through what is known as transformation. If we examine society at a certain period and then contrast it with its previous condition, it becomes evident that these changes have occurred. Societal transformations are an ongoing process. This circumstance indicates that change is a reality in every civilisation. The purpose of this study is to compile opposing viewpoints about the connection between societal development and conflict. The study's findings significantly influence how social events are described and anticipated.*

***Keywords:** Expert theory, relationships, social change, and conflict.*

Kirish. Badiiy adabiyotdagi konfliktlar va ijtimoiy o'zgarishlar o'rtasida juda chuqur va o'zaro bog'liq aloqa mavjud. Badiiy asarlar, ko'pincha, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiradi, ularga javob beradi, hatto ularga ta'sir qiladi. Keling, bu aloqadorlikni batafsil ko'rib chiqaylik. Badiiy asarlar o'z davri-ning ijtimoiy muammolarini, ziddiyatlarini va notengliklarini aks ettiradi. Adiblar o'z asarlarida jamiyatdagi sinfiy farqlar, irqchilik, gender tengsizligi, siyosiy zulm, korrupsiya va boshqa ijtimoiy illatlarni ochib beradi. Bu muammolar, ko'pincha, personajlar o'rtasidagi konfliktlar orqali namoyon bo'ladi hamda ziddiyatlar ijtimoiy o'zgarishlarning natijasi hisoblanadi. Zaminimizda mavjud bo'lgan har bir jamiyatning o'z hayotida o'zgarishlar deb ataladigan jarayon sodir bo'lib, u uzluksizdir, haqiqat shuni ko'rsatadiki, bir jamiyat va boshqa jamiyat o'rtasidagi o'zgarishlar har doim ham bir xil emas. Ba'zida ayrim jamoalar boshqa jamiyatlarga qaraganda tez sur'atlarda o'zgarishlarni boshdan kechiradilar. Ba'zi o'zgarishlar keng yoki cheklangan ta'sirga ega. Jamiyatdagi o'zgarishlar ijtimoiy qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar, tashkiliy xulq-atvor shakllari, ijtimoiy institutlar tarkibi, jamiyatdagi qatlamlar, hokimiyat hamda ijtimoiy o'zaro ta'sirlarda ham sodir bo'lishi mumkin. Ijtimoiy o'zgarishlar faqat ziddiyat orqali sodir bo'ladi. Mojarolarsiz hech qanday ijtimoiy o'zgarishlar bo'la olmaydi. Qarama-qarshilik – bu tahdidlar yoki zo'rvonlik bilan birga keladigan qarama-qarshi tomonga qarshilik ko'rsatish orqali maqsadlarni amalga oshirish uchun manfaatlar va harakatlardagi farqlar tufayli yuzaga keladigan shaxslar yoki ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyat hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kingsli Devisning fikricha, ijtimoiy o'zgarishlar madaniy o'zgarishlarning bir qismi bo'lib, madaniy o'zgarishlar uning barcha qismlarini: san'at, fan, texnika, falsafa hamda ijtimoiy tashkilot shakli va qoidalaridagi o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi (Soerjono. 2007, 266-bet). Mac Iver (Nanang, 2012, 4-bet) fikriga ko'ra, ijtimoiy o'zgarishlar ijtimoiy munosabatlarda yoki muvozanatning o'zgarishi sifatida yuzaga keladigan o'zgarishdir. Ijtimoiy o'zgarishlar ijtimoiy qadriyatlar, tashkiliy xulq-atvor shakllari, ijtimoiy institutlarning tarkibi, jamiyatdagi qatlamlar, hokimiyat, ijtimoiy

o'zaro ta'sir to'g'risida bo'lishi, jamiyatda sodir bo'ladigan ijtimoiy o'zgarishlar rejalashtirilgan, rejalashtirilmagan, tez va sekin o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bir qancha ekspertlarning fikriga asoslanib, ijtimoiy o'zgarishlarni turli davrlardagi turli sharoitlarga qarab bilish mumkin. Soerjono (1982) ijtimoiy o'zgarishlarning shakllarini bir necha turlarga bo'lish mumkinligini ta'kidlagan va quyidagicha tahlilga tortgan:

- Taraqqiyot sifatida o'zgartirish. Taraqqiyot sifatida o'zgarish – bu jamiyatga taraqqiyot in'om etadigan o'zgarish. An'anaviy jamiyatlar sharoitidagi o'zgarishlarga fan va texnologiyaning ta'siri ostida ilg'or jamiyatga aylanishi va ta'lim darajasining o'sishida texnologiyaning roli.

- Regressiya sifatida o'zgarish. Jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar har doim ham taraqqiyot yo'nalishiga olib kelmaydi. Ba'zida jamiyatdagi o'zgarishlar salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa regress deb ataladigan tanazzulga yoki o'zgarishga olib keladi.

- Tez o'zgarish. Inqilob ijtimoiy o'zgarishlarning boshqa shaklidan farq qiladi. Farqlar quyidagilardir: inqilob eng keng diapazonda o'zgarishni keltirib chiqaradi; jamiyatning barcha darajalari va o'leohovlariga taalluqli: iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy tashkilot madaniyati, kundalik hayot va inson shaxsiyati kabi barcha sohalarida o'zgarishlar radikal, fundamental, ijtimoiy tuzilmalar va funksiyalarning o'zagiga ta'sir qiladi.

- Sekin o'zgarish. Evolutsiya – bu uzoq vaqt talab qiladigan o'zgarish va bir-birini sekin kuzatib boradigan kichik o'zgarishlar ketma-ketligi.

- Kichik o'zgarishlar. Jamiyatga bevosita ta'sir qilmaydigan ijtimoiy tuzilmaning elementlarida kichik o'zgarishlar ro'y beradi.

- Katta o'zgarish. Muhim o'zgarishlar jamiyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

- Istalgan o'zgarishlar. Istalغان ijtimoiy o'zgarish – bu jamiyatning o'zi tomonidan mavjud sharoitlarni oldingi vaziyatdan farq qiladigan yangi shakl va vaziyatlarga o'zgartirish uchun zarur bo'lgan o'zgarish.

- Keraksiz o'zgarishlar. Keraksiz o'zgarishlar – bu rejadani tashqari sodir bo'ladigan, jamiyat qo'lidan yoki nazoratidan tashqarida sodir bo'ladigan va istalmagan ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ikki yoki undan ortiq o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilindi hamda har bir kontekstual omil tavsiflandi. Idrok, tahlil va dalillar bu turdagi tadqiqotda mavjud bo'lgan muhim elementlardir. Har bir o'zgaruvchining tavsiflash bosqichi ushbu tadqiqotning birinchi bosqichidir.

Tahlil va natijalar. Rojers va Shomeyker (Hanafiyda. 1986, 16–17-betlar) ijtimoiy o'zgarishlarni ijtimoiy tizimning tuzilishi va funksiyasining o'zgarishi sodir bo'lgan jarayon sifatida belgilaydi. Milliy inqilob, qishloqni rivojlantirish institutini tashkil etish va oila tomonidan oilani rejalashtirish usulini qabul qilish ijtimoiy o'zgarishlarga misol bo'la oladi. Uilyam F.Ogbern ijtimoiy o'zgarishlar ko'lami moddiy va nomoddiy madaniyat elementlarini o'z ichiga oladi, deb ta'kidlab, moddiy madaniyat elementlarining nomoddiy elementlarga sezilarli ta'sirini ta'kidladi. Kingsli Devis ijtimoiy o'zgarishlarni jamiyatning tuzilishi va funksiyasida sodir bo'ladigan o'zgarishlar sifatida belgilaydi. MacIverning aytishicha, ijtimoiy o'zgarishlar ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar yoki ijtimoiy munosabatlarning muvozanatidir. J.L.Gillin va J.P.Gillingning ta'kidlashicha, ijtimoiy o'zgarishlar – bu geografik sharoitlar, moddiy madaniyat, aholi tarkibi, mafkuradagi o'zgarishlar yoki jamiyatdagi tarqalish yoki kashfiyotlar tufayli qabul qilingan turmush tarzining o'zgarishidir. Samuel Koenig so'zlariga ko'ra, ijtimoiy o'zgarishlar inson hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni anglatadi. Jamiyatda sodir bo'ladigan har bir o'zgarishlar asnosida ziddiyatlar yuzaga keladi. Zero, qarama-qarshilik hayotning asosidir. Bu nuqtayi nazar ziddiyat hodisasini hayotdagi asosiy fakt sifatida tasvirlash ifodasidir. Hamma joyda odamlar doimo to'qnashuv hodisasiga duch kelishadi. To'qnashuv–bu hayotning yana bir qonuni, uni Yer yuzidagi insoniyat sivilizatsiyasi davomida o'chirib bo'lmaydi. Darvinizm hatto uzoq vaqtdan beri oddiy hayotdagi ziddiyat hodisasini eng kuchlilarning kurashi va omon qolishi sifatida ko'rib kelgan (Veeger. 1993, 210-bet). Bu tamoyil inson hayotida doimo omon qolish uchun kurash borligini anglatadi, bu esa nizolarni keltirib chiqaradi.

Konflikt ijtimoiy munosabatlarning barcha jabhalarida, ya'ni, shaxslar o'rtasidagi munosabatlar, shaxslar va guruhlar o'rtasidagi yoki guruhlar va guruhlar o'rtasidagi munosabatlarda qo'llaniladi (Garna. 1996, 65-bet). Biroq konfliktni sotsiologik tahlil qilishda faqat obyektiv va ziddiyatli tuzilmaviy munosabatlar diqqat markazida bo'ladi. Shu bilan birga, g'azab, nafrat, antipatiya, qasos olish istagi va boshqalar kabi subyektiv his-tuyg'ular obyektiv va tizimli qarama-qarshi munosabatlar emas, shuning uchun ular konflikt nazariyasi tahlilining tashvishi emas. Misol uchun, odamlar bir-biri bilan do'st bo'lishlari mumkin, garchi obyektiv narsalar ularni ajratib turadi. Boshqa tomondan, hech qanday obyektiv asos ularni ajratmasa ham, odamlar bir-biriga dushmanlik qiladilar (Veeger. 1993, 212-bet).

Konfliktlar nazariyasi funksional, strukturaviy nazariyaning paydo bo'lishiga reaksiya sifatida paydo bo'ldi. Ushbu konflikt nazariyasining eng ta'sirli fikri yoki asosi Karl Marksning fikridir. 1950–1960-yillarda konfliktlar nazariyasi tarqala boshladi hamda konfliktlar nazariyasi strukturaviy-funksional nazariyaga muqobil variantni taqdim etadi.

Marks o'sha davrdagi sinfiy jamiyat va uning kurashi haqidagi asosiy tushunchani ilgari surdi. Marks sinfiylik nazariyasiga ko'p ta'rif bermadi, lekin u yashagan 19-asr Yevropadagi jamiyat kapitalistik sinf (burjuaziya) va proletariat sifatida kambag'al ishchilar sinfidan iborat ekanligini ko'rsatdi. Bu ikki sinf iyerarxik ijtimoiy tuzilishda, buning oqibatida burjuaziya ishlab chiqarish jarayonida proletariatni ekspluatatsiya qildi. Bu ekspluatatsiya proletariat ichida soxta ong mavjud ekan, ya'ni, taslim bo'lish, vaziyatni qanday bo'lsa shunday qabul qilish harakatlari saqlanib qoldi va davom etdi. Proletariat va burjuaziya o'rtasidagi keskinlik katta ijtimoiy harakatga, ya'ni inqilobga olib keldi. Bu keskinlik proletariat burjuaziyaning ularga qarshi ekspluatatsiya qilinishidan xabardor bo'lganda yuzaga keladi. Ushbu misollarni keltirar ekanmiz, konflikt nazariyasining bir nechta asosiy taxminlari mavjud, xususan:

A. Konfliktlar nazariyasi strukturaviy-funksional nazariyaga ziddir, bunda funksional tuzilmaviy nazariya jamiyatdagi tartibni ta'kidlaydi. Konfliktlar nazariyasiga ijtimoiy tizimlardagi kelishmovchilik va nizolar kiradi.

B. Konflikt nazariyasi jamiyat har doim ham tartibli bo'lmazligini ko'rsatadi. Buning isboti shundaki, har qanday jamiyatda ziddiyatlar yoki keskinliklar bo'lishi kerak.

D. Konflikt nazariyasi jamiyatda hukmronlik, majburlash va hokimiyat mavjudligini anglatadi.

E. Konflikt nazariyasi turli hokimiyatlarni tahlil qiladi, bu turli hokimiyatlarning nazorat va bo'ysunishga olib keladi. Superordinatsiya va bo'ysunish o'rtasidagi farq manfaatlar farqi tufayli nizolarga olib kelishi mumkin

F. Konflikt nazariyasi konflikt ijtimoiy o'zgarishlar uchun zarurligini bildiradi. Strukturaviy-funksional jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar doimo muvozanat nuqtasida sodir bo'ladi, deb aytsa, konflikt nazariyasi esa ijtimoiy o'zgarishlarni manfaatlar to'qnashuvi deb biladi.

Shunga qaramay, jamiyat ma'lum bir nuqtada o'zaro kelishuvga erishishi mumkin. Mojaroda muzokaralar doimo konsensus yaratish uchun olib boriladi. Bundan tashqari, konflikt nazariyasiga ko'ra, jamiyatni "majburlash" birlashtiradi. Jamiyatdagi muntazamlik, aslida, majburlash tufaylidir. Shuning uchun konflikt nazariyasi hukmronlik, majburlash va hokimiyat bilan chambarchas bog'liq. Konflikt nazariyasining markaziy tushunchalari hokimiyat va pozitsiyadir.

Konflikt, shuningdek, ijtimoiy tabaqalanish va resurslar dinamikasi bilan ham bog'liq. Kollinz konfliktning paydo bo'lishini ijtimoiy tabaqalanish va resurslar dinamikasi tufayli tushuntiradi. Biroq kollinz tabaqalanish tuzilmasi tomonidan shakllangan ziddiyatni hukmronlik intensivligi bilan, guruhlarini tashkil-lashtirish va safarbar qilishga undaydigan resurslarga urg'u beradi. Ijtimoiy tabaqalanishdan ko'rinadigan qarama-qarshilik – bu hukmronlikning tuzilishi va intensivligi orqali, guruhlarini resurslarni boshqarish bilan tashkillashtirish va safarbar qilishga qaratilgan.

Qarama-qarshilik jamiyatning kundalik ijtimoiy tartibidagi har bir ijtimoiy o'zaro ta'sirda keng tarqalgan ijtimoiy dinamikaning bir qismidir. Mojaro ijtimoiy muvozanatni yaratish jarayoni uchun asosiy omil bo'lishi mumkin. Agar konfliktni adekvat tarzda boshqarish mumkin bo'lsa ham, u odamlar hayotida muntazam ravishda kuzatilishi mumkin. Jamiyatdagi ziddiyat yaxshi sharoitlarni keltirib chiqarishi ham mumkin, chunki u barcha tomonlar uchun foydali deb hisoblangan yechimlarni topmasdan davom etsa, jamiyatning o'zgarishi va yomon sharoitlarni rag'batlantiradi. Shuning uchun mojaroning sababini izlash va uni bartaraf etish kerak (Garna. 1996, 66-bet).

Qarama-qarshilik anarxiya va shafqatsizlik harakatlari bilan kechsa, g'ayrioddiy bo'lib, odamlar hayotining halokati manbai bo'ladi. Bu "Yangi tartib" hukumatining oxiri va islohot davrining boshida bo'lgani kabi ko'rsatildi. Hatto yaqinda, kimdir ommaviy axborot vositalaridagi yangiliklarga diqqat bilan qarasa, vaqti-vaqti bilan shiddatli ommaviy to'qnashuvlar ko'rinishi tobora rang-barang va zamonaviy bo'lib bormoqda. Bu o'zgaruvchi mojaroning noto'g'ri tomoni bo'lib, uni yengish strategiyasini jamiyatni o'zgartirish uchun kuchga aylantirishni talab qiladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlarning o'zgarishi individualizmning rivojlanishiga olib keldi. Shuningdek, jamiyat tuzilishidagi o'zgarishlar jamiyatning har bir muammoni hokimiyatga ko'proq topshirishiga olib keldi. Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa madaniy elementlardagi o'zgarishlar parchalanishi mumkin. Bu haqiqat ijtimoiy o'zgarishlar odamlar hayotining dinamikasiga rang berishini anglatadi. Unga hamroh bo'lgan ijobiy ta'sir, haqiqatan ham, jamiyatning umididir. Shunga qaramay, jami-

yat ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy o'zgarishlarni qay tariqa qabul qilishni va murosamo'lini tanlay olishni hisobga olishi dardkor.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot konfliktning ijtimoiy o'zgarishlarga munosabatini ko'rsatish va ochib berishning argumentativ nuqtai nazari hayotiy va inson omiliga bog'liq degan xulosaga keladi. Ba'zi ekspertlar doimiy mojarolar yoki to'qnashuvlarni ijtimoiy o'zgarish emas, balki ijtimoiy ziddiyat deb hisoblashadi. O'zgarish faqat konfliktning natijasi bo'lganligi sababli, bu qarash ziddiyat tariqasida davom etsa, o'zgarish ham sodir bo'ladi degan taxminga asoslanadi. To'qnashuv ijtimoiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin, chunki ishtirok etgan ishtirokchilar odamlarning o'zlari sanaladi. Umuman olganda, ijtimoiy nizolar 3 ta narsadan kelib chiqishi mumkin: fikrlashdagi farqlanish, manfaatlarning o'zaro to'qnashuvi hamda ijtimoiy hasad. Mojarolar ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy ziddiyatning ijobiy ta'siri ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradigan siyosat o'zgarishlari, integratsiya va ichki guruh birdamligini kuchaytirish, yanada dinamik jamiyatni ishga tushirish kabi ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantirishdan iborat. Konfliktlar jamiyatdagi turli qarashlar va manfaatlarning to'qnashuvini ko'rsatadi. Bu o'quvchilarga ijtimoiy o'zgarishlarni turli nuqtai nazarlardan tushunishga yordam beradi. Badiiy adabiyotdagi konfliktlar ijtimoiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq, adabiyot esa ijtimoiy muammolarni aks ettiradi, ularga javob beradi, hatto ularga ta'sir qiladi. Konfliktlar orqali o'quvchilar ijtimoiy o'zgarishlarni chuqurroq anglaydi va o'zlari ham o'zgarishlar uchun harakat qiladilar. Zotan, adabiyot ijtimoiy taraqqiyotning muhim vositasi ekanligini aytishimiz o'rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Abdulsyani. (1992). Nazariya va amaliy sxematik sotsiologiya. Jakarta, Bumi Aksara.
- (2). Appelbaum, R.P. (1970). Ijtimoiy o'zgarishlar nazariyalari. Chikago, Markham.
- (3). Bernard, R. (2007). Zamonaviy sotsiologik nazariya, Jakarta, nashriyot kutubxonasining yutug'i.
- (4). Bennis, W.G. (1989). O'zgarishlarni rejalashtirish. 4-nashr. Nyu-York, Xolt Reynxart va Uinston. Boulding, Kennet E. 1962. Mojarolar va Himoya. Umumiy nazariya. Nyu-York, Harper & Row.
- (5). Burton, J.V. (1969). Mojarolar va aloqa. London, Makmillan.
- (6). Chin, R. va K.D. Benne 1989. Inson tizimlaridagi o'zgarishlarga ta'sir qilishning umumiy strategiyalari, in: Warren G.
- (7). Garna, J.K. (1992). Ijtimoiy o'zgarishlar nazariyalari. Bandung, Unpad.
- (8). Siregar, I., Rahmadiyah, F., Siregar, A.F.Q. (2021). G'azablangan, xavotirli va qo'rqinchli shizofreniya bilan og'riqan bemorlarning hamshiralik jarayonida terapevtik muloqot strategiyalari. Britaniya hamshiralik tadqiqotlari jurnali, 1(1), 13–19. <https://doi.org/10.32996/bjns.2021.1.1.3>

**Qozaqova Sayyora Sobitxon qizi (Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi;
sayyora19900309@gmail.com)**

“BOBURNOMA” SUJETI VA TAVSIFLASH PRINSIPI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Boburnoma” sujeti juda murakkab, bir necha tarmoqqa ega ekanligi, “Boburnoma” sujetini tarkibiy jihatdan adabiyotshunoslikda zamonaviy metod hisoblangan struktural poetika talablari asosida o'rganish asarning obrazlar olamini tushunish va uning poetikasiga doir ilmiy xulosalar qilishga asos bera olishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: “Boburnoma” sujeti, hayotiy-tayyor syujetlar, xronikal sujet, tugun, kulminatsiya, peyzaj, sujet strukturalasi.

Казакова Сайёра Сабитхан кызы (исследователь Наманганского государственного университета; sayyora19900309@gmail.com)

СЮЖЕТ И ПРИНЦИП ОПИСАНИЯ “БОБУРНОМЫ”

Аннотация. В данной статье речь пойдет о том, что сюжет “Бабурномы” очень сложен, имеет несколько ветвей, изучение сюжета “Бабурномы” структурно на основе требований структурной поэтики, считающейся современным методом в литературоведении, способно дать основание для понимания мира образов произведения и сделать научные выводы о его поэтике.

Ключевые слова: сюжет “Бабурнома”, жизненные-готовые сюжеты, хроникальный сюжет, узел, кульминация, пейзаж, сюжетная структура.

Kazakova Sayyora (Namangan State University research fellow; sayyora19900309@gmail.com)

THE PLOT AND DESCRIPTION PRINCIPLE OF “BOBURNOMA”

Annotation. this article tells about the fact that the plot of the “Boburnoma” is very complex, has several branches, the plot of the “Boburnoma” is structurally based on the requirements of structural

Poetics, which are considered a modern method in literary studies, which can give reason to understand the universe of images of the work and make scientific conclusions about its poetics.

Keywords: “Boburnoma” plot, life-ready plots, chronic plot, knot, culmination, landscape, plot structure.

Kirish. “Boburnoma” Boburning shoh asari bo‘lishi bilan bir qatorda Markaziy Osiyo, Eron va Afg‘oniston, Hindiston va Pokiston xalqlarining tarixi, madaniyati va badiiyatiga doxil nodir manbadir. Asarning jahon miqyosida e‘tirof etilishiga sabab undagi voqealarning tarixiy jihatdan aniqligigina emas, bu muhtasham asarning tarkiblanishi jihatidan ham mustahkam ilmiy va badiiy asosga qurilganligidir. “Boburnoma” tarkibida mingdan ortiq shaxslar va timsollar mavjud bo‘lib, tarixiy siymolar xarakteri, ijodi namunalari ham tahlil etilgan. “Boburnoma” sujeti va kompozitsiyasini tarkibiy jihatdan adabiyotshunoslikda zamonaviy metod hisoblangan struktural poetika talablari asosida o‘rganish asarning obrazlar olamini tushunish va uning poetikasiga doir ilmiy xulosalar qilishga asos beradi.

Adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyoda Bobur hayoti va ijodi dastlab o‘nlab tazkiralarda qayd etilgan bo‘lishiga qaramay yangi ilmiy asosda professor Fitratning maqola va majmualari, H.Yoqubov, M. Shayxzoda, V.Zohidov ishlaridan tortib, hozirgi kunga qadar jiddiy davom etmoqda. Bobur lirikasi, “Boburnoma” bo‘yicha qator ilmiy maqola va tadqiqotlar yaratilgan.

Biroq Bobur va tasavvuf adabiyoti, xususan, uning naqshbandiylik tariqati hamda uning yirik vakili Xoja Ahror Valiyya bo‘lgan munosabatlari hali yetarlicha tadqiq qilinmagan. “Mubayyin” asari ham endi tadqiq etila boshlandi. Shuningdek, “Boburnoma” asarining ham o‘rganilmagan va tadqiq etilmagan tomonlari talaygina. Mazkur maqolada “Boburnoma” asarining sujeti struktural metod talablari asosida tahlilga tortilmoqda.

Tahlillar va natijalar. “Sujet” – fransuzcha so‘z bo‘lib, “predmet”, “tasvirlanayotgan yoki bayon qilinayotgan narsa”, “asosiga qo‘yilgan narsa” degan ma‘nolarni anglatadi.

Adabiyotshunos I.Sulton badiiy asarda hikoya qilinayotgan voqeaga “sujet”, deb ta‘rif bergan. Ya‘ni, sujet badiiy asarlarning bevosita mazmunini tashkil etgan, o‘zaro bog‘langan va rivojlanib boruvchi hayotiy voqealar tizimidir [1;179-b.].

Har qanday voqea badiiy syujet bo‘lavermaydi. Balki muayyan badiiy konsepsiyaga asoslangan voqealar va xarakterlar birligi syujetni tashkil qiladi. Ayrim asarlarda xarakterlar mantig‘i syujetni boshqarsa, bir xil asarlarda voqealar mantig‘i sujetni tashkil qiladi, xarakterning tarixida voqelik muhim ahamiyat kasb etadi.

“Boburnoma” sujeti juda murakkab, bir necha tarmoqqa ega. Adabiyotshunoslar F.M.Golovenchenko va M.Qo‘shjonovlar badiiy asar sujetida xarakterlar mantig‘i va voqealar mantig‘i bo‘ladi deya ta‘kidlashgan. “Boburnoma”da voqealar mantig‘i yetakchilik qiladi. Sababi asar sarguzasht xarakterida. Asar voqealari Boburning taxtga chiqish voqeasi bilan boshlanadi:

“Tengri taoloning inoyati va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarining himmati birlan seshanba kuni ramazon oyining tarix sekkiz yuz to‘qson to‘qqizda Farg‘ona viloyatida o‘n ikki yoshda podshoh bo‘ldum”[2;34-b.]. Demak, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘n ikki yoshlik paytida Farg‘ona taxtiga o‘tirgan. Bu voqea hijriy 899-yil ramazon oyining beshinchi kuni yuz bergan. Bu vaqt milodiy hisobda 1494-yil 9-iyun seshanba kuniga to‘g‘ri keladi. Demak, syujet voqealarining boshlanish nuqtasi: joyi va vaqti muallif tomonidan asar boshlanmasida aytib ketilmoqda. Yosh Boburning hayot kundaligi va biz tadqiq etayotgan “Boburnoma” matni shunday kirish so‘z bilan boshlanmoqda. Shundan so‘ng, Farg‘ona viloyatining o‘rnashgan joyi, chegaralari, xalqi, katta shaharlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltiriladi. Ya‘ni keyingi voqealarning sodir bo‘lish joyi bilan kitobxonni batafsil tanishtiriladi. So‘ng, 39 yoshida Axsi qo‘rg‘onida jordan yiqilib halok bo‘lgan Umarshayx mirzo voqeasi bayon qilinadi. Aynan shu voqeadan Boburning mashaqqatlarga to‘la hayoti tasviri boshlanadi. Asar voqealari davomida taxt mojarolari, Boburning Samarqand taxtini egallashi, Andijondagi fitnalar, Kobul va Hindiston safarida kechgan voqealar qalamga olinadi.

Asar tarixiy mazmunda bo‘lgani sababli hayotiy-tayyor sujetlar asosida yaratilgan. Shu sababli ham bu asar realistik nasrning eng yetuk namunasi sifatida baholangan. Umarshayx mirzo, Boysunqur mirzo, Sultonali mirzo, Shayboniyxon hayoti voqelari, shuningdek, Xurosonda Husayn Boyqaro o‘g‘illari bilan kechgan voqealar yozilajak asar uchun tayyor hayotiy sujet edi. Bobur asarni yozish davomida bu voqealarni birin-ketin ko‘z oldidan o‘tkazadi. Voqelar zanjiri shu qadar mustahkamki, undagi biron-bir halqa uzilsa, voqelar ifodasida noaniqlik paydo bo‘ladi. Shu sababli biron bir yil voqealarini ham tashlab ketib bo‘lmaydi. Misol uchun, qahramon Boburning nima sababdan Hindiston tomonga otlangani voqealarini bilish uchun, uning Farg‘ona va Kobulda kechgan hayoti voqelari bilan tanishish zarur bo‘ladi.

Asar voqealari ketma-ket sodir bo'lganligi uchun xronikal sujet deya olamiz. Asarda sujet un-sur-laridan hisoblangan ekspozitsiyaning o'rni juda ahamiyatli. Deyarli har bir voqea oldidan muallif batafsil tushuntirish beradi. Xususan, Andijon, Samarqand va uning atrofi, Xuroson, Kobul, Hindiston mamlakatlari tasviri fikrimning dalilidir. Birgina misol, bosh qahramon Bobur o'z yurishlar davomida Hindiston o'lkalaridan biri Chanderiyda kechadigan voqealar oldidan quyidagi tasvirni keltiradi: *“Chanderiy burun Mandav podshohlarig'a taalluq ekandur, Sulton Nosiriddin o'lganidin so'ng, bir o'g'li, Sulton Mahmudkim, holo Mandavdadur, Mandavg'a va ul navohig'a mutasarrif bo'lur. Yana bir o'g'li Muhammadshoh otliq Chanderiyni iliklab, Sulton Iskandarg'a iltijo kelturur. Sulton Iskandar ham qalin cheriklar yiborib, aning homiysi bo'lur. Sulton Iskandardin so'ng Sulton Ibrohimning zamonida Muhammadshoh o'lar, Ahmadshoh otliq kichikkina o'g'li qolur. Sulton Ibrohim Ahmadshohni chiqarib, o'z kishisini qo'yar. Raana Sangaa Ibrohimning ustiga cherik tortib, Do'lpur kelganda beklari muxolafat qilurlar. Ushul fursatta Chanderiy Sangaaning iligiga tushar. Mediniy Rav otliq ulug' mu'tabar kofirg'a berur. Bu fursatta to'rt-besh ming kofir bila Mediniy Rav Chanderiy qo'rg'onida edi. Oroyishxonning oshnolig'i bor ekandur. Oroyishxon bila Shayx Guranni yiborib, inoyat va shafqat so'zlari aytili. Chanderiyning mubodallasig'a Shamsobodni va'da qilildi. Bir-ikki e'tiborliq kishisi chiqti. Bilmon, e'timod qilmadimu, yo qo'rg'onig'a ishondimu, isloh ishi somon topmadi.*

Chanderiy qo'rg'onig'a zo'r'lamoq azimati bila seshanba sabohi, jumodiul avval oyining oltisida Bahjatxonning havzidin ko'chub, qo'rg'onning yaqinidag'i o'rta havzning yoqasida tushuldi” [2:234-b]. Bu batafsil lavhani o'qigandan so'ng, kitobon ko'z o'ngida Chanderiy tog'lari bag'ridagi Chanderiy qo'rg'oni va bu qo'rg'onni egallash niyatida harakat qilayotgan Bobur siymosi gavdalanadi.

Bilamizki, badiiy asar syujetida tugun alohida ahamiyatga ega. Tugun o'quvchini asar ichkarisiga yetaklaydi. “Boburnoma” voqealar shu darajada jadalki, buni asardagi tugunlar sonining ko'pligi bilan izohlash mumkin. Sababi, bosh qahramon, ya'ni hikoyasi qahramon hayoti hamisha alg'ov-dalg'ovlarga to'la bo'lgan. Asardagi birinchi tugun Umarshayx mirzoning o'limi. Aynan shu voqea tufayli asarga Bobur shaxsi kirib keladi. Uning alg'ov-dalg'ovlarga to'la hayoti aynan shu voqea sabab boshlanadi. Uning hukmdorlik faoliyati bilan bog'liq hodisalardan voqealar rivojlanib boradi. Dastlab, Samarqandga intilish, shu intilish sabab Andijondan ayrilish, so'ng har ikki yurtidan ham mahrum bo'lib, Kobul, Hind mamlakatlari-ga yuz burish bular voqealar zanjirining asosini tashkil qiladi.

Asar voqealarini kuzatish jarayonida bir nechta kulminatsion nuqtalarni ko'rish mumkin. Xususan, Boburning o'limdan qolish lavhasi. Bunday holat juda ko'p bor yuz beradi. Dastlab, Samarqandda 100 kun podshohlik qilgan paytlari bir o'limdan qolgan bo'lsa, so'ngra sarson sargardonlikda yurgan kezlari ana shunday holat kuzatiladi. Shuningdek, yurtidan ajaralib sarson sargardonlikda yurgan Bobur hayoti hijriy 908, milodiy 1502–1503-yillarda ham ana shunday voqea yuz beradi. Tanbal qo'shinlaridan yengilgan Bobur hayoti xavf ostida qoladi. Bobur oz odam bilan chekinishga majbur bo'ladi. Ular Sang suvining yu-qorisiga yetganlarida faqat sakkiz kishi qoladilar. Oxiri Bobur bir o'zi qoladi. Shu payt unga ikki dushman yaqinlashadi. Bular: Bobo Sayromiy va Banda Ali bo'ladilar. Bobur tog' tomonga qarab boraveradi. Shunda ular: *“Mundoq etib qayon borasiz? Jahongir Mirzoni tutib keltirdilar. Nosir Mirzo ham ularning qo'liga tushgan”*, deyilar. Bobur javob bermay, tog' sari boraveradi. Oxiri, kech bo'ladi. Bobur toqqa yetib, bir tosh ortiga o'tadi. Ular orqadan yetib kelishib, ont ichishib Sulton Ahmadxon Boburni podshoh qilishini aytishadi. Oxiri har uchulasi tuni bilan yo'l bosib, G'avo yo'liga boradilar. Yo'ldan adashadilar. Ertasi kun bir yaylovda otlarni o'tlatib, turganlarida G'avoning boshlig'i Qodirberdi ko'rinadi. Uni biror narsa keltir-moq uchun qishloqqa yuboradilar. Ammo u qaytmaydi. Bular Karnon yaqinidagi xilvat bog'larga borib ber-kinadilar. Shunda shayx Boyazidbekning odami Boburni yo'qlab keladi. Uni Tanbal huzuriga eltmoqchi bo'ladi. Bobur o'limga rozi bo'lib turganda to'satdan o'n-besh-yigirma otliq kirib kelalar. Ular Boburning sadoqatli odamlari Qutluq Muhammad Barlos va Boboyi Pargariy va ularning yigitlari bo'ladi. Bu safar ham qahramonimiz bir o'limdan qoladi. Hikoyachi qahramon tilidan aytib berilgan bu voqea har qanday o'quvchini zo'r hayajonga soladi. Endi buyog'i nima bo'larkin, deya o'ylantiradi. Voqealar zanjiridagi bu voqea Boburning Kobul tomonlarga bosh olib ketishiga sabab bo'ladi.

Eng asosiy kulminatsiya Malika Bayda tomonidan Boburning zaharlanish voqeasidir. Sujet voqeala-ri, asosan, Andijon, Samarqand, Toshkent, Xuroson, Kobul va Hindistonda bo'lib o'tadi. Asar voqealari da-vomida ham turli obrazlarga chizgi va xarakteristika berib o'tiladi. Xususan, Sulton Ali mirzo, Zuhrebegim, Dilovarxon, Qosimbek kabilar.

Adabiyotshunoslikda peyzaj xususida turli qarashlar mavjud. Ko'pchiligida peyzaj tabiat tasviri eka-ni ta'kidlanadi. Shuningdek, ba'zi olimlar peyzajni sujet elementi deb qarasa, ayrim olimlar esa kompo-

zitsiya tarkibi sifatida e'tirof etishadi. Ba'zi qarashlarda peyzajning tarkibiy qismi sifatida interyer ham sanab ketilgan.

Bobur asar voqealari bo'lib o'tayotgan joy manzaralarini ham mohir rassomlardek tasvirlaydi. Shuningdek, ayrim joy nomlarining etimologiyasini ham aytib o'tadi. Xususan, "Xo'jand bila Kandibodom orasida bir dashte tushubtur, Xodarveshg'a mavsumdur. Hamisha bu dashtta yel bordur. Marg'inong'akim, sharqidur, hamisha mundin yel borur. Xo'jandg'akim, g'arbidur, doyim mundin yel kelur: tund yellari bor.

Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo'lukub, bir-birini topolmay "Ho darvesh", "Ho darvesh" deya-deya tamom halok bo'lurlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar [2;36-b.].

Ko'rinadi, Bobur joy nomini tasvirlash bilan birgalikda, u joy haqida, ya'ni, joy nomining kelib chiqishi va xosiyati haqida ham tushuntirish berib o'tadi.

Xulosalar. Demak, asarning sujet strukturasi boshqa tarixiy mazmundagi asarlardan tubdan farq qilib, o'ziga xos qurilish va mantiqqa ega. Bu sujet elementlarining joylashuvi va sujet voqealarining berilishida ham ko'zga tashlanadi. Xullas, asar sujeti va sujetni tashkil qilgan voqealar kitobxon ko'z o'ngida salkam qirq yillik tarixni jonlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). И.Султон. Адабиёт назарияси, Т., 1980, 179-бет.
- (2). Захириддин Муҳаммад Бобур. "Бобурнома". Т., "Шарқ", НМАК, 2002.
- (3). Иброҳимов А. "Бобурнома" – буюк асар. Т., Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000.
- (4). Лотман Ю.М. Структура художественного текста. Об искусстве. СПб., "Искусство – СПб", 1998.
- (5). Ёкубов И. Структурал поэтика имкониятлари. "Ўзбек тили ва адабиёти", 2006, 3-сон.
- (6). Ҳаққул И. Бадий матн ва таҳлил муаммолари. "Ўзбек тили ва адабиёти", 2009, 1-сон.
- (7). Мелиев С. Структурализм ва структур таҳлил ҳақида. "Ўзбек тили ва адабиёти", 2008, 2-сон.
- (8). Қудратуллаев Ҳ. "Бобурнома" ва тарих. "Тафаккур", 2001, 6-сон.

Qarshibayeva Uljan Davirovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti professori,
filologiya fanlari doktori; e-mail: k.uljan70@mail.ru)

BALZAK ASARLARI QAHRAMONLARI TAQDIRIGA IJTIMOIIY MUHIT TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Balzakning ikki "Gorio ota" va "Dahriyning ibodati" asari bosh qahramonlari Gorio ota va Deplen obrazlari qiyosiy o'rganilgan. XIX asrdagi ijtimoiy muhitning qahramonlar taqdiriga ta'siri ochib berilgan. Bir ijtimoiy muhit ta'siridan inqirozga yuz tutgan va yuksaklikka erishgan qahramonlar taqdiri tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: xarakter, individual xususiyat, ijtimoiy muhit, obraz, qahramon, e'tiqod, din, dahriy, realizm.

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ НА СУДЬБЫ ГЕРОЕВ ПРОИЗВЕДЕНИЙ БАЛЬЗАКА

Аннотация. Эта статья представляет собой сравнительное исследование характеров отец Горю и Деплена, главных героев двух произведений Бальзака "Отец Горю" и "Обедня безбожника". Раскрывается влияние социальной среды 19 века на судьбы героев. Анализу были подвергнуты судьбы героев, переживших кризис от влияния одной социальной среды и достигших высот.

Ключевые слова: характер, индивидуальная черта, социальное окружение, образ, герой, вера, религия, атеист, реализм.

THE INFLUENCE OF THE SOCIAL ENVIRONMENT ON THE FATE OF THE CHARACTERS IN BALZAC'S WORKS

Annotation. This article is a comparative study of the characters of Father Goriot and Desplaines, the main characters of two works by Balzac "Father Goriot" and "Mass of the Atheist." The influence of the social environment of the 19th century on the fate of the heroes is revealed. The fates of the heroes who survived the crisis from the influence of one social environment and reached heights were analyzed.

Keywords: character, individual trait, social environment, image, hero, faith, religion, atheist, realism.

Kirish. Har bir badiiy asar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlilga tortilar ekan, albatta, badiiy asarning shakl va mazmun jihatdan mukammalligi, asosan, uning sujet va kompozitsion muvofiqligida namoyon bo'lishi kuzatiladi. Yaratilayotgan badiiy ijod namunasi o'z-o'zidan aynan bir davrning dolzarb voqeligini asosiy g'oya sifatida yoritadi, muammolarini ilgari suradi va o'z g'oyasiga singdiradi. Davrning

o'ziga xos xususiyatlarini o'zida namoyon qilgan shaxslar esa davr qahramonlari sanaladi, ularni badiiy asar g'oyasida obrazli yaratish orqali muallif yuzaga chiqadi.

Adabiyotlar tahlili. Fransiya nashr etilgan va O.de Balzackka bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar ichida, birinchi navbatda, P.Barberisning "Balzak va asr kasalligi" (1970) kitobini ta'kidlash lozim. Bunga yozuvchining tarjimayi holi, ijodi, tarixiy voqealar va Fransiya XIX asrning birinchi yarmida adabiy jarayonda yuz bergan voqealarni keng kontekstda joylashtiradi [8].

D.N.Freyning ta'kidlashicha, "personajlar asarni yaratuvchi materialdir, ...qiziqarli asarni yozish uchun yorqin, kitobxon tasavvurida yaqqol namoyon bo'ladigan personajlarni yaratish zarur". Badiiy asarda har bir obraz o'ziga xos xarakterga ega. Ushbu xarakterlar bir nechta uning portreti, nutqi, ichki olami, harakatlari, boshqa personajlar bilan munosabatlari va muallifning asar g'oyasi doirasida qahramonlari dunyosini ochib berishi kabi ko'rinishda shakllanadi [6;46-b.].

Buyuk adib o'zining muazzam "Inson komediyasi"ga yozgan so'zboshisida shunday ta'kidlagandi: "Fransuz jamiyati o'zi tarixning yaratuvchisi bo'lib chiqdi, menga esa uning kotibi bo'lish vazifasi nasib etdi. Ehtimol, men shuncha tarixchilar tomonidan unutilgan tarix, ya'ni xulqlar tarixini yozib chiqishga muvassaf bo'larman. Men ko'p bardosh va jasorat yig'ib, nasib bo'lsa, XIX asr Fransiya haqidagi kitobimni oxiriga yetkazarman" [7].

Balzack asarlarida xarakterlar o'ta hayotiy bo'lib, yorqin chizilgandir. Yozuvchi biron-bir hikoyada qahramon xarakterini to'lig'icha tarixi bilan yoritmaydi, uning rivojlanib borishi bilan butunlay tafsilotlari bilan bermaydi. Ta'kidlash lozimki, qahramonlar psixologiyasini tasvirlaganda, aniqrog'i, ularning xatti-harakatini psixologik jihatdan ochib berganda, adib biror joyda noo'rin tafsilot, sababsiz cheklovlariga o'rin qoldirmaydi. U asosli qandaydir aniq detal bilan yoki ayrim harakatlar yordamida xarakterni ochib beradi.

G.Lukachning fikriga ko'ra, Balzak badiiy obrazlarida ichki, chuqur muntazamlik mavjud bo'lib, u o'z manfaatlari va ehtirolariga ega bo'lgan mutlaqo mustaqil tirik odam. Balzakning badiiy obrazlari romanning asosiy yo'nalishi bilan bog'liq. Butun tugallangan qahramonlari murakkab ijtimoiy muhitda yashaydi. Balzak romanlarida badiiy obrazning tobora ko'proq yangi xususiyatlarining paydo bo'lishi yangi narsani ochib bermaydi, balki sujetni rivojlantirishga xizmat qiladi. Muallif tomonidan mohirona yaratilgan obrazlar tizimi asar asosidagi falsafiy muammolarni, iloji boricha, mukammalroq ochib berishga imkon beradi. Har bir obraz asarda tasvirlanganidek bir ma'noli emasligini tushunish muhim. Balzak qahramonlari hech qachon tasodifiy xususiyatlarga ega emas, chunki ularning ma'lum bir vaqtda, hal qiluvchi daqiqalarda ham ahamiyatga ega bo'lgan biror-bir xususiyati yo'q [4].

Tadqiqot metodologiyasi. "Abadiy obraz" tushunchasi adabiy jarayonda shakllangan va shu maktab vakillari A.N.Veselovskiy, A.Aarne, T.Benfey ishlarida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, turli xil mavzularda I.M.Nusinov, E.M.Meletinskiy kabi olimlarning tadqiqotlarida aks etgan nazariy qarashlari xarakterlidir. Jan Montaldo, Moris Dryuon, Filipp Tesson, Alen Shevalelarning mavzuga doir maqolalari "Figaro" gazetasida nashr qilingan. Bu manbalar mavzuni o'rganishda poydevor vazifasini o'taydi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda ushbu tushuncha M.Baxtin, P.Berkov, A.Volkov, A.Nyamtsu, D.S.Lixachev, A.F.Losev, M.N.Xolbekov, M.Ahmedova va boshqa bir qancha olimlar ishlarida kuzatiladi. O'limas qahramonlar bir asardan ikkinchisiga o'tib yangi hayot, yangi g'oya va estetik funksiyalarni bajaradi.

Tahlillar va natijalar. Balzak "Dahriyning ibodati" (La Messe de l'athée 1836) hikoyasida bosh qahramon sifatida jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan shifokor yuksak ehtiromga ega bo'lgan Deplen hayotini tasvirlaydi. Ushbu hikoyadagi uchta qahramondan bittasi "Inson komediyasi"dagi bir qancha asarlar bilan bog'liq, u yerda u, ko'pincha, kichik epizodlar yoki hamrohlar rollarini o'ynaydilar.

Deplen birinchi marta "Dahriyning ibodati" hikoyasida bosh qahramon sifatida paydo bo'ladi. Ushbu obraz o'zida insoniy fazilatlarini barcha narsadan, hatto o'zining qarashlari hamda e'tiqodidan ham ustun qo'rganini ko'rsatuvchi asar qahramonidir. Bu qahramon o'zini dahriy deb hisoblaydi:

Dahriylar va dindorlar orasida davom etib kelayotgan azaliy kurashga Deplen ham befarq bo'lmay, allaqachon ikkilanishni yig'ishtirgan edi. Deplenda bundan boshqa bir e'tiqod bo'lishi mumkin emasdi. U yoshlik davridanoq butun tirik mavjudotning gultoji hisoblangan odamzodning umr kechirishi va vafotidan so'nggi holati haqidagi haqiqatni bilib ulg'aydi... [1;2-b.].

Balzackning "Inson komediyasi"ga kiruvchi yana bir asari "Gorio ota" romanidagi Gorio ota esa o'z davrining obro'li insonlaridan biri edi. Bu qahramon jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan inson obrazidir. Aynan uning keksalikdagi taqdiri qizlari tomonidan yaratilgani, qizlari yashash faqat kiborlar davrisida deb o'ylab, boylikga ruju qo'yishi, ularning ma'naviy zaifligi, axloqsizligi Gorio otani g'ariblikka g'arq qildi.

Balzackning "Gorio ota" va "Dahriyning ibodati" asarlarida bosh qahramonlar taqdiriga ta'sir etgan Gorio ota qizlari va Deplenga yordamini ayamagan Burja haqida fikrlarni keltirish orqali asar voqealari ri-

voji davom etadi. Gorio ota va Deplen obrazlarining hayotga qarashlari, qadriyatlar va inson tabiati haqidagi tushunchalardagi farqlar aniq tasvirlangan.

1. Gorio ota obrazi – bu oilaga, ya’ni, qizlariga bo’lgan muhabbat va shaxsning bu yo’lda qurbonlik ramzi. U o’z farzandlari uchun barcha narsani qurbon qilishga tayyor. Uning muhabbati va mehri, farzandlarining baxtli bo’lishi uchun o’zini qurbon qilishida namoyon bo’ladi.

2. Deplen obrazi – bu materializm va ma’rifatparvarlik ramzi. U o’z kasbiy faoliyati muvaffaqiyatni va shaxsiy manfaatlarni birinchi o’ringa qo’yadi. Uning maqsadi – jamiyatdagi mavqeyini oshirish va unga yoshligida, qiynalgan davrlarida moliyaviy hamda ma’naviy ko’mak bergan Burjaning orzularini ro’yobga chiqarish.

Gorio ota o’z farzandlariga mehnatni ortig’i bilan bergan ota, evaziga oddiy e’tiborni ham kutmagan shaxs sifatida ajralib turadi. Uning hayoti, farzandlarining moliyaviy orzularini amalga oshirishdan iborat. Bu esa uning shaxsiy hayoti, orzu-umidlarini yo’qqa chiqaradi va umrining so’ngida moddiy va ma’naviy mehrga zor bo’lib dunyoni tark etadi.

Gorio ota, farzandlari uchun barcha narsani qurbon qiladi va oxir-oqibatda fojiali taqdirni qarshi oladi. Deplen, moliyaviy muvaffaqiyatga erishadi, insoniy aloqalar va ma’naviy qadriyatlarni ham saqlab qoladi.

Hayotning eng muhim tamoyillarini bu erdan topish mumkin, faqat ularni vayron bo’lgan buzilgan ma’noda. Balzak mavjudlik uchun shafqatsiz kurash, zavqqa intilish, insonni charchatadigan va vayron qiladigan hayot g’oyasi bilan qo’lga kiritilgan burjua shaxsining mohiyatini ajoyib tarzda tushundi. Xohish va qodir bo’lish-hayotning bu ikki shakli burjua jamiyati amaliyotida, har qanday axloqiy qonunlar va ijtimoiy tamoyillardan tashqarida amalga oshiriladi, faqat cheklanmagan egoizm tomonidan boshqariladi, bu shaxs va jamiyat uchun bir xil darajada xavfli va halokatli [5;83-b.].

Shunday qilib, Deplen odam jismida markazlar mavjudligini ta’kidlab, jonning abadiyligiga hech qanday asos topilmaganligini tasdiqladi. Bu dalil orqali u Xudo haqidagi dindorlar qarashlarini tahqirlamasam ham, o’z dahriylik qarashlarini ma’qullagan edi. Aytishlariga qaraganda, bu mashhur jarroh boshqa marhum daho insonlar kabi chalg’imay dorilbaqoga rixlat qilgan ekan [10].

Yuqoridagi hikoyadan keltirilgan parchada Deplen aql-idrokda ham falsafiy bilimlarda ham keng tafakkurli individual xarakterga ega bo’lgan obrazdir. Ijtimoiy muhit, mavjud jamiyat ushbu qahramonni dahriy qilib qo’yganini ko’rish mumkin.

...Pulni bir burda nondan ham ko’ra ko’proq chiroq yog’iga ishlatardim. Tun bo’yi ishlaganim uchun kechasi bilan yoritib turadigan chiroq yog’lari xarajatlarini ovqatlarimga ketadigan chiqimlardan qimmatga tushardi... [1;9-b.].

Ushbu parchada Deplenning qashshoqlik botqog’idan chiqishning yagona yo’li “kuchli bilim va etuk mutaxxasis” bo’lish ekanligini tushungani va bor mablag’ini ilm-fanga bag’ishlagani shafqatsiz jamiyat ustidan g’alabasi edi. Gorio ota esa buning aksi, mablag’ini qizlarining hashamatli hayoti va ortiqcha dabdabalarga sarflaganida.

Balzak kichik bir hikoyada shunday qahramonni yarata olganki, u dahriy bo’lsa-da, hech bir vaziyatlarda insoniy fazilatlarini yo’qotmagan. Agar insonga uning e’tiqodlari taskin beradigan bo’lsa, o’sha vaziyatlarga ham tayyor bo’lgan Deplenday dahriy hayotda o’rnini topishi va yetuk jarroh bo’lishiga sababchi bo’lgan shaxs uchun ibodatni ham bajargan. Bu shaxsning o’z qarashlari ustidan g’alabasidir.

“Ey Xudo, odamlar o’lgach, sening maskaningga boradigan taqvador odamlar orasida Burjani ham mavjudligini unutma, bechora duchor bo’lgan azoblaridan qutulishi va tezroq jannatga yo’l olishi uchun ko’magingni darig’ tutma, barcha qiynoqlaringni menga bergin”, deb iltijo qilardim. Xudo xolis, U rahmdil! Bordi-yu Xudo menga Burja e’tiqodiday bir e’tiqod ato etguday bo’lsa, butun boyligimni uning yo’liga sarflagan bo’lardim [1-b;14–15-b.].

Balzak badiiy asarlarini shunday yaratganki, muallif ma’lum bir sinfni, ma’lum bir ijtimoiy qatlamni ifodalovchi ko’plab odamlarga xos bo’lgan asosiy xususiyatlar bilan bir qatorda, ma’lum bir shaxsning o’ziga xos individual xususiyatlarini tashqi qiyofasida, nutq jarayonida, kiyinishida, yurish, odob-axloq, imo-ishoralar, hatto ularning ichki ruhiy olami shaklida namoyon bo’lish xususiyatlarini o’zida mujassam etgan.

Faqat Byanshen, Deplen va shunga o’xshash ishchilar samimiy insoniy xislatlarini ko’rsatishga qodir: ularga boylik va oltinning ma’naviyatni emiruvchi kuchi ta’sir qilmagan. Fransuz jamiyatining o’zi tarixchi bo’lishi kerakligini ta’kidlab, o’zini muallifga – kotib roliga aylantirgan Balzak, bir vaqtning o’zida, romanda “ajoyib olam” bo’lishi, yozuvchi davlat arboblari teng bo’lishi kerakligini ma’lum qiladi, chun-

ki u “inson ishlari” haqida ma’lum bir fikrlarni, “tarix falsafasi”ni beradi, shulardan kelib chiqib, “prinsiplarga to’liq sodiqlik” haqida ma’lum bir fikrlarni bildiradi [9].

“Gorio ota”dagi Gorio ota, “Dahriyning ibodati” hikoyasidagi Deplen kabi personajlar taqdirini ijodkor bir makonga, ya’ni “Voke uyi” nomli g’arib bir maskanga joylashtiradi. Makondan ko’rinadiki, barcha qahramonlari ijtimoiy muhit ta’sirida qiynalgan shaxslar edi. Bu qahramonlarning farqli jihatlari shundaki, Gorio ota to’kis hayotdan bu makonga keladi va foniy dunyoni xor bo’lib tark etadi. Deplen esa nochor ahvoldan yaxshi insonlar ko’magida to’kin hayot va yaxshi mavqega erishadi.

Balzakning “Insoniy komediya”sining ulkan badiiy olami, turli janrlarni turkumlashtirish asosida yuzaga keldi. Yozuvchi o’z asarini ta’riflar ekan, quyidagini e’tirof qiladi: “Mening asarim o’z geografiyasi, xuddi shuningdek, o’z genealogiyasi, o’z oilalari, o’z joyi, sharoiti, harakat qiluvchi shaxslari va faktlariga, shuningdek, o’z tamg’asi, o’z dvoryanlari va burjuaziyasi, o’z hunarmandlari va dehqonlari, siyosatdonlari va po’rimlari, o’z armiyasiga, bir so’z bilan aytganda, o’z olamiga ega” [3;36-b.].

Balzakning “Dahriyning ibodati” asarida ham insonning tiriklik chog’ida amalga oshirgan xayrli ishlari natijasi oxiratda o’z ajrini olishi bosh qahramon Deplen ibodati misolida badiiy talqin qilinadi. Deplen ham chinakam vijdonli shaxs edi. Uning e’tiqodi, uning Xudosi va din bo’yicha qonun-qoidasi yo’q edi. Ammo unda aslinsoniylik qonuniyatlari to’la mujassam. O’ziga qilingan yaxshilikni unutmaslik, bu yo’lda har narsaga tayyor bo’lish ham hammaning qo’lidan kelavermaydi.

Tout bourru qu’il était, Desplein serra la main du porteur d’eau, et lui dit:

– “Amène-les-moi tous” [2;16–17 p.].

Deplen qanchalik qattiq qo’l bo’lmasin, qo’lini mahkam qisib:

– Yana og’alaringdan kimki og’risa, huzurimga keltir, dedi [1;4-b.].

Balzak bu erda doktor Deplenning xususiyatini aniq va ta’sirli tarzda tasvirlaydi. “Amène-les-moi tous” (“Barchasini keltiring”) so’zlari uning ishiga, asosiysi, uni shu darajaga etkazgan oddiy “suv tashuvchi”ga bo’lgan cheksiz hurmati ramzi edi.

Doktor Deplenning kasbiy va shaxsiy g’ururi uning ijtimoiy mavqeyi o’zgarishlarini belgilaydi. U Otel-De klinikasidagi tibbiy xizmatlari nafaqat o’z burchi, balki etuk jarroh bo’lishiga ta’sir qilgan insonga e’tiqodini ham ko’rsatadi. “Amène-les-moi tous” (Barchasini keltiring) so’zida yuksak kasbiy mas’uliyat va faoliyatga bo’lgan kuchli ishtiyoqini ifodalagan. U jamiyatdagi ma’naviy va ijtimoiy muhitdagi qadriyatlarni ham yoritadi. Doktorning ishiga bo’lgan sadoqati va insoniy fazilati, bag’rikengligini va o’tmishiga sadoqatini ko’rsatadi.

Xulosa. Gorio ota va Deplen obrazlari Balzakning asarida inson tabiati, oilaviy munosabatlar va ma’naviy qadriyatlar haqidagi tushunchalarni namoyon etadi. Ushbu ikki obraz, insonning hayotidagi muhim narsalarni, ya’ni oila, muhabbat va manfaatlarining o’rnini ko’rsatadi. Bu asarlardagi qiyoslasa arzigulik jihat Gorio ota jamiyatda alohida mavqega ega bo’la turib, frzandlariga muhabbati orqasidan inqirozga yuz tutadi. Deplen esa begona inson (Burja)ning otalarcha yordami bilan eng og’ir vaziyatlardan yetuk shifokor bo’lib shakillanadi va o’ziga beminnat ko’mak bergan kishining qalbi taskini uchun duo qilib, insoniy majburiyatlarini bajaradi. Shaxsning ijtimoiy muhit ta’siriga qaramasdan, irodasi va mehrini o’z o’rnida qo’llay olishiga bo’lgan ruhiy qudratini muallif ikki asar qahramonlari taqdirida kitobxonga yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

(1). Бальзак О. де. “Дахрийнинг ибодати”. “Шарк юлдузи”, рус тилидан Шерали Турдиев таржимаси. Тошкент, 2010, 2-сон, 15-бет. /Users/User/Desktop/Дахрийнинг%20ибодати%20Бальзак.pdf.

(2). Balzac de H. Le messe de l’athée. Collection À tous les vents Volume 425: version 1.01. Paris: La Bibliothèque électronique du Québec, 1836, 42 p.

(3). Бальзак Оноре. Собрание сочинений. В 24-х томах. Т. 1, М., 1960, с. 36.

(4). Лукач Г. Литературные теории XIX века и марксизм. Георг Лукач. М., Гослитиздат. 17 ф-ка нац. Книги треста “Полиграфкнига”, 1937, с. 293; Лукач Г. К истории реализма [1934 – 1936 гг.]. Георг Лукач. М., Гослитиздат, 1939, 372 с.

(5). Французский символизм. Драматургия и театр: пьесы. Статьи. Воспоминания. Письма. Сост., вступ. ст., коммент. В. Максимова. СПб., Гиперион, Гуманит. акад., 2000, 473 с.

(6). Фрэй Д.Н. Как написать гениальный роман. СПб., “Амфора”, 2005, 239 с.

(7). Холбеков М.Н. Оноре де Бальзак ва “Инсон комедияси”. “Жаҳон адабиёти”, 2009, 1-сон, опубликовано 20.03.2015. Ziyouz.uz

(8). Barbéris P. Balzac et le mal du siècle. Contribution à une physiologie du monde moderne: en 2 tomes. Paris: Gallimard, 1970, t. 1, 1799–1829, 1190 p.

(9). <https://www.bibliofond.ru/view.aspx?id=453745>

Rakhimova Dिल्фуза Masharip qizi (TTA Urganch filiali o'qituvchisi; e-mail: dिल्фуза_raximova1@icloud.com)
UILYAM GOLDING ASARLARINI O'RGANISHNING TAMOYILLARI

Annotatsiya. Uilyam Golding asarlarini o'rganish, uning badiiy ijodida Ikkinchi jahon urushining halokatli ta'sirlarini va shaxsiy tajribasini aks ettirishning nozik jihatlarini ochib beradi. Goldingning asarlari, ayniqsa, "Pashshalar hukmdori" romani, urushning ijtimoiy va madaniy sharoitlari bilan chiroqli tarzda bog'langan holda, inson tabiatining noxush qirralarini, vahshiylik va hayotiy iztiroblarni yoritadi. Tadqiqotchilar Golding ijodida shaxsiy xotira va ijtimoiy kontekstning o'zaro ta'sirini ta'kidlab, uning asarlarini tushinishda sotsiologik yondashuvni sinergiya qiladi.

Ushbu maqolada Golding asarlarining yozilish jarayonidagi muammolar, shuningdek, nashr etishda yuzaga kelgan qiyinchiliklar tahlil etiladi. Muallifning o'z asarini qanday qabul qilgani va yozganidan keyingi afsuslanishlari, uning ichki kurashlarini va san'atiga bo'lgan munosabatini tasvirlaydi. Goldingning "Pashshalar hukmdori" asari, avvalambor, o'z vaqtida e'tibor qozona olmagan bo'lsa-da, keyinchalik, butun dunyo bo'ylab o'smirlar va o'quvchilar orasida qiziqish uyg'otdi.

Maqolada Golding asarlarini ijtimoiy va madaniy kontekstda tahlil qilish, shuningdek, uning hayoti va ijodida qanday qilib shaxsiy tajribalariga asoslanganligini o'rganishga katta e'tibor qaratiladi. Goldingning asarlari, urushdan keyingi psixologik iztiroblar va insoniyatning ichki vahshiylikini ochib beruvchi ma'nosi bilan, zamonaviy adabiyotda o'ziga xos o'rin egallaydi. Ushbu tadqiqot, Uilyam Golding ijodi bilan tanishish va uning asarlaridagi mukammallik, ramzlar va tematikalarni ochishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, shaxsiy tajriba, madaniyat, "Pashshalar hukmdori", ijtimoiy kontekst, shaxsiy xotira, badiiy ifoda, vahshiylik, madaniy identitet, nazariy yondashuv, san'at va adabiyot, tahlil, tarjimai hol, jamiyatshunoslik.

Рахимова Дильфуза Машарип кизи (преподаватель Ургенчского филиала ТТА; e-mail: dिल्фуза_raximova1@icloud.com)

ПРИНЦИПЫ ИЗУЧЕНИЯ ТВОРЧЕСТВА УИЛЬЯМА ГОЛДА

Аннотация. Изучение творчества Уильяма Голдинга раскрывает тонкости изображения им в своих художественных работах разрушительных последствий и личных переживаний Второй мировой войны. Произведения Голдинга, особенно роман «Повелитель мух», прекрасно переплетаются с социальными и культурными обстоятельствами войны, освещая неприятные стороны человеческой натуры, жестокость и страдания жизни. Исследователи подчеркивают взаимодействие личной памяти и социального контекста в творчестве Голдинга, усиливая социологический подход к пониманию его произведений.

В статье анализируются проблемы, возникшие в процессе написания произведений Голдинга, а также трудности, возникшие при их публикации. Описывается восприятие автором своего произведения и его сожаления после его написания, его внутренняя борьба и его отношение к своему искусству. Роман «Повелитель мух» Голдинга, изначально не пользовавшийся популярностью в свое время, с тех пор стал хитом среди подростков и читателей по всему миру.

В статье основное внимание уделяется анализу произведений Голдинга в их социальном и культурном контексте, а также исследованию того, как его жизнь и творчество основаны на его личном опыте. Произведения Голдинга, глубоко проникающие в психологические страдания послевоенной жизни и внутреннюю жестокость человечества, занимают уникальное место в современной литературе. Целью данного исследования является знакомство с творчеством Уильяма Голдинга и раскрытие совершенства, символов и тем в его работах.

Ключевые слова: Вторая мировая война, личный опыт, культура, «Повелитель мух», социальный контекст, личная память, художественное выражение, варварство, культурная идентичность, теоретический подход, искусство и литература, анализ, биография, социальные науки.

Rakhimova Dिल्фуза Masharip kizi (TTA Urganch branch teacher; e-mail: dिल्фуза_rakhimova1@icloud.com)
"PRINCIPLES OF STUDYING THE CREATIVITY OF WILLIAM GOLD"

Annotation. The study of William Golding's works reveals the subtleties of his reflection of the devastating effects of World War II and personal experience in his artistic work. Golding's works, especially the novel "Lord of the Flies", beautifully intertwine with the social and cultural conditions of the war, highlighting the unpleasant aspects of human nature, brutality and life suffering. Researchers emphasize

the interaction of personal memory and social context in Golding's work, synergizing a sociological approach to understanding his works.

In this article, Golding The problems in the writing process of his works, as well as the difficulties encountered in publishing, are analyzed. The author's perception of his work and his regrets after writing it, his internal struggles and attitude towards his art are described. Golding's work "Lord of the Flies", although it did not receive much attention at the time, later aroused interest among teenagers and readers around the world.

The article pays great attention to analyzing Golding's works in their social and cultural context, as well as studying how his life and work are based on personal experiences. Golding's works, with their meaning revealing the psychological suffering of the post-war period and the inner savagery of humanity, occupy a unique place in modern literature. This study aims to get acquainted with the work of William Golding and to reveal the perfection, symbols and themes in his works.

Keywords: World War II, personal experience, culture, "Lord of the Flies", social context, personal memory, artistic expression, barbarity, cultural identity, theoretical approach, art and literature, analysis, biography, social science.

Kirish (Introduction). Uilyam Golding – zamonaviy adabiyotning muhim figuralaridan biri bo'lib, uning asarlari Ikkinchi jahon urushi davriga oid shaxsiy tajribalar va ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liq chuqur mazmun keltiradi. 1954-yilda "Pashshalar hukmdori" romanini nashr etganidan beri, Goldingning badiiy merosi urushning yomon oqibatlari va inson tabiatining muammolarini ko'rsatishga qaratilgan. Ushbu asar muallifning o'zining urushdagi tajribalaridan nisbatan shakllangan bo'lib, qahramonlar orqali insoniyatning vahshiyliги va nafratini aks ettiradi.

Golding asarlaridagi ijtimoiy va madaniy kontekst, uning shaxsiy tarixi va urush davrining grim xotiralaridan uzviy bog'liqdir. U o'z asarlarida shaxsiy xotira, madaniy identitet va ichki kurashlarning murakkabligini ko'rsatadi. "Pashshalar hukmdori" romani orqali Golding inson tabiatining zaharli jihatlarini, jinoyat, gorozonlik va azob-uqubatlarni ochib beradi, bu esa o'quvchini chuqur ruhiy tahlil va o'z-o'zini anglash jarayoniga chorlashga yetaklaydi. Uning badiiy uslubi murakkab va qiziqarli bo'lib, ushbu asarda foydalanilgan til va metaforalarning qobiliyati inson ruhining turli qirralarini yoritishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Goldingning asarlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati uning urush davridagi tajribasi, shaxsiy xotira va ijtimoiy kontekst o'rtasidagi aloqalarga alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Golding asarlarining murakkabligi va o'ziga xosligi, asosan, uning shaxsiy hayoti, urush oqibatlari va o'sha davrdagi madaniy muhit bilan chambarchas bog'liq.

Golding asarlarida urush va xotira: Yuqoridagi tadqiqotchilar, Golding ijodida urush davrining shafqatsizligi va uning insoniyatga ta'sirini ko'rsatib o'tgan. Salvatore (2015) o'z tadqiqotida Golding asarlaridagi urushning shaxsiy va jamiyat xotirasiga ta'sirini chuqur tahlil qilib, Pashshalar hukmdori muhiti orqali insonning ichki kurashlari va urush ta'siridagi psixologik jihatlarini ochib beradi.

Madaniy kontekst va ijtimoiy muammolar: Goldingning asarlarida ingliz madaniyati va urushning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari o'rtasidagi murakkab munosabatlar ham o'rganilgan. Brown (2018) tadqiqotida Golding asarlariga sotsiologik yondashuvni qo'llab, urush davrida kelib chiqayotgan ijtimoiy o'zgarishlarga diqqat qaratadi. Bu nuqtayi nazaridan, Golding asarlari urush yeridagi jamiyatda yuzaga kelayotgan muammolarni yorqin cho'rtqichga olib chiqadi.

Qahramonlar va ichki kurashlar. Qahramonlarning shaxsiy iztiroblari va ular orqali ochilgan ichki kurashlar, Golding asarlarining muhim jihatlaridan biridir. Williams (2020) o'z tadqiqotida Golding qahramonlarining ichki kechinmalari va urush sharoitidagi hayotlari qanday qilib ularning tanlovlari va hayotiy yo'lini shakllantirganini ko'rsatadi.

Goldingning badiiy uslubi. Goldingning til va badiiy uslubi, uning asarlarini yanada qiziqarli qiladi. Smith (2019) muallifning murakkab metaforalari, ramzlari va o'yinli tili orqali o'quvchilarga qanday qilib qahramonlarning ruhiy holatini yetkazish imkoniyatini ko'rsatadi.

Ushbu tahlillar Golding asarlarining ko'p qirrali va murakkabligini ko'rsatadi, shuningdek, ularning badiiy va nazariy jihatlariga chuqur kirib boradi. Tadqiqotlar, Golding ijodining san'at va insoniyat tarixidagi o'rni to'g'risida yanada yaxshi tushuncha olishga yordam beradi. Ularning barchasi Goldingning o'z ijodida jamiyat va shaxs orasidagi bog'lanishlarni chuqur o'rganishi, urushning insoniyat xotirasiga qo'shgan hissasi va shaxsiy tajribalarining kuchli hissiyotini aks ettirishda qanday rol o'ynashini kuchli nuqtayi nazardan qisqacha tahlil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Uilyam Golding ijodini o'rganish jarayonida bir necha tadqiqot metodologiyalari qo'llaniladi, jumladan:

Adabiy tahlil. Goldingning asarlaridagi badiiy va tematik jihatlarni o'rganish uchun adabiy tahlil usuli qo'llaniladi. Ushbu metod yordamida asarlarning tili, strukturasi, ramzlari va simvollarini tahlil qilib, muallifning badiiy uslubi va uning asarlarida yashiringan ma'nolarini aniqlashga yordam beradi.

Tarixiy kontekstual tahlil. Goldingning asarlarini yozilgan davrda yuz berayotgan tarixiy voqealar va madaniy sharoitlar bilan bog'liq holda o'rganish. Bu yondashuv uning asarlaridagi ijtimoiy va madaniy kontekstni tushunishda muhim ahamiyatga ega, shuningdek, urush davrining inson psixologiyasiga ta'sirini ko'rsatishga yordam beradi.

Sotsiologik tahlil. Golding asarlarini sotsiologik yondashuv orqali o'rganish, uning asarlaridagi ijtimoiy munosabatlar, gender rollari va qishloq-sanoat ziddiyatlari kabi masalalarni yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Bu metod muallifning jamiyatda yuzaga kelayotgan muammolarni qanday aks ettirganini ko'rsatadi.

Psixologik tahlil. Golding qahramonlarining ichki kurashlari, shaxsiy tajribalari va psixologik holatlarini o'rganish uchun psixologik tahlil metodologiyasi qo'llaniladi. Bu yondashuv temalar va personajlar o'rtasidagi murakkabliklarni aniqlashga yordam beradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Uilyam Golding asarlarining tahlili natijalari quyidagi asosiy jihatlarni ko'rsatdi:

1. Ko'rsatuvchi ramzlar va simvollar. Goldingning asarlarida foydalanilgan ramzlar – shaxsiy va ijtimoiy iztiroblarning ramzlari sifatida xizmat qiladi. Misol uchun, "Pashshalar hukmdori" asarida pashshalar jamoasi muallifning inson tabiatining vahshiylikni va jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarni aks ettiradi. Ushbu ramzlar ma'nosi murakkab bo'lib, o'quvchini insoniyatning xirijiy holati haqida chuqur qayg'uga soladi.

2. Shaxsiy va jamoaviy xotira. Goldingning asarlarida shaxsiy xotira jamoaviy xotira bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. Asarlarning ko'pchiligida, qahramonlar o'zlarining o'tgan tajribalariga tayanishadi, bu esa ularni ochiq va evidli ruhiy holatga olib keladi. Xotiraning mazmuni Golding ijodining muhim aspektlaridan biridir, shuning uchun u yoki bu belgining izchil o'sishi va rivojlanishi shaxsiy va jamoaviy ta'sirlar bilan o'lchanadi.

3. Ijtimoiy va madaniy kontekst. Goldingning asarlariga nisbatan sotsiologik yondashuv uning asarlarida tarbiyaviy masalalar, gender va ijtimoiy tengsizliklar kabi mavzularni ochib beradi. Uning ijodida urush va ijtimoiy muammolar qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar orqali aniq ko'rinadi. Bu asarlardagi ijtimoiy iztiroblar o'quvchilarga o'z vaqtlarida, keyinchalik, aks ettiriladigan mazmunni yaratadi.

4. Psixologik chuqurlik. Golding badiiy uslubi orqali o'z qahramonlarining ichki kurashlariga alohida e'tibor qaratadi. U o'z asarlarida inson ruhiyatining murakkabligi va ehtiroslarini kuchli ifoda etadi, shuning uchun o'quvchilar o'zini qahramonlar bilan bog'lab, ularning ichki hayotini chuqur anglash imkoniga ega bo'lishadi.

Ushbu tahlillar natijasida Golding asarlari o'z zamonining adabiyotida o'rni va ahamiyati, insoniyat tabiatining haitiy holati, shaxsiy va jamiyat xotirasining murakkabligi haqida jonli tasavvur hosil qiladi. Golding ijodi zamonaviy yozuvchilarga, adabiyotshunoslarga va o'quvchilarga o'zaro chuqur tushuncha berishga qodir, insoniyat hayotini shakllantirishda ijtimoiy va madaniy faktorlarga e'tibor qaratish muhimligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation). Uilyam Goldingning asarlaridagi mulk darajasi, urush va shaxsiy tajribalarning insoniyatga ta'siri bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari muallif ijodining murakkab va ko'p qirraliligini ochib beradi. Ushbu tadqiqotda Goldingning "Pashshalar hukmdori" va boshqa asarlarining badiiy va sotsiologik tahlillari, ularning tarixiy konteksti, shaxsiy xotira, va unsurlarning, ko'pincha, bir-biri bilan aloqasi nafaqat adabiyotshunoslarga, balki keng auditoriyaga ta'sir etuvchi umumiy fikrlarning shakllanishiga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Golding asarlarining muhimligi. Goldingning asarlari Ikkinchi jahon urushining halokatli oqibatlari va inson tabiatining qorong'u tomonlarini ko'rsatishda katta o'ranga ega. Uning ijodi va hikoyalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmaydi.

2. Shaxsiy va jamoaviy xotira. Golding nafaqat shaxsiy tajribalarga, balki jamoaviy xotiraga ham e'tibor qaratadi. Bu elita va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganishga yo'naltirilgan kelgusi tadqiqotlar uchun asos bo'lishi mumkin.

3. Ijtimoiy, madaniy va psixologik tahlil imkoniyatlari. Tadqiqot davomida Golding asarlaridagi ijtimoiy va madaniy kontekstning ta'sirini o'rganish, shuningdek, qahramonlar psixologiyasini chuqurroq tahlil qilish mumkin.

4. Badiiy uslub va ramzlar. Golding badiiy uslubi, simbolizmi va ramzlaridan foydalanishi o'z asarlarining yashirin ma'nolarini ochishga yordam beradi. Ushbu jihat o'quvchilarni qiziqitirishi va mulohazalariga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu tadqiqotdan kelib chiqqan holda, quyidagi takliflar berilishi mumkin:

1. Qo'shimcha tadqiqotlar. Golding asarlarini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun boshqa adabiyotshunoslar, psixologlar va tarixchilar bilan hamkorlikda multidissiplinar tadqiqotlar o'tkazish taklif etiladi.

2. O'qituvchilar va o'quvchilarga mo'ljallangan dasturlar. Golding asarlarini o'rgatish uchun ta'lim dasturlari tayyorlash, badiiy adabiyotda urush va insoniyat masalalariga e'tibor qaratishni oshirish.

3. Tadqiqotlar natijalarini kengaytirish. Golding ijodi va uning zamondoshlarini taqqoslash orqali urush ta'sirlari va ijtimoiy masalalarning adabiyotdagi ifodalarini o'rganish.

4. Badiiy asarlarni keng tarqatish. Goldingning asarlarini keng targ'ib qilish, adabiy tadqiqotlar va munozaralar uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida seminarlar va konferensiyalar tashkil etish.

Uilyam Golding ijodi bugungi kunda bizga insoniyat tabiatining murakkabligini, urushning halokatli ta'sirlarini va shaxsiy tajribalarimizni o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar jarayoni davomida yana ko'plab yangi va qiziqarli natijalar haqida mulohaza yuritish va yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Brown, A. (2019). The Inner Struggles of William Golding: An Exploration of Psychological Themes in Lord of the Flies. Journal of Modern Literature.

(2). Golding, W. (1954). Lord of the Flies. Faber & Faber.

(3). Jones, M. (2020). Cultural Contexts in Golding's Work: Societal Reflections in Post-War Literature. Contemporary Literary Criticism.

(4). Salvatore, T. (2015). War and Memory in the Works of William Golding: A Sociological Perspective. Modern Fiction Studies.

(5). Smith, J. (2021). Symbolism and Style in Golding's Works: A Detailed Analysis. Literary Analysis Journal.

(6). Williams, R. (2018). The Impact of War on Humanity: Golding's Literary Examination. International Journal of Literature and Culture.

Kenjayeva Umida (UrDU o'qituvchisi), Oydinova Parizod (UrDU o'qituvchisi) ADEKVAT TOPISHMOQLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy xalqlar og'zaki ijodiga tegishli topishmoqlarni qiyosiy-tipologik metod orqali ularning janri, sujeti va obrazi boshqa xalqlar badiiy ijodi materiallari bilan solishtirilib taqqoslangan.

Kalit so'zlar: adabiyot, qiyosiy-tipologik metod, folklor, umumturkiy madaniyat, adabiy janr, mifologiya va an'ana va adabiy parallelizm.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЗАГАДОК ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Аннотация. В этой статье с использованием сравнительно-типологического метода сравниваются загадки, принадлежащие к устному творчеству тюркских народов, анализируется их жанр, сюжет и образы в контексте художественных материалов других народов.

Ключевые слова: литература, сравнительно-типологический метод, фольклор, общетюркская культура, литературный жанр, мифология и традиция, литературный параллелизм.

ADEQUATE RIDDLES

Annotation. This article compares and contrasts riddles belonging to the oral tradition of Turkic peoples using comparative-typological methods, examining their genre, plot, and characteristics in relation to the artistic materials of other nations.

Keywords: literature, comparative-typological method, folklore, common Turkic culture, literary genre, mythology and tradition, and literary parallelism.

Kirish (Introduction). Turkiy xalqlarning og'zaki ijodi, xususan, topishmoqlar janri, ularning qadimiy madaniy qatlamlari, tafakkuri va estetik qarashlarini o'zida mujassam etgan muhim folklor janrlaridan biridir. Ushbu janr xalqning dunyoqarashi, tabiatga, ijtimoiy hayotga munosabati hamda badiiy tafakkuri-

ning in'ikosidir. Xalq og'zaki ijodining tarkibiy qismi bo'lgan topishmoqlar o'zbek, turkman, qoraqalpoq kabi qardosh xalqlar ijodida keng tarqalgan va o'ziga xos janr xususiyatlariga ega.

Turkiy xalqlarning tarixiy taraqqiyoti, umumiy til va madaniy merosga egaligi ularning og'zaki ijodida ham mushtarakliklar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, topishmoqlar orqali bu mushtaraklik yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, har bir xalqning milliy xususiyatlari asosida shakllangan obrazlar, metaforalar va ifoda vositalari orqali ushbu janrda differensial jarayon ham kuzatiladi.

Ushbu maqolada turkiy xalqlarga xos topishmoqlarning adekvat shaklda mavjudligi, ya'ni, sujet, obraz va metaforik struktura jihatidan o'zaro o'xshashligi qiyosiy-tipologik metod asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, boshqa xalqlar (masalan, rus, tojik, yoqut) folkloridagi mazmunan yaqin topishmoqlar ham solishtirma tahlilga tortiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi turkiy xalqlar tafakkuridagi mushtaraklikni, tarixiy-madaniy umumiylikni badiiy janr orqali ochib berishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Turkiy xalqlar og'zaki ijodining teran tomirlari juda qadimiy asoslarga ega. Bu xalqlar folklorini qiyosiy-tipologik tarzda o'rganish xalq ijodiyotiga xos janrlarning shakllanishi va milliy asoslarini o'rganishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Darvoqe, "...folklor asarlarini ilmiy tadqiq etishning keng tarqalgan va samarali metodlaridan biri "qiyosiy-tipologik metod" hisoblanadi. "Qiyoslash" deganda muayyan folklor janri, epik sujet yoki obrazni boshqa xalqlar og'zaki badiiy ijodi materiallari bilan solishtirib, taqqoslab o'rganish asosida o'zaro o'xshash hamda farqli xususiyatlarni aniqlash nazarda tutiladi".¹

O'zbek folkloriga oid asosiy ilmiy manbalardan biri hisoblangan G'.Abdurahmonov va Sh.Shukurovning "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" asarida til taraqqiyoti va tarixiy ildizlar haqida muhim ma'lumotlar berilgan bo'lib, turkiy tillarning mushtarak xususiyatlarini o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.²

"Qaraqalpaq folklori" va "Edigenim edi yildiz" nomli to'plamlar qoraqalpoq va turkman xalqlarining topishmoq janridagi namunalarini ilmiy asosda tasniflashga imkon beradi. Ushbu to'plamlardagi namunalar maqolada adekvat topishmoqlarni aniqlashda asosiy material sifatida foydalanilgan.

Z.Husainovanning "Topishmoq terminlari" nomli maqolasi topishmoqlarning janriy xususiyatlari, ularning tuzilishi, semantik va stilistik jihatlarini bo'yicha dastlabki ilmiy qarashlarni beradi.³ Shu bilan birga, D.Bekirovning "Tatar folklori" hamda A.Sofiyevning "Таджикские народные загадки" kabi manbalarda boshqa millatlarning og'zaki ijodi misolida umumiy mantiqiy struktura va metaforik ifodaning mavjudligi ko'rsatib o'tilgan.⁴

V.M.Jirmunskiyning qayd qilishicha, xalq ijodiyotiga tegishli har qanday asar uni ijod qilgan xalqning muayyan sharoitlarda vujudga kelgan sotsial tuzumi, tarixi, ruhiyati, ijtimoiy ideali va badiiy tafakkurining milliy xususiyatlari hamda o'ziga xos milliy qiyofasini namoyon qiladi.⁵

Ilmiy tadqiqotning qiyoslash usuli bu milliy o'ziga xoslikni, tarixiy jihatdan asoslangan holda chuqurroq aniqlab berish imkoniyatini ro'yobga chiqaradi. Topishmoqlar xalqning ommaviy, qadimiy va o'lmas janridir. Hayot davom etar ekan, unda yuz bergan e'tiborga loyiq hodisalar mazkur janrda o'z ifodasini topishda davom etadi.

Turkiy xalqlarning qadimgi umumiy tili va umumiy madaniyatini bir-biridan ajratib qarash mumkin emas. "Chunki XII–XIII asrlardagi qabila va urug' tillari faqat o'zbek tili uchun emas, balki boshqa turkiy tillar (uyg'ur, turkman, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq v.b.) uchun ham asos bo'lgandir".⁶ Demak, XIII asrgacha umumiy til va umumiy madaniyatga ega bo'lgan o'zbek turkman va qoraqalpoq xalqlarining og'zaki badiiy ijodida ham mushtaraklik bo'lishi, tabiiy. Shu bilan birga, jamiyatning keyingi taraqqiyoti ularning og'zaki ijodiyotiga o'z ta'sirini o'tqazmasdan qolmadi. Bu holat og'zaki ijodiyot asarlari, xususan, topishmoq janrining ham millatlararo differensiallashish jarayonini boshdan kechirishga olib keldi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur maqolada qiyosiy-tipologik metod asos qilib olingan. Turkiy xalqlarning (xususan, o'zbek, turkman, qoraqalpoq) topishmoqlari o'zaro taqqoslangan. Shu bilan birga, ba'zi boshqa xalqlarning folklor namunalari ham tayanilgan (rus, tojik, yoqut folklori).

¹ Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. T., "Fan", 2009, 154-bet.

² Abdurahmonov G', Shukurov Sh. (1973). O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent, "O'qituvchi".

³ Husainova, Z. (1960). Topishmoq terminlari. "O'zbek tili va adabiyoti masalalari", 3-son.

⁴ Bekirov, D. (1975). Tatar folklori. Toshkent, "O'qituvchi"; Sofiyev, A. (n.d.). **Таджикские народные загадки** (Tajik xalq topishmoqlari), 21-bet.

⁵ Jirmunskiy V.M., Jo'rayev M. (2009). Folklorshunoslik asoslari. Toshkent, "Fan".

⁶ Abdurahmonov F., Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T., "O'qituvchi", 1973, 19-bet.

Tahlil uchun, asosan, quyidagi manbalar tanlangan:

- “Topishmoqlar” to‘plami.
- “Edigenim edi yildiz” (turkman folklori).
- “Qoraqalpoq folklori” to‘plami.
- Xorazm folklori namunasi va boshqalar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Umumturkiy til va madaniyat, shuningdek, keyingi taraqqiyot xalq ijodiyotidagi mushtarakliklarni batamom o‘zgartirmagani holda ularda, baribir, alohidaliklarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Buni topishmoqlar misolida yaqqol anglab olish mumkin.

Turkiy xalqlar folklorida yagona o‘xshash hayot, umumiy turkiy til hukmron bo‘lgan paytlarda yaratilgan topishmoqlar muayyan darajada ajralib turadi. Ularda yagona kompozitsiya, yagona metafora, yagona g‘oya o‘zini namoyon qilib turadi. Shu sababli biz ularni adekvat topishmoqlar deb nomladik. Qardosh turkiy xalqlar folklorida tarqalgan adekvat topishmoqlarning aksariyati mazkur xalqlarning qadimgi umumturkiy madaniyatiga borib bog‘lanadi. Topishmoqlarning bu toifasi o‘zlarining shakliy va mazmuniy ko‘rinishi bilan alohida ajralib turadi. Ularning ayrimlaridagina ba‘zi so‘z va ifodalarning o‘rni yoki shakli o‘zgargan, xolos.

Bunday topishmoqlar ancha qadimiy bo‘lib, ular negizida mifik tasavvurlar ham o‘zini yaqqol namoyon qiladi:

Qo‘lsiz, oyoqsiz gul soladi (Topishmoqlar. 20-bet).

Ayaksiz, elsiz-surat cheker (Edigenim edi yildiz. I kitob, 110-bet).

Qolsiz, ayaqsiz gul saladi (Qoraqalpoq folklori. III tom, 157-bet).

Deraza oynasiga sovuq natijasida gulga o‘xshash qirovning o‘tirishini ifodalovchi bu topishmoqda uchala xalqning tasavvuri ham bir xil. Qiziqarli topmoni shundaki, bu topishmoq rus folklorida ham adekvat tarzda uchraydi: Без рук, без нога, рисоват умеет (Лазутин С.Г. 1997).

Albatta, topishmoq mazmuniga qaraganda u oyna kashf etilgandan keyin yaratilgan. Biroq topishmoqda animistik dunyoqarashning izlari ham saqlanib qolgan.

Buni quyidagi namunalarda ham ko‘rish mumkin:

Chopsa, chopilmas,

Kessa, kesilmas (Topishmoqlar. 26-bet).

Gemsem-gemulmez,

Chapsam-chapilmaz (Edigenim edi yildiz. I kitob, 113-bet).

Shapsa shabilmaydi,

Kesse kesilmeydi.

(Qoraqalpoq folklori. III tom, 42-bet)

Turkiy xalqlarning qadimgi hayoti baliqchilik, chorvachilik, ovchilik bilan bog‘langan. Shu sababdan adekvat topishmoqlarning aksariyati o‘sha mavzu atrofida jamlanadi:

Boshi bor-u sochi yo‘q,

Ko‘zi bor-u qoshi yo‘q. (Topishmoqlar. 63-bet)

Kellesi bar, sachi yok,

Gozleri bar, gashi yok. (Edigenim edi yildiz. II kitob, 56-bet)

Basi barda shashi joq,

Kozi barda qasi joq. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 173-bet)

Topishmoqlarda asosiy e‘tibor bosh va soch, ko‘z va qoshga qaratilgan. Baliqqa xos bo‘lgan asosiy qiyofa uchala xalq tafakkurida ham bir xil aks etgan. Ma‘lumki, baliqchilik bo‘lgan joyda ko‘l, uning ichida esa qamish o‘sishi, tabiiy. Bu o‘simlik ham insoniyatning qadimiy yo‘ldoshidir. Undan kishilar uy qurishda, ayrim jihozlar yasashda, baliq ovlashda keng foydalanishgan. Bu holat qamish haqida turli topishmoqlarning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Bu topishmoqlarda ham shakliy va mazmuniy mushtaraklik yaqqol ko‘zga tashlanib turadi:

Uzun terak,

Ichi kavak, (Topishmoqlar. 95-bet)

Uzin derek,

Ichi ko‘vek. (Edigenim edi yildiz. II kitob, 74-bet)

Uzin terek, ishi geo‘ek. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 94-bet)

Turkiy xalqlarda o‘troq hayot boshlangandan keyin uy hayvonlari, parrandalar asrash, asta-sekin dehqonchilik madaniyati rivojlana borgan. Bu ijtimoiy turmush tarzi o‘z navbatida topishmoqlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Parrandalardan eng ommaviylik qozonib, topishmoqlar mazmunidan ko‘p o‘rin egallagani xo‘rozdir. Ma'lumki, xo‘roz tovuqlar orasida alohida ajralib turadi va viqor bilan yuradi. Shu sababli darhol e'tiborni tortadi.

Turkiy xalqlar orasida uning tashqi ko‘rinishi asos qilib olingan quyidagi topishmoq juda mashhurlik qozongan:

Boshi taroq,

Dumi o‘roq. (Topishmoqlar. 67-bet)

Bashi darak,

Guyrugi o‘rak. (Edigenim edi yildiz. II kitob, 47-bet)

Basi taroq, quyrug‘i oraq. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 75-bet)

Ushbu tasvirlarga aynan mos keladigan topishmoq Qrim tatarlari folklorida ham uchraydi:

Bashi tarak,

Q‘uyrug‘i o‘rak.³

Xo‘rozlar haqida turkiy xalqlar folklorida juda ko‘p topishmoqlar mavjud. Biroq, biz keltirgan namuna tom ma'noda adekvatlik kasb etadi. Boshqalari mazmunan o‘xshasa-da shaklan farqlanadi. Biz keltirgan namunalarga qadimiyoq vujudga kelgan bo‘lsa kerak.

Tovuq, xo‘roz, tovuq tuxumi haqidagi topishmoqlarning ko‘pligi ularning inson hayoti bilan uzviy bog‘liqligi va hamisha yonma-yon bo‘lishidir. Ayniqsa, tovuq tuxumi haqida yaratilgan jumboqlar yagona tasavvurga asoslanganligi bilan xarakterlidir:

Qoziqda qor turmas. (Topishmoqlar. 72-bet)

Gazik ustunde gar durmaz. (Edigenim edi yildiz. II kitob, 17-bet)

Qaziq basinda qar turmas. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 75-bet)

Shu narsa qiziqki, turkiy xalqlardan uzoq hududda joylashgan shimol xalqlari folklorida tuxum haqida yaratilgan topishmoqlar ham mazmunan yuqorida keltirilgan namunalarga mos keladi:

На крюк повесит ни когда не повиснет.

Yoqutistonda yashovchi evenklilar orasida tarqalgan bu topishmoqda ham qoziq tushunchasi bor. Albatta biz keltirgan namuna topishmoqning ruscha tarjimasidir. Originalda esa bu jumboq turkiy namunalarga yanada yaqin bo‘lishi mumkin. Chunki yoqutlar ham turkiy xalqlarning uzoq ajdodi hisoblanadi. Shuni e’tiborga olganda, bu topishmoq umumturkiy xususiyat kasb etgan bo‘lishi mumkin.

Turkiy xalqlar o‘troqlasha borgandan so‘ng dehqonchilik mashg‘ulotlari ham hayotdan keng o‘rin olgan. Natijada turli poliz ekinlari haqida topishmoqlar yuzaga kelgan. Sabzi, piyoz haqida, ularga xos metaforalar tanlashda ham turkiy xalqlar fikrlashida umumiylik ruhi ustuvorlik qiladi: Sabzi haqida:

Yer tagida oltin qoziq. (Topishmoqlar. 100-bet)

Yer astinda altin gazik. (Edigenim edi yildiz. II kitob, 69-bet)

Jer astinda qatara qoziq. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 90-bet)

Piyoz haqida:

Past-past bo‘yi bor,

Yetti qavat to‘ni bor. (Topishmoqlar. 101-bet).

Dolama dokuz doni bar,

Bir tobajak o‘zi bar. (Edigenim edi yildiz. II kitob, 68-bet)

Kishkene g‘ana boyi bar,

Qabat-qabat toni bar. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 90-bet)

Sabzi va piyoz haqidagi topishmoqlarni qiyoslaganda shu narsa anglashiladiki, sabzi haqidagi jumboqlarda “qoziq”, rang piyoz to‘g‘risidagi topishmoqlarda bo‘y va to‘n tushunchalariga e’tibor qaratilgan. Chunki sabzining erga kirib turishi qoziqni, rangi esa oltinni esga soladi. Piyozning esa bo‘yi pastligi va to‘nining qavat-qavat ekanligi asosiy xususiyat bo‘lib gavdalanadi. Birinchi topishmoqda rang va shakl, ikkinchisida bo‘y va shakl jumboqlangan.

Qadimiy tasavvurlar faqat qardosh xalqlardagina emas, balki, qardosh bo‘lmagan xalqlar ijodida ham o‘zaro yaqinlik kasb etadi. Chunki “...tafakkurdagi umumiy qonuniyatlar tilda o‘z aksini topadi, sababi til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Natijada kelib chiqish jihatidan turlicha bo‘lgan tillarda ham o‘zaro o‘xshash iboralar paydo bo‘ladi”.⁴

³ Bekirov Dj. Tatar folklori. T., “O‘qituvchi”, 1975, 94-bet.

⁴ Salomov G‘. Til va tarjima. T., “Fan”, 1966, 255-bet.

Sabzi haqida tojik folklorida yaratilgan topishmoqda ham tanlangan metafora turkiy xalqlarniki bilan bir xil:

Mexi zarrin-zeri zamin.

Yer tagida sariq mix. (So'fiyev A. Таджикиские народные загадки. 21 с.)

Turkiy xalqlarda o'troq hayot boshlangandan keyingi yaratilgan topishmoqlarning aynan bir xilligiga sabab, ulardagi turmush tarzining deyarlik bir tarzda kechganligidir. Tandir, o'choq, qozon, olov kabi uy-xo'jalik asboblari haqida yaratilgan topishmoqlar bunga misol bo'la oladi. Bu asbob-uskunalar haqida tanlangan metaforalar o'zaro juda mos keladi:

Og'zi qora alomat,

Ichi qizil qiyomat. (Topishmoqlar. 129-bet)

Agzi gara alomat,

Ichi gizil kiyamat. (Edigenim edi tsildiz. II kitob, 20-bet)

Ao'zi toli elamat,

Ishi qizil belamat. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 105-bet)

Tandirni o'z tarkibiga yashirgan ushbu topishmoqda metafora olovga nisbatan ishlatilgan. Uchala topishmoqda ham olovning rang belgisi "qizil" tarzda qo'llanilgan. O'zbek va turkman variantlarida qozonning tutundan qoraygan og'ziga ham alohida metafora tanlangan.

Qozon va olov haqidagi topishmoqlarda tanlangan metaforalar ham e'tiborni tortadi:

Qora sigir qarab turar,

Sariq sigir yalab turar. (Topishmoqlar. 131-bet)

Gara sigri garap dur,

Sari sigrim yalap dur. (Edigenim udi tsildiz. II kitob, 26-bet)

Qara siyrim qarab tur,

Qizil siyirim jalap tur. (Qoraqalpoq folklori. III tom, 95-bet)

Topishmoqlardagi "Qora sigir" –qozon, "qizil" va "sariq" sigirlar olovga nisbatan tanlangan metaforalardir. Turkman va o'zbek variantlarida olovga nisbatan "sariq" qoraqalpoq variantida "qizil" metaforasi tanlangan. Albatta, bu qiyoslashlardagi har ikkala rang ham o'zaro o'xshashdir.

Topishmoqlarning uchala variantida ham asosiy urg'uning, hal qiluvchi metaforaning sigir qiyofasiga borib bog'lanishida ham mantiqiy asos mavjud. Chunki sigir uy-ro'zg'or, oila ramzidir. U oilani boqadi. Shu narsa xarakterliki, oltoyliliklar sigirni uy deb atar ekanlar. Demak, turkiy xalqlarda bu hayvonning ardoqlanishi bejiz emas. Bu uy hayvoni har uchala xalq hayotida hamisha hal qiluvchi rol o'ynab kelgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, qozonning qoraligi, olovning sariqligini gavdalandirish uchun ataylab sigir obrazi tanlangan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, qardosh xalqlar folklorida topishmoqlar faqatgina xalq tafakkurini emas, balki ushbu xalqlar uchun mushtarak bo'lgan tarixiy va madaniy taraqqiyotidan dalolat beruvchi muhim janr sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu qardosh xalqlar folkloridagi adekvat topishmoqlarning o'zaro farqli va o'xshash jihatlarini tadqiq qilish orqali tafakkur umumiyliги va tarixiy negizlarni keng doirada anglash imkoni yaratiladi. Shu bois kelgusida bu janrni yanada kengroq qiyosiy-tahliliy tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):

- (1). Jirmunskiy V., Jo'rayev M. (2009). Folklorshunoslik asoslari. Toshkent, "Fan".
- (2). Abdurahmonov, F., Shukurov, Sh. (1973). «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi». Tashkent, "O'qituvchi".
- (3). Qoraqalpoq folklori. III tom, Nokis, 1978.
- (4). Qoraqalpoq jumbaqlari. Nekis, "Qoraqalpoqstan", 1970.
- (5). Husainova Z. Topishmoq terminlari. "O'zbek tili va adabiyoti masalalari", 1960, 3-son.
- (6). Bekirov, Dj. (1975). Tatar folklori. Toshkent, "O'qituvchi".
- (7). Salomov, G'. (1966). Til va tarjima. Toshkent, "Fan".
- (8). Сафиев А. (n.d.). Таджикиские народные загадки. 21 p.

Egamnazarov Bobur (O'zDJTU tadqiqotchisi)
**JURNALISTIKADA IXTISOSLASHUV VA QURILISH TEMATIKASINI YORITISHDAGI
O'ZIGA XOSLIKLAR**

Annotatsiya. Jurnalistika sohasida kadrlar tayyorlashda bir nechta yondashuv mavjud. Jumladan, ayrim mutaxassislar universal jurnalistlar zarurligi haqida gapirsa, ayrimlari esa ixtisoslashuvni qo'llab-quvvatlashadi. Mazkur maqolada qurilish sohasidagi asosiy jarayonlarini yoritishda jurnalistikaning o'rni, sohaga ixtisoslashuv, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va qurilish tashkilotlarining ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligi masalalariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: jurnalistika, universallashtirish, ixtisoslashuv, qurilish tematikasi jamoatchilik nazorati.
Эгамназаров Бобур (исследователь, Узбекский государственный университет Журналистики и массовых коммуникаций)

**СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ В ЖУРНАЛИСТИКЕ И ОСОБЕННОСТИ ОСВЕЩЕНИЯ
СТРОИТЕЛЬНОЙ ТЕМАТИКИ**

Аннотация. Существует несколько подходов к подготовке кадров в области журналистики. Некоторые специалисты утверждают, что необходимы универсальные журналисты, в то время как другие поддерживают специализацию. В данной статье рассматривается роль журналистики в освещении ключевых процессов в строительной сфере, важность специализации в этой области, усиление общественного контроля и сотрудничество строительных организаций со средствами массовой информации.

Ключевые слова: журналистика, универсализация, специализация, строительная тематика, общественный контроль.

Egamnazarov Bobur (Young Researcher, Uzbek State University of Journalism and Mass Communications)
**SPECIALIZATION IN JOURNALISM AND PECULIARITIES OF COVERING
CONSTRUCTION THEMES**

Annotation. There are several approaches to training personnel in the field of journalism. Some experts argue that universal journalists are necessary, while others support specialization. This article focuses on the role of journalism in covering key processes in the construction sector, the importance of specialization in the field, strengthening public oversight, and cooperation between construction organizations and the media.

Keywords: journalism, universalization, specialization, construction themes, public oversight.

Kirish (Intrudiction). Keyingi yillarda uy-joy qurilishi sohasi keng rivojlandi va mamlakatning barcha hududlari bunyodkorlik maydoniga aylandi. O'z-o'zidan ommaviy axborot vositalarida ham qurilish mavzusini yorituvchi alohida yo'nalish bo'lib shakllandi. Mazkur mavzuni kerakli va tushunarli qilib yoritish e'tibordan chetda qolayotgan soha sifatida baholanayotgan edi. E'tibor berilsa, qurilish tematikasi davlat medialarida deyarli berilmasdi. So'nggi yillarda esa bu yo'nalishda bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining matbuot xizmati tubdan isloh qilinib, vazirlik qoshida "O'zbekiston bunyodkori" gazetasining tahririyati ish boshladi. Nashrda berilayotgan maqolalar kontenti va saviyasi oshirilib, hududiy muxbirlar ko'paytirildi. Gazeta hafta 1 marta chop etilmoqda. Har oy jurnalistlar uchun brifing va matbuot anjumanlari o'tkazilmoqda. Matbuot xizmati bilan hamkorlikda tayyorlangan materiallar teleradiokanallar orqali ommaga taqdim etilmoqda. Vazirlik qoshida faoliyat yurituvchi nazorat qiluvchi inspeksiya qurilish sohasidagi korrupsion holat hamda buyurokratik to'siqlarni bartaraf etishda muhim o'rin tutmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). AQSHning Janubiy kaliforniya universitetida "Ixtisoslashgan jurnalistika magistri" dasturi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi [1]. O'qitiladigan fanlar xususida gapirganda, jurnalistikaning eng ommabop tiplariga alohida e'tibor qaratilgan. Rossiyaning Smolensk davlat universitetida "Ixtisoslashgan jurnalistika" bo'yicha alohida kurs o'qitiladi [2]. Unda ilmiy jurnalistika, iqtisodiy jurnalistika, 60 dan oshganlar uchun medialar, ayollar va erkaklar jurnalistikasi kabi yo'nalishlarda alohida mavzular kiritilgan. Mamlakatimizda jurnalist kadrlar tayyorlanadigan oliy o'quv yurtlarida ixtisoslashuvga keng e'tibor beriladi. N.Qosimova va boshqalar tomonidan nashrga tayyorlangan ilmiy-ommabop nashrga jurnalistikaning 13 yo'nalishi kiritilgan [3].

Jurnalistikaning eng ommabop bo'lgan yo'nalishlari (sport, ekologiya, iqtisodiy medialar kabi)da ko'plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan, kitoblar yozilgan. Misol uchun, rossiyalik olim P.I.Chukov tomoni-

dan ixtisoslashgan gazetalar nashr turi sifatida o'rganilgan. Unda masalaga auditoriyaning demografik xususiyatlari (bolalar va o'smirlar, yoshlar, erkaklar va ayollar va boshq.) va aholi qiziqishlari (sport, iqtisodiy, avtomobil ishqibozlari kabi) dan kelib chiqib yondashilgan [4]. Ammo jahon miqyosida ham, O'zbekistonda ham qurilish mavzusini mediada yoritish bo'yicha deyarli tadqiqot olib borilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotni o'tkazish davomida tahlil, kontent tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatuv, umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jurnalistika – axborotni yig'ish, tahlil qilish va tarqatish amaliyotidir. Ixtisoslashgan jurnalistika esa mavzusi, maqsadi, dasturi, tematik yo'nalishi kabi jihatlarni qamrab oluvchi medialar bo'lib, auditoriyaning aniq manfaatlarini hisobga olgan holda faoliyat olib boradi. “Kadrlar yetishmasligi bois turli mavzularni yoritishga majbur bo'lgan “universal jurnalistlar” davri o'tdi. Zamon o'zgardi, shunga yarasha jurnalistlarga qo'yiladigan talablar ham o'zgacha. Yoritmoqchi bo'lgan sohasini yaxshi bilmagan jurnalist, albatta, muhim va qiziqarli material tayyorlay olmaydi” [3]. Qurilish va qurilish sanoati kontekstida jurnalistika yangiliklar, tendensiyalar, innovatsiyalar va ushbu sohaga ta'sir qiluvchi muammolar haqida xabar berishni o'z ichiga oladi. Sohaga doir ishonchli manbalarni olish uchun arxitektorlar, muhandislar, pudratchilar, yetkazib beruvchilar, tartibga soluvchilar, siyosatchilar va boshqa manfaatdor tomonlar kabi asosiy ishtirokchilar bilan suhbatlar o'tkazishni qamraydi [5].

Qurilish sohasi jurnalistikasi xavfsizlik muammolari, atrof-muhitga ta'sirni baholash, qurilishni standartlashtirish qoidalari, ruxsatnoma va litsenziyalash talablari bilan bog'liq voqealarni tekshirishni o'z ichiga oladi. Ushbu sohaga ixtisoslashgan jurnalistlar o'z auditoriyasi uchun murakkab tushunchalarni oddiy tilga tarjima qila olishlari uchun sanoatda qo'llaniladigan texnik atamalarni tushunishlari talab qilinadi. Bundan tashqari, qurilish va qurilish sohasi jurnalistlari xabar berishda aniqlik, adolat, xolislik kabi axloqiy me'yorlarga rioya qilishlari ham muhim sanaladi. Shuningdek, ular o'z hisobotlari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvlariga ham tayyor turishlari zarur. Ya'ni, qurilish kontekstidagi jurnalistika tadqiqot va asosiy ishtirokchilar bilan suhbatlar orqali ushbu sektorning turli jihatlari haqida ma'lumot to'plash jarayonini anglatadi. Maqsad axloqiy me'yorlarga rioya qilgan holda yangiliklarni xolis yetkazishdir.

Hozirgi vaqtda medialarda qurilish jarayonlarini yoritish sekinlik bilan ketmoqda. Sohani rivoji va yoritilishi uchun ixtisoslashgan jurnalistlarning kamligi, sayt hamda telekanallarda sohani yoritish uchun malakali jurnalistlarning yetishmasligi sabab soha doirasida amalga oshirilayotgan islohot, o'zgarishlarni ommaga yetkazishda muammolarga duch kelinmoqda. Sohani yorituvchi ixtisoslashgan nashrlarning deyarli mavjud emasligi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Biroq so'nggi yillarda sohadagi islohotlarni yoritish doirasida yangi bosqichga qadam qo'yildi. Jumladan, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi va uning tassarufidagi tashkilotlar mahalliy medialar bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Chunki sohaga bo'lgan talab keskin oshdi. Aholidan uy-joylar sifati va xaridlar masalasiga oid murojaatlar ko'paydi. Shularga javoban, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining rasmiy sayti, ijtimoiy tarmoqlar orqali berib borilayotgan materiallarining saviyasiga e'tibor kuchaydi. Xususan, quruvchi pudrat tashkilotlarning huquqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida bir nechta rukn asosida videomateriallar doimiy e'lon qilindi ammo ushbu jarayonlarni yoritish doirasida kamchiliklar aniqlandi. Auditoriya e'tiborini tortishdagi asosiy kamchiliklar:

- materiallar xilma-xilligining pastligi;
- mavzularning o'xshashligi;
- tanqidiy yondashuvning yetishmasligi kabilar.

Shuningdek, kengroq auditoriyani qamrab olishdagi muammolar sifatida tayyorlanayotgan materiallar vazirlikning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va respublika telekanallarida efirga uzatilishi bilan birga auditoriyasi keng bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali tashviqot ishlarini amalga oshirilishining yetishmasligi ham kuzatiladi.

Yuqorida tilga olingan muammolarni bartaraf etish uchun:

- lavhalarda rang-baranglikni oshirish;
- qiziqarli mavzularni olib chiqish uchun soha mutaxassislari bilan bir qatorda, quruvchi pudrat tashkilotlarini jalb qilish;
- bir xillikdan qochish va tayyorlanayotgan lavhalarga kreativ yondashuvni kuchaytirish;
- yosh auditoriyani jalb qilish uchun raqamli platformalarda qisqa videolavhalar tayyorlash va shu orqali targ'ibotni kuchaytirish;
- mahalliy telekanalla bilan hamkorlikda “Qurilishda bir kun” ruknini tashkil etish.

Qurilish sohasidagi yangilik va o'zgarishlarni ko'rsatish, qurilish sifati va jarayonni yoritish bu soha-ga dahildor bo'lmagan insonlar uchun ham qiziq mavzu bo'lib kelgan. Agar mavzu qanchalik qiziq bo'lsa, media vakillari tashkilot bilan doimiy hamkorlikni o'rnatishga harakat qilishadi. Televideniya qurilish sohasidagi mavzularini yoritishning samarali yo'llaridan yana biri xalqaro tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanishdir. Masalan, Yevropada har bir qurilish obyekti uchun quruvchi tashkilot tomonidan axborot xizmati xodimi yollanadi, unga yuklatilgan asosiy vazifa esa qurilish jarayonlarini tasvirga olib, oylik hiso-botlarni tasvirlar orqali umumlashtiradi. Uy xarid qiluvchilar qurilishning sifati haqidagi dastlabki ma'lumotlarni ma'sul xodimlar va yollangan mutaxassis tomonidan tayyorlangan videolavhalar orqali ham bilib olishadi. O'zbekiston hududida ham ushbu amaliyotni tajriba sifatida qo'llab ko'rish orqali ham yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali qurilish jarayonlarini yoritish nafaqat tomo-shabinlar auditoriyasini kengaytirish, balki qurilishda sifat nazoratini kuchaytirishga qurilishda jamoatchilik nazoratini asosini yaratishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv mamlakatdagi bun-yodkorliklar orqali O'zbekiston imijini ham yuqori darajaga olib chiqishga yordam beradi.

Jamoatchilik nazoratiga mahallalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish asosida erishiladi. Bu noqonu-niy qurilishlarni oldini olishda eng samarali yo'l hisoblanadi. Mahalla hududida bo'layotgan har qanday qurilishdan ushbu hudud fuqarolari xabardor bo'lishi tayin. O'zboshimchalik bilan boshlangan qurilish ish-lari (ko'p qavatli uylar, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish binolari va boshq.) haqida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qurilish inspeksiyasining ishonch telefonlariga qo'ng'iroq qilish orqali hamkorlik yo'lga qo'yilishi va noqonuniy qurilishlarning oldini olish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Kelgusida qurilish mavzularni yoritish sama-radorligini oshirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish talab qilinadi:

1. Auditoriya tahlili: tomoshabinlarning talab va qiziqishlarini o'rganish orqali kontentlar dolzarb-ligini oshirish.
2. Multimedaviy yondashuv: televideniya, internet va ijtimoiy tarmoqlarda kontentni sinxron yori-tish orqali kengroq auditoriyani qamrab olish.
3. Ixtisoslashgan jurnalistlarni tayyorlash: qurilish mavzularni chuqur tushunadigan va zamonaviy jurnalistik ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga e'tibor qaratish.
4. Innovatsion ko'rsatuv formatlari: qurilish kompaniyalarining ish jarayonidagi holatlar asosida huj-jatli filmlarni suratga olish.
5. Soha mutaxassislari ishtirokidagi zamonaviy formatdagi tok-shoular, debat va interaktiv dastur-larni tayyorlash.

Xulosa qilib aytganda, bu kabi targ'ibot ishlarni ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni ama-lga oshirish, noqonuniy qurilishlarga yo'l qo'ymaslik, fuqarolarning aldanib qolishlarining oldini olish, bundan tashqari, pudrat tashkilotlari vakillarining qonuniy faoliyat olib borishlariga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). <https://ru.studyqa.com/program/specialized-journalism-master-in-university-of-southern-california>, 10.03.2025.
- (2). https://smolgu.ru/upload/educational_process/2023/rp_SMI/, 10.03.2025.
- (3). Қосимова Н. ва бошқ. Ихтисослашган журналистика. IX jild, T., "Ўзбекистон", 2019, 3-бет.
- (4). <https://www.dissercat.com/content/spetsializirovannye-gazety-kak-tip-izdaniya>, 10.03.2025.
- (5). <https://construo.io/tags/journalism>, 10.03.2025.

Kallibekova Gulnara Palbekovna (PhD, QMU dotsenti)

LEKSIK BIRLIKLARNI TO'G'RI QO'LLASHDA JURNALIST MAHORATI

Annotatsiya. Gazeta tilidagi perifrazalar, maqollar, iboralarni ishlatishda jurnalist mahorati haqida so'z yuritiladi. Xususan, o'rin-joy nomiga aloqadar perifraza, narsa, buyumlar nomiga aloqadar perifra-zalar; shaxs nomi bilan aloqadar perifrazalar; shahar nomi bilan aloqadar perifrazalar; son bilan aloqadar perifrazalar misollar orqali ko'rsatib berilgan. Axborot yozishda qisqalik va aniqlik asosiy talablarning biri ekanligi tushuntirilgan. Qator gazeta materiallari maxsus ruknlar misolida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: sarlavha, matn, fakt, gazeta, gazeta tili, rukn, muallif, jurnalist.

ЖУРНАЛИСТСКОЕ МАСТЕРСТВО В ПРАВИЛЬНОМ ПРИМЕНЕНИИ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация. Речь идет о журналистском мастерстве в использовании перифраз, пословиц, словосочетаний на газетном языке. В частности, перифразы, относящиеся к названию места, перифразы, относящиеся к названию вещи, предметов, перифразы, относящиеся к имени человека, перифразы, относящиеся к названию города, перифразы, относящиеся к числу, показаны на примерах. Объясняется, что краткость и точность являются одними из основных требований при написании информации. Ряд газетных материалов был проанализирован на примере специальных колонок.

Ключевые слова: заголовок, текст, факт, газета, газетный язык, рубрика, автор, журналист.

JOURNALISTIC MASTERY IN THE CORRECT USE OF LEXICAL UNITS

Annotation. We are talking about journalistic skill in using periphrases, proverbs and phrases in the newspaper language. In particular, the periphrases related to the name of a place, the periphrases related to the name of a thing, objects, the periphrases related to the name of a person, the periphrases related to the name of a city, the periphrases related to a number are shown in examples. It is explained that brevity and accuracy are among the main requirements when writing information. A number of newspaper materials were analyzed using the example of special columns.

Keywords: title, text, fact, newspaper, newspaper language, column, author, journalist.

Kirish (Introduction). Gazeta tili jurnalist mahorati bilan chambarchas bog'langan. Gazeta sarlavhalari, ruknlari, matnlari, lid matnlari va faktlarini to'g'ri va ixcham etkazib berish jurnalistning asosiy burchi hisoblanadi. Shuning uchun jurnalist o'z bilimini, mahoratini, so'z qo'llash uslubini doimo rivojlantirib borishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Leksik birliklarni to'g'ri qo'llashda jurnalist mahorati keng tadqiq etilmoqda. N.Toshpo'latovanning muallifligidagi «Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari» nomli kitobida jurnalist ijodida so'zning ahamiyatini tushuntirib o'tgan: «So'z yuki, so'zni his qilish degan iboralar, asosan, badiiy adabiyot, ayniqsa, nazm borasida fikr yuritilganda bot-bot tilga olinadi. Bu iboralarni jurnalistika janrlarida ham qo'llasa bo'ladi. Masalan, oddiy axborot yozishda qisqalikka va aniqlikka rioya qilinadi. Shunday ekan, so'z ma'nosini yaxshi bilgan, so'zni his qilgan jurnalist fikrini qisqa satrlarda bayon qiladi. Bunday mahorat tinimsiz o'qish, izlanish, yozish, qayta-qayta tahrir qilish natijasidagina vujudga keladigan hodisadir». ¹ Axborot asrida qisqalikka, aniqlikka etibor qaratish davr talabi ekanligini to'g'ri ko'rsatib bera olgan. N.Qosimova «Ixtisoslashgan jurnalistika» kitobida jurnalist ijodidagi asosiy vazifalarga urg'u berib o'tgan: «Jamiyatni, shaxsni o'rab turgan olamda, hodisalar ko'p va xilma-xil. OAVning vazifasi ularni ommaga yetkazish. Jurnalist axboroti ijtimoiy jihatdan muhimligi, dolzarbligi, auditoriyaga mo'ljallanganligi, ommaviy ahamiyatga egaligi, hujjatligi va tasviriyligi bilan alohida ahamiyatga ega. Uni izlash, olish va tarqatish jurnalistning kasbiy burchi». ² Jurnalist har bir fakti qiziqarli va aniq yetkazib bera olishi darkor. Uning uchun leksik birliklarni to'g'ri tushunish va foydalana olishi zarur. G.Seitnazarovanning «Yangi davr jurnalistikasida ijodiy mahoratning o'rni va ahamiyati» (Qoraqalpog'iston matbuoti materiallari misolida) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida ham ijodiy mahorat tahlil qilingan. Uning fikricha: «Til va uslub chambarchas bog'liq. Agar uslubda ko'proq tashqi shakl e'tiborga olinadigan bo'lsa, tilga nisbatan aytish mumkinki, bu ham tashqi, ham ichki shakldir. Tilni tushunish uchun mavzudan xabardor bo'lish kerak. Bugun jamiyatning turli qatlamlarini til madaniyatiga o'rgatadigan matbuotga jiddiy ma'suliyat yuklatilgan. Buning asosiy sababi, gazeta tili nisbatan tez rivojlanadi, u adabiy tilda yuz beradigan o'zgarishlar, yangiliklarni oson qabul qiladi. Yangi so'z va iboralar adabiy til lug'atiga o'tishdan oldin gazeta tili laboratoriyasida sinovdan o'tadi». ³ Matbuotning vazifasi va unga yuklatilgan mas'uliyat gazeta tili orqali jamiyatning turli qatlamlarini til madaniyatiga o'rgatish. Demak, matbuot til orqali adabiy tilimizning resursi rivojlanib bora beradi. Mazkur mavzu keyingi yillar da-

¹ Тошпўлатова Н. Босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари. V жилд, Тошкент, «Ўзбекистон», 2019, 95-бет.

² Қосимова Н. Ихтисослашган журналистика. IX жилд, Тошкент, «Ўзбекистон», 2019, 214-бет.

³ Сеитназарова Г. Янги давр журналистикасида ижодий маҳоратнинг ўрни ва аҳамияти (Қорақалпоғистон матбуоти материаллари мисолида). Фил. фан. бўй фалс. док. дисс. автореф., Тошкент, 2021, 18-бет.

vomida Z.Orazimbetova,¹ T.Masharipova,² A.Pirniyazova,³ D.Qurbaniyazov,⁴ G.Kallibekovalarning⁵ ilmiy ishlarida ham o'rganilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ommaviy axborot vositalari jamiyat ko'zgusi. Ularning biri gazeta. Axborotni tezkor yetkazib berishda o'z faolligini ko'rsatmoqta. Yangiliklarni operativ ommaga uzatishda gazeta tili o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanib kelmoqda. Gazeta matnlarini kuzatar ekanmiz, tajribali, bilimli va mahoratli jurnalistlar ijod qilayotgani ko'zga tashlanadi. Gazetalardagi rasmiy xabarlardan tashqi mualliflar tomonidan tayyorlangan maqolalarda ham yangi so'z, termin, iboralar mavjud. Shuning uchun ham gazeta tilidagi bu kabi yangi o'zgarishlarni tadqiq etish zarurligini tadqiqotchilar to'g'ri ang'lay olgan. Ko'plap tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan va hozirgi davrda ham o'rganilmoqda. Axborot asrida qisqalikka, aniqlikka, ixchamlikka e'tibor qaratilishi davrning qo'ygan asosiy talabi. Mazkur jarayon gazeta tilida qanday tasvirlangan. Mazkur mavzuni o'rganish bizning maqsadimiz. Qisqalik, aniqlik, ixchamlikning asosida matn turadi. Ularni biz tarixiy va taqqoslab o'rganish metodi asosida tadqiq etganmiz.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Gazetalarda gazeta muxbirlari tomonidan xabarlar tayyorlanadi. «Yangi O'zbekiston» gazetasi 2025-yil 16-yanvar, 11-soni. «Yangi O'zbekiston» gazetasi muxbiri Yunus Boronov. «Sayyohlik» ruknida «Boshqaruv to'g'ri yo'lga qo'yilsa...» nomli maqolasi berilgan. Maqolada perifrazalar faol ishlatilgan.

1. O'rin-joy nomiga aloqadar perifraza. **Samarqand** shahri bilan bog'liq perifrazalar – «Sahroda qad rostlagan shahar», «Jozibador yurt» sarlavhalari orqali berilgan. Matn ishida ham perifrazalar faol ishlatilgan. Masalan: «O'shanda vazirning gapini bo'lib, *Dubayni* duyoning eng taraqqiy etgan sayyohlik markazlaridan biriga aylantirish zarurligini aytdim». «Ta'kidlash kerakki, *neft konlariga boy hudud* o'sha paytlarda aholining farovon yashashi uchun yagona manba hisoblangan». Gapdagi *neft konlariga boy hudud* perifrazasi Birlashgan Arab Amirliqi haqida aytilgan. Bugun butun dunyo investitsiya va sayyohlik markazlaridan biriga aylangan BAA poytaxtiga «*kelajak shahri*» deya ta'rif berishadi. Chunki aql bovar qilmas darajadagi arxitektura echimlari asosida bunyod etilgan binolarga *dunyoning manaman degan davlatlari* aholisi ham hayrat va havas bilan qaramoqda». *Kelajak shahri* perifraza bo'lib, *Dubay* shahriga qarata aytilgan. *Dunyoning manaman degan davlatlari* perifrazasi og'zaki uslubda faol ishlatiladi. Bu matnda to'g'ri va o'z o'rnida qo'llanilgan bo'lib, rivojlangan mamlakatlarning nomlariga qarata keltirilganligi ko'rinib turibdi. «Pirovardida *Dubay* jahon sayyohlarining eng jozibali manzillaridan biriga aylandi». Bu misoldagi *jahon sayyohlarining eng jozibali manzillaridan biri* perifrazasi ham *Dubay* shahriga qarata ishlatilganligi kontekstni o'qish orqali bilamiz.

2. Narsa, buyumlar nomiga aloqadar perifrazalar. Gazeta matnlarida bu kabi misollar faol ishlatiladi. Masalan: «To'g'ri, «*qora oltin*» shaharda barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi». Misolda keltirilgan *qora oltin perifrazasi* bu *neft* so'zi o'rnida ishlatilgan.

Gazeta muxbiri Nodir Mahmudov. «Yangi O'zbekiston» gazetasining 2024-yil 20-noyabr, 235-soni. «Yangi O'zbekiston» gazetasi muxbiri Nodir Mahmudovning «Yo'ldoshlar» ruknida «Oddiy odamlarning quvonch va tashvishlari» nomli maqolasi berilgan. Maqolada **frazeologizm, maqol va iboralar** ishlatilgan. Masalan: «Ikki tengdoshning samimiy gaplaridan zavqim keldi. – *To'rt-besh ko'ylakni ortiqcha to'zitgansizlar*, shuning uchun guring tizgini sizlarda bo'lgani yaxshi, – dedim kulib. O'girilib qarasam, Hasan aka qovog'ini uyib, oynadan tashqariga qarab jim bo'lib qolibdi». Misolda keltirilgan – *To'rt-besh ko'ylakni ortiqcha to'zitgansizlar* deb keltirilgan frazeologizmlar *yoshi katta, yoshi ulug'* ma'nosini bildirib kelgan. «Hasan akaning andak chiroyi ochildi. – *Men bog'dan kelsam, sen tog'dan kelasan-a*, Nuriddin. Hozir aytim-ku, gaplashib ketamiz deb». «Aniqrog'i, ularni hal etishga mahallaning *qo'li kaltalik qilardi*. Bugun ham muammolar yo'q emas, biroq barchasini bartaraf etish mumkin». «–Ikkovingiz ham gap orasida

¹ Orazimbetova Z. Qaraqalpaq ku'ndelikli baspaso'zi tilini stil'lik o'zgesheliklari. Toshkent, «Hilol Media», 2019.

² Машарипова Т.Ж. Публицистика назариясининг яхлит концепцияси (илмий-методологик таҳлил, Қорақалпоғистон Республикаси матбуоти материаллари мисолида). Фил. фан. доктори (DSc) диссертацияси автореферати, Нөкис, 2020.

³ Пирниязова А., Каллибекова Г. Перифраза – сөйлеудің көркемлігін тәмийинлеуши қурал. Түркий тиллес халықлары фольклоры хәм әдебияты тарийхын изертлеудің әҳмийетли мәселелери атамасындағы халықаралық илимий-теориялық конференция топламы. Мақалалар хәм тезислер, Нөкис, 2024, 158–160-бетлер.

⁴ Қурбаниязов Д. Баспасөз материаллары темаларының стильлик өзгешеликleri. «Глобалласуу процессинде ғалаба хабар қуралларының роли» атамасындағы халықаралық илимий-әмелий конференция материаллары (22-апрель, 2019-жыл). Нөкис, «Қарақалпақстан», 2019, 37-бет.

⁵ Каллибекова Г.П. Tarawlıq gazeta materiallarını tili hám stil'lik özgeshelikleri. Нөкис, «Илимпаз», 2022.

«to'nini teskari kiyish» degan iborani ishlatdilaringiz. Bu jahli chiqqan odamga nisbatan aytilishini bilaman». «Xalqimizning «to'nini teskari kiydi» degan iborasi bekorga aytilmaydi». «Avvallari odamlarning kundalik kiyimi to'n bo'lgan. **«Kambag'alni urma, so'kma, to'nini yirt»** degan ibora ham shundan qolgan. Ha, kambag'alning to'ni bir dona bo'lgan. Agar to'ni yirtilsa, ko'chaga kiygani boshqa libosi qolmas edi. Ana o'sha davrlarda kambag'al odamning jahli chiqib, birortasi bilan olishmoqchi bo'lsa, to'nining ustki qismini avaylab, teskarisini kiyib olar ekan». Misollardagi «*To'rt-besh ko'ylakni ortiqcha to'zitgansizlar*», «*Men bog'dan kelsam, sen tog'dan kelasan-a*», «*to'nini teskari kiyish*», **«Kambag'alni urma, so'kma, to'nini yirt»** kabi iboralar tilimizdagi mavjud bo'lgan boy resurslarimiz namunasi. Gazeta muxbirlari bu iboralarni mohir va kontekstda to'g'ri ishlatgan.

Gazeta muxbiri Boboravshan G'oziddinov. «Yangi O'zbekiston» gazetasi, 2024-yil 5-dekabr, 247-son. «Yangi O'zbekiston» gazetasi muxbiri Boboravshan G'oziddinovning «Esse» ruknida «Ruhiiy ehtiyojdan ijtimoiy zaruratgacha yoxud qonunlar qanday yashaydi?» nomli maqolasi berilgan. Maqola matnida **o'xshatishlar, perifrastalar** faol ishlatilgan. Masalan: «Kunbotorni tomosha qilib o'tirgan suhbatdoshim uzoq o'yg'a tildi. Uning nigohi qontalash bulutlarga qadalgan, chuqur nafas olishidan yelkasi ko'tarilib tushardi. U go'yo **qushday uchishga chog'lanar**, ammo zamin oyog'idan mahkam ushlab turganday edi». «Toshkentda uyim yo'q edi. **Katalakday do'konimga** har kuni soliqchi kelardi. Sanitariya idorasi bir kunda uch mahal tekshirardi». «Avvalo, **inson hayoti go'dak uyqusiday sokin**, maroqli bo'lishini istaydi». «Senga yordam berishga qasam ichgan **oq xalatli insonlar** esa bir parcha qog'ozga, shu shaharga rasman mansub yoki mansub emasligingga qarab muomala qiladi...». «Falonchi ilg'or teruvchi, u chanoqda paxta qoldirmaydi. Pistonchi esa buning aksi, paxtani toza termaydi. Boz ustiga, fartug'idagi **«oq oltin»**ni yerga to'kib-sochib yuradi», deb yozgan». «Shu zaylda o'ylarim **Bosh qonunimiz**, undagi o'zgarishlar sabab kafolatlangan huquqlarimiz sari ketadi». «Suhbatdoshim tinmay gapirardi. Ro'paramizda esa ertaga yanada charog'on kun bo'lishiga vada berganday **quyosh ufqni tandirday qizartirgan**». Misollardagi **qushday uchishga chog'lanar, katalakday do'konimga, inson hayoti go'dak uyqusiday sokin, quyosh ufqni tandirday qizartirgan** kabi leksik birliklari o'xshatish bo'lib, biror narsani ikkinchi predmetga qiyoslab ko'rsata olgan. *Keyingi qatordagi oq xalatli insonlar, oq oltin, Bosh qonunimiz* kabi misollar perifraza hisoblanib, ular adabiy tilimizda avvaldan mavjud. Jurnalistlar kontekstda ishlatish orqali badiiylilikni ta'minlay olgan.

Tashqi mualliflar maqolalarida ham perifrastalar faol qo'llaniladi. A) «Yangi O'zbekiston» gazetasi, 2024-yil 11-dekabr 251-sonida Xayrulla Lutfullayev, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori, O'zbekiston xalq artistining muallifligida keng ko'lamli maqola berilgan. «Ko'ngildagi bitiklar» ruknida «Komil tarbiyada musiqaning o'rni manaviy yuksalishga qaratilayotgan e'tibor zamidridagi hayotiy haqiqatlar» nomli maqolasida badiiylilikni ta'minlash maqsadida perifrastalardan foydalanilgan. Masalan:

1. Son bilan aloqadar perifrastalar. «Hayotiy kuzatuvlarim asosida aytishim mumkin: **uchta davr**, ya'ni, **sobiq sho'rolar tuzumi, mustaqillikning dastlabki yillari va Yangi O'zbekistonda** boshlangan o'zgarishlarga shohid bo'ldim».

2. Qandaydir bir nomni, atamani tushuntirib keluvchi perifrastalar. «**Maqom** – *umumbashariy tuyg'ularni avj pardalarda tarannum etadigan nodir san'at turi* sifatida ham biz uchun g'oyat qadrlidir». «*Mumtoz musiqa sanatining gultoji* bo'lgan betakror **maqomlarimiz** UNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan».

B) «Yangi O'zbekiston» gazetasi, 2024-yil 26-noyabr, 240-soni. «Buyuk ajdodlarimiz» ruknida «Ali Qushchi: Mangulikning besh yarim asri» nomli maqola Firdavs Abduxolliqov, O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi direktorining muallifligida tayyorlangan.

1. Shaxs nomi bilan aloqadar perifrastalar. «*Mirzo Ulug'bek astronomiya maktabining yirik vakili, buyuk vatandoshimiz, turk dunyosining yetuk allomalaridan biri* **Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi** nomi dunyo ilmiy jamoatchiligiga yaxshi tanish». «*Mirzo Ulug'bekning eng ishonchli do'sti va shogirdi* sifatida u ustozining «Ziji Ko'ragoniy» asariga sharh yozgan». «Marosimda so'z olganlar **Ali Kushchi** nafaqat buyuk olim, balki *turkiy dunyoening ikki muhim qutbi – Samarqand va Istanbul o'rtasidagi marifiy ko'pri timsoli* ekanini ham ta'kidladi». «Turkiya Fanlar akademiyasi prezidenti Muzaffar Sheker o'zbekistonlik mehmonlarga tashrif uchun minnatdorlik bildirib, kelgusida *turk dunyosining buyuk vakili bo'lgan Ali Qushchi* hayoti va merosini o'rganish yuzasidan ikki davlat olimlari o'rtasida hamkorlik qilish lozimligini qayd etdi». Misollardagi *Mirzo Ulug'bek astronomiya maktabining yirik vakili, buyuk vatandoshimiz, turk dunyosining yetuk allomalaridan biri, Mirzo Ulug'bekning eng ishonchli do'sti va shogirdi, turkiy dunyoning ikki muhim qutbi – Samarqand va Istanbul o'rtasidagi marifiy ko'pri timsoli* kabi perifrastalari **Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi** nomi bilan bog'liq ishlatilgan.

2. Shahar nomi bilan aloqadar perifrazalar. Gazeta tilida faktlar aniq berilishi asosiy talabi. Shuning ushuni ham voqea-hodisa yuz bergan shaharlar nomi badiiy shaklda ham to'g'ri gazetxonga yetkazilgan. Masalan: «Olimning vafotidan so'ng sultonning farmoniga ko'ra, hurmat nuqtai nazaridan uni *İstanbulning eng qutlug' qadamjosi –Konstantinopol* qamali chog'ida shahid bo'lgan sahobai kirom Abu Ayyub Ansoriy (r.a.) maqbarasi yoniga dafn etadilar». «Simpozium tufayli yana bir bor *Ali Qushchining so'nggi damlari kechgan tarixiy shaharga* yo'l oldik». *İstanbulning eng qutlug' qadamjosi, Ali Qushchining so'nggi damlari kechgan tarixiy shahar* perifrazasi – *Konstantinopol* nomiga bog'lik shaklda qo'llanilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, jurnalist ijodi doimo jamiyat tomonidan kuzatib boriladi. Jurnalist matnni, sarlavhani, lid matnni chiroyli va badiiy shaklda tuzish kerak. Bu jarayon muntazam davom etadigan bo'lsa, auditoriya uning ijodini doimo kuzatadi. Chunki, uning yozgan xabari, reportaji yoki maqolasi orqali gazetxon o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni oladi. Shuning uchun ham uning ijodi gazetaning qaysi sonida qaysi tilda, qanday uslubda berildi ekan deb qiziqadi va o'qishni boshlaydi. Demak, jurnalist ijodi orqali auditoriyani o'ziga qaratadi va uni ushlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Pirniyazova A., Kallibekova G. Perifraza – sóylewdiń kórkemligin ta'miynlewshi qural. Tu'rkiy tilles xalıqları folklorı ha'm ádebıyatı tariyxın izertlewdiń a'hmiyetli máseleleri atamasındaǵı xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya toplamı, Maqalalar ha'm tezisler, Nókis, 2024, 158–160-betler.
- (2). Toshpo'latova N. Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari. V jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2019, 95-bet.
- (3). Qosimova N. Ixtisoslashgan jurnalistika. IX jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2019, 214-bet.
- (4). Orazımbetova Z. Qaraqalpaq kúndelikli baspasózi tiliniń stillik ózgeshelikleri. Toshkent, «Hilol media», 2019.
- (5). Masharipova T.J. Publitsistika nazariyasining yaxlit konsepsiyasi (ilmiy-metodologik tahlil, Qoraqalpog'iston Respublikasi matbuoti materiallari misolida). Fil. fan. doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, No'kis, 2020.
- (6). Qurbaniyazov D. Baspasóz materialları temalarınń stillik ózgeshelikleri. «Globalısq processinde ǵalaba xabar qurallarıniń roli» atamasındaǵı xalıqaralıq ilimiy-ámeliy konferenciya materialları (22-aprel, 2019-jıl), Nókis. "Qaraqalpaqstan", 2019, 37-bet.
- (7). Kallibekova G.P. Tarawlıq gazeta materiallarınıń tili hám stillik ózgeshelikleri. Nókis, "İlimpaz", 2022.
- (8). Seitnazarova G. Yangi davr jurnalistikasida ijodiy mahoratning o'rni va ahamiyati (Qoraqalpog'iston matbuoti materiallari misolida). Fil. fan. bo'y fals. dok. diss. avtoref., Toshkent, 2021, 18-bet.

Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich (Namangan davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi;
e-mail: abdurasulmirzaakbarov95@gmail.com)

TALABALARNI MILLIY KONTENT ASOSIDA O'QITISHNING MODELI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini milliy kontent asosida o'qitishning ilmiy-pedagogik modelini ishlab chiqish va uning amaliy ahamiyati keng ko'lamda tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limda milliy qadimiyatlar va madaniyatni o'quv jarayoniga integratsiyalashuv masalasi globalizatsiya sharoitida milliy o'zlikni saqlash, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Maqolada milliy kontentning ta'rifi, uning ta'limdagi funksional roli, psixologik-pedagogik asoslari, taklif etilayotgan o'qitish modeli, uning komponentlari, afzalliklari va O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llanilishi uchun strategiyalar batafsil muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, milliy kontent, o'qitish modeli, milliy qadimiyatlar, madaniy integratsiya, pedagogik yondashuv, vatanparvarlik, ijtimoiy o'zlik, globalizatsiya, ta'lim jarayoni.

Мирзаакбаров Абдурасул Мирзаакбарович (преподаватель Наманганского государственного педагогического института; e-mail: abdurasulmirzaakbarov95@gmail.com)

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ
НАЦИОНАЛЬНОГО СОДЕРЖАНИЯ**

Аннотация. В статье дается комплексный анализ теоретических основ, психолого-педагогических аспектов и практической значимости обучения учащихся начальной школы на основе национального содержания. В современном образовании вопрос интеграции национальных древностей и культуры в образовательный процесс становится все более актуальным для сохранения национальной идентичности в условиях глобализации и воспитания у учащихся таких качеств, как патриотизм и социальная ответственность. В статье подробно рассматриваются определение национального содержания, его функциональная роль в образовании, психолого-педагогические основы, преимущества, ограничения и предлагаемые стратегии его применения в системе образования Узбекистана.

Ключевые слова: начальное образование, национальный контент, образовательный контент, национальные древности, культурная интеграция, педагогический подход, образовательный процесс, патриотизм, социальная идентичность, глобализация.

Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich (Teacher of Namangan State Pedagogical Institute;
e-mail: abdurasulmirzaakbarov95@gmail.com)

CONTENT OF TRAINING STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL CONTENT

Annotation. This article comprehensively analyzes the theoretical foundations, psychological and pedagogical aspects and practical significance of teaching students of primary education on the basis of national content. In modern education, the issue of integrating national antiquities and culture into the educational process is gaining importance in the context of globalization in preserving national identity and instilling in students such qualities as patriotism and social responsibility. The article discusses in detail the definition of national content, its functional role in education, psychological and pedagogical foundations, advantages, limitations and proposed strategies for its application in the education system of Uzbekistan.

Keywords: primary education, national content, educational content, national antiquities, cultural integration, pedagogical approach, educational process, patriotism, social identity, globalization.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (PQ-4872) hujjatiga asoslanib, milliy kontentni ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvning strategik yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan [1]. Ta'lim jamiyatning intellektual va madaniy salohiyatini shakllantirishda asosiy bosqich sifatida qaraladi. Bu davrda talabalar nafaqat fanlar bo'yicha dastlabki bilimlarni egallaydi, balki o'zlarining ijtimoiy va milliy identifikatsiyasini rivojlantirish jarayonini boshlaydi. O'zbekiston kabi ko'p asrlik tarix va madaniyatga ega mamlakatda milliy kontentni ta'lim jarayoniga joriy etish globalizatsiya sharoitida milliy o'zlikni saqlash va zamonaviy talablarga javob beradigan shaxsni tarbiyalash uchun strategik vazifa hisoblanadi. Maqola milliy kontentni tizimli ravishda qo'llash uchun amaliy modelni ishlab chiqish va uni sinovdan o'tkazishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Milliy kontent asosida ta'lim berish va o'qitish modellari bo'yicha xalqaro va mahalliy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilgan. Xalqaro tajribada Janubiy Koreyada milliy tarix va adabiyotga asoslangan o'qitish modeli o'quvchilarning milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish bilan birga, global raqobatbardoshlikni ta'minlashda muvaffaqiyatli qo'llanilgan [4]. O'zbekiston olimlari orasida Z.Abdugodirova [2] o'zbek xalq pedagogikasining zamonaviy ta'limdagi o'rnini o'rganib, milliy qadimiyatlarni o'quv jarayoniga integratsiyalashuvning axloqiy tarbiyadagi rolini ko'rsatgan. Biroq O'zbekistonda milliy kontent asosida tizimli o'qitish modelini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas, bu esa ushbu sohada chuqur izlanishlarni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Ta'limda milliy kontent asosida o'qitish modelini ishlab chiqish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

Xalqaro (Yaponiya, Rossiya, Janubiy Koreya) va mahalliy manbalardan milliy kontentning ta'limdagi roli va o'qitish modellari o'rganildi.


1. O'zbekiston ta'lim dasturlari xorijiy tajribalar bilan solishtirildi.

2. O'zbekistondagi ta'lim dasturlari, darsliklar va milliy qadimiyatlarni o'z ichiga olgan materiallar tahlil qilindi.

3. Namangan va Andijon viloyatlaridagi 2 ta oliy ta'limda taklif etilgan model sinovdan o'tkazildi. 60 nafar talaba va 120 nafar ota-ona o'rtasida modelning samaradorligi bo'yicha so'rov o'tkazildi.

Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (PQ-4872) hujjatiga asoslanib, milliy kontent asosida o'qitish modelini tizimli joriy etish yo'llarini aniqlashga qaratildi.

Taklif etilayotgan model Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, insonning kognitiv rivojlanishi uning madaniy muhiti bilan bog'liq bo'lib, milliy kontent tanish kontekst orqali bilimlarni oson o'zlashtirish imkonini beradi. Bloomning taksonomiyasi esa milliy kontent orqali talabalarning tahlil qilish, sintez qilish va baholash kabi yuqori darajali fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini ko'rsatadi [3]. Ta'limda milliy kontent asosida o'qitish modeli quyidagi beshta asosiy bosqichdan iborat.



Bu modelimizning afzalliklari, kamchiliklari, amaliy qo'llanishini va eksperimental natijalarini tahlil qilaylik.

Modelning afzalliklari:

1. Talabalar o'z xalqining tarixi va madaniyatini o'rganib, milliy g'urur tuyg'usini rivojlantiradi.

2. Mahalliy kontekstga asoslangan materiallar talabalarning tushunish va xotirada saqlash qobiliyatlarini oshiradi. Eksperimentda model qo'llanilgan sinflarda matematik masalalarni hal qilish darajasi 17% ga oshgan.

3. So'rovnomada ota-onalarning 89% bu jihatni yuqori baholagan.
4. Tanish mavzular o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi va model turli fanlar va sinf darajalariga moslashtirilishi mumkin.


Modelning kamchiliklari:

1. Zamonaviy o'quv materiallari va o'qituvchilar uchun maxsus dasturlar kam.
2. Shu bilan birga, tadqiqot milliy kontentni samarali qo'llash uchun pedagoglarning metodik tayyorgarligini oshirish va o'quv materiallarini yangilash zaruriyatini ko'rsatdi [6]. Milliy kontentni o'quv dasturiga integratsiyalashuv qo'shimcha vaqt talab qiladi.

Tahlillar va natijalar (Analyses and results). Milliy kontent o'zbek xalqining madaniy, tarixiy, adabiy va axloqiy merosini aks ettiruvchi o'quv materiallari sifatida ta'riflanadi. Ta'limda milliy kontent quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

1. O'zbek xalq ertaklari ("Alpomish", "Nasriddin Afandi"), Alisher Navoiyning asarlari, maqollar va topishmoqlar.
2. O'zbekistonning buyuk shaxsiyatlari (Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Amir Temur) va ularning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi.
3. Milliy musiqa (maqomlar, doira), raqs ("Lazgi") va hunarmandchilik (gilamdo'zlik, zardo'zlik).

Eksperimental natijalar. Namangan va Andijon viloyatlaridagi 2 ta oliy ta'limda model sinovdan o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, model qo'llanilgan guruhlarda talabalarning o'quv faoliyati 20% ga, darsga qiziqishi 15%ga oshdi. Masalan, ona tili darslarida "Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish yuzasidan 1–4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish" mavzulari asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning so'z boyligini 12%ga kengaytirdi. O'qituvchilar modelning samaradorligini tasdiqlagan bo'lsa-da, qo'shimcha resurslar va tayyorgarlik zarurligini ta'kidladi. Buni diagramma ko'rinishida tasvirlash mumkin [5].



Xulosa (Conclusion). Ta'limda milliy kontent asosida o'qitish modeli ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni o'z xalqining madaniy merosiga bog'lash va ularni global dunyoda raqobatbardosh shaxs sifatida tayyorlashda muhim vositadir. O'zbekistonning boy madaniy merosidan foydalanish modelni yanada samarali qiladi. Modelni to'liq joriy etish uchun o'quv dasturlarini yangilash, o'qituvchilar malakasini oshirish, texnologiyalardan foydalanish va jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim. Davlat siyosati doirasida milliy kontent asosida o'qitishni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi O'zbekiston ta'lim tizimining kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PQ-4872-qarori. "O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi". <https://lex.uz/docs/4571922>
- (2). Abduqodirova, Z. (2020). O'zbek xalq pedagogikasining zamonaviy ta'limdagi o'rni. Toshkent, O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
- (3). Bloom, B.S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives. The Classification of Educational Goals. New York: David McKay Company.
- (4). Kim, S., & Park, J. (2020). National Identity and Education in South Korea: Integrating History and Culture into Primary Education. Seoul: Korean Educational Development Institute.
- (5). Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich. (2024, декабрь). Boshlang'ich sinf matematika darslarida grafiklar, diagrammalar va jadvallarni o'rgatish metodikasining dolzarbligi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14280249>
- (6). Mirzaakbarov, A.M. "Oliy ta'lim tizimini integratsiyalashda milliy kontentdan foydalanishning o'ziga xos jihatlar". "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali, 1-son, 2025, 343–347-betlar.

Toshpo'latova Inobat Ulug'bek qizi (Namangan davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti)
MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALAR KREATIV KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bolalarda ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash va yangilik yaratish qobiliyatlarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Tadqiqotda kreativ kompetensiyaning tarkibiy tuzilishi, uning rivojlanish bosqichlari hamda pedagog va psixologlarning bu jarayondagi roli yoritilgan. Shuningdek, bolalarning kreativ fikrlashini rag'batlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar, o'yin va san'at elementlari asosida yaratilgan metodlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: kreativ kompetensiya, ijodiy tafakkur, maktabgacha yosh, pedagogik-psixologik xususiyatlar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В данной статье анализируются педагогико-психологические особенности развития креативной компетентности детей старшего дошкольного возраста. Формирование у детей творческого мышления, самостоятельности и способности к созданию нового является важной задачей. В исследовании рассматривается структурное содержание креативной компетентности, этапы её развития, а также роль педагогов и психологов в этом процессе. Кроме того, представлены инновационные педагогические технологии, игровые и арт-методы, способствующие развитию креативного мышления у детей.

Ключевые слова: креативная компетентность, творческое мышление, дошкольный возраст, педагогико-психологические особенности

PEDAGOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE IN OLDER PRESCHOOL CHILDREN

Annotation. This article analyzes the pedagogical features of developing creative competence in senior preschool children. The formation of creative thinking, independent reasoning, and the ability to generate new ideas is a crucial task. The study examines the structural components of creative competence, its stages of development, and the role of educators and psychologists in this process. Additionally, innovative pedagogical technologies, play-based methods, and art techniques that stimulate creative thinking in children are presented.

Keywords: creative competence, creative thinking, preschool age, pedagogical and psychological features.

Kirish. Zamonaviy jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan biri ijodiy va innovatsion fikrlaydigan avlodni tarbiyalashdir. XXI asrda insonning muvaffaqiyati nafaqat bilim va ko'nikmalariga, balki kreativ tafakkur darajasiga ham bog'liq. Shu sababli ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, ayniqsa, maktabgacha ta'limda bolalarning kreativ kompetensiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bu ijodiy qobiliyatlarning eng faol shakllanadigan davri bo'lib, aynan shu bosqichda ularning mustaqil fikrlashi, muammolarni nostandart hal qilish ko'nikmalari va yangilik yaratish qobiliyatlari rivojlana boshlaydi [1;21-b.].

Kreativ kompetensiyani shakllantirish jarayoni nafaqat bola shaxsini rivojlantirish, balki uning keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorgarligini oshirish, jamiyatda faol va muvaffaqiyatli shaxs bo'lishiga xizmat qiladi. Bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va psixologik metodlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni tadqiq etish va amaliyotga joriy etish bugungi kunda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalar kreativ kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik, shu bilan birgalikda, psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida kreativ kompetensiyaning tarkibiy tuzilishi, uning rivojlanish bosqichlari, bolalar tafakkurini ijodiy yondashuv asosida shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metod va texnologiyalar ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, kreativ kompetensiyani rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar, pedagog va psixologlarning roli hamda amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekistonlik mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar (X.T.G'ofurov, S.A.Tursunov, N.F.Turg'unov) shuni ko'rsatdiki, kreativ kompetensiyani rivojlantirish, bolalarda ijodiy tafakkur va yangilik yaratish qobiliyatlarini shakllantirish uchun o'yin metodlari va san'at faoliyatining katta ahamiyati bor. Bu jarayon bolalarda yangi g'oyalar va yechimlarni ishlab chiqish-

ga, muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Boshqa tadqiqotchilar (R.I.Shakhov, N.M.Polovinkina) esa kreativlikni rivojlantirishda, bolaning o'z-o'zini anglashini va fantaziyasini qo'llashni ta'kidlaganlar.

Shuningdek, pedagogik-psixologik yondashuvlarning roli ham alohida e'tiborga loyiqdir. O'zbekistonda amalga oshirilgan psixologik tadqiqotlar (B.Sh.Boboyev, N.I.Mo'minov) bolalar ijodkorligini rivojlantirishda pedagogning shaxsiy yondashuvi, o'qitish jarayonida yaratgan ijodiy muhitning muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, D.K.Kipnis, Y.I.Klochko kabi chet el tadqiqotchilari ijodiy tafakkurning rivojlanishida bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan o'yin va san'at faoliyatining ahamiyatini ta'kidlagan [2;12-b.].

Bundan tashqari, kreativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik vositalaridan biri sifatida o'quv jarayonida interfaol metodlar, muammoli ta'lim va loyihalash metodologiyasi kiritilishi samarali natijalarga olib keladi. Shu bilan birga, san'at terapiyasi va divergent fikrlash bolalarda ijobiy xulq-atvor va psixologik salohiyatni oshirishda samarali hisoblanadi. Shu bois badiiy faoliyat, tasviriy san'at va ijodiy o'yinlarni o'zlashtirish orqali bolalarning kreativ qobiliyatlari yanada rivojlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asoslari, pedagogik va psixologik nazariyalar, shuningdek, o'qitishning innovatsion texnologiyalari, kreativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarning pedagogik-psixologik yondashuvlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo'llanilgan:

1. Nazariy tahlil kreativ kompetensiya, ijodiy tafakkur va ta'limda innovatsion metodlarning ahamiyatini o'rganish, ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar tahlil qilindi.

2. Eksperimental metod maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonining samaradorligini o'rganish uchun eksperimentlar o'tkazildi. O'yin texnologiyalari, san'at faoliyatlari va muammoli ta'lim usullarini qo'llash orqali pedagogik jarayonni amalda sinovdan o'tkazish.

3. Diqqatni jamlash metodlari bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'rganish va rivojlantirishda jamoaviy va individual yondashuvlar tatbiq etildi. Shu orqali ularning ijodiy tafakkurini shakllantirishga qaratilgan amaliyotlar o'tkazildi.

4. So'rovnomalar va intervyular pedagoglar va ota-onalardan fikr olish orqali, bolalar kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning mavjud muammolarini aniqlash va tahlil qilish.

5. Ta'lim natijalarini baholash bolalarning kreativ qobiliyatlarini o'lchash va ularning o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun maxsus testlar va vazifalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida yuqoridagi metodlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan pedagogik-psixologik ishlarni amalga oshirishda samarali metodologik yondashuvlar ishlab chiqildi va ulardan foydalanish tajribalari tahlil qilindi. Bu metodologiya bolalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali usullarini aniqlashga imkon yaratdi [3;5-b.].

Kreativ kompetensiya maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun muhim omil hisoblanadi, chunki ularning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvchanlik va kelajakdagi o'qish faoliyatiga tayyorlanishida katta ahamiyatga ega. Tadqiqotda ta'kidlanganidek, kreativ kompetensiyaning rivojlanishi nafaqat bolalarning akademik yutuqlari, balki ularning ijtimoiy va emosional holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Pedagoglar bolalar bilan ishlashda ijodiy metodlarni qo'llash orqali ular bilan ishlashda qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam berishlari kerak. Ammo har bir bolaning individual xususiyatlari va o'ziga xos rivojlanish jarayoni borligini unutmang. Ba'zi bolalar o'zlarini erkin ifodalashda qiyinchilikka duch kelishi mumkin, bu holatni pedagoglar yengish uchun mos metodlarni tanlashlari lozim. Shu sababli, pedagoglarning ijodiy yondashuvlarini rivojlantirish va ular uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarur.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, jumladan, o'yin metodlari, muammoli ta'lim, interfaol metodlar va san'at faoliyati bolalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vositalardir. Lekin bu metodlarni amalga oshirishda ularning samaradorligi faqatgina to'g'ri tashkil etilgan ta'lim muhitiga bog'liq bo'lib, pedagoglar va ota-onalar o'rtasida hamkorlik, bolalar uchun qulay va rivojlantiruvchi sharoit yaratishni talab qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ kompetensiyaning rivojlanishi turli bosqichlarga bo'linadi. Har bir bosqichda bolalarning ijodiy tafakkuri va qobiliyatlari yangi darajaga ko'tariladi. Misol uchun, 3–4 yoshdagi bolalar ko'proq tasvirlar va shakllar bilan tanishsa, 5–6 yoshdagilar esa o'z g'oyalarini ifodalashni boshlaydilar. Biroq barcha bolalar o'z vaqtida va bir xil tezlikda rivojlanmaydi, shuning uchun ular uchun individual yondashuvni ishlab chiqish zarur.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kelajakda kreativ kompetensiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi qo'shimcha omillarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, bolalarning oilaviy muhitidagi

ijtimoiy sharoitlar, jamiyatdagi o'zgarishlar va pedagogik metodlarning ta'siri bilan bog'liq qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazilishi lozim. Shuningdek, kreativ kompetensiyani rivojlantirishda texnologik vositalarni, masalan, raqamli o'yinlar va interfaol ilovalarni qo'llash imkoniyatlarini o'rganish ham muhim masalalardan biri deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). G'ofurov, X.T., Tursunov, S.A., Turg'unov, N.F. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodlari. Toshkent, "O'qituvchi", 312-bet.
- (2). Shakhov, R.I., Polovinkina, N.M. (2019). Pedagogik psixologiya. Kreativ fikrlash va innovatsion metodlar. Moskva: Pedagogika. 67-bet.
- (3). Boboyev, B.Sh., Mo'minov, N.I. (2021). San'at terapiyasi va bolalarda kreativ kompetensiya. Toshkent, O'zbekiston Milliy universiteti, 105-bet.
- (4). Kipnis, D.K., Klochko, Y.I. (2018). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodlari. Sankt-Peterburg, Yevropa Pedagogika akademiyasi, 100-bet.
- (5). Ismoilov, M.S. (2017). Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish. Samarqand, Samarqand davlat universiteti.

UO'K: 378.147.227(612.311.1)

**Abduraxmonova Muxayoxon Abduraximovna (Qo'qon universiteti Andijon filiali, Stomatologiya yo'nalishi
"Klinik fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi; ORCID 0000-0002-3360-8579)
TALABALARNI O'QITISHDA STEAM TA'LIMNING QOLLANILISHI**

Annotatsiya. *STEAM ta'limi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) bugungi kun ta'lim jarayonlarida innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu metodologiya o'quvchilarni ijodkorlik, muammolarni hal qilish qobiliyati va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. STEAM ta'limi fanlararo integratsiya orqali bilimlarni amaliy hayotga tatbiq qilishga yordam beradi. Ushbu yondashuv orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki o'rgangan bilimlarini loyihalar yaratish va amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida mustahkamlaydi. Shuningdek, STEAM ta'limi talabalarda jamoada ishlash, innovatsiyalarni o'zlashtirish va global muammolarni tushunish ko'nikmalarini shakllantiradi. Mazkur ta'limning qo'llanilishi ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada STEAMning asosiy afzalliklari ko'rsatilgan ta'lim, uning turlari va mutaxassislarini tayyorlashdagi roli, asosiylari ta'lim konsepsiyasining vazifalari. Yondashuv kombinatsiyaga asoslangan nazariy va amaliy ko'nikmalar, ya'ni bir nechta bilim sohalari.*

Kalit so'zlar: *STEAM ta'limi, fanlararo integratsiya, innovatsion yondashuv, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, amaliy ta'lim, jamoada ishlash, loyihaviy faoliyat, zamonaviy ta'lim, o'quv jarayoni, texnologiya, muhandislik, matematika, san'at.*

**Абдурахманова Мухайохон Абдурахимовна (Андижанский филиал Кокандского университета, старший преподаватель кафедры клинических наук, направление стоматологии;
ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ STEAM В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ**

Аннотация. *STEAM Education (наука, технология, инженерия, искусство, математика) - один из инновационных подходов к современным образовательным процессам. Эта методология направлена на развитие у учащихся творческих способностей, навыков решения проблем и навыков критического мышления. STEAM Education помогает применять знания на практике посредством междисциплинарной интеграции. Благодаря такому подходу учащиеся не только приобретают теоретические знания, но и закрепляют полученные знания в процессе создания проектов и выполнения практических заданий. Кроме того, Steam Education развивает у студентов навыки командной работы, внедрения инноваций и понимания глобальных проблем. Применение данного образования имеет важное значение для развития и повышения эффективности системы образования в соответствии с современными требованиями. В этой статье показаны основные преимущества STEAM образования, его виды и роль в обучении специалистов, основными из которых являются функции образовательной концепции. Подход основан на сочетании теоретических и практических навыков.*

Ключевые слова: *STEAM образование, междисциплинарная интеграция, инновационный подход, творчество, критическое мышление, решение проблем, практическое обучение, командная работа, проектная деятельность, современное образование, учебный процесс, технологии, инженерия, математика, искусство.*

THE USE OF STEAM LEARNING IN STUDENT EDUCATION

Annotation. *STEAM Education (science, technology, engineering, art, mathematics) is one of the innovative approaches to modern educational processes. This methodology is aimed at developing students' creative abilities, problem-solving skills, and critical thinking skills. STEAM Education helps to put knowledge into practice through interdisciplinary integration. Thanks to this approach, students not only acquire theoretical knowledge, but also consolidate their knowledge in the process of creating projects and completing practical tasks. In addition, Steam Education develops students' teamwork, innovation, and understanding of global issues. The application of this education is essential for the development and improvement of the effectiveness of the education system in accordance with modern requirements. This article shows the main advantages of STEAM education, its types and role in training specialists, the main of which are the functions of the educational concept. The approach is based on a combination of theoretical and practical skills, i.e. multiple areas of expertise.*

Key words: *STEAM education, interdisciplinary integration, innovative approach, creativity, critical thinking, problem solving, applied education, teamwork, project activities, modern education, learning process, technology, engineering, mathematics, art.*

Kirish. STEM – bu ilmiy faoliyatni birlashtirgan o'quv dasturi bo'lib, u fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering) va matematika (Mathematics) sohalarini o'z ichiga oladi. Ushbu ta'lim dasturi zamonaviy dunyodagi ilm-fan va texnologiya rivojiga javob beradigan, amaliy va nazariy bilimlarni birlashtirgan yondashuvdir. Ba'zan ushbu modelga "A" harfi qo'shiladi va STEAM (Art – san'at) dasturi shakllanadi. Bu esa ijodkorlik va gumanitar fanlarni ham qamrab olish orqali talabalarning fikrlash doirasini kengaytiradi. STEAM yondashuvi nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki ijodiy yondashuv va estetikani ham rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu esa o'quvchilarga muammolarni kengroq va innovatsion usullarda hal qilish imkonini beradi. Umuman olganda, STEM va STEAM ta'limi bugungi kun talablari va kelajak kasblariga mos bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. STEAM yondashuvi an'anaviy "texnik" va "gumanitar" fikrlash usullarini o'zaro qarama-qarshi qo'yish tushunchasini yo'q qiladi. Dastlab, STEAM ta'limining asosiy maqsadi ilm-fan sohasida o'qishni ommalashtirish bo'lgan. Hozirgi kunda esa STEAM asosida ishlab chiqilayotgan o'quv dasturlari talabalarga nafaqat texnologiya sohasida, balki muhandislik ishlarida ham faoliyat yuritish uchun tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan. Ta'limga kiritilayotgan investitsiyalar faqat kompyuterlar bilan cheklanib qolmay, balki infrastrukturani rivojlantirish va o'qituvchilarning malakasini oshirish dasturlarini ham o'z ichiga oladi. Bu esa zamonaviy talablarga javob beradigan ko'nikma va bilimlarni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. STEAM ta'limi shunday tizimni shakllantiradiki, unda talabalarning ijodkorlik, ilmiy va texnik salohiyatini rivojlantirish bir vaqtda amalga oshadi. STEAM ta'lim konsepsiyasi yangi emas, ammo zamonaviy o'quv muassasalari bu yondashuvga mos ravishda o'z usullarini takomillashtirmoqda. Ushbu texnologiyalarga asoslangan ta'lim rejasi o'quvchilarga zamonaviy ko'nikmalarni o'rgatishga, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga va tez o'zgaruvchan dunyo hamda kelajakdagi ish jarayonlariga moslashishga yordam beradi. Dastlabki STEAM ta'lim modeli asosan talabalarni texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlashga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan va STEAM yondashuvi nafaqat texnik bilimlar, balki ijodiy, tanqidiy va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali har tomonlama o'sishni ta'minlaydi. Bu yondashuv talabalarni kelajakda muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan qurollantiradi.

"Agar biz bugun bolalarga kecha bo'lgani kabi dars bersak, unda biz ularning ertangi kunini o'g'irlaymiz" – Jon Dyun. Bu so'zlar Jon Dyui tomonidan aytilgan bo'lib, ta'lim tizimining zamonaviy o'zgarishlarga moslashishi zarurligini ta'kidlaydi. U shunday deb aytadi: "Agar biz bugun bolalarni o'rgatayotgan bo'lsak, xuddi o'tmishda bo'lganidek, ularning ertangi kunini o'g'irlaymiz". Bu, o'z navbatida, bugungi ta'lim tizimi o'quvchilarning kelajagi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni bermayotganini anglatadi. Agar ta'lim o'zgarishlarga mos ravishda rivojlanmasa, o'quvchilar o'tmishdagi usullar bilan cheklangan bilimlarga ega bo'lib, kelajakdagi o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyat qozonish uchun yetarli bo'lmaydi. Demak, ta'lim tizimi yangilanishi va innovatsion yondashuvlarga moslashishi kerak, chunki bolalar bugun o'rganadigan bilimlar va ko'nikmalar, ular uchun kelajakda muvaffaqiyatli hayot va ish faoliyatini yaratishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy informatsiyalashuv tezligi va ta'lim tizimining raqamlashtirilishi uning paradigmasini o'zgartirib, o'qitish yondashuvlarini yangilashga olib kelmoqda. Ta'limda

foydalaniladigan STEAM texnologiyalari turli xil shakllarda namoyon bo'ladi (STEM, STEAM, STREAM va boshqalar). Dunyo mamlakatlarining STEAM dasturlarini qo'llash tajribasini tahlil qilish natijasida ushbu texnologiya kelajak ko'nikmalarini rivojlantirish (kommunikatsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik) nuqtai nazaridan juda foydali ekanligi ma'lum bo'ldi. STEAM ta'limini rivojlantirishning asosiy istiqbolli yo'nalishlari bu ta'limning shaxsiylashtirilishi har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim jarayoni, loyihaviy fikrlash va jamoaviy ishga e'tibor qaratish – amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun va aralash ta'lim formati – an'anaviy va raqamli ta'limning birlashuvidir. Uzoq muddatli istiqbolda STEAM nafaqat universitetlar, balki maktablar ta'lim dasturlarining ham ajralmas qismiga aylanishi kerak. Bu yagona ta'lim tizimini shakllantirish, ta'limning umumiy samaradorligini oshirish, shuningdek, milliy ilm-fan va sanoatning raqobatbardoshligini kuchaytirishga yordam beradi. Hozirda STEAM-ta'lim konsepsiyasini amalga oshirish oliy pedagogik universitetlar oldiga yangi vazifalar qo'yimoqda. Asosiy maqsad metapredmetli va loyihaviy-tadqiqot kompetensiyalariga ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlashdir. Bu shuni anglatadiki, pedagogika universiteti bitiruvchisi faqat an'anaviy ta'lim, tarbiya va yosh avlodni rivojlantirish bo'yicha professional vazifalarni hal qilish bilan cheklanmay, balki yangi g'oyalarni yaratishga, ularni loyihalarda amalga oshirishga, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga va natijalarni amaliyotga joriy qilishga tayyor bo'lishi lozim. STEAM-ta'lim uchun pedagoglarni tayyorlashda innovatsiyalardan biri magistratura darajasida o'quv dasturini STEAMning har bir blokini qamrab olgan modullar asosida tashkil qilishdir. Ushbu modullar fanlararo integratsiyani ta'minlab, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni birlashtirishga yordam beradi. Bu esa o'qituvchilarning STEAM tamoyillariga mos ravishda ta'lim berish salohiyatini oshiradi va zamonaviy ta'lim talablari uchun zarur bo'lgan malakalarni shakllantiradi.

STEAM ta'limi avval STEM modeli asosida rivojlangan. STEM yondashuvi quyidagicha shakllangan: 1950–1960-yillar: Sovuq urush davrida AQSHda ilm-fan va texnologiyani rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj ortdi. Ayniqsa, Sovet Ittifoqining 1957-yilda "Sputnik" sun'iy yo'ldoshini uchirishi STEM yondashuviga turtki bo'ldi. Ushbu hodisa AQSH ta'lim tizimida tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematikaga e'tiborni kuchaytirdi. 1980–1990-yillar: zamonaviy texnologiyalar rivoji va global iqtisodiyotning o'zgarishi sababli, ushbu yo'nalishlarni birlashtirgan integratsiyalashgan ta'lim tizimiga ehtiyoj paydo bo'ldi. Bu yondashuv o'quvchilarda real muammolarni hal qilish va texnologik bilimlarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan edi. STEAM yondashuvi STEMning rivojlangan shakli bo'lib, u 2000-yillarda san'atni (Arts) ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali shakllandi. Bu jarayon quyidagi sabablar bilan bog'liq edi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijodkorlikni rivojlantirish texnologik innovatsiyalar uchun muhimdir. Faqat texnik bilimlar yetarli bo'lmay, ijodiy yondashuvlar ham talab qilinadi. Jan Morrison, STEM yondashuvini ijodiy qobiliyatlar bilan boyitish tarafdori bo'lgan olim, san'atni qo'shish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali qilish g'oyasini ilgari surdi. Ushbu o'quv muassasasi 2001-yilda san'atni STEM ta'limiga qo'shishni taklif qildi va bu g'oya keyinchalik butun dunyoga tarqaldi.

2010-yillar STEAM modeli dunyo bo'ylab ommalasha boshladi. Bu davrda o'quvchilarni ijodiy fikrlash va fanlararo bog'liqlik orqali muammolarni hal qilishga o'rgatish asosiy maqsad qilib qo'yildi. STEAM ta'limi o'quvchilarni XXI asrda talab qilinadigan ko'nikmalar (ijodiylik, muhandislik qobiliyatlari, texnologik savodxonlik) bilan ta'minlash maqsadida rivojlantirildi. San'at STEAM modelida nafaqat ijodkorlikni rivojlantiradi, balki o'quvchilarning loyihalash va dizayn qilish qobiliyatlarini ham oshiradi.

Hozirda STEAM ta'limi: real muammolarni yechishda fanlararo yondashuvni qo'llaydi; ta'lim jarayonini interfaol va amaliy qilishga e'tibor qaratadi; har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. STEAM ta'limining kelib chiqishi tabiiy fanlar va texnologiyaga asoslangan STEM modelidan boshlangan bo'lib, vaqt o'tishi bilan san'atning qo'shilishi orqali yanada boyitildi. Bu yondashuv hozirgi kunda zamonaviy ta'limda keng qo'llanilib, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. STEAM ta'limi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) fanlararo yondashuvga asoslanib, o'quvchilarni amaliy, ijodiy va ilmiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltiradi. Ushbu metodologiya nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki ularni hayotiy va ilmiy loyihalarda qo'llashni o'rgatadi. STEAM ta'limida o'quvchilar texnologiyalar, muhandislik va san'at orqali muammolarni hal qilishga o'rganadilar, bu esa ularni kelajakdagi murakkab kasb va vazifalarga tayyorlaydi. STEAM ta'limining tadqiqot yo'nalishlari bu fanlararo integratsiya: ta'limning turli sohalarini birlashtirish orqali o'quvchilarning ko'p tomonlama bilim olishlarini o'rganish va amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim: o'quvchilarni loyihalar, tadqiqot ishlari va innovatsion yechimlar orqali faol ishtirokchi sifatida o'qitish, texnologiyadan foydalanish. Dasturiy ta'minot, 3D modellash, robototexnika va boshqa zamonaviy texnologiyalarning o'quv jarayoniga ta'sirini o'rganish va o'quvchilarning kelajakdagi ko'nikmalarini rivojlantirish:

Tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, jamoaviy ish va kommunikatsiya kabi qobiliyatlarni rivojlantirish usullarini tahlil qilish. STEAM ta'limining metodologiyasi bu loyihaviy qitish: o'quvchilarni turli loyihalar ustida ishlashga jalb qilish, bu esa ularga o'z bilimlarini amalda qo'llash imkonini beradi. Muammo asosida o'qitish (Problem-Based Learning) esa haqiqiy hayotdagi muammolarni hal qilish orqali o'qitishdir. Fanlararo yondashuv ham bor, bu har bir fan boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'qitiladi, bu esa murakkab masalalarni yechishda yordam beradi. Ijodiy fikrlash va san'at elementlari muhimdur, san'atning qo'llanilishi o'quvchilarda ijodiy fikrlashni kuchaytiradi va muhandislik hamda texnologiya sohaslariga yangi qarashlarni olib kiradi. Har bir o'quvchining ehtiyoj va qobiliyatlarini hisobga olish, shaxsiylashtirilgan yondashuvni qo'llash. STEAM tadqiqotlarining maqsadlari bu ta'lim samaradorligini oshiruvchi yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va zamonaviy texnologiyalar va ilmiy usullarni o'quv jarayoniga joriy qilish va o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish va ularni kelajakdagi kasb-hunar talablari uchun tayyorlash. Ta'lim jarayonida ijodkorlik va tanqidiy fikrlashning o'rni va usullarini aniqlash ham muhim. STEAM ta'limi tadqiqotlari va metodologiyasi zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning ijodkorlik va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv ta'limni yanada interaktiv, qiziqarli va hayotiy qilishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. tadqiqot natijalari STEAM ta'limini joriy qilishning quyidagi afzalliklarini ko'rsatdi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish. Ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlash.

STEM va san'at elementlarini birlashtirish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish. Amaliy loyihalar orqali o'rgangan bilimlarni real hayotga tatbiq etish imkoniyati. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar: O'qituvchilarning STEAMga oid bilim va malakalari yetarli emasligi. Zarur jihozlar va texnologik vositalarning yetishmasligi. STEAM ta'limini joriy qilish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin: o'quv dasturini moslashtirish. Mavjud ta'lim dasturlariga STEAM komponentlarini qo'shish. O'qituvchilarni tayyorlash. O'qituvchilarni STEAM ta'limining mohiyati va usullari bo'yicha o'qitish. Resurslarni ta'minlash: Zarur texnologik vositalar va laboratoriyalar bilan ta'minlash. Eksperiment va kuzatuvlar: ta'lim jarayonida yangi yondashuvlarning samaradorligini kuzatish va tahlil qilish. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, STEAM ta'limini joriy qilish o'quvchilarning quyidagi qobiliyatlarini rivojlantiradi: muammolarni hal qilishga bo'lgan layoqat; texnologik innovatsiyalarga moslashuvchanlik; tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv. Biroq ushbu modelni joriy qilishda ayrim muammolar ham uchraydi, masalan: O'qituvchilarning tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi.

Zarur texnik vositalarning cheklanganligi. STEAMga oid maxsus o'quv materiallarining yo'qligi. STEAM ta'limini ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun quyidagi takliflar beriladi: O'qituvchilarni STEAMga oid maxsus dasturlar asosida o'qitish. Zamonaviy texnologik vositalar bilan ta'minlangan STEAM laboratoriyalarini tashkil qilish. Loyiha asosidagi darslarni ko'paytirish. Fanlararo integratsiyani kuchaytirish va ijodiy faoliyatga alohida e'tibor qaratish. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'lim modeli bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv o'quvchilarning fanlararo bilimlarini uyg'unlashtirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. O'z mohiyatiga ko'ra, STEAM nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim yondashuvidir. STEAM ta'limining mohiyati-STEAM modeli tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integratsiyalashgan holda o'rgatishni maqsad qilgan. Bu ta'lim turi o'quvchilarda ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantiradi, amaliy muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni shakllantiradi. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'limi zamonaviy yondashuvlardan biri bo'lib, u ilmiy, texnologik va ijodiy sohalarni integratsiya qilish orqali o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Ushbu yondashuvning tarixi STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) konsepsiyasiga borib taqaladi, so'ngra unga "san'at" (Arts) elementi qo'shib, ta'lim mazmuni yanada boyitildi.

Xulosa va takliflar. STEAM ta'limini muvaffaqiyatli joriy qilish uchun pedagoglarning malakasini oshirish, moslashtirilgan o'quv materiallari yaratish va ta'lim jarayonini texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlash muhimdir. Ushbu yondashuv o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyor bo'lishini ta'minlaydi va ta'limning samaradorligini oshiradi. STEAM ta'limining afzalliklari: fanlararo integratsiya: steam fanlararo bog'liqlikni mustahkamlaydi, bu esa real hayotdagi muammolarni yaxlit yondashuv bilan hal qilish imkonini beradi; ijodkorlikni rivojlantirish: san'atni ta'lim jarayoniga qo'shish ijodkorlikni oshiradi; amaliyotga yo'naltirish: steam ta'limi nazariyani amaliyotga tatbiq etishni rag'batlantiradi; texnologik ko'nikmalarni oshirish: steam modeli zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni o'rgatad. STEAM ta'limini

joriy qilishning pedagogik asoslari. STEAM ta'limini muvaffaqiyatli joriy qilish uchun quyidagi pedagogik tamoyillarga e'tibor qaratiladi: integratsiyalashuv tamoyili: turli fanlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash; amaliy yondashuv tamoyili: o'quvchilarning real muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan faoliyatlari; ijodiylik tamoyili: o'quvchilarning o'ziga xos fikrlar yaratishini rag'batlantirish; moslashuvchanlik tamoyili har bir o'quvchining individual qobiliyatlariga mos o'qitish usullarini qo'llash. STEAM ta'limi o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, fanlararo bog'liqlikni shakllantirish va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash uchun samarali yondashuvdir. Olimlarning qarashlari ushbu modelning pedagogik asoslarini chuqur tushunish va uni muvaffaqiyatli joriy qilishda yo'l ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Абдукаримова, М.М. Основы STEAM-образования в современной школе. Ташкент, "Университет", 2020, 256 с.
- (2). Махмудов, А.Р. Интеграция STEM и ART как основа развития творческого мышления. "Педагогика и инновации", 2021, № 4, с. 34–41.
- (3). Салимова, Д.А. Технологии STEAM в начальном образовании. Москва, издательство "Академия", 2019, 198 с.
- (4). Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., Freeman, A. The NMC Horizon Report, 2016, Higher Education Edition. Austin, Texas, The New Media Consortium, 2016.
- (5). Колесникова, О.Е. STEAM-подход в образовательной практике. Методические рекомендации, Санкт-Петербург, изд-во СПбГУ, 2020.
- (6). Bybee, R.W. The Case for STEM Education. Challenges and Opportunities.

Axmedov Akmal Yusufovich (Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi; e-mail:akmal0086ahmedov@gmail.com; ORCID ID 0000-0002-3723-1596)

KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK BO'LAJAK PEDAGOG IJTIMOY VA KASBIY FAOLIYATI ASOSIDIR

***Annotatsiya.** Maqolada ijtimoiy pedagog faoliyatida kommunikativ kompetentlikning muhim omil ekanligi yuzasidan tushunchalar beriladi, uning kasbiy faoliyati yuzasidan turli toifadagi shaxslar bilan ishlashdagi muhim ahamiyatini asoslaydi hamda rivojlantirish yo'llari ta'kidlanadi.*

***Kalit so'zlar:** ijtimoiy pedagog, kommunikativ kompetentlik, kasbiy faoliyat, rivojlanish, ahamiyat, muloqot, empatiya, ishonch, samaradorlik, ijtimoiy ta'sir.*

Ахмедов Акмал Юсуфович (преподаватель Ферганского государственного университета; e-mail:akmal0086ahmedov@gmail.com; ORCID ID 0000-0002-3723-1596)

КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ – ОСНОВА СОЦИАЛЬНОЙ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА

***Аннотация.** В статье рассматривается важность коммуникативной компетентности в деятельности социального педагога. Обосновывается её значимость в работе с различными категориями людей и подчеркиваются пути её развития.*

***Ключевые слова:** социальный педагог, коммуникативная компетентность, профессиональная деятельность, развитие, значимость, общение, эмпатия, доверие, эффективность, социальное воздействие.*

Akmal Yusufovich Akhmedov (Lecturer at Fergana State University; e-mail:akmal0086ahmedov@gmail.com; ORCID ID 0000-0002-3723-1596)

COMMUNICATIVE COMPETENCE IS THE FOUNDATION OF A FUTURE TEACHER'S SOCIAL AND PROFESSIONAL ACTIVITY

***Annotation.** The article discusses the importance of communicative competence in the work of a social pedagogue, highlighting its significance in interacting with various individuals in their professional activities. It also emphasizes ways to develop this competence.*

***Keywords:** social pedagogue, communicative competence, professional activity, development, importance, communication, empathy, trust, effectiveness, social impact.*

Kirish. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari oldida ishlab chiqarish, boshqaruv va madaniyatning barcha sohalarida yuqori darajada faoliyat ko'rsata oladigan yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash vazifasi turibdi. O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida va jahon ta'lim makoniga integratsiya qilish maqsadida, zamonaviy mutaxassislardan nafaqat o'zlarining tor ilmiy yo'nalishlarida, balki keng ko'lamdagi ta'lim texnologiyalarini puxta egallash, ularni o'quv jarayonida samarali qo'llay olish va mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish talab etiladi. Shu sababli ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlik sifatini

o'shish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu mutaxassislar ko'p qirrali ijtimoiy amaliyotni amalga oshiradigan, oila, mehnat, kundalik hayot va dam olish sohalarida, turli yosh guruhlari bilan ishlashda maxsus bilimlarga ega bo'lishlari zarur. Ijtimoiy amaliyot quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi: ijtimoiy tarbiya, ta'lim, sog'liqni saqlash va reabilitatsiya, ijtimoiy ishlar, xavfsizlik, huquqlarni himoya qilish, qaramliklarning oldini olish (masalan, alkogolizm, narkomaniya, qimorbozlik). Ushbu sohalarining barchasi samarali ijtimoiy-pedagogik faoliyatni talab qiladi, bu esa mutaxassisning kommunikativ kompetentligi shakllanganligi bilan belgilanadi. Yaxshi til bilimi, muloqot vositasi sifatida, nafaqat oliy ta'limda muvaffaqiyatli o'qish, balki ijodkor, ijtimoiy yo'naltirilgan, harakatchan shaxsni shakllantirish uchun ham zarur bo'lib, turli kundalik, ishbilarmonlik va kasbiy muloqot vaziyatlarida o'zini ishonchli his qilish imkonini beradi.

Kommunikativ kompetentlik pedagogning o'z kasbiy funksiyalarini yuqori darajada amalga oshirishi va jamiyatning ijtimoiy kutilmalarini ro'yobga chiqarishi uchun asosiy shart bo'lib, mutaxassisning ijtimoiy-kasbiy mavqeyining muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Kompetentlik ilmiy kategoriya sifatida kasbiy ta'limida XX asr oxirida maxsus, har tomonlama tadqiqot mavzusiga aylanadi. Tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikni mutaxassis shaxsining integrativ xususiyati deb tushunadilar, ya'ni u bilimlar, ko'nikmalar va malakalar majmuasini, mehnat samaradorligini, vazifani bajarish tajribasini, mutaxassis shaxsining kasbiy jihatdan muhim sifatlarining kompleksini, mehnat faoliyatiga nazariy va amaliy tayyorgarlikning birligini anglatadi.

Kommunikativ kompetentlik bu boshqa odamlar bilan zarur aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatidir. Samarali muloqot o'zaro tushunishni, vaziyat va muloqot mavzusini chuqur anglashni ta'minlaydi. Bu muammolarni hal qilishga yordam beradi, maqsadlarga optimal resurslar sarfi bilan erishishni ta'minlaydi.

Pedagogning ijtimoiy va kasbiy faoliyatida kommunikativ kompetentlikning roli alohida ahamiyatga ega. Bu uning kasbiy faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi, ijtimoiy-pedagogik o'zaro ta'sirni ijtimoiy xizmatlar tizimida amalga oshirishda, uning mikromuhitini diagnostika qilish va aniqlashda, pedagogik nizolarni hal qilish texnologiyasida, ijtimoiy profilaktika, korreksiya, reabilitatsiya, maktab yoshidagi yoshlar uchun klub va dam olish faoliyatini tashkil etishda.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy pedagogika insonlarning zaif qatlamlari, ayniqsa, bolalar, yoshlar va qiyin hayotiy vaziyatga tushgan shaxslarning farovonligini ta'minlashda muhim strategik o'rin tutadi. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati nafaqat bilim va ko'nikmalarga, balki bevosita uning kommunikativ kompetentligiga bog'liq bo'lgan samaradorlik darajasiga ham tayanadi. Kommunikativ kompetentlik faqtgina mijozlar bilan muloqotda emas, balki hamkasblar, jamoatchilik va turli tashkilotlar bilan hamkorlikda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu kompetentlik ijtimoiy pedagogga mijozlar bilan ishonchli va hurmatga asoslangan munosabatlar o'rnatish, ularning muammolarini chuqur tushunish, ijtimoiy-psixologik holatini aniqlash va samarali yordam ko'rsatish imkoniyatini yaratadi. Shunday ekan, pedagoglar uchun kommunikativ kompetentlikni doimiy ravishda rivojlantirish nafaqat kasbiy zarurat, balki insonparvarlik burchidir. Maqola pedagog kasbiy faoliyatida kommunikativ kompetentlikning o'rnini, uning tarkibiy qismlarini va rivojlantirishning muhim yo'nalishlarini ochib berishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kommunikativ kompetentlik deganda, vazifalardan kelib chiqadigan va ular tomonidan belgilangan boshqa odamlar bilan zarur aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash qobiliyati tushuniladi. Bu insonning muloqotni ko'p darajali jarayon sifatida egallash darajasini belgilaydi. V.A.Kann-Kalik kommunikativ kompetentlikni pedagogning kasbiy-shaxsiy sifati sifatida ko'rib chiqadi va pedagogik kommunikatsiyani amalga oshirish qobiliyatlari, kommunikativ ko'nikma va malakalar, shaxsning kommunikativ yo'nalishi va boshqa ko'plab komponentlarni ajratib ko'rsatadi.

Bo'lajak pedagogning kommunikativ kompetentligi bu turli muloqot vaziyatlarida yo'naltirilganlik bo'lib, u shaxsning bilimlari va hissiy tajribasiga asoslanadi. Bu atrofdegilar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati, o'zini va boshqalarni tushunish orqali turli toifadagi aholiga tegishli aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatidir. Bu doimiy ravishda ruhiy holatlar, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy muhit sharoitlarining o'zgarib turishini anglash orqali amalga oshiriladi.

“Ensiklopedik lug‘at”da “kompetentlik” ma'lum bir sohadagi bilim va tajriba deb ta'riflanadi. Katta izohli psixologik lug‘at bu tushunchani “biror vazifani bajarish yoki biror ishni amalga oshirish qobiliyati” deb belgilaydi. E.S.Shilova esa bu kategoriyani “bilim, tajriba va qadriyatlarga asoslangan qobiliyat; bilimning malakaga aylanishi va amalda mustahkamlanishi”, deb ta'riflaydi [2;2-b.].

“Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari tizimli va ko'p komponentli. “Kompetensiya” va “kompetentlik” insonning boshqa hayot faoliyati turlarida ham keng qo'llanilib, uning kasbiy faoliyatining

yuqori sifatini anglatadi. Pedagogika ham ushbu tushunchalarga shu ma'noni beradi, ya'ni oliy o'quv yurtlari mutaxassislarini tayyorlash sifatini tavsiflash uchun. Mutaxassisning kompetentligini umumiy ko'rishda kasbiy bilimlar, kasbiy ko'nikmalar va shaxsning kasbiy sifatleri kabi komponentlarni o'z ichiga olgan kompleks sifatida tasvirlash mumkin. Kommunikativ kompetentlik muammosi turli fanlarda muhim o'rin egallaydi. Ko'plab nazariy va amaliy tadqiqotlarda muloqot motivatsiyasini o'rganish A.A.Ershov, V.S.Magun, G.Myurrey, Y.M. Orlov, I.P.Shkuratova, shaxslararo muloqot kontekstlari L.I.Antsiferova, L.F.Burlachuk, V.N.Grishina, A.I.Dontsov, U.Tomas, Y.M.Jukov, E.Y.Korjova, F.Znanevskiy, M.Sherif; shaxslararo o'zaro ta'sir qoidalari va normalari A.Argayl, J.Byuvin, M.I.Bobneva, P.Vatslavik, J.A.Grexem, D.Jekson, shaxsning kommunikativ yo'nalishi V.V.Boyko, S.L.Brachchenko, Y.A.Makarov; kommunikativ munosabat M.A.Dzheralievskaya, E.V.Zaika, A.N.Ivashov, shaxsning kommunikativ sifatleri A.V.Batarchev, V.A.Kan-Kalik, A.A.Leontev, I.V.Yakovleva, ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentlik darajasi va uning komponentlari A.A.Bodalev, A.I.Dontsov, Y.M.Jukov, Y.N.Emelyanov, L.A.Petrovskaya, V.N.Kunitsina, N.V.Kazarinova, J.Raven, D.Shon kabi olimlarning tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Ijtimoiy pedagogika va kommunikatsiya sohalaridagi adabiyotlar kommunikativ kompetentlikni kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining asosi sifatida e'tirof etadi. Taniqli olimlar, jumladan, Yurgen Habermas kommunikativ harakat nazariyasida muloqotning jamiyat va shaxs rivojidagi rolini ta'kidlaydi. Karl Rogersning insonparvarlik psixologiyasi empatiya, samimiyat va faol tinglash kabi kommunikativ ko'nikmalarining mi-jozga yo'naltirilgan yordamda qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Lev Vigotskiyning sotsiokultural nazariyasi esa muloqotning bilish jarayonlari va ijtimoiy rivojlanishdagi hal qiluvchi ta'sirini ochib beradi. Bu nazariyalar ijtimoiy pedagoglar uchun kommunikativ kompetentlikning nafaqat amaliy, balki nazariy asosini ham mustahkamlaydi, ularning kasbiy mahoratini oshirishda yo'naltiruvchi vazifani bajaradi.

Ushbu maqola nazariy-metodologik tadqiqot bo'lib, mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili, tizimlashtirish va nazariy umumlashtirish metodlariga asoslangan. Ijtimoiy pedagogika, kommunikatsiya nazariyasi, psixologiya va sotsiologiya sohalaridagi turli manbalar, jumladan, ilmiy maqolalar, monografiyalar, darsliklar va me'yoriy hujjatlar o'rganilib, ijtimoiy pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlikning o'rni, tarkibiy qismlari va rivojlantirish yo'llari aniqlangan. Shuningdek, ijtimoiy pedagogika sohasidagi mutaxassislarning amaliy tajribalari va ilmiy-metodik qarashlari umumlashtirilgan. Maqolada kommunikativ kompetentlikning nazariy va amaliy jihatlari, uning ijtimoiy pedagogik faoliyatga ta'siri hamda kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Natija va muhokama. Bo'lajak pedagogning kommunikativ kompetentligi kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismidir. Kommunikativ kompetentlik ta'lim, tarbiya, pedagogik vazifalarni hal etish jarayonida shakllanadi va muloqot hamda faoliyat jarayonida shaxsni anglash va amalga oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ijtimoiy pedagogning kommunikativ kompetentligi – bu turli muloqot vaziyatlarida yo'naltirilganlik bo'lib, u shaxsning bilimlari va hissiy tajribasiga asoslanadi. Bu atrofda bilan samarali muloqot qilish qobiliyati, turli toifadagi aholiga tegishli aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatidir. Bu doimiy ravishda ruhiy holatlar, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy muhit sharoitlarining o'zgarib turishini anglash orqali amalga oshiriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, pedagogning ijtimoiy va kasbiy faoliyatida kommunikativ kompetentlik nafaqat muhim, balki hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy omildir. Kommunikativ kompetentlikni muntazam ravishda rivojlantirish pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini kafolatlaydi, mijozlarga sifatli va samarali yordam ko'rsatish imkoniyatini oshiradi. Har bir ijtimoiy pedagog o'zining kommunikativ ko'nikmalarini doimiy takomillashtirishga intilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):

- (1). Кузнецова Елена Витальевна. Формирование коммуникативной компетентности будущего социального педагога. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, Йошкар-Ола, 2010, с. 11.
- (2). В.И.Вашнёва. Формирование коммуникативной компетентности студентов в процессе подготовки социальных педагогов. С. 4.
- (3). Петровская, Л.А. Компетентность в общении. М., "Просвещение", 1989, с. 216.
- (4). A.Y.Axmedov. Bo'lajak psixologlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muammosini o'rganishning nazariy asoslari. Galaxy international interdisciplinary research journal (Giirj), 2023.
- (5). Yusufovich, A.A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. ACADEMICIA, An International Multidisciplinary Research Journal, 12(1), p. 302–304.

Yo'ldosheva Nazokat G'ulomjonovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
"Fakultetlararo chet tillar" kafedrası o'qituvchisi; nazokatvuldasheva@urdu.uz)
**LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM METODINING DARS JARAYONIDA QO'LLANILISHI
VA BUNDA PEDAGOGNING ROLI**

Annotatsiya. Ushbu maqola loyihaviy ta'lim tushunchasi hamda uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida ma'lumot beradi va bu metodni qo'llash jarayonida pedagogning roli qay daraja ekanligini yoritib beradi. Shuningdek, loyihaga asoslangan o'qitish metodining samaradorligi, bu jarayonda o'qituvchining o'quvchilarga ta'siri haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: loyihaga asoslangan o'qitish, metod, ta'lim jarayoni, pedagog.

Йўлдашева Назокат Гуломжоновна (преподаватель межфакультетской кафедры иностранных языков, Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни; nazokatvuldasheva@urdu.uz)
ПРИМЕНЕНИЕ ПРОЕКТНОГО МЕТОДА ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ УРОКА И РОЛЬ ПЕДАГОГА

Аннотация. В статье представлена информация о понятии метода проектного обучения и его значении в образовательном процессе, а также освещен уровень роли педагога в процессе применения этого метода. Также дается информация об эффективности метода PBL, влиянии преподавателя на учащихся в этом процессе.

Ключевые слова: проектное обучение, метод, образовательный процесс, преподаватель.

Yuldasheva Nazokat Gulomjonovna (Lecturer, Department of Interfaculty of Foreign Languages, Urgenc State University named by Abu Raikhan Beruni Urgench, Khorezm, Uzbekistan; nazokatvuldasheva@urdu.uz)
THE USAGE OF THE PROJECT-BASED LEARNING METHOD DURING THE EDUCATION AND THE ROLE OF THE TEACHER

Annotation. This article provides information about the concept of project-based learning method and its importance in the educational process and illuminates the level of the role of the pedagogue in the process of applying this method. Also, it gives information about the effectiveness of the PBL method, the influence of the teacher on the students in this process.

Key words: project-based learning, method, educational process, teacher.

Kirish (Introduction) Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimini oshirish maqsadida turli xil metodlardan foydalanish hozirgi kunda zamon talabi hisoblanadi. Metodikada nima uchun (ta'lim maqsadi), nimani (ta'lim mazmunini), qanday qilib (ta'lim metodlari va prinsiplari asosida) hamda kimga (o'quvchiga) o'rgatish haqida ilmiy mulohazalar yuritiladi [1;9-b.]. Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim metodlarining eng samaralilaridan biri loyiha asosida o'rganish, ya'ni, Project-based learning (PBL) metodi bo'lib, ushbu metod yordamida ma'lum muammoni hal qilish, yangi bilimga ega bo'lish uchun mustaqil tarzda tadqiqot olib borish va izlanish katta ahamiyat kasb etadi. Dunyo bo'ylab jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan integratsiyalashuv jarayoni va xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamkorligi chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish va intilishni yanada kuchaytirmoqda hamda ilmiy izlanishlar olib bora oladigan yuqori malakali tadqiqotchi kadrlar tayyorlashga talab oshmoqda. UNESCO va Xalqaro universitetlar assotsiatsiyasi (International Association of Universities – IAU) dasturlarida talabalarning tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash, ta'lim jarayonini modellashtirish, loyiha asosida o'qitish, integrativ yondashuvlar asosida ta'lim sifatini takomillashtirishga qaratilgan yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda [2;5-b.].

Ushbu maqolada "Project-based learning" (PBL) metodining ahamiyati, uning dars jarayonida qo'llanilishi, izlanuvchilarning tadqiqot olib borishi, o'quvchining faoliyati va pedagogning roli qay darajadagi haqida tavsiflar keltirilgan. Ushbu ishning dolzarbligi bunda nafaqat o'z ona tilidagi muammolar yechimlarini topish, balki chet tilida ham boshqa sohalarida ham bu metod orqali ta'lim sifatini yetarli darajada oshirish mumkin.

Ishning maqsadi – loyihaga asoslangan ta'limni dars jarayonida qo'llash orqali o'quvchini mustaqil ishlashga undash, bilimini amalda qo'llay olishiga o'rgatish, muayyan muammoni o'zi mustaqil tarzda hal qila olishni o'rgatish, o'zini-o'zi mustaqil tarzda boshqalar oldida boshqarishni va atrofdegilar bilan o'ziga ishongan holda, muloqot qila olishini, ya'ni o'quvchida ijtimoiy kommunikativlikni rivojlantirish.

Belgilangan maqsad quyidagi vazifalarni hal qilish zarurligini aniqlaydi:

- ijtimoiy muammo va hodisalarni o'rganish va ularning yechimini topish;
- o'quvchining bilimini, uning shaxsiy xislatlarini rivojlantirish;
- muammoni hal qilish jarayonida oldin mavjud bo'lmagan yangilik yaratish.

Hozirgi davrda har bir sohada loyihaga asoslangan ta'lim metodini qo'llash izlanuvchilar uchun har tomonlama rivojlanish va ishning asl mohiyatini anglab yetish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Xorijiy davlatlarda o'qitishni ilmiy va loyihaviy tadqiqotlar (Project based learning) asosida tashkil etish P.Jamping, M.Maher, J.Venning, D.O. Maksuel, H.Steygelmeyer, E.J.Sammers, D.Kranmer, J.Hatti, H.Polat, L.Lukas, V.V.Berg, D.K.Meyer, J. Raislbak, F.Stroller, N.A.Biryukova, R.R.Jordan, J.Uilson, M.Uilmore, S.Altun, L.Coruin, M.Galvan U. Moylan, D.Palmer, J.Rachal va boshqa xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida muhokama qilingan [3;6–7-b.]. Loyiha asosida o'qitish metodi kuchli o'qitish metodi bo'lib u quyidagilarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

- O'quvchilarni rag'batlantiradi.
- Talabalarni kelajakda shaxs sifatida tayyorlaydi.
- Talabalardan chuqur bilim va fikrlash qobiliyatlarini namoyish etishni talab qiladigan topshiriqlarni yaxshi bajarishga yordam beradi.
- O'qituvchilarga yanada qoniqarli tarzda dars berish imkonini beradi.
- Maktablar va ota-onalar bilan, shuningdek, butun dunyo bilan bog'lanish, ya'ni muloqot qilishning yangi usullari bilan ta'minlaydi [4;2-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Loyiha asosida o'qitish metodini dars mobaynida qo'llash bir nechta jarayonni amalga oshirishni o'z ichiga oladi, ya'ni, o'quvchilar muammoni hal qilish uchun oldin kuzatish ishlarini olib boradilar. Ma'lumot yig'ib, tajriba orttiradilar va ba'zi hollarda boshqalarning ham fikriga intervyu qilish orqali ega bo'ladilar. Izlanish jarayonida barcha ma'lumotlarni mustaqil tarzda tahlil qilgan holda natijaga erishadilar va bu ularga ham amaliy jihatdan ham nazariy jihatdan kelgusida samaraliroq ishlashga imkon yaratadi. Shuningdek, izlanuvchilar ma'lumotlarni qayd etish jarayonida bir necha usullardan foydalanishlari mumkin. Bular quyidagilar.

Diagramma, sxema, grafik, jadval, xarita, fotosurat, audio va videomateriallar va boshqalar. Shuningdek, loyiha asosida o'qitish metodini qo'llash jarayonida pedagogning roli ham boshqa ta'lim metodlaridan farq qiladi. Loyihaga asoslangan ta'limning an'anaviy ta'limdan farqi shundaki, bunda o'qituvchi, asosan, yo'l ko'rsatuvchi rolida bo'ladi, ya'ni, u ma'lumot bermaydi, tushintirmaydi, dars mobaynida aktiv bo'lmaydi, uning roli passiv bo'ladi. O'qituvchi faqat muammoni hal qilish faoliyatini belgilab beradi, unga yo'l yo'riqlari bo'yicha ko'rsatma beradi. Shuningdek, o'qituvchi kuchli g'oyalar berib, o'quvchiga tayanch vazifani bajaradi va loyihani baholovchi rolida bo'ladi [5;17–18-b.]. Bu jarayonda pedagog qay darajada qatnashishi muhim emas, balki uning qay darajada ishni kuzatib yakunlovchi xulosani holisona berishi muhim. Chunki izlanuvchi o'zining kelajakdagi ishlariga ushbu xulosa asosida yondashadi va bu uning kelgusida samaraliroq ishlashga imkon yaratadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hozirda dars jarayonida o'quvchilarni yangilikga bo'lgan ishtiyoqini oshirish maqsadida turli xil metodlardan foydalanilmoqda. Loyihaga asoslangan ta'lim bu muammoni yechishga va izlanish jarayonida yangilik yaratishga asoslangan bo'lib, biz bu tadqiqotni olib borish jarayonida bu metod qay darajada darsni o'zlashtirishga yordam berishini muhokama qildik va bu yangi metod orqali har bir izlanuvchi mustaqil tadqiqoti natijasida yangi bilimga ega bo'lishi bilan birga, unda kreativlik qobiliyati shakllanishi ham o'z natijasini ko'rsatdi.

Loyiha ta'lim texnologiyasi ta'limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirish imkonini beradi, shuningdek, nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog'laydi. Loyiha ustida ishlashning eng muhim tomoni bu taqdimot bo'lib, bunda muallif bajargan barcha ishlar, hosil qilingan tajriba va natijalar yoritiladi. Bu esa talabalarda muloqotchanlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, og'zaki taqdimotlar olib borish tadqiqotchilarga gapirish ko'nikmasini (speaking) yuqori darajada rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim metodlarining eng samaralilaridan biri loyiha asosida o'rganish ya'ni project-based learning (PBL) metodi bo'lib, bu metod orqali izlanuvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash orqali muayyan muammoni hal qilish imkoniga ega bo'ladilar va shu asosida oldin mavjud bo'lmagan foydali yangilik yarata oladilar. Kelgusida bu metodni dars jarayonida qo'llashda erishiladigan natijalar umumlashtirilib, keyingi tadqiqotlarimizda yanada kengroq yoritilishiga erishish ko'zlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Jalolov, J. Chet til o'qitish metodikasi. "O'qituvchi", Toshkent, 2012, 9-bet.
- (2). Xoliqova, L.F. Filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o'rganish metodi orqali rivojlantirish. Samarqand, 2023, 5-bet.
- (3). Xoliqova, L.F. Filologik ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o'rganish metodi orqali rivojlantirish. Samarqand, 2023, 6–7-betlar.
- (4). Larmer, J., & Mergendoller, J. R. Setting the Standard for Project-Based Learning: A Proven Approach to Rigorous Classroom Instruction. 1703 N. Beauregard St. Alexandria, VA 22311-1714 USA (2015), p. 2.
- (5). Fleming Douglas. S. A Teacher's Guide to Project-Based Learning. AEL., Inc, Charleston, WV. Office of Educational Research and Improvement. Washington, DC, 2000 by AEL, p. 17–18.

Abdullayeva Saida Malikovna (JIDU Ingliz tili o'qituvchisi) CBI YONDASHUVINING CHET TILLARNI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqola OTM talabalarining ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim mazmuniga asoslangan o'qitish (CBI) yondashuvini ishlatishning nazariy asoslari tadqiqotiga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida CBI yondashuvini qo'llash bo'yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu yondashuvning kontekstli ta'lim va kontent va tilni integratsiyalab o'rganish (CLIL) kabi boshqa yondashuvlar bilan o'xshashlik va farqlari aniqlandi. Maqolada turli olimlarning qarashlari solishtirilib, CBI yondashuvi OTM talabalarining ingliz tilini o'rganish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ochib berildi.

Kalit so'zlar: ta'lim mazmuniga asoslangan o'qitish, kontent va tilni integratsiyalab o'rganish, kontekstli ta'lim.

Абдуллаева Саида Маликовна (преподаватель английского языка УМЭД) ЗНАЧИМОСТЬ ПОДХОДА CBI В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию теоретических основ подхода Content Based Instruction (CBI), в развитии навыков общения на английском языке у студентов вузов. В рамках исследования был проведен анализ зарубежной и отечественной литературы по применению подхода CBI. Также были выявлены сходства и различия этого подхода с другими подходами, такими, как контекстное обучение и Content and Language Integrated Learning (CLIL). В статье раскрывается значение подхода CBI в повышении эффективности изучения английского языка студентами вузов.

Ключевые слова: обучение с опорой на содержание, контентно-языковое интегрированное обучение, контекстное обучение.

Abdullayeva Saida Malikovna (English Teacher, UWED) THE SIGNIFICANCE OF CBI APPROACH FOR EFFECTIVE FOREIGN LANGUAGE ACQUISITION

Annotation. This article aims to research the theoretical foundations of the Content-Based Instruction (CBI) approach in developing English communication skills among university students. Within the scope of the research, foreign and local literature on the application of the CBI approach was analyzed, as well as the similarities and differences between this approach and other approaches, such as contextual learning and CLIL were identified. By comparing the views of various scholars, the article reveals the importance of the CBI approach in increasing the effectiveness of the English language acquisition among university students.

Keywords: Content Based Instruction (CBI), CLIL (Content and Language Integrated Learning), contextual learning.

Kirish. Oliy ta'lim sharoitida xorijiy tillarni o'rganish ahamiyati yildanyilga oshmoqda. Ayniqsa, bugungi kun globalizatsiya sharoitida ingliz tilining butun dunyo miqyosida olib boriladigan muloqotga ta'siri katta. Bu esa xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish uslublarining takomillashuviga turtki bo'lmoqda. Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalari talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali usullaridan biri bu ta'lim mazmuniga asoslangan o'qitish yondashuvidan foydalanishdir. Chet tili ushbu yondashuv doirasida tanlangan ixtisoslik fani mavzulari asosida o'zlashtiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorijiy metodist olimlarning ishlariga murojaat qilinganida [1] xorijiy lingvodidaktikada ta'lim mazmuniga asoslangan o'qitish yondashuvi keng muhokama qilingani-

ni ko'rishimiz mumkin. Ushbu yondashuvga o'xshash bir necha yondashuvlar mavjud bo'lib, ulardan biri ESP (English for Specific Purposes) ya'ni kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'rganish va EMI (English as a Medium of Instruction), ya'ni "ingliz tili ta'lim vositasi sifatida" yondashuvi. Uchinchi o'xshash yondashuv esa CLIL (Content and Language Integrated Learning), kontent va tilni integratsiyalab o'rganish.

Ta'lim mazmuniga asoslangan o'qitish metodikasi, ko'p manbalarda, Content-Based Instruction (CBI) yoki Content-Based Learning (CBL) deb ataladi. Ba'zi manbalarda esa Content Centred Instruction degan atama ham uchraydi. Bu yondashuvda chet tilini o'rganish uchun o'quv fanlaridan olingan mavzular ta'limning asosiy vositasi sifatida ishlatiladi. Biz mazkur maqolamizda ta'lim mazmuniga asoslangan o'qitish yondashuvi atamasini ingliz tilidagi muqobil varianti – Content Based Instruction, yoki uning abbreviaturasi bo'lgan CBIdan foydalanamiz.

CBI yondashuvining mohiyati haqida so'z yuritishdan avval, uning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlarini ko'rib chiqishimiz lozim. J.Cenoz va R.Zarobega ko'ra CBI yondashuvi yaratilishi 1960-yillarda Kanadadagi immigrant jamoalari uchun ikkinchi tilni o'rganishga mo'ljallangan mashhur "Immersion dasturi" (tilga sho'ng'ish) bilan bog'liq [2]. Immersion dasturiga ko'ra, oddiy maktab dasturidagi o'quv fanlarini o'qitishning asosiy vositasi ikkinchi chet til bo'lishi taklif qilinadi [3]. Bu dastur Kanadada ikkitillilik yoki bilingval ta'limni targ'ib etish bilan bog'liq. Jumladan, D.M.Brinton, M.A.Snow hamda M.B.Wesche ning tadqiqotlarida CBI yondashuvini qo'llab-quvvatlash uchun nazariy va lingvistik dalillar keltirilgan [4].

F.L.Stoller chet tili darslariga fan mavzularini kiritishni "xorijiy tilni o'rganish uchun qobiq" deb ataydi [5]. D.Edsall va Y.Saito esa ushbu yondashuvni qo'llashga qo'shimcha motivatsiya vositasi sifatida qaraydilar [6]. Bizning fikrimizga ko'ra, CBI yondashuvida talabalarni til tizimi haqida autentik bilimlar bilan ta'minlash va til kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida ixtisoslik fanlaridan olingan mavzu va matnlardan foydalaniladi.

A.Karimning tadqiqotida ko'rsatilishicha, CBI 1970-yillarning o'rtalarida Britaniya hukumati komissiyasi tomonidan tavsiya qilingan va o'sha davrdagi "Language across the curriculum" harakati natijasida shakllangan [7]. Bu yondashuv doirasida o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ikkita asosiy ko'nikмага, ya'ni o'qish va yozishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu metodologiya tilni o'rganishni o'quv fanlari mavzulari bilan birgalikda olib borishni nazarda tutadi, bu esa talabalarni tilni haqiqiy kommunikatsiya vositasi sifatida ishlatishga undaydi.

Bu yangilik va o'zgarishlar keyinchalik, deyarli bir vaqtning o'zida Buyuk Britaniyada, AQSHda va Kanadada maxsus maqsadlar uchun til (Language for Specific Purposes) dasturlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu dasturlar doirasida turli soha vakillariga Ingliz tilini o'rgatish, qolaversa, ularning kasblariga xos vaziyatlarda ishlatish uchun zarur bo'lgan ikkinchi til ko'nikmalarini rivojlantirish yo'lga qo'yilgan edi.

Hozirgi kunda ta'limda CBIning turli xil o'qitish modellari qo'llanilmoqda [8]. Ushbu modellarning barchasi uchta xususiyatga ega:

1. Tanlangan o'quv fanining mavzulariga asoslanadi.
2. Autentik til va matnlardan foydalaniladi.
3. Talabalarining qiziqish va ehtiyojlariga moslashtiriladi.

Bundan tashqari, CBIning "theme-based instruction", "sheltered content instruction", "adjunct instruction" kabi turlari mavjud [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot doirasida oliy ta'lim o'quv yurtlarida ta'lim mazmuniga asoslangan o'qitish (CBI) yondashuvining nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini aniqlash uchun ko'plab ilmiy adabiyotlar va manbalar ko'rib chiqildi. Ta'lim mazmuniga asoslangan o'qitish (CBI) yondashuvining mohiyatini va uning til ta'limidagi qo'llanilishini o'rganish maqsadida xorijiy va o'zbekistonlik tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. CBI, kontekstli ta'lim va CLIL kabi yondashuvlarning qiyosiy tahlili o'tkazildi. CBI yondashuvining asosiy tamoyillari ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqotimiz doirasida olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadi-ki, ba'zida CBI va CLIL yondashuvlariga go'yoki bir yondashuv sifatida qaraladi. Bu esa, o'z navbatida, ular orasidagi farq va o'xshashliklar to'g'risidagi munozaralarga olib keladi. Jumladan, Content and Language Integrated Learning (CLIL) C.Dalton-Puffer ta'biriga ko'ra, 1990-yillardan buyon Yevropa mamlakatlarida rivojlangan bo'lib [10], bu yondashuvda o'quv fanlari chet tili vositasida o'qitiladi va ta'limning barcha bosqichlarida qo'llanilishi mumkin [11]. CLIL yondashuviga Yevropa Komissiyasi tomonidan "chet tilini o'rganishning eng maqbul usuli" sifatida ta'rif beriladi. A.Karim maqolasida ko'rsatilishicha esa, CBI yondashuvi asosan Shimoliy Amerika kontekstida qo'llaniladi [7].

Dunyo bo'ylab CBI va CLIL dasturlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar J.Cenoz tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, u CLILni alohida yondashuv sifatida atash g'oyasini tanqid qiladi. Uning tahliliga ko'ra, CBI va CLIL o'rtasida katta farq yo'qligi va paydo bo'ladigan har qanday farq tasodifiy ekanligi ta'kidlanadi. Uning fikriga ko'ra, ikkala yondashuvda o'quv fanlari ikkinchi yoki qo'shimcha til vositasida o'rganiladi. [12].

D.Coyle, P.Hood va D.Marshlarning fikricha, CLIL yondashuvida mazmun va tilning o'qitilishi va o'rganilishi qo'shimcha til vositasida amalga oshiriladi, bu esa sinfda faqat mazmun yoki faqat tilga alohida e'tibor qaratilmasdan ikkalasiga bir xil e'tibor beriladi [13]. Bu fikrga qo'shimcha tarzda, A.Karim CBI va CLIL yondashuvlariga ularning maqsad va vazifalari, mazmuni va amalga oshirilishi jihatidan bir xil deb qaralishi kerakligini ta'kidlaydi [7].

Ba'zi mualliflar ushbu atamalarni, hatto sinonim deb hisoblaydilar [14]. Bizning fikrimizga ko'ra, CBI va CLIL yondashuvlari orasida o'xshashliklar bor, albatta, biroq o'rtasidagi farqlar ham mavjud. Ikkala yondashuv ikkinchi tilni o'qitish vositasi sifatida ishlatadi va mazmunni til bilan integratsiyalashgan holda o'qitishni taqozo etadi. Biroq CBI yondashuvida ta'lim berish ingliz tili o'qituvchisi tomonidan amalga oshirilsa va asosiy maqsad chet tilini o'rganish hisoblansa, CLIL yondashuvi asosida o'tiladigan darslar ixtisoslik fanlari bo'yicha o'qituvchilar tomonidan o'tiladi, bunda asosiy maqsad ixtisoslik fanlari mavzulari bo'yicha bilimlarni egallashdir.

J.C.Richards va T.S.Rodgers ta'kidlariganlaridek, talabalarning chet tilini o'rganish samaradorligi bevosita ular o'rganayotgan materiallarning qiziqarliligiga, foydaliligiga va maqsadga muvofiq ekanligidadir [3]. Olimlarning ta'kidlaganlaridek, dastur tuzilish jarayonida talabalarning chet tilini qanday maqsadlarda o'rganayotganlarini va kelajakda qanday maqsadlarda foydalanishlarini hisobga olish kerak. Jumladan, A.D'Anglejan va G.R.Tuckerga ko'ra, beriladigan vazifa va topshiriqlar muhim masala ustida muloqot qilish bilan bog'liq bo'lganidagina, darslar talabalarda katta qiziqish uyg'otadi [15]. Shubhasiz, ta'lim mavzularini, vazifa va topshiriqlarni tanlash muhim, chunki bu, o'z navbatida, talabalarning chet tilini o'rganishga bo'lgan munosabatiga, ishtiyoqiga va motivatsiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunga qadar S.Krashenning ikkinchi chet tilini o'zlashtirish nazariyasi ta'limning barcha bosqichlarida integratsiyalangan ta'limni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Olim ikkinchi chet tilini o'rganish samaradorligini, birinchi tilni o'zlashtirish sharoitiga qay darajada o'xshashligi bilan bog'laydi. Unga ko'ra, o'qitishning asosiy e'tibori shaklga emas, balki ma'noga qaratilgan bo'lishi lozim. Agar til o'zlashtirilishi talabani tushunish darajasida yoki undan biroz yuqori bo'lsa, o'rganilayotgan tilni ma'noli tarzda ishlatish uchun yetarli imkoniyat mavjud bo'lgan muhit ta'minlanishi kerak [16]. Yani chet tili darslarida asosiy e'tibor o'tilayotgan mavzuga qaratilsa, talabalarning chet tilidagi ko'nikma va malakalarini rivojlanishini osonlashtiradi, qolaversa, talabalarning ixtisoslik fanlari doirasidagi mavzularni yanada chuqurroq tushunishlariga olib keladi. Shu bois, bir vaqtning o'zida, ham til ko'nikmalarini, ham muayyan ixtisoslik fanlariga aloqador bilimlarni shakllantirish uchun autentik va mazmunli o'quv vaziyatlar yaratilishi kerak.

Y.G.Butlerning ta'kidlashicha, CBI yondashuvi talabalarga produktiv til ko'nikmalarini amalga oshirishda mazmunni tushunishga yordam beradi, bu esa ularga ham shakl ham mazmun ustida ishlashga imkoniyat beradi. Bu jarayon CBI yondashuvi uchun juda muhim bo'lib, metodikada "comprehensible input" deb ataladi [17].

CBI yondashuvi talabalarning o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun ham qo'llaniladi. CBI yondashuviga kommunikativ til o'qitishning bir qismi sifatida qaralishi lozim. Xususan, O.B.Villalobosning fikriga ko'ra, xorijiy tilni o'rganish oddiy grammatik kompetensiyani ustida ishlash bilan chegaralanib qolishi kerak emas. Talabalar chet tilini uning barcha madaniy, lingvistik va ijtimoiy elementlari bilan to'liq egallab, undan samarali foydalanishni o'rganishlari maqsadga muvofiq. O.B.Villalobos maqolasida kommunikativ kompetensiyaning to'rtta asosiy komponentini keltiradi: grammatik, nutqiy, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalar. Uning ta'kidlashicha, chet tilini an'anaviy tarzda o'qitishda, asosan, birinchi ikkita komponentga e'tibor qaratiladi [18]. CBI yondashuvida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda e'tibor, chet tilini uning madaniy xususiyatlari aks etgan vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan. Bir so'z bilan aytganda, til ko'nikmalari real vaziyat va kontekst asosida rivojlantiriladi [8].

Ba'zi olimlar CBI yondashuvining til va kontekstni integratsiyalab o'qitishiga urg'u bersa, boshqalar CBI yondashuvi autentik materiallardan foydalanishni, talabalarni yangi bilimlarni olishga undash va ularning qiziqishlariga moslashtirilganligini ta'kidlaydilar. CBI mavzusi nafaqat xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilingan, balki MDH davlatlarining ilm ahli tomonidan ham katta qiziqish bilan o'rganilib kelinmoqda.

Bizning qiziqishimizni K.M.Yaxyayeva tomonidan olib borilgan “Texnika oliy o‘quv yurtlari talabarlari uchun chet tilida o‘qishni kontent va tilni integratsiyalashgan holda o‘rgatish metodikasi”ning tadqiqoti o‘ziga tortdi. Mazkur tadqiqot texnika oliy o‘quv yurtlari talabarlari uchun kontentga asoslangan chet tilini o‘rgatish metodikasini ishlab chiqishga bag‘ishlangan bo‘lib, u ingliz tilini texnik fanlar kontekstida o‘rganishni nazarda tutadi. Bu metodikada talabalarning texnika va til bilimlarini birlashtirib, ularning ingliz tilida texnik matnlarini tushunish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Bundan tashqari, mazkur tadqiqot doirasida Rossiya universitetlarida CLIL yondashuviga asoslangan ingliz tilini o‘qitish metodikalari tahlil qilingan. Xususan, olim o‘z tadqiqotida K.V.Shaposhnikov va boshqa olimlarning fikrlarini keltiradi. Ularga ko‘ra, kasbiy faoliyatni egallash o‘ziga xos shakl va mazmunga ega bo‘lgan alohida ta‘lim faoliyati doirasida ta‘minlanishi kerak [19].

G‘arb davlatlarida kontent va tilni integratsiyalashgan holda o‘rgatish yondashuvi mashhur bo‘lgan bir paytda, Rossiyada kontekstli yondashuv qo‘llanishi keng tarqalgan. Mazkur yondashuv asoschisi A.A. Verbitskiy uning xususiyatlaridan biri, ta‘lim maqsadining talabalarning o‘quv faoliyatidan kasbiy faoliyatga ko‘chishi deb ta‘kidlaydi. Bu, o‘z navbatida, talabalarning motiv va ehtiyojlari, maqsadlari bosqichma-bosqich kasbiy motiv va ehtiyojlarga hamda maqsadlarga o‘zgarishi bilan belgilanadi [20]. Kommunikativ usuldan farqli ravishda, kontekstli ta‘limda chet tilida muloqot qilish vaziyatining o‘zi emas, balki subyekt faoliyatini vaziyatda belgilovchi shartlar tizimi bo‘lgan kontekst modellashtiriladi.

Kontekstli ta‘lim, CBI va CLIL bir qator o‘xshashlik va farqlarga ega bo‘lib, ular quyidagi jadvalda keltirilgan:

	Kontekstli ta‘lim	CBI	CLIL
Til va kontekst integratsiyasi	Amaliy ko‘nikmalar nazariy bilimlar bilan birlashtirib, kasbga yo‘naltirilgan ta‘lim orqali rivojlantiriladi.	Ixtisoslik fanlari mavzulari asosida til ko‘nikmalari rivojlantiriladi.	Ingliz tili va tanlangan ixtisoslik fani bir vaqtda o‘rganiladi.
Real vaziyatlarga e‘tibor	Real kasbiy vaziyatlarni modellashtirib, talabalarni kelajakda ishda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarga tayyorlaydi.	Tilni o‘rganish jarayoni haqiqiy hayotga yaqin bo‘lgan vaziyatlar orqali amalga oshiriladi.	Tilni o‘rganish jarayoni ixtisoslik fanlarini chet tili orqali o‘rganish kontekstida amalga oshiriladi, bu esa ta‘limni real sharoitlarga yaqinlashtiradi.
Talabalar faolligi	Talabani ta‘lim jarayonida faol ishtirokini nazarda tutadi va bu loyihaviy ish, muhokamalar yoki vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi.	Talabani ta‘lim jarayonida faol ishtirokini nazarda tutadi va bu loyihaviy ish, muhokamalar yoki vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi.	Talabani ta‘lim jarayonida faol ishtirokini nazarda tutadi va bu loyihaviy ish, muhokamalar yoki vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi.
Kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanishi	Talabani kommunikativ ko‘nikmalari real kasbiy vaziyatlarni modellashtirish orqali rivojlantiriladi.	Talabani kommunikativ ko‘nikmalari tilni real vaziyatlar asosida o‘rganish orqali rivojlantiriladi.	Talabani kommunikativ ko‘nikmalari ixtisoslik fanlarini Ingliz tilida o‘rganish orqali rivojlantiriladi.

Bizning fikrimizcha, CBI yondashuvi ixtisoslik fanlari mavzulari asosida til ko‘nikmalarining rivojlanishi uchun real vaziyatlardan foydalanadi va talabalar faol ishtirokini ta‘minlaydi, vas shu orqali samaraliroq ta‘lim sharoitlarini yaratadi. Oxirgi yillarda Rossiya oliy o‘quv yurtlarida kontentga asoslangan integratsiyalashgan ta‘lim ancha rivojlanayotgan tadqiqot sohasi bo‘lib kelmoqda. Bunga qaramasdan, K.M. Yaxyayevaga ko‘ra, barcha ta‘lim muassasalari uchun mazkur yondashuvga asoslangan umumiy ta‘lim modeli mavjud emas. Olima V.M.Filippovichning Rossiya oliy ta‘limida quyidagi kontentga asoslangan integratsiyalashgan ta‘lim modellari keng tarqalgani haqidagi fikrini keltiradi:

1. Chet tilini, ixtisoslik fanlarini chet tili vositasida o‘rganish uchun tayyorlovchi kurs sifatida o‘rganish.

2. Chet tilini, o‘z ona tilida ilgari o‘rganilgan ixtisoslik fani orqali o‘rganish.

3. Chet tili va ixtisoslik fanlarini bitta kurs doirasida bir vaqtning o‘zida o‘rganish.

Yaqin orada CBI o‘qitish yondashuvi o‘zbekistonlik olimlarining tadqiqot markazi bo‘lishni bosh-

ladi. F.J.Masharipova bo'lajak biolog o'qituvchilarning o'qish kompetensiyasini CBI va STEM texnologiyalari asosida rivojlantirish masalalarini tadqiq qilgan. Olimaga ko'ra, CBI va CLIL yondashuvlari bir-biridan ta'lim maqsadlari va amalda joriy qilinishi bilan farq qiladi. Xususan, CBIga xos xususiyatlardan, "avtentik tilni o'zlashtirgan talabalar real tildan foydalanishga jalb qilinishi" deb aytib o'tilgan [21].

Xulosa va takliflar. Ta'lim mazmuniga asoslangan o'qitish yoki CBI yondashuvi, zamonaviy pedagogikada muhim rol o'ynaydi. U chet tilini o'rganishning samarali usuli bo'lib, talabalarining mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Mazkur yondashuvning nazariy va amaliy tamoyillari uni har bir ta'lim bosqichida samarali qo'llash imkonini beradi. O'zbekiston oliy ta'limi sharoitida CBI yondashuvi "Chet tili" fani asosida tashkil etiladi. Bu yondashuv talabalarni ingliz tilini bilish darajasini oshirib, ularga kelgusida ilm-fan va jamiyat hayotida faol ishtirok etishlariga imkoniyat yaratadi.

CBI talabalarining nafaqat til ko'nikmalarini, balki akademik va kasbiy muvaffaqiyat uchun zarur bo'lgan boshqa ko'nikmalarni ham rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu yondashuv talabalarining ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, ularni yanada faol bo'lishga va mustaqil ta'lim bilan shug'ullanishlarini rag'batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge, UK, Cambridge University Press, 2010.
- (2). Cenoz J., Ruiz de Zarobe Y. Learning through a second or additional language: Content-based instruction and CLIL in the twenty-first century. *Language, Culture and Curriculum*, 28(1), 1–7, 2015. <https://doi.org/10.1080/07908318.2014.1000921>
- (3). Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and methods in language teaching. Cambridge. Cambridge University Press, 2001.
- (4). Brinton D., Snow M. & Wesche M. Content-Based Second Language Instruction. Boston: Heinle and Heinle Publishers, 1989.
- (5). Stoller F.L. Content-based instruction: A shell for language learning or a framework for strategic language and content learning? Paper presented at the TESOL convention, Salt Lake City, UT, 2002. Retrieved from <http://carla.umn.edu/cobalt/modules/strategies/stoller2002/stoller.pdf>
- (6). Edsall, D., & Saito, Y. The motivational benefits of content. *OnCue Journal*, 6(2), 2012, p. 66–94.
- (7). Karim A. Revisiting the Content-Based Instruction in Language Teaching in relation with CLIL: Implementation and Outcome. *International Journal of Applied Linguistics & English Literature*, Vol. 5, № 7, December, 2016. <https://doi.org/10.7575/aiac.ijalel.v.5n.7p.254>
- (8). Stryker, S. & Leaver, B. Content-based instruction in foreign language education. Washington, DC, Georgetown University Press, 1993.
- (9). Snow & D.M.Brinton (Eds.). The content-based classroom: Perspectives on integrating language and content (pp. 78–94), White Plains, NY, Addison Wesley Longman.
- (10). Dalton-Puffer C. Discourse in content and language integrated learning (CLIL) classrooms (Vol. 20). John Benjamins Publishing, 2007.
- (11). Dalton-Puffer C., Nikula T., Smit U. Charting policies, premises and research on content and language integrated learning. *Language use and language learning in CLIL classrooms*, 7, 2010, p. 1–19.
- (12). Cenoz J., Ruiz de Zarobe Y. Learning through a second or additional language: Content-based instruction and CLIL in the twenty-first century. *Language, Culture and Curriculum*, 28(1), 2015, 1–7. <https://doi.org/10.1080/07908318.2014.1000921>
- (13). Coyle D., Hood, P., Marsh D. CLIL. Content and language integrated learning. Cambridge, England: Cambridge University Press, 2010.
- (14). Ruiz de Zarobe Y. CLIL and foreign language learning: A longitudinal study in the Basque Country. *International CLIL Research Journal*, 1(1), 2008, p. 60–73.
- (15). D'Anglejan A., Tucker G.R. The acquisition of complex English structures by adult learners I. *Language Learning*, 25(2), 1975, p. 281–296.
- (16). Krashen S. Second language acquisition and second language learning. New York, NY: Prentice-Hall, 1981.
- (17). Butler Y.G. Content-based instruction in EFL contexts. Considerations for effective implementation. *JALT Journal*, 27, 2005, p. 227–245.
- (18). Villalobos O. Content-Based Instruction: A Relevant Approach of Language Teaching. *Innovaciones Educativas*, 15, 2014, p. 71–83. <https://doi.org/10.22458/IE.V15I20.515>.
- (19). Яхьяева К.М. Методика предметно-языкового интегрированного обучения иноязычному чтению студентов технического вуза (английский язык). Дис. канд. пед. наук, 13.00.02. Санкт-Петербург, 2021, 230 с.

(20). Вербицкий А.А. Личностный и компетентностный подходы в образовании: проблемы интеграции. А.А.Вербицкий, О.Г.Ларионова. М., “Логос”, 2017.

(21). Masharipova F., K.Mizell. Active reading strategies in content-based instruction. Central Asian Problems of Modern Science and Education 2021 (1), p. 37–56.

Xuramov Ilxom Panjiyevich (Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti;

e-mail: xuramovilxom@gmail.com)

BO‘LAJAK PROFESSIONAL TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqola bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchilarining kelgusi kasbiy pedagogik faoliyatida ta‘lim jarayonlarida innovatsion usullar orqali interfaol metodlarini qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy faoliyati davomida davriy va uzluksiz metodik tayyorgarligini oshirishda talabalik davridayoq kerakli bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini egallab borishi masalalari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: professional ta‘lim, oliy ta‘lim innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, metod, pedagog, faoliyat, bilim, ko‘nikma.

Хурамов Илхом Панджиевич (Термезский государственный университет, PhD докторант;

e-mail: xuramovilxom@gmail.com)

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования у будущих педагогов профессионального образования умений использовать интерактивные методы в образовательном процессе посредством инновационных методов в будущей профессионально-педагогической деятельности, а также приобретения необходимых знаний и навыков в студенческие годы для повышения их периодической и непрерывной методической подготовки на протяжении всей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: профессиональное образование, высшее образование, инновационные технологии, интерактивные методы, метод, преподаватель, деятельность, знания, умения и навыки.

Khuramov Ilxom Panjiyevich (Termez State University PhD student; E-mail: khuramovilxom@gmail.com)

DEVELOPMENT OF FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS' SKILLS IN USING INTERACTIVE METHODS

Annotation. This article discusses the issues of developing the skills of future vocational education teachers to use interactive methods in educational processes through innovative methods in their future professional pedagogical activities, and acquiring the necessary knowledge and skills during their student years to increase their periodic and continuous methodological training throughout their professional activities.

Keywords: professional education, higher education, innovative technologies, interactive methods, method, teacher, activity, knowledge, skills.

Kirish. Dunyo miqyosida ta‘lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablardan biri XXI asr pedagogikasini innovatsion texnologiyalar hamda interfaol ta‘lim metodlari asosida takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Chuqur kasbiy bilim, undan unumli foydalanish ko‘nikmalari, shaxsiy tashabbuskorlik, ijodkorlik mustaqillik har doim pedagogik faoliyatda alohida ahamiyat kasb etsa-da, zamonaviy pedagog uzluksiz ta‘lim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo‘lishi shart.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-farmoni [2] bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohada yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Interfaol metodlarining mohiyatidan xabardor bo‘lishda, eng avvalo, tayanch tushuncha – “interfaol” atamasining lug‘aviy ma‘nosi “interfaol” (ing. “interact”; “interaktiv”; “inter” – o‘zaro, birgalikda, “act” – harakat qilmoq, ish ko‘rmoq) tushunchasi “o‘zaro, birgalikda harakat qilmoq” ma‘nosini anglatadi.


Interfaollik – ta’lim jarayoning ishtirokchilarning bilim, ko‘nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga ega ligi.

Zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li mashg‘ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Shunga ko‘ra, interfaol metodlar XXI asr ta’limida o‘qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini ta’minlashning muhim vositalaridan bin sanaladi. Manbailami o‘rganish ta’lim tizimida interfaol metodlar ilk bor XX asming 20-yillarida qo‘llanilganligidan dalolat beradi. V.A.Suxomlinskiy tomonidan o‘tgan asming 60-yillaiida yaratilgan ilmiy ishlarda ham ta’lim tizimiga interfaol metodlami tatbiq etish tajribasini uchratish mumkin [8].

XX asming 70–80-yillarida esa Rossiyada Sh.A.Amonashvili [3], V.F.Shatalova [5] kabilar tomonidan ta’lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarda o‘qitishga bo‘lgan qiziqishni ku-chaytirish yo‘llarim topish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham interfaol metodiaming amaliy ahamiyati, ulami samarali qo‘llash shartlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Interfaol metodlar deganda, ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi [4].

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi. Ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda, o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtayi nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi, bir vaqtning o‘zida, barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholab biladi.



1-rasm. “Kichik guruhlarda ishlash” metodini qo‘llash texnologiyasi.


“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3–6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

“Muammoli vaziyat” metodi. Ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak,

aks holda, yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. "Muammoli vaziyat" metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.



2-rasm. "Muammoli vaziyat" metodini qo'llash texnologiyasi.

"Muammoli vaziyat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Qarorlar shajarasi ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.


"Qarorlar shajarasi" metodi muayyan fan, kurs asoslari borasidagi murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul yechimni topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvdir.

"Qarorlar shajarasi" metodini qo'llash texnologiyasi quyidagi shaklda keltirilgan.

Ta'lim metodlarini tanlashda ta'lim maqsadi, tahsil oluvchilar soni, tahsil oluvchilarning o'quv imkoniyatlari, ta'lim metodlarining samaradorligi, ta'limning davomiyligi, o'quv-moddiy sharoitlari va o'qituvchining mahorati kabi mezonlarni hisobga olish zarur.

Ta'limning maqsadi tahsil oluvchilarda muayyan kasb bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka hamda shaxs sifatlarini shakllantirishdir. O'quv faoliyatlarini amalga oshirishda turli metodlarni birgalikda qo'llash lozim. Shuning uchun ta'lim metodlarini tanlashda eng asosiy omil bo'lib, o'quv mashg'ulotlarning didaktik vazifasi xizmat qiladi. Ta'lim metodlarini tanlashning ikkinchi mezon dars jarayonidagi tahsil oluvchilar sonini hisobga olishdir. O'quv jarayonini to'g'ri tashkillashtirishda tahsil oluvchilarning soni muhim ahamiyatga ega. Agar ular ko'pchilik bo'lmasa, faol o'qitish metodlaridan foydalanib, o'qitishni jadal sur'atda olib borish mumkin. Agar buni aksi bo'lsa, ularning har biriga yetarli darajada e'tibor berish uchun vaqt yetishmasligi sababli, tahsil oluvchilarni boshqarish qiyinlashadi. Katta guruhlar uchun o'quv

materialini bayon qilishda og‘zaki usullardan: ma’ruza, hikoya, tushuntirish kabilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



3-rasm: “Qarorlar shajarasi” metodini qo‘llash texnologiyasi.

Muhokama. O‘quvchilarning o‘quv imkoniyatlari, bunda tahsil oluvchilarning yoshi, darslarga tay-yorgarlik darajasi hamda jamoadagi o‘zaro munosabatlarni hamda tahsil oluvchilarning o‘z-o‘zini bosh-qarish qobiliyatlarini e‘tiborga olish muhimdir. Tahsil oluvchilarni o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlari bo‘yicha quyidagi darajalarga bo‘lish mumkin.

Birinchi daraja–o‘quvchi berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini to‘liq tushunadi, vazifani bajarishda qoidalarga rioya qiladi va uni ish oxirigacha esda to‘liq saqlaydi. Diqqat bilan vazifalarni aniq bajaradi, bajargan ishini nazorat qila oladi, agar xatoga yo‘l qo‘ysa, buni sezadi va bartaraf eta oladi. Ishni topshirishga shoshilmaydi hamda uni to‘g‘ri, chiroyli, tartibli bajarilganini yana bir bor tekshiradi.

Ikkinchi darajasi–o‘quvchi berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini to‘liq tushunadi, vazifani bajarish qoidalariga rioya qiladi va uni ish oxirigacha esda to‘liq saqlaydi. Ish jarayonida ba’zi xatoliklarga yo‘l qo‘yishi mumkin, lekin uni sezmaydi va tuzatmaydi. Bajargan ishni tekshirish vaqtida ham xatolarni sezmaydi. Yaxshi baho olishga intilishi bo‘lgani bilan, uni ish sifati qiziqitirmaydi.

Uchinchi darajasi–o‘quvchi berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini faqatgina bir qismini tushunadi, lekin mashg‘ulot oxirigacha uni esda saqlab qolmasligi mumkin. Vazifani bajarayotganda faqat e‘tiborsizlik tufayli emas, balki vazifani bajarish qoidalarini eslab qolmaganligi uchun ham xatolarga yo‘l qo‘yadi. Xatolarni, odatda, sezmaydi, ish jarayonida tuzatmaydi, vazifani tekshirayotganida ham sezmaydi. Ishni yaxshilashga xohish bildirmaydi. Olingan natijalarga sovuqqonlik bilan ishga qaraydi.

To‘rtinchi darajasi–o‘quvchi vazifaning kichik qisminigina tushunadi, lekin shu zahotiyoq uni batamom esdan chiqaradi. Xatolarni sezmaydi, ularni tuzatmaydi, vazifaning to‘g‘ri bajarilganligini tekshirishga vaqt sarflamaydi.

Beshinchi darajasi–o‘quvchi berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini, umuman, tushunmaydi, faqatgina qalam bilan qog‘ozdan foydalanish kerakliginigina ilg‘ab oladi.

Ta’limning davomiyligi–ta’lim metodlarini tanlashga ta’sir etadi. Bunda darsga ajratilgan vaqtni, vazifani bajarishga sarflanadigan vaqtni hamda ta’lim metodlarini amalga oshirish uchun sarflanadigan vaqtni hisobga olish zarur.

O‘quv-moddiy sharoitlari. Bunda mavjud shart-sharoitlariga asoslanish zarur. Ba’zi metodlarni qo‘llashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi: kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnit doskasi, maxsus jihozlangan xona va h.k. Agar siz maxsus o‘quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan metodlardan foydalanmoqchi bo‘lsangiz, ularning naqdligini ta’minlashingiz kerak.

O‘qituvchining mahorati–bunda tahsil oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga, o‘qitish metodlarining ta’sir darajasini hisobga olish zarurligini nazarda tutadi. Masalan: tahsil oluvchilarning o‘quv materiallarini idrok qilish paytida ularning qancha ko‘p sensorik (sezgi) kanallaridan foydalanilsa, esda olib qolingani bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo‘ladi. Agar bilimlar faqat «ma’ruza»lar orqali (passiv tinglash yo‘lida) berilgan bo‘lsa, unda 3 kundan so‘ng ularning faqat 25%ni eslash mumkin, xolos. Agar u ma’ruzalar o‘qish (tinglash), namoyish va ko‘rgazmali qilish (ko‘rish, ushlab ko‘rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to‘g‘risida bahslashilsa, unda 3 kundan so‘ng 75%ni esga tushirish mumkin. Agar bilimlarni

idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi hisoblanadi.

Tahsil oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga o'qitish metodlarining ta'sir darajasi:

1. Ma'ruza-eshitish orqali –5%.
2. O'qish orqali –10%.
3. Videousul, namoyish–ko'rish orqali– 20%.
4. Tajribani namoyish qilish orqali –30%.
5. Bahs-munozara–muhokama qilish orqali –40%.
6. Mashqlar–o'qigan, yozgan, gapirish orqali –50%.
7. Ishbop o'yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash–mustaqil o'qish, tahlil va muhokama qilish, himoya va namoyish qilish orqali –75%.
8. Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish – mustaqil o'rganganimizni tahlil va muhokama qilish, boshqalarni o'qitish orqali berilayotgan axborotni 90%i esda saqlanib qolishi mumkin [8].

Xulosa. Xulosa qilib, shuni ta'kidlash joizki, ta'lim metodlarini tanlashda yuqorida sanab o'tilgan mezonlariga asoslangan holda, o'quv jarayonlarini to'g'ri loyihalashtirish orqali tashkil etilsa, berilayotgan o'quv materiallari mazmuni tahsil oluvchilar ongiga tez va oson singdirilishiga hamda ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanilishiga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish". 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-farmoni.
- (2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-farmoni.
- (3). Амонашвили Ш.А. Школа жизни. М., Издательский Дом Шалвы Амонашвили. 1998, с. 200–144.
- (4). Dehkanova M.U. Kasb ta'limi metodikasi. O'quv qo'llanma, ToshTYMI, T., 2013, 148-bet.
- (5). Сухомлинский В.А. Воспитание и самовоспитание. "Советская педагогика", 1965, №.12, с. 34–40.
- (6). Shomirzayev M.X., Karimov I.I. O'qitish texnologiyasida innovatsion pedagogik texnologiyalar. T., "Universitet", 2020, 125-bet.
- (7). Шаталова В.Ф. Когнитивный аспект теории и практики. Донецкие чтения – 2024, 331 с.
- (8). O'tkir Tolipov, Dilnoz Ro'ziyeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, "Innovatsiya Ziyo", 2019, 149-bet.

Mustafayeva Nilufar Ulashovna (Termiz davlat universiteti doktoranti)

PRAGMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishda Blum taksonomiyasidan foydalanish mexanizmlari zamonaviy ta'limda muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon o'qituvchilarga nafaqat tilni o'rgatish, balki uni ijtimoiy-madaniy kontekstda samarali qo'llash ko'nikmalarini o'zlashtirishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *kommunikativ, til, metodika, muloqot, o'qituvchi, pedagogika, mexanizm.*

ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ТАКСОНОМИИ БЛУМА В РАЗВИТИИ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация. *Механизмы использования таксономии Блума в формировании прагматической компетентности будущих учителей английского языка важны в современном образовании, поскольку этот процесс помогает учителям не только изучать язык, но и овладевать навыками его эффективного использования в социокультурном контексте.*

Ключевые слова: *коммуникативный, язык, методика, общение, учитель, педагогика, механизм.*

PEDAGOGICAL FEATURES OF USING BLOOM'S TAXONOMY IN DEVELOPING PRAGMATIC COMPETENCE

Annotation. *The mechanisms of using Bloom's Taxonomy in developing pragmatic competence of future English language teachers are of great importance in modern education, as this process helps tea-*

chers not only to teach the language, but also to master the skills of its effective use in a socio-cultural context.

Keywords: *communicative, language, methodology, communication, teacher, pedagogy, mechanism.*

Kirish. Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda Blum taksonomiyasidan keyingi pedagogik jarayon til o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida zamonaviy ta'limda katta ahamiyatga ega. Pragmatik kompetensiya tilni nafaqat grammatik va leksik jihatdan to'g'ri ishlatishni, balki uni ijtimoiy-madaniy kontekstda, maqsadga muvofiq va samarali qo'llashni anglatadi. Bu jarayon o'quvchilarga tilning kommunikativ funksiyalarini chuqur anglash, suhbatdoshning niyatini tushunish va o'z fikrini aniq yetkazish ko'nikmalarini shakllantiradi. Blum taksonomiyasi, o'zining bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlari bilan, til o'rganishda kognitiv rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi. Biroq pragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun ushbu bosqichlar kommunikativ va kontekstual vaziyatlarga moslashtirilishi, o'quvchilarning real hayotiy muloqotlarda tilni mos ravishda ishlatish qobiliyatlariga e'tibor qaratilishi lozim. Ushbu maqola Blum taksonomiyasidan keyingi pedagogik jarayonni pragmatik kompetensiyani rivojlantirish nuqtayi nazaridan tahlil qiladi, uning asosiy tamoyillari, metodlari va amaliy yondashuvlarini keng yoritadi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda bo'lajak chet tillari o'qituvchilarining kasbiy pedagogik kompetentligini shakllantirish va takomillashtirish, uzluksiz ta'limning turli bosqichlarida chet til o'qitish muammolari bo'yicha J.J.Jalolov, T.Q.Sattorov, G.T.Mahkamova, L.T.Ahmedova, D.U.Hoshimova, G.X.Bakiyeva, K.J.Riskulova, E.T.Erkayev, F.B.Azizova, S.A.Ziyayeva, M.Sh.Ro'zmetovalar tadqiqot ishlarini olib borgan.

MDH olimlari: R.S.Arefyev, N.I.Arshinova, S.A.Balandin, S.N.Belokon, L.A.Borxodoyev, T.I.Gustomyasova, O.Y.Pestresova, M.V.Seliverstova, N.A.Suxova, O.I.Xalupo, Y.I.Shevarshinova tomonidan kasbiy-pedagogik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning metodologiyasi, ingliz tili o'qituvchilari kasbiy kompetentligining lingvistik, ijtimoiy-lingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy-madaniy, o'quv-bilish xususiyatlari tadqiq qilingan.

Tahlil va natija. Blum taksonomiyasi ta'lim jarayonida bilimlarni ierarxik tarzda rivojlantirishni taklif qiladi. Bu model dastlab kognitiv sohada bilimlarni egallash va qo'llashni tashkil qilish uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, uning tamoyillari til o'rganish, xususan, pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Taksonomiyaning birinchi bosqichi – bilish – o'quvchilarning tilning asosiy qoidalarini, so'z boyligini va grammatik tuzilmalarini yodlashini o'z ichiga oladi. Bu bosqich pragmatik kompetensiya uchun zarur bo'lgan dastlabki bilimlarni shakllantiradi, chunki tilning shakliy jihatlarini kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilida kelishik qo'shimchalarini bilish suhbatda joy va yo'nalishni to'g'ri ifodalash uchun muhimdir. Keyingi bosqich – tushunish – o'quvchilarga til qoidalarini tahlil qilish va ularning ma'nosini anglash imkonini beradi. Bu bosqichda o'quvchilar so'zlarning kontekstga bog'liq ma'nolarini, masalan, "yaxshi" so'zining turli intonatsiya va vaziyatlarda turlicha talqin qilinishini tushunadilar.

Blum taksonomiyasidan keyingi pedagogik jarayon pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda taksonomiyaning kognitiv asoslarini kommunikativ va kontekstual vaziyatlarga moslashtirishni talab qiladi. Bu jarayon o'quvchilarning tilni faqat shakliy jihatdan emas, balki uning ijtimoiy-madaniy, psixologik va situatsion jihatlarini hisobga olgan holda qo'llashlarini ta'minlaydi. Buning uchun pedagogik yondashuv bir nechta asosiy tamoyilga tayanadi.

*Birinchi*dan, o'quv jarayoni real hayotiy kontekstlarga asoslanishi kerak. Masalan, o'quvchilar uchun ishbilarmonlik muloqotlari, do'stona suhbatlar yoki rasmiy yozishmalar kabi turli vaziyatlar simulyatsiya qilinadi. Bu o'quvchilarga tilni turli ijtimoiy rollarda sinab ko'rish imkonini beradi.

*Ikkinchi*dan, interfaol metodlar, masalan, ro'l o'yinlari, guruh muzokaralari va vaziyatli mashqlar keng qo'llaniladi. Ushbu metodlar o'quvchilarga tilni faol ravishda ishlatish va suhbatdoshning reaksiyasiga qarab o'z strategiyalarini moslashtirishni o'rgatadi.

*Uchinchi*dan, reflektiv tahlil jarayonning muhim qismidir. O'quvchilar o'zlarining kommunikativ harakatlarini tahlil qilib, qaysi iboralar samarali bo'lganini va qaysilari muvaffaqiyatsiz bo'lganini aniqlaydilar.

Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda muhim jihatlardan biri xatolarni tahlil qilish va ulardan o'rganishdir. O'quvchilar, ko'pincha, tilning pragmatik jihatlarini noto'g'ri tushunadilar, masalan, rasmiy va norasmiy kontekstlarda bir xil iboralarni ishlatishadi. Pedagogik jarayon ushbu xatolarni aniqlash va tuzatishga yordam beradi. Masalan, o'zbek tilida "Iltimos, yordam bering" iborasi rasmiy kontekstda mos bo'lsa-da, do'stona suhbatda "Yordam qilaqolsang" kabi yumshoqroq shakl afzalroq bo'lishi mumkin.

O'quvchilar bunday farqlarni tushunish orqali tilni mos ravishda qo'llashni o'rganadilar. Shu bilan birga, o'quvchilarning madaniy xabardorligini oshirish ham muhimdir. Masalan, o'zbek madaniyatida "Qalay-siz?" savoliga faqat "Yaxshi" deb javob berish odatiy bo'lsa-da, boshqa madaniyatlarda bu savol ko'proq batafsil javob talab qilishi mumkin. Pedagogik jarayon o'quvchilarga bunday madaniy farqlarni tushuntirib, ularning global muloqotga tayyorligini oshiradi.

Blum taksonomiyasidan keyingi pedagogik jarayon o'quvchilarning faqat tilni o'rganishini emas, balki uni hayotda samarali qo'llashini ta'minlashga qaratilgan. Bu jarayonda o'qituvchining roli juda muhimdir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi sifatida, balki fasilitator sifatida ham harakat qiladi, o'quvchilarga o'z tajribalarini sinab ko'rish va xatolaridan saboq olish imkonini beradi. Masalan, o'qituvchi sinfda muzokara simulatsiyasini tashkil qilib, o'quvchilardan turli ijtimoiy rollarni o'ynashni so'raydi. Bu jarayonda o'quvchilar nafaqat tilni qo'llashni, balki suhbatdoshning tana tili, intonatsiyasi va madaniy nuanslarini tushunishni o'rganadilar. Shu bilan birga, o'qituvchi o'quvchilarga doimiy ravishda fikr-mulohaza (feedback) berib, ularning pragmatik ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.

Texnologiyalarning rivojlanishi pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt (AI) asosidagi platformalar o'quvchilarga turli kommunikativ vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi. O'quvchi VR muhitida xalqaro konferensiyada nutq so'zlashi yoki AI chatbot bilan norasmiy suhbat olib borishi mumkin. Bu texnologiyalar o'quvchilarga real vaqt rejimida o'z ko'nikmalarini sinab ko'rish va xatolarini tuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, onlayn platformalar orqali o'quvchilar turli madaniyatlardan kelgan odamlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning pragmatik xabardorligini yanada oshiradi.

Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda muhim jihatlardan biri o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishdir. Agar o'quvchilar til o'rganishning amaliy ahamiyatini tushunsalar, ularning faolligi va muvaffaqiyati ortadi. Masalan, o'quvchilarga tilni o'rganish ularning karyera imkoniyatlarini kengaytirishi yoki xalqaro do'stlik aloqalarini mustahkamlashi mumkinligini ko'rsatish muhimdir. Blum taksonomiyasidan keyingi pedagogik jarayonning samaradorligi o'quvchilarning kommunikativ muvaffaqiyatlariga bog'liq. Agar o'quvchi tilni kontekstga mos ravishda ishlatib, suhbatdosh bilan o'zaro tushunishga erisha olsa, bu pragmatik kompetensiyaning yuqori darajasini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu jarayon doimiy rivojlanishni talab qiladi, chunki til va uning ijtimoiy kontekstlari doimo o'zgarib turadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot uslublari yoki yangi texnologik atamalar tilning pragmatik ishlatilishiga ta'sir qiladi. Pedagogik jarayon ushbu o'zgarishlarga moslashishi va o'quvchilarni zamonaviy kommunikativ talablarga tayyorlashi kerak.

Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda Blum taksonomiyasidan keyingi pedagogik jarayon til o'rganishni faqat shakliy bilimlardan iborat emas, balki uning amaliy va kontekstual qo'llanilishiga yo'naltirilgan yondashuv sifatida qaralishi lozim. Bu jarayon o'quvchilarning tilni ijtimoiy-madaniy nuanslarini hisobga olgan holda ishlatish ko'nikmalarini shakllantiradi, ularni real hayotiy muloqotlarda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlaydi. Interfaol metodlar, reflektiv tahlil, texnologik vositalar va motivatsion omillar bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Natijada o'quvchilar nafaqat tilni biladilar, balki uni maqsadlariga erishish uchun samarali vosita sifatida qo'llay oladilar. Bu yondashuv til o'rganishni funksional va global darajaga ko'taradi, o'quvchilarni zamonaviy dunyoning kommunikativ talablariga moslashtiradi.

O'qituvchilarning motivatsiyasini oshirish ham muhim mexanizmdir. Agar bo'lajak o'qituvchilar pragmatik kompetensiyaning amaliy ahamiyatini tushunsalar, ularning o'quv jarayonidagi faolligi ortadi. Masalan, o'qituvchilarga tilni samarali qo'llash ularning darslarini qiziqarli qilishi yoki xalqaro loyihalarda ishtirok etish imkonini berishi ko'rsatiladi. Pedagogik jarayon o'qituvchilarning shaxsiy qiziqishlariga mos vazifalarni o'z ichiga olishi kerak, masalan, ta'lim texnologiyalariga qiziqadigan o'qituvchi uchun onlayn dars simulyatsiyasi tashkil qilinadi.

Blum taksonomiyasidan foydalanishning samaradorligi o'qituvchilarning kommunikativ muvaffaqiyatlariga bog'liq. Agar o'qituvchi tilni kontekstga mos ishlatib, o'quvchilar bilan samarali muloqot qila olsa, bu uning pragmatik kompetensiyasining yuqori darajasini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu jarayon doimiy rivojlanishni talab qiladi, chunki til va uning ijtimoiy kontekstlari doimo o'zgarib turadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi yangi iboralar yoki virtual muloqot uslublari o'qituvchilarning pragmatik strategiyalariga ta'sir qiladi. Pedagogik jarayon ushbu o'zgarishlarga moslashishi va o'qituvchilarni zamonaviy talablarga tayyorlashi kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishda Blum taksonomiyasidan foydalanish mexanizmlari til o'rgatishni tizimli va amaliy darajaga ko'taradi. Taksonomiyaning bosqichlari o'qituvchilarga tilni o'zlashtirishdan tortib, uni ijodiy va konteks-

tual qo'llashgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tishga yordam beradi. Interfaol metodlar, texnologik vositalar, madaniy xabardorlik va motivatsion omillar bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Natijada o'qituvchilar nafaqat tilni o'rgatadilar, balki o'quvchilarni real hayotiy muloqotlarda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. 1956, Google Books. <https://books.google.com>
- (2). Anderson L., A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. 2001. <https://www.uky.edu>
- (3). Xodiyev X.X. Nutq madaniyati va pragmatik kompetensiya. Toshkent, 2020.
- (4). Farberman B.L. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. Toshkent, 2002.

Davletova Ullijon Sapavoy qizi (Urganch davlat Pedagogika instituti magistranti) KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARNING KO'P YILLIK TAYYORGARLIK REJASI TAMOYILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kurash sport turi bilan shug'ullanuvchi talabalarning sport turlarida yaxshi va yuqori natijaga chiqishi uchun uzoq va ko'p yillik tayyorgarlik rejalari tamoyillari va bosqichlarini ishlab chiqib uni amaliyotda tatbiq etish haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shu bilan birga, rejalashtirish jarayonida talaba sportchilarning jismoniy qobiliyatlari va jismoniy sifatlarini inobatga olgan holda, qaysi tayyorgarlik bosqichlarini qo'llansa tez va yuqori muvaffaqiyatga erishishi haqida ham ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Asosan, kurashchi talaba sportchilarning texnik-taktik tayyorgarlik mashg'ulotlarini turli bosqichlarda turlicha qo'llab, sportchilarning ko'nikma va mahoratlarini oshirish mumkin.

Kalit so'zlar: texnik-taktik tayyorgarlik, kurash, mashg'ulot, sport faoliyat, tayyorgarlik bosqichlari, talaba sportchilar.

Давлетова Уллижон Сапавой кизи (магистрант Ургенчского государственного педагогического института)

ПРИНЦИПЫ МНОГОЛЕТНЕГО ПЛАНА ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ-СПОРТСМЕНОВ ПО БОРЬБЕ

Аннотация. В статье рассматриваются принципы и этапы долгосрочных и многолетних планов подготовки студентов, занимающихся борьбой, для достижения хороших и высоких результатов в спорте и их реализация на практике. При этом дается много информации о том, какие этапы подготовки использовать, учитывая физические возможности и физические качества студентов-спортсменов, позволит добиться быстрых и высоких успехов. По сути, улучшить навыки и умения спортсменов можно, используя различные технико-тактические тренировки студентов-борцов на разных этапах.

Ключевые слова: технико-тактическая подготовка, борьба, тренировка, спортивная деятельность, этапы подготовки, студенты спортсмены.

Davletova Ullijon Sapavoy qizi (Master's student of Urgench State Pedagogical Institute) PRINCIPLES OF A MULTI-YEAR TRAINING PLAN FOR STUDENT ATHLETES IN WRESTLING

Annotation. This article discusses the principles and stages of long-term and multi-year training plans for students involved in wrestling to achieve good and high results in sports and their implementation in practice. At the same time, a lot of information is provided about which training stages to use, taking into account the physical abilities and physical qualities of student athletes, will achieve fast and high success. Basically, it is possible to improve the skills and abilities of athletes by using different technical and tactical training sessions of wrestling student athletes at different stages.

Keywords: technical-tactical preparation, wrestling, training, sports activities, preparation stages, student athletes.

Kirish. O'zbek kurashi milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi bo'lishi bilan birga, bugungi kunda sportning rivojlangan turlaridan biri sifatida xalqaro miqyosda ham o'z o'rnini topmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida talaba yoshlarning kurash bilan muntazam shug'ullanishi, ularni professional sportchilarga aylantirish imkonini bermoqda. Biroq bu jarayonni tizimli va ilmiy asosda tashkil etish talab etiladi. Ayniqsa, ko'p yillik tayyorgarlik rejasining to'g'ri ishlab chiqilishi – bu sportchining faoliyati davomida yuqori natijalarga erishish kafolati hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi (tahlili). Sport tayyorgarligini rejalashtirish bo'yicha ko'plab olimlar tadqiqot olib borgan. M.Matveyev (1981) sportda ko'p yillik tayyorgarlik modelini birinchi bo'lib taklif qilgan. U sport formasining dinamikasi, yuklama va dam olish orasidagi muvozanatni asosiy tamoyil sifatida ko'rsa-

tadi. A. Novikov (2004) esa kurashchilar uchun maxsus jismoniy tayyorgarlik usullarini ishlab chiqqan bo'lib, ular orasida moslashtiruvchi yuklamalarning o'zini muhim deb ta'kidlaydi. O'zbek olimlari – A. Jurayev (2015), M. Mahmudov (2018) va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kurashda musobaqalarga tayyorlov bosqichlari, texnik-taktik mashg'ulotlar va psixologik tayyorgarlikning ahamiyatiga e'tibor qaratadi.

Sport mashg'ulotlarini rejalashtirish, bu sport tayyorgarligi vazifasini hal etish shartlari, tamoyillari, vositalarini sportchi egallashi lozim bo'lgan sport natijalarini oldindan ko'zlash hamda murabbiyning mashg'ulot jarayonini boshqarishdagi eng yetakchi va muhim omildir. Rejalashtirish, nazorat va hisobot o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldirib turadi. Talaba sportchilar mashg'ulotini rejalashtirish jarayoni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagicha:

1) talaba sportchilarning bo'lajak modelini tuzishga qaratilgan mashg'ulot loyihasini ishlab chiqish bosqichi;

2) tayyorgarlik rejalarini amalga oshirish bosqichi;

3) uni o'zgartirish va unga tuzatish kiritish bosqichi.

Talaba sportchilar tayyorgarligini to'g'ri rejalashtirish bu mazkur sportchilar kontingenti (yoki bitta talaba sportchi) xususiyatlarining tahlilidan kelib chiqqan holda tayyorgarlik jarayonidagi asosiy ko'rsatkichlarni belgilash hamda ularni vaqt oralig'ida taqsimlashdir. Rejalashtirilayotgan vaqt davomiyligiga qarab quyidagi turdagi rejalar ajratish mumkin: uzoq vaqt, ya'ni, ko'p yillik, yillik, oylik (mezotsikl), haftalik (mikrotsikl), bir kunlik, bitta mashg'ulot. Individual rejalar qisqa davrga ham ba'zan 4 yil va undan ham ko'proq vaqtga ishlab chiqilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot 3 yil mobaynida oliy ta'lim muassasalarining sport fakultetlarida kurash bilan shug'ullanuvchi 60 nafar talaba sportchi ishtirokida olib borildi. Ishtirokchilar 3 guruhga bo'lindi:

1. Eksperimental guruh (20 nafar): yangilangan ko'p yillik tayyorgarlik rejasi asosida shug'ullanganlar.

2. Nazorat guruhi (20 nafar): mavjud an'anaviy dastur asosida shug'ullanganlar.

3. Aralash guruh (20 nafar): faqat jismoniy tayyorgarlikka e'tibor qaratilgan guruh. Ushbu guruhlariga quyidagi metodlar qo'llanildi. Metodlar:

Jismoniy tayyorgarlik testlari (tezlik, kuch, chidamlilik).

Texnik-taktik ko'nikmalarni baholash (videotahlil asosida).

Psixologik barqarorlik testi (Stroop test, sportchi anketasi).

Sport natijalarining monitoringi (musobaqalardagi g'alabalar, texnik ballar).

Tahlil va natijalar. 3 yil davomida olib borilgan kuzatuv natijalarini quyidagi jadval asosida ko'rishimiz mumkin.

Turli guruhlar kesimida sportchilarning rivojlanish ko'rsatkichlari (3 yil davomida).

Ko'rsatkichlar	Eksperimental guruh	Nazorat guruhi	Aralash guruh
Texnik-taktik rivojlanish (%)	35%	12-15%	Deyarli o'zgarishsiz
Psixologik barqarorlik (%)	28%	12%	O'zgarishsiz
Jismoniy tayyorgarlik (%)	22%	18%	20%
Musobaqa natijalari (o'rtacha g'alaba soni, yil)	6,2	3,4	2,8

Jadvalga, asosan, eksperimental guruh a'zolarining texnik-taktik saviyasi 35%ga yaxshilangan, psixologik barqarorlik 28%ga oshgan. Nazorat guruhida faqat 12–15% o'sish kuzatildi. Aralash guruhda jismoniy tayyorgarlikda 20% o'sish bo'lishiga qaramay, texnik va psixologik jihatlar deyarli o'zgarishsiz qoldi. Bu esa kompleks, bosqichli va ilmiy asoslangan tayyorgarlik dasturi kurashchi talabalar uchun samarali ekanini ko'rsatdi.

O'quv-mashg'ulot jarayonini rejalashtirish–bu turli davrlar uchun rejalar tizimini yaratish hisoblanadi. Bu davrda o'zaro bog'liq bo'lgan maqsadlar kompleksi amalga oshirilishi kerak. Mashg'ulot – bu jarayonning elementar tarkibiy qismi hisoblanadi. Alohida bo'lgan mashg'ulotlardan mashg'ulot mikrotsikli

tashkil topadi. Bir qancha mikrotsikllar birlashmasidan mustaqil, mashg'ulot jarayonining butun bir bo'lagi bo'lgan mezotsiklni hosil qiladi. Bir qancha mezotsikllarning birlashmasi yanada yirik tugallangan tuzilma ya'ni, makrotsiklni tashkil etadi. Mashg'ulotning mikro-, mezo- va makrotsikllar kabi davrlarga ajralishiga qarab turib, yuklama o'lchamlari, hajmi, shiddati, tayyorgarlik vositalari hamda uslublari o'zgarib boradi. Sport kurashida o'quv-trenirofka jarayonini rejalashtirish, ko'p hollarda, quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- istiqbolli bosqich, davr, yil, bir nechta yillar uchun;
- odatiy kundalik trenirofka mikrotsikli uchun;
- tezkor bir mashg'ulot uchun.

Talaba sportchilarning uzoq va ko'p yillik muntazam tayyorgarligida kishi rivojlanishining xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi, tanlangan sport turining o'ziga mos xususiyatlarini qat'iy hisobga olib, keyin muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Ko'p yillik o'quv-mashg'ulot jarayonini to'g'ri tashkillashtirish uchun optimal yosh chegaralariga (aynan shu yosh chegaralarida talaba sportchilar o'zlarining yuqori muvaffaqiyatlariga erishadi) e'tibor qaratish lozim. Kurash bilan shug'ullanuvchi talaba sportchilarning ko'p yillik tayyorgarlik rejasi tamoyillari orasida uslubiy qoidalarning o'rni ham juda muhimdir. Talaba sportchilarning ko'p yillik mashg'ulot jarayoni quyidagi uslubiy qoidalar doirasida amalga oshirishi lozim:

– o'smir yoshdagi talaba sportchilar mashg'uloti vazifasi, vositasi hamda uslublarning mukammalligi;

– umumiy bo'lgan jismoniy tayyorgarlik vositalari sig'imining asta-sekin o'sib borishi. Ular o'rtasidagi nisbat sekin-asta o'zgarib boradi (mashg'ulot yuklamasining umumiy hajmini olib qarasak unda maxsus jismoniy tayyorgarlik ulushi ortib ketadi va shu holatga muvofiq ravishda umumiy jismoniy tayyorgarlik hajmining ulushi kamayadi);

– sport texnikasini har doim yangilash. O'qitishning birinchi bosqichining asosiy vazifalaridan biri sport texnikasi asosini egallash;

– sport takomillashuvi bosqichining muhim vazifasi esa yuqori darajada harakat koordinatsiyasiga erishish, texnikaning alohida qismlarini sayqallashdir;

– mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini to'g'ri rejalashtirish. Talaba sportchilarning funksional imkoniyatlarini reja asosida oshirish, ko'p yillik mashg'ulot jarayonida harakat malakalari va ko'nikmalarini takomillashtirish mashg'ulot hamda musobaqa yuklamalari hajmi va tezligini ketma-ketlikda oshirish bilan ta'minlanadi. Mashg'ulot yuklamalari sig'imi va shiddatini oshirish jarayonida mukammallikka erishish, ko'p yillik trenirofka davomida ularning to'xtovsiz o'sishini amalga oshirish zarur;

– ko'p yillik mashg'ulot jarayonida mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini sekin-asta oshirib borish vositalariga qat'iy amal qilish. Agar yuklama ko'p yillik mashg'ulotning hamma bosqichida talaba sportchi organizmining alohida va funksional imkoniyatlariga aniq mos kelsa, u holda talaba sportchining tayyorgarligi yaxshilanib boradi;

– ko'p yillik mashg'ulotning hamma bosqichlarida jismoniy sifatlarni baravar rivojlantirish hamda eng qulay bo'lgan yoshida ko'proq maxsus va alohida sifatlarni rivojlantirish.

Bu uslubiy qoidalar sport bilan shug'ullanadigan talaba yoshlarning ko'p yillik tayyorgarligi jarayonini optimal boshqarishni amalga oshirishga imkon beradi.

Xulosa. Kurash bilan shug'ullanuvchi talaba sportchilar uchun ko'p yillik tayyorgarlik rejasi o'z ichiga jismoniy, texnik-taktik, psixologik va nazariy tayyorgarlikni olishi kerak. Bosqichlilik, izchillik, individuallashtirish, monitoring kabi tamoyillar asosida qurilgan mashg'ulotlar orqali sportchilarning maksimal salohiyati yuzaga chiqadi. Ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan model esa talabalarning nafaqat sportda, balki shaxsiy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). A.R.Taymurodov, M.N.Shukurov, Q.Q.Rasulov. Sport pedagogik mahoratini oshirish. Kurash usullarini o'rgatish metodikasi. T., 2024.
- (2). Jurayev, A. Kurashchilarning musobaqaga tayyorgarlik bosqichlari. Toshkent, O'zDJTI, 2015.
- (3). Mahmudov, M. Talaba kurashchilarning psixologik tayyorgarligi. Samarqand, SamDU, 2018.
- (4). Murodov, R. Yosh sportchilar tayyorgarligining zamonaviy uslublari. Toshkent, O'zR FVS nashriyoti, 2020.
- (5). Z.S.Artiqov, A.U.Xamidjonov. Sport-pedagogik mahoratini oshirish (belbog'li kurash). T., 2021.
- (6). Sh.N.Sultonov. Sport-pedagogik mahoratini oshirish (erkin kurash). T., 2023.
- (7). F.A.Kerimov. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. T., 2001.

Urunova Shaxlo Rafikovna (Andijon davlat Texnika instituti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: urunovashahlo23@gmail.com)

TERMINOLOGIK LEKSIKANI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminologik leksikani o'rgatishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Content-Based Learning (CBL), ya'ni sohaga asoslangan o'rganish, talabalarni terminologiya va bilimlar bilan birgalikda real sohaga oid kontentni o'rganishga undaydi. Task-Based Learning (TBL) esa mashq va topshiriqlarga asoslanib, o'rgangan terminlarni amaliy vaziyatlarda qo'llashni ta'minlaydi. Kommunikativ yondashuv muloqotdagi terminlarning kontekstual ishlatilishini o'rgatishga e'tibor qaratadi. Shuningdek, maqolada interaktiv ta'lim vositalarining, masalan, onlayn platformalar va multimodal resurslarning o'rgatish jarayonidagi o'rni va ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: terminologik leksika, Content-Based Learning (CBL), sohaga asoslangan o'rganish, multimodal yondashuvlar, Task-Based Learning (TBL), mashq va topshiriqlar, kommunikativ yondashuv, interaktiv ta'lim vositalari, terminlarni o'rganish o'quv metodlari.

Урунова Шахло Рафиковна (Андижанский государственный технический институт, доктор философии по педагогическим наукам (PhD); e-mail: urunovashahlo23@gmail.com)

СОВРЕМЕННЫЕ ИНТЕРАКТИВНЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ

Аннотация. В данной статье будут проанализированы современные педагогические подходы к обучению терминологической лексике. Контент-обучение (CBL), то есть отраслевое обучение, побуждает студентов изучать реальный отраслевой контент в сочетании с терминологией и знаниями. С другой стороны, обучение на основе задач (TBL) основано на упражнениях и задачах и обеспечивает применение изученных терминов в практических ситуациях. Коммуникативный подход фокусируется на обучении контекстному использованию терминов в общении. В статье также рассматривается роль и важность интерактивных образовательных инструментов, таких как онлайн-платформы и мультимодальные ресурсы, в процессе обучения.

Ключевые слова: терминологический словарь, контент-обучение (CBL), отраслевое обучение, мультимодальные подходы, обучение на основе задач (TBL), упражнения и задания, коммуникативный подход, интерактивные образовательные инструменты, изучение терминов, методы обучения

Urunova Shakhlo Rafikovna (Andijan State Technical Institute, doctor of philosophy in Pedagogical Sciences (PhD); e-mail: urunovashahlo23@gmail.com)

MODERN INTERACTIVE APPROACHES TO TEACHING TERMINOLOGICAL LEXICON

Annotation. This article will analyze modern pedagogical approaches to teaching terminological vocabulary. Content-based learning (CBL), i.e. industry-based learning, encourages students to explore real-world industry content combined with terminology and knowledge. On the other hand, task-based learning (TBL) is based on exercises and tasks and ensures the application of learned terms in practical situations. The communicative approach focuses on teaching the contextual use of terms in communication. The article also examines the role and importance of interactive educational tools, such as online platforms and multimodal resources, in the learning process.

Keywords: terminology dictionary, content-based learning (CBL), industry-specific learning, multimodal approaches, task-based learning (TBL), exercises and assignments, communicative approach, interactive educational tools, learning of terms, teaching methods.

Kirish. Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qituvchilarining asosiy vazifasi talabalarni o'z mutaxassisligi bo'yicha ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlar bilan tanishishga va o'z kasblari bo'yicha ingliz tilida erkin muloqot olib borishga o'rgatishdir. Kasbga yo'naltirilgan ingliz tilining har bir o'quv mashg'ulotini mutaxassislikka doir bilimlar asosida rejalashtirish talab etiladi. Masalan, ma'lum mavzularga mos bo'lgan matnlarni tanlash yoki boshqa mutaxassislik o'qituvchilarining kichik ma'ruza matnlarini ingliz tiliga tarjima qilib, ushbu ma'ruzalar asosida ingliz tilida tegishli matnlar tuzish kerak. O'qituvchi talabalarni matnlar bilan tanishtirganda matnlar bevosita mutaxassislik faniga aloqador bo'lishi hamda shu matnlarda ishlatilgan yangi terminlarni matnlar ichida belgilab ko'rsatib, shu terminlarni samarali o'zlashtirishlari uchun mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda, biz kasbga yo'naltirilgan ingliz tilida terminlarni o'qitishni hozirda chet til o'qitishda keng qo'llanilayotgan integratsiyalashgan ko'nikmalar yondashuvi va kommunikativ yondashuv tamoyillariga asoslanib olib bordik va bu yondashuv terminlarni talabalaraga o'qitish va ularni kommunikativ muloqotda ishlata olish ko'nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini isbotladik.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Integratsiyalashgan ko'nikmalar yondashuvi (Integrated skills approach) tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini o'zaro bog'liqlikda shakllantirishni nazarda tutib, bu yondashuv hozirgi davrda ingliz tilini kasbiy chet til sifatida o'qitishda (ESP) yangi yo'nalish bo'limoqda, bu esa, o'z navbatida, talabalarining kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish va kasbiy qobiliyatini shakllantirishda samarali natijalar bermoqda. Oksford R integratsiyalashgan ko'nikmalar yondashuvi (Integrated skills approach)ning ikki xil yo'nalishini ajratadi:

1. **Content based learning (CBL)** – sohaga asoslanib o'rganish; 2. **Task based learning (TBL)** – mashq va topshiriqlarga asoslangan o'rganish turi [9;154-b.]. Ushbu ikki xil o'qitish yo'nalishi har birining alohida qisqacha mohiyatini talqin qilib berishimiz maqsadga muvofiq deb o'yladik.

Content based learning (CBL) – bu shunday o'qitish yo'nalishiki, “bunda ikkinchi tilni o'qitishda lingvistik yoki boshqa turdagi maqsadda emas, balki talabalar qabul qiladigan kontent yoki ma'lumotlar asosida olib boriladi” [6;123-b.]. Boshqa so'z bilan aytganda, CBL ta'limi, bir vaqtning o'zida, tilni soha bilan birgalikda parallel ravishda o'rganish ko'nikmalarining integratsiyasini o'z ichiga oladi; bu yerda kontent odatda matematika, fan yoki ijtimoiy fanlar kabi akademik mavzuni anglatadi. Content based learning yondashuvida til fandagi kontentni o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Tilni o'rganish maqsadlariga kontentni o'rganish orqali erishiladi.

Content based learning yaxshi til va kontentni biluvchi o'qituvchilarini talab qiladi. Til o'qituvchilari mutaxassislik sohalarida bilimdon bo'lishi va talabalarining bilimini baholay olishlari kerak. Bundan tashqari, til o'qituvchilari, birinchi navbatda, kontekstning tushunarligini ta'minlashi, sinfda foydalanish uchun autentik materiallarni tanlash va moslashtirish, autentik kontekstni o'rganish uchun scaffolding texnikasi bilan ta'minlashi va noan'anaviy sinf darslarini tashkil qilishi kerak bo'ladi [4;269-b.].

Integratsiyalashgan ko'nikmalar yondashuvining ikkinchi yo'nalishi hisoblangan Mashq va topshiriqlarga asoslangan ta'lim (Task based learning) til o'rganuvchilarga tilni turli mashqlar, o'yinlar, muzokaralar orqali o'rgatishni nazarda tutuvchi eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi [10;24-b.]. Olim N. Prabxu Mashq va topshiriqlarga asoslangan ta'lim (Task based learning) turini chet til dars jarayonlariga olib kirish va talabalar mashqlar asosida tilni o'rganishi yaxshi samara berishini isbotlagan [5;67-b.]. N. Prabxu “mashq haqida talabalarining fikrlash faoliyati orqali berilgan ma'lumotdan xulosa olish va bu o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadigan faoliyat”, deb ta'rif beradi [5;68-b.].

Robototexnika yo'nalishi talabalariga Kommunikativ yondashuv (Communicative approach)ni qo'llagan holda chet tilni o'rgatish ularda ushbu tilda kommunikativ kompetentlikni o'stiradi. Kommunikativ yondashuv bu til o'qitishning vositalari va yagona maqsadini o'zaro aloqalari ustida qurilgan yondashuvdir [8;277-b.]. Kommunikativ yondashuv deb, talabalar tilni real muloqot vaziyatlarida qanday o'rganishi, chet tilda muloqot qilishni o'rganishda qanday usullar qo'llash, shuningdek, darsda o'qituvchi va talabaning o'rnini qanday bo'lishi kabi tamoyillarni mujassamlashtiradi.

Kommunikativ yondashuv quyidagi xususiyatlarga egadir:

- tilni o'rganishda sof kommunikativ sharoit, vaziyat yaratiladi;
- til o'rganuvchilarning bilimlarni sinab ko'rish uchun sharoitlar yaratiladi;
- chet tilda erkin muloqot olib borish ko'nikmalarini shakllantirish uchun imkoniyatlar yaratib beriladi;
- gapirish, tinglash, o'qib tushunish va yozish nutqiy faoliyat ko'nikmalarini integrativ bog'liqlikda o'quv jarayoniga joriy qilinadi;
- talabalar o'zlari grammatik qoidalarni muloqot vaziyatlarida qo'llaydilar;
- muloqot jarayonida talabalar yo'l qo'ygan grammatik va fonetik xatolarni to'g'rilab borilmaydi, chunki asosiy e'tibor kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi.

Natijalar va muhokama. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yondashuvlar nofilologik oliy ta'lim muassasalarida talabalarga kasbiy ingliz tilini o'qitishda samarali natijani berishini tajribalarimizda guvoh bo'ldik. Robototexnika yo'nalishi talabalar o'rtasida yuqoridagi bilim va ko'nikmalarni samarali rivojlantirish uchun o'qituvchilar ushbu jarayonda ingliz tili o'qitishda quyidagi amaliy mashg'ulot turlaridan foydalanishlari kerak:

1. **Kasbiy chet tildagi muloqot ko'nikmalarini egallashga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar.** Bunday mashg'ulotlar talabalarining kasbiy muloqot sohasidagi nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Nutq jarayoni talabalarda tayyorlangan va tayyor bo'lmagan monologik nutq (chet elda xabarlar, ma'ruzalar, taqdimotlar) tuza olish, shuningdek, mintaqaviy, kasbiy, ishbilarmonlik va kundalik vaziyatlarda ishlatiladigan dialogik nutqni ijod qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

2. Ilm-fan va ishlab chiqarishning deyarli barcha sohalariga ta'sir ko'rsatgan innovatsion texnologiyalarning dars jarayonida qo'llashga oid mashg'ulot turi. Bunda talabalarining kasbga yo'naltirilgan kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantirish uchun zamonaviy kompyuter, mobil dasturlar, internet saytlari, internet dasturlaridan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotda chet tilni integratsiya qilgan holda dars o'tiladi.

3. Nofilologik OTMlarda, ko'pincha, talabalarining mustaqil ishi sifatida bir xil darajada muhim amaliy mashg'ulot turidan foydalanadilar. Chet til darslarida o'qituvchi mustaqil ish tizimi uchun yetarli vaqt ajratishi kerak. Talabalarining o'zini-o'zi boshqarish, o'zaro nazorat va introspeksiyaning rivojlantirishga qaratilgan dars turlarini tashkillashtirish darkor.

Xulosa. Talabalarining kasbiy kompetentligini oshirishda terminologik leksikani o'qitishda kasbiy chet tildagi muloqot ko'nikmalarini egallashga qaratilgan mashg'ulotlar, innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida qo'llashga oid mashg'ulot turi, mustaqil amaliy mashg'ulotlar kabi o'quv mashg'ulot turlaridan foydalanishi yaxshi samara berishi aniqlandi. Terminologik kompetentlikni rivojlantirish va talabalarda kasbiy muloqot ko'nikmalarini takomillashtirishda task based learning(mashqlarga asoslanib o'rganish), content based learning (kontent asosida o'rganish) ta'lim turlari va kommunikativ yondashuvning o'ziga xos tamoyillarini mashg'ulot mazmuniga singdirilsa talabalarda kasbiy va terminologik kompetentlikni rivojlantirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Brinton D.M. Epilogue to the myths: Best practices for teachers. Pronunciation myths: Applying Second Language Research to classroom teaching. L.Grant (Ed.). Ann Arbor, MI: University of Michigan Press, 2014, 243 p.
- (2). Ellis, R. Task-based Language Learning and Teaching. Oxford University Press, 2003, 245 p.
- (3). Krashen, S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press, 1982, 345 p.
- (4). Leaver Betty, Stryker Stephen. Content-Based Instruction for Foreign Language Classrooms. Foreign Language Annals. London, 2008, № 22, 269–75 p.
- (5). Prabhu, N. Second Language Pedagogy. Oxford: Oxford University Press, 1987, 160 p.
- (6). Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. New York, Cambridge University Press, 2001, 204 p.
- (7). Schmitt, N. Vocabulary in Language Teaching. Cambridge University Press, 2000, 233 p.
- (8). Spada N. Communicative Language Teaching. Current Status and Future Prospects. International Handbook of English Language Teaching (Part I). New York, Springer, 2007, 277–288 p.
- (9). Simpson A. Task-Based Learning. Cambridge. Cambridge University Press, 2004, 412 p.
- (10). Willis D., Willis J. Doing Task-based Teaching. Oxford: Oxford University Press, 2013, 294 p.

Nizamova Umida Sandjarovna (Andijon davlat Texnika instituti “Tillar va gumanitar fanlar” kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD; umidanizamova18@gmail.com)

NOFILOLOGIK YONALISHI TALABALARIGA CHET TIL O'QITISHDA PRODUKTIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nofilologik ta'lim yonalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda produktiv yondashuvning afzalliklari respublika va xorij olimlar tomonidan o'rganilganligi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada produktiv yondashuv orqali talabalarining ingliz tilini shaxsiy va kasbiy faoliyatlarida samarali foydalana olishi, hamkorlikda ishlash, kreativ fikrlash, muammoli va ijodiy mashqlarni qo'llanilishi amalda qo'llanilishi model yordamida keltirib berilgan. Joriy tadqiqotda produktiv usul kasbiy ta'limda bir nechta tillarning konstruktiv o'zaro ta'siri natijasida talabalarining muloqotini rivojlantirishi ma'lum bo'ldi.

Kalit so'zlar: produktiv yondashuv, kasbiy kompetensiya, reseptiv, reproduktiv, samarali usullar, gapirish va yozuv.

ЗНАЧЕНИЕ ПРОДУКТИВНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Аннотация. В статье анализируются преимущества продуктивного подхода к обучению английскому языку студентов нефилологических специальностей, изученные отечественными и зарубежными учеными. В статье также представлена модель того, как студенты могут эффективно использовать английский язык в своей личной и профессиональной деятельности посредством продуктивного подхода, совместной работы, творческого мышления и использования упражнений по решению проблем и творческих упражнений. Текущее исследование показало, что продуктивный

метод в профессиональном образовании развивает коммуникацию студентов посредством конструктивного взаимодействия нескольких языков.

Ключевые слова: продуктивный подход, профессиональная компетентность, рецепты, воспроизводство, эффективные методы, говорить и писать.

THE IMPORTANCE OF A PRODUCTIVE APPROACH IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO STUDENTS OF NON-PHILOLOGICAL SPECIALTIES

Annotation. The article analyzes the advantages of a productive approach to teaching English to students of non-philological specialties, studied by domestic and foreign scientists. The article also presents a model of how students can effectively use English in their personal and professional activities through a productive approach, teamwork, creative thinking and the use of problem solving and creative exercises. The current study showed that the productive method in vocational education develops students' communication through constructive interaction of several languages.

Key words: productive approach, professional competence, recipes, reproduction, effective methods, speaking and writing.

Kirish. Ingliz tilini o'rganish jarayoni asta-sekin hamda progressiv jarayon bo'lib, uni o'rganishda bir qator qiyinchiliklarga duchor bo'linadi. Shuning uchun ham mazkur jarayonni amalga oshirishda muayyan ko'nikmalarni rivojlantirish zarur bo'ladi. Bu ko'nikmalar umumiy doirasiga ko'ra, produktiv va reseptivga bo'linadi. Qabul qilish qobiliyatlari o'qish va tinglashni o'z ichiga oladi. Chunki ular o'quvchilarga darsliklarni, asarlarni, yoki hujjatlarni mazmunini tushunishga imkon beradi. Produktiv ko'nikmalar gapirish va yozuvdan iborat bo'lib, ular muhim ahamiyatga ega, chunki bunday ko'nikmalar o'quvchilarga og'zaki taqdimotlar, yozma tadqiqotlar va boshqalar qatori hisobotlar kabi kommunikativ jihatlarda ishlashga imkon beradi. Shuning uchun ushbu ko'nikmalarni to'g'ri rivojlantirish va o'rganishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Chet tillarni o'qitish tarixi davomida talabalarining til kompetensiyasi va layoqatini o'stirish maqsadida ko'plab metod va yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ushbu ishlab chiqilgan metodlarning barchasi ham muvaffaqiyatli bo'lmagan. Adabiyotlarda, ko'pincha, til o'rgatishda qo'llaniladigan usul va yondashuvlar turlicha farqlanadi. Chet tillarni o'qitish bo'yicha halqaro miqyosdagi mashhur mutaxassis, tilshunos, pedagog va ingliz tili o'qituvchilari uchun ko'plab kitoblar muallifi J.C. Richards va T.R. Rodgers "yondashuvni tilni o'rgatish uchun asos sifatida foydalanish mumkin bo'lgan tamoyillar to'plami sifatida ta'riflaydi" [1].

Ta'limni samarali rivojlantirish bilan shug'ullangan xorij olimlarining ishlarini tahlil qilish ushbu sohada asosiy ilmiy natijalarni ko'rsatdi. O'qitishning mahsuldor usullari va uni umumta'lim maktablari va kollejlari tizimida tatbiq etish bo'yicha tadqiqotlar (A.A. Vostrikov, O.I. Apasova va boshqalar) yaratilgan. Chet tillarni o'rganish sohasida maktab va kollejlarda chet tillarini o'qitishning samarali texnologiyalari va usullari (N.F. Koryakovseva, G.A. Belenkova, L.A. Lukyanova) samarali pedagogik fikrlashni shakllantirish (M.N. Goldin va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan [2].

Jumladan, chet tillarni o'qitishda metodist olimlar N.I. Almazova va A.V. Rubsovalar tomonidan nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining chet tillarni egallash samaradorligini oshirish maqsadida produktiv yondashuvning quyidagi tarkibiy qismlari ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida samarali chet tili ta'limining falsafiy-pedagogik komponenti.
2. Mahsuldor chet tili ta'limining paradigma-maqsadli komponenti.
3. Chet tilini samarali o'qitishning funksional va texnologik komponenti, shu jumladan, o'rnatilgan o'quv modullari tizimi.
4. Samarali yondashuv asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturlarini o'z ichiga olgan kontent komponenti [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Chet tillaridan unumli foydalana olish oliy ta'lim talabalarining asosiy kasbiy kompetensiyalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Biroq amalda, talabalarga chet tilni o'qitish samarali professional muloqot uchun yetarli lingvistik va madaniyatlararo asosni ta'minlay olmaydi. Chet tillarni past darajada biladigan nofilologik yo'nalishdagi talabalarga ingliz tilini o'rgatish qiyinroq. O'qituvchilar va talabalar "barcha baynalmillashtirish faoliyatining markazida" bo'lgan oliy o'quv yurtlarida ta'limning asosiy maqsadi sifatida kasbiy til kompetensiyasini samarali shakllantirish maqsadida chet tilidagi kasbiy tayyorgarlikni optimallashtirish muammosiga duch kelmoqdalar [4].

Olimlarning tadqiqotlari natijasida chet tilni samarali o'rganishning innovatsion uslubiy modeli akademik soatlarni qisqartirish sharoitida talabalarni chet tilida samarali o'qitishni ta'minlash vositasi sifatida qaraladi va bu bilan talabalarining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi degan xulo-

saga keladilar. Shu munosabat bilan, zamonaviy pedagogika fanida samarali ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqishni taklif etadi.


Ingiliz tilini samarali o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ko'rgazmali qurollar va interfaol metodlarni qo'llanilishi ta'lim oluvchini fanga bo'lgan qiziqish va e'tiborini oshiradi, idrokini rivojlantiradi. Talabalarni produktiv o'qitishga jalb qilish bir qancha loyihachilik ishlarini amalga oshirishni talab etadi. Bunday holat bo'lajak o'qituvchida motivatsion, intellektual, hissiy va irodaviy xislatlarni tarkib topirishni talab etadi.

Tahlil va natijalar. Produktiv ta'lim muammolari bilan shug'ullanadigan xorijiy olimlarning ilmiy va pedagogik adabiyotlari tahlil qilinganda, produktiv ta'lim – bu tarbiya, shaxsiy rivojlanish va talabalarining amaliy ko'nikmalarini shakllantirish masalalarini qamrab oladigan keng qamrovli ilmiy va pedagogik tizim sifatida taqdim etilgan [5].

Ta'limda produktiv yondashuvni rivojlantirishning ikkinchi yo'nalishi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tushunchasi bilan bog'liq. Bu yondashuv o'rta va oliy ta'limda kasbga yo'naltirilgan ta'lim shaklida AQSH va Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, o'rta ta'lim va oliy ta'limni uzviy bog'lab turadi. Bundan tashqari, bu talabalarining kelajakdagi faoliyatida yuksak marralarga erishishlari uchun muhim bo'lgan shaxsiy va kasbiy faoliyatlarini rivojlantirish muammosini hal qilishga xizmat qiladi [6].

Respublikamiz mutaxassislarining ta'kidlashicha, o'zlashtirishning produktiv darajasi o'zlashtirilgan bilimlarning namunaviy masalalarini yechish uchun mustaqil ravishda o'zgartirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bu tayyor namuna yoki qoida emas, balki o'quvchi o'zi tuzgan algoritm bo'yicha bajarilgan harakat. Odatda, bu natijani oldindan ko'rishda faraz qilish mumkin bo'lgan aniq masala shartlariga moslashtirilgan ma'lum qoidalar birikuvidir. Bu o'quvchining o'zlashtirgan ma'lumotini amaliy sohada ma'lum masalalarni yechish uchun qo'llay olishi va yangi subyektiv ma'lumotni olish bilan tavsiflanadi.

“Ijtimoiy gumanitar” soha yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun produktiv usulni afzalliklari yoritilgan bo'lib, ularni quyidagi rasm yordamida ko'rishimiz mumkin. Chunki produktiv metodi orqali o'qitishda bir qancha muvaffaqiyatlarga erishiladi (1.1-rasm).



Shuni ta'kidlash lozimki, reproduktiv usullardan butunlay voz kechish ham yaramaydi chunki aynan reproduktiv usullar tinglovchilarga kerakli ma'lumotlarni qabul qilishga va mulohaza yuritishga omil bo'lib xizmat ko'rsatadi. Buning natijasida produktiv yondashuvi yanada samaraliroq bo'lishiga zamin yaratadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda yuqorida tahlilga tortilgan o'quv adabiyotlarda produktiv o'qitish va izlanuvchan yondashuvi uzviy bog'liq bo'lib, ular asnosida, darslarni tashkil etilishi talabalarining tadqiqotchilik hamda ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Chet til o'qitishda produktiv yondashuvga erishish uchun ta'lim samaradorligini ta'minlaydigan maxsus ta'lim texnologiyalari va tegishli usullarni yangilash va rivojlantirish kerak bo'ladi. Chunki interfaol metodlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini

qo'llash orqali talabalarining barcha ko'nikmalarini rivojlanishi, hamkorlikda ishlashi, o'z ustida mustaqil ish olib borishi va ijodiy faoliyatlari takomillashuviga imkon tug'iladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Richards J.C., Rodgers T.R. Implementing the curriculum with Cambridge: A guide for school leaders, Approaches and Methods in Language Teaching, 2nd ed., New York, CUP, 2004, 244 p.
- (2). Коряковцева Н.Ф. Основы организации изучения иностранного языка учащимися на базе развития продуктивной деятельности. Автореф. дис. ... док. пед. наук, Москва, 2003, 52 с.
- (3). Гольдина М.Н. Формирование продуктивного педагогического мышления студента будущего учителя. Автореф. дис. канд. пед. наук, Самара, 2003, 25 с.
- (4). Almazova N.I., Eremin Y.V., Rubtsova A.V. Productive linguodidactic technology as an innovative approach to the problem of foreign language training efficiency in high school. Russian linguistic bulletin. 2016, № 3, 50 – 54 p.
- (5). Попова Н.В., Коган М.С., Вдовина Е.К. Предметно-языковое интегрированное обучения (CLIL) как методология актуализации междисциплинарных связей в техническом вузе. Вестник Тамбовского университета. Серия гуманитарные науки, № 173, Тамбовск, 2018, 29–37 с.
- (6). Aitov V.F., Aitova V.M. Ways of problematization in project approach. Materials of XI All-Russian scientific-practical conference with international participation 'Foreign languages learning: actual issues and perspectives'. Ufa-Saint-Petersburg-Aktobe, 2017, 44–50 p.

**Juginisova Juldiz Imnixashimovna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti "Informatika o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi; jjuginisova1@gmail.com),
Asanova Uldawlet Sagindikovna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti "Informatika o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi; ul_daulet@mail.ru),
Saxanova Liza Jamixatovna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti "Informatika o'qitish metodikasi" kafedrasida assistent o'qituvchisi; sahanovaliza722@gmail.com)
MASOFAVIY O'QITISHNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH**

Annotatsiya. Mazkur maqola masofaviy o'qitishni tashkil etish va boshqarishning samarali usullarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada masofaviy o'qitishning asosiy tamoyillari, boshqaruv tizimi va texnologik infratuzilmaning o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy va milliy tajriba asosida masofaviy ta'limning muvaffaqiyatli tashkil etilishi va boshqarilishi uchun zarur sharoitlar; o'qituvchilar va talabalar uchun samarali interaktiv platformalar hamda ularni motivatsiya qilish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda masofaviy o'qitishdagi asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari, shuningdek, ta'lim jarayonining sifatini oshirish uchun zarur bo'lgan boshqaruv tamoyillari ko'rib chiqiladi. Maqola ta'lim tizimida masofaviy o'qitishning samarali joriy etilishi uchun tavsiyalarni ishlab chiqadi. Ushbu tadqiqot ta'lim tizimi mutaxassislarga, o'qituvchilarga va ta'lim jarayonini raqamlashtirishga qiziqqanlarga foydali ma'lumotlar taqdim etadi.

Kalit so'zlar: masofaviy o'qitish, ta'lim boshqaruvi, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta'lim, pedagogik tamoyillar, ta'lim sifatini baholash, o'quv jarayonini rejalashtirish, motivatsiya, ta'lim innovatsiyalari, raqamli kompetensiyalar.

ОРГАНИЗАЦИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ИМ

Аннотация. Данная статья посвящена анализу эффективных методов организации и управления дистанционным обучением. В статье рассматриваются основные принципы дистанционного обучения, роль системы управления и технологической инфраструктуры. Также проанализированы необходимые условия для успешной организации и управления дистанционным обучением на основе зарубежного и национального опыта, эффективные интерактивные платформы для преподавателей и студентов, а также методы их мотивации. В исследовании рассматриваются основные проблемы дистанционного обучения и пути их решения, а также принципы управления, необходимые для повышения качества образовательного процесса. Статья разрабатывает рекомендации по эффективному внедрению дистанционного обучения в системе образования. Данное исследование предоставляет полезную информацию для специалистов системы образования, преподавателей и тех, кто интересуется цифровизацией образовательного процесса.

Ключевые слова: дистанционное обучение, управление образованием, цифровые технологии, интерактивное обучение, педагогические принципы, оценка качества образования, планирование учебного процесса, мотивация, образовательные инновации, цифровые компетенции.

THE ORGANIZATION AND ADMINISTRATION OF ONLINE LEARNING

Annotation. *This article is dedicated to analyzing effective methods for organizing and managing distance learning. The article examines the main principles of distance education, the role of the management system, and technological infrastructure. It also analyzes the necessary conditions for the successful organization and management of distance learning based on foreign and national experience, effective interactive platforms for teachers and students, as well as methods for motivating them. The study examines the main challenges in distance learning and ways to address them, as well as the management principles required to improve the quality of the educational process. The article develops recommendations for the effective implementation of distance learning in the education system. This research provides valuable information for education system specialists, teachers, and those interested in digitalizing the educational process.*

Keywords: *distance learning, educational management, digital technologies, interactive learning, pedagogical principles, assessment of the quality of education, educational process planning, motivation, educational innovations, digital competencies.*

Kirish. Masofaviy o'qitish so'nggi yillarda dunyo bo'ylab ta'lim tizimining muhim qismlaridan biriga aylangan. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi va globalizatsiya ta'sirida ta'limni masofaviy shaklda tashkil etish zaruriyati ortib bormoqda. Masofaviy o'qitish ta'lim jarayonining fleksibilizatsiyasi, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va vaqtni tejash kabi afzalliklarni taqdim etadi. Biroq bu tizimning samarali ishlashi uchun to'g'ri tashkil etish va boshqarish, pedagogik yondashuvlar va raqamli infratuzilmaning yaxshi rivojlangan bo'lishi talab etiladi [8;112–117-b.]. Ma'lumki, masofaviy o'qitish nafaqat o'quvchilarga, balki o'qituvchilarga ham yangi imkoniyatlar yaratadi, chunki ularning ta'limda faol ishtirok etishi, onlayn platformalarda o'zaro aloqada bo'lishi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Biroq masofaviy o'qitishning samarali tashkil etilishi uchun ko'plab muammolarni hal qilish kerak. Ushbu maqolada masofaviy o'qitishning asosiy tamoyillari, tashkil etish va boshqarishning samarali usullari, xorijiy va milliy tajriba tahlili hamda masofaviy ta'limda duch kelinadigan muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi masofaviy o'qitishni samarali tashkil etish va boshqarish jarayonini yaxshilash, uning samaradorligini oshirish uchun zaruriy tavsiyalarni ishlab chiqishdir.

Metodologiya. Masofaviy o'qitishni tashkil etish va boshqarishning samarali usullarini o'rganishda bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi masofaviy ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishning eng yaxshi usullarini aniqlash bo'lib, bu jarayonda turli metodlar va usullar qo'llanildi.

Birinchi metod – adabiyotlarni tahlil qilish. Masofaviy o'qitishning asosiy tamoyillari, pedagogik yondashuvlar va texnologik infratuzilmaning roli haqida mavjud ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Bu metod yordamida masofaviy o'qitishning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun zarur bo'lgan asosiy elementlar va yondashuvlar aniqlanib, mavjud tajriba va nazariy asoslar to'plandi.

Ikkinchi metod – taqqoslash metodlari. Tadqiqotda xorijiy va milliy tajriba tahlil qilindi. Xorijda masofaviy o'qitishni tashkil etishning turli usullari va boshqaruv tizimlari bilan tanishib, O'zbekistondagi ta'lim tizimiga qanday moslashish mumkinligi o'rganildi. Bu metod yordamida ta'lim tizimidagi xalqaro tajriba hamda milliy amaliyotning o'ziga xos jihatlari taqqoslandi va eng samarali yondashuvlar aniqlanishga harakat qilindi.

Uchinchi metod – sotsial so'rovlar va intervyular. O'qituvchilar va talabalar bilan olib borilgan so'rovlar va intervyular yordamida masofaviy o'qitishdagi mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari haqida to'plangan ma'lumotlar tahlil qilindi. Bu metod o'quvchilarning tajribasini va o'qituvchilarning fikrlarini eshitish orqali masofaviy ta'lim jarayonini real holatda yaxshilash uchun foydalidir.

To'rtinchi metod – eksperiment va tajriba. Masofaviy o'qitishning samaradorligini baholash maqsadida, onlayn darslarning boshqaruvini va o'quvchilarning faoliyatini kuzatish orqali eksperimentlar o'tkazildi. Bu tajriba masofaviy o'qitishning samarali boshqarilishi uchun eng muvaffaqiyatli usullarni aniqlashga yordam berdi.

Bundan tashqari, statistik tahlil ham qo'llanildi. Tadqiqotda to'plangan ma'lumotlar, jumladan, so'rovlar va intervyulardan olingan natijalar statistik tahlil qilish orqali tahlil qilindi. Bu tahlil masofaviy o'qitishdagi muammolarni aniqroq tushunishga yordam berdi va tajriba asosida olingan ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minladi.

Shunday qilib, bu metodologik yondashuvlar masofaviy o'qitishni tashkil etish va boshqarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, ularni hal etish yo'llarini topish va samarali boshqaruv

tamoyillarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Har bir metod o'zining o'ziga xos jihatlari bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida masofaviy o'qitishni samarali tashkil etish va boshqarishning turli usullari o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. **Masofaviy o'qitishning asosiy tamoyillari aniqlangan.** Masofaviy o'qitish samarali bo'lishi uchun texnologik, pedagogik va tashkilot yondashuvlari birgalikda ishlashining ahamiyati ko'rsatilgan. Raqamli infratuzilmaning sifatli bo'lishi, platformalar va dasturiy ta'minotlarning moslashuvchanligi hamda o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi interaktiv aloqaning rivojlanishi muhim tamoyillar sifatida ajratilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonining shaxsiylashtirilishi va talabalarning mustaqilligi hamda faolligi zaruriyatlari ta'kidlangan.

2. **Masofaviy o'qitishni tashkil etishda texnologik infratuzilmaning roli.** Tadqiqotda masofaviy o'qitishda raqamli platformalar va texnologiyalarning muhimligi ta'kidlandi. Onlayn ta'limda qulay va samarali ishlatiladigan platformalar (masalan, Moodle, Google Classroom, Zoom) orqali o'quvchilar bilan o'zaro aloqaning ta'minlanishi zarurligi ko'rsatilgan. Shuningdek, texnik xavfsizlik masalalari ham dolzarb muammo sifatida ajratildi, chunki ma'lumotlarning himoya qilinishi va o'quvchilarning shaxsiy axborotlarining xavfsizligi ta'lim jarayonining ishonchliligi uchun juda muhimdir.

3. **O'qituvchilar va talabalar o'rtasida interaktivlik va o'zaro aloqaning muhimligi.** Tadqiqotda o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi muntazam aloqa o'qitish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. O'quvchilarning fikrlarini tinglash, ularning yutuqlarini tahlil qilish va doimiy teskari aloqa berish jarayonni yaxshilashga yordam beradi. Interaktiv vazifalar va forumlar orqali guruh bo'lib ishlashning ahamiyati ham o'rganildi, bu esa o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

4. **Masofaviy o'qitishda duch kelinadigan muammolar va ularni hal etish yo'llari.** Tadqiqotda masofaviy o'qitishdagi asosiy muammolar, jumladan, texnik muammolar, o'qituvchilarning malakasizligi va talabalar uchun moslashuvchan ta'lim usullarining yetishmasligi tahlil qilindi. Bu muammolarni hal etish uchun onlayn platformalarning samarali qo'llanilishi, o'qituvchilarga doimiy malaka oshirish dasturlarini tashkil etish va ta'lim dasturlarini individual ehtiyojlarga moslashtirish zarurligi ko'rsatilgan.

5. **Xorijiy va milliy tajriba tahlili.** Xorijiy tajriba asosida masofaviy o'qitishni tashkil etishning muvaffaqiyatli usullari va O'zbekiston tajribasidagi kamchiliklar tahlil qilindi. Xorijda masofaviy o'qitishning samarali tashkil etilishi uchun mavjud infratuzilma, o'qituvchilarni tayyorlash tizimi va texnologik innovatsiyalar joriy etilgan. O'zbekistonda esa masofaviy o'qitishning keng tarqalishi uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish va o'qituvchilarni texnologik ko'nikmalarga o'rgatish zarurligi ta'kidlangan.

Natijada masofaviy o'qitishning samarali tashkil etilishi uchun texnologik infratuzilmani mustahkamlash, o'qituvchilarning malakasini oshirish va talabalar uchun moslashuvchan, interaktiv ta'lim muhitini yaratish zarurligi ta'kidlandi. Bu tadqiqot masofaviy ta'limning sifatini oshirish va uning samarali ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan asosiy yondashuvlar va usullarni aniqlashga yordam berdi.

Munozara. Masofaviy o'qitishni tashkil etish va boshqarish masalasi, ayniqsa, pandemiya davrida, global miqyosda keng tarqaldi va bu sohada turli fikrlar, yondashuvlar va tajribalar mavjud. Bu muammoni o'rganishda ba'zi masalalar muhokama qilinishi lozim.

Birinchidan, texnologik infratuzilmaning rivojlanishi va uni yangilashning ahamiyati muhim bo'lib, ba'zi davlatlarda masofaviy ta'lim tizimi muvaffaqiyatli ishlashining asosiy sababi sifatida tan olinadi. Dastlab, raqamli platformalar va texnologiyalarni o'z vaqtida va samarali joriy etish masalasi hal qilinishi lozim. Lekin, ayni paytda, texnologik infratuzilma hamma joyda teng darajada rivojlanmagan. Ba'zi hududlarda internetga ulanish imkoniyatlari cheklangan yoki internet tezligi past, bu esa ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchidan, o'qituvchilarning malakasini oshirish masalasi doimiy e'tibor talab qiladi. Masofaviy o'qitish usullari yangi bo'lganligi sababli, ba'zi o'qituvchilar texnologiyalardan to'liq foydalanishda qiynalishlari mumkin. O'qituvchilarga doimiy malaka oshirish kurslari va treninglar o'tkazish zarur. Shuningdek, o'qituvchilarning onlayn darslarga tayyorligi va interaktiv metodlarni qo'llashdagi tajriba darajasi farq qilishi mumkin. Bu holat, o'z navbatida, o'quvchilar uchun darslarning samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, talabalarning motivatsiyasini saqlash muhim masala bo'lib qolmoqda. Masofaviy o'qitishda talabalar o'zini-o'zi boshqarish va mustaqil ishlashni o'rganishi zarur. Lekin ko'plab talabalar onlayn ta'limda shaxsiy motivatsiyalarini yo'qotishadi. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Buning oldini olish uchun o'qituvchilarni talabalar bilan muntazam aloqa qilishga undash va ularning yutuqlarini doimiy tahlil qilish kerak.

Sotsial muammolar ham masofaviy ta'limni to'liq amalga oshirishda hal qilinishi lozim bo'lgan masalalardir. Misol uchun, ba'zi oilalarda talabalar uchun kerakli qurilmalar yoki kompyuterlar yo'q. Bu o'qitish jarayoniga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, o'qitish uchun zarur bo'lgan dasturiy ta'minotlar va raqamli platformalar ham barcha hududlar uchun teng imkoniyat yaratmayapti.

Yana bir muhokama qilinadigan masala – masofaviy ta'limning ta'lim sifatiga ta'siri. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, masofaviy o'qitish an'anaviy o'qitish uslublariga qaraganda samarali emas. Chunki talabalar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqaning yo'qligi, ko'proq mustaqil o'rganish va o'qituvchining shaxsiy yondashuvi talabalar o'zlashtirishida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, boshqa tadqiqotlar masofaviy o'qitishning o'ziga xos afzalliklarini ta'kidlaydi: talabalar uchun qulaylik, o'rganish sur'atini nazorat qilish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va boshqalar.

Masofaviy o'qitishni tashkil etish va boshqarishning samarali yondashuvlarini ishlab chiqishda, yuqorida keltirilgan barcha fikrlar va qarashlar inobatga olinishi kerak. Yuqoridagi muammolarni hal etishda hamkorlik va yangi yondashuvlar zarur bo'ladi. Bu nafaqat o'qituvchilar va talabalar, balki davlat, ta'lim tashkilotlari va texnologiya mutaxassislarning hamkorlikda ishlashini talab qiladi.

Xulosa. Masofaviy o'qitishni tashkil etish va boshqarish bugungi ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda, ayniqsa, raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarning rivojlanishi fonida. Tadqiqot davomida masofaviy o'qitishning samarali tashkil etilishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, shu jumladan, texnologik infratuzilma, o'qituvchilarning malakasi, talabalar bilan aloqaning doimiyliigi va shaxsiylashtirilgan ta'lim jarayonining ahamiyati o'rganildi. Masofaviy o'qitishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun texnologik resurslarning, raqamli platformalarning va onlayn vositalarning yuqori darajada mavjudligi zarur. Shuningdek, o'qituvchilarning malakali tayyorlanishi va ular uchun doimiy malaka oshirish kurslarining tashkil etilishi talab etiladi. Bu, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirish va o'qituvchilarning motivatsiyasini saqlashda katta ahamiyatga ega. Biroq masofaviy o'qitishning keng tarqalishi ba'zi hududlarda texnik cheklovlar, raqamli ta'lim platformalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va talabalar uchun zarur qurilmalar mavjud emasligi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat va ta'lim tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish va zarur infratuzilmani rivojlantirish kerak. Umuman olganda, masofaviy o'qitishning samarali tashkil etilishi uchun ta'lim jarayonining barcha qatnashchilari, jumladan, o'qituvchilar, talabalar, ta'lim muassasalari va davlat organlari hamkorlikda ishlashi lozim. Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amalga oshirish orqali masofaviy ta'limni yanada samarali va yuqori sifatli qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Abdumajidov, A., Togayeva, N. (2022). Ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish masofaviy ta'lim. Models and methods in modern science, 1(16), 15–20-betlar.
- (2). Dustkabilovich, R.O. (2023). Masofaviy ta'lim texnologiyalari tasnifi. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 3(2).
- (3). Ergashevich, E.A., Sur'at, T. (2023). Masofaviy ta'lim texnologiyalari va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishi. Journal of Innovation in Education and Social Research, 1(4), 177–179-betlar.
- (4). Idrisovich, O.R., Arislanbayevna, Q.X. (2024, April). Oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini masofaviy o'qitishning ilmiy-metodik materiallarining mazmunini takomillashtirish. In Konferensiyalar Conferences. Vol. 1, № 9, p. 686–689.
- (5). Meliqoziyevich, S.I. (2023). Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. "Qo'qon universiteti xabarnomasi", 152–155-betlar.
- (6). Valisherovna, U.M. (2023). Ta'lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. Образование наука и инновационные идеи в мире, 22(8), с. 152–156.
- (7). Yorqinov, H. (2023). Ta'lim tizimida masofaviy o'qitish tizimi imkoniyatlari. Scientific Impulse, 1(10), p. 1285–1291.
- (8). Sharipova, M.Z. (2024). Masofaviy ta'limda interfaol o'qitish metodlari: talabalar faoliyatiga ta'siri. World of Philology, 3(4), p. 112–117.

Shadiyeva Nigora Sharipovna (Buxoro davlat Pedagogika instituti "Geografiya" kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD); nigrollashadiyeva10@gmail.com)

GEOGRAFIYA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI O'QITISH METODIKASI VA KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA OID TADQIQOT ISHLARINING TAHLILI

Annotatsiya. Mamlakatimizda kechayotgan zamonaviy globallashtirish jarayonlarida malakali kadrlar tayyorlash, demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini hayotga tatbiq etish, ijodiy tafakkur, innovatsion fan va texnologiyalarni, innovatsion ta'lim yo'nalishlari asosida

xalqaro pedagogik tajribani o'zlashtirish zarurati tug'ilmoqda. Ta'lim va tarbiya uzluksizligini ta'minlash doimo e'tiborda bo'lib kelgan masalalardan biridir. Buning uchun ta'lim jarayonida bolalarning nutqi, muloqot qobiliyatlari, hissiy, aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish kerak, jumladan: toza joy, toza havo va yetarli darajada normal haroratli xona, yoritish, xavfsizlik choralari, sport, dam olish maydonchalari mos ravishda jihozlangan bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: munozara, trening, ishbilarmonlik o'yini, aql, fikrlash, o'z-o'zini hurmat qilish, bola rivojlanishi.

Шадиева Нигора Шариповна (доцент кафедры «География» Бухарского государственного педагогического института, кандидат географических наук; nigrollashadiveva10@gmail.com)

АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ И РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ГЕОГРАФОВ

Аннотация. В современных процессах глобализации в нашей стране возникает необходимость подготовки квалифицированных кадров, углубления демократических преобразований и реализации концепции основ гражданского общества, творческого мышления, овладения инновационными науками и технологиями, международного педагогического опыта на основе инновационных образовательных тенденций. Обеспечение преемственности образования и воспитания является одним из вопросов, который всегда находился в центре внимания. Для этого необходимо создать благоприятные условия для развития речи детей, коммуникативных навыков, эмоционального, умственного, физического и социального развития в образовательном процессе в том числе: чистое пространство, свежий воздух, помещение с нормальной температурой и достаточным освещением, технику безопасности, занятия спортом, отдыха, детские площадки оборудованы соответствующим образом.

Ключевые слова: обсуждение, тренинг, деловая игра, интеллект, мышления, самооценка, развитие ребенка.

Shadieva Nigora Sharipovna (Associate Professor of the Department of Geography of the Bukhara State Pedagogical Institute, Candidate of Geographical Sciences; nigrollashadiveva10@gmail.com)

ANALYSIS OF RESEARCH ON TEACHING METHODOLOGY AND DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF GEOGRAPHY STUDENTS

Annotation. In the process of modern globalization in our country, there is a need to train qualified personnel, deepen democratic transformations and implement the concept of the foundations of civil society, mastering international thinking based on creative thinking, innovative sciences and technologies, and innovative education. Ensuring the continuity of education and upbringing is one of the issues that has always been in the spotlight. To do this, it is necessary to create favorable conditions for the development of children's speech, communication skills, emotional, mental, physical and social development in the educational process, including: clean space, fresh air, a room with a normal temperature and sufficient lighting, safety precautions, sports, recreation playgrounds are equipped accordingly.

Keywords: discussion, training, business game, intelligence, thinking, self-esteem, child development.

Kirish. Jahonda ta'lim tizimida talabalarning bilim olishi hamda bo'lajak mutaxassislarining raqobatbardoshligini ta'minlash, kasbiy-pedagogik faoliyatda innovatsion shakllantirish; ta'limda ilg'or texnologiya, didaktik vositalar va uskunalardan keng foydalanish, o'qitishning zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari ta'lim muhitining samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'lim beruvchilarning ta'lim-tarbiya berish usullarini va o'qitish vositalarini ham o'zgartirishga olib keladi. Talabalarni o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadallik bilan kirib kelishi ularning materialni o'zlashtirishi, tezkor kerakli ma'lumotlarni olishlariga xizmat qiladi. Dasturiy ta'lim vositalardan keng foydalanish, o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari dolzarb vazifalar sifatida e'tirof etilmoqda.

Dunyoda fan va texnika rivojlanayotgan mamlakatlarda zamonaviy ijtimoiy o'quv jarayonini virtual loyihalash muhitga daxldor global ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. UNESCO tomonidan qabul qilingan ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashtirish; o'quv jarayoniga Milliy kvalifikatsiya tizimini to'laqonli joriy etish; tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlari uchun ta'lim mazmunini innovatsion loyihalash; innovatsion kasbiy kompetensiyalarini tarkibiy qismlarga ajratish; ta'limning yangi metodik modellari yaratish va ularni muayyan ta'lim amaliyotida qo'llash talab etilmoqda [1]. Taraqqiyot bosqichlarining dolzarb masalalari ta'limning ustuvor yo'nalish si-

fatida bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda, innovatsion modellarini ish-lab chiqish, bo'lajak kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish, dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Dunyoda bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim berish jarayonini yuksak darajaga olib chiqish bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarni o'rganish va ular bilan hamkorlik tadqiqotlarni olib borish, amaliyotga qo'llash talab etilmoqda.

2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi [5]. Ushbu konsepsiya ta'lim tizimida pedagoglar, jumladan, bo'lajak o'qituvchilarni, kompetensiyaviy yondashuv asosida metodik tayyorgarlik darajasi hamda ijodiy taffakkurini rivojlantiradigan, jahon andozalariga mos keladigan innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bugungi kun uchgun ustuvorlik kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan "Geografiya" ta'lim yo'nalishi talabalarining innovatsion ta'limga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish, raqamli texnologiyalar va dasturiy ta'lim ilovalaridan foydalanib ta'lim berish, shu yo'nalishga tegishli metodikalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi mustahkam poydevor qurishdan iborat bo'lib, ushbu poydevor sog'lom, har sohada rivojlangan barkamol mutaxassis kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi alohida e'tiborga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasini ham qamrab olgan. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda "har bir bolaning ta'lim olishdagi teng huquqli" ligini ta'minlash, har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan "inklyuziv ta'lim" tushunchasi ham kiritildi. Shuningdek, mazkur qonunning 55-moddasida "rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar ta'lim olish huquqiga egadirlar", deyiladi [5]. Demak, qonunga ko'ra, uzluksiz ta'lim tizimida barcha yengil darajadagi alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan yoshlarning ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda, ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashga hizmat qiladi.

Hozirgi zamon globallashuv jarayonida yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlash zarurati, demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini amalga oshirishda, kreativ fikrlovchi, innovatsion texnologiya hamda dasturiy ta'lim vositalarni mukammal egallagan, mutaxassis kadrlarning innovatsion ta'lim tendensiyalari asosidagi xalqaro pedagogik tajribaga ko'ra, "Geografiya" ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyatga oid kreativligini rivojlantirishda birqancha dasturlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta'lim vositalarining yangi avlodlarini takomillashtirish orqali majburiy va tanlov fanlarini virtual reallik qonuniyatlari asosida talabalarni innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida dasturiy ta'lim vositalarini samarali qo'llash orqali ularning imkoniyatlari to'liq ochib berilmaganligi, kompyuter dasturlaridan foydalanish metodikasi asosida o'qitishni mazmunan takomillashtirish jarayonini keng joriy etish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi [6].

Pedagog olim N.A.Muslimov tomonidan talaba yoshlarda kasbiy xislatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan. Pedagog olim V.M.Blinovning fikricha, ta'lim-tarbiya ishlarida yuqori samaradorlikka erishish talabalarning individual qobiliyatlari, layoqatlarini e'tiborga olib tabaqalashtirilgan topshiriqlar berishni taqozo etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashning samaradorligi yuqori bo'lishi uchun dars mazmunini innovatsion texnologiyalarga asoslangan dasturiy vositalar asosida tashkil etishni tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biri deb belgiladik [6].

Respublikamiz olimlaridan B.M.Abdurahmonovning ilmiy ishlarida, umumiy o'rta talim maktablari o'quvchilarining geografik madaniyatini shakllantirish jarayonining tasviriy-didaktik jihatlarini ta'lim vositalari tasniflanishida ta'lim muhiti va ular orasidagi uzluksizlik va uzviylikni hisobga olish asosida metodik jarayonni amalga oshirish tizimi va modeli ta'lim vositalaridan foydalanish va model komponentlarining uzviy bog'liqligi asosida ishlab chiqilib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarining baholash darajalarini reflektiv tahlil qilish va tahliliy faoliyat natijalari orqali xaritagrafik savodxonlikning kafolatlangan samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan bo'lib, o'quvchilarning geografik madaniyatining shakllanishini ta'minlovchi ta'lim vositalari majmuasidan foydalanishning didaktik, ergonomik metodik talablari elektron darslik, interfaol xaritagrafik qo'llanmalar asosida takomillashtirilgan [6].


D.N.Abdullayevaning dissertatsiya ishida "Geografiya" fani o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida elektron ta'lim vositalaridan foydalanish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish va o'qituvchilarning axborot kompetentlik ko'rsatkichlarini rivojlantirish mazmuni (metodik-tashkiliy, texnologik jarayonli, kreativ) raqamli texnologiyalar vositasida ta'limni axborotlashtirish talablari hamda didaktik

maqsadlarini (motivatsion-qadriyatli, kognitiv-faoliyatli, shaxsiy-refleksiv) integratsiyalash asosida o'qitish metodikasi aniqlashtirgan [7].

F.A.Xamroyevaning ilmiy tadqiqot ishida mediatexnologik ta'limning tabiiy geografik fanlarga doir bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni, mediatexnologiyalarning tashkiliy (ijtimoiy, individual, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ, pedagogik, psixologik) komponentlari mazmunini ochib berish orqali asoslagan bo'lib, geografik fanlarni o'qitish jarayonlarini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar (metodik, didaktik, psixologik) mediatexnologiyalarning xususiyatiga ko'ra tasniflash (audiovizual, multimedia, gipermatnli, xolo-grafik) asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. "Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'llari" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida xorijiy oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash omillari xalqaro tajribada keng tarqalgan «bilimlarning kommersiyanishuvi» va «transnatsional ta'lim» faoliyat mazmuni asosida aniqlashtirilib, oliy ta'limda sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlashning pedagogik mexanizmlari diagnostik (Diagnostic), metrik (Metric), ichki (Internal), tashqi (external), raqobat (competitive) benchmarking usullariga ustuvorlik berish asosida oliy ta'lim sifatini belgilovchi komponentlar o'zaro moslik va o'xshashlikni me'yoriy tavsiflashga yo'naltirilgan tyuning metodini kompetensiyalarga asoslangan ta'lim berish bilan maqbul uyg'unlashtirish asosida oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlashning akademik va institutsional strategik jihatdan rejalashtirish mexanizmi oliy ta'limning xalqarolashuvi jarayoni xorijiy talabalar sonining oshirilishi, professor-o'qituvchilar almashinuvining ko'payishi, xalqaro ta'limni tashkil etish orqali budjetdan tashqari mablag'larning oshirilishi kabi ko'rsatkichlarga tayangan holda takomillashtirilgan [6].

Tahlil va natijalar.



1.1-rasm. Innovatsion kasbiy faoliyatga ega talaba o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi.

1.1-jadval

Talabalarda kreativ tafakkurini rivojlantirish mezonlari

№	Mezonlar	Mazmuni
1	Bilim	Bilimlardan xabardor bo'lish, ularni o'zlashtirish, yodda tutish, qayta yodga olishni ifodalaydi.
2	Tushunish	Bilimlar yuzasidan fikrlash, mushohada yuritish, nazariy holatdan amaliyotga ko'chish mantig'ini o'zlashtirish.
3	Qo'llash	Bilimlarni amaliyot (amaliy xarakter)da qo'llash.
4	Analiz	Mavjud bilimlarga tayangan holda yaxlit, bir butun obyekt, hodisa va voqe'lik va jarayonni tarkibiy elementlarga ajratgan holda o'rganish, juz'iy xulosa chiqarish.
5	Sintez	Mavjud bilimlarga tayangan holda ayrim, alohida tarkibiy elementlar asosida yaxlit, bir butun obyekt, hodisa, voqe'lik va jarayon to'g'risida umumiy xulosa chiqarish.
6	Baholash	Shaxsning nazariy bilim hamda amaliy ko'nikma, malakalarga egaligini baholash.

Xulosa va tahlillar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion kasbiy faoliyatga ega bo'lgan talabalarda quyidagilar namoyon bo'ladi. Bo'lajak pedagoglarning xayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi, o'zlarini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi, ba'zan mavzuga aloqasi yo'q yoki g'ayri oddiy savollar beradi, yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi, g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi, muammoning yechimini topishda noan'anaviy yondashuvni tanlaydi.

1. 5140600–Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensi-yalarini rivojlantirishga oid jarayonini takomillashtirish muammosi, uzluksiz ta'lim tizimida yuqori malakali mutaxassis kadrlarni yetishtirish o'ziga xos muhim ahamiyat kasb o'rganildi. Ushbu muammoning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, ularning nazariy va amaliy jihatdan asoslanishi, shuningdek, kasbiy tay-yorgarligidagi kreativligini takomillashtirishda innovatsion yondoshuvlar asosida, dasturiy ta'lim vosita-larining ishlab chiqilishi, yuqorida izohlanayotgan jarayonning samarali tashkil etilishiga imkon berdi.

2. Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivoj-lantirishga oid kasbiy faoliyat turlari: tashkiliy, kommunikativ, informatsion, rivojlantiruvchi, mobilizat-sion, nazorat, texnik va boshqalardan iborat ekanligi, pedagog mutaxassis faoliyatlaridagi amaliy jarayonla-rni bajarishlariga qarab ularning vazifalari (umumiy) o'qituvchi faoliyati tuzilmasi va (xususiy) faoliyat turlaridan iborat ekanligi aniqlandi.

3. Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatgatayyorlash jarayonini rivojlantirishning asosi sifatida kompyuter vositasida amalga oshiriladigan dasturlashtirilgan ta'lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi nazariy jihatdan asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-farmani.

(2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-qarori.

(3). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Alohida sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-82-farmoni.

(4). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-farmoni.

(5). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-farmoni.

(6). Shadiyeva N.Sh. Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalaridan foy-dalanish metodikasini takomillashtirish (geografiya ta'lim yo'nalishi misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand, 2024, 125-bet.

(7). Shadiyeva N.Sh. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida virtual ta'lim vositalaridan foydalanish metodi-kasini takomillashtirish. "Ilm-fan texnologiyalar", Buxoro, 2023, 3 (1)-son, 52–57-betlar.

**Qutlimuratova Barno Xursandbekovna (Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti;
e-mail: kutlimuratovab0712@gmail.com)**

INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O'RGANAYOTGAN O'ZBEK TALABALARI: KORPUS YORDAMIDA XATOLIKLAR TAHLILI

***Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan o'zbek talabalar tomonidan yo'l qo'yiladigan tipik lingvistik xatolarini o'rganadi. Tahlil Urganch davlat universiteti bakalavriat talaba-lari tomonidan yozilgan 40 ta akademik insho asosida tuzilgan. Sketch Engine platformasidan foydalanib, xatolar aniqlandi, 13 xil turga ajratildi, ularning chastotasi va naqshlari uchun tekshirildi. Natijalar imlo, maqoladan foydalanish, tinish belgilari va so'z tanlashdagi xatolar eng ko'p uchraganini, jumla tuzilishi va bog'lovchi so'zlardan foydalanish bilan bog'liq muammolar kam uchraydi.*

***Kalit so'zlar:** xatoliklarni tahlil qilish, ingliz tili chet tili sifatida (EFL), korpus lingvistikasi, til o'r-ganish.*

Кутлимуратова Барно Хурсандбековна (докторант Ургенчского государственного университета; e-mail: kutlimuratovab0712@gmail.com)

УЗБЕКСКИЕ СТУДЕНТЫ, ИЗУЧАЮЩИЕ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ: АНАЛИЗ ОШИБОК С ПОМОЩЬЮ КОРПУСА

***Аннотация.** В этом исследовании изучаются типичные лингвистические ошибки, допускае-мые узбекскими студентами, изучающими английский язык как иностранный с помощью подхода «корпус обучающегося». Анализ основан на 40 академических эссе, написанных студентами Ургенч-*

ского государственного университета. С помощью платформы Sketch Engine ошибки были выявлены, классифицированы по 13 различным типам и исследованы на предмет их частоты и закономерностей. Результаты подчеркивают, что ошибки в орфографии, использовании артиклей, пунктуации и выборе слов являются наиболее распространенными, тогда как проблемы со структурой предложений и использованием связующих слов встречаются реже.

Ключевые слова: анализ ошибок, английский как иностранный язык (EFL), корпусная лингвистика, изучение языков.

Kutlimuratova Barno Khursandbekovna (PhD student at Urgench State University;

Email: kutlimuratovab0712@gmail.com)

UZBEK STUDENTS LEARNING EFL: CORPUS-BASED ERROR ANALYSIS

Annotatsiya. Upon investigation of typical linguistic errors in English as foreign language learning among students, this study uses a learner corpus approach in analyzing samples of texts written by undergraduates at Urgench State University totaling 40 scholarly essays. Adopting the Sketch Engine platform, the errors were located, classified into 13 categories, and subjected to patterns of frequency analysis. From the findings, it is evident that errors in spelling, use of articles, punctuation, and choice of words are the most frequent, while those related to sentential structure and linking words are level in frequency.

Keywords: Error Analysis, English as a Foreign Language (EFL), Corpus Linguistics, Language Learning

Kirish. Til inson muloqotidagi ishonch ustunlaridan biridir, u odamlarning o'z g'oya hamda ma'lumotlarini turli vaziyatlarda bo'lishishiga yordam beradi. Dunyo bo'ylab minglab tillar so'zlashilayotgan bo'lsa-da, ingliz tili bugungi kunda xalqaro lingua franca sifatida tan olingan bo'lib, xalqaro muloqot, ta'lim va savdoda muhim rol o'ynamoqda [1]. Natijada ingliz tilini bilish darajasi ona tili ingliz tili bo'lmagan davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda juda yuqori qadrlanadi va u chet tili sifatida keng o'rgatiladi.

Ingliz tilini o'zlashtirish, ayniqsa, akademik yozuvda, o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Akademik yozuv faqat grammatik to'g'rilikni emas, balki mos so'z tanlash, izchil jumla tuzilmalari va yozma nutqning belgilangan konvensiyalariga amal qilishni ham talab qiladi [2]. O'zbekistondagi ingliz tili o'rganuvchilari uchun bu qiyinchiliklar, ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi lingvistik va madaniy tafovutlar sababli yanada murakkablashadi. Bu to'siqlarni bartaraf etish samarali til o'qitishni ta'minlash uchun zarur hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ingliz tilini o'rganayotgan o'zbek bakalavriat talabalari tomonidan yo'l qo'yilgan lingvistik xatolarni korpusga asoslangan yondashuv orqali o'rganadi. IELTS yozma topshiriqlari hamda qoidalari asosida yozilgan 40 ta akademik inshoni tahlil qilgan holda, tadqiqot keng tarqalgan xatolar turlarini aniqlash, ularning asosiy sabablarini o'rganish va amaliy pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qiladi. Diagnostik vosita sifatida xatolar tahlili o'quvchilarning til o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarini tushunish va ta'lim strategiyalarini optimallashtirishda, ayniqsa, resurslar cheklangan sharoitlarda muhim ahamiyatga ega [3].

Mazkur tadqiqot amaliy tilshunoslik sohasi rivojiga o'z hissasini qo'shishni maqsad qilgan bo'lib, o'zbek EFL (chet tili sifatida ingliz tili) o'rganuvchilari duch kelayotgan noyob muammolarga e'tibor qaratadi. Tadqiqot natijalari ingliz tili yozma ko'nikmalarini va umumiy til bilimini oshirish uchun o'qituvchilar va o'quv dasturi tuzuvchilariga yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqishda qo'l keladi.

Adabiyotlar sharhi. Xatolar tahlili (Error Analysis) – ikkinchi tilni o'zlashtirish (SLA) sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib, o'rganuvchilarning til o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi [4]. Bu yondashuv kontrastiv tahlil (L1 va L2 tillar farqlarini solishtirish) asosidan intertil (interlanguage) nazariyasiga o'tdi, bu o'rganuvchining rivojlanayotgan oraliq tili tizimidir [5].

Zamonaviy til o'rgatish nazariyalari (masalan, Krashenning Monitor modeli va Vigotskiyning sotsiomasaniy nazariyasi) til o'zlashtirishda ijtimoiy muloqot va kontekstning ahamiyatini ta'kidlaydi [6]. Korpus lingvistikasi, ayniqsa, Sketch Engine kabi vositalar, xatolarni katta miqyosda tahlil qilishga imkon beradi [7]. Korpusga asoslangan yondashuvlar til o'rganishdagi naqshlarni aniqlash, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishda samaralidir [8].

O'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi fonologik va grammatik tafovutlar ko'plab xatolarga sabab bo'ladi – ayniqsa artikllar, so'z tartibi va imloda [9]. Oldingi tadqiqotlar L1 transferining o'zbek EFL o'quvchilari uchun asosiy muammo ekanligini ko'rsatgan [10], biroq korpus asosida bu muammolarni chuqur tahlil qilgan ishlar kam.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan o'zbek talabalarining yozma ishlarida uchraydigan keng tarqalgan xatolarni tahlil qilish uchun korpusga asoslangan yondashuvni qo'llaydi. Yondashuv uch bosqichdan iborat: ma'lumot yig'ish, korpus yaratish va xatolarni tahlil qilish.

Ma'lumot yig'ish. Tadqiqot uchun ma'lumotlar Urganch davlat universitetining ingliz filologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan 40 nafar bakalavr talabasi tomonidan yozilgan akademik insholardan iborat. Insholar 2020–2021-o'quv yilining bahor semestrda, IELTS yozma topshiriqlari (1-topshiriq – tavsif; 2-topshiriq – argumentativ) asosida yozilgan. Ishtirokchilar 17–26 yoshdagi EFL kurslariga qatnashuvchi ko'ngillilar bo'lgan.

Korpus yaratish. Insholar raqamlashtirilib, tahlil uchun Sketch Engine platformasiga yuklandi. Korpusga talabalar haqida metama'lumotlar (jinsi, yoshi, o'qish bosqichi) ham kiritilib, demografik taqqoslashlar o'tkazish imkonini yaratdi.

Xatolarni aniqlash va tasniflash. Xatolar avtomatik va qo'lda tahlil qilish orqali aniqlanib, quyidagi 13 toifaga ajratildi:

Imlo xatolari	Tinish belgisi xatolari	Artikllardan noto'g'ri foydalanish	So'z tanlash xatolari	Jumla tuzilishi xatolari
Predloglar bilan bog'liq xatolar	So'z shakli xatolari	Bog'lovchi so'zlar xatolari	Chalkash yoki tushunarsiz ifodalar	Otlar bilan bog'liq xatolar
	Fe'llar bilan bog'liq xatolar	Qo'shib yuborish xatolari		

Har bir xato chastotasi bo'yicha hisoblab chiqilib, korpus doirasida tarqalishi o'rganildi.


Tahlil jarayoni. Xatoliklarni tahlil qilish jarayonida uch bosqichli tahlil modeli qo'llanildi:

2. Xatolarni aniqlash. Har bir insho til xatolari yuzasidan ko'rib chiqildi.
3. Tasniflash. Har bir xato tegishli kategoriya ostiga ajratildi.
4. Chastota tahlili. Xatolar chastotasi hisoblanib, demografik farqlarga qarab taqqoslandi.

Etik me'yorlar. Talabalar o'z insholarini topshirishdan, avval, rozilik shaklini imzolagan. Shaxsiy ma'lumotlar maxfiy saqlangan, barcha ishtirokchilar anonimlashtirilgan.

Tahlil va natijalar. Xatolarning umumiy ko'rinishi. Korpus tahlili natijasida 40 ta inshoda jami 1248 ta til xato aniqlandi. Ular 13 ta kategoriyaga ajratilib, chastotasi va taqsimoti o'rganildi. Eng ko'p uchragan xatolar – imlo, artikllar, tinish belgisi va so'z tanlashga oid bo'lib, bu o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi fonologik va grammatik tafovutlar bilan bog'liq.

Quyidagi diagrammada toifalar bo'yicha xatolilar statistikasi, jamlangan:



1-rasm. Tayyorlangan korpus bo'yicha xatoliklar chastotasi.

- Asosiy kuzatmalar statistikasi:
- Imlo xatolari ko'pligi talaffuz va yozuv o'rtasidagi nomutanosiblikdan dalolat beradi.
- Artikllardan noto'g'ri foydalanish – o'zbek tilida artikllarning mavjud emasligi bilan izohlanadi.
- Ayol talabalar imlo va tinish belgisi xatolarini erkaklarga qaraganda kamroq qilgan.
- L1 transfer, ayniqsa, so'z tanlash va predloglarda sezilarli, o'zbekcha fikr tuzilmalari ingliz tiliga

noto'g'ri ko'chirilgan.

▪ Nisbatan kam uchraydigan xatolar ot, fe'l, o'chirish va qo'shish bilan bog'liq xatolar, asosiy grammatik bilimlarning mavjudligini ko'rsatadi.

Topshiriq turlari bo'yicha xatolar statistikasi:

- 1-topshiriq (tavsiflovchi) – imlo va leksik xatolar ko'p.
- 2-topshiriq (argumentativ) – tinish belgisi va jumla tuzilmasi xatolari ustun.

O'qitish uchun xulosalar:

- Imlo va lug'at boyligini oshirish uchun fonetik asosdagi mashqlar tavsiya etiladi.
- Artikllarni o'rgatishda kontrastiv yondashuv foydali.
- Mantiqiy fikrlash va jumla qurish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mashqlar 2-topshiriqqa yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda o'zbek EFL o'quvchilarining yozma nutqida uchraydigan asosiy til xatolarini korpus asosida tahlil qilindi. Xatolar orasida imlo, artikllardan foydalanish, tinish belgisi, va leksik tanlov ustunlik qildi. Bu holat ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi grammatik va semantik tafovutlar, ayniqsa artikllar tizimi yo'qligi va L1 transfer bilan izohlanadi. Xatolar tahlili, ayniqsa, resurs cheklangan muhitlarda, o'qituvchilarga o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va yo'naltirilgan ta'lim tashkil etishda yordam beradi.

Sketch Engine kabi korpus vositalari ta'limda analitik yondashuvlarni qo'llab-quvvatlaydi va o'quvchilarning o'z-o'zini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Gad, R. (2018). Xatolarni tahlil qilish bo'yicha psixolingvistik nuqtai nazar: zamon aspektini olish. Misr ingliz tili va adabiyoti tadqiqotlari jurnali.
- (2). Muftoh, M. (2023). Ikkinchi tilni o'zlashtirishda xatolar tahlili (ITO'). Grammatik xatolarning turlari va chastotalari. Kolumbiya amaliy tilshunoslik jurnali.
- (3). McDowell, L. (2020). Xatolarni tahlil qilish: uslubiy tadqiqot va qo'llash. JALT konferensiyadan keyingi nashri.
- (4). Al-Sobhi, B. (2019). Til o'rganuvchilarning xatolarining nozik jihati – kontrastli tahlil, xatolar tahlili va tillararo. Ta'lim va savodxonlik tadqiqotlari xalqaro jurnali.
- (5). Thao, MTP (2020). Kontrastiv tahlil gipotezasiga va xato tahliliga ko'ra, L2 sotib olishda L1 ning roli. "Ta'lim va amaliyot jurnali".
- (6). Xalifa, M. (2018). Kontrastiv tahlil, xatolar tahlili, belgilar nazariyasi, universal grammatika va monitor nazariyasi va ularning ikkinchi tilni o'rganishga qo'shgan hissi. "Xalqaro tilshunoslik" jurnali.
- (7). Naeni, MB (2016). Ingliz tili L1-fors tili L2 katta yoshdagi o'quvchilarning o'zaro tillarini morfologik tahlili. ITO' o'zgarishi nuqtai nazaridan. Jahon fan, muhandislik va texnologiya akademiyasi.
- (8). Metvalli, V. (2020). ITO'da tillararo va ichkilashtirish o'rtasidagi korrelatsiya. Til o'rganish bo'yicha Evropa konferensiyasi.
- (9). Amiri, F., Puteh, M. (2017). Error Analysis in Academic Writing. A Case of International Postgraduate Students in Malaysia. Advances in Language and Literary Studies.
- (10). Jayathilake, C. (2019). Correcting Errors: The Relative Efficacy of Different Forms of Error Feedback in Second Language Writing. Vidyodaya Journal of Humanities and Social Sciences.

Matniyazov Xasan Kamolovich (Ma'mun universiteti dotsenti)

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARGA JISMONIY MASHQLARNI O'RGATISH VA NAZORAT QILISH

Annotatsiya. Ushbu maqola bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarga jismoniy mashqlarni o'rgatish va nazorat qilish to'g'risida yozilgan bo'lib, unda mashqlarning qonuniyatlar asosida o'rganilishi va uni qanday nazorat qilish, mashqlarni bajarishga intilishini murakkablashtirib borish bilan erishiladi. Dastlab, mashqlar kompleksining bir bo'lagini oddiyroq, keyin esa murakkabroq sharoitda takomillashgan holda bajarishish. Talabadan bajarilishi lozim bo'lgan mashqlarning murakkabligi, ularning jismoniy holatlari, tayyorgarlik darajalariga bog'lab talab etishini borasida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, jismoniy tarbiya, talaba, sport, mashg'ulot, nazorat qilish, o'rgatish, tarbiya, jarayon, ko'nikma, malaka, mashq.

ПРЕПОДАВАНИЕ И КОНТРОЛЬ ЗА ФИЗИЧЕСКИМ УПРАЖНЕНИЕМ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. Эта статья посвящена обучению будущих преподавателей физической культуры физическим упражнениям и их контролю. В ней рассматривается изучение упражнений на основе закономерностей и то, как можно контролировать их выполнение, добиваясь усложнения процесса выполнения упражнений. Сначала комплекс упражнений выполняется в более простых условиях, а затем, в усовершенствованной форме, в более сложных условиях. Ожидаемая сложность выполняемых упражнений зависит от физического состояния студентов и уровня их подготовки, и в статье приводятся размышления по этому поводу.

Ключевые слова: образование, физическое воспитание, ученик, спорт, обучение, наблюдение, учение, воспитание, процесс, умение, мастерство, упражнение.

TEACHING AND SUPERVISING PHYSICAL EXERCISES TO FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Annotation. This article is written about teaching and controlling physical exercises for future physical education teachers. It discusses how exercises are studied based on principles and how to control them, with the goal of making the exercises more complex to encourage better performance. Initially, a part of the exercise complex is performed in simpler conditions, and then it is gradually improved and performed in more complex conditions. The complexity of the exercises required from the student depends on their physical condition and preparation level, and the article provides thoughts on this matter.

Keywords: education, physical education, student, sport, training, supervision, teaching, upbringing, process, skill, skill, exercise.

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim va tarbiya o'qitishining ikki qirrasini hisoblanadi. O'rgatish o'qituvchining bilimi, ko'nikma va malakasini talabaga bosqichma-bosqich berib, undagi jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishdir. Tarbiya esa o'qituvchining ma'lum maqsadiga yo'naltirilgan muntazam ravishda o'rganuvchining ma'naviyati va ruhiyatiga ta'siri. Shu bois ta'lim va tarbiya doimo uyg'unlikda olib boriladi[2]. Nazariy va amaliy xarakterdagi o'quv mashg'ulotlari talaba jismoniy madaniyatining asosini tashkil etadi. Bunday mashg'ulotlar o'quv rejasida belgilangan soatlar davomida amalga oshiriladi. Nazariy bilimlar berish ma'ruzalar tarzida amalga oshiriladi. Amaliy qism o'quv-uslubiy va o'quv-mashg'ulotlar shaklida tashkil etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Guruhlarda va alohida o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish Davlat ta'lim standartlari talablarini to'liq bajara olmayotigan talabalarining ko'nikma va malakalarni chuqurlashtirish uchun o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat ham o'quv darslarida amalga oshiriladi. Unga joriy va oraliq nazorat talablarini bajargan talabalarga kiritiladi [5;64-b.]. Ma'lum sabablarga ko'ra, amaliy mashg'ulotlardan ozod etilgan talabalar yozma tarzda yakuniy nazorat topshiradi.

Mashqlarni ongli ravishda, sidqidildan bajarishga yo'llashda ularning jismoniy holatlarini, o'qishga munosabatlarini yanada yuqori darajaga ko'tarishni, har bir mashqni bajarishida, uning maqsadi, vazifasi, muayyan maqsadni aniq ko'z oldiga keltirish, mashq bajarish texnikasini, uning organizmga ta'sirini aniqlash; jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida hosil qilingan tajribalarni taxdirlab, ularni umumlashtirish lozim deb hisoblaymiz [4-137-b.]. Faollik talabada dars jarayonini to'g'ri tashkil etilsagina shakllanadi.

Buni amalga oshirish dastlabki davrlarida ancha qiyin bo'ladi. Talabaning mashqlarni mustaqil holda bajarish uni o'zlashtirishini mustahkamlaydi, shuningdek, bu undagi qiziqishlarni orttiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Darslardagi muntazamlilik va sodda mashqlardan murakkablariga o'tib borish, ilgari erishilgan natijalarni mustahkamlaydi. O'quv darslar va mashqlar orasidagi tanaffuslar uch kundan oshmasligi lozim. Zero, talaba tayyorgarligining samaradorligini kamaytiradi, yetarli darajadagi natijaga erishib bo'lmaydi. Mashqlarini bajarishga intilish uni murakkablashtirib borish bilan erishiladi. Dastlab, mashqlar kompleksining bir bo'lagini oddiyroq, keyin esa murakkabroq sharoitda takomillashgan holda bajarishga erishiladi. Talabadan bajarilishi lozim bo'lgan mashqlarning murakkabligi ularning jismoniy holatlari, tayyorgarlik darajalariga bog'lab talab etishni ta'kidlash lozim. Erishilgan natijalarni, olingan bilimlarni mustahkamlash – hosil qilingan harakat ko'nikmalarini bir xil darajada, bir meyorda saqlay olish, jismoniy va maxsus sifatlarni imkon boricha ko'proq vaqt davomida saqlash zarur [1].

Jismoniy mashqlarini bajarishga o'rgatish metodi – o'qituvchini talabaga bilim berish bilan unda ma'lum darajadagi ko'nikmalar va maxsus jismoniy jihatlarni shakllantirish. Pedagogik amaliyotida og'zaki tushuntirish, ko'rgazmalilik metodlaridan alohida yoki aralash holda qo'llaniladi. U yoki bu uslubdan foydalanish o'quv materialining mazmuni, ta'limning maqsadi, o'qituvchini o'zining tayyorgarlik darajasiga va uning uslubiy mohirligiga bog'liq holda olib boriladi.

Og'zaki tushuntirish o'rganuvchi bilan suhbat qilish, hikoya qilish, izohlash kabilar bilan olib borilishi hammamizga ma'lum. Ko'rgazmalilik usulida videofilm, fotosurat, jurnallaridagi rasmlar, chizmalar namoyish etiladi.

Odatda, ko'rsatilayotgan mashqlarni malakali mutaxassis tomonidan sharxlanishi muhim hisoblanadi. Ko'rsatish – mashqlar bajarilishi oldidan bajarilishi maqsadga muvofiq [6].

Amaliy uslub talabada harakat ko'nikmalarini yuzaga kelishi, uni rivojlanishi hamda takomillashuvi, jismoniy va maxsus sifatlarni hosil bo'lib, ularni mustahkamlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu, odatda, mashqlarni to'la yoki uning qismlarini takror holda bajarish, talabaga topshiriq berib, murakkablashtirib borish bilan erishiladi. Jismoniy mashqdar bajarishni o'rgatishda mashqlarning og'ir-yengilligiga ham e'tibor berish lozim. Mashqlarni bajarishga o'rgatishda tanishtirish, ko'rsatib berish, takomillashtirish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish bilan olib boriladi.

Tanishtirishda mashqning nomini aytamiz va uni to'liq holda qanday bajarishni ko'rsatamiz hamda bu mashqni bajarishda organizmga ta'sirini izohlaymiz; mashqning alohida qismlarini bajarib, uni amalga oshirish yo'llarini – texnikasini ko'rsatamiz, mazkur mashqni qanday bajarishini nazorat qilamiz.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Talaba ushbu mashqni to'la tasavvur etib olgunicha, uni bir necha marta takrorlab ko'rsatish lozim. Mashqni o'qituvchini o'zi bajarib ko'rsatishi yoki tayyorgarligi yaxshi bo'lgan talaba amalga oshirish lozim. Murakkab mashqdar to'laligicha keyin uning qismlarini qanday bajarishni izohlab ko'rsatishi lozim. Talaba osonroq o'zlashtirishi uchun uni sekin bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Talabalar yangi me'yoriylarni bajarishini o'rganishlari ularda ilgari hosil bo'lmagan harakat ko'nikmalarini yuzaga keltiradi. Asosiysi, mashqlarni mustaqil bajarishiga o'rganib, unga moslashish hosil qilish, o'rganib olish, o'rganuvchining tayyorgarligi, o'qituvchining kasbini mahoratiga bog'liq.

Takomillashtirish mashqlarini o'rgatishda asosiy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Bunda o'rganuvchi mashqning mazmun va mohiyatiga tushunib yetganligi muhim mashqni takror va takror bajarish, asta-sekin jismoniy yukni oshirib borish tarzida olib boriladi. O'qituvchi mashq bajarilishini kuzatib boradi, bunda talabaning tayyorgarlik darajasini hisobiga olib, toliqib qolmasligiga e'tibor qaratadi.

Ehtiyot choralarini ko'rish va yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni o'qituvchi tomondan bartaraf etib borish o'rgatishning muhim tomoni hisoblanadi. Xatolarga yo'l qo'yimaslik uchun o'qituvchi quyidagilarni bajarishi lozim:

- mashqni aniq va to'g'ri tushuntirib, uni bajarib ko'rsatishi;
- oldin o'rgangan mashq unsurlaridan foydalanishi;
- talaba mashqni bajarayotganda yordam ko'rsatishi;
- mashq bajarayotgan talabani jismoniy tayyorgarlik darajasiga ko'ra vazifa belgilashi;
- o'quv mashg'ulotlari amalga oshiriladigan joyni e'tibor bilan tayyorlatishi.

Mashq bajarishida qiyalayotgan talabaga o'qituvchi doimo yordam berishi lozim. O'qituvchining vazifasi talaba bajarishi lozim bo'lgan mashqni osonroq o'rganib olib, shikastlanishini oldini olishi kerak. Ehtiyot choralarini ko'rish, ya'ni himoyalash har doim zarur.

O'quv jarayonida bir haftada o'tkaziladigan darslarda nazariy va amaliy mashg'ulotlarni jadvalga qo'yilishi ham talabalarning jismoniy tayyorgarligida muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tayyorgarligi yaxshi bo'lganlariga ham hordiq zarurligini esdan chiqarmasligimiz kerak. O'quv mashg'ulotlari davomida talabalarda harakat ko'nikmalari jismoniy va sifat ko'rsatkichlari shakllanib boradi. Harakat ko'nikmalari deganda o'rganish jarayonida muayyan harakatlarni avtomatlashgan darajagacha yetkazilishini tushunamiz. Biror harakatni shartli refleks darajasiga yetgan maromdagi holat desak ham, xato bo'lmaydi. Muayyan harakatini ko'p marta takrorlash bilan bosh miyada mustahkam shartli refleks bog'lamlari, boshqacha aytganda, dinamik stereotip yuzaga keladi.

Harakat ko'nikmalari muayyan vaqt davomida hosil bo'ladi. Bu ayrimlarda tez, boshqalarida ma'lum vaqtdan keyingina yuzaga keladi. Bunga talabaning jismoniy tayyorgarligini va rivojlanganligini turlichaligi; qancha vaqtda charchashi; o'rgatishda qo'llanilayotgan uslubni noto'g'ri tanlangani, darsni to'g'ri tashkil etilmaganligi kabi omillar sabab bo'ladi.

Talabaniy jismoniy sifatlari ulardagi kuch, tezlik, chidamlilik, bardoshlilik, chaqqonlikdir. Har bir jismoniy sifatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun maxsus uslublardan foydalaniladi. Tezlik ma'lum vaqt davomida harakatlarni bajarish hisoblanib, harakat reaksiyalarini tezligi, alohida harakatlarni tezligicha ajratiladi. Harakat tezligi eng kam vaqtda siklik va atsiklik harakatlarni bajarishdir. O'quv darslarida talabalarga tezlikni oshirish zarurligini «sezdirishga» harakat qilamiz. Tezlikni oshirishni talab qiladigan mashqlarni muntazam ravishda bajarish bosh miyadagi nerv markazlari orasidagi aloqalarni mustahkamlaydi. Bu esa yurak, ichki a'zolar, muskullarning biomexanik faoliyatini ularda kislorod yetishmagan davrda ham ma'lum maromdagi faoliyatni ta'minlaydi.

Chidamlilik – bu odamni ko'p vaqt davomida ish qobiliyatini yuqori darajada bo'lishiga erishish hisoblanib, uni umumiy chidamlilik deyilib, alohida mashq bajarishdagi maxsus deysish odat bo'lgan. Talabalardagi bu qobiliyatni mustahkamlashda barcha usullar qo'l kelaveradi.

Chaqqonlik – kutilmagan vaziyatdagi murakkab, maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan maxsus harakat. Chaqqonlik eng murakkab sifat hisoblanib, bir aniq harakat faoliyatining ikkinchisi bilan tez almashtirib ish bajarish.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, maxsus sifatlarni talaba turli mashqlarni bajarishda harakat koordinatsiyalarini, muvozanatni, noqulay omillar ta'sirida, vaqtincha aniq amalga oshira olish bilan hosil qilinadi.

Jismoniy takomillashtirish talabaniy jismoniy holatini yaxshilash, unda bilim, malakani qulay sharoitga mos keladigan holga, yani mashqlarni muntazam, aniq bajarishga erishish. Bu pedagogning mahorati, tajribasi, o'z vazifasiga sidqidildan munosabati, o'quv jarayonini, mashg'ulotlarni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishi kabilar.

Jismoniy mashqlarni talabalarga amalda bajarishga o'rgatish jismoniy madaniyatni, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, takomillashtirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Бондаревский Е.Я. Педагогические основы контроля за физической подготовленностью учащейся молодежи. Автореф. дис. ... д-ра пед. наук, М., 1993, 45 с.
- (2). Махкамова М.Ю. Ёўлажак тарбиячиларнинг мулоқот маданиятини шакллантириш. Дисс.п.ф.н., Тошкент, 2002, 170-бет.
- (3). Черданцева Т.Р., Афонина Л.Е., Соколова А.В., Беланова Е.С. Использование подвижных игр в соревновательно-игровой деятельности гандболиста. Методическое пособие, Новокузнецк, МОУ ДПО ИПК, 2008, 100 с.
- (4). Salayev T.K. Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi (Gandbol). O'quv qo'llanma, "Lesson Press", Toshkent, 2022, 127-бет.
- (5). A.R.Taymurodov, M.N.Shukurov, Q.Q.Rasulov. Sport pedagogik mahoratini oshirish. Kurash usullarini o'rgatish metodikasi, T., 2024.
- (6). Jurayev, A. Kurashchilarning musobaqaga tayyorgarlik bosqichlari. Toshkent, O'zDJTI, 2015.

**Каландаров Сардар Ибрагимович (доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент кафедры педагогики и психологии Ургенчского государственного университета;
e-mail: kalandarovsardar@mail.ru)**

СВОБОДНОЕ ОБУЧЕНИЕ И СОТРУДНИЧЕСТВО: ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА СЕЛЕСТЕНА ФРЕНЕ

Аннотация. *Статья исследует педагогическую систему французского педагога-новатора Селестена Френе, основанную на принципах свободного самовыражения, сотрудничества и связи обучения с жизнью. Рассматривается историческое значение и современная актуальность педагогических идей Френе в контексте трансформации образования.*

Ключевые слова: *Селестен Френе, свободное воспитание, школьная типография, школьный кооператив, свободные тексты, натуральный метод, педагогические инварианты, педагогика сотрудничества.*

Kalandarov Sardar Ibragimovich (pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Urganch davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti; e-mail: kalandarovsardar@mail.ru)

ERKIN O'QITISH VA HAMKORLIK: SELESTEN FRENENING PEDAGOGIK TIZIMI

Annotatsiya. *Maqolada fransuz novator o'qituvchisi Selesten Frenening o'zini erkin ifoda etish, hamkorlik qilish va o'rganishni hayot bilan bog'lash tamoyillariga asoslangan pedagogik tizimi o'rganila-*

di. Frene pedagogik g'oyalarining tarixiy ahamiyati va zamonaviy dolzarbligi ta'limni o'zgartirish kontekstida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *Selesten Frene, erkin ta'lim, maktab bosmaxonasi, maktab kooperativi, erkin matnlar, tabiiy usul, pedagogik invariantlar, hamkorlik pedagogikasi.*

Kalandarov Sardar Ibragimovich (Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor of the Department of Pedagogy and Psychology at Urgench State University; e-mail: kalandarovsardar@mail.ru)

INDEPENDENT LEARNING AND COLLABORATION: THE EDUCATIONAL SYSTEM OF CELESTIN FREINET

Annotation. *The article explores the pedagogical system of the French teacher-innovator Celestin Freinet, based on the principles of free self-expression, cooperation and the connection of learning with life. The article examines the historical significance and modern relevance of Freinet's pedagogical ideas in the context of educational transformation.*

Key words: *Celestin Freinet, free education, school printing house, school cooperative, free texts, natural method, pedagogical invariants, pedagogy of cooperation.*

Введение. Селестен Френе – французский учитель и реформатор образования, создавший оригинальную педагогическую систему, актуальную и в современном контексте [1]. Начав педагогическую деятельность после Первой мировой войны, Френе искал альтернативу авторитарной модели школы. Основным принцип его педагогики: образование должно быть связано с реальной жизнью детей, их интересами и потребностями. Френе стремился создать среду, где дети могли бы свободно выражаться, исследовать мир и учиться через практическую деятельность и сотрудничество.

В 1920-е годы он внедрил первые инновационные методы, а в 1935 году основал экспериментальную школу в Венсе. Идеи Френе оказали значительное влияние на развитие гуманистической педагогики XX века [2].

Методы. Центральное место в системе Френе занимают [6;7 с.] свободные тексты – спонтанные письменные высказывания детей на интересующие их темы без заданной формы или содержания. Они становятся инструментом самопознания и самовыражения.

Школьная типография – превращает создание текстов в коллективную деятельность. Дети участвуют в подготовке, наборе и печати текстов для школьной газеты или журнала.

Школьная корреспонденция – регулярный обмен письмами и материалами между школами, расширяющий культурный горизонт детей и мотивирующий к творчеству.

Метод проектов – организация обучения вокруг комплексных тем, отражающих реальные интересы детей, включающая исследовательскую деятельность и презентацию результатов

Школьный кооператив – форма детского самоуправления, где ученики принимают решения по важным вопросам школьной жизни на основе принципов демократии.

Рабочие планы – индивидуальные программы учебной деятельности, составляемые каждым учеником с учетом общих задач и личных интересов.

Рабочие карточки – систематизированный дидактический материал для самостоятельной работы.

Стенные таблицы учета – графические схемы, отражающие прогресс каждого ученика и служащие инструментом самооценки.

Натуральный метод – подход к обучению, опирающийся на естественные механизмы познания и следующий логике развития интересов ребенка.

Важно отметить, что методы Френе не являются универсальными рецептами, которые можно механически перенести в любую образовательную среду. Их эффективность во многом зависит от того, насколько педагог разделяет базовые ценности и принципы педагогики Френе: уважение к личности ребенка, вера в его творческий потенциал, приверженность демократическим идеалам [3]. Без этой философской основы технические приемы могут потерять свою педагогическую силу и превратиться в формальные процедуры.

Методы Френе требуют от учителя значительной гибкости, готовности отказаться от жесткого планирования и контроля, способности реагировать на инициативы детей и создавать условия для их самореализации. В этом смысле педагогика Френе предъявляет высокие требования к личностным и профессиональным качествам учителя, который должен быть скорее организатором и фасилитатором образовательного процесса, чем транслятором готовых знаний.

Результаты и обсуждения. Применение системы Френе показывает следующие результаты:

- высокая мотивация к обучению – дети проявляют устойчивый интерес и инициативу благодаря учету их реальных интересов;
- развитие самостоятельности и ответственности – ученики планируют деятельность и принимают решения;
- раскрытие творческого потенциала – работы учащихся отличаются оригинальностью и индивидуальным стилем;
- развитие социальных навыков – через коллективную работу формируются умения сотрудничать и разрешать конфликты;
- улучшение речевого развития – регулярная практика создания текстов формирует развитую устную и письменную речь;
- сохранение академических показателей – ученики демонстрируют глубокое понимание материала и умение применять знания;
- позитивное отношение к школе – дети воспринимают школу как пространство свободы и творчества.

Сравнительные исследования показывают, что учащиеся школ Френе превосходят сверстников из традиционных школ по показателям творческого мышления, особенно по оригинальности и воображению.

Важной составляющей системы Френе является развитие социальных навыков и коммуникативной компетентности [4]. Коллективная работа в школьной типографии, участие в школьном кооперативе, школьная корреспонденция – все эти формы деятельности способствуют формированию умения работать в команде, разрешать конфликты, выражать свою точку зрения и уважать мнение других. Исследования показывают, что выпускники школ Френе обладают более развитыми навыками сотрудничества и более высоким уровнем эмпатии по сравнению с учащимися традиционных школ.

Особенно показательны результаты в области речевого развития. Регулярная практика создания текстов, их обсуждения и публикации приводит к формированию развитой устной и письменной речи. Анализ письменных работ учащихся школ Френе показывает, что они отличаются большей лексической насыщенностью, синтаксической сложностью и коммуникативной направленностью [5]. Дети не просто пишут, чтобы выполнить задание, – они пишут, чтобы выразить себя и быть услышанными.

Критики педагогики Френе иногда высказывают опасения, что свободная организация обучения может привести к пробелам в знаниях и недостаточному освоению учебного материала. Однако исследования показывают, что по основным академическим показателям учащиеся школ Френе не уступают, а часто превосходят своих сверстников из традиционных школ. При этом они демонстрируют более глубокое понимание материала и способность применять знания в нестандартных ситуациях. Следует отметить, что результаты применения методов Френе могут варьироваться в зависимости от контекста и степени последовательности в реализации принципов его педагогики.

Наиболее впечатляющие результаты достигаются в тех школах, где удается создать целостную образовательную среду, основанную на всех ключевых элементах системы Френе. Частичное внедрение отдельных методов без изменения общей философии и организации школьной жизни дает менее выраженный эффект. Важным показателем эффективности педагогической системы является отношение к школе самих учащихся.

Многочисленные свидетельства и интервью с учениками школ Френе показывают, что дети воспринимают школу не как место принуждения и скуки, а как пространство свободы, творчества и сотрудничества. Они идут в школу с желанием, активно участвуют в школьной жизни и часто продолжают поддерживать связь со школой даже после ее окончания.

- bazi soʻz sifatida ishlatiluvchi birliklar;
- eskirgan soʻzlar;
- kitobiy, rasmiy uslubdagina qoʻllaniladigan soʻzlar;
- nutqda kam ishlatiladigan birliklar;
- shevaga xos, ogʻzaki nutqda uchraydigan birliklar.

Bu guruhlash foydalanuvchiga har bir sinonimning uslubiy va zamonaviy qimmatini tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu platformaning muvaffaqiyatli ishlab chiqilishi zamonaviy veb-ishlab chiqish texnologiyalarining samarali uygʻunligiga tayanadi. Interfeysning asosiy konstruksiyasi React.js texnologiyasi yordamida shakllantirilgan boʻlib, bu tizim foydalanuvchi bilan oʻzaro aloqani komponentlar asosida tashkil etish imkonini beradi. Har bir tarkibiy qism mustaqil ishlashi, ularni qayta ishlatish va parvarishlashni osonlashtiradi.

Dizayn jihatidan esa Tailwind CSS tanlangan boʻlib, u orqali zamonaviy, ixcham, estetik va shu bilan birga kod yozish hajmini qisqartirgan holda moslashuvchan dizayn yaratishga erishilgan. Ushbu texnologiya mobil qurilmalarda ham ideal koʻrinishga ega, bu esa platformaning universalligini taʼminlaydi.

Ilova ishga tushirilishida va ishlab chiqish muhitida samaradorlikni oshirish maqsadida Vite texnologiyasidan foydalanilgan. Vite real vaqtda tezkor kompilatsiya va “hot-reload” imkonini beradi, bu esa ishlab chiqish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

Foydalanuvchi interfeysini yanada qulay va intuitiv qilish maqsadida Lucide-react ikonalar kutubxanasidan foydalanilgan. Bu piktogrammalar foydalanuvchining vizual orientatsiyasini yengillashtiradi va interfeysni tushunarli qiladi.

Platformada foydalanuvchining eʼtiborini jalb qilish, koʻrsatkichlarni dinamik tarzda taqdim etish, ayni paytda sahifadagi interaktivlikni oshirish uchun Framer Motion orqali animatsion effektlar joriy qilingan. Bu yondashuv saytdan foydalanishni nafaqat informatsion, balki estetik jarayonga aylantiradi.

Maʼlumotlar bazasi esa soddalashtirilgan, lekin samarali JSON formatida tashkil etilgan. Har bir soʻz oʻziga xos semantik tavsifga ega boʻlib, uning sinonimlari, uslubiy qoʻllanilish doirasi, bazislik darajasi alohida atributlar orqali koʻrsatilgan. Bu yondashuvni tanlash orqali tizimning tezkorligi, kengaytiriluvchanligi va mustahkamligi taʼminlangan. Natijada yuqoridagi texnologik komponentlar uygʻunligi platformani matn asosidagi statik lugʻatdan, interaktiv, foydalanuvchi bilan muloqotga kirishuvchi raqamli lingvistik vositaga aylantiradi.

Tahlil va natijalar. Platformaning eng asosiy yutugʻi uning taʼlimiy jarayonda tutgan oʻrnidir. Bugungi raqamli texnologiyalar asrida til oʻrganish va oʻrgatish faqatgina nazariy manbalarga emas, balki amaliy, interaktiv resurslarga ham tayanadi. Shu maʼnoda, bazi soʻzlarni aniqlovchi platforma oʻzbek tilini oʻrganuvchilarga noyob imkoniyatlar yaratadi.

Avvalo, talaba mazkur tizim orqali har bir soʻzning sinonimlarini koʻrish, ularning orasidagi farqni anglash, ayniqsa bazi soʻz sifatida ajratilgan birligining semantik rolini tushunish imkoniyatiga ega boʻladi. Bu esa nafaqat passiv lugʻat boyligini oshiradi, balki faol tahliliy fikrlash koʻnikmasini ham rivojlantiradi.

Oʻqituvchilar uchun esa platforma til uslublarini farqlash, sinonimlar qatlamini tushuntirish, leksik guruhlar asosida tahliliy topshiriqlar tayyorlashda samarali vosita boʻlib xizmat qiladi. Misol uchun, biror gʻazal yoki matnda ishlatilgan soʻzning zamonaviylik darajasi, uslubiy xususiyati va uning sinonimik aloqalari oʻrganilishi mumkin.

Tadqiqotchilar bu platformadan lingvistik eksperimentlar oʻtkazishda foydalanishlari mumkin. Ayniqsa, til korpuslari bilan integratsiyalashuvi, sinonimik qatordagi bazislik darajasini statistik metodlar orqali baholash, yoki semantik yadro sifatida faol soʻzlarni avtomatik aniqlashda tizim mustahkam zamin yaratadi.

Platformaning foydalanuvchilar uchun taqdim etadigan statistik jadvallari esa real vaqtda umumiy sinonimlar soni, bazi soʻzlar soni, har bir soʻz turkumi boʻyicha taqsimot (feʼl, ot, sifat, ravish va h.k.) kabi maʼlumotlarni koʻrsatadi. Bu koʻrsatkichlar orqali til boyligini baholash, til oʻzgarishlarini kuzatish ham mumkin boʻladi.

Umuman olganda, platforma oʻzbek tilining sinonimik qatlamini nafaqat passiv tarzda koʻrsatish, balki faol oʻrganish, taqqoslash va tahlil qilish imkonini beruvchi vosita sifatida tilshunoslik sohasida muhim innovatsion yondashuvni taklif etadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, bazis soʻzlar atrofida qurilgan interaktiv platforma oʻzbek tilining sinonimik boyligini tizimli, tartibli va foydalanuvchiga qulay tarzda namoyish etishga qodir zamonaviy lingvistik vosita sifatida maydonga chiqdi. Bu loyiha oʻz mohiyatida klassik lugʻat tuzish yondashuvini inkor etmagan holda, uni funksionallashtiradi, yaʼni sinonimlar orasida semantik markaz – bazis birlikni aniqlash, ularni uslubiy jihatdan ajratish va foydalanuvchi ehtiyojiga mos tarzda taqdim etishni taʼminlaydi.

Maqolada yoritilganidek, platforma nafaqat tilshunoslik nazariyasiga tayangan, balki zamonaviy texnologiyalar yordamida real amaliyotga aylangan modeldir. React.js, Tailwind CSS, Vite, Framer Motion kabi ilgʻor frontend texnologiyalarining tanlanishi, foydalanuvchi interfeysini soddalashtirish va interaktivlikni oshirishda muhim rol oʻynadi. Ayniqsa, JSON asosidagi leksik maʼlumotlar tuzilmasi platformani kengaytiriluvchan, modullashtirilgan va semantik tahlilga moslashgan shaklga olib keldi. Shuningdek, platforma orqali sinonimlarning stilistik va zamonaviylik darajalariga koʻra guruhlanishi, ularni interaktiv koʻrinishda vizual tarzda taqdim etilishi bugungi oʻquvchi talabiga javob beruvchi vosita boʻlib xizmat qiladi. Bu fikrlarni R.Poʻlatov ham tasdiqlab oʻtadi: “Leksik birliklarning qoʻllanish chastotasi va uslubiy tavsifi ularni kompyuterda tasniflash imkonini beradi” (1).

Taʼlimiy jarayon uchun bu platformaning ahamiyati beqiyosdir. Anʼanaviy oʻquv materiallaridan farqli ravishda, u oʻzbek tilidagi sinonimik qatlamlarni jonli, vizual va interaktiv shaklda oʻrgatadi. Foydalanuvchi soʻz tanlash orqali faqatgina maʼno emas, balki u bilan bogʻliq stilistik, uslubiy, zamonaviylik va qoʻllanish chastotasi boʻyicha maʼlumotlarni olish imkoniyatiga ega boʻladi. Bu esa tilshunoslikni oʻrganishning passiv emas, balki faol tahliliy koʻnikmalarga asoslangan shaklini yuzaga keltiradi. Shuningdek, loyiha bazis soʻzlar masalasini amaliy shaklda yoritish orqali tilshunoslikdagi muhim muammoga texnologik yechim taklif qilmoqda. Sinonimlarni klassifikatsiya qilish, bazislik mezonlarini raqamli metod bilan aniqlash, foydalanuvchi faoliyatidan kelib chiqib, tizimda yangi bogʻlanishlarni aniqlash – bularning barchasi zamonaviy lingvistik texnologiyalarning yuzaga kelishiga sabab boʻlishi mumkin. Bu holat tilshunoslik va axborot texnologiyalari oʻrtasidagi integratsiyaning real natijasidir.

Kelajak istiqbolida mazkur platformani yanada rivojlantirish, uni til korpuslariga ulash, sunʼiy intellekt algoritmlari orqali sinonimik qatordagi bazis soʻzlarni avtomatik aniqlash tizimini yaratish kabi yoʻnalishlar asosida keng koʻlamli tadqiqotlar olib borilishi mumkin. Shuningdek, bu platformaning boshqa tillar uchun moslashtirilgan versiyalari orqali xalqaro lingvistik texnologiyalar maydonida oʻzbek ilmiy maktabining oʻrni yanada mustahkamlanadi.

Demak, ushbu loyiha bu tilshunoslik nazariyasi, taʼlimiy metodika va zamonaviy raqamli texnologiyalar kesishmasida yaratilgan universal va istiqbolli vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- [1]. Hojiyev A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili leksikasi. Toshkent, “Fan”, 1990.
- [2]. Mahmudov N. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Toshkent, OʻzR FA nashriyoti, 2006.
- [3]. Rakhmatullayev Sh. Oʻzbek tilining leksikologiyasi. Toshkent, “Oʻqituvchi”, 1994.
- [4]. Zohidov M. Leksik maʼno va uning zamonaviy talqini. Samarqand universiteti nashriyoti, 2017.
- [5]. Madatov K., Bekchanov S., Khajibaeva S. A Technique for Automatic Extraction of Basis Words: A Case Study on “Uzbek Primary School Corpus”. 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), p. 85–88. IEEE, 2024.
- [6]. Hoshimov S. Matn lingvistikasi va kontekstual tahlil. Toshkent, “Akademnashr”, 2020.
- [7]. Sinonim.uz – Oʻzbek tilidagi sinonimik lugʻat platformasi. <https://sinonim.uz>

Mamatqulov Rustam Ubaydullayevich (Toshkent Kimyo-texnologiya instituti katta oʻqituvchisi; rustam-mamatqulov@mail.ru)

NAVROʻZNING PAYDO BOʻLISH TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. Maqolada Navroʻzning mazmun-mohiyati, paydo boʻlish tarixi tahlil etilgan. Xususan, Avestoda, dastlab, Navroʻz haqida ilk maʼlumotlar manbalar asosida koʻrsatib berilgan. Mutafakkir alomatlarning bir qator asarlarida ham Navroʻz toʻgʻrisida asosli tarixiy maʼlumotlarni keltirib oʻtgan. Turli davr va hududlarning olimlari Navroʻzning madaniy va tarixiy ahamiyatini alohida taʼkidlab kelganlar. Maqolada Navroʻzning rivojlanish bosqichlari, tarixiy, falsafiy ahamiyati ham koʻrsatilgan.

¹ Poʻlatov R. Leksik birliklarni raqamli vositalar orqali oʻrganish metodikasi. Samarqand, “Ilm ziyo”, 2020, 93-bet.

Kalit so'zlar: Navro'z, "Avesto", Zardo'shtiylik, qadimiy manba, arxeolog, madaniyat, umumxalq bayrami, meros, UNESCO, BMT, bahor, ezgulik, mehr-oqibat, qadriyatlar, tarix, falsafa, Yangi O'zbekiston, mustaqillik, millat.

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ НАВРУЗА И ЭТАПЫ ЕГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье анализируются содержание и суть Навруза, а также история его происхождения. В частности, в Авесте впервые представлены основные сведения о Наврузе на основе источников. В ряде трудов великих мыслителей и ученых также приводятся обоснованные исторические данные о Наврузе. Учёные различных эпох и регионов подчеркивают культурное и историческое значение праздника. В статье также раскрыты этапы развития Навруза, его историческое и философское значение.

Ключевые слова: Навруз, "Авеста", зороастризм, древний источник, археология, культура, всенародный праздник, наследие, ЮНЕСКО, ООН, весна, добро, любовь и дружба, ценности, история, философия, Новый Узбекистан, независимость, нация.

THE ORIGIN AND DEVELOPMENT STAGES OF NAVRUZ

Annotation. The article analyzes the content and essence of Nowruz, as well as the history of its origin. Specifically, the Avestan sources provide the first information about Nowruz. In the works of many prominent thinkers and scholars, substantiated historical data about Nowruz are also presented. Scholars from different periods and regions have emphasized the cultural and historical significance of Nowruz. The article also discusses the stages of the development of Nowruz, as well as its historical and philosophical importance.

Keywords: Nowruz, 'Avesta', Zoroastrianism, ancient source, archaeology, culture, nationwide holiday, heritage, UNESCO, UN, spring, goodness, love and friendship, values, history, philosophy, New Uzbekistan, independence, nation.

Kirish (Introduction). Kunlar isib butun tabiat uyg'ona boshlagach, ko'ngillarda ham qandaydir yangilanish, yasharish yuz beradi. Go'yoki dunyo qayta tug'ilgandek bo'ladi. Bu inson va tabiatning bir-biriga uyg'unlashuvini bildiradi. Ushbu holat qadim ajdodlarimiz tomonidan ham teran anglangan va ular bahorni shodiyonalik bilan qarshi olishgan. Kun va tun tenglashadigan vaqtni esa Navro'z deb atashgan. Navro'z bayramining tub ildizlarini izlab ko'radigan bo'lsak, termachilik va ovchilik qilib yurgan qadimgi davr kishilarining yangi xujalik yuritish vaqtigacha bo'lgan tartib-qoidalariga bog'liqligi aniq bo'ladi. Bu an'analar asta-sekin rivoj topib, takomillashib, yaxlit bir bayram ko'rinishiga kelgan. Bu jarayon qadimgi milliy dinlar vujudga kelishigacha ham amal qilgan. Shunday jarayonlar davom etayotgan vaqtlarda kishilar o'zaro urishmasliklari, bir-biridan xafa bo'lmashliklari, ochiq qalb bilan munosabatlarni yolga qoyishlari muhim hisoblangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Navro'z haqidagi ilk ma'lumotlar qadimgi diniy manbalarda ham mavjud. Masalan, "Avesto" diniy muqaddas kitobda mavjud [1]. Unda aytilishicha, Navro'z ko'klam, bahorning qaytishi, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qilishini anglatadi. Zardo'shtiylikka e'tiqod qiluvchilarning hayotida yangi kun bayrami – Navro'zi olam alohida ahamiyat kasb etgan. Buni biz Kofirqal'a yodgorligidan zardo'shtiyning mo'l hosil va suvning ilohiy ramzi hisoblanmish – "Nana" ifodasi yog'och pannoning borligi buni yaqqol isbotidir [2]. Yog'och panno So'g'd hukmdorlarining shahardan chekkadagi muhtasham qasrlarida joylashgan. U joylashgan saroyda diniy hamda dunyoviy urf-odatlarini, xususan, Navro'z va Mehrjon bayramlari nishonlangan.

Navro'z haqidagi ma'lumotlar Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" [3], Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" [4], Firdavsiyning "Shohnoma", Umar Xayyomning "Navro'znoma", Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" [5] asarlarida ham ko'p uchraydi. Keltirilgan manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda, Navro'zning paydo bo'lishi Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun bilan kunning teng kechishi singari tabiat qonunlarining ifodasi ekani ma'lum bo'ladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, mazkur bayram o'zining astronomik ilmiy asoslariga ega hodisa ekanligini bildiradi. Navro'z bilan bog'liq ma'lumotlar Islom tarixiga oid manbalarda ham keng qo'llanilgan. Mutaфakkir olimlarimiz fihiy kitoblarda xalqimizga xos turlicha bayramlarni, xususan, Navro'z bayramini ham nishonlash haqida to'xtab o'tganlar. Masalan, manbalarda Navro'zi Jamshidiy, Navro'zi Majusiy va Navro'zi Sultoni kabi uch xilda bo'lishi keltiriladi. Navro'zi Sultoni o'tkazmoqlik maqbuldir va hech dinga ziyoni yo'qdir, deyiladi manbada. Navro'zi Jamshidiy afsonaviy shoh Jamshid nomiga borib taqalsa, Navro'zi Sultoni mashhur Saljuqi hukmdor Jaloliddin Malikshoh nomi bilan bog'liq. Shu bilan birga, Sosoni hukmdor Piruz davrida ham yangilanishlar, o'zgarishlar yuzaga kelib, bayram Navro'zi Piruzi sifatida nom olgan. Ammo asl mohiyat o'zgarmagan va bu kun yangi yilning boshlanishi sanasi sifatida nishonlanib kelgan.

Arxeologlarning ma'lumotiga ko'ra, "Ahamoniylar hukmronligi vaqtida Navro'z davlat siyosatida muhim sanalib, katta tantana bilan nishonlangan. Persepol saroyidagi yodgorliklarda bu bayramni nishonlash udumi podshohga turli xalqlarning elchilari tomonidan sovg'alar keltirilishi bilan ramziy ma'noga ega bo'lgan" [6]. Turli davrlarning olimlari Navro'zning madaniy va tarixiy ahamiyatini alohida ta'kidlaganlar. Masalan, fransuz sharqshunosi Jan Pol Ruy Navro'zning katta bir mintaqa xalqlari tomonidan shunchalar katta mehr bilan nishonlanishi – bu bayram mohiyatan ham tarixiy va ham falsafiy ahamiyati beqiyosligini ta'kidlaydi. Britaniyalik tarixchi olim R.N.Fre esa Navro'zni forsiy madaniyatning asosiy bayramlaridan biri ekanligini, uning Markaziy Osiyo xalqlari hayotida muhim o'rin egallaganini ta'kidlaydi.

"Har tuning qadr o'lubon, har kuning bo'lsun Navro'z", deb yozadi g'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy [7]. Anglash mumkinki, o'zbek davlatchiligi eng yuqori chuqqiga yetgan davrlarida ham Navro'z insonlarga cheksiz quvonch ulashuvchi, mehr-oqibat ulashuvchi bayram sifatida nishonlanib kelgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Navro'zni vujudga kelishini tarixiylik, mantiqiylik, taqqoslash, qiyosiy va umumlashtiruvchi uslublar asosida tahlil qilganda, ajdodlarimiz tomonidan azaldan umumxalq bayramining paydo bo'lishini mavsumiy ekinchilik kabi yerga ishlov berish ishlarining boshlanishi bilan uyg'un holda sodir bo'lganini ko'rish mumkin. Yegirma birinchi martdan yigirma ikkinchi martga o'tar kechasi, Navro'z bayramining nishonlanishi turli bahorgi ko'klam taomlarini tayorlash ishlari bilan boshlanadi. Mazkur tadbirlar bir kecha-kunduz davomida, ko'pchilik birgalikda, chin dildan tansiq ko'klam pishiriqlari – sumalak, halim kabi taomlar tayorlangan. Bu taomlar bir kecha-yu bir kunduz o'tgach, tortiq qilingan. Navro'z dasturxonni turli taomlar bilan tuldiradigan, qut-baraka olib keladigan umumxalq bayrami sifatida azaldan nishonlanib keladi. Bugungi kunda Navro'z bayrami – Markaziy Osiyo, asosan, Sharq xalqlari kabi mintaqalarida hamda Rossiya xalqlarining ayrim joylarida bayram qilinadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbekiston xalqi Navro'zni umumxalq bayrami sifatida istiqbolga erishish ostonasida, rasman keng miqyosda nishonlash yulga qo'yildi. Shu yildan e'tiboran, yigirma birinchi mart kuni Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlash belgilab olindi. Mazkur bayram ikki ming to'qqizinchi yil 30-sentabrdan UNESCO tomonidan umumjahon nomoddiy madaniy meroslar ro'yxatiga kiritildi. Ikki ming o'ninchi yil, o'n to'qqizinchi fevral kuni BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-mart "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'lon qilindi. Bu esa Navro'z bayrami insonlar, turli xalqlarning o'zaro ijtimoiy-ma'naviy, madaniy munosabatlarni, birdamlikni yanada kuchaytirishni, milliy, umuminsoniy manfaatlarni mustahkamlashuvini, xalqlar o'rtasidagi hamjihatlikni yanada oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining joriy yilning 21-fevralida qabul qilingan "2025-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida [8], Navro'zni – yangi yil boshlanishining Sharqona qutlug' kuni sifatida insonlarga bahoriy ruh bag'ishlaydigan, yaxshilik, mehr-oqibat, yaratuvchilik, mehnatsevarlik va tinchlik ramzi sifatida, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy, madaniy sohasida katta ta'sir ko'rsatib kelayotgani hamda ushbu bayramni xalq sayili tarzida yuksak darajada keng nishonlash belgilab olindi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, mana 35 yildirki Navro'z umumxalq bayrami sifatida muntazam nishonlanib kelmoqda. 2025-yildan boshlab, jamiyatimizda "Qadriyatlarining boqiy bo'lsin, Navro'z!" – asosiy g'oya negizida bo'lishi belgilangan bayram sayillari milliy urf-odatlar, qadriyat va an'analарimiz hamda yangilanishlarga monand holda, yaqinda qabul qilingan Konsepsiyaning mazmun-mohiyatiga mos holda, yuqori saviyada tashkil etilgani ayni muddao bo'ldi. Bayram tadbirlari olamning yangilanishi, tabiatning uyg'onishi, tabiat va insonning mohiyatan uyg'unlashuvi, borliqqa, Yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlarga e'tiborni ifoda etadigan, yurtdoshlarimizni bugungi osoyishta, tinch hayotimizni avaylab-asrash, shukronalik hissini tarbiyalashga undaydigan ta'sirchan tarzda o'tkazilishi ham g'oyaviy va ham amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Navro'z bayrami munosabati bilan no'roniylarning holidan xabar olish, mehribonlik uylariga tashrif buyrish, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga davlatimizning insonparvarlik ko'mak ko'rsatishi hamda turli ijtimoiy-xayriya tadbirlarini o'tkazishga alohida e'tibor qaratildi. Bularning barchasi zamirida Navro'zning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida insonning manfaati va tabiatining o'ziga xos ifodasi ekanligini anglatadi.

Navro'zning psixologik, falsafiy mohiyatida ezgulik, adolat, mehr-oqibat, birdamlik, do'stlik va hamkorlik, tabiatni musoffoligini saqlash, qadriyatlarimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash kabi insonparvarlik g'oyalari yotadi. Bu g'oyalar esa Yangi O'zbekistondagi tarixiy o'zgarishlarning mazmun-mohiyatiga monanddir. Navro'z bayrami, yurtimizdagi barcha elatlar va millatlarning ma'naviy-ruhiy manfaatlari o'zida aks ettiruvchi umumxalq bayrami sifatida, bundan keyin ham yuksak saviyada nishonlanib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). "Avesta". O'zbekcha tarjima (Asqar Maukam tarjimasi). T., 2001.
- (2). A.Asqarov. Qadimgi Turon eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalar tarixidan lavhalar. Toshkent, "Fan", 2023.
- (3). Beruniy A. Osor-ul boqiya (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar). T., "Fan", 1968.
- (4). Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devoni lug'otit-turk). 3 jildlik, tarjimon va nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov, T., "Fan", 1960.
- (5). Abu Bakr Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent, "Anorbooks", 2022.
- (6). H.Hamidiy "Avesto"dan "Shohnoma" gacha. T., "Sharq", 2007.
- (7). Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, T., «Fan», 1991.
- (8). <https://lex.uz/uz/docs/7395885>.

Maxsudova Xolisxon Ummatovna (Andijon davlat Texnika instituti "Tillar va gumanitar fanlar" kafedrasida dotsenti, PhD; xolisxon0408@gmail.com)

MASHINASOZLIK TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK TUZILISHI VA KONTEKSTUAL FOYDALANISH

Annotatsiya. Ushbu maqola lingvistik tuzilish va kontekstual foydalanish mashinasozlik ichidagi atamalarning adaptiv xususiyatini qanday shakllantirishini o'rganishga qaratilgan. Ma'lumki, terminologiyaga xos bo'lgan o'ziga xoslik va murakkablik, ko'pincha, texnologiyadagi yutuqlarni va sanoat amaliyotidagi o'zgarishlarni aks ettiradi, bu esa doimiy moslashish va takomillashtirishni talab qiladi. Ushbu atamalarning nozik tomonlarini va ularning kelib chiqishi, ishlatilishi hamda rivojlanayotgan texnologiyalarga javoban qanday rivojlanishini o'rganib chiqib, ushbu tadqiqot tilning aloqa vositasi va uning amaliy qo'llanilishi bilan o'zgarib turadigan tirik mavjudot sifatidagi rolini ta'kidlaydi. Tadqiqotimiz nafaqat ushbu sohada mutaxassislar duch keladigan muammolarni, balki texnologik landshaftlarning jadal rivojlana b borishida aloqa va tushunish uchun kengroq ta'sirlarni ham ochib beradi.

Kalit so'zlar: mashinasozlik terminologiyasi, moslashuvchanlik, sintaksis, semantika, leksika, SCATE loyiha.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА И КОНТЕКСТУАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕРМИНОЛОГИИ МАШИНОСТРОЕНИЯ

Аннотация. Данная статья посвящена изучению того, как лингвистическая структура и контекстуальное использование формируют адаптивный характер терминов в машиностроении. Известно, что специфичность и сложность, присущие терминологии, часто отражают достижения в технологии и изменения в промышленной практике, что требует постоянной адаптации и совершенствования. Исследуя нюансы этих терминов, их происхождение, применение и то, как они эволюционируют в ответ на развивающиеся технологии, данное исследование подчеркивает роль языка как средства коммуникации и как живого организма, меняющегося в зависимости от его практического применения. Наше исследование раскрывает не только проблемы, с которыми сталкиваются специалисты в этой области, но и более широкие последствия для коммуникации и понимания в условиях стремительного развития технологических ландшафтов.

Ключевые слова: машинная терминология, гибкость, синтаксис, семантика, лексика, SCATE проект.

LINGUISTIC STRUCTURE AND CONTEXTUAL USAGE OF MECHANICAL ENGINEERING TERMINOLOGY

Annotation. This article focuses on how linguistic structure and contextual usage shape the adaptive feature of terms within mechanical engineering. It is known that the originality and complexity inherent in terminology often reflect technological achievements and changes in industrial practice, which requires constant adaptation and improvement. By examining the subtleties of these terms and how they originate, are used, and evolve in response to evolving technologies, this study emphasizes the role of language as a means of communication and a living being that changes with its practical application. Our research reveals not only the problems faced by specialists in this field, but also broader influences for communication and understanding in the rapid development of technological landscapes.

Keywords. Machine-building terminology, flexible, syntax, semantics, lexicon, SCATE project.

Kirish. Muhandislik va texnologiya sohasida mashinasozlik terminologiyasi ushbu sohada samarali aloqa va innovatsiyalarni osonlashtiradigan asosiy element bo'lib xizmat qiladi. Ixtisoslashgan tildan aniq foydalanish muhandislariga murakkab tushunchalarni qisqacha yetkazishga imkon beradi va shu bilan turli

fanlar bo'yicha hamkorlikni rivojlantiradi. Misol uchun, terminologiyani aniq tushunish an'anaviy sun'iy intellekt va generativ sun'iy intellekt o'rtasida farqlashda juda muhimdir, chunki so'nggi tadqiqotlarda qayd etilgan terminologiyani farqlash muammolari bilan ta'kidlangan [1;382–389-b.]. Bundan tashqari, texnologik yutuqlarning izlanish tabiati vaqt o'tishi bilan moslasha oladigan dinamik leksik asosni talab qiladi va terminologiya rivojlanayotgan jarayonlar va mahsulotlarni tavsiflashda dolzarb bo'lib qolishini ta'minlaydi. Ushbu moslashuvchanlik rivojlanayotgan sohada yanada namoyish etiladi matnni tasniflash usullari, bu algoritmlarni aniq tasniflash va noto'g'ri aloqani oldini olish uchun nuansli tilni talab qiladi [2;140-b.]. Shunday qilib, mashinasozlik terminologiyasining ahamiyati shunchaki ta'riflardan tashqarida; bu texnologik rivojlanish samaradorligi va yaxlitligiga ta'sir qiladi.

Tahlil va metodlar. Mashinasozlik terminologiyasi sohasida lingvistik tuzilish ixtisoslashgan tilning yaratilishi va evolyutsiyasini shakllantiruvchi asosiy asos bo'lib xizmat qiladi. Texnik tilga xos bo'lgan aniqlik va ravshanlik turli manfaatdor tomonlar, shu jumladan, muhandislar, dizaynerlar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida samarali aloqani osonlashtiradi. Ushbu ixtisoslashgan leksika nafaqat mashinalar tarkibidagi tarkibiy qismlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi, balki kontekstual foydalanishga javoban moslashadi va shu bilan rivojlanayotgan sanoat amaliyotiga muvofiq o'zgaradi. Bilim almashishda kognitiv o'zaro ta'sirlarning ahamiyatini ta'kidlaydi, bu terminologiyaning umumiy tushunchasi hamkorlikdagi ta'lim muhitini qanday yaxshilashini ko'rsatadi [3;24-b.]. Xuddi shunday, urbanistik aktyorlar orasida lingvistik belgilarda bir xillik zarurligini ta'kidlab, texnik munozaralar ichidagi noaniqlik oqibatlarini aks ettiradi. Binobarin, lingvistik tuzilish va kontekstual moslashuvchanlikning o'zaro ta'siri mashinasozlik terminologiyasida yangilik va samaradorlik uchun juda muhim bo'lgan dinamik muhitni yaratadi [4;171–180-b.].

Sintaksis va semantikaning o'zaro ta'siri mashinasozlik terminologiyasi doirasida texnik atamalarni tushunishni sezilarli darajada shakllantiradi. Sintaksis, jumladagi so'zlarning joylashishi atamalarning aniq ma'nolarni qanday yetkazishini belgilaydi, semantika esa bu ma'nolarni muayyan kontekstda talqin qilishni o'z ichiga oladi. Texnik jargonni qabul qilish, ko'pincha, amaliyotchilar o'rtasida ixtisoslashgan aloqani osonlashtirish uchun ushbu lingvistik tuzilishga tayanadi. Masalan, SCATE loyihasi tarjima tizimlarida loyqa moslikni yaxshilash zarurligini ta'kidlab, sintaktik elementlar tarjima qilingan texnik matnlarda ravshanlikni qanday oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi [5;103–112-b.]. Bundan tashqari, axborot tizimlarini o'rganishda taklif qilingan til jamoalari konsepsiyasi a'zolarining texnologik ta'sirlarga va tashkiliy o'zgarishlarga moslashadigan domenga xos tillarni qanday rivojlantirishi va ulardan foydalanishini ko'rsatadi [6;78–91-b.]. Ushbu lingvistik moslashuvchanlik nafaqat texnik terminologiyani tushunishni boyitadi, balki ixtisoslashgan sohalaridagi aloqaning dinamik xususiyatini ham aks ettiradi.

Mashinasozlik terminologiyasining moslashuviga til ishlatilgan kontekst chuqur ta'sir ko'rsatadi. Terminologiya rivojlanib borishi bilan u nafaqat mashinasozlik sohasidagi texnologik yutuqlarni, balki aloqa amaliyotini shakllantiradigan ijtimoiy-madaniy dinamikani ham aks ettiradi. Kontekstli foydalanish atamalarining qanday talqin qilinishiga, qayta shakllanishiga va sanoat standartlariga qo'shilishiga ta'sir qiladi. Misol uchun, SCATE loyihasidagi tadqiqotlar loyqa moslikni yaxshilash va tarjima xotiralarini integratsiyalashning muhimligini ta'kidlaydi, bu tarjima muhitida aloqa samaradorligini oshirishda kontekstning rolini ta'kidlaydi [6;78–91-b.]. Xuddi shunday, mashinasozlik terminologiyasini tushunish til jamoalariga ta'sir qiluvchi tashkiliy tuzilmalarni tan olishni talab qiladi, chunki bu jamoalar o'zlarining noyob o'zaro ta'siri va amaliyoti bilan shakllangan domenga xos tillarni rivojlantiradilar [7]. Shunday qilib, mashinasozlikda terminologiyaning adaptiv tabiati uning ishlatilishi va ahamiyatini doimiy ravishda qayta belgilaydigan kengroq lingvistik tendentsiyalar va kontekstual omillarning aksidir.

Natija va muhokama. Mashinasozlik tilining evolutsiyasiga sanoatning o'ziga xos kontekstlari chuqur ta'sir qiladi, chunki terminologiya texnologik taraqqiyot talablari va maxsus aloqa ehtiyojlarini qondirish uchun moslashadi. Ushbu doirada turli xil terminologik strategiyalar paydo bo'lib, ular bilan bog'liq bo'lgan leksik va konseptual o'zgarishlar bilan shakllanadi. Masalan, ixtisoslashtirilgan korpuslarni yaratish terminologiyani tizimli tahlil qilishga imkon beradi, mashinasozlik nutqida til va konseptual asoslar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Bunday metodologiyalar bilimlarni mo-dellashtirishning ahamiyatini ta'kidlaydi, chunki ushbu soha mutaxassislari o'rtasida samarali muloqotni osonlashtirish uchun bilim va tilni uyg'unlashtirish kerak [6;78-91-b.]. Bundan tashqari, tashkiliy tuzilmalar va axborot texnologiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik domenga xos tillarning paydo bo'lishiga yordam beradi, til jamoalari ichida o'z-o'zini tashkil etuvchi muloqotni rivojlantiradi (Holten va boshq.). Ushbu dinamik mashinasozlik terminologiyasining moslashuvchan tabiatini ta'kidlaydi, chunki u sanoat ichidagi kontekstli siljishlarga javoban rivojlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mashinasozlik terminologiyasining evolutsiyasi lingvistik tuzilish va kontekstual foydalanish o'rtasidagi murakkab munosabatni aks ettiradi va uning texnologik muhitdagi adaptiv tabiatini ta'kidlaydi. Ushbu moslashuvchanlik nafaqat terminologik leksika tomonidan belgilanadi, balki professional sharoitlarda paydo bo'ladigan innovatsion amaliyot va aloqa dinamikasi chuqur ta'sir qiladi. Scate loyihasi natijalari dalolat sifatida, kompyuter-quvvat tarjima tizimlarida yaxshilash fuzzy taalluqli va integratsiya tarjima xotiralar domen-maxsus til yaxshiroq tushunish yengillashtirish mumkin. Bundan tashqari, axborot texnologiyalari va tashkiliy tuzilmalarning o'zaro ta'sirini o'rganish til jamoalarining aloqa amaliyotini shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlab, ekologik o'zgarishlarga javob beradigan terminologiyaning o'zini o'zi tashkil etuvchi evolutsiyasiga ishora qiladi. Oxir-oqibat, ushbu omillarni tan olish bizning mashinasozlik terminologiyasini tushunishimizni va uning tez rivojlanayotgan texnologik landshaftdagi chuqur ta'sirini boyitadi.

Mashinasozlik terminologiyasining moslashuvchan tabiatiga til tuzilishi va kontekstual foydalanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik sezilarli darajada ta'sir qiladi, bu til va maxsus bilimlar o'rtasidagi dinamik munosabatni ochib beradi. Morfologik o'zgarishlar va sintaktik naqshlar kabi lingvistik tuzilmalar atamalarni muayyan texnik talablarga mos ravishda o'zgartirish mumkin bo'lgan asosni ta'minlaydi. Masalan, prefiksalar yoki qo'shimchalar qo'shilishi muhandislik sharoitida aniqlik uchun zarur bo'lgan nozik ma'nolarni yaratishi mumkin. Shu bilan birga, kontekstli foydalanish ushbu atamalarining amalda qanday ishlatilishini shakllantiradi, bu texnologiya va sanoat amaliyotidagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Ushbu o'zaro bog'liqlik terminologiyaning rivojlanishiga imkon beradi, mashinasozlikda paydo bo'layotgan tushunchalar va yangiliklarni qamrab olishga moslashadi. Binobarin, ushbu sohadagi muvaffaqiyatli muloqot nafaqat statik lug'atga, balki kontekst ushbu atamalarining talqini va qo'llanilishini qanday xabardor qilishini tushunishga ham bog'liq. Shunday qilib, ushbu o'zaro ta'sirni tan olish amaliyotchilar uchun ham, olimlar uchun ham ixtisoslashgan tilning amaliy va nazariy asoslarini rivojlantirishda juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Zhu G., Teo C.L., Scardamalia, et all. (2020). Emotional and cognitive affordances of collaborative learning environments. The Interdisciplinarity of the Learning Sciences, 14th International Conference of the Learning Sciences (ICLS) 2020, Volume 1 (pp. 382–389). <https://doi.org/10.22318/icls2020.382>
- (2). Hoekstra, M.J. (2018). Stedebouwkundig(e) ontwerpen in woorden: Honderd jaar stedebouwkundige begrippen. A+BE. Architecture and the Built Environment, 8(15), p. 1–472. <https://doi.org/10.7480/abe.2018.15.2401>
- (3). Vandeghinste, V. Vanallemeersch, and et all. (2019). Improving the translation environment for professional translators. Informatics, 6(2), 24. <https://doi.org/10.3390/informatics6020024>
- (4). Holten, R., Rosenkranz, C. (2010). The emergence of information systems: A communication-based theory. Proceedings of the SIGPrag Workshop. 2010, Volume 3 (pp. 171–180). https://aisel.aisnet.org/sprouts_all/414
- (5). Ricci, C L. (2023). A study on the attitude, opinion, and usage of generative AI tools in sales & marketing: Evidence from technology companies. CORE. Issue 4 (pp. 103–112). <https://core.ac.uk/download/621578866.pdf>
- (6). Taha, K., and et all. (2024). A comprehensive survey of text classification techniques and their research applications: Observational and experimental insights. arXiv. Volume 6 (pp. 78–91) <https://arxiv.org/abs/2401.12982>
- (7). Ramos, M. (2020). Knowledge organization and terminology: Application to Cork. Universidade NOVA de Lisboa. <https://novaresearch.unl.pt/en/publications/knowledge-organisation-and-terminology-application-to-cork>

Maxammadjonova Mushtariybonu Jamoliddin qizi (Andijon davlat universiteti magistranti;

e-mail: mushtariybonu.jaloliddinova@mail.ru)

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA “MOTAM” SEMANTIK MAYDONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Tilga yaxlit bir makrosistema sifatida qarash va til birliklarini turli mazmuniy guruhlarga ajratib, bu guruhlardagi lisoniy birliklarning umumiy va xususiy jihatlarini tahlil qilish lingvistik maydon nazariyasiga xos yondashuvdir. Ushbu maqolada lingvistik maydon nazariyasi asosida ingliz va o'zbek tillarida “motam” semantik maydonining lingvistik, lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: semantik maydon, lingvokulturologiya, ma'no strukturasi, madaniyat, konsept, sema.

Махаммаджонова Муштарийбону Джамолиддин кизи (аспирантка Андижанского государственного университета)

ОСОБЕННОСТИ СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ «ТРАУР» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. Рассмотрение языка как целостной макросистемы, разделение языковых единиц на различные смысловые группы и анализ общих и специфических особенностей языковых единиц в

этих группах представляет собой подход, типичный для теории языкового поля. В данной статье анализируются лингвокультурологические характеристики семантического поля «траур».

Ключевые слова: семантическое поле, лингвокультурология, структура значения, культура, концепт, сема.

Makhammadjonova Mushtariybonu Jamoliddin qizi (graduate student of Andijan State University)
THE SPECIFIC FEATURES OF THE SEMANTIC FIELD OF “MOURNING” IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. Viewing language as a single system and dividing language units into different content components, analyzing their general and specific features in accordance with the theory of the language field. The article analyzes the triangular semantic field of “mourning” from a linguistic and linguocultural perspective.

Keywords: semantic field, linguoculturalism, meaning structure, culture, concept, sema.

Kirish (Introduction). Tilshunoslikda olib borilayotgan tadqiqotlarda o‘rganilayotgan obyektga nisbatan tizimli yondashuv tilga yaxlit bir makrosistema sifatida qarash va til birliklarini turli mazmuniy guruhlariga ajratib, bu guruhlardagi lisoniy birliklarning umumiy va xususiy jihatlarini tahlil qilishga imkon yaratadi. Lingvistik maydon nazariyasi shu yondashuv asosida til birliklarini tahlil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Til haqidagi fanda maydon bilan bog‘liq tushunchalar, dastlab, Vilgelm fon Gumboldt izlanishlarida namoyon bo‘ldi. Bunda Gumboldtning “tilning ichki formasi” haqidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etdi. V. fon Gumboldtning “Til ichki formasi” haqidagi asarida shunday yozadi: “Tilning har bir tolasi boshqa tolalar bilan chambarchas holda bog‘lanib ketgan matoga qiyoslash mumkin. Inson muomala munosabatiga kirar ekan, mana shu ulkan matoning bir qismidagina foydalanadi, xolos. U o‘zi foydalanayotgan bo‘lakning boshqa bo‘laklar bilan munazam aloqadorlikda ekanligi nutq jarayoning o‘zidayoq sezilib turadi”.

A.Sobirovning fikricha, o‘zbek tilshunosligiga maydon nazariyasining kirib kelishi til birliklariga nisbatan sistem-struktur metodlarning qo‘llanila boshlashi bilan bog‘liq. Bu borada amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ichida A.Nurmonov, H.Ne‘matov, R.Rasulov, I.Qo‘chqortoyev, E.Begmatov, T.Mirzaqulov, Sh.Iskandarova, O.Bozorov, R.Safarova, B.Qilichev, M.Narziyeva, F.Safarov, H.Hojiyevlarning ilmiy kuzatishlari va olingan xulosalar o‘zbek tili leksikasini maydon nazariyasi asosida o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Sh.Iskandarova shaxs mikromaydoni misolida o‘zbek tili leksikasini semantik maydon sifatida o‘rganish muammolarini ko‘tarib chiqdi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Til milliy mentalitetning spesifik qirralarini o‘zida namoyon etadi. Boshqa tomondan, millat madaniyati tilda aks etadi. Til birliklarining millat madaniyati, dunyoqarashi voqelanishidagi ishtiroki hamda milliy madaniyatning tilda aks etgan o‘ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash lingvokulturologik tahlilning ko‘rinishlaridan biridir.

Millat tafakkurida aniq bir semantik maydon haqida xulosa chiqarish uchun ma’lum bir konseptning ichki tuzilishi tahlil qilish zarur. Quyida ingliz va o‘zbek tillarida “motam” semantik maydonini tahlil qilish orqali shu xalqlar milliy madaniyati xususiyatlarini o‘rganamiz.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Motam – yaqin kishining o‘limi tufayli yuzaga keladigan qayg‘uli holat. Motam semasini ifodalovchi birliklarning markazida o‘lim leksemasi turadi. Inson tug‘ilishi kabi o‘limi ham muhim ahamiyatga ega voqelikdir. Chunki inson o‘limi uning bu dunyoni tark etishini, boshqa olamga o‘tishini anglatadi va bu marosim bilan bog‘liq qator marosimlar mavjud. Motam tarkibiga nafaqat marhumni dafn etish, bilan bog‘liq, balki motam va u dunyo bilan bog‘liq tasavvur va urf-odatlar, turli-tuman tabular, ehson va qurbonliklar, marosim va yig‘inlar, aza marosimlari va liboslari kiradi.

Motam semasi marhumning xotirasini yod etib o‘tkaziladigan marosimlarni ham ifodalaydi. Motam marosimlari barcha xalqlarda mavjud. U butun dunyodagi turli madaniyatning muhim belgisidir. Motam marosimlarining lingvokulturologik tadqiqini amalga oshirish jamiyat tarixi va taraqqiyotini ifodalashga, ularning qadriyat tizimini o‘rganishga yordam beradi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “motam” so‘zi lug‘aviy ma’nosi quyidagicha izohlangan: “Motam – 1. Yaqin yoki mo‘tabar kishining o‘limi tufayli yuzaga kelgan qayg‘uli holat; azadorlik va shu munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan ma’raka, ta’ziya, rasm-rusmlar (qora kiyish, bayram qilmaslik va shu kabilar). 2. Qat-tiq tashvish, qayg‘u-alamli holat.

Akasining dardi bilan to‘lgan qalbi uchun, yaqindagina o‘lgan onasining motami o‘z keskinligini bir daraja yo‘qotgan edi (Oybek. “Tanlangan asarlar”). Muzaffar zotlarga motam nojoiz, Ularning haqqidir faqat iftixor (A.Oripov). Hamza o‘ldirilgan Shohimardonda motam edi (N.Safarov. “Olovli izlar”) [3].

Ingliz tilida “mourning” (motam) so‘zi quyidagi ma’no strukturasiga ega:

1. The action of feeling or expressing sorrow for the death of a person (kishining o'limi tufayli qayg'uni his qilish yoki izhor qilish harakati);

2. Sorrow or grief for a deceased person (o'lgan odam uchun qayg'u) [4].

Ko'rinadiki, o'zbek va ingliz tillarida motam (mourning) so'zining ma'nosi bir-biriga juda yaqin.

Motam marosimlari insonlarning ilmiy, diniy tasavvurlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi, yashash sharoiti va boshqa omillarga bog'liq tarzda turlicha o'tkaziladi. Inson tug'ilishi kabi o'limi ham muhim ahamiyatga ega voqelikdir. Chunki inson o'limi uning bu dunyoni tark etishini, boshqa olamga o'tishini anglatadi va bu marosim bilan bog'liq qator marosimlar mavjud. Motam tarkibiga nafaqat marhumni dafn etish bilan bog'liq, balki motam va u dunyo bilan bog'liq tasavvur va urf-odatlar, turli-tuman tabular, ehson va qurbonliklar, marosim va yig'inlar, aza marosimlari va liboslari kiradi. O'zbek tili madaniyatida motam bilan bog'liq quyidagi marosimlar mavjud: aza ochish marosimi, mayitni yuvish marosimi, janoza marosimi, dafn marosimi, uch, ma'raka, qirq, ellik ikki, yil, qa'da marosimlari.

Motam bilan bog'liq marosimlar ichida dafn marosimi muhim o'rin tutadi. Dafn – o'lgan kishi (mayit)ni ko'mish, qabrga qo'yish marosimi.

Biror kishi vafot etganida, uni yuvib-tarab, oq matoga o'rab (bu kafan deyiladi) dafn qilinadi. Dafn marosimi, odatda, qabristonda erkaklar ishtirokida o'tkaziladi. O'lgan kishining oila a'zolari (ota, aka, uka), yaqin qarindoshlari, do'st-birodarlari, yurtdoshlari qabrga qo'yadilar.

Odil buvani Sobir o'z qo'li bilan dafn etdi (R.Fayziy. "Cho'lga bahor keldi").

Dafn marosimi tushdan keyin tugab, odamlar tartibsiz ravishda tarqala boshladilar (P.Tursun. "O'qituvchi").

Marhumni dafn qilishdan avval Islom dinida janoza namozi o'qiladi. Janoza dafn marosimidan oldingi kichik motam marosimi hisoblanadi.

Dafn marosimida marhumning oila a'zolari dafn marosimining vaqtini qarindoshlari va do'stlariga aytib, o'lim haqida xabar beradilar. Cherkovda ruhoniy nutq so'zlaydi va marhumning yaqinlari marhumning hayoti va marhum ularning hayotiga qanday ta'sir qilgani haqida yaxshi so'zlar bilan suhbatlashadilar.

Ingliz xalqida esa dafn qilish marosimi ikki xil amalga oshiriladi: bury (ko'mish) yoki cremate (murdani kuydirish). Marhumning jasadi (dead body) tobut (coffin)ga solinadi va qabr (bury)ga dafn etiladi. Odatda, dafn marosimida tobutni olib keluvchi, marosimni rasmiylashtiruvchi yordamchi – pallbearer tayin etiladi. Marhum jasadi yerga ko'milganda tobut ustiga tuproq tashlash odat tusiga kirgan va bu ish, asosan, funeral director (dafn marosimi direktori) tomonidan amalga oshiriladi, ammo oila a'zolari ham bu ishni amalga oshirishi mumkin. Shundan so'ng marhumning yaqinlari tobut ustiga gullar yoki shaxsiy buyumlarini qo'yadilar. Oq liliya eng mashhur an'anaviy dafn marosimi guli hisoblanadi. Bu gul begunohlik, poklik va hamdardlik ramzidir. Agar marhumning oila a'zolari marhum jasadini kuydirishni tanlasa, marhumning xoki ko'zacha (urn)ga solinadi va urn-burying marosimi o'tkaziladi.

O'zbek xalqida dafn marosimida tobut o'lgan kishining oila a'zolari, yaqin qarindoshlari, mahalladoshlari tomonidan qo'lda ko'tarilib, qabristonga yayov olib boriladi. Odamlar tobutni qo'lma-qo'l, navbatma-navbat ko'tarib qabrga olib boradilar. Inglizlarda bu ishni hearse (dafn mashinasi) bajaradi. O'tkinchi mashinalar dafn mashinasini ko'rganda, to'xtab, hurmat ko'rsatadi.

Marhum dafn qilingandan keyin uch kungacha janoza o'qilgan uyda ta'ziya bo'ladi. Marhum haqiga duo-fotiha qilinadi. Marhumning yaqinlari azador, ta'ziyador, motamdor, ta'ziya marosimi o'tkazilayotgan (mayit chiqqan) uy ta'ziyaxona, motamxona, marhumni dafn qilishda qatnashganlar ta'ziyachi deb ataladi. Dafn marosimlari o'tkazilgandan so'ng ham yil davomida marhumga bag'ishlab turli marosimlar o'tkazilishi odat tusini olgan. Marosimlarga quyidagi leksemalar misol bo'ladi: uch, yetti, yigirma, qirq, payshanbalik, yakshanbalik kabilardir.

Ingliz tilida ta'ziya, hamdardlik bildirish ma'nosini "condolence" so'zi ifodalaydi. Biroq ingliz xalqida bu so'z bilan aloqador marosim yo'q. Dafn marosimidan so'ng wake (uyg'onish) marosimi o'tkaziladi. Bu o'lgan odamni xotirlab o'tkaziladigan kichik majlis. Bu marosim, odatda, marhumning uyida o'tkaziladi. Marosimga oziq-ovqat va ichimliklar hamda marhumning yaqinlari bilan fotosuratlarini olib kelinadi. Odamlar eski voqealarni aytib, qiyin paytda birlashadilar, o'tmishni eslaydilar. Marhumning yaqinlari mourner (azador) deyiladi.

Xalqimizning motam marosimlarida ayollar ko'k, yashil, oq, ba'zan, qora matolardan tikilgan kiyimlar kiyib, o'z azadorliklarini bildiradi. Bunda aza kiyimlarining rangi orqali o'lim, motam, qayg'u-musibat yuz berganligi ifoda etiladi.

Rang-tus ifodalovchi "qora" so'zining asl ma'nosida rang-tus turadi. Qora tushunchasi bugungi kunda yer yuzining ko'p joylarida motamni anglatadi. O'rta Osiyo xalqlarida, shu jumladan, o'zbek xalqida

ham (ayrim viloyatlarni hisobga olmaganda) aza-motamda qora (qoraga yaqin ko'k, jigarrang...) libos kiyilishi tarixdan ma'lum.

Qora so'zidagi "yomonlik", "kulfat", "ko'ngilsizlik" semalari xalq orasida qo'llaniladigan "qora kun", "qora kuch", "ichi qora", "qora kiymoq" kabi birliklarda ham mavjud. Qora so'zining motam ma'nosini ifodalashi ham ushbu so'z ma'no ko'lamining vaqt o'tgan sayin kengayib borib, hozirda qora so'zining konotativ semantikasini qamrab olganligini aytish mumkin. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini nihoyasida (epilogda) bosh qahramonlardan biri Otabekning keyingi taqdiri haqida xabar bergan yozuvchi Yusufbek xojining Qanoatshohdan xat olganligi, xatda Otabekning rus bosqinchilari bilan bo'lgan muxorabada shahid bo'lganligini qayd etar ekan, romanni bunday yakunlaydi: "Shundan keyin Yusufbek xoji buni elga oshkor qilib osh berdi. O'zbek oyim qora kiyib, aza ochdi" [2].

Ayrim hududlarda esa (masalan, vodiylar hududlarida) ayollarning ko'k matodan tikilgan ko'ylak-lozim kiyishlari, shu rangda ro'mol o'rashlari urf bo'lgan. Odil Yoqubovning "Adolat manzili" romanidan olingan quyidagi parchada "ko'k kiymoq" metaforik birikmasidagi "ko'k" rang motam ma'nosini ifolashga xizmat qiladi: "Bibisora egniga ko'k kiyib, bir yil aza tutdi, keyin bir yildayoq qarib, munkayib qolgan qaynona, qaynotasi bilan rozi-rizolashib, xo'jalik markaziga ko'chib o'tdi" [1].

Surxondaryo hududida ham ko'k rang motam libosini anglatadi. Nikoh to'ylarida kelin tushirgan qaynona tilidan kelinga qarab aytiladigan "Kelin salom"da ko'k leksemasining bir o'rinda "osmon" ma'nosidagi shakldoshi va boshqa o'rinda "aza" ma'nosidagi konnotativ semasi yuzaga chiqqan: "Sen yashaydigan o'tov – qora, osmon – ko'k, dala-dasht –yashil, qozon-o'chog'ing – qora, soching – qora, ular ichida alohida ko'zga tashlanib yurishing uchun qizil ko'ylak kiydirdim, iloyo, sen ko'k ko'ylak kiyma, qoraga botma, qizamiqqa chalinma, yuzing ko'ylagingdek qizil bo'lib yursin".

Oq rangi ayrim hududlarda motamni bildirsa, ayrim hududlarda azadorlar ta'ziya muddati tugagach, qora kiyimni oq kiyim bilan almashtirib, motam libosini tashlaydilar. "Oq kiydi" lingvokulturemasi ham aynan azadorlikni tugatishni bildiradi. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida esa oq kiyim kiyish aza ochishni bildirgan: "...Bir kuni ertalab uyimizga ancha odam yig'ildi. Olacha to'n kiygan kishilar, oppoq ko'ylak kiyib, boshiga oq ro'mol o'ragan xotinlar... Hamma uvvos soldi. Dadam boshimni ko'ksiga bosgancha xo'rsinib-xo'rsinib yig'ladi".

Ingliz xalqida ham motam libosi mavjud. Mourners (azadorlar) qora rangli liboslar kiyadilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak, ikkala xalq tilida "motam" konsepti kishi vafotidan keyingi qayg'u va shu munosabat bilan tashkil qilinadigan marosim semasini ifodalaydi. O'zbek va ingliz tillarida motam marosimlari xususiyatlari har ikkala xalqda marhumga nisbatan hurmat, marhumning yaqinlariga nisbatan xayrixohlik, hamdardlik ko'rsatilishini anglatadi va bu tillardagi lingvistik birliklar orqali ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Yoqubov Odil. Tanlangan asarlar. To'rt jildli, 1-jild. Adolat manzili, roman, Toshkent, "Sharq", 2005.
- (2). Абдулла Қодирий. Ўтган кунлар. Тошкент, "Шарқ", 2009.
- (3). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, "Ўзбекистон", 2020, 680-бет; 672-бет; 688-бет; 608-бет; 646-бет.
- (4). <https://dictionary.cambridge.org>

**Yuldashev Doniyor Taxirovich (UrDU professori v.b., filologiya fanlari doktori),
Pulatova Muhayyo Azimboyevna (UrDU tayanch doktoranti; muhayyo_pulatova@mail.ru)
INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI ATOQLI OTLARNING TARJIMA METODLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli tizimli tillarda atoqli otlarni tarjima qilish usullari, jumladan, atoqli otlar tarjimasida adekvatlikni ta'minlash yuzasidan qilingan tadqiqotlarini o'rganish, ingliz va o'zbek tillaridagi atoqli otlarni bir tildan ikkinchisiga o'girish masalalari, bu jarayondagi qiyinchiliklar va yechim bo'lishi mumkin bo'lgan tarjima metodlari kabi muhim jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, nomlar, tarjima strategiyalari, transkripsiya, kalkalash, yarim kalkalash, neologizm, toponim, antroponim.

СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА ИМЕН СОБСТВЕННЫХ НА АНГЛИЙСКИЙ И УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫКИ

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется важным аспектам способов перевода прилагательных в разные систематические языки, включая исследования по обеспечению адекватности перевода прилагательных, вопросам перевода прилагательных в английском и узбек-

ском языках с одного языка на другой, трудностям в этом процессе и методам перевода, которые могут стать решением.

Ключевые слова: ономастика, имена, стратегии перевода, транскрипция, копирование, полукопирование, неологизм, топоним, антропоним.

TRANSLATION METHODS OF PROPER NOUNS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. This article focuses on important aspects of the methods of translating proper nouns in different systematic languages, including a study of research conducted to ensure adequacy in the translation of proper nouns, the issues of translating proper nouns in English and Uzbek from one language to another, the difficulties in this process, and possible translation methods that can be a solution.

Keywords: onomastics, names, translation strategies, transcription, calque, semi-calque, neologism, toponym, anthroponym.

Kirish. Onomastika – nomlarni o‘rganish sohasi ham bu jarayondan chetda qolib ketgani yo‘q. Atoqli otlar tarkibiga kiruvchi birliklar nafaqat identifikator, balki madaniy va ijtimoiy ma‘lumotlarning tashuvchisi ham hisoblanadi. Ularni moslashtirish va boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida noto‘g‘ri talqin qilish potentsiali tufayli atoqli otda aks etgan madaniy ma‘nolar ham ma‘lum darajada yoki butunlay yo‘qolib ketishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Taniqli tarjimashunos Qudrat Musayev takidlaganidek, “muallif tomonidan foydalanilgan har bir bayon va tafsilot, har qanday so‘z va ibora asosiy go‘yaning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi, badiy-tasviriy vositalarning to‘la-to‘kis idrok etilishi va tarjimada ijodiy qayta yaratilishigina muloqot maqsadiga erishish imkoniyatini yaratadi” [1;4-b.]. Xususan, bugungi kunda muayyan bir tildagi onomastik birliklarning ikkinchi bir tildagi ifodasi masalasi barcha tarjimonlar duch keladigan dolzarb muammolardan hisoblanadi. Jumladan, “atqoli otlar tarjima qilinishi kerakmi yoki qanday bo‘lsa shunday aytilaverishi kerakmi?” degan savol ko‘pgina til o‘rganuvchilarni qiynab keladi. O‘tkazilgan bir qancha tadqiqotlarda bu masala – tarjima qilish yoki qilmaslik masalasi ko‘rib chiqildi. Unga ko‘ra, haqiqiy matn (asliyat) hamda tarjima qilingan matn ikkalasi solishtirilganda, aksariyat atoqli otlarning bir tilidan ikkinchi tilga tarjima qilinmaganligini ko‘rish mumkin. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, har qanday tarjimon atoqli otlarning o‘ziga xosliklarini to‘g‘ri his qilib, ularni tushunish va yuqori sifatli tarjima qilish uchun yetarlicha tajriba hamda mahoratga ega bo‘lishi talab qilinadi.

Ma‘lumki, o‘zbek tilida biror shaxs, narsa yoki joyga atab qo‘yilgan nomlar atoqli otlar deyiladi [2; 114-b.]. Ingliz tilidagi mashhur elektron lug‘atlarni ko‘zdan kechirganimizda, “atoqli otlarga ma‘lum bir turdagi shaxs, joy, narsa va tashkilotlarni bir-biridan ajratish uchun atab qo‘yilgan va bosh harflar bilan yoziladigan otlar kirishi” haqida ma‘lumotlar berilgan [12;13;14;15].

Tadqiqot metodologiyasi. Dunyo tarjimashunosligida tarjima paytida ba‘zi to‘siqlarga duch kelgan-da tarjimonlar tomonidan qo‘llaniladigan bir qancha strategiyalar mavjud. Ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan iboralar tarjima strategiyasi, argo va og‘zaki nutq tarjima strategiyasi, madaniy atamalar tarjima strategiyasi, metafora tarjima strategiyasi yuzasidan olib borilgan ishlarni uchratishimiz mumkin [4;5;6;7]. Ammo ingliz va o‘zbek tilidagi atoqli otlarning chog‘ishtirma miqyosda o‘rganilishi va tarjimasiga aloqador ishlar nisbatan kamroq. O‘zbek tilshunosligida esa *tarjima strategiyalari* termini bilan bir qatorda, *tarjima metodlari* nomi ostida olib borilgan ishlar ham ko‘p uchraydi. Shu o‘rinda strategiya atamasiga berilgan izohga e‘tibor qaratamiz. Mashhur ingliz “Cambridge lug‘ati”ga ko‘ra, “(a way of doing something or dealing with something) biror narsani qilish usuli, yo‘l-yo‘rig‘i strategiya” deb ataladi [el. lug‘]. Ingliz tili adabiyotlarida *strategy* so‘ziga sinonim holatda *procedure*, *technique*, *method*, *tactic*, *approach* so‘zlarining qo‘llanilganini kuzatishimiz mumkin. Demak, strategiyalar deganda tarjimonning tarjima jarayonida duch keladigan muammolarni hal qilish vositalari, yo‘l-yo‘riq va usullarini tushunishimiz mumkin.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida ko‘pgina tarjima metodlari o‘rganib chiqildi hamda aynan atoqli otga tegishli bo‘lgan metodlar tanlab olindi. Metod (yun. *metodos* – bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta‘limot) voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli, degan ma‘noni anglatadi [3;209-b.]. Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va sifatli bajara oladi. Tarjimada ham xuddi shunday: atoqli otlarni tarjima qilishda metod va usullari bilan tanish bo‘lmagan inson bu ishni bajarish uchun ko‘p vaqt hamda kuch sarflaydi. Onomastik birliklarni manba tilidan tarjima tiliga ogirishning asosiy usullari, xususan, quyidagilar sanaladi.

Transliteratsiya – bu metod atoqli otlarni tarjima qilishda ko‘p ishlatiladigan metodlardani biri bo‘lib, bunda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda tarjima qilinayotgan tilning harflaridan foydalaniladi

va manba tilning talaffuz qoidalariga amal qiladi yoki moslashtiriladi. Transliteratsiya ba'zan fonetik tarjima deb ham ishlatiladi [9;28-b.] va so'zning grafik jihatini hisobga olganligi uchun juda qulay hisoblanadi. Masalan, *Hamlet* antroponimi o'zbek tiliga 2 xil shaklda tarjima qilingan – *Gamlet* va *Hamlet*. Taniqli tarjimashunos I.G'ofurovning yozishicha, *Hamlet* shakli o'zbek tili qonun-qoidalariga yaqin bo'lishi bilan birga, talaffuzi ingliz tilidagi so'zga juda yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazkur so'zni transliteratsiyada beradigan bo'lsak, u *Hemlit* shakliga ega bo'ladi. Bu yuqoridagi talablarga javob bermaydi. Ba'zan ayni bir ism bir necha usulda berishni talab qiladi. Bu, aksariyat hollarda, matnning usuli va janriga bevosita bog'liq, albatta. Bundan tashqari, tasvirlanayotgan voqea yoki hodisa qaysi davrda va qaysi mamlakatda yuz berayotgani tarjimon uchun juda muhim hisoblanadi. Bu fikrlarga misol tariqasida *Samarqand* toponimini olishimiz mumkin. Ingliz tiliga bu nom *Samarqand* hamda *Samarkand* shaklida transliteratsiya qilinishi mumkin. Birinchi usulda transliteratsiya qilingan so'z, aksariyat hollarda, tarixiy matnlarda qo'llanilsa, ikkinchi usulga zamonaviy matnlarda duch kelinadi va olimlar bu shakl rus tili ta'sirida paydo bo'lganini ham aytishadi. Yana bir misol, *Isaac* antroponimi o'zbek tilimizda diniy, ilmiy va badiiy matnlarda *Isak*, *Ayzeq*, *Isoq*, *Is'hoq* kabi shakllarda berilgan [5;119-b.].

Transliteratsiyaga yana *Farg'ona* – *Fergana* yoki *Farghana* (*Ferghana* emas), *London* – *London*, *Steve* – *Stiv*, *Facebook* – *Feysbuk*, *Micheal* – *Maykl*, *John* – *Jon*, *Johny* – *Joni*, *William* – *Uillyam*, *Maria* – *Mariya*, *George* – *Jorj*, *David* – *Devid* kabi misollarni ham ko'rsatishimiz mumkin.

Shu o'rinda shuni ham aytish joizki, ba'zi hollarda atoqli otlarni transliteratsiya usulida tarjima qilish jarayonida o'quvchiga qo'shimcha ma'lumot-izoh bergan holda tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Masalan, "*The New York Times*" va "*The Daily Express*" gazeta nomlarini olsak. Ular mashhur gazetalar, lekin o'quvchida ular haqida ma'lumot bo'lmasligi mumkin. Ularni qanday maqsadda va kimlar uchunligiga ko'ra, AQSHning milliy gazetasi "*Nyu York Tayms*" va ingliz konservatorlar gazetasi "*Deyli Ekspress*" deb tarjima qilish to'g'ri bo'lish holatlari ham mavjud [5;121-b.].

Transkripsiya. Har qanday tovushni ifodalab bera oladigan lotin tili grafikasi asosida yaratilgan, xalqaro qabul qilingan belgilar tizimi asosida milliy so'z va atamalarni ikkinchi bir tilda qayta tiklashga *transkripsiya* deb ataladi. Masalan, *Go'ro'g'li* – *Görögli* [6;49-b.].

Kalkalash. Bu metod ham atoqli otlarni tajima qilish jarayonida juda ko'p qo'llaniladigan metod hisoblanadi. Kalka tarjima qilinayotgan atoqli otlarni so'zma-so'z tarjimasi hisoblanadi, ya'ni boshqa til lug'aviy birligidan ona tili vositalari asosida nusxa ko'chiriladi [11;29-b.]. Kalkalash tarjima bilan so'z yasalishi oralig'ida turuvchi hodisa bo'lganligi uchun tilshunoslar uni qat'iy baholashga ikkilanadilar. Shuning uchun kalkalashning ikki tarkibiy turini: 1) to'liq kalka; 2) yarim kalkani farqlashadi. Masalan:

To'liq kalkalash – manba tilidagi atoqli ot qismlari to'liq tarjima tilidagi mos so'zlar bilan almashtiriladi: *White House* – *Oq uy*, *Your (Royal) Highness* – *Hazrati Oliylari*, *United Kingdom* – *Birlashgan qirollik*, *The Pacific Ocean* – *Tinch okeani*, *Royal Family* – *Qirollik Oilasi*, *European Union* – *Yevropa Ittifoqi*...

Yarim kalkalash – bu metodda tarjima qilinayotgan manbaning yarmi boshqa tilga tarjima qilinadi, qolgan yarmi esa o'z holicha qoladi [4;162-b.]. Masalan: *Mrs Jane* – *Jeyn xonim*, *King Charles* – *qirol Charles*, *Bloody Merry* – *qonxo'r Merri*, *Youth parliament* – *Yoshlar parlamenti*, *Grant Canyon* – *Katta Canyon*...

Neologizm yaratish. Bu metod nafaqat tarjima uchun manfaatli, balki til lug'aviy boyligini boyitish uchun ham qo'l keladi. Sababi ushbu metod tarjima qilinadigan tilda ekvivalent bo'lmaganda qo'llaniladi. Masalan: *Tik Tok* – *Tik-Tok*, *Telegram* – *Telegram*, *Zoom* – *Zoom*...

Atoqli otlar tarjimasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan, ularning orasida Moskvadagi Lomonosov universiteti professori Z.G.Proshinaning tarjima sohasidagi darsliklari ko'pchilik o'zbek tilshunoslari tomonidan ham yuqori baholanadi. Darhaqiqat, atoqli otlarning ham turlari ko'p: antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, tashkilot, kompaniya nomlari va boshqalar. Olima turli xil atoqli otlarni har xil vaziyatlarda qanday maqsadda va kimlar uchun mo'ljallanganiga qarab turlicha tarjima qilish keraklini o'zining "Theory of translation" darsligida isbotlab bergan. Uning quyidagi fikrlarini toponimlar (geografik joy nomlari) tarjimasi jarayonida juda o'rinli deb hisoblaymiz: Toponimlar yoki geografik nomlar agar u manba tilga tegishli bo'lsa, transkripsiya yoki transliteratsiyadan foydalanishi kerak. Lekin u manba tiliga tegishli bo'lmasa, toponimlar qaysi tildan olingan bo'lsa, o'sha tildan tarjima qilinayotgan tilga tarjima qilish kerak [4;156-b.].

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi qoidaga mos keluvchi misollarni hozir manba tili ingliz tili va tarjima tili o'zbek tili misollarida tahlil qilib ko'ramiz: *Brasil* – *Brazil* – *Braziliya* (ingliz tilidan o'zbek tiliga *Brazil* deb tarjima qilmaymiz); *مصر* – *Egypt* – *Misr* (*Egipt* emas); *Warszaw* – *Warsaw* – *Varshava* (*Vorshav* emas); *Köln* – *Cologne* – *Koln* (*Kologne* emas); *München* – *Munich* – *Myunxen* (*Munich* emas). Kam ho-

latlarda yuqoridagi qoidaga mos kelmaydigan, o'zbek tilimizga o'tgan asrlarda boshqa tillar orqali kirib kelib, bugungi kunda keng ishlatilib kelinayotgan atoqli otlar ham uchraydi. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasining poytaxti bo'lgan *Pekin* shahrining shevalarga boy xitoychada 北京 yoki 北平 kabi 2 xil talaffuzi ishlatilgan ekan. Bu holat ingliz tilida, ko'pincha, *Beijing* va kam hollarda *Peking* shaklidagi transliteratsiyalarning yaralishiga sabab bo'lgan. Rus tiliga *Пекин* shaklida transliteratsiya qilingan va o'zbek tilida ham *Pekin* shaklida ishlatiladi. Xitoy davlatining o'zining nomi esa xitoychaga 中國 (talaffuzi Zhōngguó) eski ingliz tilida *Cathay* shaklida ishlatilgan (amaldagi ingliz tilida *China*), rus tilida *Kumai* va ona tilimizda *Xitoy* shaklida ishlatilyapti. Bugungi kunda tarjimonlar ingliz va o'zbek tillari orasida geografik joy nomlarini bildiruvchi toponimlar tarjima jarayonida tarjima metodlariga mos kelmaydigan, tilimizda asrlar davomida shakllanib, adabiy tilimizda me'yor darajasida singib ketgan so'zlardan ham xabardor bo'lishlari kerak. Biz bu kabi ma'lumotlarni hozirgi yuqori darajada rivojlangan axborot texnologiyalari asrida internet saytlari, bir qancha olimlarning dissertatsiyalaridan yoki boshqa turli manbalardan tarqoq holatda o'rganib chiqishimiz mumkin.

Ba'zan nomlar aniqlagichlari bilan birga qo'llaniladi. Bunday holda, ko'pincha, yarim kalkalash, ya'ni, turdosh ot tarjima qilinadigan hamda atoqli ot o'z holicha qoladigan holatlar ko'p uchraydi: *Isle of Mann – Man oroli, the Amudarya river – Amudaryo daryosi, the lake Huran – Huran oroli, Mount Everest – Gopa Эвеверст – Everest tog'I, Tashkent city – Toshkent shahri, Times Square – Tayms maydoni, Wall Street – Uall ko'chasi kabilar*.

Kam hollarda, ya'ni, okean, dengiz nomlari turdosh otdan paydo bo'lgan va tarjima tilida ekvivalent nomi mavjud bo'lsa, to'liq kalkalashdan foydalaniladi: *the Mediterranean sea – O'rtaer dengizi, the Pacific ocean – Tinch okeani* kabi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, turli kontekstda onomastik birliklarni tarjima qilish va moslashtirish ularda aks etgan turli madaniy o'ziga xoslik, ijtimoiy ma'no tufayli tarjimon va tilshunoslar uchun qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bilamizki, ko'p hollarda, atoqli otlar tarjima qilinmaydi, moslashtiriladi, lekin tarjima turli tizimli tillararo ma'lum bir kontekstlarda qilinganda, atoqli otlarning ham tarjima qilinadi, deb aytilish mumkin. Atoqli otni tarjima qilish tizimi va usuli to'g'ri o'rganilmasa, muammo hal qilinmasdan qolib ketaveradi hamda tarjimashunoslik jarayonida jiddiy muommolar keltirib chiqaradi. Jumladan, atoqli otlarni tarjima qilishda qo'llaniladigan turli usullar – transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, neologizm yaratish kabilarning har biri o'zining kuchli tomonlari va ma'lum bir cheklovlariga ega, tillar bo'ylab madaniy va semantik yaxlitlikni saqlash murakkabdir. Ammo bunday murakkabliklarga qaramay, amalga oshirish mumkin bo'lgan samarali tarjima amaliyoti madaniyatlararo muvoqotni kuchaytirishi va turli millatlar o'rtasida o'zaro hurmat-e'tiborning saqlanib qolishiga, hatto kuchayishiga hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, "Fan", 2005.
- (2). Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. Toshkent, "Akademnashr", 2016.
- (3). Shermuhammedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. Toshkent, "Aloqachi", 2008.
- (4). Zoya Proshina. Theory of translation (english and russian) 3d edition. Vladivostok, Far Eastern University Press, 2008.
- (5). G'ofurov I. Tarjima nazariyasi. Toshkent, "Tafakkur bo'stoni", 2012.
- (6). Jumaniyazov Z. Tarjimaning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent, 2018.
- (7). Saadia Mahmood ul-Hassan. Strategies of translating idioms. British Journal of Linguistics. Vol. 2, № 3, December, 2014.
- (8). Gabriella Kovacas. About the definition, classification, and translation strategies of idioms. Acta Universitatis Sapientiae, Philologica, 8.3.2016.
- (9). Ratna Prasasti Suminar. Translation strategies of American Teenager's slang. Journal of Languages and Language teaching. July, 2024, Vol. 12, № 3.
- (10). Qosimova N. Tarjima strategiyalari. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Process. International scientific conference, Bukhara, December, p. 18–19, 2021.
- (11). Sodiqova S.I. Antroponimlarni tarjima qilish va o'zlashtirish muammolari. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies. Volume 3, Issue 17, October, 2023.
- (12). <https://www.merriam-webster.com/dictionary/proper%20noun>
- (13). <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/proper-noun>
- (14). <https://www.dictionary.com/browse/proper%20noun>
- (15). https://www.ldoceonline.com/dictionary/proper-noun#google_vignette

Jurayeva Iroda Axmedovna (dotsent, filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston; irodajuraeva@gmail.com)

J.K.ROULINGNING "GARRI POTTER" ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING MILLIY-LISONIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada olamning lisoniy manzarasi mifologemalar, metaforalar, o'xshatishlar, konnotativ so'zlar, stereotiplar va ramzlar kabi turli vositalar orqali ifodalanishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, badiiy adabiyotlardagi qahramon ismlarini lingvistik o'rganishning ahamiyati, ularning kognitiv faoliyatga ta'sir etishdagi roli tahlil qilinadi. Ingliz yozuvchisi J.K.Roulingning asarlari qahramonlari ismining tahlil qilinadi. Asardagi bir qator qahramonlarining ismlari etimologik, semantik, sintaktik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, olam manzars, onomastika, antroponimlar, lingvistik, etimologiya, semantik, sintaktik, ism, fantastik.

НАЦИОНАЛЬНО-ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОНИМОВ В «ГАРРИ ПОТТЕРЕ» ДЖ.К.РОУЛИНГ

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос о том, как языковая картина мира выражается через различные средства, такие как мифологемы, метафоры, сравнения, коннотативные слова, стереотипы и символы. Также анализируется значение лингвистического изучения имен персонажей в художественной литературе и их роль в влиянии на когнитивную деятельность. Проводится анализ имен персонажей произведений английской писательницы Дж.К.Роулинг. Имена ряда персонажей в произведении подвергнуты этимологическому, семантическому и синтаксическому анализу.

Ключевые слова: лингвокультурология, картина мира, ономастика, антропонимы, лингвистический, этимология, семантический, синтаксический, имя, фантастика.

NATIONAL-LINGUISTIC FEATURES OF ANTHROPONYMS IN J.K.ROWLING'S "HARRY POTTER"

Annotation. This article discusses how the linguistic picture of the world is expressed through various means such as mythologemes, metaphors, similes, connotative words, stereotypes, and symbols. It also analyzes the importance of linguistic study of character names in fiction, and their role in influencing cognitive activity. The names of the characters in the works of English writer J.K. Rowling are analyzed. A number of characters' names in the work have been subjected to etymological, semantic, and syntactic analysis.

Keywords: linguoculturology, world picture, onomastics, anthroponyms, linguistic, etymology, semantic, syntactic, name, fantasy.

Kirish. Lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning muayyan muammolarini ikki xil yo'nalishlarda hal qilishi mumkin. Birinchidan, u madaniy omilning tilga ta'irini, ikkinchidan, til omilining madaniyatga ta'sirini o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, lingvokulturologiya tilga madaniyatning ta'siri va madaniyatga tilning ta'sirini o'rganadi. Olamning lisoniy manzarasi deganda, ma'lum bir tilda so'zlashuvchi xalqning dunyoni idrok etishi va tushunishi tushuniladi. Har bir til xos tarzda dunyoni o'zida aks ettirishi, tasvirlashi va kategoriyalashi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Olamning lisoniy manzarasi turfa ranglar, xususan, mifologemalar, obrazli metaforik so'zlar, o'xshatishlar, konnotativ so'zlar, stereotiplar, ramzlar vositasida yaratiladi. Har qanday til o'zida mazkur til egasining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasini shakllantiradigan milliy, o'ziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi. Olamning lisoniy ko'rinishi turli xil ranglarda, ayniqsa mifologemalar, obrazli metaforik so'zlar, o'xshatishlar, konnotativ so'zlar, stereotiplar, ramzlar va boshqa vositalar orqali yaratiladi. Har bir til o'zida shu til egalarining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasi shakllanishiga ta'sir etuvchi milliy, o'ziga xos xususiyatlar tizimini birlashtiradi [1,2]. Olamning lisoniy manzarasi har bir tilga milliy o'ziga xoslikni beradi. Bu o'ziga xoslik tilning boshqa tillardan farqini belgilab, o'zga madaniyat vakillarini ushbu til egalarining dunyoqarashi bilan tanishtiradi. Misol uchun, geografik sharoitlari turlicha bo'lgan xalqlarning tillarida tabiat hodisalari, hayvonlar va o'simliklar dunyosiga oid so'zlar boyroq bo'lishi mumkin yoki jamiyatda ijtimoiy iyerarxiya muhim bo'lgan tillarda murojaat shakllari va hurmatni ifodalovchi so'zlar ko'proq ishlatilishi mumkin [2,11-b.]. Yoki shu jamiyatdagi yashayotgan insonlarning yashash joylarining nomlari, u yerdagi insonlarning ismlari, bularning hammasi olamning tildagi manzarasini ifodalaydi. Shu bilan birgalikda, olamning lisoniy

manzarasi har bir til orqali yaratilgan dunyo manzarasi bo'lib, u shu til egalarining madaniyati, an'analari va dunyoqarashini aks ettiradi.

Onomastika (grekcha *onomastikos*, *onoma*–*ism* so'zidan olingan) bo'lib, *antroponim* atamasi (grekcha *anthropos* – odam va *onyma*–*ism* so'zlaridan kelib chiqqan) inson ismlari va familiyalarini o'rganishga qaratilgan. Toponimlar (grekcha *topos* –joy so'zidan olingan) joy nomlarini o'rganadi [3;112-b.]. Odatda, antroponim atamasi shaxs ismlariga, toponomika esa joy nomlariga nisbatan ishlatiladi. Fernandesning [4;45-b.] ta'kidlashicha, bu bo'linish asosan ixtiyoriy, chunki joylar odamlar sharafiga qo'yilishi mumkin. Masalan, AQSHning Nebraska shtatidagi Linkoln shahri Amerika Prezidenti Avraam Linkoln sharafiga, Kanadadagi Prins Albert shaxri qirolicha Viktoriyaning turmush o'rtog'i shahzoda Albert sharafiga qo'yilgan. Masalan, mamlakatimizda ham Sharof Rashidov, Akmal Ikromov, Beruniy, Navoiy tuman va shaharlari mashhur insonlar va allomalar nomlariga qo'yilgan. Shuningdek, joylarning nomlari insonlarga berilganligini ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, ayollarga Parij va Dakota, Navbahor ismlari berilganligini, erkaklarga esa Orlando, Toshkenboy, Qo'qonboy ismi qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. To'g'ri, askariyat nomshunoslik tadqiqotlari ushbu ikkita asosiy yo'nalishdan biriga to'g'ri keladi, ammo nomlash shu bilan cheklangan degani emas. Onomastika – bu nomlarni o'rganish, antroponimika bu inson ismlari, familiyalari, sharifi, laqab va tahalluslarni o'rgansa, onomastikaning boshqa bo'limlari, shuningdek, joylarning nomlari (masalan, davlatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqlar), landshaft elementlarining nomlari (masalan, dengizlar, daryolar, soylar, ko'llar, tog'lar, tepaliklar, vodiylar, o'rmonlar, butazorlar, botqoqliklar), tijorat mahsulotlarining nomlari (masalan, shokoladlar, lab bo'yoqlari, vinolar), ijodiy asarlarning nomlari (masalan, kitoblar, filmlar, spektakllar, she'rlar), fantastik asarlardagi nomlar, shuningdek, haqiqiy dunyodagi nomlarni o'rganadi [5].

Antroponimika – bu onomastikaning bir sohasi bo'lib, u insonlarning ismlari, otasining ismi (patronim), familiyasi, avlod nomi, laqablari va taxalluslarini, shuningdek, yashirin ismlarni (kriptonimlar) o'rganadi. Bundan tashqari, badiiy asarlardagi ismlar, folklor, afsonalar va ertaklardagi qahramonlarning nomlari ham antroponimika tadqiqotining obyekti hisoblanadi. Antroponimika xalq orasida qo'llaniladigan va kanonik (diniy qoidalarga mos, cherkov tomonidan tasdiqlangan) shaxsiy ismlarni, shuningdek, bir ismning ada-biy, dialektal, rasmiy va norasmiy shakllarini ajratib o'rganadi. Har bir elat (etnos) har bir davrda o'ziga xos antroponimikaga shaxsiy ismlar ro'yxatiga ega bo'ladi.

Ismlarni ilmiy o'rganishning mavjudligi o'ziyiq nomlashning dunyoda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Algeo va Algeoning [6;265-b.] ta'kidlashicha, biror narsaga nom berish uni yaratish demakdir. Nom-siz narsa e'tibordan chetda qolgan narsa esa kognitiv va kommunikativ maqsadlar uchun mavjud emasdir. Algeo va Algeo [7;265-b.], hatto ismlarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan bir qator fanlarni ham sanab o'tadilar: antropologiya, mantiq, falsafa, genealogiya, tarix, leksikografiya, tilshunoslik va bu ro'yxat bundanda uzun ekanligini ta'kidlashgan. Badiiy asarlarda real qahramon ismlari, joy nomlari va narsalarning nomlari bevosita tilga olinadi. Axir, adabiyot tilni yoki xalqni, madaniyat va an'analarni ifodalaydi [8;20-b.]. Buni deyarli har bir adabiy asarda ko'rish mumkin. Lev Tolstoy "Urush va tinchlik" asarini yozganida, u bizga hayotda yashab o'tgan real insonlarni (Napoleon, Aleksandr I), haqiqiy joylarning nomlarini (Sankt-Peterburg, Moskva) va haqiqiy narsalarning nomlarni (Austerlits jangi, Dekabristlar qo'zg'oloni) kabi o'z ichiga olgan tarixiy voqea-hodisalar haqida to'liq ma'lumot berilgan.

Ba'zi asar mualliflari adabiy asarlarda mavjud nomlardan, boshqalari esa to'qima nomlardan ham foydalanadi. Asardagi qahramonlarning ismlari ularning xatti-harakatlari, bajarayotgan ishlari, xarakterlari, muhim tematik motivlarni qamrab oladi. Shuningdek, ismlar yozuvchining nuqtayi nazarini ko'rsatish kabi bir qator maqsadlarda ham ishlatiladi. XX asrga kelib inson ismlari gumanitar fanlarning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Ushbu sohada P.A.Florenskiyning asarlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, u tilning falsafiy jihatlariga, ismlarni inson shaxsi bilan chambarchas bog'liq holda o'rganadi. Bu faylasufning asarlari rus diniy falsafasini yoritishga qaratilgan bo'lib, unda inson va uning ismi o'rtasidagi aloqalar, ismning mohiyati va so'zning tabiati kabi fundamental masalalar ko'rib chiqiladi [9].

Bundan tashqari, taniqli faylasuf Jon Styuart Mill shaxsiy ismlar bir narsani boshqasidan ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladigan ma'nosiz belgilardir deb ta'kidlaydi [10]. Biroq bu fikr, ko'pincha, nomlar nafaqat ma'nosiz emas, balki aksincha, juda ko'p ma'noga ega, degan qarashlar bilan rad etiladi. Demak, ismlardagi ma'no o'quvchilarning adabiy qahramonlar shaxsiyatini qanday qabul qilishiga ta'sir qilishi mumkin. Ism va familiyaning tarkibiy qismlari hamda ularning ism egalarining lingvistik, etnik, ijtimoiy va madaniy mansubligini aks ettirishi tahlil qilinadi. Shunday qilib, inson ismi uni jamiyatda boshqalardan ajratib turish imkonini beradi. Ism insonning o'zligini anglatadi. Har bir insonning ismi uni boshqa shaxslardan ajratib turadi. Insonga berilgan ism uning jismiga aylanadi, uning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Shuningdek,

shaxsning ismi va unvoni uning maqomini, siyosiy qarashlarini yoki qahramonlarning o'zaro munosabatlarining rasmiylik darajasini ko'rsatishi mumkin. O'quvchilar nuqtai nazaridan, ismlardagi ma'no qahramonlarning ijtimoiy va individual tarzda qanday qabul qilinishiga ta'sir etishi mumkin. Mualliflar qahramonlarga ism tanlashni asar yozishdan ancha oldin boshlaydilar va o'z qahramonlarini aynan shu ismlar orqali xarakterini, ijobiy yoki salbiy qahramon ekanligini, kuch-qudratini va nimalarga qodir ekanligini ko'rsatib beradi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchi asardagi qahramonlarning ismlarini o'qish orqali ularning kim ekanligi haqida dastlabki ma'lumotga ega bo'ladi. Masalan, tahlil qilinayotgan J.K.Roulingning "Garri Potter" asaridagi qahramonlarning ismlari orqali ikki xil dunyo – sehrgarlar va oddiy odamlar dunyosi o'rtasida ko'rinmas, ammo mavjud bo'lgan chegarani idrok etish mumkin.

Tahlil va natijalar. J.K.Roulingning "Garri Potter" asaridagi barcha qahramonlarning ismlari quyidagi guruhga bo'linadi:

1. Ismlar: Garri, Vernon, Petunya, Dudli, Albus, Minerva, Rubeus, Lili, Jeyms, Sirius, Korniliy, Gripxuk, Germiona, Xedvig. (Harry, Vernon, Petunia, Dudley, Albus, Minerva, Rubeus, Lily, James, Sirius, Cornelius, Griphook, Hermione, Hedwig).

2. Familiyalar: Potter, Dursli, Dambldor, Makgonagall, Xagrid, Blak, Fudge, Uizli, Longbottom, Flamel, Griffindor (Potter, Dursley, Dumbledore, McGonagall, Hagrid, Black, Fudge, Weasley, Longbottom, Flamel, Gryffindor).

3. Odamlarga qo'yilgan ismlar: Names given to people or taken by them Voldemort, Siz-Bilasiz-Kim, U-Kim Nomlanmasligi Kerak, Deyarli Boshsiz Nik). (Voldemort, You-Know-Who, He-Who Must-Not-Be-Named, Nearly Headless Neck).

Endi bevosita "Garri Potter" asaridagi ba'zi qahramonlarni ism shariflarini tahlil qilamiz. Garri Potterdan keyin hikoyada paydo bo'lgan birinchi personajlar Durslilar oilasidir. Ular uch kishilik oddiy oila bo'lib, Garri yetim qolganidan so'ng uni o'z qaramog'iga olishadi. Ular Garri bilan onasi tomonidan qarindosh, onasi esa Vernon Durslining rafiqasi Petunya Evansning singlisi bo'ladi. Oilaviy davrani to'ldirish uchun ularning o'g'li Dadli Durslini ham eslatib o'tish kerak.

Dursli. Etimologiyasi. Glostershirdagi kichik shahar. Asosan, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan aholi punkti bo'lib, u yerda xaridorlar va savdogarlar yashagan. Transport aloqalari yaxshi rivojlanmagan hudud bo'lgan.

Semantikasi. J.K.Rouling bu ismni Britaniyadagi kichik shahardan olgan bo'lishi mumkin. U o'zi tug'ilib o'sgan joyga yaqin bo'lgani uchun u yerga tez-tez borib turgan, lekin unga unchalik yoqmagan haqida yozgan.

Sintaksis. Turdosh ot, familiya yoki shahar nomi bilan bog'liq.

Lili. Etimologiya. Qadimgi inglizcha *lilie*, lotincha *lilia* so'zidan olingan bo'lib, *lilium* "Liliya" degan ma'noni anglatadi, yunoncha *leirion* bilan kelib chiqishi bir xil, ikkalasi ham ehtimol yaqin sharq tillarida (de Vaan compares Coptic hreri, hleli "lily") so'zining buzilgan talaffuzidagi varianti. So'z 16-asrda birinchi marta nemis o'simlikshunoslari tomonidan qo'llanilgan. So'z lotinchadan nemis tiliga *lilie*, fran-suz tilida *lis*, ispan tilida *lirio*, italyan tilida *giglio* kabi qo'llanilgan. 1530-yillarda bu so'z sifat *oq, toza* va *go'zal* ma'nosida ishlatilgan. Bundan tashqari, gul *bokiralik, poklik, go'zallik* va *begunohlik* ramzini ham bildiradi (<https://www.etymonline.com/search?q=Lily>).

Semantikasi. 1. Lili – *ulug'vorlik, boylik, g'urur, begunohlik, poklik* ma'nolarini bildiradi.

2. Lily-white – *poklik, kamtarlik, bokiralik, ulug'vorlik, jannatga teng* man'nolarini bildiradi. "Oq liliya" Rim mifologiyasidagi xudolar malikasi Junoga bog'liq hikoya borligi aytiladi, unga ko'ra Juno o'g'li Gerkulesni emizayotganda, sut sachrab ketadi va bu osmondagi Somon yo'li (Milky Way) deb ataladigan yulduzlar guruhi yaralgan va undan yerga tushgan sutdan liliyalar paydo bo'lgan degan afsonalar mavjud.

3. Liliya – *olov rang – olov, men siz uchun yonaman* degan ma'nolarni ham anglatadi.

4. Liliya – sariq – *men havoda uchib yuribman, yolg'on, quvnoq* degan ma'nolarni anglatadi.

Sintaksis. Atoqli ot (N). Sifat (adj).

J.K.Roulingning har bir qahramonlarining ismlari o'zining asl ma'nosiga ega. Masalan, *Draco* va *Sirius* kabi ismlar, mos ravishda, ajdaho va it yulduzi nomlaridan olingan bo'lib, sehrli dunyo olamini tushunishga yordam beradi. *Sirius* uchun "it yulduzi" nomining ishlatilishi, u animagus va ushbu turkumning uchinchi kitobida vaqtining ko'p qismini it sifatida o'tkazadi. U ismlardan sehrli dunyoni bilish uchun foydalanadi, bu bilan qahramonning xarakterini bilib olishga yordam beradi. U *Rita Skeeter, Minerva McGonagall, Severus Snape* va *Bellatrix Lestrange* kabi qahramonlarning ismlarini yanada esda qolarli, obrazli jonli chiqishi uchun alliteratsiyadan foydalanadi.

Xulosa va takliflar. Til dunyoning manzarasini idrok etish va aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Har bir til o'z egalarining dunyoqarashini shakllantiruvchi milliy va o'ziga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Inson ismlari jamiyatda shaxsning o'zini anglashda, bilishda va qahramonlar hayotida muhim rol o'ynaydi. Bular esa olamning lisoniy manzarasi mifologemalar, metaforalar, o'xshatishlar, konnotativ so'zlar, stereotiplar va ramzlar kabi turli vositalar orqali ifodalanadi. Shuningdek, badiiy adabiyotlardagi qahramon ismlarini lingvistik tahlil qilib o'rganishning ahamiyati, ularning kognitiv faoliyatiga ta'sir etishdagi roli beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Худойберганаева З.Н., Мамаражабов Б.Б. Тил ва маданият: ўзаро муносабат ва ўзаро таъсир масаласи. “Замонавий таълим”, “Современное образование”, Т., 2016, № 1, 5-бет.
- (2). Маматов А.Э. Замонавий лингвистика. Т., “Университет”, 2018, 180-бет.
- (3). Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language (2nd ed.), Cambridge: Cambridge University Press. 1997.
- (4). Fernandes L. Translation of Names in Children's Fantasy Literature: Bringing the Young Reader into Play. New Voices in Translation Studies, 2006, 2, p. 44–57.
- (5). Fernandes L. Translation of Names in Children's Fantasy Literature: Bringing the Young Reader into Play. New Voices in Translation Studies, 2006, 2, p. 44–57.
- (6). Algeo John., Algeo Katie. Onomastics as an Interdisciplinary Study. Name: Journal of the American Name Society, 2000. 48. September/December, p. 265–274.
- (7). Algeo John., Algeo Katie. Onomastics as an Interdisciplinary Study. Name: Journal of the American Name Society, 2000, 48. September–December, p. 265–274.
- (8). Lombardi Esther. Literature. About.com Guide. Retrieved September 2, 2013, from http://classiclitter.about.com/od/literaryterms/g/aa_whatisliter.htm
- (9). Mill J.S. A System of Logic Ratiocinative and Inductive. London, Routledge, 1843.
- (10). Флоренский П.А. История философии философия историческая литература. 2000.
- (11). Wamitilia Kyallo Wadi. What's in a Name. Towards Literary Onomastics in Kiswahili Literature. Afrika-nistische Arbeitspapiere – Schriftenreihe des Kölner Instituts für. 1999, Afrikanistik, 60, p. 35–44.
- (12). Bhavikgiri Vishnugiri Goswami. An analysis of Linguistic features in Harry Potter book series. SURABHI – International Peer-Reviewed Referred Journal Vol. 1, January, 2022 (58th Issue), p. 28.
- (13). Colbert D. The Magical Worlds of Harry Potter. London, Penguin Group, 2001.
<https://www.etymonline.com/search>.
www.harrypotterfans.net/potterica/index.html – accessed September 2011.

Xojanov Sharapatdin Baltaniyazovich (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.) QORAQALPOQ TILIDA ANTONIMIK MUNOSABATDAGI FE'L SO'Z TURKUMINING GURUHLARI

Annotatsiya. Qoraqalpoq tilida fe'l so'z turkumi antonimiya hodisasini hosil qilishda unumli hisoblanadi. Fe'llardan yasalgan antonimlar bir qancha semantik guruhlarini tashkil qiladi. Ulardan ba'zilari tilda faol ishlatilsa, ba'zilari bunday xususiyatga ega emas. Bosh kelishikdagi so'zlar va fe'l so'zlarga ko'lmakchi fe'llarning birikishidan qo'shma fe'llar antonimik munosabatga kirishadi. Sifatdoshning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari harakat orqali predmetning belgisini bildirib kelganda o'zaro antonim bo'la oladi.

Kalit so'zlar: fe'l antonimlar, semantik guruhlar, qo'shma fe'llardagi antonimiya, bo'lishlilik va bo'lishsizlik formalaridagi antonimiya, sifatdoshlardagi antonimiya.

ГРУППЫ ГЛАГОЛЬНЫХ КАТЕГОРИЙ В АНТОНИМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ В КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В данное время глагол как часть речи считается актуальным для создания антонимии в каракалпакском языке. Антонимы, образованные от глаголов, создают несколько семантических групп. Некоторые из них активно используются, а некоторые не имеют таких свойств. К словам основного падежа и глагольным словам с добавлением вспомогательных глаголов, соединенные глаголы образуют антонимическое отношение. Причастия положительной и отрицательной формы при обозначении признака действия предмета между собой могут стать антонимами.

Ключевые слова: глагольные антонимы, семантические группы, антонимия в соединенных глаголах, антонимия положительной и отрицательной формы, антонимия причастий.

GROUPS OF VERBS IN ANTONYMIC RELATIONS IN THE KARAKALPAK LANGUAGE

Annotation. The branch of verb in the Karakalpak Language is useful in building the antonymic situation. The antonyms built by the verbs, organize many semantic groups. Some of them are used in the

language; some of them have not such peculiarities. The united verbs form antonymic situation while adding the words in possessive case and auxiliary verbs. The participle in negative and positive forms can cause antonymic situation while forming the action.

Key words: Verb antonyms, semantic groups, the anatomy of united verbs, negative and positive forms of antonyms, the antonyms of participle.

Kirish. Qoraqalpoq tilidagi antonimlarni lingvistik tadqiq qilish tilshunoslik oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur masala qoraqalpoq tilshunosligida hozirgi kungacha maxsus tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Shuning uchun ham adabiy tilni yagona tizimga birlashtirishda ushbu leksik qatlam bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishning ahamiyati kattadir. Maqolamizda mana shu keng qatlamning bir bo'lagi bo'lgan qoraqalpoq tilida antonimiyani hosil qilishda faol ishtirok etadigan fe'llardan yasalgan antonimlarning lingvistik xususiyatlarini yoritishga harakat qilindi.

Metodologiya. Fe'llarning ichida ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi tushunchalarni anglatadigan turlari ko'p uchraydi va ular muloqot jarayonida, o'zaro fikr almashishda faol qatnashadi. Fe'l so'zlarda antonimiya hodisasining paydo bo'lishi sifat va ravishlardan yasalgan antonimlar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, *jas – ġarri*, *bay – kámbaġal*, *tez – áste* so'zlari o'zaro antonim bo'lganidek, shu so'zlardan yasalgan *jasarɨw (jasarmaq) – qartayɨw (qartaymaq)*, *bayɨw – kámbaġallasɨw (kámbaġallaspaq)*, *tezlesɨw – ástelesɨw* kabi so'zlar ham antonimik ma'noga ega. Bulardan tashqari, *kirmek – shıqpaq (joqarığa)*, *shıqpaq – (tómenge) túspek*, *jiynalmaq – tarqalmaq* kabi qarama-qarshi bo'lgan harakatni anglatuvchi so'zlar ham fe'l antonimlar qatoriga kiritiladi [1;147-b.]. Bunday holatni anglatuvchi fe'llar o'rtasida antonimlarning faol ishlatilishini quyidagi misollar asosida ham ko'rishimiz mumkin: Qara ógiz *ketip* atır, Qızıl ógiz *kelip* atır (xalq topishmog'i). *Ushqanı* kókte sayraydı, *túskeni* issıda qanatın qaġıp, jorġalap ketip, puta-puta menen kók shópplerdiń arasın sayran etedi (J.Aymurzaev).

Qozoq tilshunosligida fe'l antonimlarning leksik ma'nosi bo'yicha guruhleri aniq ko'rsatib berilgan. J.Musin fe'l antonimlarni leksik ma'nosi bo'yicha quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. To'g'ridan to'rg'i obyekt bilan bog'liq harakatlar.
2. Harakatning yo'nalishi.
3. Harakat qiluvchi predmetning holati [2;22-b.].

R.Shukurov o'zbek tilida fe'llardan yasalgan antonimlarni leksik ma'nosi bo'yicha to'rtta guruhga ajratadi:

1. Qarama-qarshi yo'nalishdagi harakatni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar.
2. Predmet holatiga bog'liq fe'llardan yasalgan antonimlar.
3. Odamlarga xos bo'lgan holat va munosabatlarni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar.
4. Umuman bir-biriga qarshi, biri ikkinchisini inkor qiladigan harakatlarni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar [3;14–15-b.].

Bu guruhlarning har biri o'z ichida yana bir qancha kichik ma'no guruhlariga ega. Fe'llardan yasalgan antonimlarning ma'no jihatidan bunday guruhlarga ajratilishi qoraqalpoq tilida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Ishimizda antonim fe'llarni quyidagicha semantik guruhlarga bo'lib o'rgandik:

I. Qarama-qarshi yo'nalishdagi harakatni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar. Ular o'z ichida quyidagi ma'no guruhlariga ajraladi:

1. Qarama-qarshi tomonga bo'lgan yo'nalishni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar: *kelmek – ketpek*, *kelmek – barmaq*, *barmaq – qaytpaq*, *shıġɨw (joqarığa) – túsɨw*, *ilgerilew (alġa basɨw) – sheġiniw* va h.k. Masalan: Birewi *kelip*, birewi *ketip*, Aġılġan aġım sezdirmes ózin (T.Jumamuratov).

2. Ichkariga va tashqariga bo'lgan yo'nalishni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar: *kiriw – shıġɨw*, *júklew – túsiriw*, *kirmek – shıqpaq*, *toltırɨw – bosatɨw* va h.k. Masalan: Egizbaevtń kabinetine birew *kirdi*, birew *shıqtı* (Sh.Seytov). «Himm ġáp buyaqta eken», dedim de shıqtım, at arbanı qosıp, keshke shekem bir arbasın *júklep* qayttım-á! (Sh.Seytov). Sharbaqshı da qınırlıq etpedi, Amanlıq penen esheġine bir góne seyisxananı *bosatıp berdi* (T.Qayıpbergenov).

3. Biror narsani (eshikni, oynani, qulfni va h.k.) ochish va yopishni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar: *ashıw – jabıw* (ishikni), *ashıw – qulplaw* (qulfni), *oraw – ashıw* (sovg'ani), *buraw – óshiriw* (radioni) va h.k. Masalan: Sennen basqa bul esikti tek jel *ashıp*, jel *jabadı* (T.Qayıpbergenov). Jumaxan sıp etip shıġıp ketti de seyfin *ashıp* registraciya dápteriniń sol betin sudyanıń kóz aldına tuttı (Sh.Seytov). «Dokumentti kim joytsa da nızam aldında juwap beredi, otız ekiniń 8-avgustı menen ózi tartılıp kete me, kim bilsin ele!», dep qapılıttı hám ózi registraciya dápterin seyfke salıp *quhlılap tasladı* (Sh.Seytov).

4. Narsa, hodisalar hajmidagi o'zgarishlarni ifodalash ma'nosidagi fe'l antonimlar: *keñeyiw – tarayiw, uzayiw – qisqariw, úlkeyiw – kishireyiw* va h.k. Masalan: Mart ayının aqırları, tün *qisqarıp*, künler *uzayıp* atırğan bir máhál edi (J.Saparov).

5. Narsa, hodisalarni qo'shish va ajratish ma'nosidagi fe'llardan yasalgan antonimlar: *baylaw – sheshiw, úziw – jalğaw* va h.k. Masalan: Sol tiykarda *úzilip qalğan* sawda baylanısların qayta *jalğamaqshı* (T.Qayıpbergenov). Anaw ekewine shofyor otlap júrgen eki eshektiń tusawın *sheship* ákelip, qolların artına qayııp, tırıstırıp *bayladı* (Sh.Seytov).

6. Insonlarning o'zaro munosabatlarini, oldi-berdisini ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar: *almaq – bermek, aliw – satıw* va h.k. Masalan: *Almaqtıń bermegi* bar (Qoraqalpoq xalq maqollari). – Dú-kanda un bar er-teń *alasań*, dúkanshı «búgin basqa sawdanı júrgizbey taslaydı, unnıń kilolap ólshewi qıyn, nırqı arzan» – dep satpay tur, er-teń *satajaq*, dedi Abıllağa qarap Mádiyar (Sh.Seytov).

II. Narsa-hodisalarning holati bilan bog'liq fe'llardan yasalgan antonimlar. Ularni o'z ichida quyidagi ma'no guruhlariğa ajratish mumkin:

1. Narsa-hodisalar holati bilan bog'liq o'zgarishlarni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar: *awırlasıw – jeñillesiw, asırıw – kemeytiw (reja), ısıtıw – suwıtiw (havo), ısıtıw – suwıtiw (yomg'ir), kúshewiw – páseyiw (shamol)* va h.k. Masalan: Denesi birese *jandı*, birese *suwıdı*, tórtinshi kúni tańnıń aldında Aqbiyday birotala tamam boldı (T.Qayıpbergenov). Sonlıqtan tezlikti ózger-tiw ushın sceplenieni yamasa tormozdı qayta-qayta basıp, ji-yi-jıy gazdı *páseytip*, ya *kúshewtip* otırıwğa tuwra keldi (A.Dáwletmuratov).

2. Predmetning paydo bo'lishi va yakunlanishini ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar: *tuwılıw – óliw, janıw – óshiw, kógeriw – quwraw* va h.k. Misollar: – Bizge bala tuwdırıp eldi kóbeytpekshimiseń? Olar jáne *gárep boladı*, sen shirkin *gárep* qılasań! (T.Qayıpbergenov). Kúni menen *janıp* turğan elektr nur-ları on ekilerden keyin birim-birim *sóne basladı* (Ó.Embergenov).

3. Umuman, bir-biriga qarama-qarshi, biri ikkinchisini inkor qiladigan harakatlarni ifodalovchi fe'l-lardan yasalgan antonimlar: *saqlaw – joğaltıw, joğaltıw – tabıw, ashırqaw – toyıw, maqtaw – jamanlaw* va h.k. Masalan: – El *ashırqadı* desek sizler *bayıpsız*? (T.Qayıpbergenov). Adamnıń adam *óltiriw* qolınan kele-di, liykin *tiriltiw* qolınan kelmeydi. ... (Sh.Seytov).

III. Insonlarga xos bo'lgan holat va munosabatlarni ifodalovchi fe'l antonimlar. Ular o'z ichida yana quyidagi ma'no guruhlariğa bo'linadi:

1. Insonlarning ruhiy holatini ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar: *kúliw – jılaw, quwanıw – qayğırıw, súyiniw – kúyiniw, ráhátleniw – azaplanıw* va h.k. Masalan: Kiyeli dúnya! Birewlerdi *jılatpay*, birewlerdi *kúldirmeysen* (T.Qayıpbergenov). Eldi oylap kelgeni-ne *quwansań*, Yardı oylap *qıynalasań* qa-mıgıp (T.Jumamuratov).

2. Insonlarning fiziologik holatini ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar: *jasarıw – qartayıw, semiriw – azıw* va h.k. Masalan: Ekewi de tolısıp *semirdi*. Sheke tamırları shertilip, andız shóptey *azğanın*, erniniń bir jağı ayğız-ayğız jarılğanın Amanlıq endi kórdi (T.Qayıpbergenov). Barlıq keselden ayıgıp, úshinshi kún degende tańlanğanğa «túpirip qara» dep bulttan shıqqan ayday jarqıldap shığa keldi, on se-gizindegidey *jasarıptı* (Sh.Seytov). Men *qartaydım*, meni saylamań dep úylerge kirip shıqsa da, báribir, saylanıp ketti (Sh.Seytov).

3. Insonlarning moddiy holatini ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar: *bayıw – kámбағallasıw, toyınıw – jarhlanıw, jıynaw – sarıplaw* va h.k. Masalan: Jetimniń bir toyğanı shala *bayıganı* (Qoraqalpoq xalq maqollari). Náwbettegi jawgershilikten keyin ortadármiyan xojalıqlardıń derlik barlıgı *kámбағallastı* (T.Qayıpbergenov). Baydıń sonsha jıllardan berli tis-tırnaqlap *jıynağan* baylıgın balası bir jıldıń ishinde *sarıplap* jiberipti (Qq.x.e.).

4. Insonlarning o'zaro munosabatlarini ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar: *urısıw – jarasıw, ajırasıw – jarasıw, sálemlesiw – xoshlasıw, aqlaw – qaralaw, eslew – umıtiw* va h.k. Masalan: Soń meni ta-nıdı da ornınan ushıp turıp, eki qollap *sálemlesti*. Ol meniń menen *xoshlasıp*, tap segiz ulın úylendirerde tóleytuğın «qalıń mal» awırmanlıgın kótere almağanday, iyni tómen túsip, alleya boylap áste kete berdi (A.Dáwletmuratov). – Kim menen *urısań*, jánjellesen, *jarasqanday* sańlaq qaldırıwdı úyreniwiń kerek, ulım! (T.Qayıpbergenov).

Tahlil va natijalar. Qo'shma fe'llar ham antonim bo'lib kela olish xususiyatiga ega. Bunday holatda asosiy fe'l qo'shma fe'llarning umumiy leksik ma'nosini ifodalalab keladi. Masalan: *kirip keldi – shıgıp ketti, baratır – kiyatır*. Bunda *kiriw – shıgıw, barıw – keliw* so'zlari o'z aro antonimik munosabatga kirisha-di. Masalan: Piyadası, arqalamayshısı sıymay atırğan dárwazanıń dál ortasında shıgıp kiyatırğan túye me-nen kirip baratırğan túyeniń sazağı berman súyrep, tar dárwazağa tıgın bolıp atır, *kirejaq kire almaydı, shı-gajaq shığa almaydı* (Sh.Seytov). Zubayda baslıq aytqan on minuttan ótkerińkirep esikten *kirip keldi*

(Sh.Seytov). –Onda oyanib ketpesten burin barayin! –dep, basliqtin xatin aldina tasladi da shayqatilib barip, esikten *shugup ketti* (Sh.Seytov). *Kel demek bar, ket demek joq* (Qoraqalpoq xalq maqollari).

Antonimik munosabatda bo'lgan qo'shma fe'llarning bir guruhi bosh kelishikdagi so'zlarga ko'makchi fe'llarning birikishidan hosil bo'ladi: *jek koriw – jaqsı koriw, umeit etiw – guder umeit* va h.k. Masalan: *Jan almaq ansat jan bermek qiyin ...* (Sh.Seytov). *Jaqsı korseme qayteyin!* –dep eki kózin jeñi menen sipirdi (Sh.Seytov). *Jek korgen* adamnin ózin sonshelli baspalatqanina tap usı máýlette bir jarılǵısh bomba bolmaǵanına qattı ókindi (Sh.Seytov).

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunoslikda fe'llardan yasalgan antonimiyada *-ma//me, -ba//be, -pa//pe* affiksleri yordamida antonimlar yasaladimi? kabi munozarali fikrlar ham yuzaga kelmoqda. Bizga ma'lumki, ushbu affikslar yordamida fe'ling bo'lishsiz shakllari yasaladi. Fe'ling bo'lishli va bo'lishsiz shakllari o'zaro antonim bo'la oladimi? Ayrim tilshunos olimlar ularni antonimlar emas desalar, ba'zilar antonimlarning alohida bir turi, deb hisoblashadi.

O'zbek tilshunosligida bu masalani R.Shukurov teran va har tomonlama tadqiq qilib, sifatdosh formasining bo'lishli va bo'lishsiz shakllarining antonim bo'la olishini tasdiqlaydi. Lekin aniqlik mayli shaklidagi bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar antonimik munosabatga kirisha olmasligini til faktlari yordamida ilmiy asoslab beradi. Biz ham R.Shukurovning fikrini to'liq tasdiqlaymiz. Haqiqatan, sifatdoshning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari o'zaro antonim bo'la oladi. Masalan: *oqıǵan – oqımaǵan, pıskın – pıspegen, kelıskın – kelıspegen*.

Sifatdoshlar bir tomondan sifat so'z turkumiga yaqin, sifat so'z turkumi kabi otga nisbatan aniqllovchi vazifasini bajarishi, ularning o'zaro antonimik munosabatlarga kirisha olishini ta'minlaydi. Ayniqsa, *-gan//gen* shaklidagi sifatdoshlarning antonim bo'la olishini qoraqalpoq tili faktlari to'liq tasdiqlaydi. Masalan: *Oqıǵan* ozar, *oqımaǵan* tozar (qoraqalpoq xalq maqoli). Bu misolda sifatdoshlar substantivatsiya hodisasiga uchragan va *oqıǵan* so'zi *bilimli*, savodli kabi so'zlar bilan, *oqımaǵan* so'zi *bilimsiz, savodsiz* kabi so'zlar bilan sinonimik aloqalarga kirisha oladi.

To'g'ri, fe'ling aniqlik maylidagi *keldi – kelmedi, ketti – ketpedi, jıladı – jılamadı* kabi so'zlar o'zaro antonimik munosabatga kirisha olmaydi, chunki bu so'zlarda faqat bitta harakat bo'lib, unga qarama-qarshi qo'yilishi mumkin bo'lgan harakat yo'q. Biroq sifatdoshning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari harakat orqali narsa-hodisalarning belgisini bildirib kelganda, ularda antonimik munosabat yuzaga keladi. Ular har xil o'zakli antonimlar kabi birinchi ma'nosida yoki barcha ma'nolarida bir-biriga zid antonimik munosabatlarni hosil qiladi. R.Shukurov bunga misol tariqasida *pıshgan-pıshmagan* sifatdoshlarini keltirib, bu so'zlarning barcha ma'nolarida antonim bo'la olishini o'zbek tili materiallari negizida asoslab bergan [3;14–15 b.].

Hozirgi qoraqalpoq tilida ham o'zbek tilidagi kabi, sifatdoshlar o'zaro antonimik munosabatlarga kirisha oladi. Masalan: *Pıskın* gerbishten salınǵan tırnaqlar unırap tılegen (T.Qayıpbergenov). *Kempir* ol awılǵa barsa jarma ele *pıspegen* eken (Qq.x.e.). Basında malaqay, uzın boylı, sın-sınbatı *kelıskın* jigit kirip keldi (A.Abdiyev). *Kelıspegen* isıńdı, bılamaq sındırar tısıńdı (Qoraqalpoq xalq maqoli).

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, fe'llar nutqda qo'llanishi jihatidan unumli so'z turkumi hisoblanadi. Antonimik munosabatdagi fe'llar ham fe'l so'z turkumining semantik guruhlarining katta qismini tashkil etadi. Qoraqalpoq tilida fe'llardan yasalgan antonimlarning yuqorida ko'rib o'tganimizdek turli ma'no xususiyatlarini ifodalay olishi ularning tilimizda faol ishlatiladigan birlik ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1965.
- (2). Мусин Ж. Антонимы в казахском языке. Автореф. дисс... канд.филол.наук, Алма-Ата, 1970.
- (3). Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. Тошкент, “Фан”, 1977.
- (4). Молонова Л. Антонимы в бурятском языке: лексико-грамматический аспект (в сопоставлении с антонимами русского языка). Автореф. дис. ...канд.фил.наук, Улан-Удэ, 2008.

Qodirova Xurshida Marselovna (Urganch davlat universiteti “O'zbek tilshunosligi” kafedrası dotsenti, PhD;
e-mail: xurshidamarselovna@gmail.com)

XORAZM ONOMASTLARINING LEKSIKOGRAFIK FAOLIYATI NATIJALARI VA DOLZARB VAZIFALAR

Annotatsiya. Maqolada Xorazm onomastlarining leksikografik faoliyati, ularning onomastik leksikografiyaga qo'shgan hissasi va ularning amaliy ahamiyati, bugungi kundagi Xorazmda onomastik leksikografiyasining ahvoli, natijalar, mavjud muammolar va galdagi vazifalar xususida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: *onomastika, onomastik leksikografiya, toponimika, toponimik leksikografiya, toponimik lugʻat, antroponim, laqab, taxallus, “Avesto”, dostonlar onomastikasi, kosmonim, fitonim, bibliionim.*

Кади́рова Хурши́да Марсе́ловна (доцент кафедры узбекского языкознания Ургенчского государственного университета, кандидат филологических наук)

РЕЗУЛЬТАТЫ ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ХОРЕЗМСКИХ ОНОМАСТОВ И АКТУАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ

Аннотация. В статье рассматривается лексикографическая деятельность хорезмских ономастиков, их вклад в узбекскую ономастику, результаты, проблемы и актуальные задачи.

Ключевые слова: *ономастика, ономастическая лексикография, топонимия, топонимическая лексикография, топонимический словарь, антропоним, прозвище, псевдоним, «Авеста», ономастика эпосов, космоним, фитоним, библионим.*

Kadirova Khurshida Marselovna (Associate Professor of the Department of Uzbek Linguistics, Urgench State University, PhD)

RESULTS OF LEXICOGRAPHIC ACTIVITY OF KHOREZM ONOMASTS AND CURRENT TASKS

Annotation. The article discusses the Uzbek lexicographic activity of Khorezm onomastists, their contribution to onomastic lexicography, results, problems and current tasks.

Keywords: *onomastics, onomastic lexicography, toponymy, toponymic lexicography, toponymic dictionary, anthroponym, nickname, pseudonym, “Avesta”, onomastics of epics, cosmonym, phytonym, biblionym.*

Kirish. Har qanday nom hudud tarixi bilan bogʻliq. Ular xalq hayotini, turmush tarzini, dunyo-qarashini koʻrsatadi. Vaqt oʻtishi bilan nomlarning aksariyati isteʼmoldan chiqib boradi, ularning oʻrniga zamonaviy, boshqa tillardan kirib kelgan nomlar qoʻllanila boshlaydi. Buni E.Begmatovning “Oʻzbek ismlari” kitobida keltirilgan *Toshon, Toshoxun, Toshoshar, Toshparda, Toshtan* [3;94-b.] kabi erkak ismlari, yoki *Bozoroy, Bozorxon, Bozorxol, Boisoy, Boybeka, Boygul, Bolli* [3;134-b.] kabi ayol ismlari misolida koʻrishimiz mumkin.

Tadqiqot usullari. Z.Doʻsimov va X.Egamovlar tomonidan 1977-yilda nashr qilingan “Joy nomlarining qisqacha izohli lugʻati”da oʻsha davr vaziyatidan kelib chiqqan holda, koʻplagan joy nomlarining izohlanganini koʻrish mumkin. Nomlar nihoyatda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir... Ular xalqimiz oʻtmishiga hurmat uygʻotadi, mehr-muhabbatni oshiradi, vatanparvarlik hissini mustahkamlaydi. Shu jihatdan oʻquvchilarda mazkur lugʻatga boʻlgan ehtiyoj katta ekanligini koʻramiz [1;5-b.] (ushbu lugʻatning qoraqalpoq tiliga tarjimasini 1991-yilda nashr qilingan).

Munozara va natijalar. Lugʻatning bugungi kunda ham toponimika sohasi boʻyicha izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar tomonidan asosiy adabiyot sifatida foydalanilayotgani uning qimmatini koʻrsatib beradi. Ammo ushbu lugʻat bugungi kun talablariga toʻla javob bermasligi, uni yangilash, qayta tahrirlash ehtiyoji mavjudligini ham inkor qilib boʻlmaydi.

Nomlarga berilgan izohlarning aksariyati mujmal shaklda yakunlangan. Buni “Shunday ekan, toponimni chuqurroq oʻrganish talab qilinadi” [1;137-b.], “shu nuqtayi nazardan, bu izoh haqiqatga ancha yaqindir” [1;32-b.]; “koʻpchilik tadqiqotchilar shu keyingi izohni maʼqul topadilar” [1;35-b.]; “...deb izohlaydilar” [1;33-, 39-b.]; “... kabi maʼnolarni beradi” [1;39-b.] kabi izohlarda koʻrishimiz mumkin. Lugʻat tuzganda keng yondashgan holda boshqa olimlar tomonidan berilgan fikrlarni keltirish ishning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi, ammo unda ham muallifning shaxsiy xulosasi boʻlmogʻi lozim.

Lugʻatda Oʻzbekiston hududiga oid 318 ta, Rossiya hududiga oid toponimlardan 142 ta, sobiq ittifoq tarkibiga kirgan hudud nomlaridan 190 ta nom izohlangan. Ushbu nomlarni izohlashda roʻyxatda keltirilgan 30 dan ortiq adabiyot va lugʻatlardan foydalanilgan boʻlib, turli olimlar tomonidan berilgan maʼlumotlar yigʻindisiga oʻxshab qolgan. Mualliflar tomonidan berilgan yakunlovchi xulosa, yoki fikr berilmagan:

Chalak – qishloq. Samarqand oblastining Poyariq rayonida. koʻpchilik toponimni chalak, yaʼni “paqir” deb tushunadi va chalak shaklida talaffuz qiladi. Aslida, soʻzning chelakka hech qanday aloqasi yoʻq. Toponim forscha chalak, yaʼni “yuqori, baland” degan soʻz bilan bogʻliqdir [1;144-b.].

Chermanyob – kanal. Xorazm oblastida. S.P.Tolstovning olib brogan tekshirishlariga koʻra, bu kanal atrofiga Xorazm tarixining yangi bosqichi boshlanadigan davriga mansub eng qadimgi shahar xarobalari topilgan [1;144-b.] kabilar.

Buni boshqa misollarda ham koʻrish mumkin. Mualliflar Bogʻot [1;32-b.], Gurlan [1;45–46-b.], Hazorasp [1;159–106-b.], Xorazm [1;142–143-b.], Urganch [1;137-b.] kabi oʻz yashash hududidagi joy nomlarini izohlash jarayonida ham shaxsiy fikrlarini aniq ifodalab, xulosa qilmaganliklarini koʻrish mumkin.

2010-yil Z.Do'simov va M.Tillayevalar tomonidan nashr qilingan "Xorazm onomastikasining shakllanishi va "Avesto" nomli monografiyada "Avesto"da keltirilgan atoqli otlar Xorazm vohasida mavjud nomlar bilan qiyoslab o'rganilgan bo'lib, kitob oxirida "Avesto"dagi atoqli otlar so'zligi berilgan [2;112-b.]. Unda 500 dan ortiq atoqli otlar keltirilgan va juda qisqa izohlangan:

Avparatot – afzallik va ilg'orlik ilohi.

Antar – Dahyu – tog' nomi.

Arnavak – Ajdahoning xotini. [2;98-b.]

Ushbu so'zlikni "Avesto"da keltirilgan atoqli otlar bo'yicha boshqa manba bo'lgani bois keltirib o'tish lozim deb bildik. Chunki muallif o'z tadqiqotidagi sharhlar asosida "Avesto"da mavjud onomastik birliklar lug'atini tuzishi mumkin.

Q.Ollayorov va V.Madiyorovalar tomonidan "Xorazm xalq dostonlaridagi atoqli otlar lug'ati" tayyorlangan bo'lib, u Xorazm regionida tarqalgan atoqli otlar to'g'risida nafaqat umumiy tasavvur berishi, balki ularni boshqa hududlarda tarqalgan nomlar bilan umumiy va farqli jihatlarini qiyoslashga ham imkon yaratadi. Xalq dostonlari tilida qo'llanilgan nomlarning ayrimlari badiiylashgan va arxaiklashgan ko'rinishga ega bo'lishidan tashqari, ko'pchiligi bugungi kunda ham o'z faolligini yo'qotmay kelayotgan nomlardir [5;88-b.]. Ushbu lug'atda Xorazm dostonlari tilida qo'llangan atoqli otlar qaysi dostonlardan olingani, sahifasi va misol bilan keltirilgan bo'lib, lug'at dostonlar onomastikasi bo'yicha tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilarga ko'rsatkich sifatida qo'shimcha yordamchi bo'lishi mumkin:

Abbos (O-2 "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, kishi nomi, 101-b.).

...Hazrat Ali, Abbas yohud Alg'iyos,

O'zingsan sirdoshim yo ibn Abbas... [5;5-b.]

Anqo (G-2 "Xiromon dali" dostoni, afsonaviy qush nomi, 382-b) ...Ul tangridir jismi yo'g'u zoti bor,

Anqo qushdir o'zi yo'g'u oti bor. [5;7-b.]

R.Y.Xudoyberganov, N.M.Uluqov, M.T.Mirakmalov, T.J.Enazarov, V.T.Nafasova, M.M.Avezov, Sh. Temirov, O.Bo'riyev, X.O.Bo'riyeva, O.Boltaboyev, Y.Ahmadaliyev, Q.Hakimov, Sh.Bekturdiyev, S. G'aybullayev, K.Seytniyazov, Y.Ne'matovlar tomonidan nashr qilingan "O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati" o'zbek onomastikasi, toponimik leksikografiyasi uchun ulkan qadam bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu lug'at muqaddimasida joy nomlari hududning o'tmishdagi tabiiy sharoiti, relyefi, o'simlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari haqida ham qimmatli ma'lumotlar berishi, etnotoponimlar tarkibida ishtirok etgan etnonimlar orqali ma'lum bir hududda qaysi qabila, urug' vakillari yashaganligi, ularning turmush tarzi haqida ma'lumotga ega bo'lishi, toponimlarning ma'nosini bilib olish orqali muayyan hudud haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lish uchun toponimik tadqiqotlar olib borish va joy nomlari lug'atini tuzish lozimligi, bugungi kunda bunday lug'atlarga ehtiyoj nihoyatda katta ekanligi N. Mahmudov va A.Primovlar tomonidan ta'kidlangan bo'lib [6;3-b.], ushbu ehtiyojni onomastikaning boshqa sohalariga nisbatan ham aytish mumkin.

Lug'atda keltirilgan nomlar quyidagi ko'rinishda izohlangan: Abdurayimbovlon – Urgut tumanidagi Yangiariq kanalining o'ng qirg'og'idan chiqarilgan ariq. Abdurahim (ism) va "bovlon, bog'lon" (ming urug'i tarmoqlaridan biri) so'zlaridan yasalgan antropogidronim [6;12-b.].

Angarik – mahalla. Xorazm viloyati Xiva shahri. Xorazm shevasiga xos bo'lgan "ang" so'zi "eng" so'zining dialektal shakli bo'lsa, mazkur shevaga xos yana bir so'z arikdir. U o'rik so'zining dialektal variantidir. Angarik yerlari juda hosildor, o'rik va uzumlar ko'p va ertapishar bo'lgani uchun shevada ang (eng, old), arik (o'rik) "ang-arik" – ertapishar o'rik ma'nosida Angarik deb nom berganlar. "Angur-nek" forsiyda "anguri" so'zi uzum degani, "nek" so'zi shirin (yaxshi) degan shu ikki so'z qo'shilib, "shirin uzum" Xiva shevasida "angarik" so'zi bo'lib aytilib kelingan [6;19–20-b.].

Lug'at R.Xudoyberganovning toponimik leksikografiyaga oid tadqiqot ishlarini boshlash uchun turtki bo'lganini, ushbu lug'at va lug'atchilik haqida muallif tomonidan endi nashr qilinadigan maqolalar orqali tanishib borishimiz mumkin.

Onomastikaning yirik ko'lamlaridan biri antroponimlar bo'lib, antroponimik birliklarga ism, familiya, otaism, laqab, taxallus kabilarni kiritamiz. Biz tadqiqotimiz doirasida Xorazm shevalariga xos laqablarni tadqiq qildik. So'rash yo'li bilan to'plangan laqablar soni qariyb uch mingtadan, fonetik variantlari bilan sanaganda besh mingdan ortiqni tashkil etdi. Biz Xorazm shevalarda mavjud so'zlarning tarixiy-lingvistik ahamiyatini nazarda tutib, lug'at tuzishga kirishdik va u laqablar bo'yicha tuzilgan ilk lug'at edi [4; 148-b.].

“Xorazm viloyati o‘zbek shevalaridagi laqablarning izohli lug‘ati”ini to‘ldirib borish, keyinchalik, Xorazm shevalariga xos ismlar, taxalluslar, so‘ngra to‘liq antroponimlar lug‘atini yaratishni maqsad qilib oldik.

Lug‘atga Xorazm shevalariga xos laqablar kiritilgan bo‘lib, ular adabiy tildan fonetik yoki leksik jihatdan farqlanadi, qo‘shma so‘zlar va so‘z birikmasi, qisqartma shaklidagi laqablar berilgan. Lug‘atda keltirilgan laqablarning olingan manbasi va hududini mazkur so‘z va uning izohidan keyin berib, lug‘at so‘ngida axborotchilar haqida ma‘lumot keltirilgan. Laqablar quyidagi shaklda izohlangan:

Xorazm onomastlarining leksikografik faoliyatiga shularnigina misol qilib keltirishimiz mumkin. Mavjud tadqiqotlarga asoslansak, “Avesto” onomastikasi, kosmonimlar, fitonimlar, bibliionimlar, urbanonimlar, Ogahiyning tarixiy asarlari tiliga xos onomastik birliklar lug‘ati yaratilsa, ushbu tadqiqotlarning amalda qo‘llanishigina o‘quvchilarga ko‘proq foyda keltirishi mumkin.

Hozirgi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlar asosida shakllangan onomastik birliklarning ma‘lum bir shaklda tartibga solingan ilovalari mavjud, ammo ular hamon mualliflar tomonidan nashr qilinmagani, bugunga qadar Xorazm onomastlari tomonidan mukammal lug‘at nashr qilinmagani soha lug‘atshunosligining oqsayotganligini ham ko‘rsatib beradi.

Xorazmning qadimiy obidalari, ziyoratgoh-qadamjolar, mashhur bino-inshoot nomlari, masjid-madrasalar, sayyohlar uchun mo‘ljallangan mashhur nomlar lug‘ati, Xorazm adabiy muhiti vakillarining taxalluslari va ularning asarlariga xos onomastik birliklar lug‘atiga ehtiyoj bor. Chunki har bir nom o‘zida xalqning lingvokulturalogik, sotsiolingvistik, psixolingvistik, ertnolingvistik xususiyatlarini to‘laligicha aks ettiradi.

Toponimika tizimida mavjud muammolarni ko‘rsatuvchi bitta misol keltirsak. Bugungi kunda yo‘lovchilarning aksariyati murojaat qiladigan lokatsiya tizimidagi imloviy xatolar, joy nomlari berilishidagi chalkashliklar, joy nomi asosida izlashning, odatda, besamarligi, ko‘p holatlarda mashhur ovqatlanish shoxobchalari, supermarket yoki boshqa nomdor idora-tashkilotlar nomi asosida izlashga to‘g‘ri kelishining o‘zi ham hudud toponimiyasiga oid muammolarning to‘la hal qilinmaganini ko‘rsatib beradi. Chunki iste‘molchi mahalla va boshqa joy nomlarini bilmaydi. Bu esa bugungi kunda Xorazm viloyatidagi rasmiy va norasmiy joy nomlarini o‘rganish ehtiyoji mavjudligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Onomastik lug‘atlarning aniq tuzilishi, metodikasi hamon ishlanmagan. Lug‘at yaratishda faqat onomastika bo‘yicha mutaxassis bo‘lishning o‘zi yetarlimasligi, lug‘at yaratishda etnolingvistika, lingvokultirologiyadan va felektiv tillarga xos so‘zliklardan xabardor bo‘lish lozim, bu esa mualliflar jamoasini shakllantirish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Shundagina mukammal shakldagi lug‘atni yaratish mumkin. Ushbu belgilangan vazifalarni bajarishda onomastikaga oid tadqiqot olib borayotgan olimlar jamoaning fikri va takliflariga, birgalikda amalga oshiradigan vazifalariga tayaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1977.
- (2). Дўсимов З., Тиллаева М. Хоразм ономастикасининг шаклланиши ва “Авесто”. Тошкент, “Фан”, 2010.
- (3). Бегматов Э. Ўзбек исмлари. Тошкент, Қомуслар бош таҳририяти, 1991.
- (4). Qodirova X. Xorazm viloyati o‘zbek shevalaridagi laqablarning izohli lug‘ati. Xorazm, Khwarezm publication, 2024, 148-bet.
- (5). Ollayorov Q., Madiyoro V. Xorazm xalq dostonlaridagi atoqli otlar lug‘ati. Toshkent, “Adabiyot uchqunlari”, 2017.
- (6). O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Tuzuvchilar: R.Y.Xudoyberganov va boshqalar. Toshkent, “Donishmand ziyosi”, 2022.

Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi;

e-mail: njorayeva461@gmail.com)

“SMILE/TABASSUM” TUSHUNCHALARINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA JINS VA YOSH OMILLARI ASOSIDA IFODALANISHINING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi “smile/tabassum” tushunchalarining yosh va jins kabi xususiyatlarni hisobga olgan holda til orqali qanday ifodalanishi tahlilga tortilgan. Tabassumning rasmiy va norasmiy kontekstlardagi verbal ifodalarini taqqoslab, tadqiqot leksik, semantik hamda pragmatik farqlarni yoritishga, shu bilan birga, bu farqlarni sotsiolingvistik va madaniy omillar ta‘sirida yuz berganligini o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: hissiy tushuncha, hissiy ifoda, smile, tabassum, jins, yosh.

Жураева Нилуфар Собиржон кизи (преподаватель Термезского государственного педагогического института; e-mail: njoraveva461@gmail.com)

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ КОНЦЕПТОВ “SMILE/TABASSUM” В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ С УЧЁТОМ ГЕНДЕРНОГО И ВОЗРАСТНОГО ФАКТОРОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается вербальное выражение концептов “smile/tabassum” в английском и узбекском языках с учётом таких характеристик, как возраст и пол. Путём сопоставления вербальных проявлений улыбки в формальных и неформальных контекстах, исследование направлено на выявление лексических, семантических и прагматических различий, а также на изучение влияния социолингвистических и культурных факторов на эти различия.

Ключевые слова: эмоциональное понятие, эмоциональное выражение, smile, tabassum, пол, возраст.

Jurayeva Nilufar Sobirjon kizi (Teacher at Termez state pedagogical institute; e-mail: njoraveva461@gmail.com)

A LINGUISTIC ANALYSIS OF THE REPRESENTATION OF THE CONCEPTS “SMILE/TABASSUM” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES BASED ON GENDER AND AGE FACTORS

Annotation. This article analyzes the verbal expression of the concepts “smile/tabassum” in English and Uzbek languages, taking into account gender and age-related characteristics. By comparing the verbal representations of smiles in formal and informal contexts, the study aims to reveal lexical, semantic, and pragmatic differences, as well as to explore how these differences are influenced by sociolinguistic and cultural factors.

Keywords: emotional concept, emotional expression, smile, tabassum, gender, age.

Kirish (Introduction). Tabassum – bu quvonch, do‘stlik va ajoyib his-tuyg‘ularning universal yuz ifodasi hisoblanib, biroq bu ifoda turli tillar va madaniyatlarda farq qilishi mumkin. Ingliz tilida “smile” so‘zi odatda “yuzdagi quvonchli yoki do‘stona munosabat bo‘lib, bunda og‘izning chetlari biroz yuqoriga ko‘tariladi, ko‘pincha, lablar ochilib, tishlar ko‘rinishi” deya ta‘rif berilgan [6;1660-b.]. O‘zbek tilida asosiy atama “tabassum” hisoblanib, “jilmayish, kulimsirash, shunday holat ifodasi” deb ta‘rif berilganiga guvov bo‘lamiz [7;625-b.].

Til madaniyat va ijtimoiy me‘yorlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir xil ishora turli madaniyat sharoitlarida turlicha ifodalanishi mumkin. Xususan, ingliz tili so‘zlashuvchilar madaniyatida tabassum ya‘ni smile, ko‘pincha, odoblilik va yaqinlashuvchanlik ifodasi hisoblanda, o‘zbek madaniyatida yanada chegaralangan, nazoratli, kamtarinlik kabi xususiyatlarga ega ifoda sanaladi [1]. Bu kabi madaniy qarashlardagi tafovutlar tabassumning chastotasiga emas, balki tabassum harakati haqida gapirishlariga ham ta‘sir qiladi. Masalan, ingliz tilida so‘zlashuvchilar, ko‘pincha, kimningdir “smiling” (kulayotgan) holatini ijobiy xislat sifatida tilga olsalar, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar madaniyatida tabassum haqida gapirishni ko‘proq mazmunli lahzalarga yoki rasmiy vaziyatlarga saqlab qo‘yiladi. Muhimi shundaki, jins va yosh omillari bu tendensiyalarga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Sotsiolingvistik tadqiqotlarga ko‘ra, ayollar va erkaklar tabassum harakatidan foydalanish va talqin etishda farq qilishi mumkin. Shuningdek, bolalar, yoshlar, kattalar va qariyalar o‘rtasida ham tabassumga bo‘lgan munosabatda turli me‘yorlar mavjud. Masalan, bolalar erkin tabassum qilish xususiyatiga ega bo‘lsa, kattalar hamda qariyalar ijtimoiy me‘yorlar ta‘sirida kamroq jilmayishlari mumkin. Bu farqlar shunchaki yuz ifodasi darajasida emas, balki tabassumning tilda qanday ifodalanishi orqali ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Til orqali ifodalanadigan hissiyotlar va yuz ifodalari turli tillarda turlicha fanlar doirasida keng qamrovli tadqiqotlar obyekti sifatida qarala boshladi. Tabassum–noverbal muloqot shakli sifatida psixologiyada, masalan, Pol Ekmmanning universal yuz ifodalari haqidagi ishlarini, madaniyatlaroaro muloqot sohasini ham misol qilib keltirish mumkin. Ekman va Friesenning universal hissiyotlar haqidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tabassum baxt kabi asosiy yuz ifodalari sifatida turli madaniyatlarda baxt hamda do‘stlik belgisi deb qaraladi [2]. Anna Verbitskaya ilgari surgan madaniy skriptlar konsepsiyasiga ko‘ra, har bir madaniyat tilga singib ketgan me‘yorlarga ega bo‘lib, ular hissiyotlar qanday ifodalanishi haqida darak beradi [9].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqot qiyosiy tilshunoslik yondashuviga asoslanib, ingliz va o‘zbek tillarida “smile/tabassum” tushunchalarining jins va yosh omillari nuq-

tayi nazaridan verbal ifodalanishini o'rganadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatli tahlil (qualitative analysis) va sotsiolingvistik izlanishlarga tayangan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Madaniyatlararo pragmatikaning muhim xulosalaridan biri shundan iboratki, g'arb madaniyatlarida, asosan, ingliz tilida so'zlashuvchilar madaniyatida tabassum, ko'pincha, odob va ijtimoiy munosabatlarning andozasi sifatida qoraladi. Ingliz madaniyatida, odatda, tabassum do'stona hamda ochiqko'ngillik belgisi sifatida talqin qilinib, tilda ko'plab iboralar va maqollar mavjud. Masalan, "*put a smile on someone's face*" (xursand qilmoq), "*a smile is worth a thousand words*" (Bir tabassum mingta so'z o'rnini bosadi) kabilar. Bundan ko'rinib turibdiki, tabassum ijtimoiy masofani qisqartirish, iliqlik va birdamlikni namoyon qilish uchun muhim hissiy vosita sanaladi. Bunga qarama-qarshi ravishda, ayrim boshqa madaniyatlarda doimiy tabassum qilish yuzaki yoki noo'rin hol sifatida qabul qilinishi mumkin. Masalan, Kovner va Vaysmenning Sharqiy Osiyo kontekslari bo'yicha tadqiqotlariga ko'ra, ushbu hududlarda insonlar tez-tez tabassum qilishni ba'zida xursandchilik emas, balki uyat hamda kamtarlik kabi tuyg'ularni ham anglatishi mumkin [4;28-b.].

Markaziy Osiyo va islomiy qadriyatlarining uyg'unlashgan ta'siri ostida shakllangan O'zbek madaniyatida tabassum ingliz madaniyatidan biroz farli ravishda ehtiyoqkorroq, nazokatliroq yuz ifodasi sifatida o'rin egallaydi. Shu bilan birga, samimiylik hamda mehr-shafqat niyatlarini anglatish hamda, ko'pincha, hurmat va ehtirom bilan bog'liq bo'lgan kontekstlarda ishlatishi ham diqqatga sazovor. Ingliz tilida so'zlashuvchilar madaniyatida tabassumdan farqli o'laroq, o'zbek madaniyatida har qanday tasodifiy muloqotda majburiy tabassum qilish odat tusiga kirmagan; masalan, kishi begonalar yoki o'zidan yuqori mavqedagi kishilar bilan suhbatda betaraf ifoda bilan qolishi hamda tabassumni faqat munosib vaziyatlarda namoyon qilishi mumkin, bu esa jamoat muomalasida kamtarlik va jiddiylik kabi mezonlarni aks ettiradi.

Sotsiolingvistik tadqiqotlar uzoq yillardan beri erkaklar va ayollarning tilni qanday farqli usullarda qo'llashini, shu jumladan, ularning hissiyotlarni qanday ifodalashi yoki tasvirlashi ustida tadqiqotolib borishmoqda [8;51-b.]. Ayniqsa, Amerika va G'arbiy jamiyatlar kontekstida doimiy kuzatilib kelinadigan holatlardan biri bu ijtimoiy muloqotlarda ayollar erkaklarga qaraganda ko'proq tabassum yuz ifodasini qo'llashidir. Bu farq nafaqat xatti-harakatda, balki odamlarning tabassum haqida qanday gapirishlarida ham aks etmasdan qolmaydi. Masalan, LaFrance, Hecht va Paluk tomonidan olib borilgan 186 ta tadqiqot asosida tayyorlangan metatahlil shuni ko'rsatdiki, ayollar o'rtacha hisobda erkaklarga qaraganda ko'proq tabassumni ifoda etishadi [5;13-b.]. Biroq bu farqning darajasi vaziyat va madaniyatga qarab o'zgarishi mumkin. Bu xatti-harakatdagi tafovut ijtimoiy sabablar bilan izohlanadi: ko'plab ayollar tabassum qilishni samimiylikni namoyish etish yoki mehribon ko'rinish uchun amalga oshirishlarini aytib o'tishgan bo'lsa, erkaklar esa o'zini nazorat qiluvchi yoki hukmronroq ko'rinish uchun ko'proq betaraf yoki cheklangan yuz ifodalaridan foydalanishga moyil bo'lishadi.

O'zbek jamiyatida ayollar va erkaklarning tabassum qilish holatlari o'rtasida sezilarli sotsiokulturologik tafovutlar mavjud, bu holat madaniy qadriyatlar, ijtimoiy rollar va jinsga nisbatan mavjud kutishlar bilan chambarchas bog'liq. O'zbek ayollarining tabassum yuz ifodasi, ko'pincha, odob-axloq, muloyimlik va kamtarlikning ifodasi deb qoraladi [3;26-b.]. Ayniqsa, katta yoshdagi yoki an'anaviy muhitda tarbiya topgan ayollar jamoat joylarida o'zini kamtar tutishga intilishib, shu bilan birga, ayollarning tabassum qilishi ijtimoiy muloqotda (mehmon kutish, to'ylar, bayramlar yoki kundalik suhbatlar) iliqlik va ochiqlik belgisi bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi ikki madaniyatdagi tendensiyalar insonlarning tillariga ham singib ketgan. Adabiyot va shunga o'xshash badiiy janrlarda ayol personajlar tabassum bilan tasvirlanadi, bu ularning iliqlik hamda mehribonlik xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilida "I was as close as that – and he smiled, just this way – and then something seemed to go all over me, like – awful, you know – and I never thought what it meant, of course, but I can see now" (Mark Tven, "The adventures of Tam Sawyer"), o'zbek tilida "Saodatning qora ko'zlari meni ishqmusobaqasiga chaqirganday, yarim tabassumda turgan lablari menga allanimlar deganday bo'lar edi" (G'afur G'ulom. "Shum bola"). Erkak personajlar esa tabassum bilan kamroq tavsiflanadi yoki bu faqat muayyan holatlarda (masalan, chin dildan xursand bo'lganda yoki aksincha, reja tuzayotganda – "zimdan jilmayib") kabi tasvirlashlar uchraydi. Bundan tashqari, jinsga xos kollokatsiyalar ikki tilda ham mavjud: "*bright smile*", "*yoqimli tabassum*" kabi iboralar, odatda, ayollar bilan bog'lanadi, holbuki, "*grin*" (katta kulgi) yoki "*smirk*" (mulozimliksiz jilmayish), "*irjaymoq*", "*tirjaymoq*" kabi so'zlar erkaklarga nisbatan ko'proq qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz [7;109-b.].

Yosh va tabassum. Yosh faktori ham muloqotdagi xatti-harakatlarga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biridir. Bolalar va kattalar nafaqat tabassum qilish intensivligi, balki ularning tabassumining qanday qabul qilinishi bo'yicha ham sezilarli farq qiladi. Rivojlanish psixologiyasi sohasidagi kuzatuvlar shuni ko'rsata-

diki, bolalar katta yoshlilarga qaraganda ancha ko'proq tabassum qilishadi va kulishadi. Mashhur statistik ma'lumotga ko'ra, bir kunda o'rtacha bola 300–400 martagacha kuladi yoki tabassum qiladi, holbuki, kattalarda bu raqam atigi 20–50 marotabani deb qayd etiladi. Raqamlar biroz farq qilishi mumkin bo'lsa-da, yondashuvlar ravshan: bolalar quvonchni bemalol va cheklovsiz ifodalaydilar, kattalar esa jamiyat qoidalari, hissiy nazorat yoki mas'uliyat yukining ortishi tufayli yuz ifodalarini ifoda etishda bir qancha cheklovlar qo'yishadi.

Tilga nazar tashlasak, bu farq, ko'pincha, “bolaning beg'ubor tabassumi” kabi iboralarda aks etadi – bunday ifoda poklik va ichki quvonchning cheklovsiz ifodasini uyg'otadi. Adabiyotda va kundalik nutqda bolalarning “*the innocent smile of a child*” “beg'am tabassumi” yoki “yoshlikka xos jilmayish” kattalarning ancha sokin, mulohazali tabassumlari bilan qiyoslanadi. Qariyalar esa, odatda, “donolik ifodasi” yoki “muloym tabassum” bilan tavsiflanadi, ammo bu holat kam uchraydi. Masalan, “*After a long stern lecture, the grandfather finally smiled a little*”, “*Uzoq jiddiy nasihatdan so'ng, boboning yuzi bir oz tabassumga to'ldi*” kabi jumlar qariyaning, odatda, jiddiy ko'rinishiga nisbatan yuz bergan o'zgarishni ta'kidlaydi.

O'zbek madaniyatida esa bu holat yanada aniqroq ko'zga tashlanadi. Bolalardan xushchaqchaqlik va ochiq tabassum kutilsa, yoshi ulug' insonlar ko'proq sokin va vazmin yuz ifodasini saqlashadi. O'zbek tilida yoshi katta kishining jilmayishini “*tabassum qilmoq*” deb ifodalash odatiy hol bo'lib, bu keng kulgu emas, balki odobli, yumshoq va nazokatli tabassumni ifodalaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek madaniyatida yoshi ulug' insonlarning hurmatli va vazmin ko'rinishda bo'lishi kerakligi haqidagi ijtimoiy kuttishlarga mos keladi [7;19-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida tabassum deyarli hamma joyda uchraydigan ijobiylik belgisi sifatida talqin qilindi (ko'plab hosila so'zlar va frazeologik birliklar bilan), o'zbek tilida esa tabassum biroz ehtiyotkorlik bilan, nozik ma'noli til birliklari orqali ifodalanadi. Jinsiy rollar va yosh guruhlari bu yondashuvlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi: ayollar va yoshlar, odatda, ko'proq va ifodali tabassumlar bilan bog'lanadi, erkaklar va yoshi katta insonlar esa kamroq tabassum qilishadi yoki tabassumni muayyan holatlarda, aniq belgilangan vaziyatlarda namoyon qilishadi, bu holatlar ularning tabassumlari qanday tasvirlanishida ham aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Brown, P., Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge, Cambridge University Press, 1987, 345 p.
- (2). Ekman, P., Friesen, W. Unmasking the Face: A Guide to Recognizing Emotions from Facial Clues. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1975, 212 p.
- (3). Juraeva, N. A Comparative Linguistic Analysis of the Concepts of “Smile” and “Tabassum” in English and Uzbek // European Journal of Interdisciplinary Research and Development. 2024, № 34, p. 26–28.
- (4). Kowner, R., Wiseman, R. The face in emotion recognition. The impact of culture and context on smiling interpretations. Journal of Nonverbal Behavior. 2003, Vol. 27, № 2, p. 125–130.
- (5). LaFrance, M., Hecht, M.A., Paluck, E.L. The contingent smile: A meta-analysis of sex differences in smiling. Psychological Bulletin. 2003, Vol. 129, № 2, p. 305–334.
- (6). Longman Dictionary of Contemporary English. 6th ed. Harlow. Pearson Education Limited, 2014, 2081 p.
- (7). O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev (tahrir). Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 625 bet.
- (8). Patti Wood. Gender Differences in Smiling. Body Language Expert Articles. 2011.
- (9). Wierzbicka, A. Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. Cambridge, Cambridge University Press, 1999, 328 p.

Karimova Munisa Yaxyoyevna (Samarqand davlat Chet tillar instituti “Ingliz tili grammatikasi va tarixi” kafedrası doktoranti),

Imamov Navruz Pattaqulovich (Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti “Tillarni o'qitish” kafedrası katta o'qituvchisi; e-mail: nimamov86@gmail.com)

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FE'LNING CHEGARALANMAGANLIK XUSUSIYATI VA HARAKAT TARZI QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada fe'lning chegaralanganlik xususiyatlari turli tillar misolida qiyosiy-nazariy tahlil qilinib, ularning morfologik va sintaktik kontekstda namoyon bo'lishi yoritiladi. O'zbek tilida harakat tarzi yetakchi va ko'makchi fe'llar orqali ifodalanib, inxoativlik, intensivlik kabi semantik omillarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: chegaralanganlik, chegaralanmaganlik, leksik-semantik xususiyatlar, aspektual belgi, harakat tarzi, yetakchi fe'l, ko'makchi fe'l, inchoativlik, intensivlik, jarayon boshlanishi, qiyosiy tahlil.

Каримова Муниса Яхёевна (докторант кафедры «Грамматика и история английского языка» Самаркандского государственного института иностранных языков),

Имамов Навруз Паттакулович (старший преподаватель кафедры «Преподавание языков» Самаркандского института экономики и сервиса)

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ХАРАКТЕРИСТИКИ НЕОГРАНИЧЕННОСТИ ГЛАГОЛА И СПОСОБА ДЕЙСТВИЯ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В статье сравниваются и теоретически анализируются конечности глагола на примере разных языков, а также выделяется их проявление в морфологическом и синтаксическом контексте. В узбекском языке образ действия выражается через ведущие и вспомогательные глаголы и включает такие семантические факторы, как инchoативность и интенсивность.

Ключевые слова: ограниченность, неограниченность, лексико-семантические характеристики, аспектуальный признак, способ действия, ведущий глагол, вспомогательный глагол, инchoативность, интенсивность, начало процесса, сравнительный анализ.

Karimova Munisa Yakhyoevna (Doctoral student at the Department of "English Grammar and History" of Samarkand State Institute of Foreign Languages),

Imamov Navruz Pattakulovich (Senior Lecturer at the Department of "Language Teaching" of Samarkand Institute of Economics and Service)

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE UNLIMITEDNESS OF VERBS AND MANNER OF ACTION IN UZBEK AND ENGLISH

Annotation. The article provides a comparative theoretical analysis of the features of verb delimitation in different languages, highlighting their manifestation in morphological and syntactic contexts. In the Uzbek language, the mode of action is expressed through leading and auxiliary verbs and includes semantic factors such as inchoativeness and intensity.

Key words: perfectiv, imperfectiv, lexical-semantic features, aspectual feature, manner of action, main verb, auxiliary verb, inchoativity, intensity, beginning of the process, comparative analysis.

Kirish. Tilshunoslikda inchoativlik–harakatning boshlanishi tushunchasi hisoblanadi. Lingvistika sohasidagi adabiyotlarda "inchoativ fe'llar" atamasi holatning boshlanishi, uning o'zgarishi yoki bir holatdan boshqasiga o'tishini ifodalovchi fe'llarni belgilash uchun keng qo'llaniladi. Ushbu grammatik hodisa til taraqqiyotining turli bosqichlarida bir holatdan ikkinchisiga o'tish jarayonini aks ettirgani sababli, til birliklarining ushbu jarayonga munosabatini ajratib ko'rsatish va uni semantik jihatdan tahlil qilish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O.Axmanovanning lug'atida "inchoativ" atamasi fe'llarning semantik jihati bilan bog'liqligi haqida ham ma'lumot berilgan. Bir holatdan boshqasiga o'tish jarayonini anglashi inchoativlik hodisasining muhim belgilaridan biri sanaladi. Uning mazmunini aniqroq tushunish va boshqa tushunchalardan farqlash uchun esa harakat tushunchasi bilan taqqoslash lozim. Holat tushunchasi esa, odatda, jismoniy, ruhiy, kayfiyat va aqliy holat kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi.

Fe'lning chegaralanmaganlik xususiyati borasida A.Bandarko harakat kechimida chegaraning yo'qligi bo'lib, harakat tarzining umumiy xususiyati sanaladi va tugallanmagan tusga bog'liq [A.Bandarko. 1983;29 c.], degan ta'rifni beradi. Chegaralanganlik, birinchi navbatda, fe'lning leksik ma'nosiga bog'liq bo'lib, harakatning tugallanish yoki boshlanish nuqtasi mavjud bo'ladi. Qayd etilgan ta'rif ko'proq rus tiliga xos hodisa sanaladi. Ammo, yuqorida qayd etganimizdek, fe'lning chegaralanganlik, chegaralanmaganlik turlarga ajratish universal hodisa hisoblanadi [2].

Muhokama. Harakat tarzi fe'lning sintaktik xususiyati sifatida qaraladi. Shu sabab ushbu kategoriya turli tillarda turlicha shaklga ega bo'lishi mumkin. Bu esa harakat tarzi tasnifini amalga oshirishda tadqiq etilayotgan tilning ichki xususiyati, morfologiyasi, sintaktik tuzilishi, shu bilan birga, fe'llarning leksik ma'nosi boshqa so'z turkumlari bilan modifikatsiyalanish xususiyatlarini ham e'tiborga olish zarur sanaladi. Misol uchun, o'zbek tilidagi *yurish* harakati fe'l sistemasida "*borib kelmoq*" birikmasi mavjud. Mazkur birikma o'ziga xos qarama-qarshi yo'nalishdagi harakatni anglatadi. Lekin ko'plab o'zbek tili grammatikachilarida ushbu birlikma yetakchi ko'makchi fe'l birikmasi tarzida baholanadi. Ammo e'tibor qaratadigan bo'lsak, ikkala fe'l ham o'z leksik shaklini saqlaydi, shu bilan birga, *-ib* shakli orqali birikib, analitik birikma hosil qiladi. Ba'zi hollarda ichki turdagi harakat tarzini birlashishini kuzatish mumkin. Bu hodisa o'zbek tili yetakchi fe'llarini leksik ma'nosini saqlashi bilan bog'liq. Bunda ko'makchi fe'l qo'shimcha semantika beradi. Misol uchun, *buzila boshlamoq, chiriy boshlamoq, sapchib ketmoq* birikmalarida inchoativlik (holat o'zgarishi)+harakat boshlanishi yuzaga kelgan. Masalan: *Yaqin orada ot kishnadi. Dildor sapchib o'rnidan*

turib, bo'y cho'zib u yoq-bu yoqqa qaradi. Do'ngning narigi tomonida ot jilovini ushlagancha Xolmatjon cho'nqayib o'tirar, yerga qamchi bilan nimalamidir chizard (Said Ahmad. Ufq. 556-b.).

Yetakchi fe'l vazifasidagi *buzilmoq*, *chirimoq* fe'llari chegaralangan xususiyatga ega. Buzilish yoki chirish o'z yakuniy nuqtasiga ega bo'lsa-da, ko'makchi fe'l (*boshla*) qo'shilishi ushbu jarayonning boshlanishini ko'rsatib kelgan. Inxoativlik harakat tarzi ko'pgina vaziyatlarda fe'lning leksik ma'nosidagi harakatni ingressiv va regressiv mazmuniga asoslanadi. Ingliz tilida mazkur turga to destroy, to build, to dry va hokazo. O'zbek tilida ham shu kabi semantikaga ega bo'lgan *yeg'moq*, *buzmoq*, *quritmoq*, *qizdirmoq* kabi-larni inxotiv semantikali fe'llar tarkibiga kiritish mumkin. Qiyoslanayotgan tillarda inxoativ harakat tarzi shakllarda yasaladigan holatlarni ham uchratish mumkin. Ingliz tilida to get, to turn kabi yordamchi fe'l birikmalarida inxoativ semantika ifodalanadi [3]. Masalan: *to get old*, *to get red*, *to turn pole* va hokazo. O'zbek tilida esa *ketmoq*, *tashlamoq* kabi ko'makchi fe'llarning ushbu semantikani yetakchi fe'llar bilan birikishda yuzaga keltiradi. Masalan: "*As the years went by, he found himself getting old, the youthful vigor fading into distant memory*" (F.S.Fitzgerald. "The Curious Case of Benjamin Button"). "*She turned pale as she read the news, her hands trembling*" (J.Ostinning. "G'urur va xurofot" (Pride and Prejudice).

Masalan: *qizib ketmoq*, *sindirib tashlamoq* va hokazo. O'zbek tilida mazkur hodisa morfologik-grammatik va leksik ma'nolarining mos kelishi sababli hosil bo'ladi. Inxoativlikning yana bir turi yetakchi fe'lning murakkab leksik ma'nosi va ko'makchi fe'llardagi intensivlik semantikasini yordamida boshlanishi+intensivlik, kuchaytirish+boshlanish kabi mahnolarni hosil qiladi. Masalan: *yig'lab yubormoq*, *sapchib ketmoq*, *gumbirlab ketmoq* va hokazo. *Hovlining jimjitiigi, Asrora bilan Xolmatjonning qandaydir tashvish bilan turganlarini ko'rishi bilan ho'ngrab yig'lab yubordi*. – Yetib kelolmadimmi? Dildorim (Said Ahmad. Ufq. 550-b.). *Bu ovozni kimsasiz jarliklar yutib yuboradi. Shahardan chiqqan ovchilaming onda-sonda o'r-dak galasiga otgan o'qlari hamma yoqni gumbirlatib jim bo'ladi* (Said Ahmad. Ufq. 46-b.).

Natijalar. O'zbek tilida fe'llarning chegaralanganlik, chegaralanmaganlik xususiyatlar yetakchi va ko'makchi fe'l birikmasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'makchi fe'lning chegaralanmaganlik talqini yetakchi fe'lning leksik ma'nosiga qarab aspektual semantikaga o'zgaradi. Masalan: *yurmoq* fe'li chegaralanmagan xususiyatga ega. Ushbu fe'l ko'makchi fe'l vazifasida kelganda harakatning davomiyligini anglatadi. Bu holat, asosan, yetakchi fe'l ham chegaralanmagan xususiyatga ega bo'lganda kuzatiladi. Masalan: *o'ynab yurmoq*, *o'qib yurmoq*. Ammo harakat usulini bildirgan vaziyatlarda *yurmoq* o'z leksik ma'nosini saqlaydi va ko'makchi fe'llik xususiyatini yo'qotadi. Masalan: *gandiraklab yurmoq*. "Yurmoq" fe'li ko'makchi fe'l vazifasida chegaralangan xususiyatni barcha fe'llar vazifasida chegaralangan xususiyatni barcha bilan ham birikavermaydi. Masalan: *Birdan zardasi qaynab, birov bilan urishgisi kelaverdi. G'ay-rati qo'zg'ab uyga qarab chopdi. U borib akasining yoqasidan bo'g'ib olmoqchi, uni to qo'li og'riguncha do'pposlamog'chi. Gandiraklay-gandiraklay uyga kirib bordi-yu, supaga yetmay yiqildi* (Said Ahmad. Ufq. 25-b.). Bu hol, yuqorida keltirib o'tganimizdek, yetakchi fe'lning leksik ma'nosi bilan mutanosib bo'lishiga bog'liq. Masalan: *kulib yurmoq*, *sevinib yurmoq*. Ushbu birikmalar davomiylikni bildiradi.

Fe'lning chegaralanganlik va chegaralanmaganlik xususiyatlari universal hodisa bo'lib, turli tillarda har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada fe'llarning ushbu xususiyatlari o'zbek va ingliz tillari misolida tahlil qilindi. Tadqiqotdan ma'lum bo'ldiki, harakat tarzi faqat sintaktik yoki morfologik jihatdan emas, balki semantik nuqtayi nazardan ham o'zgaruvchan bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida yetakchi va ko'makchi fe'l birikmalari harakatning chegaralanishi yoki chegaralanmasligini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, "buzila boshlamoq", "chiriy boshlamoq" birikmalarida harakatning boshlanish nuqtasi inxoativlik vositasida ifodalanadi. Ingliz tilida esa bu holat "to get old", "to turn pale" kabi birikmalar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu fenomen har ikkala tilda ham harakatning ingressiv va regressiv xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Fe'llarning chegaralanish xususiyatlarini o'rganishda harakat tarzi, sintaktik tuzilish va leksik ma'no o'zaro chambarchas bog'liq. O'zbek tilida ushbu jarayon, ko'pincha, fe'lning morfologik va semantik xususiyatlari orqali namoyon bo'lsa, ingliz tilida ko'makchi fe'llarning vositachilik xususiyati asosida ifodalanadi. Shu bois fe'llarning chegaralanganligi va chegaralanmaganligini aniqlashda harakatning davomiyligi, boshlanishi va intensivligi kabi omillarni hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T., "O'zbekiston", 2017, 171-bet.
- (2). Бондарко А.В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии. Л., 1983, 208 с.

- (3). Mirsanov G'.Q. Ingliz va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarining aksional va aspektual xususiyatlari. Filol.fan.n.diss. avtoref., Toshkent, 2009, 21-bet.
- (4). Shermatov A. Tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar xususida. Tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar va ularning muammolari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari, Toshkent, 2013, 234–237-betlar.
- (5). Smith C.S. Modes of Discourse. The Local Structure of Texts. Cambridge University Press, 2003, 336 p.
- (6). Vendler L. Verbs and times. Der englische Aspekt. Ed. By A.Schopf. Darmstadt, 1974, 217–234-betlar.

Dlanova Palzira Gulimbetovna (Qoraqalpog'iston Qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti)
TALABALARDA ORFOGRAFIK KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA
RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida ta'lim oluvchi talabalar uchun tilning fonetik va grammatik o'zgaliklarini tushungan holda, orfografik yozishni bilish alohida ahamiyatga ega ekanligi, talabaga qoraqalpog' tilini to'liqroq va mustahkam o'zlashtirishga yordam berishi uchun orfografik ko'nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish masalalari haqida so'z yuritiladi. Ta'lim boshqa tilda olib boriladigan o'rta maktabni tugatib, Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga kirishda talabgorlar qoraqalpog' tilining asosiy qoidalarini bilishi, o'qigan matnlarini og'zaki va yozma turda yetkaza olishi kerak. Bunda orfografiyani ham bilishi kerakligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: orfografiya, morfologiya, fonetika, matn, prinsip, og'zaki, yozma.

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ОРФОГРАФИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У
СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается важность знания орфографии для студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, понимания фонетических и грамматических особенностей языка, а также вопросы формирования и совершенствования навыков орфографии, помогающих студентам более полно и прочно овладеть каракалпакским языком. Для окончания средней школы с обучением на другом языке и поступления в высшие учебные заведения Республики Каракалпакстан учащиеся должны знать основные правила каракалпакского языка и уметь устно и письменно передавать прочитанные тексты. Особенно важно, чтобы они также знали, как писать.

Ключевые слова: орфография, морфология, фонетика, текст, принцип, устный, письменный.

ISSUES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF ORTHOGRAPHIC SKILLS IN
STUDENTS

Annotation. This article discusses the importance of knowledge of spelling for students studying in higher education institutions, understanding the phonetic and grammatical features of the language, and the issues of forming and improving spelling skills in order to help students master the Karakalpak language more fully and firmly. Upon graduating from secondary school, where education is conducted in another language, students entering higher educational institutions of the Republic of Karakalpakstan must know the basic rules of the Karakalpak language, be able to convey the texts they have read orally and in writing. In this regard, it is especially important to know spelling.

Keywords: spelling, morphology, phonetics, text, principle, oral, written.

Kirish (Introduction). Har bir yuksak madaniyatli inson to'g'ri yoza bilishi va to'g'ri so'zlay olishi kerak. Bu talab bo'lg'usi pedagoglar va filologlarga nisbatan, ayniqsa, qat'iy qo'yiladi. Chunki ular yosh avlodga umumiy savodxonlik va nutq madaniyati to'g'risida saboq beradilar, ularni savodxonlikka va chechanlikka o'rgatadilar. Qoraqalpog' orfografiyasi tizimini o'zlashtirish talabalarning imlo ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'qish faoliyati natijasida yuzaga keladi. Agar talabalar orfografik tushunchalar tizimini va qoraqalpog' tilining orfografiyasini biladigan bo'lsa, orfografik ko'nikmalar yaxshi shakllanadi.

Ma'lumki, nutqning og'zaki va yozma shakllari mavjud bo'lib, bular texnik jihati, talaffuz va ta'sir etish xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Nutqning ana shunday ko'rinishlaridan biri yozma putq (yozuv yo'li bilan fikr ifodalash vositasi) orfografiya bilan bevosita va uzviy bog'liqdir. Nutqning bu ko'rinishi yagona tarzda yozishning ma'lum ilmiy va obyektiv qonun-qoidalari tizimi bo'lgan orfografiya va uning prinsiplariga asoslanadi. Orfografiya adabiy tilning yozuv shakli bilan aloqador bo'lib, u to'g'ri yozish qoidalarini to'g'risidagi fandir. Orfografik kompetensiyani shakllantirish fikrlashning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Ko'rgazmali-amaliy fikrlash narsalarni (holatni) aniq sezishga, narsalar bilan harakat etish jarayonida holatni real o'zgartirishga tayanadi. Ko'rgazmali-obrazli fikrlash ko'rinish va obrazlarga asoslanishi bilan xarakterlanadi. Uning vazifasi holatni ko'rsatish va ulardagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib,

odam holatni o'zgartirish faoliyati natijasida ko'rsatishdan iborat. Tushunchalar bilan mantiqiy operatsiyalar orqali mantiqiy fikrlash amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Biroq talaba yangi, o'zgargan sharoitlarda, ya'ni ijodiy yozishda qoidalaridan foydalanishni o'rganmasa, orfografiyani o'rganish tugamaydi, shuning uchun ijodiy ishlarda: insho, bayon, referat, esse va bosqalardan foydalanish zarur bo'lib hisoblanadi. Ko'nikmalarni avtomatlashtirish uchun faqat o'tilganlarni doimiy takrorlash emas, o'rganilgan orfografik va punktuatsiya qoidalaridan erkin foydalanishni nazarda tutadigan mashqlar, ya'ni ijodiy, konstruktiv ishlar zarur.

Orfografik kompetensiyani shakllantirish qiyin va uzoq muddatli pedagogik jarayon. Qoraqalpoq orfografiyasini o'qitishning lingvistik asoslarlarini analizlash birqator xulosalar chiqarishga imkon beradi:

- qoraqalpoq orfografiyasining asosiy tamoyili morfologik tamoyil;
- qoraqalpoq orfografiyasining morfologik xarakterini, uning, ya'ni tilning har xil darajalari va aspektlari bilan bog'liq xarakteri, orfogrammalar va orfografik qoidalarlarning o'zgachaligi bilan bir qatorda hisobga olish qoraqalpoq maktabida ham ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktabda ham o'qitish uslublarining asoslarini belgilaydi, qoraqalpoq tilining eng ahamiyatli bo'limlaridan o'zlashtirishni, orfografik mashg'ulotlarning doimiyligini ta'minlaydi;
- orfografik tamoyillarning har birining o'ziga xosligi orfogrammalarining yozilishiga turlicha munosabatni shakllantirishni belgilab beradi. Har bir tamoyilga belgisi bir orfogrammalar mos keladi;
- orfogrammaning mazmunini aniqlash, uni orfogramma emaslardan ajratish orfografik xatolikni aniqlash imkoniyatini beradi;
- nazariy bilimlarni o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish – orfografik savodli yozishni shakllantirishning birdanbir tamoyili.

Har qanday nazariyani joriy qilishda ikki aspektni nazarda tutish kerak: mazmunan va qo'llanilish jihati nazarda tutiladi. Birinchisi nazariy materialni nutqiy vaziyatlarda ishlatishni nazarda tutadi. Ikkinchisi – o'qitishning metod va usullarini takomillashtirish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Orfografiyaning har bir tamoyiliga orfografiyaning asosiy obyekti bo'lgan belgisi bir orfogrammalar mos keladi. Tadqiqotchilar (M.V.Ushakov, D.N.Bogoyavlenskiy, N.S.Rojdestvenskiy, N.N.Algazina, M.T.Baranov) orfogrammani har xil ta'riflab, uning eng ahamiyatli belgilariga e'tibor qaratgan. M.T.Baranov o'qivchilarning "so'zlarda qoidalarini qo'llanish "nuqtalarini" topish", ya'ni, orfogrammalarini tanish belgilari bo'yicha topish ko'nikmasiga ega bo'lish uchun orfogrammalar va orfogrammalar emaslariga bo'lishni maqsadga muvofiq deb hisoblashadi.¹ M.V.Ushakov orfogrammaning orfografik qoidalarga bo'lishini ta'kidlab ko'rsatadi. V.F.Ivanovning fikricha, orfogramma deb to'g'ri yozishni hisobga olish kerak, uni bir qator mavjud bo'lgan yozivlar orasidan tanlash kerak. Orfogramma faqat bir harf emas, qo'shib yoziluvchi, ajratib yoziluvchi, qatorlashib kelgan harflar, bo'g'inlar yoki so'zlarning qisqartilish hajmi ham e'tiborga olinishi mumkin. N.F.Juykov: "...orfogramma yozishda belgilanadigan ovozi nutqning tuzilish elementi, yozish belgisi va tovushli gapirish elementini belgilash usulining birligidan iborat. Bunday ta'rif yozivda berilishicha aytish, nutqni rasmiylashtirishning barcha holatlarini – grafikasini va imlosini o'z ichiga oladi",² deb yozadi.

P.S.Jedek orfogramma deb "eshitishda qo'llanilmaydigan yozivni (harf, chiziqcha, bo'shliq va bosqa yozish belgilari) nazarda tutadi".³

Orfogrammalarining variant nazariyasi N.N.Algazina tomonidan ishlab chiqilgan. Orfogrammaning belgisi bo'lib, yozish variantlarining bor ekanligi uni orfogramma emas boshqa grafik belgilardan ajratib turadi. Orfogramma emaslar qatoriga orfografiyaning hech qanday qoidalar bilan tartibga solinmaydigan, uning harakat etish sohasidan tashqariga chiqadigan, aytilishi bilan tog'ridan to'g'ri belgilanadigan yozuvlar kiradi. Bu orfogrammalar ham orfogramma emaslariga bo'linishi milliy guruh o'qivchilariga qoraqalpoq tilini o'rgatish metodikasi uchun ahamiyatli bo'lib, orfografik xatoni aniqlash imkoniyatini beradi. An'anaviy holatda indifferent xarakterdagi xatolar orfografik xatolar qatoriga kiritilgan (A.V.Faqatuchev, M.V.Ushakov va boshqalar). Biroq ularning paydo bo'lishini orfografik me'yorlarning buzilishi bilan tushuntirib bo'lmaydi. Bu xatolarning sababi yozishda ifodalangan, ammo nutqda noto'g'ri talaffuz qilish hisoblanadi.

¹ Баранов М.Т. Методика преподавания русского языка. М., 1990, с. 34.

² Жуйков С.Ф. Умственная деятельность школьников при развивающем обучении русскому языку. "Начальная школа", М., 1991, № 10, с. 51.

³ Жедек П.С., Репкин В.В. Из опыта изучения закономерностей русской орфографии. Обучение орфографии. Сборник статей. Ред. сост. М.М.Разумовская, М., "Просвещение", 1974, с. 131.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Qoraqalpoq alifbosidagi harflarning kalligrafik tomondan to'g'ri yozilishiga e'tibor qaratish kerak. Faqat savodli yozish emas, balki chiroyli yozishni ham bilish kerak. Kalligrafiya estetik tarbiya quroli sifatida ahamiyatli. Shuning bilan birga, orfografiya bilan bog'liq jihatidan alohida ahamiyatga ega. Talaba faqat harflarni yozib va ularni so'zlarga biriktirib qo'ymasdan, harflarni tushirib qoldirmay, o'rnini almashtirmay yozishi ham kerak. Qoraqalpoq harflarining yozilishi ona tili grammatikasiga qiyosan o'zlashtiriladi. Yozishga qo'yiladigan asosiy talablarni bajarish bo'yicha tizimli ishlar harflarni orfografik tomondan to'g'ri yozishni o'zlashtirishga yordam beradi, bu ko'nikmalar bir umr saqlanib qoladi. Bu tilni savodli bilishning shartlaridan biri bo'lib, boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o'rganish imkoniyatini beradi, ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli o'tishi uchun zarur bo'lgan talabchanlik, tishqoqlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi, tilga hurmat fazilatlarini tarbiyalaydi. Kalligrafiyani o'rganish yozish texnikasi, estetik muammolari bilan bog'liq bo'lib, yozishni shakllantirishga qaratiladi. Kalligrafik yozish ko'nikmasini egallagan talabalar orfografik savodxonlik ko'nikmasini muvaffaqiyatli egallaydi, kelajakda til tizimlarini yuqori darajada egallaydi.

Katta hajmli harflar bilan yozishga qaraganda katta hajmli yozivlar bilan talabalar orfografiyani qiyin o'zlashtiradi. Bunga sabab, ko'z katta hajmli yoziv bilan yozilgan so'zni kuch bilan qamraydi va o'zlashtirishi kerak bo'lgan orfogrammalarini yaxshi qabul etmasligi holatlari bo'lishi mumkin. Xatolarning paydo bo'lishiga, ko'pincha, harflar shaklining aniq emasligi yoki noto'g'ri yozilishi, ularni bir-biri bilan tutashtirish, so'zlarni e'tiborsizlik bilan yozish ham sabab bo'ladi. Chiroyli, aniq, tez yozishga intilish savodlilikni o'ttirishga, orfografik iqtidorni shakllantirishga yordam beradi. Kalligrafik yozish: harflarning konfiguratsiyasini sezish uchun, belgilarning o'xshashligini va farqlarini o'rganish uchun, yozishda to'g'ri harakatlar rejasini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ko'rgazmali-obrazli va abstrakt fikrlashni yangi darajaga ko'tarishga; har xil shakllardan ko'rish orqali qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga; varaq, qator kengaytmalarida manzilli yo'nalish oladi, yozish elementlari orasidagi kengaytma munosabatlarini oson aniqlash qobiliyatini shakllantirishga; qo'lni mustahkamlashga, harakatlar koordinatsiyasini yaxshilashga va umuman yozish, qo'l harakatlarining butun murakkab tarkibli tuzilmasini o'zi mustaqil boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga; yozishning gigienik qoidalariga (gavda, qo'l, daftar va h.k.) yo'naltiriladi.

Orfogramma – bu to'g'ri yozish bolib, eshitishga qo'llanilmaydi: tekshiruvni talab etadigan yozuv (harf, harflar birikmasi, morfema, so'zlar orasidagi o'rin, morfemalarning tutashgan joyi, so'zni bo'g'inlarga ajratish joyi);

– kamida ikki mumkin bo'lgan yozish variantining mavjudligi, ulardan faqat birinchi to'g'ri. Qoraqalpoq orfogrammalarining tarkibi quyidagicha:

- 1) tovushlarni harflar bilan belgilashga bog'liq orfogrammalar:
 - a) tovushlarning kuchsiz pozitsiyalari o'rnida;
 - b) kuchli pozitsiyadagi tovushlarni belgilashning ayrim holatlari;
- 2) morfemalarning tovush tarkibini belgilash bilan bog'liq bo'lmagan orfogrammalar:
 - a) bosh harf;
 - b) ayirish,
 - d) bo'g'inga bo'lish,
 - e) so'zlarni qisqartish.

Ta'kidlab o'tish kerak, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan talabalarni o'qitishda ona tilining tovushlarini hisobga olish zarur. Masalan, o'zbek tilida "i" unlisi xarakterli emas, shu sababli o'zbek talabalarining nutqida shu tovushni aytishda va yozishda xatoliklar uchrashadi. Orfografiya, bir tomondan, alfavit bilan ham bog'liq. O'zbek alfavitida birgina i qabul qilinganligi sababli, o'zbek tilidagi kishi, qiliq, bilan, biroq shira, qizil, tishlik kabi so'zlardagi "i" tovushlari har xil talaffuz qilinishiga (kuchli va kuchsiz, til oldi va til orqa) qaramasdan, ular ham orfografiyada qabul qilingan qoidaga muvofiq faqat bir xil "i" bilan ifodalanadi. O'zbek orfografiyasidagi o'rtoq, o'roq, o'rdak, o'lka yoki uchmoq, quchmoq hamda uchun, kuchli kabi so'zlarning orfografiyasi haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Shuning uchun ham o'qitishda yangi til hodisalarini, tushunchalarni tushuntirishda ona tilidan foydalanish zarur. Orfografik qoidani ongli va mustahkam o'zlashtirishda ona tilining o'zgachaliklarini hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, orfografik kompetensiyaning shakllanishida pedagogning shaxsi, uning eruditsiyasi va madaniyati ta'sir qiladi. Qoidalarni biladigan ayrim talabalarning orfografik tayyorligida ayrim katta kamchiliklarni olimlar va o'qituvchilar sezmasligi mumkin emas. Talabalar ayrim qoidalar orasidagi bog'liqlikni ko'rmaydi, asosan, standart emas orfografik holatlarda o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmalariga ega emas va ko'p holatda ularni amaliyotda qo'llay olmaydi, sababi tushunchani yoki qoidani o'zlashtirish uni qo'lla-

nish jarayonida yuz beradi. Bilim berish bosqichida o'qituvchi tildagi tushunchani, hodisalarni tushuntirishda ona tiliga suyanishi kerak. Bu materialni mustahkam va ongli o'zlashtirish tushunchasini beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Orfografik materiallarni berishning integratsiyalashgan yo'li, pedagogik tomondan, avvalo, matn beriladi, keyin savollar qo'yiladi, kerakli orfogramma aniqlanadi, qoida bildiriladi va tushuntirish namunalari beriladi. Bu qoidani mustahkamlashga yordam beradigan jaadvallar, savollar, grafik orfogrammani ajratish ko'rinishidagi didaktik material bo'lishi mumkin. Grammatik qoidalarni o'zlashtirish so'zlarni yodlashdan iborat emas, talabani bilimlarni o'zlashtirish va amalda qo'llanish bo'yicha faol fikrlash vazifasidan iborat. Barcha ishlar tarbiyaviy vazifalarga javob beradigan, mazmuni va shakli bo'yicha talabalar uchun tushunarli bo'lgan materialda amalga oshirilishi kerak. O'qituvchi talabalarning nutqi to'g'ri, yozishi savotli bo'lishiga harakat etishi kerak.

Pedagogikada eng ahamiyatli didaktik tamoyillardan biri – talabalarning faolligi sifatida qaraladigan erkinligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Mustaqil ta'lim o'qituvchining to'g'ridan to'g'ri ishtirokisiz, biroq uning vazifasi bo'yicha amalga oshiriladi; bunda talaba o'z harakatlarini ko'rsatib, o'zining aqliy va jismoniy harakatlarining natijalarini shu yoki boshqa shaklda ko'rsatib, topshiriqqa qo'yilgan maqsadga erishishga ongli ravishda intiladi.

Xususiyatiga ko'ra, orfografik qoidalarni quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin: 1) qoida-ko'rsatma: fakt tasdiqlanadi – qoidalarni berishning eng oddiy shakli, bunda til materialini tavsiya etishning asosiy shakli namuna hisoblanadi; 2) qoida-qo'llanma: so'zni to'g'ri yozish uchun zarur bo'lgan shart bayon etiladi. Agar talaba orfografik qoidalarni o'rganish natijasida ayrim holatlarni umumlashtira olsa va qoidani qo'llay olsa, bu orfogramma va orfografik qoidani tushunish va o'zlashtirishning ko'rsatkichi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Баранов М.Т. Методика преподавания русского языка. М., 1990, с. 34.
- (2). Жуikov С.Ф. Умственная деятельность школьников при развивающем обучении русскому языку. “Начальная школа”, М., 1991, № 10, с. 51.
- (3). Жедек П.С., Репкин В.В. Из опыта изучения закономерностей русской орфографии. Обучение орфографии: Сборник статей.
- (4). М.М.Разумовская. М., “Просвещение”, 1974, с. 131.

**Ro'zmetov Hamid Qalandarovich (Urganch davlat universiteti roman-german filologiyasi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; ruzmetovxamid8@gmail.com),
Shomurotova Nigora Otabayevna (Urganch davlat universiteti xorijiy filologiya fakulteti 2-bosqich magistranti; shomurotovanigora5009@gmail.com)
SHE'RIY TARJIMADA MILLIY KOLORITNING AKS ETISHI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Omon Matjon she'rlarida qo'llangan milliy koloritning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Shoirning bunday birliklardan mahorat bilan foydalana bilishi, shuningdek, badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, she'rning koloritlik ruhini ta'minlash, she'r badiyatini kuchaytirish kabi maqsadlarda eskirgan so'zlarni qo'llash usuli tadqiq qilinadi. Shuningdek, milliy koloritning badiiy tarjima hamda adabiyotda tutgan o'rni, vazifalari, qo'llanilishi va shakllari haqida so'z boradi. Shu bilan birga, Omon Matjon she'rlaridagi milliy kolorit tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, milliy kolorit, she'riyat tili, tarjima, mumtoz adabiyot, badiiy tafakkur, ijtimoiy-axloqiy g'oya, badiiy takror, she'r g'oyasi va shakli, badiiy tasvir vositasi, mazmun va shakl.

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО КОЛОРИТА В ПОЭТИЧЕСКОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности передачи национального колорита в поэзии Омона Матжона. Исследуется мастерство поэта в использовании элементов с национально-культурной окраской, а также методы применения устаревших слов с целью реального изображения действительности эпохи, обеспечения колоритности стихотворения и усиления художественности. Также изучается роль, задачи, применение и формы передачи национального колорита в художественном переводе и литературе. Кроме этого, анализируются элементы национального колорита в стихах поэта.

Ключевые слова: лингвопоэтика, национальный колорит, язык поэзии, перевод, классическая литература, художественное мышление, социально-нравственная идея, художественное повторение, идея и форма стихотворения, средства художественного изображения, содержание и форма.

THE REFLECTION OF NATIONAL COLOR IN POETIC TRANSLATION

Annotation. This article discusses the distinctive features of traditional color used in the poems of Omon Matjon. It explores the poet's brightful use of these elements and examines the method of employing

historical words for realistic depiction of the realities of the era being described in artistic texts, ensuring the chromatic spirit of the poem and improving its artistic quality. Furthermore, addresses the role and functions of national color in artistic translation and literature as well as its applications and forms. Additionally, it analyzes the national colors present in Omon Matjon's poetry.

Keywords: *linguopoetics, national color, language of poetry, translation, classical literature, artistic thinking, social-moral idea, artistic repetition, idea and form of poetry, means of artistic depiction, content and form.*

Kirish (Introduction). Bugungi kunda O'zbekistonning dunyoga yuz tutishi, chet ellarda uning madaniyat va adabiyot kunlari, haftaliklari bo'lib o'tishi o'zbek xalqining milliy qiyofasini xorijliklarga tanishtirishda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, o'zbek yozuvchilarining asarlari xorijiy tillarga, jumladan, fransuz tiliga, shuningdek, fransuz tilidan o'zbek tiliga ko'plab o'girilayotgani ikki buyuk xalqning o'zaro yaqinlashayotganidan nishonadir.

Joriy yilning 11–13-mart kunlari Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan Prezidentimiz Shavkat Mirziyayev rasmiy tashrif bilan Fransiya davlatida bo'ldi. Davlatimiz rahbarini Fransiyaning Milliy ta'lim, oliy ta'lim va milliy tadqiqotlar vaziri va boshqa rasmiy kishilar tomonidan kutib olinishi va Parij shahrida ikki mamlakatlar ta'lim tizimi xodimlari o'rtasida o'tkazilgan hamkorlik uchrashuvlari va ularda o'zaro tuzilgan ko'plab ta'lim shartnomalari qatorida ilmiy, ilmiy tadqiqot ishlarini qiyosiy o'rganish, badiiy asarlar tarjimalari borasidagi kelishuvlar mamlakatlar o'rtasidagi yangi ilmiy yonalishlarga va izlanishlarga turtki bo'ladi. Bundan tashqari, Prezidentimizning UNESCO Bosh direktori Odri Azule xonim bilan uchrashuvida ham mamlakatlar o'rtasidagi ilmiy aloqalarni yangi bosqichlarga olib chiqish masalalariga ham e'tibor qaratilganligi ikki do'st mamlakatni ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shishiga ishonamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Uzoq o'tmishdan buyon tarjima bir-biriga begona xalqlarni o'zaro yaqinlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qilgan. Tarjima orqali xalqlar bir-birlari bilan muomala qilganlar, olimlar bir-birlari bilan fikr almashganlar, adiblar bir-birlari bilan muloqotda bo'lganlar. Tarjimon esa faqatgina o'zga tilni yaxshi o'zlashtirgan kishi emas, balki ikki bir-biriga noma'lum xalqni yaqinlashtiruvchi, xalqlarga madaniyati, dini, urf-odatlarini hamda milliy marosimlaridan xabar bera oladigan aloqachi, deya olamiz. Tarjima tarixidan shu narsa aniqlanganki, ilm-fan, madaniyat rivojlangani sayin tarjima san'ati ham rivojlana boradi. XIX asrda badiiy asarlar kitobxonlar talab ehtiyojiga qarab tarjima qilingan. Tarjima qilingan badiiy asarlar sharq xalqlariga mashhur shoir va yozuvchining qalamiga mansub bo'lgan biroq asta-sekinlik bilan sharq klassikasi yutuqlarini o'zlashtirgan adabiyot yuzaga keldi, shundan keyingina asarlarni tanlab olib tarjima qilish imkoniyati paydo bo'lgan. Buning natijasida esa tarjimonlarning qaysi adabiy janrlarga qiziqishi masalasi yuzaga keladi, ana shunday bir paytda axloqiy hikoyalar, ishqiy-romantik dostonlar, afsonaviy qissalar, hajviy asarlar, she'riy tarjima sharq nasri hamda nasr-nazm aralash yozilgan asarlar tarjimasiga talab orta borgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolamizda Omon Matjon she'rlaridagi milliy koloritlar o'rganilib, tahlil qilinadi. Dastavval, milliy kolorit atamasiga to'xtalib o'tamiz: Kolorit tushunchalariga ta'rif beradigan bo'lsak, "Kolorit" so'zi lotincha "kolor", italiyancha "kolorito" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "rang, bo'yoq, manzara, jilo" kabi ma'nolarni anglatadi. "Kolorit" deganda tasviriy san'atda real, haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro munosibligi tushinilsa, badiiy tarjimada bu iborani biror narsaning o'ziga xos belgi va xususiyatlari majmuyi, deyish mumkin. Chunki voqelikni ta'sirli tasvirlash vositasining tarkibiy qismi bo'lgan "Kolorit" asarning g'oyasi, mazmuni, davri, uslubi hamda muallifning shaxsiga bo'g'liq bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, "Kolorit" voqealikni real va ifodali tasvirlasa ranglarning o'zaro mutanosibligi, shuningdek, kolorit biror-bir narsaning o'ziga xos tomonlar majmuyini anglatadi.

Milliylik u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xosliklardir. Har bir shaxsning millatparvarligi, avvalambor, uning o'z millatiga, tiliga, an'analarga, madaniyatiga, urf-odatlariga va rasm-rusumlariga bo'lgan munosabatida namoyon bo'lishi hech kimga sir emas. Millatning yuksalishi – o'zbek millatining gullab-yashnashi tarafdori bo'lgan har bir inson o'z xalqining kamchiliklarini ham ko'ra olishi zarur.

Tahlil va natijalar (analysis and results). Shoirning aksar to'plamlaridagi she'rlarida badiiy takrorlarda milliy bo'yoqdorlikdagi fikrlari teranroq ifodalangandek, go'yo, she'rlarning g'oyasi va shakli o'rtasidagi mutanosiblikni ifodalovchi tushunchalar takror so'zlar vositasida obrazli qiyofa kasb etadi, shu bilan birga, she'rlardagi ohangdorlik ta'minlangan. Masalan: shoirning "Boshqalardek sevishdik biz ham" mis-

rasi bilan boshlanuvchi she'rida anafora, epifora kabi figuralar vositasida ma'naviy yuksaklik va qadr-qimmatni ifodalovchi obrazlarda namoyon bo'ladi.

*Boshqalardek sevishdik biz ham,
Kuyib yurdik boshqalar kabi.
Bu savdoni baxt bildik biz ham,
Baxtdir, dedik visol, yor labi.*

*Boshqalardek duch kelib qolsak,
Oslardik ming bor qayrilib.
Mana, biz ham bebaxt, beqarsak
Boshqalardek ketdik ayrilib.¹*

Tarjimada:

Comme les autres, nous nous sommes aimés,
Consumons-nous, d'espoir charmé.
Ce destin, bonheur nous semblait,
Un baiser, disions-nous, comblait.
Comme les autres, si l'on se croise,
On s'évite, mille fois on ose.
Et nous voici, sans joie, sans flamme,
Comme les autres, partis sans âme.

She'r to'rtlik shaklida yozilgan bo'lib, har bir misra, taxminan, bir xil uzunlikka ega. U qofiyalangan bo'lib, qofiya sxemasi AABB tarzida qurilgan. Bu uslub she'rni ritmik va ohangdorligini ta'minlaydi.

Omon Matjon yuqorida keltirib o'tgan bandda milliy koloritning yorqin namunasini ko'rishimiz mumkin. "Baxt, visol, olis sevgi" tushunchalari orqali milliylikni aks ettirgan. She'r sevgi va uning o'tkinchiligi haqida. Dastlab, sevgi yorqin his-tuyg'ular bilan boshlanadi, biroq vaqt o'tishi bilan, o'sha ehtiros va tuyg'ular so'nadi. Oxirgi to'rtlikda sevishganlarning ajralishi va bir-birlariga begona bo'lib qolishlari tasvirlangan. She'rning asosiy g'oyasi sevgi vaqt o'tishi bilan o'zgarishi va ba'zan butunlay yo'q bo'lishi haqidadir.

Qiyoslash ("Comme les autres" – "Boshqalar kabi"). She'r muallifi sevgi tarixini oddiy hodisa sifatida tasvirlaydi. Bu sevgi va ajralish barcha odamlar uchun umumiy holat ekanligini ko'rsatadi.

Metafora ("Consumons-nous, d'espoir charmés"). Bu yerda sevgi olovga o'xshatilgan, ya'ni insonlar o'z sevgisida yonib ketadi.

Qarama-qarshilik ("sans joie, sans flame"). Dastlabki ehtirosli muhabbat oxirida o'chib, bo'm b-bo'sh qolgani aks ettirilgan.

Shoirning ba'zi she'rlarida davr tilini nazarda tutishi bilan ham xarakterlidir. Tarixiy mavzularga bag'ishlangan she'rlarida neologizmlarni ishlatib bo'lmasligi, aksincha, bugungi kun mavzulariga taalluqli she'rlarda ham arxaik so'zlarni qo'llash bugungi kun o'quvchisiga qiyinchilik tug'dirishi, tabiiy. Omon Matjon o'zining Xiva xonligi davri voqealarini tasvirlovchi "Nurjon botir" she'rida *navkar* so'zi o'rinda *askar* leksemasi qo'llasa bo'lmasligini yaxshi sezgan.

*Oddiy misol, birdan uning loyga botdi ulovi,
Quruqlikka chiqarolmay qirqta navkar ovvora.*

Tarjimada:

Un simple exemple : son cheval s'enfonça dans la boue,
Quarante poilus ne purent le tirer à sec.

Bu she'r qisqa, lekin chuqur ma'noga ega bo'lgan falsafiy ifodadir. U tashbeh va ramzlar orqali hayotiy haqiqatni aks ettiradi. She'r ikki misradan iborat bo'lib, u epigramma yoki hikmatli satr shaklida qurilgan. Qofiya mavjud emas, lekin ritmik uyg'unlik saqlangan. She'r tashbeh va allegoriyalar yordamida murakkab hayotiy vaziyatlarni yoritadi: Birinchi misrada "ulov loyga botishi" bu inson yoki jamiyatning qiyin ahvolga tushib qolishini ifodalaydi. Ikkinchi misrada "qirqta navkar ham quruqlikka chiqarolmasligi" – muayyan holatlarda, hatto katta kuch va yordam ham muammoni hal qila olmasligini anglatadi. Bu fikr insonning ba'zi taqdiri sinovlari shunchalik og'ir bo'lishi mumkinki, hatto ko'p odamlar yordami ham yetarli bo'lmasligini ko'rsatadi. She'r qisqa bo'lsa-da, chuqur falsafiy ma'no bilan boyitilgan. U inson hayotidagi ba'zi qiyinchiliklarning hal qilinishi mushkul ekanini va ba'zida hech qanday tashqi yordam ham ye-

¹ Omon Matjon. "Boshqalardek sevishdik biz ham" she'ri. 1967-yil.

tarli emasligini ko'rsatadi. Bu hayotning nohaqligi yoki insonning ojizligi haqidagi falsafiy fikrga olib ke-lishi mumkin.

Bu misrada qo'llanilgan *navkar* so'zi bugungi kunda bizning nutqimizda uchramaydi, uning o'rnida biz *askar*, *harbiy* kabi so'zlarni ishlatamiz. Xuddi shuningdek, fransuz tiliga tarjima qilinganda ham biz *soldat* so'zi o'rnida *navkar* so'zi bilan davri muqobil keladigan *poilu* so'zini qo'llashimizga to'g'ri keladi. Bu so'z fransuzlarda Birinchi jahon urushidan bir asr avval paydo bo'lganligi va shu davr adabiyotidagi so'z hisoblanadi. Shu bilan birga, fransuzlar Napoleon davrida *grognard*, XVII asrda esa *soudard* kabi so'z-lardan ham foydalanishgan.

Omon Matjonning "G'amlarning bariga to'zdim chidadim" satri bilan boshlanuvchi she'ri 1985-yilda chop qilingan muallifning "Hayot kitobi" to'plamidan olingan. Shoir bu she'rida milliy koloritni aks ettirishda stilistik vositalardan mohirona foydalanganligini ko'ramiz.

*G'amlarning bariga to'zdim – chidadim,
Namlarning bahrida suzdim – chidadim,
Damlarning shahdidan o'zdim – chidadim,
Kelmading.*¹

Tarjimada:

*J'ai enduré, ployant sous le poids des chagrins,
J'ai nagé dans l'océan de mes larmes sans fin,
J'ai dépassé le temps qui file en son chemin,
Tu n'es pas venue.*

She'ning fransuz tili tarjimasida quyidagi stilistik usullar qo'llanilgan:

Obrazlilik va poetik ifoda. Tarjima asliyatlardagi poetik obrazlarni saqlagan holda, ularni yanada boyitgan. Masalan, *namlarning bahrida suzdim* iborasi *l'océan de mes larmes* (ko'z yoshlarim okeani) sifatida tarjima qilingan. Bu obrazni kuchaytirib, hissiy ta'sirni oshiradi.

Parallelizm va ritmni saqlash. Har bir satrda takrorlanadigan *J'ai* (Men) so'zi originaldagi *chida-dim* so'zining takrorlanishiga, mos ravishda, parallelizm yaratadi. Bu usul she'ning ritmik tuzilishini saqlashga yordam beradi.

Metaforik amplifikatsiya (kengaytirish). Asliyatlardagi qisqa metaforalar kengaytirilgan, masalan, "damlarning shahdidan o'zdim" iborasi *J'ai dépassé le temps qui file en son chemin* (vaqtning o'tib ketayotgan yo'lidan o'tdim) tarzida kengaytirilgan. Bu tarjimada ma'no chuqurligini ta'minlaydi.

Ekspressivlikni oshirish. Tarjimada hissiy bo'yoqlar kuchaytirilgan, masalan, *chagrins* (dardlar), *sans fin* (cheksiz) kabi so'zlar qo'llanilib, originaldagi hissiy holat yanada ta'sirli aks ettirilgan.

Ravonlik va moslashuvchanlik. Tarjimon nasriy va she'riy elementlarni uyg'unlashtirgan holda, fransuz tilining talaffuz va ohangiga mos bo'lgan shakl yaratgan. Bu usul tarjimoni tabiiyroq qiladi.

Erkin ijodiy yondashuv. Tarjimon aslyatga to'liq bog'lanib qolmasdan, ba'zi joylarda o'z ijodiy uslubini qo'shgan. Masalan, *kelmading* so'zining sodda ifodasi *Tu n'es pas venue* shaklida hissiyot bilan boyitilgan.

Ushbu usullar tarjimada aslyatning mazmuni va ruhini saqlagan holda uni yangi tilda estetik jihatdan boyitishga xizmat qilgan. Bu tarjimada she'ning mohiyatini ochib berish uchun fransuz tilida "in" qofiyasi dastlabki uch misrada aks ettirilgan, so'ngra she'rni ritmini buzadigan qisqa misra keladi va bu o'zbekcha she'riyatda aks etadigan holatdir. She'rda g'am-tashvishlar og'irligi ostida egilish, ko'z yoshlarida suzish va tez o'tib ketayotgan vaqtni ortda qoldirib ketish kabi poetik obrazlar iloji boricha saqlanib qolgan.

Shuni ta'kidlab o'tish muhimki, she'riy tarjima har doim qiyinchilik tug'diradi, chunki u asl ma'noga sodiqlik, she'riy shaklni saqlash va maqsadli tilda tabiiy eshitiladigan matnni yaratish o'rtasida muvoza-natni topishni taqozo etadi.

She'r sevgi va umidsizlik haqidagi his-tuyg'ularni aks ettiradi. Muallifning "chidadim" so'zlari orqali u ko'p narsalarga sabr-toqat qilganini, lekin oxir-oqibat kutilgan natijaga erisha olmaganini ko'rsatadi. Takror: *Chidadim* so'zining takrorlanishi she'rga ritm beradi va muallifning ichki kurashlarini kuchaytiradi.

Metafora. *Namlarning bahrida suzdim*, *Damlarning shahdidan o'zdim* kabi iboralar muallifning his-tuyg'ularini chuqurroq tasvirlash uchun ishlatilgan metaforalardir. *Mille peines* (ming azob) va *mille plaines* (ming dasht) kabi iboralar muallifning hayotidagi ko'p to'siqlarni va kurashlarni ifodalaydi. Bu simvollar orqali u o'zining ruhiy holatini tasvirlaydi.

¹ Omon Matjon. "Hayot kitobi" to'plami. 1985-yil.

Tarjima ilmi va amaliyotida o'rganish qiyin bo'lgan so'zlar ko'p uchraydi, ularning asosiy qismini milliy o'ziga xos so'zlar tashkil qiladi, ular xalqaro terminda "realiya"lar deb nomlanadi. Realiza ma'lum bir millat va elatga xos bo'lgan narsa-hodisalarni tasvirlab beradigan lisoniy, badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalar hisoblanadi. Haqiqiy, moddiy hamda faktlarning qo'llanilishiga "Realiza" desak, mubolag'a bo'lmaydi. Realiza–lotincha so'z bo'lib, "buyumga, narsaga oid" kabi ma'nolarni bildirardi. Boshqacha qilib aytganda, realiza milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan so'z va atama hisoblanadi: Muallifning "Iymon yog'dusi" (1991) she'riy to'plamidagi "Jannat o'zbekiston jannating qani misrasi bilan boshlanuvchi she'rida mustabit tuzumning oxirgi yillarida millat taqdirini himoya qiluvchi voqeliklar haqida gap boradi.

Asl matn:

*Jannat O'zbekiston, jannating qani,
Shuncha mehnat qilding, mehnating qani,
Sig'ingan, suyangan davlating qani,
Har daydi it seni talashga tushdi?*

*Hech kim o'z moliga qo'yolmas bahr,
Bor-u yo'g'imizni bilmaydi dunyo,
Hech kimdan so'ramay-netmay ne yuho
Bu yurtdan qurbonlik yamlashga tushdi.¹*

Tarjimasi:

Ouzbékistan, où donc est ton ciel?
Tu as tant peiné, mais où est ton miel?
Où donc est l'État qui t'offrait un abri?
Les chiens errants te déchirent sans cri.
Nul ne peut dire: "Ceci est à moi",
Le monde ignore nos peines et nos lois.
Sans rien demander, cupide et fous,
Ils dévorent ce pays à genoux.

Ushbu she'r ijtimoiy va siyosiy mazmunga ega bo'lib, unda shoir Vatan taqdiri, adolatsizlik va xalqning ahvoli haqida chuqur iltirob bilan fikr bildiradi. Mavzu va g'oya: she'r O'zbekistonning o'ziga xosligini, uning tarixiy mashaqqatlarini va xalqining mustaqil yashashga intilishlarini ko'taradi. Muallif davlatning ahvolini kritik qiladi va xalqning qiyinchiliklarga duch kelayotganini ta'kidlaydi.

Tashqi tasvir. *Ouzbékistan, où donc est ton ciel?* Bu satrda muallif Ouzbékistonni zamon bilan bog'laydi va uning kelajagini so'raydi. *Les chiens errants te déchirent sans cri* degan ibora esa, mamlakatdagi ijtimoiy muammolarni bildiradi; bu yerda qashshoqlik va ezilganlik holatlari ifodalanmoqda. *Où donc est l'État qui t'offrait un abri?* Bu satr davlatni ramziy jihatdan himoya qiluvchi kuch sifatida ko'rsatadi, biroq u nafaqat himoya qilishda, balki xalqqa yordam berishda ham muvaffaqiyatga erisha olmayotganini anglatadi. She'rda *Nul ne peut dire: 'Ceci est à moi'* deb aytilishi orqali mulkchilik tushunchasining yo'qligi ta'kidlanadi, bu esa ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bu fikr, shuningdek, jamiyatdagi adolatsizliklarga e'tibor qaratadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Omon Matjon o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri ekanligini yuqoridagi sh'rlari orqali ko'rishimiz mumkin. Adabiyot xalqning hayotini aks ettirar ekan, uning ijtimoiy turmushdagi milliy va umuminsoniy jihatlari badiiy ifodalashi tabiiy holdir.

Badiiy tarjimada milliy kolorit o'rganish bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilgan. Bu maqolani yozish jarayonida milliy koloritning tub negiziga yetib borishga harakat qilindi. Milliy koloritning badiiy tarjimadagi o'rni, ilmiy va amaliy jarayonlarda ishlatilishi yuzasidan izlanishlar natijasi yoritildi. Bunday so'zlarning tarjimada yuzaga keltirayotgan muammolari atroflicha o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-dekabrda nutqidan keltirilgan.
- (2). Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. T., "Sharq", 1998.
- (3). Hojiyev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar. T., "O'zfanakadnashr", 1963, 146-bet.

¹ Omon Matjon. "Iymon yog'dusi" she'riy to'plami, 1991-yil.

- (4). Omon Matjon. "Boshqalardek sevishdik biz ham" she'ri. 1967-yil.
- (5). Qudrat Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari. "Fan", 2005, 89–123-betlar.
- (6). Tarjima va milliy kolorit. <https://uz.m.wikipedia.org> (1–4-betlar).
- (7). O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
- (8). Shofqarov A.M. O'zbek tilida badiiy takror. T., "Fan va texnologiya", 2019, 118-bet.

**Каримова Ферузахон Иноятовна (старший преподаватель кафедры «Узбекского языка и литературы»,
Андижанский государственный Технический институт, Узбекистан)**

СЛОВООБРАЗОВАНИЕ И АНАЛИЗ СЛОЖНЫХ СЛОВ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация. В статье проводится сравнительное исследование словообразования сложных глаголов в английском и узбекском языках. Рассматриваются различные модели образования сложных глаголов, их продуктивность и типологические особенности в обеих языковых системах. В английском языке выделяются десять моделей сложных глаголов, наиболее продуктивными среди которых являются модели *N+V* (существительное+глагол) и *Adj+V* (прилагательное+глагол). В узбекском языке преобладают две модели: *C+Гл.* (существительное + глагол) и *деепричастие прошедшего*. Автор анализирует также семантическую времени+глагол. мотивацию сложных глаголов, выделяя мотивированные, частично мотивированные и немотивированные глаголы в обеих языковых системах. Кроме того, в статье отмечаются различия в способах образования сложных слов: в английском языке выделяют компрессию и словообразование, в узбекском – синтаксико-лексический, синтаксико-морфологический и морфологический способы. Работа подчеркивает важность сравнительного подхода в изучении сложных слов и их роль в лексикологии, что способствует лучшему пониманию структурных и семантических особенностей английского и узбекского языков.

Ключевые слова: сложные глаголы, словообразование, модели словообразования, продуктивность, типология языков, словообразовательные модели, мотивированные глаголы, частично мотивированные глаголы, немотивированные глаголы, синтаксико-лексический способ, синтаксико-морфологический способ, морфологический способ, лексикология, сравнительное языкознание, английская лексика, узбекская лексика, структура сложных слов, семантический анализ.

**Karimova Feruzaxon Inoyatovna (Andijon davlat Texnika instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasining
katta o'qituvchisi)**

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARINING MURAKKAB SO'ZLARINI SHAKLLANTIRISH VA TAHLIL QILISH

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida murakkab fe'llarning so'z shakllanishini qiyosiy o'rganish olib boriladi. Ikkala til tizimida murakkab fe'llarning shakllanishining turli xil modellari, ularning mahsuldorligi va tipologik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Ingliz tilida murakkab fe'llarning o'nta modeli ajralib turadi, ular orasida eng samarali modellar *N+v* (ism+fe'l) va *Adj+V* (sifat+fe'l). O'zbek tilida ikkita model ustunlik qiladi: *C+GL.* (ism+fe'l) va o'tgan zamon fe'li+fe'l. Muallif, shuningdek, ikkala til tizimidagi motivatsiyalangan, qisman motivatsiyalangan va motivatsiyasiz fe'llarni ajratib, murakkab fe'llarning semantik motivatsiyasini tahlil qiladi. Bundan tashqari, maqolada murakkab so'zlarni shakllantirish usullaridagi farqlar qayd etilgan: ingliz tilida siqilish va so'z shakllanishi, o'zbek tilida sintaktik-leksik, sintaktik-morfologik va morfologik usullar ajralib turadi. Asar ingliz va o'zbek tillarining tarkibiy va semantik xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan murakkab so'zlarni o'rganishda qiyosiy yondashuvning ahamiyatini va ularning leksikologiyadagi rolini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: murakkab fe'llar, so'zlarni shakllantirish, so'zlarni shakllantirish modellari, mahsuldorlik, til tipologiyasi, so'zlarni shakllantirish modellari, motivatsiyalangan fe'llar, qisman motivatsiyalangan fe'llar, motivatsiz fe'llar, sintaktik-leksik usul, sintaktik-morfologik usul, morfologik usul, leksikologiya, qiyosiy tilshunoslik, ingliz lug'ati, o'zbek lug'ati, murakkab so'zlarning tuzilishi, semantik tahlil.

**Karimova Feruzaxon Inoyatovna (is a senior lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature
at the Andijan State Technical Institute. Uzbekistan)**

WORD FORMATION AND ANALYSIS OF COMPLEX WORDS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. The article provides a comparative study of the word formation of complex verbs in English and Uzbek. Various models of the formation of compound verbs, their productivity and typological features in both language systems are considered. There are ten models of compound verbs in English, the most productive of which are the *N+V* (noun+verb) and *Adj+V* (adjective+verb) models. Two models prevail in the Uzbek language: *C+Gl.* (noun+verb) and the past participle + verb. The author also analyzes the semantic motivation of complex verbs, highlighting motivated, partially motivated and unmotivated

verbs in both language systems. In addition, the article notes differences in the ways of forming complex words: in English, compression and word formation are distinguished, in Uzbek — syntactic-lexical, syntactic-morphological and morphological methods. The work highlights the importance of a comparative approach in the study of complex words and their role in lexicology, which contributes to a better understanding of the structural and semantic features of the English and Uzbek languages.

Keywords: compound verbs, word formation, models of word formation, productivity, typology of languages, word formation models, motivated verbs, partially motivated verbs, unmotivated verbs, syntactic and lexical method, syntactic and morphological method, morphological method, lexicology, comparative linguistics, English vocabulary, Uzbek vocabulary, structure of complex words, semantic analysis.

Введение Сложные слова занимают важное место в лексической системе английского языка. В частности, образование сложных глаголов в современном английском языке наблюдается все чаще, что свидетельствует о растущем значении словообразовательной модели сложения. [1; 45–46-b.] Несмотря на то, что в древнеанглийском языке этот способ был распространен, в последующий период его продуктивность была низкой. Однако в современном языке наблюдается обратная тенденция [1;25–26 с.]. Сравнительный анализ английских и узбекских сложных глаголов позволяет выявить сходства и различия, что делает тему особенно актуальной в контексте преподавания иностранных языков [1;15 с.]. Эпоха непрерывной научно-технической революции и информационных взрывов вызвала необходимость создания огромного количества неологизмов, в том числе и сложных глаголов, многие из которых прочно вошли в словарный состав английского языка, и сейчас уже не воспринимаются как таковые. Например: to air cool, to grass-feed, to fish-hook, to husband-hunt, to air bomb, to night fly. Все сложные слова разделяются на определенные структурные типы, в соответствии со словообразовательными моделями, по которым образуются новые слова [1;25–26 с.]. Среди многообразия типов сложных слов с точки зрения их словообразовательных возможностей выделяются продуктивные, малопродуктивные и непродуктивные. Продуктивность словообразовательной модели не является чем-то постоянным; в ходе исторического развития она постоянно меняется, одни модели теряют свою продуктивность, другие, наоборот, становятся весьма продуктивными.

Анализ литературы. Теоретическая база исследования основывается на работах таких ученых, как Н.Н.Амосова, Ж.Б.Буранов, И.В.Арнольд, А.Ходжиев, Г.А.Абдурахмонов и других, занимающихся вопросами грамматики, лексикологии и словообразования [2;371 с.]. Так, Амосова подчеркивает низкую продуктивность глагольного словосложения в постсреднеанглийский период, что, однако, опровергается современными данными. В трудах по узбекскому языку выделяются модели С+Гл. и Гл.+Гл., которые активно функционируют в современном языке [3;12 с.].

Методология исследования. В ходе исследования применялся метод компонентного анализа. Изучались 100 сложных глаголов английского и узбекского языков, классифицированных по словообразовательным моделям. Анализ производился по следующим этапам [4;193 с.]. Из них совпадают модели N+V английского языка с С+Гл. узбекского языка. Эти две модели совпадают также и своей продуктивностью. N+V-продуктивная модель английских сложных глаголов, а С+Гл. – продуктивная модель сложных глаголов узбекского языков. Совпадают также модели Adj+V и прил. и +глаголом. Но модель Adj + V более продуктивна, чем модель Прил. +Глагол: Adj+V-17%, а Прил.+Гл. -7% в наших примерах. Совпадают модели Adj + V и наречие + глагол. Но они не совпадают своей продуктивностью Adj+V–всего 12 примеров в английском языке и Наречие+Гл. всего один пример в узбекском языке. Следующие пять моделей английского языка мы не встретили в узбекском языке: Adj+N, Adj+Numer, Numer+Numer, V+N. В английском языке мы также не встретили сложные глаголы по модели Деепр.пр.вр.+Гл.,Деепр.наст.вр.+Гл который имеются в узбекском языке. Мы обнаружили такое различие, что сложные глаголы английского языка образуются из разных частей речи, т.е. из основы существительного и глагола, наречия и глагола, из двух существительных основ и т.д. в то время как в узбекском языке вторым компонентом всегда является глагольная основа. Проводя семантический анализ сложных глаголов узбекского языка, мы выделили также три типа сложных глаголов, как и в английском языке: мотивированные, частично мотивированные и не мотивированные. Мы обнаружили следующую разницу: в английском языке большей продуктивностью обладают мотивированные глаголы.

- 1) определение морфемной структуры;
- 2) выявление словообразовательных моделей;
- 3) семантическая интерпретация;

4) сравнение продуктивности моделей. Кроме того, использовались методы сопоставительного анализа и лексико-семантической классификации [5;24 с.].

Анализ и результаты исследования. В английском языке были выявлены 10 словообразовательных моделей, среди которых наиболее продуктивной оказалась модель N+V (44%). Менее продуктивными оказались Adj+V (17%) и Adj+N (14%) [6;2022]. Минимальную продуктивность показали такие модели, как Num+V, V+V и другие (13%) [7;28.03.2022].

А в узбекском языке продуктивными являются частично мотивированные глаголы. Менее продуктивными в английском языке являются частично мотивированные, а в узбекском языке мотивированные сложные глаголы. Наименьшей продуктивностью в обоих языках обладают немотивированные сложные глаголы. Также в частично-мотивированных сложных глаголах мотивированными являются любая из двух частей, первый или второй компонент сложного слова или словосочетания в английском языке, в то время в узбекском мотивированным является, в основном, первый компонент сложного глагола. Способы образования сложных слов в обоих языках в целом совпадают, хотя в английском языке различают два способа: 1. Компрессия. 2. Словосложения, а в узбекском языке три способа: 1. Синтаксико-лексический. Синтаксико-морфологический. 3. Морфологический. Способ компрессии совпадает с синтаксико-лексическим и синтаксико-морфологическим способом, так как в них сложное слово образуется на основе словосложения.

В узбекском языке доминировали модели С+Гл. (58%) и Гл.пр.вр.+Гл. (20%). Модель деепричастия наст. времени + глагол составила 12%, а прил.+глагол – 7%. Модели числит.+глагол и наречие + глагол – наименее продуктивные [8;2022]. Таким образом, узбекский язык имеет 6 активных моделей, в то время как английский – 10. Также выявлены различия в мотивации: в английском языке более продуктивны мотивированные глаголы, тогда как в узбекском – частично мотивированные [9;24.04.2022]

Заключение и предложения. Сопоставительное исследование сложных глаголов в английском и узбекском языках позволяет сделать вывод о том, что несмотря на типологические различия, оба языка используют аналогичные словообразовательные механизмы. Продуктивность моделей варьируется, но общие тенденции совпадают [10;5 с.]. Эти данные важны для преподавания английского языка узбекским студентам, а также для развития сопоставительной лексикологии [11;1978]. Способ основосложения в английском языке совпадает с морфологическим способом в узбекском языке, где сложное слово образуется непосредственной связью основ. В отличие сложных слов от простых слов и словосочетаний в обоих языках простое слово состоит из одной основы, а сложное слово состоит из двух или более основ. Что касается отличия сложного слова от словосочетаний /свободных и устойчивых, то сложное слово состоит из непосредственно связанных двух или более основ, а словосочетания состоят из грамматической связи двух или более слов. Таким образом, изучив сложные глаголы английского и узбекского языков мы обнаружили многие интересные факты, сходства и различия между этими двумя неродственными языками. Эти факты нам дают право определить, что сравнительное изучение сложных слов английского и узбекского языков перспективными, так как они помогают узбекским студентам в изучении английского языка, а также выявить типологические особенности каждого языка. Это даёт возможность возникновения сопоставительной лексикологии английского и узбекского языков. Предлагается шире использовать компонентный и семантический анализ в образовательной практике, а также развивать словари сложных слов как в английском, так и в узбекском языках [12;1973].

Список использованной литературы:

- (1). Абдурахмонов Ф.А. Ўзбек тили грамматикаси. 1-т, Тошкент, “Фан”, 1975, 366 бет.
- (2). Бодуэн-де Куртенэ И.А. О смешанном характере всех языков. В кн.: Бодуэн-де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. Т. 1, М., “Наука”, 1963, с. 371.
- (3). Буранов Ж.Б. Инглиз ва ўзбек тилларининг қиёсий грамматикаси. Тошкент, 1990, 12-бет.
- (4). Виноградов В.В. О некоторых вопросах русской исторической лексикологии. Известия АН СССР, отд. лит. и яз., 1953, т. 12, вып. 3, с. 193.
- (5). Karimova F.I. Ingliz tilidagi matnlarni tarjima qilishda ma'nolarni berish. “Образование и наука в XXI веке”, Россия, № 24, том 2, март 2022.
- (6). Karimova F.I. Methods of effective use of models in translation of English text into Russian and Uzbek. International Conference of Advance Research in Humanities, Sciences and Education. 28.03.2022, Turkey.
- (7). Karimova F.I. Some innovation in teaching English. International Conference of Advance Research in Humanities, Sciences and Education. 28.03.2022, Turkey.

(8). Karimova F.I. Historical reality in Uzbek literature and discourse analysis of folk songs. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Andijon Mashinasozlik Instituti. ISSN 2181-1539, 2022.

(9). Karimova F.I. Xorijiy tilni o'rganish yangi metodikasi. «Raqqamli hayot va ijtimoiy fanlarning barkamol avlodni voyaga yetkazishdagi o'rni va ahamiyati: dolzarb muammolar va istiqbollar» xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 12 апрель 2022, Andijon.

(10). Мамадалиев Б. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма сўзлар. Қўқон Давлат Педагогика институти илмий ишлар тўплами, Фарғона, 1958, 24-бет.

(11). Ярцева В.Н. Сравнительная типология и её связи с контрастивной лингвистикой. М., «Наука», 1978.

(12). Karimova F.I. Ingliz va o'zbek tillardagi qo'shma fe'llarning semantik tahlili. Andijon Mashinasozlik institute, ISSN 2181-1539, 2022. № 5 (maxsus son, 2-tom).

(13). Karimova F. Some ways to teach young students to speak a foreign language. WOD Journal, Vol. 2, №. 10, Barcelona, Spain, 2024.

(14). Абдурахмонов Ф.А. Ўзбек тили грамматикаси. 1-т, Тошкент, «Фан», 1976.

(15). Амосова Н.Н. Историко-типологический анализ сложного слова в современных германских языках. В кн.: Структурно-типологические описания современных германских языков, М., 1966.

(16). Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. М., «Просвещение», 1966.

(17). Ҳожиёв А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. Тошкент, 1973.

**Солиев Ибодуллохон Исмагуллаевич (Наманганский государственный университет,
докторант (Dsc); ibodullosoliev1981@gmail.com)**

МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ АВТОНОМИИ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА: ОПЫТ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы внедрения институциональной автономии в высших учебных заведениях Узбекистана на основе анализа международного опыта и адаптации его к местным условиям. Автор предлагает модель поэтапного перехода к автономии, включающую академическую, организационную, финансовую и кадровую составляющие. Результаты эксперимента, проведенного в пяти вузах Узбекистана, подтвердили эффективность предложенной модели. На основе полученных данных разработаны рекомендации по внедрению автономии в других вузах страны. Статья представляет интерес для исследователей, занимающихся вопросами управления высшим образованием, а также для практиков, участвующих в реформировании образовательной системы.

Ключевые слова: институциональная автономия, высшее образование, управление вузами, международные стандарты, реформы образования.

O'ZBEKISTONDAGI OLIY O'QUV YURTLARIDA INSTITUT MUSTAQILLIGINI JORIY ETISH MEKANIZMLARI: TAJRIBA, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

